


Res. udan. ch. in. L. un. art.

A. J. Kuprio



TUNGI
BINAESHA

8
shirk



Rus adabiyoti durdonalari

ALEKSANDR IVANOVICH KUPRIN



TUNGI BINAFA SHA

Qissalar, hikoyalar va ocherklar

TOSHKENT – «O‘ZBEKISTON» – 2021

UO'K 821.161.1-31

KBK 84(2Ros=Rus)

K 93

Rus tilidan **Lutfulla OLIMOV, Ma'suma AHMEDOVA, Dilorom ABDURAHMON qizi, Nilufar HAYITOVA, Oygul SUYUNDIQOVA, Abdunabi ABDUQODIROV, Temur TANGRIBERGANOV, Saidjalol SAIDMURODOV, Amir FAYZULLA** tarjimalari

Atoqli rus adibi Aleksandr Ivanovich Kuprinning ijodi doimo qadrlanib kelingan. Zero, xassos adib uchun hayot va ijod bir butunlikda uyg'unlashgan edi.

Mazkur to'plamdan muallifning qalamiga mansub, rus adabiyotida muhabbat mavzusidagi asarlarning go'zal namunasiga aylangan qissalar, bir-biridan ajoyib va g'aroyib hikoyalar, insonlarning og'ir turmushi, ijodkor matlabi haqqoniy tasvirlarda ifodalangan ocherklar joy olgan.

Kuprinning asarlarini mutolaa qilar ekansiz, obrazlarning xilma-xilligi, ularning lirik holatlari, ilohiy tuyg'u hisoblanmish mehr-muhabbatning naqadar sofligi, bularning barchasi insonning irodasi, botiniy hamda ruhiy-ma'naviy dunyosiga bog'liq ekaniga guvoh bo'lasiz.

ISBN 978-9943-7331-0-7

© K.I. Kuprin, 2021

© L. Olimov va b. (tarj.), 2021

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021





YOQUT KO'ZLI BILAGUZUK

I

Avgust o'rtalarida yangi oy to'lishi oldidan Qora dengizning shimoliy sohillariga xos ravishda to'satdan havo aynidi. Goho yer va dengiz ustini bir necha kun qalin tuman bosar, shunda mayoqdagi katta gudok kecha-yu kunduz quturgan buqadek o'kirardi. Goh surunkasiga suv bug'laridek mayda yomg'ir sevalab katta tuproq yo'lni va so'qmoqlarni atalaga aylantirib yuborar, bu yo'llarda arava-yu izvoshlar botib qolar edi. Goh g'arbiy shimol tarafdin, ochiq dala tomondan dahshatli bo'ron esar, bo'rondan daraxt uchlari dam egilib, dam qaddini rostlab dengiz to'lqinidek chayqalardi, dam kechalari bog'lardagi tunuka tomlar taraqlab, go'yo tom ustida nag'al poshnali allakim yurayotganga o'xshardi. Bo'rondan deraza romlari g'ijillab, uy eshiklari taraqlardi va pech mo'rilarini qattiq uvillardi. Baliqchilarning bir nechta barkaslari¹ dengizda adashib qoldi, ikkitasi esa baliq ovidan butunlay qaytib kelmadi, bir haftadan keyin halok bo'lgan baliqchilarning jasadlarini suv qirg'oqqa chiqazib tashladi.

Shahar chekkasidagi, dengiz kurorti aholisining ko'pchiligini tashkil qilgan grek va yahudiyalar shosha-pisha shaharga ko'chib qoldilar. Chunki ular hamma janubliklar singari joni shirin, vahimachi kishilar edi. Pilch-pilch loy bo'lgan katta ko'chadan turli uy-ro'zg'or buyumlari: ko'rpa-to'shak, javon, sandiq, kursilar, yuz-qo'l yuvadigan tos, o'ziqaynarlar ortilgan yuk tashuvchi aravalar uzluksiz o'tib turardi. Xira yomg'ir pardasi orasidan, eskirib uvadasi chiqqandek, iflos va eski bo'lib ko'ringan ro'zg'or lash-lushlariga, aravadagi yuklarning tepasida ho'l brezentga o'ralib, dazmol, tunuka qutichalar va savat ushlab o'tirgan oqsoch xizmatkor xotinlarga, qora terga botib, holdan toyganidan tizzalari qaltirab yurishdan dam-badam

¹ *Barkas* – ko'p eshkakli qayiq.

to'xtayotgan, pishqirib, bug' chiqazib biqini kirib-chiqib turgan ot-larga, yomg'irdan chiptaga o'ralib, bo'g'iq ovoz bilan so'kinayotgan aravakashlarga qarash ayanchli, alamli va jirkanch edi. Undan ham huvillab, befayz bo'lib qolgan chorbog'lar, bargi to'kilgan daraxtlar, buzilgan gul pushtalari, singan oynalar, tashlab ketilgan itlar va ipirindi-sipirindilar, qog'oz, gugurt qutilari, dori shishalar, chinni si-niqlari, popiris qoldiqlarini ko'rish kishi dilini battar siyoh qilardi.

Ammo, hech kutilmaganda, sentyabr boshlarida to'satdan havo ochilib, shamolsiz issiq kunlar boshlandi. Bunday havo iyul oyida ham bo'lmagandi. O'rimdan chiqqan bug'doyzorlarda, tikandek qat-tiq kalta-kalta bug'doy poyalarida mezon oppoq nuqradek yiltirab ko'rinardi. Bo'rondan tinchlangan daraxtlar barglarini itoatkorona, asta-sekin yerga to'kardi.

Zodagonlar sarkorining xotini knyaginya Vera Nikolayevna Sheina, shahardagi uylarida ta'mirlash ishlari tugamaganidan hali bog'dan ko'chib ketmagandi. Hozir u bunday chiroyli kunlar, toza havo, suv quygandek jimlik, tanholikdan, telegraf simlarida issiq o'lkalarga uchib ketish oldidan tizilishib o'tirgan qaldirg'ochlarning sayrashidan va astagina dengizdan esayotgan erkalovchi sho'r sha-badadan g'oyat mamnun edi.

II

Xullasi kalom, bugun o'n yettinchi sentyabr, uning tug'ilgan kuni edi. Bolalikning o'tmish, shirin xotiralarini eslab, shu kunni u hami-sha sevar va undan qandaydir ajoyib baxt kutardi. Eri oshig'ich ish-lar bilan ertalab shaharga ketayotib, pardozi-andoz stoli ustida nok-nusxa dur donalaridan yasalgan ajoyib sirg'a qoldirgan, bu sovg'a uni yana ham quvontirgan edi.

U hozir butun boshli bir uyda tanho o'zi edi. Odatda, ular bilan birga yashaydigan bo'ydoq akasi Nikolay – prokuror muovini ham shaharga, sudga ketgandi. Tushlik ovqatga eri eng yaqin tanish-bi-lishlaridan bir nechtasini olib kelishga va'da bergandi.

Bu kunning yoz fasliga to'g'ri kelishi ko'ngildagidek bo'ldi. Agar bu kunni shaharda nishonlashga to'g'ri kelganda, katta ziyo-fat berilib, u ham mayli-ya, hatto bal berilib, ancha xarajat qilishga

to'g'ri kelardi. Bu yerda, chorbog'da esa marosimni kamharj qilib o'tkazsa bo'ladi. Knyaz Shein jamiyatda durustgina mavqe tutishiga qaramay, topgani tirikchiligiga arang yetardi. Bunga tutgan mavqesi sabab, desa ham bo'lardi. Avloddan avlodga o'tib kelgan hisobsiz yer-mulkni ota-bobolari talon-toroj qilishgandi. Mehmon kutish, in'omlar berish, yaxshi kiyinish, uyida ot tutish va boshqa xarajatlarga uning daromadi yetmasdi. Knyaginya Veraning eriga bo'lgan avvalgi haroratli muhabbati o'rmini allaqachonlar sadoqatli, chin do'stlik tuyg'usi egallagandi. Erini butunlay xonavayron bo'lib ketishdan saqlashga iloji boricha harakat qilardi. U knyazga bildirmay ko'p narsalardan voz kechar va qo'lidan kelgancha tejab-tergab, ro'zg'or tebratar edi.

Hozir u bog'da yurar, ziyofat dasturxoniga qo'yish uchun qaychi bilan avaylab gul kesardi. Gulpushtalar bo'shab qolgan, tartibsiz bir qiyofada edi. Rang-barang seryaproq chinnigullar va yarmi gullagan, yarmi ko'm-ko'k nozik g'uncha holatidagi karam hidli chiroyli shabbo'y gullari yangidan ochila boshlagan edi. Gul butalari bu yoz uchinchi daf'a g'uncha chiqarib gullagan, biroq ular endi hiyla maydalashib, xuddi aynib, siyraklashib qolgandek. Ammo kartoshkagul, sallagul va qo'qongullar qulf urib ochilib yotar, husnini ko'z-ko'z qilar, salqin kuz havosida hazin ko'k maysa islarini sochar edi. Boshqa gullar esa go'yo onadek yozi bilan ardoqlab yetishtirgan son-sanoqsiz urug'larini yerga sekin-asta separdii.

Katta yo'ldan avtomobil uch pardali rojogining¹ tanish tovushi eshitildi. Avtomobilda knyaginya Veraning singlisi – Anna Nikolaevna Friyesse kelayotgandi. U crtalab qo'ng'iroq qilib, mehmonlarni kutib olishga va tayyorgarlik ishlariga qarashishga va'da bergandi.

Ziyrak Vera avtomobil tovushini darrov eshitdi va singlisini kutib olishga chiqdi. Bir necha daqiqa o'tgach, bog' eshigi oldida bejirim avtomobil-kareta taqqa to'xtadi-yu, haydovchi o'tirgan yeridan chaqqonlik bilan sakrab tushib, avtomobil eshigini ochdi. Opa-singil xushchaqchaq ko'rishib o'pishishdi. Ular bolalik chog'laridanoq bir-birlariga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik tuyg'ulari bilan chambarchas bog'langandilar. Shunisi qiziqki, ular bir-birlariga aslo o'xshamasdilar. Vera sohibjamol ingliz onasiga tortgandi, u sarvqo-

¹ *Rojok* – signal, rezinkadan yasalgan surnay.

mat, lekin xushro'y bo'lsa ham, istarasi sovuqroq, xudpisand edi, qo'llari katta bo'lgani bilan bejirim, qadimiy miniatyuralarda uchraydigandek, past yelkalari o'ziga yarashib turar edi. Singlisi Anna, aksincha, mo'g'ul qoniga tortgan, otasi tatar knyazlaridan edi. Bobokaloni XIX asr boshlarida cho'qingan bo'lib, nasl-nasabi Temurga borib taqalardi. Otasi bu jahongirni iftixor bilan Sohibqiron Temur deb atardi. Annaning bo'yi opasinikidan xiyol past, yelkalari kengroq, o'zi yengiltabiat, sho'x odamlarni mazax qilishni yaxshi ko'rardi. Uning yonoq suyaklari chiqqan mo'g'ulcha chehrasi, uzoqni ko'rolmasligidan qisib qaraydigan qiyiq ko'zlari nozik, kichkina og'zi, pastki durdoq lablari unchalik jozibador bo'lmasa ham, u o'zining tabassumi, ayollik latofati, kishini havaslantiradigan nozkarashmalari va o'zi ham sezmay qoladigan sirli go'zalliklari bilan odamni o'ziga asir etardi. Tannoz, lekin turqi sovuqroq bu juvon, opasining zodagonlarcha go'zalligiga qaraganda, erkaklarning hissiyotini ko'proq qo'zg'ab, ularning diqqatini o'ziga tortardi.

Annaning eri badavlat, o'ta nodon, hech qanday ish qilmasa ham, qandaydir xayriya jamiyatiga a'zo, kamer-yunker degan unvonga ega edi. U erini juda yomon ko'rsa ham, undan ikki farzand – bir qiz, bir o'g'il ko'rgandi, keyinchalik esa tug'maslikka ahd qilgan, boshqa bolasi yo'q edi. Vera esa bola ko'rishni juda ham istar, nazarida, qancha ko'p farzand ko'rsa, shuncha yaxshi bo'ladigandek ko'rinar, ammo nechundir u tug'mas va hamisha singlisining qonsiz, oq yuzli, qo'ng'iroq sochiga o'xshash jingalak sochli, yuvosh, yovqimtoy bolalariga parvona bo'lib, aylanib-o'rgilar edi.

Anna sho'xlik, dilkashlikdan boshqani bilmas, g'alati-g'alati qiqliqlar qilar edi. U butun poytaxt shaharlar va Yevropaning hamma kurortlarida bo'lgan, qaltis o'yinlarga berilib ketaverar edi. Biroq oldidan ham, orqasidan ham nafratlanib masxara qiladigan eriga hech qachon xiyonat qilmagandi. U isrofgarchilikni, qimor va raqsn hamda ta'sirli qiziq tomoshalarni yaxshi ko'rardi. Chet ellarda xilvatdagi qahvaxonalarga borib turardi. Biroq Xudoga qattiq ishonishi va yaxshi fazilatlar bilan boshqalardan ajralardi, hatto u maxfiy ravishda katolik dinini qabul qilgandi. Uning beli, ko'ksi va yelkalari g'oyat chiroyli edi. Katta bazmlarga borganda, o'sha zamondagi urf va odob chegarasidan chiqib, badan va bilaklarini ochib qo'yardi.



Ammo odamlar o'yma yoqali ko'ylagi ostidan hamisha xirqa kiyib yuradi, deyishardi.

Vera esa juda sodda, seriltifot, beparvo, odamlarga viqor bilan muomala qilardi.

III

– Turgan joylaring munchayam chiroyli-ya? Ey Yaratgan Tangrim... Biram yaxshiki! – derdi Anna opasi bilan tez-tez, mayda qadam tashlab borarkan. – Opa, agar bemalol bo'lsa, jar yoqasidagi o'rindiqda birpas o'tirsak. Men anchadan beri dengizni ko'rmadim. Dengiz havosi shunday musaffo, ajoyib havoki, bu havodan nafas olgan saring, baxri-diling ochiladi. O'tgan yili yozda men Qrimda, Mixorda ajoyib bir narsani kashf etdim. Bilasizmi, dengiz suvi qirg'oqqa urilib chayqalganda, qanday hid chiqazadi? Buni qarang... qalampirgul hidini chiqazarkan!

Vera yoqimli jilmaydi:

– Xayolparastsan.

– Yo'q, yo'q. Esimda turibdi; bir mahal oy nurida qandaydir pushtirang tus bor, deganimda, hamma meni mazax qilib kulgandi. Yaqinda portretimii chizayotgan rassom Boritskiy mening fikrimga qo'shilib, rassomlar buni ko'pdan bilishadi, dedi.

– Rassom? Yangi xushtoringmi?

– Ko'nglingizga nuqul shunaqa gaplar keladi! – deb kulib yubordi Anna va tez-tez yurib, dengizga tikka tushgan jar yoqasiga yaqinlashdi-da, pastga qaradi va qo'rqib, tuyqus qichqirib yubordi. Anna rangi quv o'chib, o'zini orqaga tashladi.

– Jahannam-ku! – dedi u zaif, titroq ovozd. – Shunaqa balandlikdan pastga qaraganimda, yuragim shuv etib, etim jimirlab ketadi. Shunga qaramay, nuqul qaragim keladi.

U yana jar yoqasidan engashib qaramoqchi bo'lgandi, opasi uni to'xtatib qoldi.

– Anna, jonginam, Xudo xayringni bersin, qo'y bu ishingni, o'tir. Seni jar yoqasiga borib pastga qaraganingni ko'rib, meniyam boshim aylanib ketyapti...

– Xo'p, xo'p, mana, o'tirdim. Qarang, qanday ajoyib, go'zal joylar, qarab hech ko'zing to'yamaydi-ya. Bizga atab bunyodga kel-



tirgan barcha ajoyib ishlari uchun Xudoga ming-ming shukur qilishimni koshki bilsangiz!


Ikkovlari bir lahza sukut saqlab, o'ylanib qolishdi. Ularning ko'z oldida jahannamdek chuqurda sokin dengiz oqardi. O'rindiqdan qirg'oq ko'rinmasdi, shuning uchun dengiz sathining ulug'vorligi va bepoyonligi yana ham yaqqol ko'rinardi. Ko'm-ko'k suv tinch va sho'x jilva qilib ohista oqar, oqim o'tayotgan joylardagina ilang-bilang chiziqlar paydo bo'lar, ufqda esa quyuv moviy tusga aylanar edi. Arang ko'z ilg'aydigan baliqchilarning qayiqlari juda kichkina bo'lib ko'rinar, qirgoqqa yaqin dengiz betida go'yo harakatsiz turgandek tuyular edi. Undan nariroqda oq, chiroyli yelkanlari shamoldan pufak bo'lib chiqqan uch machtali kema osmonda muallaq turgandek qimir etmasdi.

– Men ko'nglingni bilaman, – dedi o'ylanib opasi, – ammo negadir mening ko'nglim boshqacharoq. Men dengizni uzoq vaqt ko'rmay, keyin ko'rsam, u meni ham hayajonlantiradi, shodlantiradi va hayratda qoldiradi. Go'yo men haybatli, dabdabali mo'jizani birinchi marta ko'rayotgandek bo'laman. Dengizga ko'nikib qolganimdan keyin esa, kimsasiz bepoyon dengiz meni eza boshlaydi... Dengizga qarab diqqinapas bo'la boshlayman va qaramaslikka harakat qilaman. U joningga tegadi.

Anna kuldi.

– Nega kulasan? – deb so'radi opasi.

– O'tgan yili yozda, – dedi Anna ayyorona kulib, – biz bir necha kishi otlarda Yaltadan Uch Qushga borgandik. Bu katta bir shalola-ning tepasidagi o'rmonzor orqasidagi joy. Biz dastlab tuman ichiga kirib qoldik, havo namxush va hech narsani ko'rib bo'lmasdi. Biz qarag'ayzordan o'tib, tikkasiga ketgan so'qmoq bilan balandga ko'tarildik. Shu payt birdan o'rmonzor tugab, tuman orasidan chiqdik. Bunday qarasak, qoya ustida tor yo'lda turibmiz, ostimizda esa tagi yo'q, jahannamdek chuqurlik. Pastdagi qishloqlar gugurt qutisidek, o'rmonzor va bog'lar maysa o'tdek kichkina bo'lib ko'rinadi. Bu joy xuddi jo'g'rofiya xaritasidagidek dengizga kelib tushadi, ellik yoki yuz chaqirimcha oldinda esa – dengiz! Nazarimda, men havoda osilib turgandek va hozir uchib ketadigandek edim. Tevarakatrof shu qadar so'lim ediki, o'zimni qushdek yengil his qildim. Shu



payt orqamga o'girildim-u, bizni kuzatib kelgan yo'lboshlovchiga zavq bilan: «Qalay, Said o'g'li, yaxshimi?» – dedim. U bo'lsa tilini qoqib: «E... xonim, bularning hammasi zig'ir yog'dek jonga tegdi, har kuni ko'ramiz», – dedi.

– Taqqoslashingga balli-ye, – dedi kulib Vera. – Men faqat biz, shimolliklar baribir dengiz go'zalliklarini hech qachon tushunib yetmaymiz, dedim, xolos. Men dengizdan ham ko'ra o'rmonni yoqtiraman. Yegorovskiydagi o'rmonzorimiz esingdami?.. U nahotki odamni zeriktirib qo'ysa? Qarag'aylarni aytmaysanmi!.. Moxlar-chi, ular qanday chiroyli! Zaharli qo'ziqorinlarni aytmaysanmi? Xuddi qip-qizil atlasga, oppoq munchoqlar tikilganga o'xshaydi! O'rmon qanday salqin va sokin!

– Menga baribir, men hammasini yaxshi ko'raman, – dedi Anna. – Ammo hammadan ham opamni, dono opajonim Verani yaxshi ko'raman. Axir, yorug' dunyoda faqat ikkimiz, xolos.

U opasini quchoqlab, yuzini yuziga qo'yib, pinjiga tiqildi, shu payt nimadir esiga tushib qoldi:

– E, qanday esi pastman-a! Romanlardagidek tabiat go'zalliklari to'g'risida suhbatlashib o'tiribmiz-a. Men jinni, olib kelgan sovg'amni butunlay unutibman. Mana, ko'ring, sizga yoqarmikin?

U qo'lidagi sumkasidan ajoyib muqovali kichkinagina yon daf-tarcha oldi, uning vaqt o'tishi bilan o'ngib, sarg'ayib ketgan ko'k duxoba jildida juda chiroyli, nodir va nafis tilla bezak jimirlab ko'rinardi. Aftidan, bu sabr-qanoatli katta bir san'atkor rassomning mehr-muhabbat qo'yib qilgan ishi bo'lsa kerak. Yon daf-tarchaning ingichka ipdek oltin zanjiri bo'lib, varaqlari fil suyagidan qilingandi.

– Qanday ajoyib-a! Munchayam chiroyli! – dedi Vera va singli-sini o'pib qo'ydi. – Rahmat. Bunday qimmatbaho narsani qayerdan topding?

– Qadimgi nafis va kam uchraydigan san'at mollari sotiladi-gan bir do'konchadan oldim. Eski narsalarni titkilaydigan yaramas odatim borligini o'zingiz bilasan-ku. Shu duo kitobchasini uchra-tib qoldim. Ko'ryapsizmi, manavi yeridagi naqsh butga o'xshaydi. To'g'risini aytсам, men faqat bir muqovasini topdim, qolganlarini – ya'ni varaq tugmachalari, qalam va boshqalarni o'ylab, yangidan ya-satishga to'g'ri keldi. Ammo Molline aytganlarimga hech ko'nmedi,

mana, ilmatugmachalar, muqovadagi bezakdek yaraqlamaydigan eski tilladan nafis o'ymakorlik usulida ishlanishi kerak edi, u bo'lsa bu yerini allambalo qilib qo'ydi. Lekin hechqisi yo'q, zanjiri juda eski, venetsiancha.

Vera bu ajoyib yon daftarchaning muqovasini silab-siypab:

– Juda qadimiy buyum!.. Bu kitobchanning ishlanganiga qancha vaqt bo'ldiykin? – dedi.

– Aniq aytish qiyin. Taxminan o'n yettinchi asrning oxiri, o'n sakkizinchi asrning o'rtalarida ishlangan bo'lsa kerak.

– Taajjub, – dedi Vera o'ylab, jilmayib. – Men ushlab turgan narsaga ehtimol bir zamonlar markiza Pompadur¹ yoki qirolicha Antuanetaning² qo'li tekkandir. Ammo, bilasanmi, Anna, duo yozilgan kitobchani sarnetga³ aylantirishdek ajoyib fikr faqat sening xayolingga kelishi mumkin. Ha, mayli... Qani, yur, borib ko'raylik, uyimizda nima qilishyaptiykin?

Opa-singil uchlari bir tekis qirqilgan «izabella» navli qalin toklar bilan har tomoni o'ralgan, tosh yotqizilgan tekis yerdan o'tib, uyga kirishdi. Serhosil qora charos boshlaridan andak qulupnay hidi anqir, ular oftob nurlari ola-chalpoq bo'lib tushib turgan tok barglari orasida, og'irligidan uzilay-uzilay deb turardi. Tosh yotqizilgan tekis sahnda xira ko'k ziyo jimirlab turardi, buni ko'rib opa-singilning chehralari yorishib ketdi.

– Dasturxonni shu yerda tuzashga buyurasizmi? – deb so'radi Anna.

– Ha... Avvaliga men ham shunday o'ylagandim, ammo hozir oqshomlari sovuq tushyapti. Yaxshisi, yemakxonada dasturxon tuzash kerak. Bu yerga esa erkaklar chekishga chiqishadi.

– Ziyofatda tuzukroq odamlar ham bo'ladimi?

– Kimlar kelishini o'zim ham bilmayman. O'zimizning bobomiz kelishinigina bilaman.

¹ *Markiza Pompadur, ya'ni Janna-Antuanetta Puasson (1721–1764)* – fransuz qiroli Lyudovik XV ning saroyida 20 yildan oshiq vaqt mobaynida davlat ishlari hamda ilm-fan va san'atga ta'sir ko'rsatgan freylina.

² *Qirolicha Antuanetta yoki Mariya-Antuanetta (1755–1793)* – Fransiya va Navarra qirolichasi, imperator Frans I va Mariya-Tereziyaning kenja qizi. Aksilinqilobiy fitnalarda ayblanib, gilotinada qatl etilgan.

³ *Sarnet* – yon daftarcha (*fr.*).

– Oh, buvajonim, azizim! Qanday yaxshi-ya! – dedi Anna va sevinganidan chapak chalib yubordi. – Nazarimda, uni ko'rmaganinga yuz yil bo'lganga o'xshaydi.

– Yana Vasyaning opasi va professor Speshnikov kelsa kerak. Anya, kecha esimni yo'qotishimga sal qoldi. Bilasanmi, buvamiz ham, professor ham juda xo'randa. Biroq bu yerdayam, shahardayam har qancha pulga hech narsa sotib ololmaysan. Luka tanish ovchi oshnasiga aytirib, qayerdandir bedana topipti, bedanadan biror mazali ovqat pishirmoqchi. Mol go'shtidan pishirilgan qovurmam, lazzatli bo'lgan qisqichbaqalaram juda mazali.

– Har qalay, chakkimas-ku. Tashvishlanmay qo'ya qoling. Darvoqe, gap shu yerda qolsin-u, sizdayam ovqat tanlashda bir kamchilik bor.

– Ha, ziyofatda yana ba'zi bir noyob narsalar ham bo'ladi. Bugun ertalab baliqchi xo'rozga o'xshash dengiz balig'ini olib keldi. Buni o'zim ko'rdim. Judayam bahaybat, mudhish bir maxluq ekan. Ko'rsang, qo'rqib ketasan.

O'ziga taalluqli bo'lsa ham-bo'lmasa ham har narsaga qiziqadigan Anna shu ondayoq, baliqni tez ko'rsatasizlar, deb turib oldi.

Soch-soqoli qirilgan, novcha, sariq oshpaz kattakon, uzunchoq oq jomni. suvi chayqalib etagiga to'kilmaligi uchun uning qulog'idan ehtiyot qilib ushlab, arang ko'tarib keldi.

– O'n ikki yarim qadoq chiqdi, bekam! – dedi pazandalarga xos g'urur bilan oshpaz. – Boya biz tortib ko'rdik.

Baliq dumini qayirib tog'ora tubida yotardi. Uning tangalari kumushdek yarqirar, qantolari och qizil tusda edi, kattakon yovvoyi og'zidan yelpig'ichdek ikkita qavatma-qavat mayin, uzun qanot yonboshiga qarab o'sib chiqqandi, hali tirik, zo'r berib oyquloqlarini qimirlatardi.

Anna baliqning boshiga sekingina jimjilog'ini tekkizgandi, baliq birdan dumi bilan suvni shaloplatib sachratib yubordi. Anna chinqirib qo'lini tortib oldi.

– Ko'nglingiz to'q bo'lsin, bekam, mehmondorchilikni qoyil qilamiz. – dedi oshpaz, aftidan, Annaning tashvishlanganini payqab. – Hozir, bulg'or ikkita qovun olib keldi. Ko'rinishidan go'yo kantaluva naviga o'xshasa-da, lekin hidi shirin. Yana jur'at etib, sizdan

so'ramoqchimanki, bekam, baliqqa qanday qayla tayyorlashni buyurasiz, tartarmi yo polyakchami? Yoki qoqnonni yog'da qovurib beraymi?

– Bilganingni qil, – dedi knyaginya. – Bora qol endi!

IV

Soat beshdan keyin mehmonlar to'plana boshladilar. Knyaz Vasiliy Lvovich o'zi bilan birga beva singlisi Lyudmila Lvovnani, erining familiyasi bo'yicha Durasovani, semiz, rahmdil va odatdan tashqari kamgap ayolni; oqsuyaklardan chiqqan yosh, badavlat, bor-yo'g'ini sovurishdan toymaydigan tanti Vasyuchokni – u jamoatchilik o'rtasida yoqimli ashulalar aytishi, kitobni ifodali o'qishi, jonli kartina, spektakllar ko'rsatishi vajidan butun shaharga dong taratgandi; knyaginya Veraning Smolniydagi institutda birga o'qigan dugonasi mashhur pianinochi Jenni Reyterni va qaynisi Nikolay Nikolayevichni olib keldi. Ulardan keyin, avtomobilda soch-soqollari qirilgan, xunuk, semiz professor Speshnikov va mahalliy vitse-gubernator Fon Zekk bilan Annaning eri keldi. Hammadan keyin hashamatli kirakash izvoshda general Anosov keldi. Generalni ozg'in, bevaqt keksaygan, idoraning og'ir ishidan surobi to'g'rilangan, serjahl shtab polkovnigi Ponamaryov bilan Peterburgda eng yaxshi raqqos va bazm boshqarishda tengi yo'q deb nom chiqargan otliq askarlar gvardiya poruchigi Baxtinskiy kuzatib kelishdi.

Sochlariga oq oralagan, novcha, barvasta chol general Anosov bir qo'li bilan peshtaxtani, ikkinchi qo'li bilan izvoshning orqa tomonini ushlab, izvosh zinasidan arang tushdi. Uning chap qo'lida eshitish apparati, o'ng qo'lida esa uchi rezinka bilan qoplangan hasasi bor edi. Uning yuzi barkashdek katta, qizil burni go'shtdor edi, shafqatli, qisq ko'zlarida o'lim va xavf-xatarlarni ko'p ko'rgan jasur va sodda odamlarnikidek andak istehzo alomati yiltirab ko'rinardi.

Yiroqdan generalni ko'rib hamshiralar yugurib kelib hazil-huzul bilan uning ikki qo'ltigidan qo'ltiqlab, izvoshdan tushishiga ko'maklashdilar.

– Avliyodek izzat qildingiz-ku! – dedi general yoqimli, sal-pal xirxiragan ovoz bilan.

– Otaxon! Azizim! – dedi Vera gina qilgandek ohangda. – Har kuni sizni kutamiz. Siz bo'lsangiz loaqal sharpangizniyam ko'rsatmaysiz.

– Janubda otaxonimiz vijdonini yo'qotib qo'ydi, – deb kuldi Anna. – Har nechuk cho'qintirgan qizingizni yo'qlab tursangiz bo'lardi. Siz bo'lsangiz o'zingizni Don Juandek chetda tutasiz... Bizni butunlay unutib yubordingiz, shuyam ish bo'ldimi!

General boshidan qalpog'ini olib, opa-singilning galma-gal qo'lidan, keyin yuzlaridan va yana qo'llaridan o'pdi.

– Qizlar... Shoshilmang... Urishmanglar meni, – dedi u eski bo'g'ma kasalidan harsillab, har bir so'zni bo'lib-bo'lib gapirarkan.

– Rost gapni aytsam... dardisar do'xtirlar yozi bilan bodimni... qandaydir sassiq balchiqda yuvib, cho'miltirib davolashdi... Hech qayoqqa chiqazishmadi... Dastlab, mana, sizlarnikiga keldim. Sizlarni ko'rganimdan... juda xursandman. Xo'sh, o'ynab-kulib yurib-sizlarmi?... Sen-chi... Verochka, husni barkamol qiz bo'libsangiz... Onang rahmatliga juda o'xshabsangiz... Chaqaloqni cho'qintirish marosimiga qachon chaqirasangiz?

– Hech qachon chaqirmasman deb qo'rqaman, otaxon!

– Noumid bo'lma... hali o'n gulingdan bittasiyam ochilmagan. Xudoga iltijo qil. Cho'qin... Sen bo'lsang, Anna, hech o'zgarmabsangiz... Oltmishga kirganingdayam, hozirgidek chur-chur so'zhanak bo'lib qolaverasangiz. Qarimaysangiz. To'xtanglar-chi. Sizlarni janob zobitlar bilan tanishtirmabsangiz...

– Men tanishish sharafiga allaqachon noil bo'lgandim! – dedi polkovnik Ponamaryov ta'zim qilib.

– Xonim bilan men Peterburgda tanishganman, – deb qo'shib qo'ydi ikkinchi zobit.

– Xo'p, Anya, senga poruchik Baxtinskiyni tanishtiraman. U raqs tushishga juda usta va katta to'polonchi. Ammo yaxshi suvoriy. Qani, Baxtinskiy, izvoshdagi sovg'a-salomni ol-chi!.. Yuringlar, qizlar... ketdik. Verochka, xo'sh, meni nima bilan mehmon qilasangiz? Ishtaham karnay...

General Anosov marhum knyaz Mirza-Bulat Tuganovskiyning quoldosh o'rtog'i va sodiq do'sti edi. Knyazning o'limidan keyin u o'z qalbining eng samimiy mehr-muhabbati va haroratini uning

qizlariga bag'ishladi. U Mirza-Bulat Tuganovskiyning qizlarini go'dakligidanoq bilar, kichkina Annani esa hatto o'zi cho'qintirgan edi. O'sha kezda K. shahridagi katta harbiy qal'aning qutvolisi edi va har kuni Tuganovskiylarnikida bo'lardi. Qizlar uni hazilkashligi, sovg'a-salomlari, sirk-teatr lojalariga chiptalar olib kelishi uchun yaxshi ko'rishardi. Hech kim Anosov singari ularning ko'nglini ocholmasdi. Hammadan ham uning harbiy yurishlar, hujumlar, g'alaba va chekinishlar, o'lim, yaralanish, dalalarda qo'nishlar va zamharir sovuqlar to'g'risidagi, kechki choydan keyin bolalarni yotqizishgacha bo'lgan zerikarli paytlarda shoshmay aytadigan qahramonlik qissalari qizlarni maftun etib, ularning xotiralariga chuqur o'mashib qolardi.

Qarib-chirigan bu chol shu zamon odamlarining tabiatlariga ko'ra bahodir va odatdan tashqari go'zal siymo edi. Bu cholda, hatto o'z zamonasining zobitlaridan ko'ra, oddiy askarlarida ko'proq uchraydigan sodda, ayni damda eng oliyjanob, yuksak insoniy fazilatlar mavjud edi. Faqat rus mujiklarigagina xos bo'lgan ana shu fazilatlar jam bo'lib porloq bir siymoni bunyod etadi, soddadillik, shumlikni bilmaslik hayotga umid ko'zi bilan ro'y-rost qarash, shonshuhratga uchmay, asl fidokorlik ko'rsatish, o'limdan tap tortmaslik, mag'lublarga achinish, sabr-toqatlilik, jismoniy va ma'naviy chidamlilik, hammasi bir bo'lib ba'zan askarimizni bahodir qilibgina qolmay, balki uni jabrdiyda, avliyo qilib ham qo'yadi.

Anosov polyak urushidan boshlab, yapon urushidan bo'lak hamma urushlarda ishtirok etdi. U yapon urushiga ham ikkilanmasdan borardi-yu, biroq uni xizmatga chaqirishmadi. Uning o'ziga xos: «Chaqirmagunlaricha o'limga o'zingni urma», degan kamtar qonuni bor edi. Harbiy xizmatda bo'lgan davrida u o'z itoatidagi askarni qilich bilan chopish u yoqda tursin, hatto urmagan ham edi. Polyak qo'zg'oloni davrida, bir kuni u polyak qo'mondonining shaxsiy buyrug'iga qaramay, asirlarni otishdan bosh tortgandi: «Josus bo'lgandaydi, otib tashlashginamas, agar buyursangiz, bo'g'ib o'ldirardim. Biroq manavi asirlarga kelganda, ojizman», dedi. Bu so'zlarni u tiniq ko'zlari bilan to'ppa-to'g'ri boshliqning ko'zlariga tikilib, hovliqmay, shunday sodda, ravon qilib aytdiki, oqibatda qo'mondonning buyrug'ini bajarmagani uchun otilish o'mniga omon qoldi.

1877–1879-yillarda bo‘lgan urush davrida, u o‘zining kam ma‘lumotliligi yoki o‘zining ta‘biricha, «ayiq akademiyasi»ni bitirishiga qaramay, tez kunda polkovnik darajasiga ko‘tarildi. U Dunay daryosidan kechib o‘tishda qatnashli. Bolqon tog‘laridan o‘tdi. Shipkada biqinib yotdi, Plevnada bo‘lgan so‘nggi jangda ishtirok etdi, bir marta og‘ir, to‘rt marta yengil yarador bo‘ldi, bundan bo‘lak bomba portlashi oqibatida boshidan qattiq lat yedi. Uni Radetskiy bilan Skobelev shaxsan tanir va juda hurmat qilishar edi. Bir marta Skobelev: «Men o‘zimdanda ham jasurroq bir zobitni taniyman, u ham bo‘lsa mayor Anosov», deb xuddi shu odam to‘g‘risida aytgandi.

Urushdan u granata portlashi tufayli deyarli kar bo‘lib, Bolqon tog‘laridan o‘tishda sovuq oldirgan oyog‘ining uch barmog‘ini kes tirib, xasta oyoq va Shipkada orttirgan bod kasali bilan qaytdi. Uni ikki yillik tinch xizmatdan keyin iste‘foga chiqazishmoqchi edilar-u, biroq Anosov sarkashlik qilib, oyog‘ini tirab turib oldi. Bu ishga Dunay daryosidan kechib o‘tilganda o‘zini yo‘qotmay sabot va matonat ko‘rsatgani va jasurligining jonli guvohi, viloyat boshlig‘i o‘z mavqesidan foydalanib yordam ko‘rsatdi. Peterburgda xizmat ko‘rsatgan bu polkovnikni xafa qilmaslikka qaror qilishib, unga davlat mudofaasiga qaraganda ancha faxrliroq vazifani, ya‘ni umrbod K. shahri-ning qutvolisi vazifasini berishdi.

Shaharning kattadan kichigigacha uni tanir va uning odatlari, qiliqlari, kamchiliklari ustidai beg‘araz kulishar edi. U hamisha qurolsiz, etagi uzun eski urfdagi kamzul, katta soyabonli serbar furajka kiyib, o‘ng qo‘lida hassa, chap qo‘lida eshitish apparatini olib yurar, yonida esa hamisha uchi tishlangan tilini osiltirgan semiz, beg‘am, ovozi xir-xir qiladigan, tumshug‘i yalpoq itlari bo‘lardi. Agar u o‘zining ertalabki sayri vaqtida tanishlari bilan uchrashib qolsa, bir necha daha naridan ketayotgan yo‘lovchilar qutvolining qichqirishini va uning ketidan tumshug‘i yalpoq itlarining birvarakayiga akil-lashlarini eshitardilar.

Aksar qulog‘i og‘irlar singari u operaga ishqiboz edi va ba‘zan birorta duet aytilganda, uning: «Barakalla, shovvoz... qoyil qilding», degan ovozi teatr bo‘ylab yangrardi, shunda teatrdagi odamlar piqillab kulib yuborishardi, general esa soddaligidan go‘yo o‘z taas-

surotini yonida o'tirgan kishiga pichirlab aytgandek pinagini ham buzmasdi.

U xir-xir ovoqli ko'ppaklari bilan bosh avaxtaga tez-tez kelib turardi, chunki bu uning zimmasidagi vazifa edi. Bu yerda qulaygina xonada, og'ir harbiy xizmatidan charchagan mahbus zobitlar choyxo'rlik qilishib, turli qiziq-qiziq hikoyalar aytishib, hordiq chiqazishardi. U har qaysi mahbusdan: «Familiyang nima, seni kim qamadi? Qamoq muddating qancha? Nima sababdan?» – deb surishtirardi. Goho hech kutilmaganda qonunga xilof ish qilgan shovvoz zobitni maqtardi, goho qisti-bastiga olib shunday qichqirib so'kardiki, uning ovozi ko'chaga ham eshitilardi. Biroq to'yganicha baqira-baqira ko'ngli joyiga tushgach, shu ondayoq zobitga qayerdan ovqat keltirayotganlarini va ovqatga u qancha pul to'layotganini so'rardi. Goho o'zida avaxtasi bo'lmagan biror chekka joydan xato ish qilib uzoq muddat bilan qamoqqa yuborilgan podporuchik puli yo'qligidan «askarlar qozoni»dan foydalanayotganini aytganda, Anosov harbiy qamoqxonadan ikki yuz qadamcha naridagi qutvoli uyidan haligi bechoraga ovqat keltirishga buyruq berardi.

K. shahrida u Tuganovskiylar oilasi bilan inoqlashib, uning bolalari bilan shunday topishib ketdiki, ularni har oqshom ko'rish Anosov uchun ma'naviy ehtiyojga aylandi. Agar qizlar biror yoqqa ketishgan bo'lsa yoki general xizmat bilan ovora bo'lib, borolmay qolsa, Anosov ularni yurakdan samimiy sog'inari va qutvoli uyining keng xonalari unga tor tuyulib, o'tirishga joy topolmas edi. Har yoz u ta'tilga chiqar va bir oy vaqtini Tuganovskiylarning yer-mulkida – K. shahridan ellik chaqirim naridagi Yegorovskiyda o'tkazar edi.

U qalbining eng nozik his va mehr-muhabbatini Tuganovskiyning bolalari, ayniqsa, qizlari uchun bag'ishladi. Qachondir, bir mahallar uning xotini ham bo'lgan, ammo bunga ko'p zamonlar o'tganidan uni esidan chiqazib yuborgan edi. Urush boshlanmasdan burun generalning xotini o'tkinchi bir aktyorning baxmal kurtka va to'rli qadama yengining asiri bo'lib, u bilan qochib ketgan. U xotini o'lgunga qadar unga nafaqa yuborib turgan, ammo xotini qaytib kelishiga yo'l qo'ymagan edi. Ular farzand ko'rishgan edi.

Kutilmaganda oqshom juda sokin va iliq bo'ldiki, hatto ayvon va yemakxonadagi shamlar ham lipillamay tinch yonardi. Ovqatdan keyin knyaz Vasiliy Lvovich qiziq gaplar aytib hammaning dilini xush qildi. Unda hikoya aytish odatidan tashqari, o'ziga xos o'tkir qobiliyat bor edi. U hikoyasiga ayrim bo'lib o'tgan voqeani olar, unda bosh rollarni shu yerda o'tirganlardan yoki tanishlardan biri ijro etar edi. Ammo bir gapga o'nni qo'shib jiddiy ohangda shunday boplab hikoya qilardiki, tinglovchilarning kulgidan ichagi uzilay derdi.

Bugun u boy va chiroyli xotinga uylanmoqchi bo'lgan Nikolay Nikolayevichning muvaffaqiyatsizlikka uchragan to'yi to'g'risida hikoya qilardi. Hikoyaning asosiy mazmuni ayolning eri ajrim qog'ozi bermasligida edi. Knyaz gapirganda rost gaplar yolg'on-yashiq gaplar bilan ajoyib sur'atda qo'shib ketardi. Hikoyasida jiddiy, takabbur Nikolayni yarim kechada kavushini qo'litiqlatib, oyoqyalang ko'chada yugurtirib qo'ydi. Qayerdadir bir burchakda yigitchani mirshab ushlaydi... Nikolay uzoq vaqt izoh berib o'g'ri emas, prokuror muovini ekanini isbotlashga muvaffaq bo'ladi. Hikoyachining gapiga qaraganda, to'y bo'lishiga sal qolgan, ammo ish nozik paytida, to'yga bosh bo'lgan ashaddiy yolg'onchi guvohlar qo'qqisdan ish haqini oshirishni talab qilib qolishadi. Nikolay xasislik qiladi (u haqiqatdan ham ziqna edi), u ish tashlashlarga mutlaqo qarshi odam bo'lganidan, kassatsiya¹ departamenti tasdiqlagan qonunning ma'lum moddasini bahona qilib qo'shimcha pul berishdan uzil-kesil bosh tortadi. Shundan keyin yolg'on guvohlik bergan odamlar: «Shu yerda ishtirok etayotgan kishilardan birortasi nikohga monelik qiluvchi biror dalil ko'rsatolmaydimi?» degan ma'lum savolga hammalari baravariga: «Ha, ko'rsatamiz. Sudda qasamyod qilib bergan hamma guvohlik bayonotimiz – qip-qizil yolg'on. Bunga bizni janob prokuror zo'rlik bilan, do'q qilib majbur qilgandi. Ayolning eri to'g'risida, uni yaxshi bilganimiz holda, faqat shuni ayta olamizki, u Yusuf payg'ambardek dunyoda eng mo'tabar, ma'sum va farishtadek sof odam», deb javob berishdi. Knyaz Vasiliy gapni er-xotin

¹ Shikoyat arizasiga muvofiq, yuqori sud organi tomonidan quyi sud hukmini qayta ko'rish yoki bekor qilish tartibi.

o'rtasidagi mojarolar, qo'ydi-chiqdi nikoh masalalariga burib, An-naning eri Gustav Ivanovich Friyesseni ham ayamadi, u to'ydan bir kun o'tgach, xotinining ota-onasi uyiga kelib yangi olgan xotinining pasporti yo'qligini sabab qilib, mirshab yordamida uni ota-onasining uyidan chiqazib, qonuniy erining uyiga ko'chirishlarini talab etga-nini hikoya qildi. Bu latifadagi haqiqat faqat shu ediki, Anna erga chiqqandan keyin oradan bir-ikki kun o'tgach, tobi qochib qolgan onasining oldida muttasil bo'lishiga ehtiyoj tug'ildi, chunki opa-si Vera oshig'ich ravishda janubdagi uyiga jo'nab ketgan, bechora Gustav Ivanovich bo'lsa bundan ta'bi xira bo'lib, g'am-g'ussaga botgan edi.

Hamma kuldi. Anna ham ko'zini suzib jilmaydi. Gustav Ivano-vich qattiq ovoz bilan haholab tantana bilan kuldi. Uning yiltiroq, tarang tortilgan silliq, ozg'in yuzi, siyrak oq sochlari bilan ichiga cho'nqir tushgan ko'z kosasi va kulganda og'zi ochilib, ko'ringan xunuk tishlari – odamning quruq bosh suyagiga o'xshardi. U shu damgacha Annani, dastlabki uylangan paytlaridagi kabi ko'z qora-chig'idek asrar, ziyofatlarda uning yoniga o'tirishga harakat qilar, sezdirmay xotiniga suyaklab o'tirar va unga shunday muhabbat bilan o'z-o'zidan mamnun bir qiyofada xushomad qilardiki, unga qaragan odam ham achinardi, ham o'ng'aysizlanardi.

Vera Nikolayevna stoldan turarkan, beixtiyor mehmonlarni sa-nadi. Ular o'n uch nafar edi. U diniy xurofotlarga ishongan ayol bo'lganidan: «Mana bu yaxshi bo'lmadi. Nega avvalroq ularni sa-nash xayolimga kelmadi ekan? Bunga Vasya aybdor – telefonda hech narsa demadi», deb xayolidan o'tkazdi.

Yaqin tanishlar Sheinlarnikida yoki Frissse-larnikida to'plangan kezlarida ovqatdan keyin odatda qartada poker o'yinini o'ynashardi: chunki hamshiralar qaltis o'yinlarni juda ham yaxshi ko'rishardi. Har ikki xonadonda bu borada o'z qoidalari bor edi: har bir qar-ta o'ynovchiga ma'lum bahodagi suyak halqachalar bab-baravar taqsimlanardi-da, to bu suyak halqachalarning barchasi bir kishi-ning qo'liga o'tguncha o'yin davom etardi, agar o'ynovchilar yana o'ynaymiz deb oyoq tirab olmasalar, halqachalar bir kishining qo'liga o'tgach, o'yin tamom bo'lardi. Kassadan ikkinchi daf'a su-yak halqachalarni olish qat'iy man qilinardi. Bunday qattiq qonunni

qimorda qizishib ketadigan knyaginya Vera bilan Anna Nikolayevnani «no'xtalash» uchun o'ylab topqandilar. Ular ba'zan yuz-ikki yuz so'mlab pul yutqazdilar.

Bu gal ham poker o'ynashga o'tirishdi. Vera o'yinga ishtirok etmay, xizmatkor ayollar choyga dasturxon tuzayotgan ayvonga chiqmoqchi bo'lib turganida, sirli bir chehra bilan oqsoch uni mehmonxonadan imlab chaqirdi. Knyaginya Vera yotoqxonaga yonidagi kichkina kabinetiga chiqayotib norozi ohangda so'radi:

– Ha, nima gap, Dasha? Nega rangingiz o'chib ketdi? Qo'lingizdagi nima?

Dasha oq qog'oz bilan yaxshilab o'ralgan va pushti lenta bilan puxta bog'langan kichkinagina, to'rtburchakli bir narsani stol ustiga qo'ydi.

Oqsoch sholg'omday qizarib, ming'illadi:

– Xudo haqqi, bekam, men aybdormasman! U kelib aytdiki...

– U deganingiz kim?

– Qizil qalpoqli bir dastyor, bekam.

– Ha, nima dedi?

– Oshxonaga kirib manavi narsani stolga qo'ydi-da: «Manavini bekangizning o'z qo'llariga topshiring», dedi. Men, bu kimdan, deb so'radim. U, bu yerda hammasi yozilgan, dedi-yu, yugurib chiqib ketdi.

– Yuguring, uni tutib keling!

– Bekam, unga sira yetib bo'lmaydi. U kelganda mehmonlarga quyuyq-suyuyq tortilgan edi. Men sizni koyitib, tinchingizni buzishni istamadim, bekam. Ketganiga yarim soatlar bo'ldi.

– Yaxshi, boring endi.

Vera qaychi bilan lentani qirqdi-da, o'zining manzili yozilgan qog'ozga qo'shib savatga tashladi. Qog'oz ichidan qizil jildli kichkinagina quticha chiqdi. Aftidan, u hozirgina do'kondan olingan, yap-yangi edi. Vera och ko'k ipak tikilgan qutichaning qopqog'ini ochdi va qora baxmalga suqilgan yoqut ko'zli tilla bilaguzukka ko'zi tushdi. Bilaguzukning yonida esa mehr bilan chiroyli qilib sakkiz buklangan maktub yotardi. U darrov maktubni ochdi. Xat yozuvchining husnixati tanish ko'rindi, ammo knyaginya hamma xotinlardek bilaguzukni ko'rish orzusida maktubni nari surdi.

Bilaguzuk yo'g'on, past darajali tilladan yasalgan edi. Biroq ichi kovak, sirt tomoni esa yaxshi silliqlanmagan qadimiy yoqutlar bilan bezatilgandi. Bilaguzukning qoq o'rtasida esa qandaydir ajoyib yashil durni har qaysisi no'xatdek keladigan a'lo sifatli beshta yoqut donasi o'rab turardi. Vera elektr lampochkasi qarshisida bilaguzukni nogahon aylantirib yuborgandi, uning tuxumsimon, silliq sathida birdan to'q qizil sho'x olovlar jilvalanib ketdi.

«Xuddi qonga o'xshaydi-ya», deb ko'nglidan kechirdi birdan tashvishga tushib Vera.

Keyin maktub esiga tushdi va uni ochdi. Xat juda chiroyli, husnixat bilan dona-dona qilib yozilgandi, u quyidagi satrlarni o'qidi:

«Marhamatli malika, knyaginya Vera Nikolayevna!

Yorqin va shodiyona kun – tug'ilgan kuningiz bilan chuqur hurmat-la tabriklab, sizga sodiqligim nishonasi uchun arzimagan sovg'amni yuborishga jur'at etaman».

«E, e... bu – anav-i-i-ku!»– deb norozi kayfiyatda ko'nglidan kechirdi Vera. Ammo maktubni oxirigacha o'qidi...

«Men sizga o'zim tanlagan biror buyumni shaxsan hech qachon taqdim etmasdim: huning uchun menda na huquq, na did va na mablag' bor. Bundan bo'lak sizni bezatishga munosib qimmatbaho narsa bu jahonda topilmas deb o'ylayman.

Bu bilaguzuk, aslida, katta buvimning onasiniki edi. So'nggi vaqtlarda bu hilaguzukni ora-chora marhum onam taqardi. Bilaguzukning o'rtasida, kattaroq dur donalar orasida siz yashil bir durni ko'rasiz. Bu yoqutlar ichida kamdan-kam uchraydigan yashil yoqutdir. Oilamizda saqlangan qadimgi rivoyatlarga qaraganda, buni taqqan ayollar og'ir o'ylardan xalos bo'lib, baxt-saodatga erisharkan, erkaklar taqsa, bu ularni g'ayritabiiy ravishda o'limdan saqlarkan. Bu yoqut toshlar tilla hilaguzukka eski kumush hilaguzukdan aynan ko'chirilgan. Ko'nglingiz to'q bo'lsin, bu hilaguzukni sizga qadar hali hech kim taqqan emas.

Siz bu qiziq matohni tashlab yuborishingiz yoki biror kishiga tortiq qilishingiz mumkin. Ammo men hilaguzukka sizning qo'lingiz tekkani uchun ham baxtli bo'laman.

Mendan achchiqlanmasligingizni o'tinaman. Men yetti yil muqaddam, qizlik vaqtingizda sizga ahmoqona va odobsiz xatlar yozishga jur'at etib, hatto bu xatlarga javob kutib, qilgan dag'alliklarimni xotirlasam, hozir ham qizarib ketaman. Endi menda faqat sizni ulug'lab, izzat-hurmat etish, qarshingizda abadiy bosh egib ta'zim-tavoze qilish va qullardek sizga sodiq bo'lish tuyg'ularigina yashamoqda. Endi men daqiqa sayin sizga baxt-saodat tilayman, baxtli bo'lsangiz, behad suyunaman. Fikran siz o'tirgan jihozga, siz yurgan parket polga, bog'da yurganingizda qo'lingiz tekkan daraxtlarga va siz gaplashadigan oqsochga boshimni yergacha egib ta'zim qilaman. Hatto endi men hech kim va hech narsaga havas qilmayman.

Keraksiz, uzundan-uzoq maktubim bilan halovatingizni buzganim uchun yana bir karra uzr so'rayman.

Boshim go'rga kirguncha ham va o'lganimdan keyin ham itoatkor qulingizman.

G.S.J.»

«Xatni Vasyaga ko'rsatsammikan yo ko'rsatmay qo'ya qolsammikin? Agar ko'rsatsam... qachon ko'rsatsamiykin? Hozirmi yo mehmonlar ketgandan keyinmi? Yaxshisi, keyin ko'rsatish kerak. Hozir ko'rsatsam, u bechora mehmonlarga mayna bo'ladi, u bilan birga o'zim ham mayna bo'laman».

Knyaginya Vera shunday o'ylarga borar va besh yoqut dur donalar ichida jimirlab turgan pushti, qondek olovdan ko'z uzolmasdi.

VI

Polkovnik Ponamaryovni poker o'ynashga arang ko'ndirishdi. U bu o'yinni bilmasligini va umuman qimor o'yinini hatto hazilakamiga o'ynashni ham tan olmasligini, vint¹ o'yinini yaxshi ko'rishini va tuzukroq o'ynashini bildirdi. Biroq u qistovlarga bardosh berolmay, axiyri, o'ynashga rozi bo'ldi.

Dastlab unga o'rgatib, xato yurganda, tuzatib turishdi. Ammo u poker o'yinining qoidalarini tez o'zlashtirib oldi va yarim soat o'tarotmas hamma yirik dovlar uning qo'liga o'tdi.

¹ Qarta o'yinining bir turi.

– Bu noinsoflik-ku, axir! – dedi o‘zini xafa bo‘lganga solib Anna. – Bizgayam yo‘l bering-da, axir!

Mehmonlardan: Speshnikov, polkovnik va zehni past, yoqimli, indamas nemis vitse-gubernator shunday toifadagi odamlar ediki, Vera zeriktirmaslik uchun ularni nima bilan ovutishni bilmasdi.

U ular uchun vint o‘yinini uyushtirib, o‘yinda ishtirok etishga to‘rtinchi o‘yinchi sifatida Gustav Ivanovichni taklif qildi. Anna opa-sining bu ishiga tashakkur izhor qilib, ko‘zini qisib qo‘ydi, buni Vera darrov payqadi. Chunki agar Gustav Ivanovich o‘yinga qo‘shilmay qolsa, atrofida girdikapalak bo‘lib, uning kuydirgan kalladek ishshayib, qurt yegan sariq tishlarini takillatib, xotining ta‘bini tirriq qilishini hamma bilardi.

Endi o‘tirish jonlanib, ravon izga tushib oldi. Vasyuchok italyan xalq kansonettasi va Rubinshteyn sharq ashulalarini sekin ayta boshladi. Unga musiqada Jenni Reyter jo‘r bo‘ldi. Uning ovozi past bo‘lsa-da, o‘ziga xos yoqimli, ravon eshitilardi. Juda talabchan musiqachi ayol Jenni Reyter hamisha unga bajonidil musiqada jo‘r bo‘lardi. Vasyuchok unga xushomad qiladi, degan gaplar ham tarqalgandi.

Burchakda, uzunchoq yumshoq kursida Anna zo‘r berib zobitga noz-karashma bilan qiliq qilardi. Vera ularga yaqin keldi va jilmayib, gaplariga quloq soldi.

– Yo‘q-yo‘q, sizdan o‘tinaman – bunga kulmang, – derdi Anna xushchaqchaqlik bilan, zobitga haroratli, tatarlamikiga o‘xshash o‘ynoqi ko‘zlarini qisib. – Siz, albatta eskadron¹ oldida otda qushdek uchib borishni va arg‘umoqni sakratib, to‘siqlar ustidan o‘tishni mehnat hisoblaysiz. Bizning mehnatimizgayam e‘tibor bering-da! Biz yaqindagina lotereya o‘yinlaridan qutuldik. Bu ishni siz shunchaki yengil ish deb o‘ylaysizmi? Hech-da! Tumonat odam... tamaki tutuni, qandaydir qorovullar, aravakashlar, tag‘in allakimlar... ularni kim deb atashniyam bilmayman, hammasi norozilik bildirib o‘rinlaridan turib ketishadi, baqirib-chaqirishadi. Yana uzzukun oyoqda turishni aytmayisizmi? Bu kamlik qilganday, yana muhtojlikda qolgan ziyoli ayollar foydasiga konsert beriladi. Undan keyin esa oq bal bo‘ladi.

Baxtinskiy:

¹ Otlq askarlar bo‘linmasi.

– Men bilan mazurkaga¹ raqs tushish uchun qilgan taklifimni qaytarmassiz, deb ishonsam bo‘ladimi? – dedi-da, sal egilib, kursi ostida shporini jiringlatib qo‘ydi.

– Tashakkur. Bilasizmi, mening hammadan ham tarbiya uyiga jonim achidi, bu tarbiya uyimiz... Tushunasizmi, axloqsiz bolalar uchun tarbiya uyi...

– Ha... albatta, tushunaman. Bu, aftidan, juda kulgili bo‘lsa kerak-a?

– Qo‘ying-e... e... Shunaqa narsalardan kulish uyatmasmi? Bizning baxtsizligimiz nimada ekanini nahotki bilmasangiz? Biz axloqsiz bolalarni tarbiya uyida boshini silab, erkalatmoqchimiz...

– Hm-m!..

– Ularni odob va nazokatga o‘rgatmoqchimiz hamda ularning qalbida vatan oldidagi burchlarini anglash tuyg‘usini uyg‘otmoqchimiz. Mening muddaomga tushunyapsizmi? Mana, shunday qilib, bizga har kuni yuzlab, minglab bolalarni olib kelishadi. Biroq bularning ichida bittayam nog‘ironi yo‘q; agar ota-onalaridan, bolangiz axloqlimi, deb so‘rasangiz, buni qarangki, ular bu gapni haqorat hisoblab achchiqlari chiqadi. Mana, hozir bolalar uyi ochildi, elektr o‘tkazildi. Hamma narsa tayyor, biroq bitta bo‘lsa-da, na tarbiyalanuvchi bola, na tarbiyalanuvchi qiz bor. Endi kimki axloqsiz bolani olib kelsa, unga mukofot berishni taklif qilish qoldi, xolos.

– Anna Nikolayevna! – dedi jiddiy qiyofada zobit quvlik bilan. – Mukofotning nima keragi bor? Meni tekinga ola qoling. Gapning rosti, mendan yomonroq bolani hech qayerdan topolmaysiz.

– Qo‘ysangiz-chi! Siz bilan hech narsani jiddiy gaplashib bo‘lmas ekan-da, – dedi Anna va ko‘zlarini o‘ynatib haholab kulib yubordi-da, o‘zini yumshoq, uzunchoq kursi suyanchig‘iga tashladi.

Knyaz Vasiliy Lvovich aylanma stol yonida o‘tirib, singlisiga. Anosovga va qaynisiga oilaviy hajviy albomni ko‘rsatardi, albomdagi rasmlarni uning o‘zi chizgandi. To‘rtovlari ham samimiy kulishardi, qarta o‘ynamayotgan mehmonlar esa asta-sekin ularning oldilariga jilib kelishmoqda edi.

Albom go‘yo knyaz Vasiliyning hajviy hikoyalarini to‘ldiruvchi misol bo‘lib xizmat qilardi. U sabr-toqat bilan hech erinmay va

¹ *Mazurka* – polyakcha raqs va musiqa.

shoshilmay «Dovyurak general Anosovning Turkiya, Bolgariya va boshqa mamlakatlardagi ishq-muhabbat sarguzashtlari», «Besh metrli knyaz Nikolya Bulat-Tuganovskiyning Monte-Karloda boshidan kechirganlari» va boshqalarni ko'rsatardi.

– Hozir, janoblar, bizning sevikli singlimiz Lyudmila Lvovna-ni qisqacha hayot kechinmalarini ko'rasiz, – dedi u singlisiga yalt etib karab. – Birinchi bo'lim – bolalik. «Bola ulg'aydi, unga Lima deb ism qo'ydilar».

Albom varag'iga yuzining rasmi yon tomonidan olingan esa-da, ikki ko'zli, yubkasining ostidan oyoq o'rninga qiyshiq-qing'ir chiziq-lar turtib chiqqan, qo'llarining barmoqlari kerilgan bir qizchani-ni surati jo'rttaga shunday qilib solingandi.

– Meni hech kim Lima deb atagan emas, – deb kuldi Lyudmila Lvovna.

– Manavi ikkinchi ko'rinish. Birinchi muhabbat, kavaleriya yunker¹ tiz cho'kib she'rini Limaga taqdim qiladi, unda chindan ham marvarid donasiday go'zal satrlar bor:

*Hohiy va samoviydir
latofatli nafis oyog'ing.*

Mana, oyoqlarning haqiqiy tasviriyam solingan.

Manavi yerda esa yunker ma'sum Limani ota-onasining uyidan qochib ketishga undayotir. Bu yer qochib ketayotgan joylari. Manavi yerda ularning holi tang bo'lib qolgani ko'rsatiladi, g'azablangan qizning otasi qochoqlarni quvlab ketyapti. Yunker qo'rqqoqlik qilib, boshlariga tushgan falokatni beozor Limaga ag'daradi:

*Upa-elik surtib vaqtini o'tkazding,
Mana endi ortimizdan dahshatli quvg'in,
Endi sen bilganicha qilgin –
Men esa butalar ora qochqin!*

Lima kechinmalaridan keyin «Knyaginya Vera va oshiq telegrafchi» degan yangi qissa boshlanadi.

¹ Yunker – harbiy maktab o'quvchisi.

– Bu hayajonli doston patqalam va bo‘yoq qalamlar bilan chizilgan, – deb jiddiy qiyofada izoh berdi Vasiliy Lvovich. – Matn endi tayyorlanyapti.

– Bunisi yangilik, – dedi Anosov. – Men bunisini ko‘rmagandim.

– Eng so‘nggi nashr. Bu – kitob bozorning eng so‘nggi yangiligi!

Vera uning yelkasiga astagina qo‘l tegizib, shunday dedi:

– Qo‘y, yaxshisi, kerakmas!

Biroq Vasiliy Lvovich uning gapini eshitmadi yo bo‘lmasa, e‘tibor bermadi.

– Bu voqea juda qadim zamonda bo‘lib o‘tgan. Go‘zal may kunlarining birida Vera degan qiz pochta orqali sarlavhasida o‘pishib turgan kabutarlarning rasmi solingan bir xat oladi. Mana, xat, manavinisi kabutarlar. Hamma imlo, til qoidalarini kunpayakun qilgan bu xatning mazmuni hayajonli sevgidan iborat. Xat bunday boshlanadi: «Go‘zal malika! Sen qalbmida qaynab-toshayotgan to‘lqinli, o‘tli dengizsan. Sening boqishlaring yaralangan qalbinga zaharli ilondek yopishadi» va hokazolar.. Xatning oxirida kamtar bir imzo: «Kasbim bo‘yicha men kambag‘al telegrafchiman. Ammo his-tuyg‘ularim milord Georgga arzigudek, undan hech qolishmaydi. Nomimni sir tutaman. U ortiq darajada beo‘xshov. Faqat bosh harflari bilan imzo chekaman: P. P. J. Xatimga pochta orqali javob qaytarishingni so‘rayman». Manavi yerda, janoblar, bo‘yoq qalam bilan juda o‘xshatib solingan o‘sha telegrafchining suratini ko‘rishingiz mumkin.

Mana, Veraning yuragini kamon o‘qi teshib o‘tgan. Mana yurak, mana kamon o‘qi. Ammo Vera yaxshi tarbiya ko‘rgan malohatli bir qiz bo‘lganidan, u xatni izzatli ota-onalariga va yoshlikda birga o‘sgan do‘sti hamda qaylig‘i chiroyli yigit – Vasya Sheinga ko‘rsatadi. Mana, ularning rasmlari. Vaqt-soati bilan bu rasmlarga she‘riy izohlar ham beriladi, albatta.

Vasya Shein xo‘ngrab yig‘laydi va nikoh uzugini Veraga qaytarib beradi: «Men sening baxtingga xalaqit berishni istamayman, ammo sendan birdaniga uzil-kesil qarorga kelmasligingni o‘tinaman. Yaxshilab o‘yla. O‘zingni va uni yaxshilab sinab ko‘r. Sen, azizam, hali hayotni bilmaysan va parvonadek yonib turgan o‘tga o‘zingni

urasan. Men-chi? Eh-he! Bu bevafo dunyoni yaxshi bilaman. Shuni bilginki: telegrafchilar jozibali bo'lsalar ham, biroq juda makkor bo'ladilar. Ular o'zlarining yolg'on his-tuyg'ulari, quruq, takabburo-na go'zalliklari bilan tajribasiz qizlarni aldaydilar, ularni masxaralab huzur qiladilar...»

Oradan yarim yil o'tadi. Hayotning vals o'yini girdobida Vera o'z oshig'ini unutib, yosh, chiroyli yigit Vasyaga turmushga chiqadi. Ammo telegrafchi uni unutmaydi. Mana, u mo'ri tozalovchilarning kiyimini kiyib, aftini ko'mirga bo'yab, knyagina Veraning yotoqxonasiga kiradi. Mana, ko'ringlar! Besh barmog'i bilan lablarining izlari gulqog'ozlarga, gilamga, yostiqqa va hatto polgayam tushib qolgan.

Mana, u qishloqi xotin libosida oshxonamizga qozon-tovoq yuvishga malay bo'lib xizmatga kiradi. Ammo oshpaz Lukaning bizga xayrixohligi uni tuyog'ini shiqillatib qochib qolishga majbur etadi.

Manavi yerda u jinnixonaga tushib qoladi. Mana, u rohib bo'lish uchun soqol-mo'ylov qo'yadi. Ammo har kuni, albatta, Veraga ota-shin maktublar yozib turadi, ko'z yoshlari tomgan joylarda siyoh yo'yilib dog' bo'lib qolgan.

Nihoyat, u o'ladi. Ammo o'limi oldidan ikki dona telegraf tugmasi va ko'z yoshi to'ldirilgan atir shishani Veraga berib qo'yishlarini vasiyat qiladi...

– Azizlar, kim choy ichadi? – deya so'radi Vera Nikolayevna.

VII

Kuzak oftobi asta-sekin qizarib botdi. Ufqdagi zangori bulutlar bilan yer o'rtasidagi siyraklashib qolgan so'nggi to'q qizil shafaq nurlari ham so'ndi. Hozir na osmon, na yer va na daraxtlar ko'rinardi. Faqat qorong'i kechada kishining boshi uzra dona-dona bo'lib ko'ringan yirik yulduzlar charaqlab qosh qoqardi. Mayoqdan ingichka ustun shaklida osmonga ko'm-ko'k nur ko'tarilar va osmon gumbazida g'ira-shira yorug' berib chayqalardi. Tun kapalaklari shamchiroqlarning shishasiga kelib o'zini urardi. Uy oldida, ihota qilib qo'yilgan bog'chada oq tamakining yulduzsimon gullarining hidlari qorong'ilik va sovuqdan dimoqqa o'tkirroq urilardi.

Speshnikov, vitse-gubernatorlar va polkovnik Ponamaryov qutvoliga izvoshni tramvay stansiyasidan qaytarishga va'da berib, allaqachon jo'nab ketishgan, qolgan mehmonlar esa ayvonda o'tirishar edi. Hamshiralar general Anosovning e'tiroziga qaramay, sovqotmasligi uchun palto kiyib o'tirishga uni majbur qilishdi va qo'yarda qo'ymay oyog'ini issiq katta jun sholro'mol bilan o'rab qo'yishdi.

Uning oldida o'zi yaxshi ko'rgan Pommard musallasi turar, ikki yonida esa Vera bilan Anna o'tirishar edi. Ular generalga xushomad qilishar, nafis qadahchaga quyuq musallas quyib, unga gugurtni yaqin surishar, pishloq kesib qo'yishar edi. Keksa qutvolining kayfsafodan ko'zlari qisilib borardi.

– Ha... Mana, kuz ham keldi... Kuz, kuz, kuz, – dedi chol boshini sarak-sarak qilib, o'ylanib, shamchiroqqa qarab. – Kuz. Men ham ketishim kerak. Biroq kishi achinadi, havo ochilib, endigina yaxshi kunlar boshlanganda, bu yerdan sira ketging kelmaydi. Qani endi bu yerda, dengiz qirg'og'ida tinch, huzur qilib, xotirjam umr kechirsang...

– Biznikida turaversangiz ham bo'ladi, otaxon! – dedi Vera.

– Iloji yo'q-da, bo'tam, iloji yo'q. Xizmatni o'tash kerak. Ta'til ham tamom bo'ldi. Nimasini aytasan, bu yerda qolsam-ku, albatta, yaxshi bo'lardi-ya! Hammadan ham bu yerda gullarning ifor taratishini aytmaysanmi! Shu yerdan ham burningga uryapti. Yozda esa oq akasni demasang, bittayam gul isini sezmayсан... U ham konfet hidini beradi.

Vera guldondan kichkinagina pushti gul bilan qizil gul olib, har ikkisini general paltosining tugma qadaydigan teshigiga qadab qo'ydi.

– Rahmat, Verochka! – Anosov boshini shinelining tugma qadaydigan teshiklariga engashtirib, gullarni iskadi va birdan chollarga xos kulgi bilan yoqimli tabassum qildi. – Esimda bor, bir zamonlar biz Buxarestga kelib, kvartiralarga joylashdik. Bir kuni ko'chada ketayotgandim, birdan burnimga atirgulning isi kelib urildi. To'xtadim, bunday qarasam, ikki askarning o'rtasida billur shishada gul moyi turibdi. Ular gul moyi bilan etiklarini va multiqlarining o't oldirgichlarini yog'lashyapti. «Bu nima o'zi?» – deb ulardan so'radim. «Qandaydir yog', janobi oliylari, uni bo'tqamizga solib ko'rgandik.

bo'lmadi, og'izni achishtirarkan. Ammo hidi juda yaxshi», – deyishdi. Men ularga bir so'lkavoy bergandim, ular mamnuniyat bilan gul moyini menga berishdi. Shishadagi gul moyi yarim bo'lib qolgan, ammo u juda qimmatbaho bo'lganidan haliyam shishada yigirma chervonlik moy bor edi. Mendan mamnun bo'lgan askarlar: «Mana, ko'ring, janobi oliylari, yana qandaydir turk no'xati, buni pishirmoqchi bo'lib qancha qaynatsak ham hech pishmadi, la'nati!» – deb qo'shimcha qilishdi. Bu narsa qahva edi. Men ularga: «Bu narsa faqat turklarga to'g'ri keladi, askarlarga yoqmaydi», dedim. Xayriyatki, ular afyundan ko'pam yeyishmabdi. Men ba'zi joylarda tuproqda qorishib yotgan afyun kulchalarini ko'rgandim.

– Otaxon, rostini ayting, yashirmang, – dedi Anna iltimos qilib. – Jang vaqtida qo'rqarmidingiz? Yo qo'rqasmidingiz?

– Qiziq gaplarni gapirasan, Annochka: qo'rqarmidingiz yo qo'rqasmidingiz? Albatta, qo'rqardim, sen, hech qachon qo'rqmasdim, o'qlarni vizillashi yoqimli musiqadek tuyulardi, deguvchilarning gapiga ishonma. Ular yo jinni, yoki quruq maqtanchoq kishilar. Dunyoda hamma odamlar ham qo'rqadi, faqat farq shundaki, ba'zilar qo'rquvdan juda shalvirab tushadi, ba'zilar esa o'zini dadil tutadi. Shunday qilib, qo'rquv hissi hamisha qo'rquvligicha qolib, o'zini dadil tutish qobiliyati amalda kun sayin o'sib boradi, mard va qahramonlar ana shundan kelib chiqadi. Ha... shunday. Ammo men bir marta qo'rqanidan yuragim yorilayozgan.

– Ana shunisini aytib bering, otaxon, – deyishdi bir og'izdan opa-singillar.

Ular shu damgacha Anosovning hikoyalarini xuddi ilk bolalik davridagidek berilib zavq bilan eshitishardi. Hatto Anna xuddi bolalar singari beixtiyor kaftini iyagiga tirab, tirsagini stolga qo'yib olgandi. Generalning shoshilmay aytgan sodda hikoyalari qandaydir jozibador, rohatbaxsh edi. O'zining harbiy xotiralaridan bahs etuvchi jumalari ham g'ayriixtiyoriy ravishda ajoyib bo'lib, sal-pal kitobiy tusga kirardi. U xuddi qandaydir muqaddas, qadim zamondan qolgan stereotipni¹ o'qiyotgandek:

¹ *Stereotip* – yassi yoki silindr shaklida terilgan harflarning metall plastinkaga olingan nusxasi.

– Bu hikoya juda qisqa, – dedi. – Bu voqea boshimdan lat yeganimdan keyin qish faslida Shipkada sodir bo'lgandi. Yerto'lada to'rt kishi turardik. Mana shu yerda dahshatli sarguzashtga duch keldim. Bir kuni ertalab yotgan to'shagimdan tursam, menga shunday tuyuldi, go'yoki men Yakov bo'lmay, Nikolay bo'lib qolganmishman... o'zimni Yakovman, axir, deb ishonitirmoqchi bo'lib shuncha urinsam ham bo'lmadi. Aqldan ozayotganimni sezib, suv so'rab baqirib yubordim, boshimni sovuq suvda yuvdim, keyin es-hushim joyiga keldi.

– U yerda xotinlarni maftun qilganingizni ko'z oldimga keltiryapman, Yakov Mixaylovich, – dedi pianinochi Jenni Reyter. – Yoshligingizda juda chiroyli bo'lgandirsiz?

– O'... Otaxonimiz hozir ham chiroylilar! – dedi Anna.

– Chiroylikka-ku chiroylimasdim-a, – dedi Anosov tabassum bilan, salmoqlab, – biroq odamning ko'nglini aynitadigan darajada xunuk ham emasdim. Ana shu Buxarestda yurakni jizillatadigan bir hodisa ro'y bergandi. Biz bu shaharga kirganimizda, xalq bizni shahardagi maydonda zambaraklardan to'p otib kutib oldi.

Bundan ko'p derazalar zararlandi; ammo stakanlarga suv to'ldirib derazalariga qo'yanlarning oynasi butun qoldi. Buni men nimadan bilib olganimni hozir aytib beraman. Menga ajratilgan xonaga kelib derazada turgan pastakkina qafasga ko'zim tushib qoldi. Qafasning ichida shaffof suv solingan kattakon billur shisha bor edi, unda tilla baliqlar suzib yurardi, baliqlar orasida cho'pda kanareyka qo'nib o'tirardi, ajabo, kanareyka suv ichida turibdi-ya! Bu meni hayratda qoldirdi, biroq u yoq-bu yog'ini qarasam, shishaning tubi keng bo'lib, uning havosi o'rta yeriga siqib chiqazilgan, bu yerga kanareyka bemalol uchib o'tishi va qo'nib o'tirishi mumkin ekan. Shundan keyin farosatim kamligiga iqror bo'ldim.

Keyin uyga kirib, barno bir bulg'or qizni ko'rdim. Unga men kvartirada turishim uchun berilgan kvitansiyani ko'rsatdim va gap orasida undan to'p otilgandan keyin deraza oynalarining butun qolganini so'radim, qiz, bu suvdan, deb tushuntirdi, kanareyka to'g'risidayam tushuntirib berdi: qanday befarosat odam ekanman-a!..

Qiz bilan gaplasharkanman, har ikkimizning ko'zlarimiz to'qnashdi, shunda ko'zlarimizda muhabbat uchqunlari chaqnaq ketdi. Bulg'or qizni jon-dilimdan sevib qoldim.

Chol jimib qoldi va sekingina qora musallasdan simirdi.

– Axir, keyin bir-biringizga dil rozini aytgandirsiz? – deb so‘radi pianinochi ayol.

– Ha... albatta, biroq hech qanday so‘zsiz. Bunday bo‘lgandi...

– Otaxon, ishonamanki, bizni qizartirishga yo‘l qo‘ymassiz, albatta, – dedi Anna makkorona kulib.

– Yo‘q, yo‘q, hech qanday uyatli joyi yo‘q. Biz qayerga qo‘nmaylik, shahar aholisi bizga nisbatan har xil munosabatda bo‘ldi. Biroq Buxarestda odamlar biz bilan sodda va samimiy munosabatda bo‘lishdi. Bir kuni men skripka chala boshlagandim, shu zahotiyuq qizlar yasanishib kelishib, o‘yinga tusha ketishdi. Shu tariqa o‘yin tushish har kungi odat bo‘lib qoldi.

Bir kuni kechqurun o‘yin vaqtida men dahlizga kirdim. Oydin kecha edi. Bulg‘or qiziyam shu yerga yashirinib kirgan ekan. U meni ko‘rib, quvlik qilib, go‘yo o‘zini gul barglarini saralayotgan qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Shuniyam aytib o‘tish kerakki, bu yerning xalqi gul bargini qop-qop qilib yig‘ishadi. Men uni belidan mahkam quchoqlab oldim va bag‘rimga bosib qayta-qayta o‘pdim.

Shu-shu osmonda yulduzlar charaqlab oy chiqqanda, har safar men ma‘shuqamning oldiga borishga oshiqardim, har kungi tashvish va g‘ussalar u bilan o‘tkazgan damlarda vaqtincha unutilardi. Yangi safarga otlanganimda bir-birimizni abadiy sevishimiz to‘g‘risida qasamyod qilib manguga ajrashdik...

– Shu bilan ishq-muhabbat sarguzashtingiz tamom bo‘ldimi?

– Ha, bo‘lmasam-chi. Tamom bo‘lmay, yana nimasi qoladi? – dedi qutvoli e‘tiroz bildirib.

– Yo‘q, Yakov Mixaylovich, siz meni kechirasiz, bu muhabbat emas, shunchaki armiya zobitining ko‘ngil ochishi.

– Bilmayman, azizam, bu muhabbat edimi yo boshqa tuyg‘umi, Xudo haqi, bilmayman.

– Yo‘g‘-e... ayting-chi, nahotki, siz rostdan ham chin sevgi bilan hech kimni sevmagansiz? Masalan, shunday sof, muqaddas... samimiy, abadiy sevgi bilan nahotki sevmagan bo‘lsangiz...

– To‘g‘risini aytсам, gapingizga javob qaytarolmayman, – dedi chol duduqlanib, yumshoq, uzunchoq kursidan turarkan. – Sevmagan bo‘lsam kerak. Avvalo, bunga yoshlik mayllari, aysh-ishrat,

qarta o'yinlari va urush bilan band bo'lib qo'l tegmadi, nazaringda yoshlik va sog'lom hayotingning oxiri bo'lmaydigandek tuyulardi. Keyin bunday qarasam, yo'limdan go'rim yaqin bo'lib qolibdi... Endi, Verochka, meni ortiq ushlama, boray endi... Suvoriy, – dedi u Baxtinskiyga qarab. – Tun iliq... yuring, izvoshimizni kutib olamiz.

– Men ham siz bilan boraman, otaxon, – dedi Vera.

– Men ham, – dedi Anna.

Vera ular bilan chiqib ketish oldida erining yoniga borib, qulog'iga sekin shivirladi:

– Stolimning tortmasida qizil quticha bor, shu quticha ichidagi xatni olib o'qi.

VIII

Anna bilan Baxtinskiy oldinda, qutvoli esa ulardan yigirma qadamcha orqada, Verani qo'ltiqlab borardi. Tun shunday qorong'i ediki, ko'zlar yorug'dan keyin qorong'ilikka ko'nikkuncha oyoq bilan timirskilanib yo'l topishga to'g'ri keldi.

Anosov, keksaligiga qaramay, kishini taajjubda qoldirarli darajada ko'zi o'tkirligidan hamrohiga yo'l ko'rsatib borardi. U o'zining katta, sovuq qo'llari bilan ora-sira Veraning qo'lini silab erkalardi.

– Lyudmila Lvovna juda alomat xotin-da, – dedi general o'ylab kelayotgan fikrlarini og'zaki ifoda etib: – O'z hayotimda necha bor sinab ko'rdim: xotin kishi ellikka yaqinlashganda, ayniqsa, u beva yoki qariqiz bo'lsa, kishi muhabbati atrofida girdikapalak bo'lib aylanadi. Yo bo'lmasa, gap poylaydi, yoki ichi qoralik qilib, boshqa kishining baxtsizligidan sevinadi, ig'vo gaplar tarqatadi... Yo bo'lmasa, birovni baxtli qilmoqchi bo'lib jon koyitadi. Yo'qsa, yuksak muhabbat to'g'risida og'zaki valdirashni yaxshi ko'radi. Demoqchimanki, bizning zamonamizda odamlar bir-birlarini sevishni unutvorishdi. Chin muhabbatni ko'rmayman. Ilgariyam ko'rماغandim.

– Nima uchun, otaxon? – deb muloyimlik bilan e'tiroz bildirdi Vera uning qo'lini asta siqib. – Bu gapingiz tuhmat-ku! Axir, bir vaqtlar o'zingizning ham xotiningiz bo'lgan-ku. Demak, siz ham xotiningizni sevgansiz.

– Azizam, Vera! Xotinim bo'lgani bilan, bu sevish degan gap emas. Meni qanday uylanganimni bilasanmi? Bilmasang, quloq sol.

Bunday qarasam, yonimda chiroyli bir qiz o'tiribdi, tez-tez nafas oladi. Uzun kipriklarini tushirganda, loladek qizarib ketadi. Yuzlari muloyim, bo'yni oppoq, qo'llari yumshoq va issiq... Eh, shayton! Ota-onasi esa xira bo'lib, eshik orqasida gap poylashadi, senga itnikidek dardchil ko'zlari bilan qarashadi. Uydan chiqib kelayotganda esa, eshik orqasida shosha-pisha bo'sa olishlar... Choy ichib o'tirgan bo'lsa, jo'rttaga oyog'ing bilan oyog'ini turtasan... Shu bilan masala hal... «Qimmatli Nikita Antonich, men qizingizning qo'lini so'ragani keldim. Qizingiz farishtaday pokiza... Bundan ko'nglingiz to'q bo'lsin!» Otasining ko'zlari darrov yoshlanib, seni o'pishga tutinadi... «Azimim, men buni allaqachonlar bilgandim. Ha, mayli, men rozi, Tangrim sizlarga uzoq umr bersin. Ammo bu malakni ko'z qorachig'idek asra...» Oradan uch oy o'tgandan keyin mana shu «malak»ning egnida yirtilib, dabdalasi chiqqan keng ko'ylak, yalang oyog'iga tufli kiyib yuribdi, taroq tegmagan siyrak sochlariga papilotkalar¹ taqib qo'ygan, go'yo oshpaz xotinlardek navkarlar bilan qir-pichoq bo'lyapti. Yosh zobitlarga ko'zini suzib, qilpanglab yuribdi. Odamlar oldida erini negadir «Jak» deb ataydi. Bilasanmi, tag'in manqiga o'xshab, cho'zib «J-a-a-ak», deydi. Xullas, u samimiylikni yo'qotib, isqirt, tantiq va xasis bo'lib qolibdi. Ko'zlari odamga hamisha soxta qaraydi... Endi bularning hammasi o'tib ketdi, ko'nglim ham joyiga tushdi. Hatto men uni olib qochib ketgan aktyorga chin qalbidan rahmat aytaman... Xudoga shukur, farzand ko'rmagandik.

– Siz ularning gunohidan o'tdingizmi, otaxon?

– Gunohidan o'tish oson bo'lmadi, Verochka. Dastlab jig'ibiyronim chiqib yurdi. O'sha kezlarda ularni uchratib qolganimda, har ikkoviniyam o'ldirardim. Keyin asta-sekin hovurimdan tushdim. Bora-bora unga nisbatan yuragimda nafratdan bo'lak hech narsa qolmadi. Juda soz bo'ldi. Tangri qon to'kishdan qutqardi meni va bundan bo'lak men ko'p erkaklarning boshiga tushadigan qismatdan qutulib qoldim. Agar shu qabih hodisa yuz bermaganda, men kim bo'lardim? Yuk ortilgan bir tuya yo tilyog'lamachi, jinoyat muhofazakori, sog'in sigir, niqob yoki ro'zgor uchun zarur bir buyum bo'lardim-da. Xayriyat, bunday bo'lmadi, hammasi yaxshilikka aylandi.

¹ *Papilotka* – sochni jingalak qilish uchun ishlatiladigan qog'oz.

– Yo‘q, yo‘q, otaxon, kechirasiz meni, sizda haliyam avvalgidan qolgan gina-kudurat bor. Siz o‘zingizning baxtsizligingizni butun insoniyatga yoyyapsiz... Misol uchun men bilan Vasyani oling. Bizning birga umr kechirishimizni baxtsizlik deb bo‘ladimi?

Anosov anchagacha indamadi. Keyin eringansimon gap boshladi:

– Xo‘p, yaxshi... Aytaylik, sizning turmushingiz bundan istisno... Biroq ko‘pchilik odamlar nima sababdan er-xotin bo‘lishadi? Misol uchun, xotinlarni olaylik. Hamma dugonalari turmushga chiqib ketganda, qiz holicha qolish unga nomus. Oilada ovqatning zavoli bo‘lib yotish og‘ir. Bundan bo‘lak beka bo‘lish va eng muhimi, uyda o‘ziga mustaqil xonim bo‘lish istagi... Buning ustiga, ochig‘ini aytganda, uy-joy qilish, ona bo‘lish orzusi sababli turmushga chiqadi. Erlarda esa xotin olishlariga boshqa sabablar bor. Birinchidan, bo‘ydoqlik vaqtida u turgan xonadagi tartibsizlik, ifloslik, popiris qoldiqlari, ko‘chada, mayxonada ovqatlanish, yirtilgan va kirlangan kiyim-bosh kiyish, qarzga botish, odobsiz o‘rtoqlarning jonga tegishi va boshqa-boshqalar sabab bo‘ladi. Ikkinchidan, oilaviy hayotda kishi tejab sarf qilsa, sog‘lom, qulay turmush kechiradi. Uchinchidan, men-ku baribir o‘lib ketaman, dunyoda mendan nasl qoladi, shunday qilib, men abadiy yashayman, degan xayolni ko‘nglidan kechiradi. To‘rtinchidan, mening boshimdan o‘tgan hodisa kabi dunyodan begunoh o‘tish orzusi. Bundan bo‘lak ba‘zi erkaklar meros to‘g‘risidayam o‘ylashadi. Ahvol shunday ekan, «o‘limdek kuchli» deb aytilgan, tamani bilmaydigan, hech qanday in‘om-mukofotni kutmaydigan, fidokorona muhabbat qayoqda qoldiykin? Bilasanmi, chin muhabbat uchuy jondan kechish, har qanday qiyinchilik, azob-uqubattan chekinmaslik va har qanday mardlik, fidoyilik ko‘rsatish – zahmat emas, balki shodlikdir. To‘xta, shoshilma, Vera, sen menga yana Vasyangni gapirmoqchisan. Nafsilambirini aytganda, yaxshi yigit, men uni yaxshi ko‘raman. Kim bilsin, balki istiqbol uning muhabbati chin muhabbat ekanini ko‘rsatar. Biroq sen mening qanaqa muhabbat haqida gapirayotganimni tushun. Muhabbat fojia bo‘lishi kerak. Muhabbat dunyoda daxlsiz, buyuk sir bo‘lishi lozim. Hayotdagi barcha qulayliklarning, tamaning, murosaning muhabbatga hech qanday daxli bo‘lmasligi kerak.

– Shunaqa muhabbatni siz hech ko‘rganmisiz, otaxon? – deb sekingina so‘radi Vera.

– Yo‘q, – dedi chol qat‘iy qilib. – Men faqat shunga o‘xshash tasodifiy ikki hodisanigina bilaman. Bularning bittasi esi pastlikning natijasi bo‘lsa, ikkinchisi esa qandaydir achchiq bir alam, achinish, mungli hodisadan bahs etadi. Xohlasang, aytib beraman. Uncha cho‘zilmaydi.

– Ayting, otaxon, o‘tinaman.

– Xo‘p, aytsam, aytib bera qolay. Bizning diviziyamizning bir polkida (ammo menikida emas) polk komandirining xotini bor edi. Men senga aytsam, Vera, bu xotin qip-qizil ta‘viya edi. Qotma, sap-sariq, daroz, og‘zi katta, o‘zi qarib qolgan edi. Biroq o‘taketgan darajada tannoz bo‘lib, odamlarni mensimasdan oyoq uchida ko‘rsatar, rang-barang kiyimlarga havasi zo‘r, buyruq berishni yaxshi ko‘radigan, xullas, polkning Messalinas¹ edi. Buning ustiga, bangi edi. Bir mahal kuzda ularning polkiga yangigina harbiy bilim yurtini bitirgan zo‘r bir praporshchikni yuborishdi. Oradan bir oy o‘tar-o‘tmas haligi qari alvasti yigitni o‘ziga rom qilib oldi. U ham xizmatkor, ham qul, ham mahram bo‘lib qoldi. Hamisha raqs-larda unga hamroh bo‘lib, yelpig‘ichi bilan ro‘molini ko‘tarib yurardi, unga izvosh chaqirish uchun birgina mundirida sovuqqa chiqardi. Hali dunyoning past-balandini ko‘rmagan sofdil bir yigit o‘zining ilk muhabbatini qari, pixi qayrilgan bir buzuqi, beandisha xotinga bag‘ishlasa va uning oyog‘iga bosh ursa – bu juda dahshatli, yaramas holat. Agar yigit bu falokatdan o‘zini chetga tortib, qutulib qolsayam, baribir uni halok bo‘lgan hisoblayver. Chunki bu bir umr unga dog‘ bo‘lib qoladi.

Rojdestvoga yaqin xonimning joniga tegib qoldi-yu, xonim asliga qaytib yigitdan ko‘ngli sovidi, u bo‘lsa xonimdan kecholmay orqasidan ko‘lankadek ergashib yurdi. Ranglari sarg‘ayib, za‘faron bo‘ldi va cho‘pdek ozib ketdi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, «ajal uning peshonasini silardi». U xotinni rashk qilardi, odamlar uni, ayolning dera-zasi tagida tun bo‘yi izg‘ib chiqadi, deb aytishardi.

¹ *Messalina* – Rim imperatori Klavdiyning uchinchi xotini. O‘taketgan hukmfarmo ayol bo‘lgan, badaxloqligi bilan nom chiqargan.

Bir kuni ko'klamda ular o'zlarining polklarida qandaydir bog' saylini uyushtirishadi. Men u ayol bilan yigitni shaxsan tanirdim, biroq bu hodisa ro'y berganida, yo'q edim. Har galgidek bu sayldayam ko'p ichishgan. Qaytishda ular piyoda, temiryo'ldan yurishgan. Daf'atan ro'paralaridan yuk ortgan poyezd kelaveribdi. Poyezd balandlikka juda sekin ko'tarilib kelayotgan ekan. Chinqirib ogohlantiribdi. Parovoz chiroqlari yaqindan ko'rinib ularga yetib qolganda, haligi xotin praporshchikning qulog'iga pichirlab: «Siz mudom, seni yaxshi ko'raman, deysiz... Agar men sizga, o'zingizni poyezd ostiga tashlang, deb buyursam, siz hech qachon tashlamaysiz», debdi. U ayolning gapiga churq etib javob qaytarmay, yugurganicha o'zini poyezd yo'liga tashlabdi. Odamlar uni, oldingi g'ildirak bilan keyingi g'ildirak oralig'iga o'zini otgan, mo'ljalni to'g'ri olgan, deyishadi, shunday yotsa, poyezd uni qoq ikkiga bo'lib tashlardi. Ammo qandaydir bir esi past uni ushlab qolib temiryo'ldan chetga itaripti-yu, biroq kuchi yetmabdi. Praporshchik temir izni ikki qo'li bilan mahkam ushlab olgan ekan, poyezd ikkala qo'liniyam cho'rt kesib ketibdi.

– Oh, qanday dahshat! – deb qichqirib yubordi Vera.

– Shundan keyin praporshchik xizmatni tashlashga majbur bo'ldi, o'rtoqlari unga bir amallab yo'lga pul to'plab berishdi. Shaharda qolish unga juda o'ng'aysiz edi. Xonim va polki oldida sharmisor bo'lgandi. Shunday qilib, tuppa-tuzuk odam bir razil uchun bekorga nobud bo'ldi... Gadoylik qilib yurib, qayerdadir, Peterburgda paroxodlar to'xtaydigan kemabandda sovqotib o'ldi.

Yana bir boshqa hodisa bundan ham achinarli bo'lgandi. U ham xuddi boyagi ayoldek, biroq bunisi yosh va go'zal edi. Shunday suyuqoyoq ediki, asti qo'yaverasan! Oilada bo'ladigan oshiqma'shuqliklarga uncha ahamiyat bermaydigan bizniyam bu ayol o'z kirdikori bilan hafsalamizni pir qilib, ranjitgandi. Eri bo'lsa uning qilmishlarini ko'ra-bila turib indamasdi. O'rtoqlarining pichingta'nalariga: «Qo'ysangiz-chi, axir, qo'yavering... Bu mening ishimmas. Mayli, Lenchka baxtli bo'lsin», – derdi. Shunaqa ovsar edi u. Axiyri, ayol ularning rotasidagi poruchik Vishnyakov bilan topishib oldi. Shunday qilib, go'yo bu qonuniy nikohdek, ikkovlari bir xotin bilan turmush qilishdi. Bir mahal polkimizni urushga yuborishdi. Xotinlarimiz bizni kuzatishga chiqishdi, u ayol ham kuzatishga chiq-

di. Rost gapni aytсам, ularga qarashgayam odam andisha qilardi: ayol o'z poruchigiga kanadek yopishib olibdi, undan bir qarich ham nari ketmaydi va loaqal odob yuzasidan eriga bir marta qaramaydiyam. Bizlar vagonlarga joylashib oldik, poyezdimiz qo'zg'alganda, beandisha bu ayol xayrlashish o'rniga erining orqasidan: «Esingda bo'lsin, Volodyani asra! Agar unga bir narsa bo'lsa, uydан ketaman va hech qachon qaytib kelmayman. Bolalarniyam olib ketaman», deb qichqirib qoldi.

Sen balki kapitanning o'zi landavur, chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan qo'rqqoq bo'lsa kerak, deb o'ylarsan. Aslo undaymas. U jasur askar edi. Yashil tog' ostida u o'z rotasini olti marta turklarining dala istehkomiga hujumga olib borgan, uning ikki yuz askaridan atigi o'n to'rt nafari tirik qolgan edi. U hatto yaralanganidayam sanitar punktiga borishdan bosh tortgan. Mana u qanday jasur odam bo'lgan. Askarlar unga Xudoga cho'qingandek cho'qinishardi.

Ammo u buyurgan... Uning Lenochkasi buyurgan edi-da!

Qo'rqqoq, dangasa va tanbal bu tekinxo'rga u xuddi xizmatkordek va onadek g'amxo'rlik qildi. Yomg'ir yoqqan tunlari balchiq joylarga qo'nilganda, uni o'zining shineli bilan o'rab-chirmab qo'yardi va uning o'rniga sapyorlik ishlariga borardi. Vishnyakov bo'lsa yer-to'lada yotar yoki qartada qimor o'ynardi. Kechalari Vishnyakov o'rniga qorovul postlarini tekshirib chiqardi, yana bilasanmi, Verunya, bu kezlarda miyasi buzuqlar bizning qo'riqchi-qorovul otryadlarimizdagi odamlarimizning boshini, Yaroslavl ayollari karamni osongina kesgandek, shart kesib ketishardi. Xudo ursin, agar buni esga olish gunoh bo'lsayam, aytay: Vishnyakov gospitalda terlama kasalidan o'lganini bilib hamma xursand bo'ldi.

– Otaxon, siz ayollardan sevganlarini hech uchratganmisiz?

– Albatta, Verochka, uchratganman. Bu to'g'rida ko'proq bilaman, har bir ayolning muhabbat yo'lida yuksak fidokorlik ko'rsatishiga men aminman. Shuni tushunish kerakki, qiz bo'sa oladi... quchoqlaydi, jon-tani bilan lazzatga beriladi-yu, ona bo'lib qoladi. Agar qiz chindan ham sevsa – uning uchun hayot va butun borliqning ma'nosi muhabbat bo'lib qoladi. Odamlarning hayotida muhabbatning qadri yo'qolishiga, ya'ni faqat oddiygina yashash qulayligi va bir nafaslik huzur uchun tubanlashishiga xotinlar sira

aybdormas. Bunga yigirmaga kirganda, ko'zi to'ygan, nimjon, hissiz va muhabbatni hurmatlashga, yoqimli bo'lishga, mardonavor ishlar qilishga hamda kuchli istaklarga qobiliyatsiz erkaklarga aybdor. Ilgarigi zamonlarda bu xususiyatlarning hammasi bo'lgan deyishadi. Agar bo'lmagan taqdirdayam insoniyatning aql va hissiyotlarining ilg'or kishilari – shoirlar, romannavislar, mashshoqlar, rassomlar bular to'g'risida xayol surib, uni orzu etmaganlarmi? Yaqinda men Mashenka Lesko va kavaler de Griyening tarixini o'qidim. Ishonasanmi? Men bu kitobni o'qib yig'ladim... Qani, ayt-chi, azizam, vij-doning haqqi, rostini ayt, nahotki, har bir ayol qalbining eng chuqur, nozik joylarida hech narsadan chekinmaydigan, har qanday gunohni afv etuvchi, yaxlit, kamtarin hamda hech narsadan qaytmaydigan muhabbat to'g'risida xayol surmasa?

– Albatta, xayol suradi, otaxon...

– Amalda bunday muhabbat bo'lmagani uchun ayollar o'ch olishadi. Yana o'ttiz yillar o'tgach... Men-ku buni ko'rolmayman-a, ammo, Vera, sen buni ko'rasan. Meni aytdi dersan, o'ttiz yildan so'ng ayollar misli ko'rilmagan darajada dunyoga hokim bo'ladi, ular hind butparastlaridek kiyinishadi va erkaklarni yetti bukilib ta'zim qiladigan qullardek oyoqosti qilishadi. Ularning xarxashalari va injiqliklari erkaklar bajarishi shart bo'lgan azob-uqubatli qonunga aylanadi. Buning kelib chiqishiga asrlar davomida avlod-ajdodlarimiz bilan muhabbat qarshisida bosh egib, uni ko'klarga ko'tarmaganimiz, hurmat qilmaganimiz sabab bo'ladi. Bu endi chinakam qasos bo'ladi, har jismning harakat kuchi – qarshi harakat kuchiga teng degan qonunni eshitmaganmisan?

U bir lahza jimib, keyin to'satdan Veradan so'radi:

– Vera, agar bemalol bo'lsa, hali knyaz Vasiliy hikoya qilgan telegrafchi bilan oralaringda qanday gap o'tganini menga gapirib bersang, uning odati ma'lum, bu hikoyaning qaysi joyi to'g'ri-yu, qaysi joyi uydirma?

– Nahotki, bu sizni qiziqtirsa, otaxon?

– Ixtiyoring, Vera, agar buni so'zlash senga o'ng'aysiz bo'lsa, qo'ya qol...

– Hech undaymas, otaxon, jonim bilan so'zlab beraman.

Vera turmushga chiqishga qadar ikki yil o'zining ishq-muhabbati bilan uning tinkasini quritgan qandaydir telba bir yigit to'g'risida generalga batafsil gapirib berdi.

U bu yigitni bir marta ham ko'rgan emasdi, familiyasini ham bilmasdi. Yigit unga faqat xat yozgan va xatlarida «G. S. J.» deb imzo chekkan. Bir kun u xatida qandaydir davlat idorasida kichik amaldor bo'lib xizmat qilishi to'g'risida gap ochgan, biroq telegraf to'g'risida bir og'iz ham gap yo'q edi. Aftidan, u Verani ko'z ostiga olib yurardi, chunki o'z xatlarida qizning qaysi ziyofatda, kimlar bilan bo'lgani, hatto qanday-kiyim kiyib borganigacha batafsil, aniq yozardi. Uning dastlabki xatlari dag'al, jo'shqin bo'lgani bilan samimiy edi. Bir kuni Vera unga xat yozib *(ha, aytmoqchi, otaxon, buni biznikidagilarga ayta ko'rmang. ularning hech qaysisi buni bilmaydi)*, ishq-muhabbat izhor etib, bundan keyin o'zingizni koyitib yurmang, deb iltimos qildi. Shu-shu u muhabbat izhor etishini qo'ydi va onda-sonda Pasxada, Yangi yil tantanasida yo bo'lmasa, tug'ilgan kunini nishonlashda xat yozadigan bo'ldi.

Knyaginya Vera bugungi tortiq to'g'risida ham so'zlab, o'zining g'oyibona oshig'ining g'alati maktubini batafsil so'zlab berdi.

– Ha-a, – dedi cho'zib general. – Kim biladi, Verochka, u yigit anchayin bir savdoyimi, boshqami? Ehtimol, u sening hayotingni ayollar totli xayol qilgan, erlar esa bunga iste'dodsiz bo'lgan yuksak muhabbat bilan bezatar. To'xta-chi, hov ro'paradan millatlab kelayotgan fonarlarni ko'ryapsanmi? Mening foytunim bo'lsa kerak.

Xuddi shu paytda orqa tomondan avtomobil signalining g'atillagani eshitildi-yu, arava g'ildiraklari o'yib tashlagan g'adirdubdir yo'lga avtomobildan chiroq yog'dusi tushdi. Gustav Ivanovich yetib keldi.

– Annochka, sening narsalaringniyam ola keldim. O'tir moshinaga, – dedi u. Keyin generalga murojaat qildi. – Janobi oliylari, ijozat bersalar, uyingizga olib borib qo'ysam.

– Yo'q, azizim, rahmat, – dedi general. – Bu moshinani jinim suymaydi. Faqat dirillab qo'lansa hid taratadi. Ta'bingni tirriq qiladi. Xo'p, xayr endi. Verochka, bundan buyon tez-tez kelib turaman.

U Veraning peshonasidan va qo'lidan o'pdi.

Hammalari bir-birlari bilan xayrlashdilar. Friyesse Vera Nikolaevnani uning bog' eshigigacha olib borib qo'ydi, guvillab, potillagan avtomobilini shartta burib, qorong'ilikda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

IX

Knyaginya Veraning ko'ngli g'ash edi. U ayvonga chiqdi va uyga kirdi. U yiroqdan Nikolayning baqirgan ovozi eshitgan va uning uyda u yoqdan bu yoqqa tez-tez borib kelayotgan qotma, baland gavdasini ko'rgan edi. Vasiliy Lvovich ustiga ko'k movut qoplangan qarta stoli yonida kuzalgan och malla sochli katta boshini qo'yi solib, movutni bo'r bilan chizib o'tirardi.

– Men buni allaqachonlar aytgandim! – dedi Nikolay g'azablanib, o'ng qo'li bilan qandaydir og'ir bir narsani irg'itib yuborgandek qo'l siltab. – Men allaqachonlar bu ahmoqqa xatlariga xotima berish kerak, deb aytgandim. Hali Vera senga turmushga chiqmagan paytdayoq sen bilan Veraga, bu xatlarga xuddi qiziq narsalarga o'ch go'daklardek quvonmang, deb aytardim... Mana, Veraning o'ziyam keldi... Vera, biz hozir Vasiliy Lvovich bilan sening anov tentaging, Pe Pe Je to'g'risida gaplashyapmiz. Men bu yozishmalaringizni bema'nilik va odobsizlik deb hisoblayman.

– Hech qanaqa yozishma bo'lmagan, – deb Shein sovuqqonlik bilan uni to'xtatdi. – Faqat u yozgan...

Vera bu gaplarni eshitib qizarib ketdi va katta lataniya¹ soyasidagi divanga o'tirdi.

– Noto'g'ri gapirganim uchun kechirim so'rayman, – dedi Nikolay Nikolayevich va xuddi ko'ksidan ko'zga ko'rinmagan og'ir bir narsani yerga uloqtirib tashlagandek harakat qildi.

– Tushunolmay qoldim-ku, nega uni seniki deb aytasan, – dedi erining qo'llashidan shodlangan Vera. – U senga qandoq bo'lsa, mengayam shundoq...

– Xo'p, yana bir marta afu so'rayman. Xullas, men shuni aytmoqchimanki, uning ahmoqona ishlariga chek qo'yish kerak. Menimcha bu, ya'ni ermak qilib rasmlar solish, kulishlar endi chegarasidan o'tganga o'xshaydi. Bilasizmi, men kinning g'amini ye-

¹ Lataniya – palmagullilarga mansub, yelpig'ichsimon bargli doim yashil o'simlik.

yapman? Faqat Vera bilan sening. Vasiliy Lvovich, pok nomingizga dog' tushmasligini g'amini yeyapman.

– Menimcha, Kolya, sen judayam bo'rttirib yuborayotganga o'xshaysan, – deb e'tiroz bildirdi Shein.

– Ehtimol shundaydir... Ammo siz hammaga kulgi bo'lib qolishingizni fahmlamayapsiz.

– Bunga asos yo'q. Qanday qilib unday ahvolga tushamiz? – dedi knyaz.

– Faraz qilginki, bu iflos bilaguzuk... – Nikolay stolda turgan qizil qutichani qo'liga oldi va shu zahotiyuq nafratlanib yana joyiga qo'ydi, – bu ruhoniylar taqadigan g'alati narsa biznikida qolsin, yoki biz buni tashlab yuboraylik, yo bo'lmasa, buni Dashaga sovg'a qilaylik... Chunki, birinchidan, Pe Pe Je o'z tanish-bilishlariga, o'rtoqlariga knyaginya Vera Nikolayevna Sheina mening hadyalarimni qabul qiladi, deb maqtanishi mumkin, ikkinchidan, agar biz uni olib qolsak, kelajak umid yo'lida muvaffaqiyatlarga erishishga tag'in ham uni rag'batlantirgan bo'lamiz. Ertaga u olmos ko'zli uzuk, indinga marvarid marjon yuboradi, keyin qarabsizki, u kamomad yoki qalbaki hujjat bilan sudga tushib, aybdorlar kursisida o'tiradi. Knyaz Sheinlar esa guvoh tariqasida sudga chaqiriladi. Shunda yaxshi bo'ladimi?

– Yo'q, yo'q, bilaguzukni, albatta, qaytarib yuborish kerak, – dedi Vasiliy Lvovich.

– Men ham shunday deb o'ylayman, – deb uning fikriga qo'shildi Vera. – Imkon qadar tezroq qaytarish kerak. Biroq buni qanday qilib amalga oshirib bo'ladi? Axir, biz uning na otini, na familiyasini, na manzilini bilmasak...

– E-e... bu oson ish! – dedi mensimay Nikolay Nikolayevich. – Pe Pe Jening ismi, otasi ismining birinchi harflari ma'lum-ku, axir. Ular qaysi harflar edi, Vera?

– Ge Es Je.

– Juda soz. Bundan bo'lak uning qayerdadir xizmat qilishiyam bizga ma'lum-ku. Shuning o'zi yetadi. Ertagayoq men shahar ko'rsatkich jadvalini olib, otasining nomi shu harflar bilan boshlanadigan amaldor yoki xizmatchini izlayman. Mabodo, biror sabab bilan topolmasam, to'ppa-to'g'ri politsiya qidiruv sho'ba josusini

chaqirib, u odamni topishga buyuraman. Agar uni topish qiyinlashib ketsa, qo'limda uning o'z qo'li bilan yozilgan manavi xat bor. Xullasi kalom, ertaga soat ikkida u badkirdorning manzili, familiyasi, hat-toki uyda qay vaqtda bo'lishini aniq bilaman. Modomiki, buni bil-sam, ertagayoq uning bu qimmatbaho narsasini qaytarib yuboramiz va bundan buyon bizni tinch qo'yishi uchun ham chora ko'ramiz, toki dunyoda borligini bizga bildirmasin.

– Qanday qilib? – deb so'radi knyaz Vasiliy.

– Qanday qilib deysanmi? Gubernatorga borib iltimos qilaman...

– Yo'q, faqat gubernatorgamas. Sen gubernator bilan bizning qanday munosabatda ekanimizni bilasan, gubernatorga borib ayt-sang, hammaga kalaka bo'lishimiz mumkin...

– Baribir, unday bo'lsa, jandarma polkovnigining oldiga bo-raman, u mening og'aynim. klubda tanishganmiz. Ha, mayli... og'aynim u landavurni chaqirib, qo'lini paxsa qilib bir adabini ber-sin... Uning qanday qilib tanbeh berishini bilasanmi? Barmog'ini odamning burniga bigiz qilib: «Afandim, men bunga toqat qi-lol-may-man!» – deb baqiradi.

– Ey! Bu ishga jandarmani aralashtirishning nima hojati bor? – deb aftini burishtirdi Vera.

– To'g'ri aytasan, Vera, – deb uning gapini ma'qulladi knyaz. – Yaxshisi, bu ishga chet odamlarni aralash-tirmaslik kerak, chunki mayda-chuyda ig'vo gaplar tarqaladi. Shahrimizdagi odamlarning fe'l-atvori o'zimizga ma'lum. Bu yerdagi odamlar oyog'i bilanmas, tili bilan yurishadi... Yaxshisi, bu yigitnikiga... Xudo biladi, balki u oltmishga kirgan choldir... uning oldiga o'zim boraman va bilag-uzukni topshirib, achitib-achitib uch-to'rt og'iz gap aytaman.

– Unday bo'lsa, men ham sen bilan birga boraman, – deb dar-rov uning gapini bo'ldi Nikolay Nikolayevich. – Sening ko'ngling bo'sh, u bilan gaplashishni menga qo'yib ber... Endi, do'stlarim, – u cho'ntagidan soatini olib qaradi. – Afu etasiz, men o'z xonamga boray, oyog'imda arang turibman, ikki ishni ko'rib chiqishim kerak.

– Negadir u baxtsizga rahmim kelyapti. – dedi ikkilanib Vera.

– Rahming kelmay qo'ya qolsin! – dedi cho'rt kesib Nikolay, eshik oldida to'xtab va orqasiga qayrilib. – Agar bunday ishni, ya'ni birovning xotiniga xat yozib, bilaguzuk yuborishni bizning toifada-

gi odamlar qilgandaydi, knyaz Vasiliy duelga chaqirgan bo'lardi. Mabodo u bunday qilmaganda, buni men qilgan bo'lardim. Ilgarigi zamonlar bo'lganda, men uni otxonaga olib borib qamchilashga buyurgan bo'lardim. Vasiliy Lvovich, ertaga sen meni idorangda kut, telefonda xabar qilaman.

X

Po'panak bosgan zinapoyadan mag'zava, yermoyi, mushuk va sichqon hidlari anqirdi. Oltinchi qavatga ko'tarilish oldida knyaz Vasiliy Lvovich to'xtadi.

– Shoshma, birpas to'xta, – dedi u qaynisiga. – Nafasimni rostlab olay. Eh, Kolya, aslida, bu ishni qilishning hojati yo'q edi...

Ular yana ikki pog'ona ko'tarilishdi. Zinapoya sathi va xona oldidagi maydoncha qop-qorong'i bo'lganidan Nikolay Nikolayevich xonaning raqamini ko'rish uchun ikki marta gugurt chaqdi.

U qo'ng'iroqni chalgandi, sochlari oqargan, semiz, ko'kko'z, qandaydir xastalikdan gavdasi bukilgan, ko'zoynak taqqan bir xotin uy eshigini ochdi.

– Jeltkov janoblari uydami? – deb so'radi Nikolay Nikolayevich.

Ayol tashvishlanib ikkala erkakning dam unisiga, dam bunisiga ko'zlarini o'ynatib qaradi. Ularning tashqi qiyofalari durustligi, aftidan, ayolni tinchlantirdi, shekilli:

– Uydalar, qani, marhamat, – dedi eshikni ochib. – Kiraverishda, chapdagi birinchi eshik.

Bulat-Tuganovskiy eshikni uch marta qattiq taqillatdi. Xonada bir narsaning shitirlagani eshitildi. U yana bir daf'a taqillatdi. Ichkaridan:

– Kiring, – degan past ovoz eshitildi.

Xonaning shifti juda past, ammo juda keng va uzun, deyarli kvadrat shaklida, kemalarning illyuminatoriga o'xshardi.

Ikki deraza xonani zo'rg'a yoritardi. Xona xuddi yuk tashuvchi kemalarning kayut-kompaniyasiga¹ o'xshardi. Uyning bir tomonida,

¹ *Kayut-kompaniya* – oddiy kemada yo'lovchilar uchun, harbiy kemada zobitlar uchun umumiy bo'lma.

uzunasiga kichik karavot, ikkinchi tomonida esa ustiga eski chiroyli takayovmud gilami yozilgan, keng yumshoq kursi turar, xona o'rtasiga ustiga maloruscha guldor dasturxon yozilgan stol qo'yilgan edi.

Uy egasining chehrasi darrov ko'rinmadi. U chiroqda orqasini o'girib turar va esankirab qolganidan qo'lini ishqar edi. U novchadan kelgan, qotma, sochlari uzun va muloyim edi.

– Agar yanglishmasam, Jeltkov janoblari bo'lsalar kerak? – dedi takabburona bir ohangda Nikolay Nikolayevich.

– Ha, men Jeltkovman, kelinglar. Ijzat etsangiz, tanishsak. – U Tuganovskiy turgan tarafga qarab qo'lini cho'zdi va ikki qadam qo'ydi, ammo Nikolay Nikolayevich go'yo buni sezmagandek shu ondayoq butun gavdasi bilan Sheinga qarab o'girildi.

– Men senga, yanglishmadik, deb aytdim-ku.

Jeltkov asabiy, ozg'in barmoqlari bilan jigarrang kalta kamzulining tugmalarini goh yechib, goh sola boshladi. Nihoyat, u o'ngaysizlangan holda bosh egib, uzun, yumshoq kursiga qo'li bilan ishora qilib, arang:

– O'tinaman. O'tiringlar, – dedi.

Endi u bor bo'yicha ko'rindi: rangsiz yuzi qizlarnikidek muloyim, ko'zi ko'k, go'daklarnikidek chiroyli iyagining o'rtasida chuqurchasi bor edi, yoshi o'ttiz-o'ttiz beshlar atrofida edi.

– Rahmat, – dedi knyaz Shein soddagina qilib va unga sinchkov nazar tashladi.

– Merci¹, – dedi unga javoban Nikolay Nikolayevich, ikkovlari ham o'tirishmadi.

– Biz sizning oldingizga birpasga kirdik. Bu kishi gubernatorning zagonlarining boshlig'i knyaz Vasiliy Lvovich Shein bo'ladilar. Mening familiyam – Mirza-Bulat-Tuganovskiy. Men prokuror muvini. Siz bilan gaplashadigan masala knyazgayam, mengayam, to'g'risi, knyazning rafiqasi, mening esa singlimgayam bab-baravar taalluqlidir.

Jeltkov o'zini yo'qotib qo'yib, divanga o'tirib qoldi va oqargan lablari bilan: «Janoblari, o'tinaman, o'tiringlar», deb pichirladi. Ammo u bu taklifni ilgari ham qilganini va taklifi iltifotsiz qolganini

¹ Tashakkur (*fr.*).

esladi, shekilli, o'rnidan sakrab turib, yugurib deraza oldiga keldi va sochlarini qo'li bilan tarab, yana avvalgi yeriga qaytdi. U titroq qo'llari bilan yana tugmalarini yulqib, och sariq mo'ylovini chimdidi. Hojati bo'lmasa ham yuzini ushlab-ushlab qo'ydi. U ko'zlarini javdiratib Vasiliy Lvovichga qaradi-da:

– Xizmatingizga tayyorman, janobi oliylari, – dedi bo'g'iq tovush bilan.

Ammo Shein indamadi. Nikolay Nikolayevich gap boshladi:

– Avvalo, sizga o'z buyumingizni o'zingizga qaytarishga ijozat bergaysiz, – dedi u va cho'ntagidan kichkinagina qizil quticha chiqazib, avaylab stolga qo'ydi. – Bu narsa, albatta, sizning yuksak didga ega ekaningizni ko'rsatadi, biroq biz sizdan bundan buyon bunday sovg'alarni yubormasligingizni o'tinardik.

– Kechirasiz... gunohkor ekanimni o'zim ham bilaman, – dedi Jeltkov qizarib, yerga qarab. – Balki bir piyola choy icharsizlar...

– Bilasizmi, janob Jeltkov, – deb gapida davom etdi Nikolay Nikolayevich, go'yo uning taklifini eshitmagandek. – Men siz gapni darrov uqib olishga qobiliyatli, aqlli bir odam bo'lib chiqqaningiz uchun juda mamnunman, o'ylaymanki, darrov bir bitimga kelsak kerak. Agar yanglishmasam, siz knyaginya Vera Nikolayevnani yetti-sakkiz yildan beri ta'qib qilib yuribsiz, shundaymi, axir?

– Ha, – dedi Jeltkov ohista va kipriklarini quyi tushirdi.

– Biz shu vaqtga qadar sizga qarshi hech qanday chora ko'rmadik, e'tiroz bildirmasangiz kerak, bunday yo'l tutish mumkingina bo'lib qolmay, hatto zarur ham edi. Shunday emasmi?

– Ha.

– Ha, balli. Biroq siz so'nggi nojo'ya harakatingiz, ya'ni manavi yoqut ko'zli bilaguzukni sovg'a qilib yuborishingiz bilan chegaradan o'tib, sabr kosasini to'ldirdingiz. Tushunyapsizmi? To'ldirdingiz. Men sizdan yashirmayman, biz dastlab yordam so'rab hokimiyatga murojaat qilishni fikr qilgan edik. Ammo biz bunday qilmadik va bunday qilmaganimizga men juda xursandman, chunki takror aytaman, men sizning oliyjanob, nomusli odamligingizni darhol payqadim.

– Kechirasiz... Hozir nima dedingiz? – deb to'satdan gapga e'tibor berib so'radi Jeltkov va kulib yubordi. – Siz hozir, hokimi-

yatga murojaat qilmoqchiydim, deb aytdingizmi? A? Shunday dedingizmi?

U qo'llarini cho'ntagiga tiqib, divanning burchagiga yaxshilab o'tirib oldi va cho'ntagidan popirisquti bilan gugurt chiqazib popiris chekdi.

– Shunday qilib, siz hokimiyatdan yordam so'ramoqchiyam bo'luvdik, deb aytdingiz-a? O'tirganim uchun meni kechiring, – dedi u Sheinga murojaat qilib. – Ha, undan keyin-chi?

Knyaz kursini stolga yaqin surib o'tirdi. U bu ajoyib odamning yuzidan ko'zini uzmay, unga hayratlanib va zo'r qiziqish bilan qaradi.

– Bilasizmi, azizim, bu chorani qo'llash qochmaydi, – deb beandishalik qilib bemalol gapda davom etdi Nikolay Nikolayevich. – Birovning oilasini buzish... Bu nima degan gap, axir?

– Kechirasiz, gapingizni bo'laman...

– Yo'q, siz meni kechirasiz, endi gapni men bo'laman, – dedi prokuror deyarli qichqirib.

– Ixtiyoringiz... Xohlaganingizcha gapiring. Qulog'im sizda. Biroq mening knyaz Vasiliy Lvovichga aytadigan uch-to'rt og'iz gapim bor... – Shunday deb u Tuganovskiyni e'tibor qilmay, knyazga murojaat qildi: – Hozir mening hayotimda eng og'ir daqiqalar boshlandi, knyaz, men siz bilan har qanaqa shartlardan xorij, ochiq-oydin gaplashishim lozim. Gapimni eshityapsizmi?

– Eshityapman, – dedi Shein. – Kolya, birpas jim tursang-chi, – dedi u toqatsizlik bilan Tuganovskiyning g'azablangan basharasini ko'rib. – Gapiring.

Jeltkov xuddi burilayotgandek og'ziga havoni to'ldirib yutdi va birdan o'zini jarga qulab ketgandek his qildi. U gapirarkan, lablari murdaning lablaridek qimirlamas va oppoq oqarib ketgan edi:

– Albatta, men sizning rafiqangizni sevaman... degan gapni... aytish og'ir. Ammo yetti yillik samarasiz samimiy muhabbat shunday deyishga menga huquq beradi. E'tirof etamanki, dastlab, hali Vera Nikolayevna qizlik chog'larida men unga ahmoqona xatlar yozardim. Hatto bu xatlarimga javob ham kutardim. So'nggi qilg'im, ya'ni unga bilaguzuk yuborishimniyam katta ahmoqlik ekanini e'tirof etaman. Ammo... mana, hozir sizning ko'zingizga tik qarayapman va

siz mening muddaomni yaxshi tushunasiz, deb his qilyapman. Men juda yaxshi bilamanki, uni sevmasligim hech mumkin emas, men bunga ojizman... Ayting-chi, knyaz... faraz qilaylik, bu sizga xush kelmaydi... Lekin ayting-chi, bu tuyg'uni yo'qotish uchun siz nima qilgan bo'lardingiz? Agar Nikolay Nikolayevich aytgandek, meni boshqa shaharga badarg'a qilishsa, baribir u yerdayam, shu yerdagidek, Vera Nikolayevnani sevaveraman. Bordi-yu, turmaga tiqsalar, u yerdayam baribir Vera Nikolayevnaga o'zimning barhayotligimni bildirishga iloj topaman. Faqat bir chora bor, u ham bo'lsa – o'lim. Agar shuni istasangiz, buni har qanday usulda bo'lsayam ijro etishga tayyorman.

– Biz bu yerda jiddiy bir ishni bartaraf qilish o'rniga gap sotish bilan ovoramiz, – dedi Nikolay Nikolayevich shlyapasini kiyib. – Menimcha, masala qisqa va juda ravshan: sizga ikki narsadan birini tanlashingiz taklif etilyapti, yo knyaginya Vera Nikolayevnani ta'qib etishdan mutlaqo voz kechasiz, yo bo'lmasa, bunga rozi bo'lmasangiz, biz o'z amalimizdan, tanish-bilish, oshna-og'aynilarimizdan foydalanib sizga qarshi chora ko'ramiz.

Biroq Jeltkov Nikolay Nikolayevichning gaplarini eshitsa ham, unga qaramadi. U knyaz Vasiliy Lvovichga murojaat qilib so'radi:

– Siz menga o'n daqiqaga ijozat berasizmi? Sizdan yashirmayman, men hozir telefon orqali knyaginya Vera Nikolayevna bilan gaplashib kelaman. Sizni ishontirib aytamanki, aytish mumkin bo'lgan gaplarning hammasini yashirmasdan sizga aytaman.

– Bora qoling, – dedi Shein.

Xonada Vasiliy Lvovich bilan Tuganovskiy ikkovlari yolg'iz qolgach, Tuganovskiy birdan kuyoviga yopisha ketdi.

– Bunday qilish yaramaydi, – deb qichqirdi u o'ng qo'lini siltab. – Bunday qilish sira yaramaydi. Gapning amaliy tomonini o'z zimmamga olaman, deb seni ogohlantirgandim-ku. Sen bo'lsang shalpayib, uning his-tuyg'ulari to'g'risida gap sotib o'tirishiga yo'l qo'yib o'tiribsan. Men buni ikki og'iz gap bilan hal qilib qo'ya qoldim.

– Sabr qil, – dedi knyaz Vasiliy Lvovich. – Hozir hammasi ayon bo'ladi. Muhimi shuki, bu odamning yuziga qarab, qasddan odamni aldash, yolg'on so'zlashga qobiliyatsiz ekanini ko'rib turibman. Nafsilambirini aytganda, Kolya, o'zing o'ylab ko'r, muhabbati uchun u

aybdormi? Muhabbatdek hali shu vaqtgacha to'la ifoda etilmagan bir tuyg'uni, nahotki, idora qilib bo'lsa? – Knyaz biroz o'ylanib bunday dedi: – Men bu odamga achinaman va faqat achinibgina qolmay, o'zimni qandaydir buyuk bir fojيانing, otashin qalb va muhabbat fojiasining guvohidek his qilyapman. Shuning uchun ham ortiqcha gap aytishga tilim bormaydi.

– Buni mutaassiblik deb ataydilar, – dedi Nikolay Nikolayevich.

O'n daqiqadan keyin Jeltkov qaytib keldi. Uning ko'zlari ichiga botgan, ko'z kosasi go'yo to'kilmaydigan ko'z yoshlari bilan liq to'ladek g'ilt-g'ilt qilar edi. Uning mo'tabar zotlar oldida ko'rsatiladigan izzat-ikromlar, kimning qayerda o'tirishi va boshqalarni butunlay unutgani ko'rinib turardi, endi u o'zini ziyolilardek tutmay, sodda odamlardek tutardi. Knyaz Shein buni ichki bir tuyg'u bilan payqadi.

– Men tayyorman! – dedi u. – Ertadan boshlab siz men to'g'rimda hech narsa eshitmaysiz. Siz uchun go'yo men o'laman. Ammo bir shartim bor – buni men faqat sizga aytyapman, knyaz Vasiliy Lvovich – bilasizmi, men davlat pulini sarflab qo'ydim, baribir bu shahardan qochishimga to'g'ri keladi. So'nggi marta Vera Nikolayevnaga xat yozishimga ijozat bersangiz.

– Yo'q, kerakmas, hojati yo'q, hech qanaqa xat yozilmaydi, – deb qichqirdi Nikolay Nikolayevich.

– Yaxshi, yozing, – dedi Shein.

– Barakalla, menga boshqa hech narsa kerakmas, – dedi Jeltkov sipolik bilan jilmayib. – Endi men to'g'rimda bundan buyon hech narsa eshitmaysiz ham, meni hech qachon ko'rmaysiz ham. Knyaginya Vera Nikolayevna men bilan gaplashishni istamadi. Men undan ko'zingizga ko'rinmay, sizni har zamonda bir ko'rib turish uchun shaharda qolsam maylimi, deb so'ragandim, u: «Eh... bu gaplar qanchalik meni bezor qilganini bilsangiz edi!.. Bu gaplarning hammasiga imkon qadar tezroq xotima bering», dedi. Mana endi men bularning hammasiga xotima beraman. Nazarimda, nimaiki qo'limdan kelsa, hammasini bajardim.

Kechqurun Vasiliy Lvovich boqqa chiqib, Jeltkov bilan uchrashganlarida bo'lgan gaplarni bitta qo'ymay xotiniga so'zlab berdi. U buni go'yo o'zining burchi deb his qildi.



Vera tashvishlangan bo'lsa-da, hayron bo'lmadi, sarosimaga ham tushmadi. Kechasi eri uning xobgohiga kelganda, u birdan devor tarafga orqasini o'girib yotib oldi-da, shunday dedi:

– Meni tinch qo'y, u odam o'zini halok etishini ko'nglim sezib turibdi.

XI

Knyagina Vera Nikolayevna gazetalarni sira o'qimas, chunki, birinchidan, gazetalar qo'lini kir qilsa, ikkinchidan, hozirgi gazetalarining tiliga u hech tushunmas edi.

Ammo taqdirning yozmishi bilan gazeta sahifasidagi mana bu satrlarga ko'zi tushib qoldi.

«Sirli o'lim... Kecha kechqurun soat yettilarda nazorat palatasining amaldori G.S. Jeltkov o'zini o'zi o'ldirdi. Tekshiruv materialariga qaraganda, uning o'z-o'zini o'ldirishi davlat pulini sarflab yuborishi natijasida sodir bo'lgan. U yozib qoldirgan xatida shularni bayon qiladi. Guvohlarning ko'rsatishicha, o'z-o'zini o'ldirishi uning o'z ixtiyori bilan sodir bo'lganidan jasadini anatomiya teatri-ga¹ yubormaslikka qaror qilingan».

Vera: «Nega bu fojining yuz berishini ko'nglim darrov sezdi? Bu nima edi o'zi? Muhabbatmi yo tentaklikmi?» – deb ko'nglidan kechirdi.

U uzzukun gulzorda va mevali bog'da aylanib yurdi.

Daqiqa sayin o'sayotgan besaranjomlik bir joyda o'tirishiga yo'l qo'ymasdi. Uning fikr-u xayoli hech qachon o'z ko'zi bilan ko'rmagan va ko'rishi dargumon bo'lgan o'sha ajoyib, g'oyibona odam Pe Pe Jeda edi, undan xayolini uzolmasdi.

U Anosovning: «Kim biladi, sening hayotingni haqiqiy, kuchli muhabbat bezagandir», degan gapini esladi.

Soat oltida pochtachi keldi. Bu safar Vera Nikolayevna Jeltkovning yozuvini darrov tanidi va kutilmaganda ehtirom bilan maktubni ochdi.

Jeltkov o'z xatida bunday deb yozgandi:

¹ *Anatomiya teatri* – o'liklar yorib ko'riladigan xona.

«Vera Nikolayevna, Tangrim menga katta baxt ato etib qalbinga sizga nisbatan mehr-muhabbatni jo qilgan bo'lsa, bunga men gunohkor emasman. Shunday ko'yg'a tushib qoldimki, yorug' dunyoda meni na ilm-fan, na siyosat, na faylasuflik, na kishilarning kelajakdagi baxtli hayotlari to'g'risida g'amxo'rlik qilish, hech narsa qiziqirmaydi. Men uchun butun hayot faqat Siz – ...Sizdan iborat. Hozir men o'zimni, Sizning hayotingizga suqulib qolgan qandaydir ponadek his qilyapman. Buning uchun agar afv etolsangiz, meni afv etarsiz. Bugun men ketaman va hech qachon qaytib kelmayman va hech narsa meni Sizning esingizga tushirmaydi.

Barhayot bo'lishingiz uchun g'oyat mamnunman va behad tashakkur izhor etaman. Men o'zimni sinadim, bu xastalik yo savdoyilik emas – bu muhabbat, Tangrining menga yuborgan in'omidir.

Siz bilan akangiz Nikolay Nikolayevich nazarida telba-kezik bir odam hisoblangan bo'lsam ham mayli... Ketarkanman, shod-xurramlik ila, «Yangrasin bu olamda sening noming», deyman.

Sakkiz yil muqaddam men Sizni sirkda, lojada ko'rgandim. Ko'rishimning birinchi daqiqalaridayoq o'zimga o'zim: «Men uni sevaman, chunki yer yuzida unga hech narsa o'xshamaydi, bu jahonda undan yaxshiroq, undan chiroyliroq va yoqimliroq na hayvonot, na nabotot, na odamzod bor... Yer yuzining butun go'zalligi, nafasati unda mujassamlangan», deb aytgandim.

O'zingiz o'ylab ko'ring, men nima qilishim kerak edi? Boshqa shaharga qochib ketishim kerakmidi? Unda baribir qalbim butunlay Sizga bag'ishlangan bo'lib, kunning har daqiqasi Siz to'g'ringizdagi shirin xayollar bilan o'tardi. Sizga ahmoqona yuborgan bilaguzugim uchun fikran juda xijolat tortib qizaryapman. Nima qilay endi? Bu mening xatom. U Sizning mehmonlaringizda qanday taassurot qoldirganini tasavvur qilyapman.

O'n daqiqadan keyin men ketaman. Sizga yozgan maktubni begona odamga topshirmaslik uchun unga marka yopishtirib, pochta qutisiga tashlashgagina ulguraman, xolos. Siz bu xatni yoqib yuboring. Mana, men hozir pechkani yoqdim va hayotimdagi hamma qimmatbaho narsalarni: bo'ynimga olaman, Sizdan o'g'irlab olgan ro'molni yoqaman. Siz bu ro'molni zodagonlar majlisi uyida bo'lgan bazmda kursida unutib qoldirgandingiz. Yana Sizning xatingizni –

oh, men buni yuz-ko'zimga surib, qayta-qayta o'pdim! – yoqaman. Bu maktub orqali menga noma yozishni taqiqlagandingiz. Yana bir kun, san'at ko'rgazmasida qo'lingizda ushlab o'tirib, chiqib ketayotganingizda kursida esdan chiqazib qoldirgan ko'rgazma dasturini, bularning hammasini yoqaman, albatta. Ammo o'ylaymanki, hatto ishonamanki, Siz har nechuk meni xotiringizga olasiz. Agar Siz meni xotirlasangiz, u holda... bilamanki, Siz musiqani juda yaxshi ko'rasiz, Sizni ko'pincha Betxoven kvartetlarida¹ ko'rganman – u holda Betxovenning D-dur № 2, op. 2 sonatasini² chaling yo chaldiring.

Xatni qanday tamomlashimni bilmayapman. Siz mening hayotimdagi birdan-bir shodligim, yagona yupanchimsiz, fikru xayolim bo'lganingiz uchun qalbimning eng tubidan chiqqan tashakkurlarimni Sizga izhor etaman. Tangrim Sizga hamisha baxt-saodat ato etsin. Pok qalbingizni hech narsa bezovta qilmasin. Qo'llaringizni o'paman.

G. S. J.»

U erining oldiga yig'idan ko'zlari qizarib, lablari cho'chchayib kirdi va xatni ko'rsatib:

– Men sendan hech narsani yashirishni istamayman, hayotimizga qandaydir bir sovuqlik, mudhish narsa oraladi. Ehtimol Nikolay Nikolayevich bilan chegaradan chiqib, ortiqcha harakat qilgandirsizlar, – dedi.

Knyaz Shein diqqat bilan xatni o'qib chiqib, yaxshilab bukladi va anchagacha jim qolib, shunday dedi:

– Bu odamning samimiyligiga, balki undan ham ulug'roq odam ekaniga menda hech qanday shubha yo'q, uning senga bo'lgan tuyg'ulari masalasida hech nima deyolmayman.

– U o'ldimi? – deb so'radi Vera.

– Ha, o'ldi. Men senga aytсам, u seni chin qalbidan sevardi, sira jinni emasdi. Men undan ko'zimni uzmay, uning har bir hara-

¹ *Kvartet* – bu yerda: to'rt ovoz yoki to'rt soz uchun yozilgan musiqa asari nazarda tutilmoqda.

² Mashhur nemis bastakori, pianinochisi va dirijyori Lyudvig van Betxovenning (1770–1827) fortepianoda ijro etish uchun yozgan ikkinchi sonatasi.

katini, yuzidagi har bir o'zgarishni tekshirdim. Chindan ham uning uchun sensiz bu dunyo qorong'i, hayot yo'q edi. Nazarimda, men o'zimni insonni go'rga tiqadigan zo'r azob-uqubat yonida turgandek his etdim-u, shu zahotiyiq ro'paramda murda turganini payqadim. Bilasanmi, Vera, hatto men nima qilishimni, o'zimni qanday tutishimni bilmay qoldim...

– Vasya, jonim, – deb uning gapini bo'ldi Vera Nikolayevna. – Agar men shaharga borib uni ko'rsam, ko'nglingga og'ir olmaysanmi?

– Yo'q, yo'q, Vera, marhamat, azizam, o'tinaman. O'zim ham borardim-u, biroq Nikolay ta'bimni xira qilib qo'ydi. O'zimni erkin tutolmasam kerak, deb qo'rqaman.

XII

Vera Nikolayevna izvoshini Lyuteranlar ko'chasiga yetmasdan, ikki ko'cha berida qoldirdi. U Jeltkovning kvartirasini osongina topdi. Eshikni ko'k ko'z, semiz, kumush ko'zoynak taqqan kampir ochdi va kechagidek:

– Kim kerak sizga? – deb so'radi.

– Jeltkov janoblari kerak, – dedi knyaginya.

Aftidan, knyaginyaning libosi, shlyapasi, qo'lqopi va biroz amirona ovozi kvartira egasiga katta ta'sir ko'rsatdi, shekilli, labi labiga tegmay bidirlab ketdi:

– Marhamat qilsinlar, bekam, marhamat, ana u chap tomondagi birinchi eshik, u yerda... Hozir... Esiz, u yorug' dunyodan bevaqt ketdi. Ana, bordi-yu, kamomad ham qilgan bo'lsin, deylik, buni nega menga aytmadiykin? O'zingiz bilasiz, bo'ydoqlarni kvartiraga qo'yib nimayam daromad olib bo'ladi? Ammo olti yuz, yetti yuz so'mni bir amallab topardim va uning uchun to'lardim. Bekam! Uning qanday ajoyib odam ekanini bilsangiz edi... Sakkiz yildan beri uni kvartiramda qo'yardim. U menga ijaragirmas, tuqqan o'g'limdek bo'lib qolgandi.

Vera dahlizda turgan kursiga o'tirdi.

– Men marhum ijaragiringizning do'stiman, – dedi u har bir so'zni chertib-chertib. – Uning so'nggi daqiqalardagi hayoti, nima qilgani va nima deganini menga so'zlab bersangiz.

– Bekam, biznikiga ikki mo'tabar odam keldi va ular uzoq vaqt-gacha gaplashishdi. Ular ketgandan keyin u menga: kelgan kishilar kalitdorlik vazifasini taklif qilishdi, dedi. Keyin janob Yejiy yugurib borib qo'ng'iroq qildilar va u yerdan juda xursand bo'lib qaytdilar. Keyin haligi kelgan janoblar ketishdi va u o'tirib xat yoza boshladi. Keyin xatni pochta qutisiga tashlab keldilar. Keyin bir mahal, go'yo bolalar o'ynaydigan to'pponcha otilgandek, uydin «paq» etgan ovoz eshitildi. Biz parvo qilmay o'tiraverdik. Soat yettida ular doim choy ichardilar. Lukerya – xizmatchi ayol borib ularning eshiklarini taqillatdi. Ammo hech kim javob bermadi. Qayta-qayta taqillatdi, biroq javob eshitilmadi. Keyin eshikni buzib kirsak, u o'lib yotibdi.

– Bilaguzuk to'g'risida gapiring, – dedi amirona Vera Nikola-yevna.

– Ha, ha, aytmoqchi bilaguzuk... Xayolimdan ko'tarilibdi. Ha... buni siz qayoqdan bilasiz? U xat yozmasdan oldin mening oldimga kelib: «Siz katolikmisiz?» – deb so'radi. Men, ha, katolikman, dedim. Keyin u: «Sizlarda ajoyib bir odat bor, – u xuddi shunday dedi, – Tangri siymosiga qimmatbaho narsalar, marjonlar, halqachalar taqish odati. Siz iltimosimni yerda qoldirmay shu bilaguzukni butga osib qo'yolmaysizmi?» – dedi. Men iltimosini bajo keltirishga va'da berdim.

– Uning jasadini menga ko'rsatolmaysizmi? – deb so'radi Vera.

– Bajonidil, marhamat qilsinlar, bekam. Mana, uning uyi, kira-verishingizda chap tomoningizdagi birinchi eshik. Bugun uni anatomiya teatriga olib ketishmoqchiydi, biroq akasi o'rtaga tushib, uni nasroniylarning odati bilan ko'mishni so'rab olib qoldi... Qani, marhamat, kirsinlar.

Vera o'zini tutib olib, kuch bilan eshikni ochdi. Xonada uchta mum sham yonar, isiriq isi kelardi. Xona burchagiga qarata qiyshaytirib qo'yilgan stolda Jeltkov yotardi. Uning boshi juda past, xuddi o'lik uchun buning farqi yo'qdek. Uning boshiga jo'rttaga kichkina yumshoq yostiq qo'yilgandi. U hayot bilan vidolasharkan, go'yo o'z hayotini tor-mor etgan qandaydir chuqur va shirin sirni bilib olgandek edi, yumuq ko'zlarida oliyanob g'urur bor edi va lablari go'yo huzur bilan tabassum qilardi. Shunday hazin, ma'noli yuz ifodasini ulug' jafokash Pushkin va Napoleonning yuz niqobida ko'rgani Veraning xotirasiga tushdi.

– Buyursalar, bekam, men chiqib tursam, – dedi kampir. Uning gap ohangida qandaydir yaqinlik va mehribonlik hislari sezilardi.

– Mayli, keyin o‘zim chaqiraman, – dedi Vera va shu zahotiy oq koftachasining kichkina yon cho‘ntagidan katta qizil gul chiqazdi va chap qo‘li bilan o‘likning boshini ko‘tarib, o‘ng qo‘li bilan uni bo‘yni tagiga qo‘ydi. Shu damda u har bir ayol orzu qilgan chin muhabbatning unga nasib bo‘lmay, chap berib o‘tganini angladi. U general Anosovning abadiy sevgi to‘g‘risida bashorat qilib aytgan gapini xotirladi va mayitning peshonasiga tushgan sochidan farq ochib, qo‘llari bilan uning ikki chakkasini mahkam qisib, uning muzdek sovuq peshonasidan samimiy, do‘stona, uzoq o‘pdi.

Vera ketarkan, uy egasi shirinso‘zlik bilan polyakcha ohangda unga murojaat qildi:

– Bekam, ko‘rib turibman, bu yerga siz boshqalar singari ermak-talab bo‘lib kelmaganga o‘xshaysiz. Marhum Jeltkov o‘limi oldidan: «Mabodo ajalim yetib, o‘lib qolgudek bo‘lsam, meni ko‘rishga biror ayol kishi kelsa, unga aytingki, Betxovenning eng yaxshi asari...» – buni u atayin yozib qoldirdi. Mana, ko‘ring...

– Qani, uni menga ko‘rsating, – dedi Vera Nikolayevna va birdan yig‘lab yubordi. – Kechiring meni. Bu o‘lim menga juda og‘ir ta‘sir qildi, o‘zimni tutolmayapman.

U tanish dastxat bilan yozilgan xatni o‘qidi: «*L. van Beethoven. Son. № 2, op. 2. Largo Appassionato*».

XIII

Vera Nikolayevna uyga juda kech qaytib keldi, uyida eri bilan akasi yo‘qligidan xursand bo‘ldi.

Uni pianinochi Jenni Reyter kutardi. U Jenni hamma gap-dan xabardor ekanidan hayajonlanib unga otildi va chiroyli, katta qo‘llaridan o‘pdi, keyin:

– Jenni, azizam! Men uchun biror narsa chalib ber, – dedi-da, darrov xonadan chiqib, gulzorga bordi va u yerdagi kursiga o‘tirdi.

U Jennining Jeltkov degan ajabtovur familiyali marhum iltimos qilgan ikkinchi kuyning xuddi o‘sha joyini chalishiga sira gumonsi-ramadi.

Chindan ham shunday bo'ldi. Dastlabki akkorddanoq bu chuqur ta'sirli, yagona musiqaviy asarni tanidi.

Uning qalbi go'yo ikki pallaga bo'lindi. U bir tomondan, ming yilda bir marta takrorlanadigan, o'ziga yoq berib o'tgan kuchli muhabbat to'g'risida o'ylasa, ikkinchi tomondan, general Anosovning gaplarini esladi. Keyin u odam mening istagimga qarshi nega Beethoven asarini tinglashga meni majbur qildi ekan, deb o'ziga o'zi savol berdi. Uning fikrida yangi so'zlar tug'ildi. Aqliga kelgan so'zlar musiqaga shunday mos tushardiki, go'yo naqarotlar «Yangrasin bu olamda sening noming» so'zlari bilan tamom bo'lardi.

«Mana, men hozir sizga o'zini azob-uqubat va halokatga shod va itoatkorona otgan bir hayotni yoqimli musiqa ovozlarida ko'rsataman. Men na shikoyat, na gina, na o'z-o'zini sevish dardini bildim. Sening qarshingda aytadigan birdan-bir umid-iltijom faqat shu: «Yangrasin bu jahonda sening noming»...

«Ha, men azob, qon va o'limni oldindan ko'ryapman. O'ylaymanki, jonni tandan ajratish qiyin, ammo, go'zalim, senga madh o'qiyman, ardoqlayman, butun borlig'im, nozik muhabbatimni senga bag'ishlayman. «Yangrasin bu olamda sening noming».

«Sening har bir qadamingni, nigoh va tabassumingni, yurishlaringni eslayman. So'nggi xotiralarim totli qayg'u, sokin, go'zal alam va hasrat bilan cyg'orilgan. Ammo senga qayg'u-hasrat yetkazmayman. Men lom-mim demay, yakka ketaman... Tangrim peshonamga shuni yozgan ekan: «Yangrasin bu olamda sening noming».

«O'limim oldidagi qayg'uli damlarda yolg'iz senga topinaman. Men uchun ham hayot go'zal bo'lishi mumkin edi. Bechora qalb, zorlanma, qo'y, zorlanma! Ko'nglimda o'zimga o'lim chaqiraman, ammo qalbim seni ko'klarga ko'tarib madhlashga tayyor: «Yangrasin bu olamda sening noming».

«Sen va atrofingdagi kishilar qanchalik go'zal ekaningni bilishmadi, buni o'zing ham bilmading. Soat jom chalyapti. Vaqt yetdi. O'larkanman, hayot bilan ayrilishning g'amgin damlarida, senga shon-sharaflar bo'lsin, deb kuylayman»...

«Mana, hammasidan ustun ajal kelyapti, men bo'lsam senga shon-sharaflar bo'lsin deyman!»

Knyaginya Vera akas daraxtini quchoqlab bag'riga bosdi va yig'ladi. Daraxt asta-sekin silkindi. Yengil shabada turib, go'yo unga rahm qilgandek, yaproqlarni shitirlatdi. Yulduz gulli tamaki islari hid sochdi. Shu payt, go'yo uning qayg'u-alamlariga achingandek, ajoyib musiqa sadolari yangradi:

«Tinch bo'l, azizam, tashvish tortma, tinchlan... Sen meni unut-madingmi? Meni eslayapsanmi? Axir, mening so'nggi, birdan-bir sevgim sensan. O'zingni koyitma, men sen bilan hamisha birgaman. Men to'g'rimda andak o'ylasang yetadi, hamma vaqt sen bilan birga bo'laman, chunki sen bilan men bir-birimizni bir lahzada, ammo abadiy sevib qolganmiz. Sen meni eslayapsanmi? Men ko'z yoshlarini sezyapman. Tinchlan, azizam. Men orombaxsh, tinch va shirin uyqu og'ushidaman... Uyqu shirin... juda shirin»...

Jenni Reyter pianinoni chalib bo'lib, xonadan chiqdi va o'rindiqda ko'zidan duv-duv yosh to'kib o'tirgan Verani ko'rdi.

– Senga nima bo'ldi, Vera? – deb so'radi pianinochi ayol.

Ko'zlarida yosh g'iltillab turgan Vera hayajonlanib va bezovtalanib uning yuzidan, ko'z, lablaridan o'pib shunday dedi:

– Yo'q, yo'q... u meni endi afv etdi. Hech narsa bo'lgani yo'q. Hammasi joyida.

OLESYA


I

Mening xizmatkorim, oshpazim va ovda hamrohim – o'rmon qorovuli Yarmola orqasida bir bog'lam o'tin bilan egilib xonaga kirib keldi va uni gursillatib yerga tashladi-da, muzlab qolgan barmoqlarini kuhlab isitdi.

– Tashqarida shunday shamolki, panich¹, – dedi u pechning pastki eshikchasi yonida cho'qqayib o'tirib. – Uyni yaxshilab isitish kerak. O't yoqib yuboraymi, panich?

– Demak, ertaga quyon ovlashga bormaymiz, shundaymi? Borsa bo'lmaydimi, nima deysan, Yarmola?

¹ *Pan* – Sharqiy Yevropada yashovchi slavyanlar, xususan, polyak, chex, slovak, ukrain, beloruslarda erkaklarga nisbatan qo'llaniladigan murojaat shakli; *panich* – panzoda (so'zma-so'z: janobning o'g'li, boyvachcha ma'nosida).



– Yo‘q... mumkinmas... bo‘ronni qarang, eshitmayapsizmi? Quyond pisib yotibdi pix-pix qilib... Ertaga iz-pizni ko‘rmaysiz.

Qismat meni naq olti oyga Volin guberniyasidagi ovloq bir qishloqqa, Polesya chekkasiga tashladi va ov – mening ovunishim mumkin bo‘lgan yagona mashg‘ulotim hamda huzur-halovatimga aylandi. Qishloqqa borish taklifini olgan paytlarim men bu yerlarda toqat qilib bo‘lmas darajada zerikaman, deb mutlaqo xayolimga keltirmaganimni tan olaman. Men hattoki xursand bo‘lib yo‘lga tushganman. «Polesye... inson oyog‘i yetmagan chekka joylar... tabiat quchog‘i... oddiy turmush tarzi... ibtidoiy manzaralar, – xayol qilardim vagonga o‘tirarkanman, – g‘alati taomillari, tili ham o‘ziga xos, menga butunlay notanish xalq... ehhe, ehtimol qanchalar ko‘p shoirona afsona-yu rivoyatlari. qo‘shiq-lari bor ekan!» Men bo‘lsam, o‘sha vaqtlar (hi-koyami, mana, sizga hikoya) bir kichkina gazetada ikki qotillik va o‘z joniga qasd qilish haqidagi bir hikoyani bosib chiqarishga ulgur-gan edim va yozuvchi uchun hayotni ko‘rish, kuzatish foydadan xoli bo‘lmasligini nazariy jihatdan bilar edim.

Biroq... yoki nazarimda, Perebrod dehqonlari qandaydir ayri-cha, qaysarona odamoviliklari bilan farq qilardilar, yoki o‘zim muloqotga kirisholmadimmi – ular bilan munosabatim quyidagilar bilan kifoyalandi, ya‘ni ular meni uzoqdan ko‘rishlari bilan bosh kiyimlarni olar-dilar, menga tenglashib, yaqinlashishlari bilan xo‘mrayganlaricha: «Gay bug», derdilar, bu «Xudoyim, O‘zing qo‘lla» ma‘nosini ang-latardi nazarimda. Men ular bilan gaplashishga xo‘p urinib ko‘rdim, ular esa ajablanib qaradilar, eng jo‘n, sodda savollarimni ham tu-shungilari kelmadi va hadeb qo‘llarimni o‘pishga urindilar – bu pol-yak krepostnoyligidan qolgan ko‘hna odat edi.

Men bor kitoblarimni yana bir boshdan qayta o‘qib chiqdim. Garchand avvaliga menga bu narsa yoqimsiz tuyulgan bo‘lsa-da, az-baroyi zerikkanimdan – o‘n besh chaqirim narida turadigan, ixtiyori-da «organchi pan», uryadnik¹ va qo‘shni iste‘fodagi unter-zobitlar yer-mulki idora xizmatchisi bo‘lgan ksyondz² yordamida tub yerlik

¹ Uryadnik – uyezd politsiyasining eng kichik unvoni.

² Ksyondz (polyakcha: ksiadz – «pop, ruhoni», belor. ksyondz, ukr. ksondz) – pol-yak, shuningdek, belorus va ukrain katolik ruhoniysi.

ziyolilar bilan tanishishga urinib ko'rdim, lekin bu harakatim besamar ketdi.

Undan keyin perebrodliklarni davolashga kirishdim. Bisotimda bor dori-darmon ushbular edi: kanakunjut moyi, karbol kislotasi, borat kislotasi, yod. Biroq shunda men busiz ham tanqis ma'lumotlardan tashqari bemorlarimga tashxis qo'yishim mutlaqo imkonsiz ekanini bilib qoldim, chunki ularning kasallik alomatlari hamisha ayni va bir xil edi: «ichim og'riydi» va «na yeyish, na ichishga holim yo'q».

Deylik, huzurimga keksa ayol keladi. Kampir tortinib, o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'i bilan burnini artganicha qo'ynidan ikkita tuxum chiqazadi, shunda, bir soniyaga ayol badanining jigarrang terisi ko'rinib ketadi, keyin tuxumlarni stolga qo'yadi. So'ngra ayol o'pichini tamg'a qilib bosish uchun qo'llarimni ushlab olishga intiladi. Men qo'llarimni tortganimcha kampirga uqtirmoqchi bo'laman: «Bo'ldi-bo'ldi, xola... qo'ying-da endi... men, axir, ruhoniyasman-ku... bu menga joiz emas... Qayeringiz og'riyapti?»

– Ichim og'riyapti, panich, ichim burab og'riydi, na bir tomchi suv ichaman, na bir narsa yeyman.

– Anchadan buyon shunday og'riyaptimi?

– Itim biladimi? – deydi javoban savolimga savol bilan. – Shunday burab og'riydi, burab og'riydi. Bir nima icholmayman ham, yeyolmayman ham.

Qo'rqmay aytishim mumkinki, muayyan alomatlardan boshqa biror kasallik topilmaydi.

– Siz ko'pam tashvishlanavermang, – deb ko'nglimni ko'tardi unterni idora xizmatchisi, – o'z-o'zidan tuzalib ketadilar. Xuddi itlarga o'xshab kasali ichida yopishib qotib qoladi. Sizga bir narsani aytib qo'yay, men faqat bittagina dorini ishlataman, u ham bo'lsa – novshadil spirti. Oldimga bir dehqon keladi. «Senga nima kerak?» – «Men, deydi, kasalman...» Men darrov unga novshadil spirti shishasini tutaman. «Hidla!» Hidlaydi... «Yana qattiqroq... hidla!...» Hidlaydi... «Ha, bosildimi?» – «Bosilib qolganga o'xshaydi...» – «Bo'pti, boraver, Xudo yor bo'lsin».

Ustiga ustak, ana shu qo'l o'pishlardan ko'nglim ketadigan bo'ldi (ayrimlari bo'lsa, shundoq oyog'imga yiqilib, jon-jahdlari bilan etigimni o'pishga intildilar). Bu, aslida, chin ko'ngildan chiqqan ha-

rakat emas, balki asrlar bo'yi qullik va tajovuzkorlik bilan odamlarning qon-qoniga singdirilgan ayanchli, xunuk odat edi. Mening eng hayron qolganim shu ediki, ana shu unterlar idora xizmatchisi va uryadniklarning o'zlari dehqonlar lablariga shunday viqor va kibr bilan qip-qizil, kattakon panjalarini tutardilar...

Endi birgina ovunchim ov qolgandi, xolos. Yanvarning oxiriga kelib, shunday ob-havo bo'lib turganidan ov qilishning hech bir imkoni bo'lmadi. Xudoning bergan kuni dahshatli shamol esdi, bo'ron turdi, bir kechada qor uzra qattiq, muzsimon qatlam paydo bo'ldiki, quyon muz ustidan iz qoldirmay yugurib ketadigan bo'ldi. Uy ichini qattiq bekitib, shamol uvillashiga quloq tutib o'tirgan ko'yim shunday qattiq zerikar, shunday siqilar edim... Mening o'ta jonkuyarlik bilan o'rmon qorovuli Yarmolaning savodini chiqarishga urinishday beozor mashg'ulotga uringanim sababi endi anglashilgandir. Orqamga o'girildim va qarshimda odatdagiday yumshoq chiptakavushda sassiz menga yaqin kelgan Yarmolani ko'rdim.

– Nima bo'ldi, Yarmola? – deb so'radim.

– Mana, qarab turib, sizning yozishingizga hayron qolaman-da. Qaniydi men ham... Yo'q, yo'q... bundaymas, siznikiga o'xshabmas, – xijolat tortib, shoshilib dedi Yarmola, mening kulimsiganimni ko'rib. – Men faqat ismi sharifimni...

– Bu senga nima uchun kerak? – ajablandim men... (Shuni aytish kerakki, Yarmola butun Perebrodda eng kambag'al va eng dangasa dehqonlardan hisoblanardi; olgan moyanasi va dehqonchiligidan tushgan daromadini ichib qo'yadi; unikiday yomon ho'kizlar shu yaqin-atrofdagi, hech bir joyda topilmaydi. Mening fikri ojizimcha, unga hech bir zamonda savodning zaruriyati tug'ilmaydi.) Men yana o'smoqchilab undan so'radim: – Nima uchun ismi sharifingni yozishni bilishing kerak bo'lib qoldi?

– Qarang, ahvol bunaqa, – javob berdi Yarmola kutilmagan-da mayinlik bilan, – qishlog'imizda birorta savodli kimsaning o'zi yo'q. Qanaqadir qog'ozga qo'l qo'yish kerakmi yoki bo'lisda bir ish chiqadimi, yo biror... hech kimning qo'lidan kelmaydi... Oqsoqolning bilgani muhr bosish, nimaga muhr bosayotganini, unda nima yozilganini o'zi bilmaydi... Agarda biror kimsa qo'l qo'yishni bilganda edi, hammamiz uchun yaxshi bo'lardi, deyman-da.

Yarmolaning, g'irt brakonyer, boqibeg'am daydining, fikri bilan qishloq yig'ini hatto hisoblashmaydigan odamning bunday kuyunchakligi, uning jamiyat manfaati haqida shu tariqa qayg'urishi meni negadir to'qinlantirib yubordi. Men uni yozishga o'rgatishni o'zim taklif etdim. Men o'zimni azobga qo'ydim – uni ongli ravishda o'qish va yozishga o'rgatish ishi juda mashaqqat edi! O'z o'rmonining har bir so'qmog'ini, har bir daraxtini mukammal biladigan, kunduzmitunmi, duch kelgan joyni mo'ljalga oladigan, butun boshli tevarakatrof bo'rilari, quyonlari, tulkilari izlarini farq qila oladigan Yarmola, ana shu o'rmon bilimdoni Yarmola, «m» harfi bilan «a» harfi birga qo'shib yozilganda nima uchun «ma» hosil bo'lishini sira aqliga sig'dirolmasdi. Odatda u bunday vazifa ustida o'n daqiqa, balki undan ham ko'proqdir azob bilan taraddudlanar, ich-ichiga botib ketgan qora ko'zlari, qoracha ozg'in yuzi, qattiq qop-qora soqol va quyuq mo'ylovlari qo'shib, qiyofasi aqliy taranglik, o'ychanlikning eng so'nggi nuqtasini ifoda etib turar edi.

– Qani, Yarmola, «ma», degin-chi. Shunchaki «ma», desang bo'ldi, – deb turib olardim men uni o'z holiga qo'ymasdan. – Sen qog'ozga qarama, menga qara, mana shunday. Qani, «ma», deb ayt...

Shunda Yarmola chuqur xo'rsindi, ko'rsatkich tayoqchani stolga qo'yib, bunday dedi:

– Yo'q... aytolmayman...

– Nega aytolmaysan? Bu oson-ku, axir. Mana, men aytganimday, «ma» de-qo'y-da, bo'ldi.

– Yo'q... aytolmayman, panich... esimdan chiqdi...

Bari o'qitish usullari, yo'l-yo'sinlari ana shu g'aroyib zehni pastlikka urilib, chilparchin bo'ldi. Biroq bu narsa baribir Yarmolaning ma'rifatga bo'lgan intilishini so'ndirolmadi.

– Ismi sharifimni bilsam bo'ldi! – tortinchoqlik bilan yolvorardi u mendan. – Boshqa hech nima kerakmas. Faqat ismi sharifim: Yarmola Poprujuk – bo'ldi, shu yetadi.

Men aqliy salohiyat talab qilinadigan o'qish va yozishga o'rgatish fikridan tamomila voz kechdim va uni shunchaki imzo chekishga o'rgata boshladim. Mening olamshumul hayratimga ko'ra bu usul Yarmolaga, oz bo'lsa-da, foydadan xoli bo'lmadi, alalxusus, ikkinchi oying oxiriga kelib, biz uning sharifini yozishni deyarli uddala-

dik. Ismga kelsak, vazifa yengillashgani bois, biz uni yozishdan voz kechmoqchi bo'ldik.

Kechalari, Yarmola pechga o't yoqib bo'lgach, men uni chaqirishimni sabrsizlik bilan kutadigan bo'ldi.

– Qani, Yarmola, darsga, – chaqirardim men.

U yonboshi bilan stolga yaqinlashardi, unga tirsaklarini tirab, qora, dag'al, bukilmas barmoqlari bilan qalamni ushlardi-da, qoshlarini ko'tarib, mendan so'rardi:

– Yozaymi?

– Yoz.

Yarmola birmuncha dadillik bilan birinchi harf – «P»ni chizadi (biz bu harfni shunday nomladik: «ikkita ustun va uning tepasiga qo'yilgan xari»); so'ngra u menga savol nazari bilan qaraydi.

– Nega yozmayapsan? Unutdingmi?

– Esimdan chiqibdi... – boshini o'kinch bilan chayqaydi Yarmola.

– Ey, sen qanaqasan o'zi-a? G'ildirakni qo'y.

– Ha-a! G'ildirak, g'ildirak!.. Bilaman... – jonlanadi Yarmola va hafsala bilan qog'ozga yuqoriga cho'zilib ketgan bir shaklni chizadi, chizgani sirtidan xuddi Kaspiy dengizi ko'rinishiga o'xshab ketadi. U ishini tamomlagach, birmuncha payt boshini dam so'l, dam o'ng yonga qarab, ko'zlarini qisganicha indamay mehnati samarasini zavqlanib tomosha qiladi.

– Nega turibsan? Davomini yozmaysanmi?

– Picha to'xtab turing, panich... hozir.

U ikki daqiqalarcha o'ylanib turadi-da, so'ng jur'atsizlik bilan so'raydi:

– Xuddi birinchisiga o'xshabmi?

– To'ppa-to'g'ri. Yoz.

Biz oz-ozdan so'nggi harfgacha yetib keldik – «k» (ayirish belgisidan voz kechdik) harfini biz «o'rtada dumi yon tomonlarga qiyshaygan tayoqchalari bor kaltak» deb bildik.

– Siz nima deb o'ylaysiz, panich, – deb qolardi ba'zan Yarmola mehnat qilib bo'lgach, qog'ozga mehr aralash iftixor bilan termilib, – agarda besh yo olti oylarcha o'rgansam, tamom yaxshi bilib olardim-a. Nima deysiz?

Yarmola pech tagida, ostki eshikchasi yonida cho‘qqayib, undagi cho‘g‘larni kavlashtirardi, men bo‘lsam xona bo‘ylab diagonaliga u burchakdan bu burchakka borib-kelardim. Men hashamatli zamindor uyining o‘n ikkita xonalaridan faqat bittasini, eski divanxonani band qilib turardim. Boshqa xonalar qulflangan, ularda shtof¹ qoplangan ko‘hna mebel, ajabtovur birinj qimir etmasdan turar, XVIII asrda ishlangan va portretlar ulug‘vorligini saqlagancha po‘panak bosib yotardi.

Tashqarida, shamol go‘yo qarib-chirib ketgan, sovqotgan. yalang‘och iblis kabi uy devorlariga urilib quturgandan-quturardi. Bo‘ron na‘rasi, o‘kirig‘ida ingrash, chiyillash va yovvoyilarcha qah-qah otgan ovozlar eshitilardi. Izg‘irin kechga borib yanada kuchaydi. Tashqarida kimdir g‘azab bilan oynaga mayda quruq pichan sepib ketdi. Yaqin-atrofdagi o‘rmon betinim, pinhoni, bo‘g‘iq ovozda xavfdan noliganday guvillardir...

Shamol bo‘sh xonalar va pechning mo‘rilariga kirib olib, shaqirshuqur qilar edi, obdan shalog‘i chiqqan, ilma-teshik bo‘lib ketgan, yarim xaroba ko‘hna uy bexosdan g‘alati ovozlardan jonlanib qoldi, shunda men beixtiyor ko‘nglimda tahluka bilan sasga quloq tutdim. Mana, tayin nimadir oq zalda xo‘rsindi, chuqur, uzib-uzib, qayg‘uli uf tortdi. Mana, kirdilar, qayerdadir olislarda quruq, chirik pol taxtalari kimlarningdir og‘ir va ohista qadamlari ostida g‘ichirladi. So‘ngra xonamga yondosh dahlizda allakim astagina, tirishib-tirmashib eshik tutqichini siqib tortayotganday va keyin birdan jahllanib, g‘azabnok butun derazalar panjaralari va eshiklarini taqiratuqur qilib uy bo‘ylab yeldek uchayotganday yoki mo‘rilarga kirib olib, shunday nola bilan, siqiq va uzuq-uzuq g‘ingshib, dam ovozini tobora ko‘tarib, dam pasaytirib yirtqichlarcha irillayotganday tuyuldi. Xudo biladi, xonamga bu vahimali mehmon qayerdan bostirib kelgan, birdan vujudimni muz qopladi, abajurining tepasi kuygan, yashil qog‘oz ostida xira yoritgan chiroq alangasi lipillay boshladi.

Men g‘alati, tushunib bo‘lmaydigan xavotirga tushdim. Mana, o‘yga cho‘mdim men, jimjit va seryog‘in qish kechasida eshik

¹ Shtof – mebellarni qoplash uchun ishlatiladigan qalin gazlama.

to'zgan uyda, o'rmon va qor uyumlari orasida qolgan qishloqda, shahar turmushidan, jamiyatdan, ayol kulgisidan, insoniy muloqotlardan yuzlab chaqirim yiroqda o'tiribman. Shunda ana shu seryog'in oqshom nazarimda yillab va hatto o'n yillab davom etadiganday, to kunim bitmaguncha cho'zilib ketadiganday tuyuldi va xuddi shunday deraza ortida shamol uvillaydi, xuddi shunday faqirona yashil qog'oz abajur ostida chiroq xira nur sochadi, xuddi shunday xonam bo'ylab dam ortga, dam oldinga yurib turaman, xuddi shunday pech yonida indamas, ko'zini bir nuqtaga tikkanicha Yarmola o'tiradi – g'alati, menga yot jonzot, yorug' olamdagi bari narsalarga befarq odam o'tiradi: shuning uchun o'tiradiki, uning uyida, ro'zg'orida yeyishga hech nimasi yo'q, mening ma'nisiz, tushunarsiz, ich-ichimni kemirgan zerikish, hasratimga shohid bo'lib o'tiradi.

Kutilmaganda ana shu kishini toliqtiruvchi sukutni insonnikiga o'xshash biror ovoz bilan buzishga o'zimda chidab bo'lmas istak sezdim va Yarmoladan so'radim:

– Bugun bunaqa shamol qayoqdan esdi, Yarmola?

– Shamolmi? – erinchoqlik bilan boshini ko'tarib ovoz berdi Yarmola. – Buni nahotki panich bilmasa?

– Albatta, bilmayman-da. Men qayerdan bilaman?

– Rostdan ham bilmaysizmi? – birdan jonlandi Yarmola. – Bunisini men sizga aytaman, – so'zida davom etdi ovozi sirlil ohang bilan, – buni men sizga aytay: o'sha alvasti xotin bolaladi, o'sha jin o'yin-kulgi qilyapti.

– Alvasti xotin deganing, sizningcha, jodugar ayolmi?

– Ha-a, shunday, jodugar.

Men qiziqqandan-qiziqib Yarmolaga tikildim. «Kim biladi, – o'yladim men, – ehtimol undan sehrgarlikka, ko'milgan xazina, vovkulaklarga¹ aloqador biror-bir qiziqarli rivoyatni bilib olishning evini qilarman...»

– Xo'sh, bu yerda, Polesyeda jodugarlar bormi? – so'radim men.

– Qaydam... Bo'lsa bordir, – Yarmola javob berarkan, boyagiday loqaydlik bilan yana pechkaga egildi. – Qariyalar, qachonlardir bo'lgan, deydi... Balki bu gap noto'g'ridir...

¹ *Volkodlak, vovkulak, vurkolak* – slavyan folklorida: bo'riga aylanish sehri ega odam, alvasti.

Bir onda hafsalam pir bo'ldi. Yarmolaning tabiatiga xos bo'lgan jihat uning kamgaplighi edi, men undan ortiq biror qiziqarli gap olaman, deb umid ham qilmay qo'ydim. Lekin u banogoh odamni hayron qoldirib, go'yo menga emas, gurillab turgan pechkaga qarata erinib, loqayd gap boshlab qoldi:

– Besh yil ilgari bu yerda shunday alvasti bo'lardi... Faqat yigitlar uni qishloqdan quvib chiqardilar!

– Qayerga haydadilar?

– Qayoqqa?.. O'rmonga-da... Yana qayoqqa bo'lardi? O'sha la'nati uyasidan bitta payrahayam qolmasin deb kulbasiniyam buzib tashladilar... Alvastini o'zini bo'lsa qishloqdan chiqarib yubordilar bo'yniga tamg'a osib.

– Nega uni bunday qilishdi?

– Alvastining zarari ko'p bo'ldi. Uylar ostiga zaharli o't damlamasini sepib chiqdi, chilvir o'radi... Alvasti bir marta qishloqdagi bir juvondan zlota (o'n besh tiyin) so'rabdi. U alvastiga: «Mening zlotam yo'q, bor, jo'na», debdi. «Endi yaxshilikcha, debdi alvasti, menga nima uchun va qanday qilib zlota bermaganingni eslab qol...» Panich, nima deb o'ylaysiz, o'shandan beri juvonning bolasi og'ridi. Og'ridi, og'ridi, keyin tamom o'lib qoldi. O'shanda-da, yigitlar alvastini quvib yubordilar, uning ko'zlari o'yilib tushsin...

– Hozir o'sha alvasti xotin qayerda bo'lishi mumkin? – so'radim men qiziqib qolib.

– Alvastimi? – odaticha imillab qayta so'radi Yarmola. – Bilamanmi?

– Nahotki, uning qishloqda hech kimi qolmagan bo'lsa?

– Yo'q, qolmagan. U bizlarga yot, bir yulg'ich urug'danmi yo lo'lilardanmi edi... Alvasti qishlog'imizga kelganida men yosh yigitcha edim. Yonida bir qizcha bor edi: qizimi yo nevarasimi... Ikko-viniyam haydab chiqardilar...

– Endi nahotki uning oldiga hech kim bormasa: fol ochdirgani yoki bo'lmasa, biror damlama so'rab?

– Xotinlar borib yuradi, – deb qoldi parvosizlik bilan Yarmola.

– Oho! Demak, baribir uning qayerda turishi ma'lum ekan-da, xo'sh, u qayerda yashaydi?

– Bilmayman men... Odamlar, Bisov Kutga¹ yaqin qaydadir yashaydi, deb aytadi... Botqoqni bilasizmi, Irinov katta yo'lining narigi tomonida. Shunaqa, u o'sha yoqdagi botqoqda, o'tiradi-da, onasini emsin.

«Jodugar xotin men turgan uydan, uzog'i bilan, o'n chaqirimlarcha narida yashaydi... haqiqiy, tirik, Polesye alvastisi!» Bu fikr meni bir zumda qiziqtirib qo'ydi va to'lqinlantirib yubordi.

– Menga qara, Yarmola, – deya o'rmon qorovuliga yuzlandim, – men u bilan, o'sha jodugar ayol bilan qanday uchrashsam bo'larkin?

– Tuf-e! – tupurdi Yarmola achchiqlanib. – Topgan gapingizni qarang-a, yaxshimi shu?

– Yaxshimi-yomonmi, baribir men uning oldiga boraman. Faqat kun biroz isisin, shu zahotiyoy yo'lga chiqaman. Menga hamroh bo'larsan, albatta?

Mening oxirgi aytgan gaplarim Yarmolani shunday esankiratib qo'ydiki, hattoki o'tirgan joyidan sapchib turib ketdi.

– Men-a?! – xitob qildi u qahr bilan. – Hech qachon! Xudo biladi, sizni qanday kulfatlarga yo'liqtiradi, men bormayman.

– Ahmoqlikni bas qil, borasan.

– Yo'q, panich, bormayman... o'lib qolsam ham bormayman... Men-a?! – u hayqirdi yanada qahr-g'azabga to'lib. – Men endi o'sha alvasti uyasiga boraymi? Xudo saqlasin! Sizgayam maslahat bermayman, panich.

– O'zing bilasan... men baribir boraman. Men uni ko'rishga juda qiziqyapman.

– Qiziqadigan hech bir joyi yo'q, – to'ng'illadi Yarmola pech eshikchasini taraqlatib yopib.

Oradan bir soatlarcha o'tdi, u o'ziqaynami yig'ishtirib, qorong'i dahlizda choyini ichib, uyiga o'tlanarkan, men undan so'radim:

– O'sha jodugarning oti nima?

– Manuylixa, – deb javob berdi Yarmola qo'pollik bilan xushlamasdan.

U, garchand hech qachon ko'nglidagi tuyg'ularini oshkor qilmagan bo'lsa-da, aftidan, menga qattiq bog'lanib qolgandi: bizning ovga bo'lgan umum havas-u ishtiyoqimizga, kamtarona muomala

¹ *Bisov Kut* (shevada; asli – Besov Xutor) – so'zma-so'z ma'nosi: Iblislar qishlog'i.

qilishimga, doimo ochin-to'qin yashaydigan oilasiga ahyon-ahyonda ko'rsatgan yordamimga, asosiysi, Yarmola sira chidolmaydigani, butun dunyoda birgina men uning piyonistaligini yuziga solib, ta'na qilmasligimga o'rganib qolgandi. Shu tufayli ham mening jodugar xotin bilan tanishish haqidagi qarorim uning kayfiyatini buzib, juda yomon ahvolga solib qo'ygandi, u buni faqat qattiq pishillab ifoda etdi, eshik oldiga chiqqach, jon-jahdi bilan iti – Ryabchikning biqiniga bir tepdi. Ryabchik dabdurustdan dovdirab qoldi, angillab yubordi va irg'ib, o'zini bir chekkaga otdi, lekin shu zahoti akillagancha Yarmolaning izidan ergashdi.

III

Oradan uch kun o'tdi, havo ham isib qoldi. Bir kuni saharmardonda Yarmola xonamga kirib keldi-da, sovuqqonlik bilan shunday dedi:

- Miltiqni tozalash kerak, panich.
- Nima? – so'radim men adyol ostida kerishib.
- Quyondanda rosa kezib yuripti: izlar ko'p. Balki ovga chiqarmiz?

Men Yarmolaning o'rmonga borishga sabri chidamayotganini ko'rdim, lekin u ko'nglidagi ana shu ovchilarga xos sabrsiz ishtiyoqini soxta loqaydlik ostiga yashirardi. Haqiqatan, dahlizda uning bir og'izli miltig'i turardi, garchand zang va porox gazi ilma-teshik qilib kemirgan quvur og'zi tevaragiga qalaydan yamoq solinib, bezalganiga qaramay, bu miltiqdan hali birorta ham loyxo'rak qochib qutulmagandi.

Biz endigina o'rmonga yetib kelganimizni bilamiz, shu zahoti quyondanda iziga yo'liqdik: ikkita panja yonma-yon va ikkitasi orqada, birining ketidan ikkinchisi turardi. Quyondanda yo'lga chiqqan, ikki yuz sarjin yurgan-da, so'ng yo'ldan yosh qarag'ayzorga katta-katta sakrab o'tib ketgan.

– Endi uni aylanib o'tamiz, – dedi Yarmola. – Anuv qoziq belgi berdi, hozir shu yerda yotadi. Siz, panich, boravering... – U meni qaysi tomonga yo'llash uchun faqat o'zigagina ma'lum alomatlarni mushohada qildi. – Siz eski qovoqxonagacha boravering. Men Zam-

lindan uning yo'lini kesib o'taman. It quyonni quvib yetganida, sizga kalta-kalta ovoz beraman.

U shu zahoti g'oyib bo'ldi, chamasi, quyuq chakalakzorga sho'ng'ib kirib ketdi. Men diqqat bilan quloq soldim. Yarmola bronkonerlarga xos yurishida qilt etgan ovoz chiqarmadi, chiptakavush kiygan oyoqlari biror butoqchani qirs etib sindirmadi.

Men shoshmasdan eski qovoqxonagacha – kimsasiz, xarobaga aylangan kulbagacha keldim, ignabargli o'rmon yoqasiga borib, tikka yalang'och tanali baland qarag'ay ostida turdim. Atrofdan toshday sukunat hukm surardi, shamolsiz kun qish payti faqat o'rmongina shunday jimjit bo'ladi. Daraxtlar shoxlarida osilib qolgan qalin qor parchalari butoqlarni pastga tortib egardi, bu bilan ularga mo'jizavor, hashamdor va sovuq manzara bag'ishlardi. Vaqti-vaqti bilan tepadan ingichka novdacha uzilib tushar va favqulodda yerga tusharkan, uning boshqa novdalarga urilib chirsillagan ovozi aniq-tiniq eshitilardi. Qor quyosh nurlari ostida pushtirang bo'lib tovlanar, soyada esa ko'kish tusga kirardi. Atrofnin ana shu tantanavor, sovuq tabiat sukutining osoyishta jozibasi chulg'ab olgandi va nazarimda vaqt asta va sassizgina mening shundoq yonimdan o'tib ketayotganini his qildim...

Birdan olisdan, naq chakalakzordan Ryabchikning vovullashi – jonivor ortidan quvib borayotgan itga xos hurish: ingichka, jarangdor va angillagan asabiy ovoz taraldi. Men shu on it izidan darg'azab Yarmolaning qichqirganini ham eshitdim: «O'l – dir! O'l – dir!», birinchi bo'g'in o'tkir, cho'ziq falset – juda baland ovozda, ikkinchisi esa – uzuq-uzuq bas tovush notasida aytili (men buni oradan ko'p vaqtlar o'tgach, Polesye ovchilarining hayqirig'i «o'ldirmoq» fe'lidan kelib chiqqanini surishtirib bilib oldim).

Nazarimda, vovullash ovozi yo'nalishiga ko'ra it chap tomonimda quvib borayotganga o'xshadi, men shunda hayvonni tutib qolmoqchi bo'lib, shosha-pisha o'rmon orasidagi yalanglikdan chopdim. Ammo uni tutishga ulgurolmay qoldim va yigirma qadamlar qolganda kattakon kulrang quyon kunda yonidan lip etib sakradida, chiqib ketdi, xuddi shoshmayotganday, uzun quloqlarini orqaga tashlagancha, baland-baland, ahyon-ahyonda sakrab-sakrab yo'ldan yugurib, kesib o'tdi va o'rmonga kirib g'oyib bo'ldi. Quyon izidan

Ryabchik shitob bilan uchib keldi. It meni ko'rib, dumini ojizlarcha silkidi, shoshilib tishlari bilan qor tishladi-da, yana quyonna quva ketdi.

To'satdan Yarmola xuddi shunday ovoz chiqarmay chakalakzordan chiqib keldi.

– Nima bo'ldi, panich, yo'lda quyonna tutib qololmadingizmi? – deya qichqirdi u ta'na bilan tilini taqillatib.

– Ora uzoq bo'ldi-da... ikki yuz qadamdan ko'p.

Yarmola mening xijolat bo'lganimni ko'rib, yumshadi.

– Hechqisi yo'q... quyonna bizdan qochib qutulolmaydi. Irinov yo'lga qarab boraverib, hozir u o'sha yoqdan chiqib keladi.

Men Irinov tomonga jo'nadim va oradan ikki daqiqalar o'tgach, it quyonna qayerdadir menga yaqin quvib kelayotganini eshitdim. Ovchilik hayajoni vujudimni qamrab oldi, miltiqni qiya tutganimcha quyonna changalzorlar orasidan betlarimga butalar qattiq urilib ozor berishiga parvo ham qilmay, shox-butoqlarni sindirib yugurdim. Men uzoq yugurdim va nafasim tiqilib qoldi, shunda birdan itning vovullashi tinib qoldi. Yo'limda indamay ketaverdim. Agarda to'g'riga yuradigan bo'lsam, Irinov yo'lida Yarmola bilan tez orada uchra-shishimga amin edim, yugurgan vaqtim butalarni egib, to'nkalardan o'tdim, endi yo'lni umuman o'ylamay qo'ydim, shu tufayli adashib qoldim. Shunda men «Yarmola», deb chaqira boshladim. U ovoz bermadi.

Shu asnoda men o'ylamasdan ketaverdim, o'rmon asta-sekin siyraklashib bordi, tuproq to'kilib tushib, yo'l o'ydim-chuqur bo'lib bordi. Qorda oyog'im qoldirgan iz birpasda qorayib, suvga to'lib qoldi. Necha marta tizzam bilan qoqilib yiqildim. Men u do'nglikdan bu do'nglikka hatlab o'tdim; oyoqlarimni tanakor mox, yo'sin qoplangan joylarda xuddi mayin gilamni bosganday bosgandim, botib qoldi.

Butazor tezda tugab qoldi. Qarshimda qor qoplangan katta yumaloq botqoqlik paydo bo'ldi, qorning oppoq pardasi uzra u yer-bu yerda do'ngliklar dikkayib ko'rinib turardi. Botqoqlik poyoni, qarama-qarshi tarafda daraxtlar orasida qandaydir kulbaning oq devorlari ko'zga tashlandi. «Balki bu yerda Irinov o'rmoni qorovuli yashar, – xayol qildim men. – Borib, undan yo'lni surishtirsammikin».

Biroq kulbagacha yetish unchalik oson emasdi. Yuraman desam, har qadamda botqoqqa botib qolaverdim. Etigimning ichi suvga to'ldi va ular bilan shalop-shalop qilib yurishning o'zi bo'lmadi.

Nihoyat, men botqoqlikdan bir amallab o'tib oldim, kichkina bir do'nglikka chiqdim, endi o'sha kulbani yaxshilab ko'rib olishim mumkin edi. Bu hattoki kulba ham emas, aynan ertaklarda tasvirlanmish yalmog'iz kampirning uychasi edi. Kulba yerga tegmay turardi, chunki qoziqoyoqlarga o'rnatib qurilgandi, ehtimol bahor paytlari butun Irinov o'rmonini bosib ketadigan suv toshqinlari sababli uy shunday solingandir. Biroq uychaning bir tomoni cho'kib qolgan bo'lib, bu unga allaqanday oqsoqlik va qayg'uli tus berib turardi. Derazalarning bir nechta ko'zi oynasiz, ularga allaqanday uvada lat-talar ilingan bo'lib, tashqaridan do'ppayib chiqib turardi.

Men surma zulfinni ko'tarib, eshikni ochdim. Uy ichi zim-ziyo edi, qorda uzoq yurganimdanmi, ko'z oldimda siyohrang halqachalar paydo bo'ldi, shu bois, ichkarida birov bor-yo'qligini payqamadim.

– Ey, yaxshi odamlar, uyda birov bormi? – so'radim men baland ovozda.

Pechka atrofida nimalardir g'imir-g'imir qila boshladi. Men yaqinroq kelib, yerda o'tirgan bir kampirni ko'rdim. Oldida bir dunyo tovuq pati. Kampir har bitta patning tukini yulib, oldidagi savatga qo'yar, cho'pini esa yerga tashlardi.

«Ha, axir, bu – Manuylixa, Irinov alvastisi-ku», – miyamga shu fikr kelib urildi, men kampirga e'tibor bilan tikildim. Xalq ertakdostonlarida tasvirlangani kabi uning butun turqi tarovati yalmog'iz kampirning ayni o'ziman deb turardi: qoq chakaklari, ichiga kirib ketgan uchli, uzun, qurushqoq iyagi, egik burni; tishsiz og'zi tayin nimanidir kavshanayotganday betinim qimirlab turardi, rangi o'chgan, qachonlardir moviyrang bo'lgan ko'zlari, sovuq, shishgan, kalta qip-qizil qovoqlari ostida xuddi g'aroyib vahimali, shum qushga o'xshab boqardi.

– Yaxshimisiz, momo! – dedim men imkon qadar xushmuomalalik bilan. – Siz Manuylixasiz-ku, shunday deyishadi, to'g'rimi?

Javoban kampirning ko'kragida nimadir quldiradi, xirilladi; so'ngra tishsiz, kavshangan og'zidan dam nafasi qaytgan qari qarg'aning qag'illashiga, dam vishillagan, uzuq-yuluq chinqiriqqa o'xshash g'alati ovozlari otilib chiqdi:

– Balki ilgari yaxshi odamlar Manuylixa deb atagan bo'lishlari mumkin... Hozir bo'lsa, oti yomon oypora, tevaragi qop-qora. Senga nima kerak o'zi? – so'radi u ro'yxushlik bermasdan va qilayotgan ishidan to'xtamasdan.

– Ko'rmapsizmi, momo, adashib qoldim. Balki uyingizda sut topilar?

– Sut yo'q, – jahl bilan gapni kesdi kampir. – O'rmonda yuruvchilar ko'p bo'lsa... Hammasini ichirib bo'ladimi, yedirib bo'ladimi?

– Momojon, juda odamovi chiqib qoldingiz-ku.

– To'g'ri, otaginam: shunaqaman. Sizlarga anvoyi noz-ne'matlar hozirlab qo'yamiz. Toliqingmi – o'tir, seni hech kim uyimdan haydab chiqarmaydi. Bir maqol bor, ma'nosini bilasanmi: «Supamizga keling o'tirgani, bazmimiz sadosini eshitgani, biz siznikida qanday ziyofat yeyishni o'zimiz bilamiz». Ana shunaqa...

Men so'zlash yo'sinidan kampirning chindan ham bu o'lkaga kelgindi ekaniga ishonch hosil qildim; bu yerda so'zamol shimollik kishi so'zlaganiday, terib-terib atayin nutqini maqtanib, o'tkir, noyob iboralar, aqli so'zlar bilan bezab gapirishni yoqtirmaydilar. Shu asnoda kampir qo'li ishda, hamon dimog'ida bir-biriga sira aloqasi yo'q nimalarnidir ming'irlardi: «Mana senga Manuylixa momo... Kimsan o'zing – allakim, tayinsiz... Yashar yoshim yosh emas... Oyoqlarim pitir-pitir, chig'ir-chig'ir, toza zag'izg'on...»

Men bir necha muddat indamay tinglab o'tirdim, birdan ko'nglimga qarshimda jinni xotin turibdi, degan gap keldi-yu, bu menda ayanchli qo'rquv hisssini uyg'otdi.

Bu orada tevaragimni ko'zdan kechirib chiqishga ulgurdim. Uychaning aksar qismini chekkalari nurab tushgan pech egallagan. Old tomondagi burchakka ikona ilib qo'yilmagandi. Devorlarda yashil mo'ylovli va siyohrang it yetaklagan oddiy ovchilar va biror kishi tanimaydigan generallar portretlari o'miga bir bog' quritilgan o't-giyoh, quruq ildiz-tomirlar shodasi va oshxona idish-tovoqlari osig'liq edi. Bu yerda na boyqush, na qora mushuk borligini payqadim, biroq pechdan bir juft yirik, olashaqshaq menga taajjub va ishonchsiz kepatada qarab turardi.

– Momojon, aqalli suvingizdan ichsam bo'ladimi? – deya so'radim ovozimni ko'tarib.

– Ana, ichaver, – bosh irg'adi kampir kadkani, yoni tik yog'och bo'chkani ko'rsatib.

Suvdan botqoq hidi kelib turardi. Men kampirga o'z minnatdorligimni bildirdim (u bunga zarracha ham ahamiyat bergani yo'q), keyin undan, katta yo'lga qanday chiqaman, deb so'radim.

Kampir birdan boshini ko'tardi, qushnikiga o'xshash ko'zlari bilan menga boshdan-oyoq sovuq nazar solib chiqdi va shosha-pisha to'ng'illadi:

– Bor, boraver... Bor, balli, yo'lingdan qolma. Bu yerda qiladigan ishing yo'q sening. Mehmon degan quruq qo'l bilan keladimi... Bor, otaginam, ketaver...

Chindan ham mening ketishdan boshqa ishim qolmagandi. Biroq birdan ko'nglimga bu badjahl kampirmi biroz bo'lsa-da yumshatish uchun so'nggi usulni qo'llash fikri kelib qoldi. Men kissamdan yangi yigirma besh tiyinlik kumush tanga chiqarib, unga uzatdim. Yanglishmabman: kampirsho pulni ko'rib, g'imirlab qoldi, ko'zlari yanada kattaroq ochildi va u changak bo'lib ketgan, g'adir-budur, titroq barmoqlari bilan tanga tomon uzaldi.

– E, yo'q, Manuylixa momo, tekinga berib bo'pman, – dedim uning jig'iga tegib, tangani opqocharkanman. – Qani, fol ko'rib qo'ying-chi.

Alvastining qizg'ish, ajin bosgan yuzi norozi bo'lib burishdi. U, aftidan, tanga qisilgan mushtimga ikkilanib va qat'iyatsizlik bilan qaradi. Biroq uning ochko'zligi ustun keldi.

– Qani, qani, ke bu yoqqa, – u arang yerdan turarkan, tamshandi. – Hech kimga fol ochmay qo'rganman, o'g'lim. Esimdan chiqib ketgan... Qaridim, ko'zlarim ko'rmaydi... Mayli, faqat sen uchun ko'rib beraman.

U devorni ushlagancha, har bir qadamda qaltirab, butun gavdasi bilan bukchaygancha stolga yaqin keldi, vaqtlar o'tishi bilan shishib, eskirgan kulrang bir dasta qarta oldi, ularni chiyladi-da, men tomon surdi.

– Qani sur-chi ... Chap qo'ling bilan sur... Chin dildan...

Barmoqlarini tuflab-tuflab, u avval qartalarni yoyib chiqdi. Qartalar xuddi xamir zuvalalar tushayotganda «po'p-po'p» ovoz chiqargani kabi stolga to'kila boshladi va to'g'ri sakkiz yulduzga joylanib

chiqdi. So'nggi qarta rasmidagi ko'ylak qirol ustiga tushgan mahal Manuylixa menga qo'lini uzatdi.

– Haqini berib qo'y, saxiy to'ram... Baxtli bo'lasan, boy bo'lasan, badavlat bo'lasan... – ashula qilib aytdi u gadoylarga o'xshab sof lo'licha ohangda.

Men unga tayyorlab qo'ygan tangamni berdim. Kampir xuddi maymunlarday epchillik bilan tangani darrov yuzini burib, yashirdi.

– Senga olis yo'ldan katta talab chiqyapti, – u odatiy tez aytish tarzida gap boshlab. – G'ishtin motka bilan uchrashuv va katta uyda qandaydir ko'ngilli suhbat bo'ladi. Tez orada chillik qiroidan kutilmaganda xabar olasan. Boshingga har xil tashvishlar tushadi, so'ng yana qaydandir uncha ko'p bo'lmagan pullar keladi. Zo'r ulfatchilikka borasan, mast bo'lasan... Qattiq mast bo'lmasan, baribir ichkilik senga borib taqaladi. Agar oltmish yettiga kirib o'lmasang, unda...

U birdan to'xtab qoldi, aniq bir nimani tinglaganday boshini ko'tardi. Men ham sergak tortdim. Qandaydir ayol ovozi, toza, jarangdor va ta'sirli ovoz kulbaga yaqinlashib kuylab kelmoqda edi. Men ham go'zal malorus qo'shig'ining so'zlarini tanidim:

Oy chi svit, chi ne svit,

Kalinonku lomit.

Oy chi son, chi ne son

Golovonku klonit.¹

– Qani, tur, endi boraver, lochinim, – dedi kampir xavotirli ovozda bezovta bo'lib, meni qo'li bilan stoldan chetlashtirarkan. – Begonalarnikida sandiroqlashni bas qil, xo'pmi? Bor, yo'lingdan qolma...

Kampir hattoki kurtkam yenglaridan ushlab olib, eshik tomon sudradi. Basharasida qandaydir yirtqichlarcha bezovtalik aks etdi.

¹ Gul bo'lib, gul emas,
Bodrezakning shoxi egilgan.
Tush bo'lib, tush emas,

Uyqu boshingni yostiqa qo'ygan. (*She'riy misralarni Farog'at Xudoyqulova tarjima qilgan.*)

Qo'shiq kuylagan ovoz birdan kulbaga juda yaqin kelib uzildi, temir surma zulfin jaranglab ochildi va tez ochilgan eshik yorig'ida bo'ychan, kulib turgan qiz ko'rindi. Qiz ikkala qo'llari bilan yo'l-yo'l peshbandini avaylab ushlab olgan edi, undan qip-qizil bo'yinli va qop-qora chiroyli ko'zchali uchta mitti boshchalar mo'ralab turardi.

– Bunga qarang, buvijon, qizilto'shlar orqamdan ergashdilar, – deya xitob qildi qiz baland ovozda kulib. – Qarang, qanday kulgili... Juda ochiqqan. Aksiga olib, yonimda non ham yo'q ekan.

Biroq qizning ko'zi menga tushdi, to'satdan jim bo'lib qoldi va yonoqlari lovullab yondi. Qizning ingichka qora qoshlari norizo chimirildi, ko'zlari kampirga savol nazari bilan qaradi.

– Mana, to'ram kelgan ekan... Yo'lni surishtirib turuvdi, – tu-shuntirdi kampir. – Qani, otaginam, – kampir qat'iyat bilan men-ga o'girildi, – salqinlaganing yetar. Suvniyam ichding, gaplashding, endi haqqing qolmadi, uyat-da endi. Biz sening ulfatingmasmiz...

– Menga qara, yaxshi qiz, – dedim qizga yuzlanib. – Menga Iri-novga chiqadigan yo'lni ko'rsatib yuborolmaysanmi, bo'lmasa, yuz yil o'tsayam, ana shu botqog'ingizdan chiqib ketolmayman.

Mening mayinlik bilan, iltimos qilib aytgan so'zlarim qizga ta'sir qilgan bo'lsa bordir. Qiz olib kelgan qizilto'sh qushlarini olashaq-shaqlar yoniga, pechga avaylab qo'ydi, yechgan kalta svitkasi – keng ko'ylagini xarrakka tashladi-da, indamay uydan chiqdi.

Men uning ketidan ergashdim.

– Sening hamma qushlaring qo'lga o'rgatilganmi? – so'radim men qizni quvib yetarkanman.

– Qo'lga o'rgatilgan, – javob berdi qiz qisqa qilib va hatto menga qaramasdan. – Mana, qarang, – dedi u chetan devor oldi-da to'xtab. – Anavi so'qmoqni ko'ryapsizmi, ana, ana, qarag'aylar o'rtasidan o'tgan? Ko'ryapsizmi?

– Ko'ryapman...

– O'sha so'moqdan to'g'riga ketavering. Eman kundasigacha borasiz-da, keyin chapga qayrilasiz. Shunday to'g'riga qarab keta-verasiz, o'rmon, ha, o'rmon ichidan yuring. Ana, keyin yo'lingizdan Irinov katta yo'li chiqadi.

Qiz o'ng qo'lini cho'zib, yo'lga qanday chiqishni ko'rsatayotgan mahal, men beixtiyor qizga mahliyo bo'lib qarab qoldim. U tub yerlik, yuzini xunukdan-xunuk qilib peshonasi, keyin og'zi va iyaklarini yashirib o'rab olgan «divchina», ya'ni «qizgina»larga sira o'xshamasdi, o'sha qizginalarning qiyofasi hamisha bir xilda qo'rquvni ifodalab turardi. Menga notanish yigirma-yigirma besh yoshlar atrofidagi baland bo'yli qoramag'iz bu qiz qaddini yengil va tik tutardi. Keng, oppoq ko'ylagi qomatida to'kilib, yosh qizning bo'liq ko'ksini chiroyli chirmab turardi. Qiz o'ziga xos go'zal chehrasini bir marta ko'rsang unutmaysan, biroq yanada qiyini, bunga hatto qarab turib ham uni tasviflab berish bo'lsa kerak. Bu chehra jozibasi ana shu katta, porlab turgan qop-qora ko'zlarida edi, ingichka qoshlari uzuqligi bilinar-bilinmas quvlik, shaddodlik va soddalik ifodasini aks ettirib turardi; yuzining qoracha-pushti rangi, lablarining qaysarona nafis egikligi, ayniqsa, pastki labi qat'iyat va noz-istig'noli ko'rinishi bilan ajralib turardi.

– Nahotki, shunday chekka, ovloq joyda o'z'laringiz yolg'iz yashashga qo'rqmasanglar? – so'radim men devorga yetgach, to'xtab.

Qiz bepisandlik bilan kiftlarini qisdi.

– Nega qo'rqishimiz kerak ekan? Bu yerga bo'rilar kelmaydi.

– Faqat bo'rilarmi... Qor bosishi, to'satdan yong'in chiqib qolishi mumkin... Nimalar bo'lmaydi. Bu yerda o'z'laringiz yolg'iz yashasanglar, hech kim yordam berolmaydi.

– Xudoga shukur! – qiz qo'lini e'tiborsiz silkidi. – Bizni buvim bilan umuman tinch qo'ysalar bo'ldi, shunday qilishsa, yaxshi bo'lardi, ammo...

– Nima ammo?

– Ko'p bilsangiz, tez qariysiz, – dedi u kesib. – Siz o'zingiz kim bo'lasiz? – so'radi qiz xavotir bilan.

Men, ehtimol, kampir ham, ana shu sohibjamol qiz ham ularni «tutuvchilar» tomonidan biror-bir siquv bo'lishidan qo'rqayotgandirlar, deb taxmin qildim va uni tinchlantirishga urindim:

– O! Iltimos, xavotir olma. Men uryadnik ham, kotib ham, aksiz soliqchisi ham, qisqasi, kattalardan hech biri emasman.

– Siz chindan to'g'ri gapiryapsizmi?

– Senga soʻz berib aytishim mumkin, toʻgʻri. Xudo haqqi, men hech narsalarga aloqasi yoʻq, eng chetdagi, begona odamman. Men shunchaki bu yerlarga bir necha haftaga mehmon boʻlib kelganman, xolos, soʻng ketaman. Agar istasang, men hattoki bu yerga kelganimni, sizlarni koʻrganimni hech kimga aytmayman. Sen menga ishonasanmi?

Qizning chehrasi sal-pal yorishdi.

– Xoʻp, demak, siz aldamayotgan, toʻgʻri gapirayotgan ekansiz. Boʻlmasa, ayting-chi, siz ilgari biz haqimizda eshitganmidingiz yoki oʻzingiz kelib qoldingizmi?

– Senga nima deyishniyam bilmayman... Eshitishga-ku eshitgandim, aytaulik, hatto sizlarnikiga yoʻl-yoʻlakay shunchaki kirib oʻtmoqchiyam boʻlganman, bugun esa tasodifan kelib turibman – adashib qoldim... Qani, endi ayt-chi, sizlar nega odamlardan shunchalik qoʻrqasizlar? Ular sizlarga biror yomonlik qilganmi?

Qiz menga sinovchan ishonchsizlik bilan tikildi. Biroq vijdonim toza edi, men kiprik qoqmay uning ana shu sinovchan nigohiga chidab turdim. Shunda u tobora hayajoni ortib soʻz boshladi:

– Ulardan yomonlik koʻryapmiz... Oddiy odamlar hech nima qilmaydi, kattalar boʻlsa... Uryadnik keladi – tashib ketadi, mirshab-boshi keladi – tashib ketadi. Ilgarigiday emasmiz, nimamizniyam olardi, buvimni haqorat qiladi; sen, deydi, alvastisan, mugʻambir, doʻzaxisan, deydi... Eh! Nimasini aytay!

– Senga tegmaydilar mi ishqilib? – ogʻzimdanda ehtiyotsiz savol otilib chiqdi.

Qiz oʻziga ishonch va kibr bilan boshimdan oyogʻimgacha nazar solib chiqdi, uning qisilgan koʻzlarida yovuz bir tantana paydo boʻldi...

– Tegmaydilar... Bir yer oʻlchovchi menga tegishuvdi... Qarang-a, erkalagisi keppopti... Shunday boʻlishiyam kerak edi, men uni shunday erkalab qoʻydimki, to hanuzgacha esidan chiqarmana kerak.

Ana shu istehzoli, lekin oʻzgacha, magʻrurona aytilgan soʻzlarda shunchalar dagʻal erk, hurlik yangradiki, koʻnglimga beixtiyor shunday oʻy keldi: «Behuda mana shu Polesye qaragʻayzor oʻrmonida katta boʻlmagansan – haqiqatan sen bilan hazillashish xatarli».

– Axir, bizning birorta odamga zararimiz tegadimi? – soʻzida davom etdi u menga yanada ishonch bilan qarab. – Bizga, aslida, odamlarning keragiyam yoʻq. Yiliga bir marta qishloqqa sovun bilan tuzga tushsam... Ha, yana buvimga choy olgani, buvim choy ichishni yaxshi koʻradi. Hech kimni koʻrmasam.

– Mana, koʻryapman, buving bilan sen odamlarga unchalik roʻyxushlik bermas ekansizlar... Biror kun sizlarnikiga birpasga kel-sam boʻladimi?

Qiz kulib yubordi, qiziq, kutilmaganda uning goʻzal yuzi oʻzgarib ketdi! Bu yuzda boyagi jiddiylikdan iz ham qolmadi: chehrasi birdan yorishib ketdi, uyali, bolalarnikiday begʻubor tus oldi.

– Biznikida nimayam qilardingiz? Buvim bilan men zeri-karli odamlarmiz... Mayli, kelsangiz kelavering, yaxshi odamga oʻxshaysiz. Faqat bir narsa, agar biznikiga keladigan boʻlsangiz, yaxshisi, yoningizda miltigʻingiz boʻlmagani maʼqul...

– Qoʻrqasanmi?

– Nimadan qoʻrqaman? Men hech nimadan qoʻrqmayman. – Yana qizning ovozida oʻz kuchiga ishonch ohangi yangradi. – Faqat men buni yoqtirmayman. Qushchalarni yoki manavi quyonlarni otib oʻldirishning nima keragi bor? Jonivorlarning hech kimga yomonligi boʻlmasa, ularning ham xuddi bizlarga oʻxshab yashagilari keladi. Men ularni yaxshi koʻraman: axir, ular jimitday, shunday tentakki-na... Mayli, xayr boʻlmasa, – shoshildi qiz, – otingiz nima, bilmay-man... Buvim koyiydimi, deb qoʻrqapman.

U boshini egib, shamolda silkingan sochlarini qoʻllari bilan tut-ganicha kulba tomon qushday uchdi.

– Toʻxta, toʻxta! – deb qichqirdim men. – Isming nima? Durust-roq tanishmadik ham.

Qiz bir onga toʻxtab, menga oʻgirildi.

– Ismim Alyona... Bu yerdagicha aytsak – Olesya.

Yelkanga miltigʻimni tashlab, koʻrsatilgan yoʻnalish boʻyicha yoʻl soldim. Men torgina, arang koʻzga koʻrinarli oʻrmon soʻqmogʻi boshlanadigan moʻjazgina doʻnglikka chiqib, ortimga oʻgirilib qa-radim. Olesyaning shamolda asta tebrangan qizil yubkasi hamon kulbaning soyabonli pillapoyasida koʻzga tashlanib turar, qorning

ko'zni qamashtiruvchi bir tekis oppoqligida yorug' dog'ga o'xshab ketardi.

Oradan bir soatlar o'tgach, mendan keyin uyga Yarmola keldi. Bekorchi gaplarni xushlamaslik odaticha, Yarmola bir og'iz ham mendan qanday va qayerda adashib qolganim haqida so'ramadi. U faqat shunchaki yo'lakay gap qistirganday dedi:

– U yoqqa... men quyonna oshxonaga qo'yib keldim... qovuramizmi yoki birortasiga berib yuborasizmi?

– Yarmola, bugun mening qayerga borganimni bilasanmi? – dedim men o'zimcha o'rmon qorovulining qanday taajjulanishini ko'z oldimga keltirib.

– Nega bilmas ekanman? – to'ng'illadi Yarmola terslik bilan. – O'sha alvastilarnikiga borganingiz ma'lum-ku...

– Sen buni qayerdan bilding?

– Nima uchun bilmayman? Bir mahal ovoz bermay qo'ydingiz, bildim, keyin izingizdan tushdim... Eh, pan-ich! – qo'shimcha qildi u ta'na va o'kinch bilan. – Siz bunday ishlar qilmasangiz yaxshiydi...

IV

Bahor bu yil erta, birdan kirdi va – hamishagiday Polesyega – kutilmaganda keldi. Qishloq ko'chalari bo'ylab jo'shqin, yerrang, yo'lida duch kelgan toshlarni jahl bilan qo'zg'ab, mayda tarasha, payrahalar va g'oz patlarini shitob bilan aylantirganicha yarqiroq jilg'alar yugurib oqa boshladi; katta ko'lmaklarda yumaloq, xuddi oppoq bulutlar aylanib, suzib borayotganga o'xshash lojuvard osmon aks etdi; tomlardan ketma-ket jarangdor tomchilar tomda. Chumchuqlar gala-gala bo'lib yo'l bo'yi oq tollarga o'tirib olganlaricha shunday baland va to'lqinli chiriqladilarki, ularning chirq-chirqidan hech nimani eshitib bo'lmay qoldi. Hamma yoqda hayotning quvonchli, shoshqin hayajoni kezdi.

Jarliklar va sersoya kichik o'rmonlarda, pana-pasqam joylarda qor yumshab, irkitlanib va parcha-parcha bo'lganicha eriy boshladi. Qor ostidan butun qish bo'yi obdan dam olgan va endi shira-sharbatlarga limmo-lim, yangitdan ona bo'lishga hozir, bo'liq, yalang'och, ho'l va iliq yer bo'y ko'rsatdi, borligicha namoyon bo'ldi. Qop-qora

dalalar uzra eriyotgan yer hidi – hatto shaharda ham yuzlab islar orasidan seza olarli bahor nashidasi, mayin va qudratli kishini mast qiluvchi isiga qorishiq yengil hovur ko‘tarildi. Nazarimda, bu xush bo‘y bilan birga qalbimga bahoriy hasrat, shirin va behalovat kutish onlari hamda ko‘ngilning nomsiz tuyg‘ulari bilan birgalikda – kishi ko‘ziga bari ayollarni yaxshi ko‘rsatadigan va hamisha o‘tgan bahorlar haqida mavhum afsus-nadomat xotiralariga to‘liq shoirona qayg‘u kirib keldi. Oqshomlar iliq bo‘ldi; kechalarning quyuc namli zim-ziyosida tabiatning ko‘z ilg‘amas, pinhoni va shoshilinch ijodkorligi sezildi...

Ana shunday bahor kunlari Olesya timsoli sira xayolimdan ketmadi. Men yolg‘iz qolib, to‘shakda cho‘zilganча diqqatimni bir joyga yaxshiroq jam qilish va xayolimda betinim qizning dam jiddiy, dam quv, dam chehrasini yorishtirib yuboruvchi mayin tabassumini ko‘z oldimda jonlantirish, poyonsiz ko‘hna qarag‘ayzorda tik va qudratli bo‘lib ulg‘ayayotgan navqiron archalar singari uning navnihol badanini tasavvur qilish, kutilmaganda asta, mayin ohangli xush sadosi qulog‘imda yangrasin, deya ko‘zlarimni yumib, xayol surish ko‘ngil istagim bo‘ldi. «Uning bari harakatlari, so‘zlarida, – o‘yga cho‘mdim men, – bir go‘zallik (albatta, ana shu g‘aliz iboraning eng yaxshi ma‘nosida), tabiiylik, ajib bir nazokat, nafosat mujassam edi...» Shuningdek, meni Olesya tomon undagani – bir tomondan qizni yorug‘lik misol o‘rab olgan sirliligi bo‘lsa, boshqa tomondan afsungar buvisining alvasti deya dovruc chiqargani, ularning botqoqlik aro o‘rmondagi turmushi va menga aytgan so‘zlarida sezilgan o‘z kuchiga mag‘urona ishonch tuyg‘usi edi.

Ajab emas, deya umid bilan, o‘rmondagi so‘qmoqlar birmuncha qurishi bilanoq men qoziqoyoqli kulba tomon ravona bo‘ldim. Har ehtimolga qarshi, balki vaysaqi kampirshoni tinchlantirishga to‘g‘ri kelsa, asqotib qolar, deya yonimda yarim qadoqcha choy va bir necha hovuch oqqand olvoldim.

Men ikkalovini ham uylarida ko‘rdim. Kampir olov gurillab yonayotgan pech yonida o‘ralashar, Olesya baland kursida o‘tirib olganicha zig‘irpoya tolasini yigirar edi; men eshikni taqillatib, ichkariga kirarkanman, qiz o‘girilib qaradi, ip oyoqlari ostida uzildi va qo‘lidagi urchuq ham yerga dumalab ketdi.

Kampir bir muddat pech issig'idan yuzini burishtirdi va kaftini pana qilib, menga qahr bilan tikildi.

– Assalomu alaykum, momojon! – dedim men baland, tetik ovozd. – Meni tanimadingiz, shekilli? Esingizdami, men bir oy-larcha ilgari yo'l so'rab kelganim? Menga fol ochganding-ku?

– Hech nima esimda yo'q, otaginam, – kampir boshini norizo silkigancha tamshandi, – hech nima esimda yo'q. Biznikida nima-ni unutding – sira tushunolmayapman. Nima, biz senga ulfatmizmi? Biz oddiy, omi odamlar bo'lsak... Biznikida nima qilasan? O'rmon katta, keng bo'lsa, borgan joyingga boravermaysanmi...

Men bunday iltifotsiz, qo'rs muomaladan dovdirab qolayozdim, bir onda nima qilishni bilmay qolgan kishining ahmoqona holatiga tushdim: kampirning shu qadar qo'polligini hazilga yo'ysammikin yoki o'zimdan achchiqlanishim kerakmi yoki nima bo'lsa bo'ldi, deya biror og'iz so'z aytmay, shartta ortimga burilib ketvorsammikin? Men beixtiyor ilojsizlikdan Olesyaga o'girildim. Olesya yengil istehzo bilan asta kuldi, yigirib o'tirgan charxidan turib, kampirning oldiga keldi.

– Qo'rqmang, buvijon, – dedi qiz murosasozlik ohangida, – u yomon odammas, bizga yomonlik qilmaydi. Marhamat, o'tiring, – deb taklif qildi u menga old burchakdagi kursini ko'rsatib, kampirning javrashiga ortiq ahamiyat bermasdan.

Men qizning e'tiboridan jonlandim, so'ng eng qat'iy yo'lni qo'llashga jazm qildim.

– Jahl ham evi bilan-da, momojon... Mehmon hali ostona hat-lamasdan, koyishga tushasiz. Axir, men sizga hadya olib kelgan bo'lsam, sizni qarang-u, – dedim men to'rvamdan tugunchani chi-qararkanman.

– Menga hech qanday hadya-padyang kerakmas, – kampir g'azablanib, kosov bilan cho'g'ni tita ketdi. – Sizdaqa mehmonlarni bilamiz. Avvaliga bir nima qilib ichingga kirib oladi-da, keyin... Xal-tangdagi nima? – birdan menga o'girilib so'radi kampir.

Men jon deb unga choy bilan qandni tutdim. Bu kampirga ta'sir qildi, garchand haliyam javrab turgan bo'lsa-da, yumshadi, endi vaysash ohangi boyagiday murosasiz emasdi.

Olesya yana ishiga o'tirdi, men, qiz yaqinida pastakkina, ensiz, liqillab turgan kursichadan joy topdim. Olesya chap qo'li bilan xuddi ipak kabi zig'irpoyaning titilgan oppoq, mayin tolasini tez-tez chiyratib yigirar, o'ng qo'li esa charxni asta vizillab aylantirar, goh yerga tushirib yuborar, goh chaqqonlik bilan ilib olardi-da, barmoqlar epchil harakat bilan yana uni aylanishga majbur qilardi. Bu ish bir qarashda oson bo'lib ko'rinsa-da, ammo mohiyatan ulkan, ko'p asrlik ko'nikma va chaqqonlikni talab qilardi, qiz qo'llari xuddi shunday qizg'in faoliyatda edi. Men ixtiyorsiz ana shu qo'llarga qaradim: bu qo'llar mehnatdan dag'allashgan va qorayib ketgandi, lekin ular uncha katta emasdi va chiroyli ko'rinardi, bu qo'llarga yaxshi tarbiya ko'rgan xushaxloq qizlarning havasi kelishi mumkin edi.

– Qarang, o'shanda siz menga buvim fol ochganini aytmangandiz, – dedi Olesya. Shunda u mening orqamga qo'rqa-pisa o'girilganimni ko'rib, qo'shib qo'ydi: – Hech nima qilmaydi, qulog'i picha og'irroq, eshitmaydi. Buvim faqat mening ovozimni yaxshi ajratadi.

– Ha, fol ko'rib qo'ydi. Nima edi?

– Hech nima... Shunchaki so'radim-da... Siz ishonasizmi? – u menga ko'z qiri zimdan qaradi.

– Nima uchun bunday deyapsan? Yoki menga buving fol ko'rgani uchun so'rayapsanmi yoki umuman folga ishonish-ishonmasligimni aytyapsanmi?

– Yo'q, men umuman...

– Nima desamikin, folga ishonmayman, desam to'g'riroq bo'ladi, lekin baribir kim biladi? Aytadilar-ku, axir, shunday voqealar ham uchraydi... Hatto ilmiy kitoblardayam bu haqda yozilgan. Lekin menga buving aytganlariga kelsak, mutlaqo ishonmayman. Istagan qishloqi xotin shunaqa avrashi mumkin.

Olesya kulimsiradi.

– Ha, bu to'g'ri, buvim endi yomon fol ko'radigan bo'lib qolgan. Qarib ham qoldi, keyin u juda qo'rqadi. Ochgan qartasida nima dedi?

– Qiziqarli joyi yo'q edi. Hozir esimdayam yo'q. Odatdagiday: olis yo'l, chillik qirol... deydimi-yey. Unutibman.

– Shunday, shunday, u yaxshi folbin bo‘lmay qoldi. Keksalikmi, ko‘p so‘zlarni esidan chiqarib qo‘yadi... Nimayam qilsin? Qo‘rqadi-da. Pulni ko‘rdi deguncha rozi bo‘ladi-qoladi.

– Nimadan qo‘rqadi?

– Nimalardan qo‘rqishi ma‘lum-ku, axir – kattalardan qo‘rqadi... Uryadnik keladi, do‘q-po‘pisadan boshqasini bilmaydi: «Men, deydi, seni istagan vaqtim qamoqqa tiqishim mumkin. Bilasanmi, deydi, sendaqa jodugarlarga nimalar qilinishini? Umrbod katorgaga surgun qilinasan, to‘g‘ri Sokol¹ oroliga jo‘naysan». Sizningcha, aldamaydimi ishqilib?

– Yo‘q, u aldashga-ku aldamaydi; haqiqatan bunga qandaydir jazo belgilangan, lekin bu unchalik qo‘rqinchlimas. Sen-chi, Olesya, fol ochishni bilasanmi?

Nazarimda, qiz o‘zini biroz yo‘qotib qo‘yganga o‘xshadi, biroq bu hol bir lahzada o‘tib ketdi.

– Fol ko‘raman... Faqat pulgamas, – qo‘shib qo‘ydi u shoshilib.

– Balki mengayam ochib qo‘yarsan?

– Yo‘q, – asta, ammo qat‘iy javob berdi u boshini chayqab.

– Nega? Albatta, hozirmas, balki keyinchalik, biror payt... Nega-dir menga haqiqatni aytadiganga o‘xshayapsan.

– Yo‘q, dedim-ku. Sizga fol ko‘rmayman. Hech qachon.

– Bu ishing yaxshimas, Olesya. Birinchi tanishuvimiz haqqi, iltimosimni qaytarma... Nima uchun ko‘nmayapsan?

– Chunki men sizga qartani tashlab bo‘lganman, ikkinchi safar bunday qilib bo‘lmaydi...

– Nega bo‘lmaydi? Nima uchun? Tushunmayapman.

– Yo‘q, yo‘q, mumkinmas, mumkinmas... – shivirladi qiz irimchi odam xavotiri bilan. – Qismatni ikki marta sinab bo‘lmaydi... Bo‘lmaydi... U buni biladi, eshitib turadi... Qismat bu haqda so‘rganlarini yoqtirmaydi. Shuning uchun ham bari folbinlarning baxti qaro.

Men Olesyaga biror hazil bilan javob qaytarmoqchi bo‘ldim-u, qaytarolmadim: qizning so‘zlari samimiy ishonch tuyg‘ulariga shunday to‘liq ediki, hatto qismatni tilga olgan vaqti g‘alati qo‘rqinch

¹ Bu yerda «Sokoliniy ostrov», ya‘ni Saxalin nazarda tutilmoqda.

bilan eshikka o'girilib qaradi, men ham beixtiyor uning harakatini takrorladim.

– Mayli, agar menga fol ko'rishni istamasang, unda nima chiqqanini ayt bo'lmasa? – so'radim men.

Olesya birdan charxni tashladi-da, qo'limga qo'lini qo'ydi.

– Yo'q... Bunday qilmaganim yaxshi, – dedi u, qizning ko'zlarida bolalarcha yolvoruvchan ifoda aks etdi. – Iltimos, so'ramang... Yaxshi chiqmagan... So'ramaganingiz ma'qul.

Biroq men so'zimdagi turib oldim. Men farq qilolmay qolgandim: uning iltimosimni rad qilishi va qismatga shubhali ishoralari bir folbin hiylasimikin yoki u haqiqatan so'zlaganlariga o'zi ishonib qolganmikin, negadir shu tob o'zimni noqulay his etdim.

– Yaxshi, aytsam ayta qolay, – axiyri rozi bo'ldi Olesya. – Faqat kelishib olaylik, lafzingizda turasiz: agar sizga yoqmasa, jahlingiz chiqmaydi. Mana sizga nimalar chiqqandi: garchi siz oliyjanob odam bo'lsangiz ham, irodangiz bo'sh... Sizning yaxshiligingiz samimiymas, yurakdan chiqmaydi. Siz o'z so'zingiz sohibi emassiz. Garchand odamlarga, ularning qonun-qoidalariga tobe bo'lsangizda, o'zingizni ulardan ustun qo'yasiz. May-sharobni yaxshi ko'rasiz, shu bilan birga... Hamon gapirishga to'g'ri kelgan ekan, mayli, bari ni bir boshdan ayta qolay... Ayollarga suyagingiz yo'q, lekin ulardan sizga kulfat keladi. Pulning qadriga yetmaysiz va uni to'plashniyam bilmaysiz – hech qachon boyib ketmaysiz... Aytaveraymi?

– Ayt, ayt! Nimalarni bilsang, hammasini gapir!

– Keyin mana nimalar chiqdi, hayotingiz qayg'uli o'tadi. Siz chin dildan hech kimni sevmaysiz, chunki yuragingiz muzday sovuq, sust, sizni sevganlarga esa ko'p azob-uqubat keltirasiz. Siz hech qachon uylanmaysiz, shundoq bo'ydoqligingizcha o'lib ketasiz. Hayotingizda katta shodiyona, xursandchiliklar bo'lmaydi, lekin dilgirliklar, og'ir kunlar ko'p bo'ladi... Shunday vaqt keladiki, o'z qo'llaringiz bilan o'z joningizga qasd qilishgacha borasiz... Oyog'ingiz ostidan shunday ish chiqib qoladi... Faqat jur'at qilolmaysiz, chidaysiz... Qattiq muhtojlikka bardosh berasiz, lekin umringiz oxirida taqdiringiz qandaydir yaqin inson o'limi orqali va siz uchun mutlaqo kutilmaganda o'zgarib qoladi. Faqat bularning bari ko'p yillardan keyin yuz beradi, mana shu yil esa... Men aynan qachonligini bil-

mayman – qartalar, tez orada bo'ladi, deydi... Balki hatto shu oyda-dir...

– Bu yil nimalar bo'ladi, axir? – so'radim men qiz yana to'xtab qolganida.

– Davomini aytishgayam yuragim dov bermayapti. Sizga qandaydir chillik motka tomonidan katta muhabbat tushyapti. Faqat uning oilalimi yo qizmi, bilolmayapman, bilganim, u qora sochli...

Men o'zim bilmagan holda Olesyaning boshiga bir qur nazar tashladim.

– Siz nimaga qarayapsiz? – birdan qiz mening qarashimni ba'zi ayollargagina xos fahm bilan his etib, qizarib ketdi. – Ha, menikiga o'xshab ketadi, – so'zida davom etdi beixtiyor sochlarini tuzatib, yanada yuzlari qizarib.

– Sen aytganday – katta chillik muhabbatimi? – hazillashdim men.

– Qo'ying, kulmang, keragi yo'q, – dedi qiz jiddiy, deyarli qat'iyat bilan. – Men sizga faqat to'g'ri gaplarni aytyapman.

– Bo'pti, bo'pti, kulmayman. Keyin-chi?

– Keyinmi... Oh! Ana shu chillik motkaga yaxshi bo'lmaydi, o'limdan battar holga tushadi. U siz tufayli butun umrga esdan chiqmaydigan isnodga yo'liqadi, sharmandayi sharmisor bo'ladi, qayg'u-alami uzoqqa ketadi... Sizga bo'lsa u tomonidan hech qanday yomonlik kelmaydi.

– Menga qara, Olesya, qartalaring seni aldagan bo'lishi mumkin emasmi? Nima uchun chillik motkaga shuncha ko'ngilsizliklar keltirishim kerak ekan? Axir, og'ir-bosiq, kamsuqum odam bo'lsam, men haqimda shuncha qo'rqinchli gaplarni gapirib tashlading.

– U yog'ini bilmayman. Qartada shunday chiqdi-da, axir, atayinmas, qarang, butun kulfatlar sizning orqangizdan kelyapti... So'zlarim to'g'ri chiqqan o'sha payt meni eslarsiz.

– Shu hamma gaplarni senga qartalaring aytdimi, Olesya?

Qiz darhol javob bermadi, gapni mujmal qildi va istar-istamas javob berdi:

– Qartalar ham... Qartalarsiz ham ko'p narsalarni bilib olaman, juda bo'lmasa, odamning yuziga qarab. Agarda, masalan, inson bedavo kasaldan yaqin-o'rtada o'lishi kerak bo'lsa, uning yuziga qa-



rab, buni uqib olaman, hatto u bilan gaplashib o'tirishgayam hojat qolmaydi.


– Uning yuzida nimani ko'rasan?

– Buni o'zim ham bilmayman. Birdan menga qo'rqinchli tuyulib ketadi, xuddi o'sha odam qarshimda jonsiz turganday bo'laveradi. Ana, buvimdan so'rang bo'lmasa, mening to'g'ri gapirayotganimni aytadi. Burnog'i yili tegirmonchi Trofim tegirmonida bo'g'ilib o'lib qoldi, men o'shanda uni ikki kun ilgari ko'rgandim, o'shanda buvimga: «Qarang, meni aytdi dersiz, buvijon, Trofim yaqinda yomon o'lim topadi», dedim. Shunday bo'lib ham chiqdi. O'tgan Rojdestvo kunlari biznikiga ot o'g'risi Yashka kelib, buvimdan fol ko'rib qo'yishini so'radi. Buvim qartalarni yoyib, fol ocha boshladi. U shunda buvimdan hazil qilib so'radi: «Qani ayt-chi, momo, men qanday o'lim topaman?» O'zi bo'lsa kuladi deng. Men unga qaradim deguncha, qimirlolmayman: qarasam, Yakov o'tiribdi, basharasi naq murda, ko'm-ko'k... Ko'zlari yumuq, lablari qorayib ketgan... Keyin, oradan bir hafta o'tgach, eshitsak, dehqonlar otlarni endi o'g'rilab olib ketmoqchi bo'lib turganida Yakovni tutib olishibdi... Tun bo'yi uni rosa kaltaklashibdi... Bizni xalqimizning qahri shunaqa qattiq, shafqatsiz... Tovonlariga mix qoqibdi, bari qovurg'alarini sindirib tashlashibdi, tongga borib undan arvoq ham qolmabdi.

– Nega endi uni kulfat kutib turganini, yaqinda baloga uchrashini o'ziga aytmading?

– Nega aytishim kerak ekan? – e'tiroz bildirdi Olesya. – Peshonasiga shunday kun bitilgan bo'lsa, bundan qochib bo'ladimi? Faqat inson bekordan-bekorga so'nggi kunlari yuragi siqilib, tahlikaga tushib qolishi mumkin... Mening o'zimgayam bu narsa xunuk ko'rinadi, o'zimni o'zim yomon ko'rib ketaman... Lekin nima qilay? Bu mening taqdirimda bo'lsa. Buvim ham yoshligida o'limni oldindan bilgan, onam ham, buvimning onasi ham – bu o'zimizga bog'liqmas... bizning naslimiz shunday.

U ip yigirishdan to'xtadi va qo'llarini asta tizzalariga qo'yganicha boshini quyi solib o'tirdi. Qizning ana shu harakatsiz, qorachiqlari kengaygan, jim turgan ko'zlarida qandaydir mash'um dahshat, sirli kuchlar va qalbiga soya solgan g'ayritabiiy ilohiy bilimlarga ixtiyorsiz itoat aks etdi.



Bu vaqt kampir stolga etak tomonlariga kashta tikilgan sochiqni yoydi va unga bug' chiqib turgan xurmacha qo'ydi.

– Ke ovqatga, – chaqirdi u nevarasini va bir daqiqacha taraddulanib turdi-da, so'ng menga yuzlandi, – balki, siz ham, janob, biz bilan birga ovqatlanarsiz? Marhamat... Faqat taomimizning mazasi yo'qroq, sho'rva pishirmaymiz, shunchaki yovvoyi don yormasi...

Kampirning taomga meni alohida hurmat bilan qattiq turib taklif etdi, deb bo'lmadi, taklifni rad etmoqchi ham bo'ldim, lekin Olesya o'z navbatida shunday oddiy, shunday xush muomala, shunday mayin tabassum bilan dasturxonga chorladiki, noiloj ko'ndim. Qizning o'zi menga tovoqni to'ldirib taom – g'arg'o'sha yormasidan moy, piyoz, kartoshka va tovuq go'shti solib pishirilgan obi yovg'on – kutilmaganda lazzatli va to'yimli sho'rvadan quyib berdi. Dasturxonga o'tirarkanlar, buvi ham, nevarasi ham cho'qinmadilar. Men yemak ustida ikkala ayolni kuzatib o'tirdim, chunki komil ishonch bilan shuni aytishim mumkin va bunga hozirga qadar aminman, inson o'zini hech qaysi joyda, ovqatlanish paytidagiday aniq-ravshan namoyon etmaydi. Kampir sho'rvani shoshqin ochko'zlik bilan, lablarini qattiq chapillatib, og'ziga nonni katta-katta bo'laklab tiqishtirganicha apil-tapil tanavvul qilmoqda edi, qurishqoq yonoqlari shishib, qaldir-quldur ovoz chiqarardi. Olesyaning esa hatto ovqatlanish harakatida ham qandaydir tug'ma odob, tarbiyalilik sezildi.

Men yemakdan bir soatlarcha o'tgach, qoziqoyoqli kulba sohibalari bilan xo'shlashdim.

– Istasangiz, sizni picha kuzatib qo'yay? – taklif etdi Olesya.

– Yana qanaqa kuzatish? – tamshanib dedi jahl bilan kampir. – Bir yerda o'tirolmaysan, ninachi.

Biroq Olesya boshiga qirmizi kashmiri ro'molini tashladi va birdan buvisi yaqiniga chopib keldi-da, uni quchoqlab, cho'pillatib o'pdi.

– Buvijon! Jonim, qimmatligim, tillaginam... men bir daqiqagagina... darrov kuzataman-u, izimga qaytaman.

– Mayli, mayli, havoyi qiz, – zaif qarshilik bilan uni quchog'idan ayirdi kampir. – Siz, janob, aybga buyurmang: mening qizim shunaqa aqlini yo'qotgan, tentak.

Biz torgina so'qmoqdan o'tib, loy-balchiqdan qorayib ketgan o'rmon yo'liga chiqib oldik; butun yo'lni ot tuyog'i bosib qoldirgan izlar bosib ketgan, g'ildiraklar izidan qolgan o'ydim-chuqurlarga suv to'lib qolgan, shu ko'lmakchalarda kechki shafaqning qontalash nurlari akslanmoqda edi. Biz qordan keyin hali qurimagan, o'tgan yilgi qoramtir yaproqlar butunlay qoplab olgan yo'l yoqalab ketdik. Qaydadir ana shu jonsiz sariqlik orasidan katta-katta «tush» qo'ng'iroqchalari – Polesyening ilk chechaklari binafsharang boshchalarini ko'tarib qolgandi.

– Menga qara, Olesya, – deb gap boshladim men, – men sendan bir narsa haqida judayam so'ragim kelyapti-yu, lekin jahling chiqadimi tag'in, deb qo'rqyapman... Ayt-chi, buving chindan ham... nima desamiykin?

– Afsungarmi? – osoyishtalik bilan menga yordam berdi Olesya.

– Yo'q... Afsungarmas... – chaynaldim men. – Ha, mayli, afsungar bo'lsa bo'la qolsin... Albatta, odamlar nimalar demaydi. Nega endi har xil o't-giyohlar, dori-darmonlar, afsun-qaytariqlarni bilmasligi kerak ekan? O'zing bilasan, agar savolim yoqmasa, javob bermay qo'ya qol.

– Yo'q, nega endi, – dedi qiz javoban oddiygina qilib, – buning qanday yomon tomoni bor ekan? Ha, to'g'ri, u afsungar. Faqat hozir u qarib qoldi, ilgari qilib yurgan ishlarni qilolmaydi.

– Ilgari nima ishlardi? – dedim qiziqqonlik bilan.

– Har xil ishlarni. Davolashni bilardi, o'qib, odamlarning tish og'rig'ini qoldirardi, tumor, damlama, qaytariqlar qilardi, agarda kimnidir quturgan it qopsa yoki ilon chaqsa, o'qib qo'ysa, tuzalib qolardi, biror joyda xazina bo'lsa, topib, ko'rsatardi... Karomatlarini sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi.

– Bilasanmi, Olesya?... Kechirasan-u, men bularning hech biriga ishonmayman. Ke, ochig'ini ayt, men seni sotmayman: axir, bularning hammasi – ko'zbo'yamachilik, odamlarning boshini aylantirish, to'g'rimi?

U beparvo kiftini uchirdi.

– Nima deb o'ylasangiz o'ylayvering. Albatta, qishloqi bir xotinni laqillatib o'tirish hech gapmas va bu hech nimaga arzimaydi, lekin men sizni aldamagan bo'lardim.

– Demak, sen jodu-afsunga qat'iy ishonasan, to'g'rimi?
– Nega endi ishonmayin? Axir, bizning avlodimiz sehr-jodu bilan... Mening o'zim ham ko'p narsalarni bilaman.

– Olesya, azizam... Menga bu ishlar qanchalar qiziqarli ekanini bilsang edi... Nahotki, sen menga hech nimani ko'rsatolmasang?

– Nega endi ko'rsatmayin, agar shunchalik xohlarkansiz, ko'rsataman, – dedi hozirlik bilan Olesya. – Hozir ko'rsataymi?

– Ha, mumkin bo'lsa, hozir.

– Qo'rqmaysizmi?

– Bema'nilik. Tunda, ehtimol qo'rqishim mumkindir, hozir hali yop-yorug'-ku.

– Yaxshi. Unda qo'lingizni bering.

Men unga itoat etdim. Olesya tezgina paltom yenglarini shimarib qo'ydi va ko'ylagim uchiga qadalgan ilmatugmani yechdi, so'ngra yonidan mo'jazgina, uzunligi uch vershok¹ keladigan fin pakkisini oldi-da, uni charm qinidan chiqardi.

– Nima qilmoqchisan? – deya so'radim vujudimda shaytoniy bir qo'rquv paydo bo'lganini sezib.

– Mana, hozir... Axir, o'zingiz qo'rqmayman, deb aytdingiz-ku!

Birdan qiz qo'llari arang sezilarli harakatlandi, shunda men bilagimning tomir urishini tekshiradigan joydan picha yuqoriroq yumshoq joyida seskantiruvchi keskir tig' tekkanini his etdim. Qon birdan kesilgan joydan qo'limga yoyildi, tomchi bo'lib yerga toma boshladi. Men qichqirib yuborishdan o'zimni zo'rg'a tiyib turdim, lekin baribir rangim oqarib ketgan bo'lsa kerak.

– Qo'rqmang, tirik qolasiz, – kalaka qilganday kuldi Olesya.

U qo'limning tig' tegib, yara bo'lgan joyidan mahkam ushlab oldi-da, unga egilib yuzini yaqinlashtirdi va terimga qaynoq uzuq-uzuq nafasini berib, nimalarnidir shivirlay boshladi. Olesya qaddini tik tutgan va barmoqlarini yozib yuborgan payt qo'limning yaralangan yeri faqat timalganday qizil bo'lib turar edi.

– Xo'sh? Yetarlimi? – dedi qiz quv tabassum bilan pakkisini qiniga solarkan. – Yana bo'lsinmi?

– Albatta. Faqat imkon qadar, unchalik qo'rqinchli bo'lmasin va qon to'kilmasin.

¹ 4,4 santimetrga teng uzunlik o'lchovi.

– Sizga yana nimani ko'rsatsamikin? – o'ylanib qoldi qiz. – Juda bo'lmasa, shunisini qilaylik: siz mendan oldin ketaverasiz. Faqat, orqangizga qayrilmaysiz.

– Bunisi qo'rqinchli bo'lmaydimi, ishqilib? – dedim men qo'rqa-pisa yoqimsiz syurprizni kutayotganimni go'yo parvosiz tabassumim ortiga yashirishga urinib.

– Yo'q, yo'q... Gapirishgayam arzimaydi... Boravering.

Men azbaroyi nima bo'lishiga qiziqqanimdan, ortimdan Olesya-ning jiddiy nigohini his qilganimcha oldinda ketaverdim. Biroq yigirma qadamlarcha yurgach, birdan tep-tekis joyda o'zimdan o'zim qoqilib ketdim va mukkamdan tushdim.

– Boravering, boravering! – qichqirdi Olesya. – Qayrilmay ketavering! Hech nima qilmaydi, hechqisi yo'q, iziyam qolmaydi... Yi-qilganingizda yerga mahkam yopishing, suyaydi.

Men ilgarilab ketaverdim. Yana o'n qadamcha yurdim, yana ikkinchi martasida ham bor bo'yim bilan uzala tushdim.

Olesya bor ovozi bilan qah-qah otib kulib yubordi va chapak chaldi.

– Ha? Ko'nglingiz to'ldimi? – oppoq tishlarini yaltiratib qichqirdi u. – Endi ishondingizmi? Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q!.. Yuqoriga uchib tushmadingiz-ku axir, yerga yiqildingiz.

– Buni qanday qilding? – taajjub bilan so'radim men kiyim-bo-shimga ilashgan quruq shox-shabbalarni qoqarkanman. – Sirmi bu?

– Buning umuman sir joyi yo'q. Men sizga jon deb aytib bera-man. Faqat, siz tushunmaysizmi, deb qo'rqaman... Buni tushuntiro-lmayman...

Men haqiqatan qizning gaplariga unchalik tushunmadim. Biroq agar yanglishmasam, ana shu o'ziga xos hiyla-nayrang shundan iborat ediki, u mening izimdan qadamma-qadam, oyog'imdan sira ko'zini uzmay, fikridan qaytmay ta'qib qilib boraveradi, ayni paytda mening har bir, eng mayda harakatimga ham taqlid qilishga, shunday, o'zini xuddi menday tutishga, tenglashtirishga intiladi. Shu tariqa bir necha qadam yurarkan, u xayolan mening oldimda bir qancha maso-fa narida yerdan bir gazda¹ ko'ndalangiga chilvir turibdi, deb tasav-vur qiladi. Ana shu daqiqada men xayol qilingan chilvirni oyog'im

¹ Gaz – bu yerda: 0,71 metrga teng uzunlik o'Ichovi.

bilan bosib olishim kerak. Olesya birdan yiqilganday harakat qiladi va o'shanda, uning aytishicha, eng baquvvat odam ham yiqilib tushishi aniq bo'ladi... Men oradan ko'p vaqtlar o'tgandan keyingina doktor Sharkoning Salpetriyer kasalxonasida vasvasaga chalingan, jazavaga tushib, azob chekayotgan asl afsungar bo'lgan ikki bemori ustidan olib borgan tajribalari xulosalarini o'qiy turib, Olesyaning chalkash-chulkash qilib tushuntirganlarini xotirladim. Men shunda avom xalqdan chiqqan farang afsungarlari ham polesyelik yaxshi bir folbin qo'llagan usuldan mahorat bilan foydalanganlarini bilib, juda hayratga tushdim.

– O'! Men yana ko'p narsalarni bilaman, – o'ziga ortiqcha ishonch bilan dedi Olesya. – Masalan, men sizni shunday qo'rqitib qo'yishim mumkinki.

– Bu nima deganing?

– Shunday qilamanki, siz vahimaga tushasiz. Deylik, kechqurun xonangizda o'tiribsiz, to'satdan e yo'q, be yo'q butun vujudingizni qo'rquv qoplaydi, qalt-qalt titray boshlaysiz, tevarak-atrofingizga alanglolmay ham qolasiz. Faqat men buning uchun sizning qayerda yashashingizni bilishim, avval xonangizni ko'rishim kerak bo'ladi.

– E, bu judayam oson, – hadiksirab dedim men. – Derazaga kelasan-da, taqillatasan, biror nima deb qichqirasan.

– O', yo'q, yo'q... Men bu vaqt o'rmonda bo'laman, uydan hech qayoqqa chiqmayman... Lekin men o'z joyimda o'tiraveraman, shu o'tirganimcha o'ylayman, faqat mana-mana, ko'chada ketyapman, uyingizga kiraman, eshikni ochaman-da, xonangizga kiraman... Siz qayerdadir shu atrofda o'tirasiz... stol yonidami... men orqangizdan pisib borib astagina... siz sasimni eshitmaysiz... keyin yelkangizdan ushlab, bosa boshlayman... yanada qattiqroq, qattiqroq, qattiqroq... o'zim esa sizga qarayman... mana shunday – qarang...

Qizning ingichka qoshlari birdan chimirildi, ko'zlari menga dahshat va o'ziga tortuvchi ifoda bilan tikildi, qorachiqllari kengaydi, ko'kardi. Men shu on Moskvada, Tretyakov galereyasida ko'rganim Meduzaning boshi¹ yodimga keldi – kimning asari ekanini eslolmay-

¹ Bu yerda, ehtimolki, italiyalik musavvir Karavajo (1571–1610) qalamiga mansub yunon afsonalaridagi birgina nigohi bilan erkaklarni toshga aylantirgan, soch o'miga ilonlar o'sib chiqqan Meduza Gorgonaning qahramon Persey tomonidan kesilgan boshi tasvirlangan suvrat nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

man. Ana shu diqqat bilan tikilgan qahrli, g'alati nigohdan badanim jimirlab ketdi, butun vujudimni g'ayritabiyy sovuq vahima qoplab oldi.

– Bo'ldi endi, Olesya... yetar, – dedim men yasama kulgi bilan. – Menga ko'proq sening tabassuming yoqadi – shunda yuzing yoqimtoy, bolalarnikiday beg'ubor bo'lib qoladi.

Biz ilgari ketaverdik. Birdan oddiygina qiz so'zlarining ma'noliligi, nutqi hattoki nazokatli iboralarga boyligi xayolimga keldi.

– Olesya, sening nimang meni hayratga soladi, bilasanmi? Mana, o'rmonda, birovni ko'rmay o'sding... Albatta, o'qishga-ku, ko'p o'qimagansan...

– Men umuman o'qishni bilmayman ham.

– Qara... Shunga qaramay, yaxshi so'zlaysan, haqiqiy oyimqizlardan qolishmaysan. Menga ayt-chi, nega shunday? Men nimani aytayotganimni tushunyapsanmi o'zi?

– Ha, tushunyapman. Bularning barchasi menga buvimdan o'tgan... Siz uni sirtidan boshqacha-ku, demang. O! Buvim shunday donoki! Balki u sizning oldingizda gapirmas, agar ko'proq o'rganib qolsa... Buvim hamma narsani, dunyoda borki, nimani so'rasang, barini biladi. To'g'ri, endi qarib qoldi-da.

– Demak, umrida ko'p narsalarni ko'rgan, shundaymi? Nasli kimlardan? Ilgari qayerda yashagan?

Aftidan, mening bu savollarim Olesyaga yoqmadi. U menga darrov javob bermadi, mujmal va istamaygina shunday dedi:

– Bilmayman... Buvim bu haqda gapirishni istamaydi. Bordiyu, bu haqda biror narsani gapiradigan qolsa, hamisha, buni unut va boshqa eslab o'tirma, deydi... Voy, ketadigan vaqtim bo'ldi, – shoshildi Olesya, – buvimning jahli chiqadi. Xayr bo'lmasa... Uzr, ismingizni bilmayman.

Ismi sharifimni aytdim.

– Ivan Timofeyevich? Juda soz. Bo'lmasa, ko'rishguncha, Ivan Timofeyevich! Kulbamizdan irganmang, kelib turing.

Men xayrlashish uchun qo'limni uzatdim va qizning kichikkina baquvvat qo'li menga kuchli, do'stona siqish bilan javob qaytardi.

Shu-shu, men qoziqoyoqli kulbaning kunda-shunda mehmoniga aylandim. Har safar ularnikiga kelganimda Olesya meni odatdagiday vazminlik va odob bilan kutib olardi. Biroq hamisha dastlab kirganimda, o'zi bilmagan holda qilgan harakatiga ko'ra, u meni ko'rganidan mamnun bo'lishini payqadim. Kampir meni o'sha-o'sha dimog'ida nimalarnidir ming'irlash bilan qarshi olardi, biroq menga ko'rinmas jihatlar tufayli, yana shak-shubhasiz, nevarasining yonimga tushishidandir, ochiq-oydin noroziligini bildirmas edi; shuningdek, qaysidir ma'noda qachonlardir olib borgan sovg'a-salomlarim ham o'z ishini qilgandi: issiqqina ro'mol deysizmi, bankada qiyom deysizmi, shishada olcha sharobi deysizmi, kampirga yaxshi ta'sir ko'rsatgandir. Biz Olesya bilan go'yo ikkalamiz kelishib olganimizday, qaytayotganimda u meni Irinov yo'ligacha kuzatib qo'yishi odatga aylangan edi. Keyin hamisha ana shu damlar shunday qizg'in, qiziqarli suhbatlashardikki, biz ikkimiz ham o'zimiz bilmagan holda sokin o'rmon yoqalab yurib yo'lni cho'zishga intildik. Men Irinov yo'liga yetgach, qizni qaytishida yarim chaqirimcha kuzatib qo'yardim, xayrlashishdan ilgari yana o'tkir isli qarag'ay shoxbutoqlari ostida uzoq gaplashardik.

Meni nafaqat Olesyaning zeboligi, balki shuningdek, uning yaxlit, o'ziga xos, erkin tabiati, aql-zakovati, ayni vaqtda aniq-ravshan va avlodidan o'tgan o'ta irimchiligi bilan birga bolalarcha ma'sumligi, keyin sohibjamol qizning quv noz-karashmasiga qorishiq beg'uborligi o'ziga maftun etib qo'ygandi. Qiz mendan hamma narsalar haqida ipidan-ignasigacha batafsil so'rab-surishtirishdan charchamas edi, ibtidoiy, yorqin tasavvurlari: mamlakatlar va xalqlar, tabiat hodisalari, yer va olamning yaralishi, olim-fozil kishilar, ulkan shaharlar haqidagi ma'lumotlar uni hayajonga solar, butun xayolotini egallab olgan edi... Ko'p narsalar qizga ajib, xayoliy, qiziq bo'lib tuyulardi. Men tanishuvimizning avvalboshidan u bilan jiddiy, samimiy va sodda ohangda suhbatlashish yo'sinini tanlagan edimki, shundanmi, qiz bajonidil men aytib beradigan hikoyalarni behad ishonch bilan qabul qilardi. Ba'zan unga nimanidir tushuntirishga qiynalgan kezlarim, haddan ortiq, fikrimcha, qizning yarim

asov, jilovlanmagan aql-zakovati uchun tushunarsiz (ba'zida o'zim ham unchalik anglamagan) bo'lgan vaqtlar, men uning chanqoqlik bilan bergan savollariga shu tarzda e'tiroz bildirardim: «O'zing bir o'ylagin... Men buni senga aytib berolmayman... Sen meni tushunmaysan».

Shunda qiz yolvora boshlardi:

– Qo'ying, unday qilmang, iltimos, iltimos, tushunishga harakat qilaman... Bir amallab aytib bering... tushunarsiz bo'lsayam mayli...

Olesya hikoya qilarkanman, meni g'alati qiyoslashlar, beo'xshov misollar keltirishga majbur qilar, agarda ibora topishga qiynalsam, uning o'zi menga sabrsizlanib savollarni yog'dirib tashlashi bilan yordam berardi, bu xuddi bitta so'zda tutilib, azobda qolgan duduqni so'roqqa tutishga o'xshab ketardi. Pirovardida, uning haqiqatan bilimlarga chanqoq, har bir narsani tezda ilg'ab oluvchi zehn-idroki va toza xayoloti mening pedagogik o'jizligim ustidan tantana qilardi. Men qiz o'z muhiti, ko'rgan tarbiyasi (yoki to'g'rirog'i, ana shu tarbiya bo'lmagani) uchun misli ko'rilmagan, ajoyib qobiliyatlarga ega ekaniga amin bo'lishga majbur edim.

Men bir kuni gap orasida shunchaki Peterburgni tilga olganimni bilaman, shunda Olesyaning qulog'i ding bo'ldi:

– Peterburg nima? Qishloqmi?

– Yo'q, u qishloqmas; bu ruslarning eng katta shahri.

– Eng kattami? Hamma, hammasidan, eng, engimi? Undan kattasi yo'qmi? – u soddadillik bilan menga yopishib oldi.

– Ha... Bari katta boshliqlar o'sha yerda yashaydi... Katta-katta boylar ham... U yerda hamma imoratlar toshdan qurilgan, yog'och uylar yo'q.

– Hattoki bizning Stepanimizdan ham kattami? – dadil so'radi Olesya.

– Ha, albatta... ancha-muncha katta... aytaylik, besh yuz baravar katta. U yerda shunday binolar borki, ularning har birida butun Stepan aholisining ikki baravari yashaydi.

– Oh, Xudoyim! U qanaqa uylar bo'ldi ekan-a? – deyarli vahimaga tushib so'rardi Olesya.

Odatimcha, men yana solishtirishga o'tardim.

– Bahaybat uylar. Besh, olti, yetti qavatliariyam uchraydi. Ana-
vi qarag‘ayni ko‘ryapsanmi?

– Anuv eng balandinimi? Ko‘ryapman.

– Ana o‘shandan ham baland-baland imoratlar. Yuqoridan pastigacha odamlar bilan liq to‘la bo‘ladi. Ana shu kishilar xuddi qushlar inlarida qo‘nim topganlariday, kichkina-kichkina katalaklarda yashaydilar, har bir katalakda o‘nlab kishi turadi, shunday, ularning har bittasiga nafas olay desa, havoyam yetmaydi. Boshqa odamlar bo‘lsa, yerning ostida zax va sovuqda yashaydi; ba‘zida butun yil bo‘yi xonada quyosh nurini ko‘rmaydilar.

– E. qo‘ying-e, hech qachon men o‘z o‘rmonimni sizning o‘sha shaharingizga almashmagan bo‘lardim, – dedi Olesya boshini chayqab. – Men Stepan bozoriga tushganimda ko‘nglim ozib ketadi, zo‘rg‘a borib kelaman. Bor narsalarimni tashlasam-u, orqa-o‘ngingma qaramay qochsam, deyman... Xudo ko‘tarsin o‘sha shaharingizni, men u yerda sirayam yashamagan bo‘lardim.

– Bo‘pti, agar ering shaharlik bo‘lsa-chi? – so‘radim men miyig‘imda kulib.

Uning qoshlari chimirildi, nozik burun kataklari titradi.

– Shunisi yetmay turgandi! – dedi qiz dimog‘dorlik bilan. – Menga hech qanday erning keragi yo‘q.

– Sen hozir shunday deyapsan, Olesya. Deyarli hamma qizlar ham xuddi shunday deyidilar, keyin baribir turmushga chiqadilar. Biroz sabr qil: birorta yigitni uchratasan, uni sevib qolasan, o‘shanda shahar ekan-ku, u bilan dunyoning narigi chekkasigayam ketishga tayyor bo‘lasan.

– Oh, yo‘q, yo‘q... iltimos, bu haqda gaplashmaylik, – ranjib qo‘l siltadi u. – Shu gap qayoqdan chiqdi?.. Iltimos sizdan, bas qiling.

– Qiziqsan-da, Olesya. Nahotki, hayotingda hech qachon biror yigitni sevmay o‘tsang? Sen – hali yosh, go‘zal, sog‘lom bo‘lsang. Qoning qaynab turganida, qasam-pasamga balo bormi?

– Boshga tushsa – sevarman ham! – ko‘zlari porlab, mag‘rurona javob berdi Olesya. – Hech kimdan so‘rab ham o‘tirmayman.

– Bundan chiqdi, ergayam tegarsan? – jig‘iga tegdim men.

– Siz balki cherkovda nikohdan o‘tishni aytayotgandirsiz? – mening nimaga ishora qilayotganimni fahmladi u.

– Albatta, cherkovdagi nikohni aytyapman... Ruhoniy qiya stol bo‘ylab aylantiradi, dyakon¹ «Ishayyo, shodlan»ni² aytadi, boshingga toj taqadi...

Olesyaning qovoqlari solindi va zaifgina jilmayib, boshini yo‘q, deganday chayqadi.

– Yo‘q, azizim... Ehtimol hozir sizga aytadigan so‘zlarim yoqmasligi mumkin, shuni sizga aytib qo‘yay, bizning zoti avlodimizda hech kim nikohdan o‘tmagan: onam ham, buvim ham shusiz yashaganlar... Bizning hatto cherkovga kirishimiz ham mumkin emas...

– Sizlarning mana shu afsunlaringiz tufaylimi?

– Ha, bizning afsungarligimiz uchun, – osoyishtalik bilan jiddiy ohangda javob berdi Olesya. – Men qanday qilib cherkovga kirishga jur‘at qilaman, axir, tug‘ilganimdanoq qalbim *unga* sotilgan bo‘lsa.

– Olesya... Azizam... Menga ishon, sen o‘zingni o‘zing aldayapsan... Aytayotgan gaplaring aqlga to‘g‘ri kelmaydi, kulgili-ku, axir.


Bir kuni yana Olesyaning yuzida o‘zining sir-sinoatli qismatiga komil ishonch, achchiq qayg‘u bilan itoat etishning g‘alati ifodasi paydo bo‘ldi:

– Yo‘q, yo‘q... Siz buni tushunolmaysiz, men buni his qilaman, – u qo‘lini ko‘ksiga olib borib, qattiq qisdi, – ich-ichimdan his qilaman. Bizning zotimiz to‘ abad tavqi la‘natga uchragan. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring: agar *u* yordam bermasa, axir, kim bizga qayishadi? Bizning bor qudratimiz *undan*.

Har safar suhbatimiz ana shu g‘ayrioddiy mavzuga kelib taqalganida, shu tarzda yakun topardi. Men Olesya tushunadigan qilib barcha dalil-isbotlarni keltirib kuch sarflashim behudaga ketardi, gipnotizm haqida sodda qilib tushuntirishim, o‘z-o‘zini ishontirish, psixiatr doktorlar va hind qalandarlar haqida gapirishim, unga fiziologik yo‘llar bilan, juda bo‘lmaganda, masalan, tajribalardan ko‘ktomirini shunday ustalik bilan siqish yo‘li bilan qonni qaytarish haqida jon kuydirib gapirishim behuda ketardi – boshqa masalalarda menga so‘zsiz ishonadigan Olesya, qaysarona qat‘iyat bilan mening bari

¹ Pravoslav cherkovida: ruhoniylarining quyi unvoni.

² Pravoslav nasroniylarning cherkovda nikoh chog‘i aytiladigan qo‘shig‘i.



isbot-u dalillarim va izohlarimni rad etardi... «Xo'p, bo'пти, bo'пти, men sizga qonni qanday qaytarish usulini sovg'a qilarman, – dedi u bahs kuchayganida ovozini ko'tarib, – qolganlari-chi, qayoqdan kelgan? Nahotki, birgina men qonni qanday qaytarishni bilsam? Istasangiz, men sizga bir kunda bari sichqonlar-u suvaraklarni uydan chiqarib, qirib bitiraman. Istasangiz, o'sha sizning hamma do'xtirlaringiz bemorni davolashdan bo'yin tovlaganlarida men ikki kunda oddiy suv bilan eng o'tkir bezgakka chalinganlarni davolay olaman. Istasangiz, men shunday qilamanki, qandaydir bir so'zni umuman esdan chiqarib qo'yasiz. Tushlarni-chi, ta'birini nega aytmayin? Kelajakda nimalar bo'lishini-chi, nega bilmayin?»

Bizning bahsimiz hamisha men ham, Olesya ham bir-birimizdan g'ijinishga ulgurmasdan, birdan jim qolish bilan tugardi. Haqiqatan, o'zimning mo'jazgina ilmim bilan uning ana shu muham, qorong'i san'atidan ko'p narsalarga izoh topolmadim. Men, Olesya shunday soddalarcha go'l ishonch bilan aytgan o'sha sirlarning loaqal yarmini egallaganmidi-yo'qmi, buni bilmayman va aytolmayman, lekin bir narsani bilamanki, o'zim ko'p safar guvoh bo'lganimday, Olesyaning g'ayrishuuriy, instinktiv, mavhum, tasodifiy tajriba bilan egallangan aniq fandan butun bir asrga hatlab o'tib, o'zib ketgan g'alati bilimlarga egaligi menda qat'iyon ishonch uyg'otgan edi, ular qiziq va aql bovar qilmas xurofiy afsonalarni qorishtirib yuboradilar, bu avloddan avlodga buyuk sir kabi o'tib boraveradi va ular shu tarzda zulmatda, mahdud xalq ommasida yashaydilar.

Biz mana shu yagona banddagi keskin ziddiyatlarga qaramasdan bir-birimizga qattiqroq va mustahkamroq bog'lanib qolgandik. Oramizda muhabbat haqida hali bir og'iz so'z ham aytilmagandi, ammo birga ko'rishib turish biz uchun ehtiyojga aylangan va aksariyat nigohlarimiz beixtiyor va ayni vaqtda to'qnashib qolib, sukut saqlagan daqiqalarimizda, men Olesyaning ko'zlari qanday namlangani va chakkasidagi ingichka ko'kish tomiri qanday urib turganini ko'rardim...

Ammo Yarmola bilan oramiz butunlay buzilib qoldi. Albatta, mening qoziqoyoqli kulbaga tashriflarim hamda Olesya bilan kechki sayrlarim Yarmolaga sir emasligi ayon edi; u hayratlanarli tarzda o'zining o'rmonida nimalar bo'layotganidan boxabar edi. Men

birmuncha vaqtgacha uning mendan qochayotganini sezib qoldim. Garchand biror og'iz so'z bilan menga tanbeh bermagan bo'lsa-da, uning qora ko'zlari har safar o'rmonga o'tlanayotganimda ta'na va norizolik bilan kuzatib turardi. Bizning savod chiqarish bilan bog'liq kulgili mashg'ulotlarimiz ham yakun topgandi. Mabodo ba'zida kechqurun Yarmolani o'qishga chorlasam, u qo'llarini silkirdi.


– Menga yo'l bo'lsin! Bekorchi gaplar, panich, – derdi xushlamaygina bepisandlik bilan.

Biz u bilan ovga ham chiqmay qo'ydik. Men har safar bu haqda gap ochadigan bo'lsam, albatta, Yarmolaning rad etish uchun bahonasi tayyor turardi: dam miltig'i buzilib qolar, dam iti kasal bo'lardi, dam o'zining ovga mutlaqo vaqti bo'lmas edi. «Sira vaqtim yo'q-da, panich... bugun shudgor haydashim kerak», – Yarmola ko'pincha taklifimga shunday javob qaytarardi, men esam uning dardi tamomila «shudgor haydash» emasligini, kun-uzzukun monopoliya¹ tagida biror-bir yegulik tegarmikin, degan umidda vaqt o'tkazishini juda yaxshi bilar edim. Ana shu sassiz, pinhoni adovat meni siqib yubordi va Yarmolaning xizmatlaridan voz kechish uchun biror jo'yali vajni qo'llashni ham o'ylab qo'ydim. Uning kattagina, qashshoq oilasiga rahm-shafqat tuyg'usi meni to'xtatib turardi, chunki faqat Yarmolani to'rt rubllik maoshigina ularni ochlikdan o'lib ketishdan saqlab turardi.

VII

Bir kuni odatdagiday kechga tomon qoziqoyoqli kulbaga keldim, uydagilarning ruhsiz, xafa holda ekanliklarini darrov sezdim. Kampir to'shagida boshini qo'llari bilan ushlaganicha egilib o'ttirar, bir orqaga, bir oldinga tebranib, dimog'ida tushunarsiz narsalarni ming'irlardi. U mening salomimga ahamiyat ham bergani yo'q. Olesya men bilan odatdagiday mayin so'rashdi-yu, lekin gapimiz gapimizga qovushmadi. Qiz gaplarimni parishonlik bilan tinglar, savollarimga ham poyintar-soyintar javob qaytarardi. Uning chiroyli chehrasiga qandaydir keti ko'rinmas ichki xavotir sharpasi soya so'lib turardi.

¹ Bu o'rinda: qovoqxona, yemakxona ma'nosida.



– Bu yerda bir ko'ngilsizlik yuz berganini ko'rib turibman, – dedim men kursiga qo'ygan qizning qo'liga ehtiyotkorona qo'limni qo'yib.

Olesya xuddi tashqarida nimanidir ko'radiganday tez derazaga o'girilib qaradi. U o'zini xotirjam ko'rsatishga harakat qilardi, biroq qoshlari chimirilgan va o'zi titrab turardi, tishlari esa pastki labini mahkam tishlagandi.

– Yo'q... qanday noxushlik bo'lishi mumkin? – dedi u bo'g'iq ovozda. – Hammasi qanday bo'lsa, shundayligicha qoldi.

– Olesya, nega menga to'g'risini aytmayapsan? Bunday qilishing yaxshimas... Men bo'lsam biz, axir, do'stlarmiz-ku, deb o'ylabman.

– Aytyapman-ku, hech nima bo'lgani yo'q, deb... Kunda bo'lib turadigan tashvishlar, arzimagan gaplar...

– Yo'q, Olesya, arzimagan gap bo'lmasligi kerak. Bir qara – o'zing o'zingga o'xshamay qolgansan.

– Sizga shunday tuyulayotgandir.

– Menga ochig'ini aytaver, Olesya. Men senga yordam bera olamanmi-yo'qmi, bilmayman, balki biror maslahat berarman... Keyin ko'nglingni ochsang, dardingni aytasang, ancha yengil tortasan.

– To'g'risi, bu gapirib o'tirishgayam arzimaydi... – betoqat bo'lib e'tiroz bildirdi Olesya. – Siz bizga hech qanaqasiga yordam berolmaysiz.

Kampir dabdurustdan qizishgandan-qizishib suhbatimizga aralashib qoldi:

– Tentak qiz, nima uchun hadeb o'zingni taroziga solib, qaysarlik qilib o'tiribsan? Senga ishni gapirsa, burningni ko'tarasan. Go'yoki dunyoda sendan bo'lak dono yo'q. Janob, ijizat bersangiz, bari bo'lgan voqeani bir boshdan sizga gapirib beray... – u men tomonga o'girildi.

Sodir bo'lgan ko'ngilsizliklar darajasi men mag'rur Olesya so'zlaridan taxmin qilishim mumkin bo'lganidan ancha jiddiyroq bo'lib chiqdi. Kecha kechqurun qoziqoyoqli kulbaga shu yerlik ur-yadnik kelgan.

– Avval viqor bilan kerilib o'tirdi-da, sharob opke, deb turib oldi, – dedi Manuylixa, – keyin yuraverdi, yuraverdi. «Lash-lushlaringni olasan-da, dedi, naq yigirma to'rt soat ichida bu yerdan tuyog'ingni

shiqillatasan. Agar yana kelganimda, dedi, seni bu yerda ko'radigan bo'lsam, o'zingdan ko'r, ha, qamoqqa tiqishim tayin. Ikkita askarni qo'shib, dedi, sen mal'unni mamlakatingga jo'natmasammi». Otaginam, mening vatanim, olisda, Amchensk shahri... U yoqda endi menga na tanish bir jon qolgan, keyin bizning pasportimizning muddatiyam o'tib ketgan, keyin cho'zilmagan. Xudoyim-ey, meni bu balo qayerda kutib turgan ekan!

– U nega ilgari yashashlaringga indamasdi, endi bu xayoliga kelib qolibdi? – so'radim men.

– Ana shuni aytaman-da... Itday akilladi-akilladi, to'g'risini aytam, tushunmadim. Qarang, ish bundoq, biz turgan ana shu kulba biznikimas, zamindorniki. Biz ilgari Olesya bilan qishloqda yashardik, keyin esa...

– Bilaman, bilaman, momojon, buni eshitgandim... Dehqonlar sizdan jahllari chiqqan ekan...

– O'zi gap munday bo'lgandi. Men o'shanda eski zamindordan, janob Abrosimovdan mana shu uychni so'rab olgandim. Endi bo'lsa, go'yoki o'rmonni yangi zamindor sotib olganmish-da, go'yoki u qanaqadir botqoqliklarni quritmoqchimish. Ularga qanaqasiga xalaqit qilishim mumkin?

– Momojon, balki bularning bari uydirmadir? – dedim men. – Shunchaki uryadnik «qip-qizil so'lkavoy»ni ishlab qolgisi kelganidir?

– Berdim o'sha ordonani, o'g'lim, berdim. Ol-ma-di! Bo'lgani shu... Chorak rubllik biletni¹ uzatdim, olmadim... «Nima qilyapsan»mish! Shunday qahr qildi, shunday quturdi, qayerda turganimniyam bilmay qoldim. Hadeb bir gapni qaytargani qaytargan: «Daf bo'!» Endi nima qilamiz, biz bir bechora yesirlar bo'lsak! Jon otaginam, bizni picha qo'llab yubor, yebto'ymas, ochofatni bir aqlini kiritib qo'ysang edi, butun umr sendan minnatdor o'tardim.

– Buvijon! – dona-dona qilib dedi ta'na bilan Olesya.

– Nima «buvijon»! – achchiqlandi kampir. – Men yigirma besh yildirki, senga buviman. Seningcha, to'rva-xaltangni ortunoqlab jo'nash osonmi? Yo'q, janob, siz unga quloq solmang. Iloji bo'lsa,

¹ Yigirma besh rubllik kredit qog'ozi.



bizdan marhamatingizni ayamang, agar qo'lingizdan kelsa, bilib ishingizni qilavering.

Men dudmal gaplar bilan harakat qilib ko'rishimni va'da qilgan bo'lsam-da, to'g'risini aytsam, bundan biror ish chiqishiga umid qilish qiyin edi. Hamon, bizning uryadnigimiz «olish»dan bosh tortgan ekan, demak, ish o'ta jiddiy. Bu oqshom Olesya sovuqqina xayrlashdi, odatga qarshi, meni kuzatgani bormadi ham. Men, izzattalab qiz mening aralashuvimga jahli chiqqani va buvisining nolishlaridan biroz xijolat tortganini ko'rdim.

VIII

Havo tund, issiq tong edi. Necha martadirki, yirik, qisqa, barakotli yomg'ir mana-mana yog'ishga taraddudlandi, shunday yomg'irdan so'ng ko'z o'ngingda barra maysalar barq urib yashnaydi va yangi novdalar cho'zilib, butoq chiqaradi. Yomg'irdan so'ng, bir daqiqaga bo'lsa-da, quyosh ko'rinib qoladi, quvonch bilan yomg'ir yuvgan, endigina kurtak yozgan yam-yashil nastarinlarni, uy oldi gulzorimni sidirg'asiga yorishtirib yubordi; yumshoq poliz jo'yaklarida chumchuqlarning quvnoq chirq-chirqi jarangdorroq eshitila boshladi; teraklarning jigarrang bo'rtiq kurtaklari muattar is taratdi. Men xonaga Yarmola kirib kelgan mahal stol yonida o'tirib, chorbog' rejasini chizib o'tirardim.

– Vryadnik bor, – dedi u qovog'ini solib.


Shu on ikki kun ilgari uryadnik kelganida xabar qilishini buyurganim mutlaqo xayolimdan ko'tarilib ketibdi, hozir hukumat vakilining menga nima keragi bor, deb tushunolmay o'tiribman.

– Nima? – deb so'radim tushunmasdan taajjublaniib.

– Vryadnik keldi, deyapman-ku, – deb takrorladi Yarmola so'nggi kunlar men bilan gaplashib yurgan yov ohangida. – Hozir men uni to'g'onda ko'rdim. Shu yoqqa kelyapti.

Ko'chada g'ildiraklarning taraqa-turug'i eshitildi.

Bo'ychan, oriq, pastki jag'i solqi, turqidan xafahol ko'ringan to'q jigarrang tusli axta ot asta-sekin yo'rg'alab, shotisi faqat bir tomonlama ulangan baland shaloq aravani tortib borar edi, ikkinchi arava shotisi o'rmiga yo'g'on arqon boylangandi (uyezddagi tiliga



erk beruvchilar uryadnik bunaqa achinarli «sahna»ni har xil mish-mishlardan yiroq bo'lish uchun ataylab uyushtiradi, deya ishontirishga urinardi).

Uryadnik zobitlarning bashang kulrang movutidan shinel kiyib olgan, beso'naqay gavdasi bilan ikkala o'rindiqni ham egallab olganicha o'zi aravani haydab kelmoqda edi.

– Salomlar bo'lsin, Yevpsixiy Afrikanovich! – baqirdim men derazadan boshimni chiqarib.

– A-a, salomlar! Sog'liqlar joyidami? – javob qaytardi u rahbarlarga xos iltifotli, gulduragan baritonli ovoz bilan.

U kaftini to'g'ri rostlab, bosh kiyimi soyaboniga tekkizdi, og'ir vaznli gavdasini oldinga egganicha, axta otini to'xtatdi.

– Bir daqiqaga uyga kirmaysizmi? Sizda bir ishim bor edi.

Uryadnik qulochini keng yoydi va boshini chayqadi.

– Ilojim yo'q. Xizmat vazifalarini ado etib yuribman. Voloshaga murda jasadi uchun ketyapman – suvga cho'kib ketibdi.

Lekin men Yevpsixiy Afrikanovichning zaif tomonlarini bilib olgandim, shuning uchun ham yasama loqaydlik bilan bunday dedim:

– Afsus, afsus... Men graf Vorsel tejab-tergab, avaylab saqlagan anavinaqa shishalardan bir-ikkitasini qo'lga kiritgandim.

– Ilojim yo'q. Xizmat vazifamdaman, axir...

– U menga tanish-bilishchilik qilib bufetini sotuvdi... Graf bularni yerto'lada mayxonada xuddi o'z bolasiday avaylab-asragan, parvarishlagan... Kirsangiz bo'lardi... Otingizga suli berishadi, buyuraman.

– Xudo xayringizni bersin, mana, siz qanday odam ekansiz, – dedi o'pkalanib uryadnik. – Axir, xizmat burchi hammasidan ustun turishini bilmaysizmi?.. Aytayotgan shishalaringiz nimadan? Slivyankami¹?

– Qanaqa slivyanka?! – qo'l silkidim men. – Starka², otaginam, ana sizga!

¹ Slivyanka – olxo'ri sharobi.

² Starka (polyakcha: *starka*) – olma va nok daraxti yaproqlari, jo'ka gullarini qo'shib tayyorlangan maydan bo'shagan eman bo'chkalarda javdari bug'doy sharobini uzoq saqlash yo'li bilan olingan o'tkir ichimlik.

– Rosti, picha tamaddi qilib olgandik, – taassuf bilan yonog‘ini qashidi uryadnik negadir yuzlarini burishtirib.

Men boyagi-boyagiday xotirjamlik bilan gapimda davom etdim:

– Bilmayman-u, lekin bufetchi, shu sharobga ikki yuz yil bo‘lgan, deb qasam ichdi. Isini qarang, isini, xuddi konyak deysiz, o‘zi bo‘lsa, naq kahrabo, sap-sariq, tiniq.

– Oh! Siz meni nima qilmoqchisiz?! – na‘ra tortdi kulgili tarzda alam bilan uryadnik. – Otimni nima qilaman?

Haqiqatan, mening bir necha shisha starkalarim bor edi, garchand maqtanganimday, unchalik yoshi ulug‘ bo‘lmasa-da, biroq hisobimga ko‘ra ishontirish kuchi bilan ularning umriga yana bir necha o‘n yillarni qo‘shsa bo‘lardi... Har ehtimolga qarshi, bu asl qo‘lbola, kishini dovdiratib qo‘yadigan, sinib, kafangado bo‘lgan magnat yerto‘lasining faxr-iftixori bo‘lgan starkalar edi. (Yevpsixiy Afrikanovichning nasl-nasabi ruhoniylardan chiqqandi; o‘zi aytganiday, mabodo shamollab qolganlarida asqotishi uchun, albatta, bir shishasini ehtiyoti shart so‘rab oldi...) Menda gazak ham topila qoldi, yaqindagina moyga qo‘shib, yaxshilab kertilgan yangi rediskani keltirdim.

– Xo‘sh, o‘zlari-chi, ishlar qanday ketyapti? – so‘radi uryadnik beshinchi qadahdan so‘ng ostidagi shaqir-shaqur qilayotgan eski oromkursi suyanchig‘iga o‘zini tashlab.

Men shunda sho‘rlik kampirshoning ahvolini bayon etishga kirishdim, uning nochorligi va qanchalar umidsizlikka tushib qolgani eslatdim, gap orasida keraksiz rasmiyatchilik haqida qistirib o‘tdim. Uryadnik gaplarimni boshini pastga solintirib, bir chekkadan qip-qizil, tarang, dirkillab turgan rediska po‘chog‘ini archib, ishtaha bilan kars-kurs qilib chaynab yeya boshladi. Ora-sira u menga loqayd, xira, hatto odamning kulgisini qistatadigan kichkina va moviy ko‘zlari bilan nazar tashlab qo‘yardi, biroq uning qip-qizil, barkashday basharasiga qarab turib, hech nimani: na xayrixohlik, na e‘tiroz ifodasini uqoldim. Nihoyat, men jim bo‘lib qoldim, u faqat shunday savol berdi:

– Xo‘sh, siz mening nima qilishimni istaysiz?

– Nimani deysizmi? – hayajonga tushib dedim men. – Iltimos, o‘zingiz ularning ahvoliniyam tushuning. Ikki bechora, himoyasiz ayollar bo‘lsa...

– Ulardan biri bog‘dagi g‘uncha, – istehzo bilan qo‘shib qo‘ydi uryadnik.

– Endi g‘unchami, g‘unchamasmi – buni qo‘ya turaylik. Aytingchi menga, nega siz ularga yordam berolmaysiz? Xuddi sizga ularni hovliqib ko‘chirib yuborish zarurday. Juda bo‘lmasa, biroz sabr qiling, o‘zim zamindorga aytib, yordam qilgunimcha shoshmay turing. Bir oycha sabr kutib tursangiz, biror nimani yo‘qotasizmi?

– Nimani yo‘qotamanmi? – tutaqib, oromkursidan turib ketdi uryadnik. – Kechirasiz-u, hamma narsamni xatarga qo‘yaman, avvalo, xizmat joyimni. Xudo biladi, janob Ilyashchenko deganlari, yangi zamindor qanday odam ekan? Ehtimol g‘alaminis bir odamdir... anavinaqalardan, salga bir qog‘ozmi-boshqami... Peterburgga chaqar? Axir, bizda shunaqalariyam bo‘p turadi!

Men asabiylashgan uryadnikni tinchlantirishga urindim:

– Bo‘ldi, Yevpsixiy Afrikanovich. Siz bu gaplarning barini ortiqcha bo‘rttiraysiz. Nima qildik endi? Tavakkalchilik o‘z yo‘li bilan, baribir minnatdorlik ham kerak.

– Fu-u-u! – cho‘zib chinqirdi urdyanik va qo‘llarini shalvorining ich-ichiga suqdi. – Minnatdorlikmish! Nima deb o‘ylaysiz, men arzimagan qurib ketgur yigirma besh rubl uchun bor xizmat mavqemni garovga qo‘yaymi? Yo‘q, siz men haqimda boshqacha fikrda ekansiz.

– Nega jahlingiz chiqadi, Yevpsixiy Afrikanovich? Bu yerda gap mablag‘ning qancha ekani haqida ketmayapti, shunchaki gap... Juda bo‘lmasa, insoniylik haqqi hurmati...

– In-so-niy-lik deng? – piching qildi u har bir bo‘g‘inni chertib-chertib aytib. – Kechirasiz-u, ana shu odamlaringiz mening mana shu yerimda o‘tiribdilar!

U yog‘dan burishib yotgan yoqasiga osilgan tushgan birinj kabi baquvvat gardaniga qattiq urdi.

– Qo‘ying endi, bunisi ortiqcha, Yevpsixiy Afrikanovich.

– Zig‘irchayam ortiqchamas-da. Mashhur masalchi janob Krilovning ta‘biri bilan aytadigan bo‘lsak, «bular – shu joylarning yarasi». Ana shu ikki xonim kim o‘zi? Siz knyaz Urusov janobi oliylarining «Politsiya uryadnigi» sarlavhasi ostidagi ajoyib asarini o‘qishga musharraf bo‘lganmisiz?

– Yo‘q, to‘g‘ri kelmagan.

– Chakki bo‘pti-da. Ajoyib va xushaxloqqa chaqiradigan asar. Bo‘sh vaqtlaringiz tanishib chiqishingizni maslahat bergan bo‘lardim...

– Yaxshi, yaxshi, bajonidil tanishib chiqaman. Lekin baribir bu kitobning sho‘rlik ikki ayolga qanday aloqasi borligiga tushunolmayman.

– Qanday deysizmi? Juda aloqasi bor-da. *Birinchi modda* (Yevpsixiy Afrikanovich chap qo‘lining yo‘g‘on, sertuk ko‘rsatkich barmog‘ini bukdi): «*Uryadnik hammaning qunt bilan Xudoning dargohiga borishi ustidan nazoratni susaytirmasligi, har bir harakati-ni kuzatib turishi kerak...*» Ma‘lum qilishga ijozat eting, ana shu... oti nimaydi... Manuylixamidi?.. U biror marta bo‘lsayam cherkovga borganmi?

Men gapning kutilmaganda boshqa tomonga aylanib ketganidan lol bo‘lib indamay qoldim. U menga tantana bilan qaradi va ikkinchi barmog‘ini bukdi.

– *Ikkinchi modda: «Hamma joyda soxta bashorat qilishlar va yolg‘ondan fol ko‘rishlar man etiladi...»* Payqayapsizmi? So‘ngra *uchinchi modda: «O‘zini avroqchi yoki sehrgar qilib ko‘rsatish va shu tariqa aldovlarni qo‘llash man etiladi.»* Siz bularga nima deysiz? Birdan bu ishlar oshkor bo‘lib qolsa yoki xufyona rahbarlar qulog‘iga yetib borsa-chi? Bunga kim javob beradi? – Men. Xizmat mavqeiga ko‘ra kimni chaqiradi? – Meni. Ko‘rdingizmi, vaziyatning qanchalik xavfiligini.

Uryadnik yana oromkursiga o‘tirib oldi. Uning tepaga qadalgan ko‘zlari xona devorlari bo‘ylab e‘tiborsiz kezar, barmoqlari esa stolni taqillatib urardi.

– Agarda men sizdan iltimos qilsam-chi, Yevpsixiy Afrikanovich? – men yana xushomad ohangida so‘z boshladim. – Albatta, zimmangizdagi majburiyatlaringiz qiyin va sertashvish, lekin men sizning ko‘nglingizni bilaman, shafqatli, oltin qalbingiz bor. Menga shu ayollarga tegmayman, deb menga va‘da bersangiz, haqqingiz ketadimi?

Birdan uryadnikning ko‘zi boshim uzra to‘xtab qoldi.

– Yaxshi miltig‘ingiz bor ekan, – uryadnik stolni taqillatishini qo‘ymasdan bepisand uni tushirib yubordi. – Zo‘r miltiq-da! O‘tgan

safar uyingizga kelsam, siz yo'q ekansiz, shu miltiqni rosa tomosha qilgandim... Ajoyib miltiq!

Men ham orqaga o'girilib, miltiqqa qaradim.

– Ha, miltiq yomonmas, – men ham maqtab qo'ydim, – Axir, bu miltiq qadimiy, Gastin-Rennet fabrikasidan chiqqan, men uni faqat o'tgan yili o'rtasini qayta yasatdim. Quvuriga ahamiyat bering-a.

– Bo'lmasa-chi, bo'lmasa-chi... men asosan quvuriga qaradim-da, shu joyini tomosha qilgandim. Noyob narsa-da... Shunday, xazina deyish ham mumkin.

Bizning ko'zlarimiz to'qnashdi, men shunda uryadnikning lablari uchida yengil, ammo ma'noli tabassum paydo bo'lganini ko'rdim. Men o'rnimdan turib, devordan miltiqni oldim va Yevpsixiy Afrikanovichning oldiga keldim.

– Cherkaslarning juda chiroyli bir odati bor, mehmoni maqtagan buyumni unga sovg'a qiladi, – dedim men iltifot bilan. – Biz siz bilan cherkaslar emasmiz, Yevpsixiy Afrikanovich, ammo men sizdan ana shu narsani esdalik uchun olishingizni iltimos qilaman.

Uryadnik uyalgan kishi bo'ldi.

– Qarang-a, qanday ajoyib! Yo'q, yo'q, bu haddan ortiq saxovatli odat ekan!

Men uning roziligini olish uchun ko'p zahmat chekishimga to'g'ri kelmadi. Uryadnik miltiqni oldi, uni tizzalari orasiga avaylab qo'ydi va mehr bilan tepki tutqichiga qo'ngan changni toza dastromoli bilan artdi. Men, juda bo'lmaganda, miltig'im shinavanda va qurolning qadriga yetadigan odam qo'lga tegdi-ku, deya ichimda o'zimga o'zim tasalli berdim. Deyarli shu zahoti Yevpsixiy Afrikanovich o'rnidan turdi va ketishga oshiqdi.

– Ish kutib turmaydi, men bu yerda siz bilan maishat qilib o'tiribman, – dedi u oyog'i sig'mayotgan poyabzalini polga qattiq urib. – Biz tomonlarga aylanib borsangiz, menikiga kirib o'ting, iltimos.

– Endi Manuylixaning ishi nima bo'ladi, janob boshliq? – muloymimgina eslatib qo'ydim men.

– Ko'ramiz, qo'ramiz... – dedi dudmallanib Yevpsixiy Afrikanovich. – Men sizdan yana bir narsani so'ramoqchiydim... Rediskangiz ajoyib ekan...

– O‘zim ekkanman.

– Aj-joyib rediska! Mening rafiqam sabzavot desangiz, o‘zini tomdan tashlaydi. Agar imkoni bo‘lsa, bilasizmi, o‘shandan bir bog‘ini...

– Jon-dilim bilan, Yevpsixiy Afrikanovich. Burchim, axir... Bunning o‘zidayoq chopardan bir savatcha jo‘nataman. Mumkin bo‘lsa, moy bilan birga... Moyim ozroq ekan.

– Ha, moyimi... – marhamat qildi uryadnik. – O‘sha xotinlarga bir ishora qilib qo‘ysangiz bo‘ldi, men ularga hozircha tegmayman. Faqat bilib qo‘ysinlar, – u birdan ovozi ko‘tardi, – birgina rahmat bilan mendan qutulolmaydilar. Shundan keyin salomat yashayversinlar. Yana bir marta sizga sovg‘a va ziyofat uchun mersi¹.

U harbiychasiga poshnalarini taqillatdi va to‘q, viqorli odamning salmoqli yurishi bilan bosh kiyimsiz yuzboshi, qishloq oqsoqoli bilan Yarmola odob va hurmat saqlab turgan faytoni oldiga keldi.

IX

Yevpsixiy Afrikanovich so‘zida turdi, noma‘lum muddatgacha o‘rmondagi kulba sohibalarini o‘z hollariga qo‘ydi. Biroq Olesya bilan oramiz keskinlashdi va g‘alati tarzda o‘zgarib qoldi. Endi qizning menga muomalasida ishonuvchan va soddadillarcha mehribonlikdan, ilgari sohibjamol qizning bolalarcha sho‘xlik, o‘yinqaroqligi aralash noz-karashmali quvnoqligidan asar ham qolmagandi. Suhbatlarimizda qandaydir o‘tib bo‘lmas noxush zo‘rma-zo‘rakilik paydo bo‘lgandi... Olesya oshig‘ich hurkaklik bilan ilgari bizning suhbatlarimizga qanot baxsh etuvchi jonli mavzulardan qochardi.

Olesya mening huzurimda jon-jahdi bilan jiddiy ishga berilib ketardi, lekin men ko‘pincha birdan uning qo‘llari yumushidan hol-sizlanib tizzalariga tushib ketganini, ko‘zlari harakatsiz va yerga qarashga tirishayotganini kuzatardim. Agarda men ana shunday daqiqalarda Olesyani ismini aytib chaqirsam yoki unga biror-bir savol bersam, cho‘chib tushardi hamda qo‘rquv va so‘zlarim ma‘nosini tushunib yetish istagi aks etgan yuzini asta burardi. Ba‘zan mening borligim, muloqotim qizga malol kelayotganga va uni qiynayotgan-

¹ Tashakkur (*fr.*).

ga o'xshab tuyulardi, biroq bu taxminim atigi bir necha kun avval har bir aytgan so'zim, fikrim Olesyada katta qiziqish uyg'otgani, to'liqlantirgani haqiqatiga sira to'g'ri kelmasdi... Agarda uning erkin, hur tabiatidan kelib chiqadigan bo'lsak, Olesyani g'azabga keltirgan narsa, uryadnikka aloqador voqeada ularni himoya qilganim va buning uchun meni kechirgisi kelmayotganidir, degan o'y. Lekin bu gumon ham meni qoniqtirmadi: aslida, o'rmon ichida o'sgan sodda qizda bunday haddan tashqari izzattalablik, g'urur qayerdan bo'lsin?

Bulaming barchasi tushuntirish, izohni talab etardi, Olesya esa oshkora gaplashib o'fosh mumkin bo'lgan har qanday qulay vaziyatda lip etib qochib qolardi. Bizning kechki sayrlarimiz ham barham topgandi. Men har kuni ketishga chog'lanarkanman, unga ma'noli, yolvoruvchan nigoh tashlardim – qiz o'zini bu qarashlarni tushunmayotganday tutardi. Bu orada qulog'i og'irligiga qaramasdan kampirning borligi ham meni bezovta qilmoqda edi.

Ba'zi paytlar men har kuni Olesyalarnikiga yetaklab keladigan odatimga qarshilik qilolmayotganim, o'z ojizligimdan nafratlanardim. O'zim ham yuragim nozik, mustahkam ko'rinmas iplar bilan ana shu maftunkor, men uchun tushunarsiz qizga bog'lanib qolganiga shubhalanmayotgandim. Men hali muhabbat haqida o'ylamayotgandim, ammo oldindan tahlikali, sevgining g'alayonga to'la, mashaqqatli va iztirobli tuyg'ularini boshdan kechirayotgandim. Men qayda bo'lmayin, o'zimni chalg'itishga urinmayin, butun xayolim Olesyaning timsoli bilan band edi, vujud-vujudim bilan unga intilardim, qizni o'ylaganim sari uning shunchaki aytgan so'zlari, har bir harakati va tabassumi yuragimni osuda va totli og'riq bo'lib siqib kelardi. Kech kirdi va men qiz oldida pastak, liqillab turgan kursida o'zimni yanada jur'atsiz, noshud va notavon his qilib o'kinch bilan uzoq o'tirdim.

Bir kuni shu taxlit Olesyaning huzurida kun bo'yi o'tirdim. O'zimni ertalabdan yomon his qildim, nima uchun mazam bo'lmayotgani sababini aniq bilolmadim ham. Kechga borib ahvolim yanada yomonlashdi. Boshim og'irlashdi, quloqlarim shang'illadi, qorong'ida tinmay simillab og'riyotganini his qildim, nazarimda, kimdir yumshoq, lekin kuchli qo'llari bilan bosayotganday tuyuldi.

Tomog'im quruqshab qoldi, butun badanim tamoman kuchdan qoldi, har daqiqada esnagim, cho'zilib yotgim keldi. Ko'zlarimda xuddi yaltiroq nuqtaga diqqat bilan yaqindan tikilgandagi og'riqni sezdim.

Yarim tunda uyga qaytayotgan mahalim yo'l o'rtasida ketayotib, to'satdan butun badanimda titroq turib, varaja tutdi. Men deyarli yo'lni ko'rmasdan, qayerga ketayotganimni ham fahmlamasdan, mast odamga o'xshab ketaverdim, keyin jag'larim tez-tez va shaqirshuqur qilib bir-biriga urila boshladi.

O'shanda hanuzgacha meni uyga kim olib kelganini bilmayman... Naq olti kun meni chekinmas qo'rqinchli Polesye bezgagi qiynadi. Kunduzlari dard go'yoki bosilib qolganday bo'lardi va esim joyiga tushganga o'xshardi. O'shanda men xastalikdan butunlay holdan toyib, og'riqdan tizzalarim kuchsizlanib, xonada arang yurardim; qattiqroq harakat qilgan paytlarim qon issiq to'liqin kabi miyamga quyilardi va bari jism-narsalarni ko'z o'ngimda zulmatga burkardi. Kech kirganda, odatdagiday soat yettilarga yaqin yana kasallik xuruj qila boshladi, to'shakda, adyol ostida dam sovuqdan zir qaqshab, dam alangayi otash bo'lib yonib dahshatli, naq yuz yilga tatigulik uzundan-uzoq tunni boshdan kechirdim. Arang mudroq bosganini bilaman, g'alati, almoyi-aljoyi, azobli aloq-chaloq tushlar qizib yotgan miyam bilan o'ynashib, toliqtirib tashladi. Dam qandaydir rango-rang, antiqa shakldagi qutilarni, kattalarining ichidan kichkinalarini chiqarib olib ajrata boshlayman, kichkinalarining ichidan yanada maydalarini olaman va ana shu bitmas-tuganmas ishni sira ado qilolmaymanki, nazarimda, ushbu yumush anchadan buyon jonimga tekkan, jirkanch tuyulib keladi. Dam ko'zlarim oldida gulqog'ozlarning uzun-uzun yorqin tasmalari kishini gangitadigan darajada tezlik bilan lip-lip o'tib turadi va men ushbu gulqog'oz naqshin rasmlari o'rmda inson aft-basharalarini – goh chiroyli, mehribon va jilmayib turgan, goh tilini chiqarib, tishining oqini ko'rsatib irshaygan va og'zini to'ldirib ko'pik chiqarib, yuzini g'alati bujmaytirgan qiyofalarni go'yo marjonlar tizmasi kabi yaqqol, aniq-tiniq ko'rib turaman. So'ngra Yarmola bilan bahslashib ketamiz, avvalo, bahsimiz odatdagilariga o'xshamaydi; chalkash-chulkash, murakkab kechadi va mavhumligicha qoladi. Biz bir-birimiz bilan bahslasharkanmiz, gapimizga isbot-dalillar keltiramiz, ushbu daqiqalar tobora

noziklashib, chuqurlashib boradi; kutilmaganda ayrim soʻzlarni va ushbu soʻzlarni binoga keltirgan harflarni sirli tarzda, behad ahamiyat berib qabul qilamiz; shu bilan birga, borgan sari vujudimni yanada kuchli, nomaʼlum, gʻayritabiiy kuch-qudrat qarshisida boʻladigan jirkanch dahshat qoplab oladi, miyamni maʼnisiz safsatalar birining izidan biri kelib, iskanjaga oladi va ancha vaqtlardan buyon bezorijon qilib yuborgan ushbu bahsni toʻxtatib qoʻyishga izn bermaydi...

Inson va hayvonlar tasvirlari, manzaralar, ajabtovur shakldagi jismlar va gullar, bularni hammasining mazmuni his-tuygʻu bilan qabul qilinardi; bu – ana shularni ifoda etgan soʻzlar va iboralar misoli quyun kabi qaynab otilib turadi... Ammo – shunisi qiziq ediki – ayni vaqtda men shiftda gir atrofi kuygan yashil abajuri ostida chiroq soya tashlagan yorugʻ tekis doirani koʻrishni bas qilib qoʻya qolmasdim. Yana men nima uchundir ana shu chekkalari notekis, noaniq tinchgina doirada gʻazabnok, pala-partish tushlarimga qaraganda sokin, bir xildagi va qoʻrqinchli, undan ham mudhish va qiynoqqa soluvchi hayot yashiringanini bilib turardim.

Soʻngra uyqudan turdim yoki toʻgʻrirogʻi, uygʻonib ketmadim, birdan oʻzimni sergak koʻrdim. Hushim deyarli oʻzimga keldi. Men toʻshakda yotganimni, xastaligimni, hozirgina alahsiraganimni bilib turardim, biroq qop-qora shiftdagi yorugʻ doira negadir meni yashirin mashʼum tahdidi bilan qoʻrqitmoqda edi. Kuchsiz qoʻllarimni soatga uzatdim, qaradim va tayin-tuturiqsiz aloq-chaloq tushlarim bor-yoʻgʻi ikki-uch daqiqadan oshmagani-ga parishon bir taajjub bilan ishonch hosil qildim. «Xudoyim-ey! Qachon tong otarkin?!» – tushkun holda oʻyladim boshimni issiq yostiqa qoʻyarkanman, shunda ogʻir va qisqa-qisqa nafasim lablarimni kuydirib yuborayotganini his qildim... Biroq mana, meni asta mudroq bosdi va yana miyam ola-chalpoq, aloq-chaloq tushlarning oʻyinchogʻiga aylandi va oradan ikki daqiqadan oʻtgach, qoʻrqinch toʻla azobga gʻarq boʻlib uyquga ketdim.

Oradan olti kun oʻtdi, mening baquvvat tanam xinini¹ va bargizub damlamasi yordamida kasallikni yengdi. Men butun aʼzoyi badanim goʻyo mayda-mayda boʻlib yanchilib ketganday, arang oyoqqa qal-

¹ *Xinin, xin* – xin daraxti poʻstlogʻidan olingan ogʻriq qoldiruvchi va issiq tushiruvchi bezgak dorisi.

qib, to'shakdan turdim. Endi zo'r ishtiyoq bilan sog'aya boshladim. Olti kunlik bezgak bosinqirashidan charchagan miyamda o'y-fikrlar yo'qligi menga xush yoqdi. Ishtaham ikki baravar ortdi, badanim sog'liq va hayot quvonchlarini zarralab shimib ola boshladi va shu bois, soat sayin salomatligim tiklanib bordi. Qolaversa, ichimdagi bir tuyg'u yangi kuch bilan o'rmonga, undagi qiyshayib qolgan yagona kulba tomon chorlamoqda edi. Asablarim hali tuzalganicha yo'q edi va har safar Olesyaning yuzi bilan ovozini xotirlasam, shunday mayin, nozik mehmi tuyardimki, o'pkam to'lib yig'lagim kelardi.

X

Oradan yana besh kun o'tdi, men endi shunchalik tez oyoqqa turdimki, hech hormay-tolmay qoziqoyoqli kulbagacha piyoda keldim. Uycha ostonasidan hatlarkanman, yuragim hadik aralash qo'rquvdan duk-duk urdi. Men Olesyani salkam ikki haftacha ko'rmadim va ayniqsa, hozir qiz menga naqadar yaqin va aziz bo'lib qolganini aniq-ravshan angladim. Eshik bandini tutganimcha bir necha soniya turdim va arang nafasimni rostladim. Devorni itarishdan avval qat'iyatsizlik qilib hatto birpasga ko'zlarimni yumib turdim...

Xotiramdagi kelishim bilan bog'liq shunday taassurotlardan biri ko'nglingdagi bir hisni hech qachon anglab yetib bo'lmasligidir... Nahotki, ona bilan o'g'il, er bilan xotin yoki ikki sevishganlar uchrashuvining ilk onlarida aytilgan so'zlarni yodda saqlash mumkin bo'lsa? Agar shu so'zlar aniq qilib yozib qo'yilsa, eng jo'n, kunda qo'llab yurgan iboralarimiz, hatto kulgililari gapirilarkan. Biroq ushbu o'rinda har bir so'z joy-joyida bo'ladi va behad qadrli tuyuladi, chunki bu gaplar dunyoda eng aziz, suyakli ovozda aytiladi.

Faqatgina bir narsa yodimda, Olesyaning oqarib ketgan yuzi menga qanday tez o'girilgani hamda ana shu go'zal, men uchun yangi qiyofada bir lahzaga ushbu tuyg'ular ifodasi: hayrat, qo'rquv, xavotir va sevgining inja, porloq tabassumi birining o'rniga biri almashib, aks etdi... Kampir mening oldimda kuymalanib yurib nimanidir kavshanmoqda edi, lekin men uning so'rashganini eshitmadim. Olesyaning ovozi menga xuddi yoqimli musiqa singari yetib keldi:

– Sizga nima bo'ldi? Og'rib qoldingizmi? Oh, ozib ketganingizni, bechoraginam!

Men ancha vaqtgacha qizga biror nima deb javob berolmadim va biz bir-birimizga yuzma-yuz turib, qo'llarimizdan tutganimizcha, bir-birimizning ko'zlarimizga ich-ichimizdan sevinib, shodlanib tikilib qoldik. Men ana shu sukut saqlagan bir necha soniyalarimizni hayotimdagi eng baxtli lahzalar deb bilaman; aslo, aslo, ilgari ham, keyin ham men shu qadar toza, vujud-vujudni qamrab olgan bunday ko'ngil shodiyonaligini his qilmadim. Men Olesyaning shahlo ko'zlarida shunday ko'p narsalarni uqdimki: uchrashuv hayajonini ham, uzoq vaqtgacha yo'q bo'lib ketganim uchun o'pka-ginani ham, ehtiros to'la muhabbat izhorini ham... Olesyaning ana shu nigohidan biror shartlarsiz va hech ikkilanishsiz menga butun borlig'ini tutqazishini ham angladim.

Olesya birinchi bo'lib ana shu fusunkor damlarni menga qovoqlarini asta qimirlatib, Manuylixaga ishora etishi bilan buzdi. Biz yonma-yon o'tirdik, Olesya g'amxo'rlik bilan mendan kasalligim, xastalikning kechishi, qabul qilgan dori-darmonlarim, doktor aytgan so'zlar va uning fikri (shaharchadan men uchun ikki marta kelgan doktor) haqida mayda tafsilotlarigacha so'rab-surishtirishga tushdi. U meni ketma-ket doktor haqida bir necha marta gapirib berishga majbur qildi va ba'zan qizning lablarida bir onlik istehzoli tabassumni payqadim.

– Oh, nega endi sizning betob bo'lib qolganini bilmadim-a? – xitob qildi u sabrsizlik va taassuf bilan. – Men sizni bir kunning o'zidayoq oyoqqa turg'izib yuborgan bo'lardim... Qarang, endi qanday qilib ularga ishonish mumkin, axir, hech nimani, hech ni-ma-ni tushunmasalar? Siz nega menga birortasini jo'natmadingiz?

Men tutilib qoldim.

– Ko'rmaysanmi, Olesya... birdan shunday bo'lib qoldi... keyin seni bezovta qilishga qo'rqdim. Axir, o'zing so'nggi paytlar g'alati muomala qiladigan bo'lib qoluvding, mendan jahling chiqqani aniq edi yoki sening joningga tekkandim... Quloq sol, Olesya, – qo'shib qo'ydim men, ovozimni pasaytirib, – biz sen bilan ko'p, ko'p narsalar haqida gaplashishimiz kerak... faqat o'zimiz... tushunyapsanmi?

U qovoqlarini «Ha», degan ma'noda qoqdi, so'ngra qo'rqa-pisa qayrilib qaradi-da, tezgina shivirladi:

– Ha... o'zim ham istagandim... so'ngra... to'xtab turing...

Hali kun botar-botmas Olesya meni uyga ketishga unday boshladi.

– Turing, tez bora qoling, – deya u o'tirgan joyimdan qo'limdan tortib turg'iza boshladi. – Agar zax tegib qolsa, kasallik qaytalab qolishi mumkin.

– Sen qayoqqa ketyapsan, Olesya? – birdan so'rab qoldi Manuylixa, nevarasining shoshilib boshiga katta kulrang jun ro'mol tashlaganini ko'rib.

– Borib... ozgina kuzatib qo'yay, – javob berdi Olesya.

Qiz bu gaplarni befarqlik bilan buvisiga emas, derazaga qarab aytdi, biroq men uning ovozida arang sezilarli achchiqlanish ohangini sezdim.

– Baribir borasanmi? – qayta so'radi kampir so'zlariga urg'u berib.

Olesyaning ko'zlari chaqnadi va Manuylixaning yuziga tik boqdi.

– Ha, boraman!– e'tiroz bildirdi u mag'rurona. – Allaqachonlar bu gap aytilgan va aytib bo'lingan... Bu mening ishim, javobim ham shu.

– Eh, seni qara-yu!.. – ranjib, o'pkalanib xitob qildi kampir.

U yana bir narsalar demoqchi bo'ldi-yu, lekin faqat qo'lini silkiib qo'ya qoldi, qaltirab yurib, imillab burchakka bordi-da, inqillagan-cha qanaqadir savat ustida g'imirladi.

Men hozirgina guvohi bo'lganim – norozi ohangdagi bu gap-so'zlar o'zaro urish-janjallarning davom etishiga sabab bo'lishini angladim. Olesya bilan birga qarag'ayzorga tusharkanmiz, men undan so'radim:


– Buving men bilan aylanib kelishingni istamaydi, to'g'rimi?

Olesya alam bilan kiftlarini qisdi.

– Iltimos, bunga e'tibor bermang. Ha, istamaydi... Nima qipti?.. Nahotki, o'zimga yoqadigan ishni qilishga haqqim bo'lmasa?

Birdan negadir hozir Olesyani ilgari menga qilgan sovuq muomalalarini yuziga solgim keldi.

– Demak, ilgari ham, kasal bo'lishimdan oldin ham shunday qilishing mumkin ekan-u, faqat o'zing men bilan yolg'iz qolishni xohlamagansan... Eh, Olesya, menga qanchalar azob berganingni



bilganingda edi... Har oqshom men bilan birga chiqishingni shunday kutdim, shunday kutdim... Sen bo'lsang doim menga e'tibor bermasding, doim qovog'ing soliq, doim jahling chiqqan bo'larding... O, meni qanchalar qiynading-a, Olesya!..

– Bo'ldi, qo'ying endi, azizim... Unuting, – ovozida mayin kechirim so'rash ohangi bilan dedi Olesya.

– Yo'q, men bu gapni senga ta'na qilish uchun aytmayapman, – shunchaki tilimga kelib qoldi-da... Endi nega shunday bo'lganini fahm etyapman... Axir, avvaliga – to'g'ri, hatto eslasam kulгим keladi – men uryadnik bilan gaplashganim uchun xafa bo'lding, deb o'yladim. Bu fikr meni qattiq xafa qildi. Nazarimda, sen meni o'zingdan shunchalik olis, yot odam hisoblaysanki, hatto oddiy, do'stona yordamimniyam qabul qilolmaysan... Bu menga juda yomon ta'sir qildi... Axir, men, Olesya, bularning bariga buving sababchi ekaniga shubhalanmadim ham.

Olesyaning yuzi birdan qip-qizil bo'lib lovullab yondi.

– Bunga buvimning umuman aloqasi yo'q!.. Men o'zim shunday bo'lishini xohladim! – jon-jahdi bilan qizishib xitob qildi u g'urur bilan.

Men unga yonidan qaradim, shunday, qizning egilgan boshi, begard, nafis yon tomoni ko'rinib turardi. Faqat hozirgina Olesya shu vaqtning ichida ozib ketganini va ko'zlari atrofiga ko'kimtir soya tushganini payqadim. Olesya nigohimni sezib, menga ko'z qirini tashladi, biroq shu zahoti ko'zlarini olib qochdi va uyatchan jilmaydi-da, o'girilib oldi.

– Nega sen buni xohlamading, Olesya? Nega? – savol berdim hayajondan ovozim titrab va Olesyaning qo'llaridan ushlab olib, uni to'xtashga majbur qildim.

Biz bu vaqt ayni achchiq ichakday cho'zilgan, tor va o'q kabi tikkasiga ketgan o'rmon so'qmog'ining o'rtasiga kelib qolgandik. Baland, xushqad qarag'aylar ikkala tomondan saf tortgan, bir-biriga chirmashib ketgan xushbo'y shox-butoqlari to'p-to'p bo'lib, olislar-ga qadar gumbazsimon ulkan dahliz hosil qilib, bizni qurshab olgandi. Yalang'och, po'sti tilingan daraxt tanalari yonib bitgan shafaqning qip-qizil shu'lasiga bo'yalgandi.

– Nima uchun? Nima uchun, Olesya? – shivirlab qayta-qayta so'radim uning qo'lini yanada qattiqroq siqib.

– Qo‘limdan kelmadi... Qo‘rqdim, – Olesyaning gaplari arang eshitildi. – Men taqdiridan qochib bo‘ladi, deb o‘ylabman... Endi esa... endi...

U xuddi nafasi yetishmayotganday entikdi, birdan qo‘llari bo‘ynimdan tez va mahkam quchib oldi, lablarim esa Olesyaning shoshqich, titroq shivirini kuydirib yubordi:

– Endi menga baribir, baribir!.. Chunki men seni sevaman, mening jonim, mening baxtim, mening suyukligim!..

U pinjimga tobora qattiqroq kirdi va men qo‘llarim orasida qizning durkun, baquvvat, qaynoq badani to‘lg‘onganini, ko‘ksim ostida yuragi tez-tez urayotganini his qildim. Qizning ehtiros to‘la bo‘salari xuddi mast qiluvchi o‘tkir may singari xastalikdan hali kuchga kirmagan miyamga quyildi, shunda men o‘zimni yo‘qota boshladim.

– Olesya, Xudo hayringni bersin, keragi yo‘q... qo‘yaqol, – dedim men uning qo‘llarini bo‘shatishga harakat qilib. – Endi esa men o‘zimdanda qo‘rqyapman... o‘zim o‘zimdanda qo‘rqyapman... Qo‘yvor meni, Olesya.

U yuzini tepaga ko‘tardi, shunda chehrasi intizorlikdan, sokin tabassumdan yorishib ketdi.

– Qo‘rqma, jonim, – qiz bu so‘zlarni shunday mehr-la erkalab ta’sirchan jur‘at bilan aytdiki, buni ta’riflashga til ojiz edi. – Men hech qachon senga ta’na qilmayman, seni hech kimdan rashk ham qilmayman... Faqat bir narsani aytsang bo‘ldi: sevasanmi?

– Sevaman, Olesya! Anchadan beri sevaman, qattiq sevaman. Ammo... meni ortiq o‘pma... Bo‘shashib ketyapman, boshim aylan-yapti, o‘zimga o‘zim javob berolmay qolaman.

Uning lablari yana mening lablarimga uzoq va azobli, totli bo‘lib jipslashdi va men eshitmadim, muhimi, qizning so‘zlarini ilg‘ab oldim.

– Shunday, qo‘rqma va hech nima haqida o‘ylama. Bugun bizning kunimiz, hech kim uni bizdan tortib ololmaydi.

* * *

Butun oqshom kutilmaganda sehrli, fusunkor ertak bilan qorishib ketdi. Oy chiqdi, uning yog‘dusi ajib, rango-rang va sirli tarzda o‘rmonni bezab yubordi, zulmatda nurlar ko‘kimtir-rangsiz notekis

dog'larga o'xshab egri-bugri daraxt tanalariga, kesik daraxtlarning egilgan shox-shabbari ustiga, mayin baxmal gilam singari mox, yo'singa qo'ndi. Oqqayinlarning nozik tanalari keskin va yaqqol oqarib ko'rindi, ularning yakkam-dukkam barglariga go'yo kumushsimon, shaffof, nafis harir choyshab yopib qo'yilganga o'xshadi. Qarag'ay shox-butoqlari go'yo soyabon kabi ayrim joylarga umuman yorug'lik tushmagandi. O'sha yerlarda butunlay timqorong'ilik hukm surardi, faqat ana shu zim-ziyoning qoq o'rtasida qayerdan sizib tushgani noma'lum, nur birdan saf tortgan daraxtlarni yoritib yubordi va yerga yerga tor, tik yo'laksimon bo'lib tushdi – shunday yorug', serhasham va ko'rkam bo'lib ketdiki, go'yo Oberon va Titaniya¹ tantanali yurishi uchun elflar² sarishta qilib, did bilan bezagan xiyobonni eslatdi. Biz ana shu kulib boqqan jonli afsona o'rtasidan bir og'iz so'z demasdan, o'z baxtimiz bilan mast bo'lib, o'rmonning vahimali sukunatida bir-birimizni quchganimizcha ketmoqda edik.

– Azizim, axir, men uyingga ketishing kerakligini butunlay unutilman, – birdan esiga tushib qolib dedi Olesya. – Juda yaramas qizman-da! Endigina tuzalding o'zi, men bo'lsam, seni haligacha o'rmonda ushlab o'tiribman.

Men uni quchdim va quyuq qora sochlariga ro'molini tashladim, keyin egilib qulog'iga arang eshitarli ovozda so'yladim:

– Afsuslanmaysanmi sen, Olesya? Achinmaysanmi?

U boshini asta chayqadi.

– Yo'q, yo'q... Keyin nima bo'lmasin, pushaymon bo'lmayman. Hammasi joyida, yaxshiman...

– Nahotki, albatta, biror hodisa yuz berishi kerak bo'lsa?

Qizning ko'zlarida menga tanish yana ilohiy dahshat ifodasi ko'rindi.

– O, ha... albatta... Esingdami, men senga chillik motka haqida aytganim? Axir, o'sha chillik motka – o'zimman, falokat mening boshimga tushadi, qartalar shu to'g'rida aytgandi... Bilasanmi, men sendan, biznikiga boshqa kelma, deb iltimos qilmoqchidim. Ayni shu vaqt sen kasal bo'lib qolding, men seni salkam yarim oycha

¹ Oberon va Titaniya – ingliz shoiri va dramaturgi Uilyam Shekspiring (1564–1616) besh pardali «Yoz oqshomidagi tush» komediyasi qahramonlari.

² Elf – qadimgi Skandinaviya mifologiyasida: ruh, pari kabi afsonaviy maxluq.

ko'rmadim... Shunda men seni shunday sog'indimki, shunday qat-tiq qayg'uga tushdimki, o'sha kunlar seni atigi bir daqiqa ko'rish uchun dunyoda borimni bergan bo'lardim. O'shanda men shunga qaror qildim-da. Nima bo'lsa bo'lsin, men o'z quvonchimni hech kimga bermayman...

– Bu haqiqat, Olesya. Men ham shunday holatga tushdim,– deya men lablarimni uning chakkasiga tekkizdim. – Men toki sendan ayrilmagunimcha seni sevishimni bilmadim. Kimdir behuda aytmagan ekan, ayriliq muhabbat uchun xuddi shamolday gap, u olovga qan-day ta'sir qilsa, ayriliq ham shunday, sevgi kichkina bo'lsa, o'chirib qo'yadi, katta muhabbat bo'lsa, battar olovlantiradi.

– Nima deding? Bir qaytar, qaytar, iltimos, – qiziqib qoldi Olesya.

Men, bu hikmat kimga tegishli ekanini bilmayman-u, yana takrorladim. Olesya o'ylanib qoldi, men uning lablarini qimirlashiga qarab, qiz mening so'zlarimni takrorlayotganini ko'rdim.

Men yaqindan uning oqarib ketgan, orqaga tashlangan yuzlariga, oyning yorug' shu'lasida yaltiragan katta qora ko'zlariga tikilib qaradim – shunda yaqin-orada yuz berajak kulfatni oldindan his qilish tuyg'usi birdan vujudimni muzlatib yubordi.

XI

Bizning soddagina, ajoyib muhabbatimiz ertagi salkam bir oy davom etdi va to hanuzgacha xotiramdan Olesyaning go'zal qiyofasi aslo ketmaydi, lovullab yongan kechki shafaq nurlari, shudringingan, marvaridgullar xush bo'y taratgan, sarrin havoli, jarangdor qushlar ovozi yangragan subhidamlar, issiq, intizorlikda kechgan, lanj iyun kunlari hamon qalbimda yashab keladi... Bu vaqt ichida odatda yuragimni siqadigan biror dilgirlik, biror zerikish, daydi hayotning otashin ehtirosi ham meni bezovta qilmadi. Men xuddi majusiylar ma'budi yoki bo'lmasa yosh, kuchli jonzot kabi yorug'likdan, samimiy mehr-muhabbatdan, hayot shodlik-quvonchlaridan va osoyishta, pok, his-tuyg'ularga limmo-lim sevgidan lazzat olib yashamoqda edim.

Keksa Manuylixa sog'ayganimdan so'ng toqat qilib bo'lmas darajada vaysaqi bo'lib qolgandi, meni oshkora g'azab bilan qarshi

olardi, kulbada o'tirgan vaqtim taraqa-turuq qilib shovqin solar, zar-da bilan pechkadagi xurmachalarni u yoqdan bu yoqqa surardi, shu bois, biz Olesya bilan har oqshom o'rmonga chiqib ketishni afzal ko'rardik... Keyin qarag'ayzorning ulug'vor yam-yashil go'zalligi xuddi qimmatbaho gardish singari bizning osuda muhabbatimizni bezab turardi.

Men har kuni hayratim ortib, Olesyada – o'rmon ichida o'sgan, hatto o'qishni bilmaydigan savodsiz qizda – ko'pgina hayotiy vaziyatlarda ziyraklikni, nazokat va alohida, o'ziga xos tug'ma odobni ko'rardim. Bunday olib qaralganda, agar to'g'ri, qo'pol ma'noda tushunadigan bo'lsak, sevgi-muhabbat bobida asabiy, noziktabiati kishilar azobli, uyalish tuyg'usini boshdan kechiradigan qo'rqinchli tomonlar bor. Biroq Olesya ana shu chegaralardan shunday pokizalik, iffat bilan qocha bilardiki, hech qanday beandishalik bizning aloqamizni buzolmasdi.

Shu orada mening ketish muddatim ham yaqinlashib qolgandi. Aslini olganda, Perebroddagi xizmat majburiyatlarim nihoyasiga yetib bo'lgan va men ataylab shaharga qaytish vaqtini orqaga surib kelmoqda edim. Men ketishim zarurligi haqidagi xabarni qanday qabul qilishini tasavvur etishdan qo'rqib, bu haqda Olesyaga hali churq etib og'iz ochmagandim. Umuman, men mushkul ahvolda qolgandim. Olesyaga o'rganib qolgandim, u bilan uchrashuvimiz kundalik odatga aylangan va mana shu odatiy tuyg'ularim haddan ortiq chuqur ildiz otib ketgan edi. Har kuni Olesyani ko'rish, uning yoqimli ovo-zini va qo'ng'iroqday kulgisini eshitish, mayin, mehr to'la erkalash-larini his qilish men uchun zaruriyatgina emas, undan ham balandroq ehtiyoj edi. Kamdan-kam kunlar, mabodo yog'ingarchilik uchrashu-vimizga xalal beradigan bo'lsa, o'zimni yo'qotib qo'yar, hayotim-da go'yo eng asosiy, eng muhim narsadan ayrilganday bo'lardim. Har qanday mashg'ulot menga zerikarli, ortiqcha tuyulardi va butun borlig'im bilan o'rmonga, mehr-samimiyatga, yorug'likka, o'rganim qolganim – Olesyaning aziz chehrasini ko'rmoqqa oshiqardim.

Men tez-tez Olesyaga uylanishni o'ylay boshladim. Avvaliga, menga ayrim paytlardagina buning iloji borday ko'rinardi, juda bo'lmasa, nazarimda, kelajak munosabatlarimizni hal qilishda halol yo'l shu edi. Faqat xayolimdagi birgina holat meni cho'chitar va

to'xtatib turar edi: urf bo'lgan zamonaviy ko'ylak kiyib olgan, afsosalar va sirli kuchlarga to'liq ko'hna o'rmonning sehrli muhitidan xalos bo'lgan, mehmonxonada xizmatdoshlarim rafiqalari bilan suhbatlashayotgan Olesyani tasavvur qilishga ham jur'at etolmasdim.

Biroq jo'nashim muddati yaqinlashgani sayin, yolg'izlikning benihoya dahshati va qayg'u-hasrati butun vujudimni egallab oldi. Kun sayin uylanish qarori qalbinga mustahkamroq o'rnasha bordi va oxir-oqibat, ana shu fikrimda jamiyatga qarshi biror nojo'ya harakatni ko'rishni bas qildim. «Axir, yaxshigina oqil va olim odamlar tikuvchilarga, oqsochlarga uylanadilar-ku, – o'zimga o'zim tasalli berardim, – yana juda yaxshi yashab ketadilar va to umrlarining oxirigacha ularni qovustirgan taqdirlaridan minnatdor bo'lib o'tadilar. Aslini olganda, shunday qilsam, boshqalardan ko'ra baxtsizroq bo'lmayman-ku?»

Bir kuni iyun oyining o'rtalarida, kechga yaqin, men odatdagiday gullab yotgan do'lanalar ichida, torgina o'rmon so'qmog'i muvulishida Olesyani kutib turardim. Men uzoqdan uning yengil, ildam qadam tovushlarini tanidim.

– Salom, jonim, – dedi Olesya meni quchib va og'ir nafas olib. – Rosa kutib qolgan bo'lsang kerak? Men bo'lsam zo'rg'a-zo'rg'a chiqib keldim. Buvim bilan urishib charchadim.

– Haliyam tinchimadimi?

– Qayoqda! «Sen, deydi, uni deb yo'q bo'lib ketasan... Sen bilan to'yguncha ko'nglini yozadi-da, keyin tashlaydi-ketadi. Mutlaqo seni sevmaydi...»

– Buving men to'g'rimda shunday deydimi?

– Sen to'g'ringda-da, azizim... Baribir men uning biror og'iz so'zigayam ishonmayman.

– Buving hammasidan xabardormi?

– Aytmasam kerak, albatta... menimcha, biladi. Qisqasi, men buvinga bu haqda hech nimani aytmayman – o'zi fahmlaydi. Ke, shuni gaplashib o'tiramizmi... Ketskik.

U hurpayma, g'uj-g'uj, oppoq bo'lib gullagan do'lana shoxini sindirib olib, sochiga qadadi. Biz asta kechki quyoshda qizara boshlagan so'qmoqdan yurdik.

Men kecha oqshomdayoq, nima qilib bo'lsayam, ko'nglimdagi gaplarni bu kecha aytaman, deb ahd qilib qo'ygandim. Biroq g'alati jur'atsizlik tilimni tushovlab tashladi. Agar Olesyaga ketishim va uylanishim haqida aytsam, u menga ishonarmikin? U mening bu taklifimni dastlabki yarasi og'rig'ini faqat kamaytirish, yumshatish deb tushunmaydimi? «Mana, tanasi tilingan zarang daraxtiga yetaylik, shunda gapni boshlayman», – ichimda xayolan shunday deb o'yladim. Mana, zarang daraxtiga ham yetib keldik va men hayajondan bo'zarib, gapiraman, deb nafas rostlab oldim, lekin jur'atim susaydi, asabiylashganimdan yuragim og'riq bilan urdi va og'zimni sovuq qopladi. «Yigirma yetti – mening feral¹ sonim, – oradan bir necha daqiqa o'tgach, shunday deb o'yladim, – yigirma yettigacha sanayman-da, o'shanda!..» Men xayolan sanay boshladim, endi yigirma yettiga yetdim-u, biroq hamon qat'iyatsiz, hamon bu gapni aytishga tayyor emasdim. «Yo'q, – dedim o'zimga o'zim, – yaxshisi, oltmishgacha sanay qolaman – bunga aniq bir daqiqa ketadi, keyin albatta, albatta...»

– Bugun senga nima bo'ldi? – so'radi birdan Olesya. – Qandaydir ko'ngilsiz narsa haqida o'ylayapsanmi deyman. Nima bo'ldi?

Shundagina men gap boshladim, biroq o'zimga ham yoqmaydigan, soxta, g'ayritabiiy bepisand ohangda, go'yo gap hech arzimagagan bir masala ustida ketayotganday so'z boshladim:

– Haqiqatan bir kichik ko'ngilsizlik bor... topding, Olesya... Qara, bu yerdagi xizmat muhlatim tugab qopti, endi meni rahbarlar shaharga chaqirishyapti.

Yon tomondan Olesyaga ko'z tashladim va uning rangi qanday oqarib ketgani va lablari qanday titrayotganini ko'rdim. Lekin u menga javoban bir og'iz ham so'z demadi. Men bir necha daqiqa u bilan yonma-yon yurdim. Maysalar uzra chigirtkalar baland ovozdada chirillardilar va olislardan tartar qushning bir maromda zo'r berib tomog'ida qirr-qirr qilib sayragan ovozi elas-elas kelardi.

– Sen, o'zing tushunasan, albatta, Olesya, – yana gap boshladim men, – mening bu yerda qolishim noqulay va qayerda qolaman, keyin xizmatniyam o'ylash kerak...

¹ *Feral son* – sehrli, omad keltiruvchi son.

– Yo'g'e... nimalar deyapsan... gapirib o'tirishning hojati yo'q, – Olesya xuddi osoyishta so'zlayotganday, biroq favqulodda bo'g'iq, jonsiz tovushda gapirdiki, o'zim qo'rqib ketdim.– Agar xizmat vajidan bo'lsa, albatta, ketish kerak.

Qiz daraxt oldida to'xtab qoldi va orqasi bilan unga suyandi, rangi dokaday oqarib ketgan, shalvirab tushgan qo'llari bilan, lab-larida ayanchli, iztirobli tabassum bilan daraxtga suyandi. Uning bo'zday oqargan rangi meni qo'rqitib yubordi. Men unga otildim va qo'llarini mahkam ushladim.

– Olesya... senga nima bo'ldi? Olesya... jonim!..

– Hech nima... meni kechiring... o'tib ketadi. O'zi... boshim aylanib ketdi...

U o'zini qo'lga oldi va qo'llarimdan qo'llarini tortib olmay ol-dinga yurdi.

– Olesya, sen hozir men haqimda yomon o'yga bording, – de-dim men o'pkalanib. – Uyat! Nahotki, meni seni tashlab ketishim mumkin, deb o'ylasang? Yo'q, azizam. Shuning uchun ham bu gapni boshladim, bugunning o'zidayoq buvingning oldiga borib, sen endi mening rafiqam bo'lishingni aytaman.

Men mutlaqo kutmaganim, Olesyani mening so'zlarim hayratga solmadi.

– Sening rafiqang? – U asta va g'amgin bosh chayqadi. – Yo'q, Vanechka, azizam, bu mumkin emas!

– Nega endi, Olesya? Nima uchun?

– Yo'q, yo'q... Sen o'zing tushunasan, bu haqda o'ylashning o'zi kulgili. Haqiqatan men senga qanaqasiga xotin bo'lay? Sen asilzoda, aqlli, o'qimishli bo'lsang, men-chi? Mening savodim ham yo'q, o'qishniyam bilmayman, keyin qayerga oyoq bosishimniyam bilmayman. Menga uylansang, boshing g'avg'odan chiqmaydi. Seni uyaltirishdan boshqasiga yaramayman.

– Bularning bari bo'lmag'ur gaplar, Olesya! – e'tiroz bildirdim qizishib. – Yarim yil o'tsin, sen o'zingni o'zing tanimay qolasan. Sen hatto o'zingda qanchalik tug'ma aql va kuzatuvchanlik borligiga shubhalanmay qolasan. Biz sen bilan birga ko'p yaxshi kitoblarni o'qiyimiz, oliyjanob, aqlli odamlar bilan tanishamiz, sen bilan butun olamni ko'ramiz, Olesya... Biz to qarigunimizcha, to o'lgunimizcha

qo'lni qo'lga berib boramiz, men sendan uyalmayman, balki sen bilan faxrlanaman va sendan minnatdor bo'laman!..

Olesya mening otashin nutqimga minnatdorona qo'l qisish bilan javob berdi, biroq o'z fikridan qaytmay turaverdi.

– Nahotki, sabab birgina shu bo'lsa?.. Ehtimol sen hali bilmasan?.. Men buni senga hech qachon aytmaganman... Axir, mening otam ham yo'q... Men nikohsiz tug'ilganman...

– Bo'ldi qil, Olesya... Hammasidan ham shu narsa meni to'xtatolmaydi. Axir, sen o'zing menga ota va onadan, butun dunyodan qadrliroq bo'lsang, sening urug'-aymog'ing bilan nima ishim bor? Yo'q, bulaming bari arzimagan mayda gaplar, bularning bari bo'lmag'ur vaj-korsonlar!..

Olesya jimgina, itoat etib muloyimgina kiftini kiftimga yaqin qo'ydi.

– Jonim... Sen umuman bu haqda gap ochmaganing yaxshi edi... Sen yosh, boshing ochiq bo'lsa... Nahotki, sening qo'l-oyoqlaringni butun umrga bog'lab qo'yishga jazm etolsam?.. Deylik, agar senga boshqa bir ayol yoqib qolsa-chi? Axir, sen o'shanda mendan naf-ratlanmaysanmi, men senga turmushga chiqishga rozi bo'lgan kun va soatlarga la'natlar o'qimaysanmi? Azizim, jahling chiqmasin! – u menga bu so'zlar qanchalik yoqmayotganini ko'rib, iltijo bilan xitob qildi. – Men seni xafa qilishni istamayman. Men, axir, faqat sening baxtingni o'ylayapman. Nihoyat, buvimni esingdan chiqarding. O'zing bir o'ylab ko'r, uni tashlab ketsam, yaxshi ish qilgan bo'lamanmi?

– Nima qipti... bizning uyimizda buvinggayam joy topiladi. (Tan olish kerakki, buvisi haqidagi gap meni esankiratib qo'ydi.) Agar buving biznikida yashashni istamasa, har bir shaharda shunday uylar bor... bunday uylar miskinlar uyi, deyiladi... Bunday joylarda qar-yalar uchun tinchlik-xotirjamlik ta'minlanadi, undan keyin ularga yaxshi qarashadi...

– Yo'g'-e, nimalar deyapsan! Buvim o'rmondan hech qayoqqa ketmaydi. U odamlardan qo'rqadi.

– Bo'lmasa, o'zing nima qilsak, yaxshi bo'lishini o'yla, Olesya. Sen endi men bilan buving o'rtasida birimizni tanlashingga to'g'ri

keladi. Faqat bir narsani bilib qo'y – sensiz menga hayot zahar-zaq-qum bo'ladi.

– Jonginam! – teran nazokat, benihoya muloyimlik bilan gapirdi Olesya. – Faqatgina shu so'zlaring uchun ham senga rahmat. Ko'nglimni ko'tarding... Lekin baribir men senga turmushga chiqmayman... Yaxshisi, agarda quvmasang, men sen bilan birga yuray... Faqat oshiqma, iltimos, meni shoshirma. Menga bir-ikki kun muhlat ber, hammasini yaxshilab o'ylab ko'ray. Keyin buvim bilan ham gaplashib olishim kerak.

– Menga qara, Olesya, – dedim men miyamga «yalt» etib bir fikr kelib urilgach. – Balki sen yana... cherkovdan qo'rqayotgandirsan?

Ehtimol gapni ana shundan boshlash kerakmidi. Xudoning bergan kuni men Olesya bilan sehr-jodu kuchlarini egallashga aloqador avlodi ustidan ularni qiynab, hukm o'tkazib kelayotgan soxta tavqi la'nat haqidagi fikridan qaytarishga urinib bahslashardim. Aslini olganda, har bir rus ziyolisida biroz taraqqiyparvar yashaydi. Bu narsa qonimizda bor, huni bizga so'nggi o'n yilliklarda rus belletristikasi singdirgan. Yana kim biladi? Agarda Olesya dinga astoydil e'tiqod qilganida, hamma amallarini sidqidildan bajarganida va cherkovga kanda qilmay borib turganida – u holda men qizning dindorligi ustidan kinoya qilsam (faqat yengilgina, chunki men o'zim doimo dinga e'tiqod qilib kelaman) va qizda tanqidiy jihatdan bilimga intilishini rivojlantirsam bo'lardi. Ammo qiz qat'iy va soddadillarcha ishonch bilan qora kuchlar bilan muloqoti hamda hatto Xudodan yotlashgani haqida ko'nglidagi gaplarni to'kardi, shuni aytish kerakki, Xudo haqida hatto gapirishga ham qo'rqardi.

Olesyani irim-chirim, bid'atdan susaytirishga qasd qilishim besamar ketardi. Barcha keltirgan mantiqiy dalil-isbotlarim, ba'zan barcha qo'pol va achchiq pichinglarim uning sirli qismatidagi afsungarligiga bo'lgan itoatkorona ishonchiga urilib parchalanib ketardi.

– Sen cherkovdan qo'rqasanmi, Olesya? – qaytarib so'radim men.

U indamay boshini egdi.

– Sen, Xudo meni qabul qilmaydi, deb o'ylaysanmi? – men tobora qizishib gapimda davom etdim. – Xudo sendan marhamatini ayaydimi? Millionlab farishtalar amriga shay turgan bo'lishiga qara-

may, yerga tushib, barcha insonlarni qutqarish uchun dahshatli, sharmandali o'limni qabul qilgan zotda marhamat-muruvvat yo'qmi?! Fohisha ayolning afsus-nadomati, pushaymonligini qabul qilib, uni kechirgan va qarochi qotilga bugun jannatda birga bo'lishga va'da bergan zotda yo'qmi rahmdillik?

Mening talqinimda bu fikrlarning bari Olesyaga yangilik bo'lmay qolgandi, ammo bu safar u hatto gaplarimni eshitnadi ham. U ro'molini tezgina oldi-da, uni g'ijimlab yuzimga otdi. Ana, yugur-yugur boshlandi. Men undan do'lana gulini olaman deb intildim. Qiz bunga qarshilik ko'rsatarkan, yerga yiqilib tushdi va xurram kuldi hamda tez-tez nafas olib turgan totli lablarini cho'zganicha o'zi bilan birga meni ham tortib ketdi...

Kech oqshom xayrlashib, ancha joygacha borib qolganimizda birdan ortimdan Olesyaning ovozini eshitdim:

– Vanechka! Bir daqiqaga to'xtab tur... Men senga bir gap aytaman!

Men orqamga o'girildim va unga peshvoz yurdim. Olesya shoshilganicha men tomon yugurib keldi. Ko'kda ingichka, kumushsimon o'tmas o'roq bo'lib yangi oy chiqqandi, men yangi oyning bo'zargan yorug'ida Olesyaning ko'zlari to'kilib ulgurmagan yirik dona yoshlarga to'laligini ko'rdim.

– Olesya, nima gap? – so'radim xavotirlanib.

U qo'llarimni ushlab oldi-da, galma-gal o'pa ketdi.

– Azizim... shunday yaxshisanki! Shunday oliyjanobsan! – derdi titroq ovozda. – Hozir yo'lda keta turib, meni shunday sevasanki, deb o'yladim!.. Bilasanmi, men senga biror-bir juda, juda yoqadigan bir ish qilgim kelyapti.

– Olesya... Yoqimtoy qizgina, tinchlan...

– Menga qara, qani, ayt-chi, – so'zida davom etdi u, – agarda men biror kun cherkovga borsam, sen juda xursand bo'larding-a? Faqat to'g'risini, rostingni ayt.

Men o'ylanib qoldim. Kutilmaganda miyamga irimga o'xshash bir o'y kelib qoldi: bundan biror ko'ngilsizlik chiqmasmikin?

– Nega indamaysan? Gapirsang-chi tezroq, bundan xursand bo'larmiding yoki senga baribirmi?

– Senga nima desamikin, Olesya? – deya boshladim men gap topolmay tutilib. – Ha, balki bu menga yoqardi. Men senga ko‘p martalab aytganman-ku, axir, erkak kishi dinga ishonmasligi, shubhalanishi, hatto kulishiyam mumkin. Biroq ayol kishi... ayol, so‘zsiz, taqvodor bo‘lishi kerak. Men o‘zini Xudo himoyasi ostiga topshirgan ayolning oddiy va inja, hamisha ko‘ngilga borib tegadigan ayollik nafasoti va go‘zalligini his qilaman.

Men jim bo‘lib qoldim. Olesya ham boshini ko‘ksimga yashirgan gancha javob bermadi.

– Nima uchun sen mendan buni so‘rading? – qiziqdim men.

Olesya birdan cho‘chib tushdi.

– O‘zim... Shunchaki so‘radim... Sen bunga e‘tibor berma. Bo‘pti, xayr bo‘lmasa, azizim. Ertaga kelgin-a.

U ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Men yana tez, olislagan qadam tovushlariga quloq tutganimcha qorong‘ilikka uzoq tikilib turdim. Kutilmaganda ko‘nglimga kelgan xayolning nogahoniy dahshati vujudimni qoplab oldi. Olesyaning izidan yugurgim, hatto cherkovga bormasligini so‘rab, o‘tinib-yolvorib, hatto kerak bo‘lsa, talab qilgim kelib ketdi. Lekin men ichimdagi kutilmagan xavotirli shiddatni tutib qoldim – esimda – yo‘lga tusharkanman, ovozimni chiqarib dedim:

– Aftidan, siz o‘zingiz, aziz Vanechkam, irimchi bo‘lib qolibsiz.

O Xudoyim-ey! Nega endi men o‘shanda yuragimning g‘alayonli mayliga quloq tutmadim – endi o‘zim, shubhasiz, bunga ishonib o‘tiribman! – ko‘ngil o‘zining oldindan sezajak sirli tuyg‘ularida aslo adashmaydi!

XII

Bu uchrashuvning ertasi kuni muqaddas Troitsa¹ bayrami ayni shahid Timo‘tiy² kuniga to‘g‘ri keldi, xalq rivoyatlarida naql qilinishicha, ekin bitmagan vaqtlar, hosilsizlik oldidan u xotirlanadi. Perebrod qishlog‘ining cherkovga oidligi ro‘yxatga qo‘shimcha qilingan holda belgilangandi, ya‘ni bu o‘rinda garchand alohida o‘z

¹ *Troitsa* (nasroniy dinida ota xudo, o‘g‘il xudo va muqaddas ruhdan iborat yagona xudo) sharafiga o‘tkaziladigan bayram.

² *Shahid Timo‘tiy* – mo‘min-qobil va vazmin havoriy Timo‘tiy itoat qilish va intizomga rioya qilishda namuna bo‘lgan.

ruhoniylari nazarda tutilmagan, Volchye qishlog'idan ruhoniy ah-
yon-ahyonda, ro'za va katta bayramlarda kelib turardi.

Men shu kuni xizmat ishlari vajidan qo'shni qishloqqa borishim
zarur bo'lib qoldi, u yoqqa ertalab sakkizlarda, hali salqinligida otga
minib jo'nadim. Men biror joylarga borib-kelish ehtiyojlari uchun
allaqachonlar shu yerdan, ko'rimsiz naslli besh-olti yoshli toy so-
tib olgandim, ammo otim xunuk bo'lsa-da, ilgari egasi, uyezd yer
o'lchovchisi uni mehr bilan ardoqlab parvarish qilib boqqandi. Otim-
ning laqabi Taranchik edi. Men oyoqlari baquvvat, ingichka, silliq,
chigal yollari ostidan jahl va ishonqiramay qarab turgan chaqnoq
ko'zli, lablari mahkam jiplashgan ana shu qadrdon jonivorga juda
o'rganib qolgandim. Ot tusi yakkam-dukkan va kulgili ko'rinardi:
hamma yog'i kulrang, bo'z, faqat uning sag'risiga chipor, oq va qora
dog'lar toshgandi.

Men butun qishloqdan o'tib, yo'l bosishimga to'g'ri keldi. Cher-
kovdan to qovoqxonagacha ketgan yam-yashil maydon saf tortgan
aravalarga to'lib ketgandi, ushbu ulovlarda tevarak-atrofdagi qish-
loqlar: Volosha, Zulna va Pechalovkadan dehqonlar xotinlar va bola-
lari bilan bayramga kelgandilar. Odamlar aravalar o'rtasida u yoqdan
bu yoqqa zir yugurardilar. Hali erta sahar ekani va qat'iy qarorlar
qabul qilinganiga qaramay, ular orasida mast-alastlar uchrardi (sobiq
mayxonachi Srul bayramlar va tun paytlari yashirincha sharob sotar-
di). Tongda shamol esmayotgan va havo dim edi. Havo yonmoqda
va kun chidab bo'lmas issiq bo'lishi kutilmoqda edi. Qizdirib turgan
va xuddi qo'rg'oshin yutganday kumushsimon chang qoplagan os-
monda bir parcha ham bulut ko'rinmas edi.

Qishloqda o'zimga kerakli barcha ishlarni to'g'rilab bo'lgach,
qo'narjoyda apil-tapil qiyma solib pishirilgan yahudiycha
cho'rtanbaliqni maza-matrasiz, xira pivo bilan tanavvul qildim-da,
uyga jo'nadim. Lekin temirchilik ustaxonasi yonidan o'tib ketayotib
Taranchikning oldingi chap oyog'ini taqasi anchadan buyon liqillab
qolgani esimga tushdi va otimga taqa qoqtirish uchun to'xtadim.
Otga taqa qoqtirish bir yarim soat vaqtimni oldi, Perebrodga kirib
kelganimda soat tushdan keyingi to'rt va besh oralig'i bo'lib qol-
gandi.

Butun maydonda g'uj-g'uj mast-alastlar, chug'urlashgan odamlar qaynab yotardi. Qovoqxona panjaralari va eshik oldlari tom ma'noda bir-birini turtgan, ezgan xaridorlarga liq to'la edi; perebrodlik dehqonlar o'tlar ustida, aravalar soyasida o'tirib olganlaricha chetdan kelganlar bilan aralash-quralash bo'lib ketgandi. Hamma yoqda orqaga tashlangan boshlar va tepaga ko'tarilgan shishalar ko'rinib turardi. Birorta hushyor kimsaning o'zi yo'q. Yalpisiga ichib mast bo'lish shu darajaga yetgandiki, bir dehqon o'zidan ketib, kerilib, kayfini oshgandan-oshira boshlaydi, o'zini idora qilolmay qoladi, masalan, boshini tasdiqlayman, deb irg'ash o'miga butun gavdasi bilan «shilq» etib yerga o'tirib qoladi, tizzalarini bukarkan, birdan o'zini tutolmay, gandiraklab orqasiga tislani ketadi. Churvaqalar chuyillashar, beparvo xashak kavshayotgan otlarning oyoqlari ostida chiyillashib o'ynardi. Bir qarasang, bir xotin o'zi arang oyog'ida turibdi, yig'lamsirab, koyigancha oyoq tirab olgan ichganida betiga qarab bo'lmagan beo'xshov mast erining yenglarini tortib uyga opketishga urinadi. Devor soyasida yigirmatachalarcha erkag-u ayol ko'r lirn¹ atrofini g'uj bo'lib o'rab olgandi, lira cholg'usining bir maromda g'iz-g'iz etib jaranglagan sadosiga lirn¹ik-mashshoqning titroq, dimog'ida kuylagan tenor ovozi jo'r bo'lmoqda edi. Men uzoqdanoq dumkaning² tanish so'zlarini eshitdim.

Oy, ziyshla zorya, tay vechirnyaya,

Nad Pochayevim stala.

Oy vishlo viysko turetskoye,

Yak ta chernaya xmara...³

So'ngida bu dumkada turklar qanday qilib hujum qilmasdan turib, hiyla bilan Pochayev lavrasini⁴ olmoqchi bo'lgani haqida hikoya qilinardi. Ular shu maqsadda go'yo monastirga sovg'a tariqasida

¹ Lira cholg'u asbobini chaluvchi sozanda.

² *Dumka* (yoki *duma*) – ukrain xalq eposi janrlaridan biri.

³ Ey voh, shafaq botdi, kech kirdi,

Xuddiki, Pochayev ustida turdi.

Ey voh, turk qo'shini bostirib keldi,

Go'yo qora bulut singari.

⁴ *Lavra* – muhim ahamiyatga ega erkaklar monastiri.

porox tiqib, to'ldirilgan bahaybat sham jo'natadilar. Ushbu shamni o'n ikki juft ho'kizlarda olib keladilar, rohiblar terilariga sig'may xursand bo'lganlaridan shamni Pochayev Bibi Maryam ikonasi oldida yoqmoqchi bo'libdilar, lekin Xudo ushbu qabih niyatning amalga oshishiga yo'l qo'ymabdi:

*A prisnilsya starshemu chtetsu,
Toy svechi ne brati.
Vivsati yei v chistoye pole,
Sokirami zrubati.¹*

Shunda inoklar² kuylaydi:

*Vivezli yei v chistoye pole,
Stali yei rubati.
Kuli i patroni na vsi storoni
Stali – get! – roskidati...³*

Toqat qilib bo'lmas kunning issiq harorati sharobning kuyindi isi, piyoz, qo'y po'stini, o'tkir bakun maxorkasi⁴ va inson badanidan chiqqan terlarning badbo'y hidlari barchasi qorishib butun havoni tutib ketgandi. Tinmay kallasini qimirlatayotgan Taranchikni bazo'r tutib, odamlar orasini ehtiyot bo'lib yorib o'tdim, har tomondan meni surbetlik, qiziquvchanlik va yovqarash qilib ta'qib qilgan nigohlarni sezmasligim mumkin emasdi. Odatga qarshi, birorta odam bosh kiyimini olmadi, lekin men paydo bo'lishim bilan shovqin-suron birdan tinib qolganday bo'ldi. To'satdan qaydadir olomon orasidan mast, xirildoq baqiriq eshitildi, biroq aniq-tiniq eshitmadim,

¹ Va tushiga kirdi katta oqinning:
Shamni ushlamasin hech kim qo'luga.
Bolta bilan chopib, mayda-maydalab,
Chiqarib tashlasin, yaydoq dalaga.

² Inok – pravoslavlar rohibi.

³ Shamni olib chiqib yaydoq dalaga,
Chopib tashladilar, mayda-maydalab.
So'ngra, har tomonga o'q-patronlarni
Uloqtirib tashladilar, «daf bo'lsin» deya.

⁴ Bakun maxorkasi – baland, bakun navli jo'n tamaki.

baqiriqqa javoban tiyiqsiz haholash taraldi. Qandaydir ayol ovozi qo'rqa-pisa baqiroqni tinchitishga tirishdi:

– Jim, ahmoqmisan... Nega baqirasani! Eshitib qoladi...

– Menga nima, eshitsu eshitar! – gapida davom etdi jo'shib. – Nima, menga u boshliqmi, kim? U faqat o'rmonda anavinisi bilan...

* * *

Jirkanch, uzundan-uzun, dahshatli jumla tiyiqsiz haholash jazavasi bilan birga havoda muallaq osilib qoldi. Men otimni tez orqaga qaytardim va hech nimani ko'rmaydigan va hech nimani o'ylamaydigan telbalarcha qahr bilan o'rma qamchin sopini titrab-qaqshab qisdim. Shunda birdan miyamga g'alati, azobli, qayg'uli fikr kelib urildi. «Bularning hammasi qachonlardir, hayotimda ko'p, ko'p yillar ilgari yuz bergandi... Xuddi shunday quyosh ayovsiz qizdirayotgandi... Xuddi shunday ulkan maydonni shovqin solgan, jazavaga tushgan olomon bosgandi... Men qahr-g'azabdan quturib ortimga o'girildim... Lekin bu voqea qayerda bo'lgandi? Qachon? Qachon?..» Men qamchinni qo'yib yubordim va uy tomon shamol-day yeldim.

Yarmola oshxonadan sekin chiqib keldi, otni olib, dag'allik bilan shunday dedi:

– U yoqqa, panich, Marinov yer-mulkidan gumashta kelgan, xonangizda o'tiribdi.

Nazarimda, Yarmola yana nimadir, men uchun juda muhim va ko'ngilsiz bir nima demoqchiday tuyuldi, hatto uning yuzida zaharli kalaka ifodasi lip etib o'tganday bo'lib tuyuldi. Men eshik oldida atayin ushlanib qoldim va jig'iga tegish uchun Yarmolaga qayrilib qaradim. Lekin u menga qaramasdan bo'ynidan cho'zilib tushgan va oyoqlari bilan asta bosib borgan ot yuganidan sudradi.

Xonamda qo'shni yer-mulk idora xizmatchisi – Nikita Nazarich Mishchenkoni ko'rdim. U katta-katta mallarang katakli kulrang pidjak, to'q zangorirang tor-tanqis shim kiyib olgan va bo'ynida olov-rang-qirmizi bo'yinbog', sochining o'rtasidan surkab farq ochib qo'yilgan, undan fors nastarinining o'tkir isi gupillab urib turardi. U meni ko'rib kursidan sapchib turdi va ikkala jag'ini ochganida

rangsiz milklarini ko'rsatib, tabassum bilan egilmasdan, belini bukmoqchi bo'lib, ta'zim qilishga urindi.

– Sizga ta'zim qilish sharafiga muyassar bo'lganimdan mamnunman, – iltifot bilan bidir-bidir qildi Nikita Nazarich. – Ko'rishganimizdan xursandman... Men sizni bu yerda ibodatdan beri kutib o'tiribman. Sizni ko'rmaganimga ancha bo'ldi, hatto sizni sog'indim ham. Siz o'zingiz nega biz tomonlarga hech o'tmaysiz? Hatto bizning stepanlik oyimqizlarimiz sizdan kuladilar.

Shunda birdan nogahon bir narsa esiga tushib qolib o'zini tutolmay haholab kulib yubordi.

– Mana, men sizga aytsam, bugun shunaqa bir hangoma bo'ldiki, qo'yaverasiz! – xitob qildi u kulgidan nafasi bo'g'ziga tiqilib. – Ha-ha-ha-ha... Men hatto kulaverib ichaklarim uzilayozdi!..

– Nima bo'ldi? Qanday hangoma? – so'radim men qo'pollik bilan noroziligimni yashirolmay.

– Ibodatdan keyin u yerda janjal chiqdi, – davom etdi Nikita Nazarich ora-orada haholash tutqanog'i bilan nutqini uzib-uzib. – Perebrodlik qizginalar... Yo'q, Xudo haqqi, chidolmayman... Perebrodlik qizlar bu yerda, maydonda alvastini tutib olishibdi... Ya'ni, albatta, ular uni alvasti deb hisoblaydilar omiliklaridan... Qizlar uning ta'zirini berib qo'yibdilar!.. Qatron surkab bezab qo'ymoqchi bo'lgan ekanlar, u bir amallab oralaridan qutulib chiqib ketibdi...

Miyamda «yalt» etib, dahshatli bir gumon paydo bo'ldi. Men idora xizmatchisiga tashlandim, azbaroyi xavotirdan uning kiftlariga qo'lim bilan xippa yopishdim.

– Nimalar deyapsiz?! – baqirdim men g'azabnok ovozda. – Hilashni bas qilsangiz-chi, padari qusur! Qanday alvasti haqida gapiryapsiz o'zi?

U birdan kulishdan to'xtadi va menga yumaloq, qo'rquv to'la ko'zlarini do'laytirdi.

– Men... men, to'g'risi, bilmayman, – o'zini yo'qotib g'o'ldiradi u. – Menimcha, qandaydir Samuylixamidi... Manuylixamidi... yoki... Afv etasiz... Qanaqadir Manuylixaning qizimikin?.. Bu yerda nimalardir deb laqillashayotganiydi erkaklar, ammo men, tan olib ayta-man, esimdan chiqibdi.

Men uni nimani ko'rgan va eshitgan bo'lsa, barchasini bir boshdan tartib bilan gapirib berishga majbur qildim. U tuturiqsiz, poyintar-soyintar qilib chalkash gapirdi, men bo'lsam har bir daqiqada uni sabrsizlik bilan so'rab-surishtirishlar, hayqiriqlar va deyarli so'kish bilan gaplarini bo'lib turdim. Men uning hikoya qilib berishidan juda oz ma'lumotlarni bildim va faqat oradan ikki oy o'tgach, ushbu la'nati voqeaga shohid bo'lganlarning, o'sha kuni ibodat chog'i davlat o'rmon uchastkasi mudirini xotining aytib berishiga qarab o'sha hodisani birma-bir tiklab oldim.

Men oldindan sezish tuyg'um aldamagan ekan. O'sha kuni Olesya qo'rquvini yengib, cherkovga keladi; garchand u faqat cherkovda xizmat ko'rsatilayotgani o'rtasiga yetib borgan va cherkov dahlizida turgan bo'lsa-da, uning kelganini shu zahoti o'sha yerda hozir bo'lgan hamma dehqonlar bilib qoladi. Cherkovda xizmat chog'i ayollar shivir-shivir qilgan va orqalariga o'girilib qaraganlar.

Biroq Olesya ibodat tamom bo'lgunicha tura olish uchun o'zida yetarli kuch topadi. Ehtimol u ana shu yovqarashlarning asl ma'nosini tushunmagan, ehtimol g'ururli bo'lgani uchun parvo qilmagandir. Ammo u cherkovdan chiqarkan, ihotaning oldidayoq har tomondan bir to'da xotin-xalaj, har daqiqa sayin ko'payishib va bari yanada jipslashib Olesyaning atrofini qurshab olganlar. Avvaliga, ular har tarafga qo'rquv bilan alanglagan yakka o'zi, bunday vaziyatda ojiza bo'lib qolgan qizga faqat jimgina va gustohona tikilib qarab turganlar. So'ngra masxarali kulgilar jo'rligida qo'pol pichinglar, qabihona so'zlar, qarg'ashlar yog'ilgan, davomida ayrim na'ralar yalpisiga quloqni teshvorguday qiy-chuvga aylanadiki, ushbu mojaroda hech nimani anglab olishning iloji bo'lmaydi va bunda ko'proq u yoq-bu yoqqa yugurgan to'daning asablari tarang tortilib, jig'ibiyron bo'ladi. Olesya bir necha marta ana shu jonli, dahshatli qurshov halqasi orasidan chiqib ketishga intiladi, ammo har safar uni yana o'rtaga itaradilar. To'satdan qayerdandir to'da orqasidan chiyillagan keksa ovoz: «Manjalaqiga qatron surkanglar, qatron!» – deya baqiradi. (Ma'lumki, Malorossiyada qiz bola yashaydigan hatto uy darvozasiga qatron surish uning uchun sira yuvib bo'lmaydigan haddan ortiq sharmandalik bilan teng hisoblanadi.) Deyarli shu daqi-

qaning o'zidayoq quturgan xotinlar galasining boshlari uzra qo'ldan qo'lga o'tib, qatron va cho'tkali surkagich paydo bo'ladi.

Shunda Olesya g'azab, dahshat va alamidan, duch kelgan birinchi azoblagan ayolga jon-jahdi bilan tashlanib, uni urib yiqitadi. Shu zahoti yerda bir to'da qaynaydi va o'nlab tanalar aralash-quralashib, yagona yalpi qichqirgan olomonga aylanadi. Biroq Olesya qay bir mo'jiza bilan ana shu tugunning ichidan sirg'alib chiqib ketishga muvaffaq bo'ladi, u o'ylab o'tirmasdan yo'ldan – ro'molsiz, dabalasi chiqqan, ba'zi joylaridan yalang'och badani ko'rinib turgan yirtiq kiyimda chopib boradi. Uning izidan haqoratlar, kalaka qilib kulishlar, ochiqdan-ochiq tahqirli so'zlar bilan birga toshlar otiladi. Ammo uning orqasidan bir nechta xotin yuguradi, o'shalar ham orqada qolib ketadilar. Olesya ellik qadamlarcha chopib borgach, to'xtadi, yirtqichga aylangan to'daga bo'zday oqarib ketgan, timdalangan, qonab yotgan yuzini o'giradi va shunday baland ovozda baqiradiki, uning so'zlari maydonda hozir bo'lgan har bir odam eshitadi:

– Juda yaxshi-da!.. Sizlar hali buni eslab qolasizlar! Sizlar hali bularning barchasi uchun burningizdan buloq bo'lguncha to'lab qo'yasizlar!

Bu tahdid, keyinchalik o'sha voqeaning guvohi aytib berganiga ko'ra shunday g'azab, shunday nafrat, shunday qat'iyat bilan valilarcha ohangda aytiladiki, bir onga ushbu olomon xuddi dong qotib qolganday bo'ladi, lekin faqat bir onga sukunat cho'kadi, chunki shu damda yana haqorat-tahqirlarning yangi to'liqini otiladi.

Takror aytaman, sodir bo'lgan ushbu mojaroning ko'pgina tafsilotlarini ancha kech bildim. Mishchenkoning hikoyasini oxirigacha eshitib o'tirishga kuchim ham, sabrim ham yetmadi. To'satdan xayolimga Yarmola hali otning egar-jabduqlarini olib qo'ymagandir, degan gap keldi va hayratda lol qolgan idora xizmatchisiga bir og'iz so'z ham demay shoshilib hovliga chiqdim. Yarmola haqiqatan hali Taranchikni devor yoqalab olib yurardi. Men otni tez yuganladim, ayilni tarang tortib bog'ladim va yana mast olomonga yo'liqib, ular orasidan yorib o'tmaslik uchun aylanma yo'l bilan o'rmon tomon yeldim.

Mening g'azabnok ot choptirishimning davomida qanday ahvolga tushganimni tasvirlab berib bo'lmaydi. Qay bir daqiqalarda qayerga va nima uchun ketayotganimni mutlaqo unutdim; faqatgina qandaydir tuzatib bo'lmay va qo'rqinchli hodisa yuz berganini iztirob bilan anglab yetish – ana shu anglash ba'zan bezgak payti insonni qamrab olgan alahsirashidagi sababsiz og'ir tahlikani yodga soladi. Ayni paytda – shunisi g'alati! – miyamda ot dukur-dukuriga monand, ko'r mashshoqning manqa, siniq ovozi titrashini qo'ymasdi:

*Oy viysko turetskoye,
Yak ta chernaya xmara.¹*

Men Manuylixaning kulbasiga eltuvchi tor so'qmoqqa yetgach, terlik chekkalari va ot terisi abzaliga tekkan joylarida oppoq yumaloq toshday-toshday bo'lib quyuq ko'pik chiqqan Taranchikdan tushib, uning jilovini bo'shatdim. Kunning kuchli jaziramasini va otda tez yurganimdan go'yo qandaydir ulkan, betinim nasos bilan haydagan kabi miyamda qon gupurardi.

Otni chetandevorga boylab, uyga kirdim. Dastlab menga Olesya uyda yo'qday tuyuldi, hatto qo'rquvdan ko'ksimda og'riq turdi, og'zim muzlab qoldi, biroq bir daqiqalardan keyin to'shakda qizning devorga qarab, yostiqaqa boshini yashirib yotganini ko'rdim.

Shu yerda, yonimda yerda o'tirgan Manuylixa mashaqqat bilan o'midan turdi va menga qo'llarini silkidi.

– Jim! Shovqin solma, battol, – shivirlab po'pisa qildi kampir menga tobora yaqinlashib. Yana ko'zlarimga rangsiz sovuq ko'zlarini tik qadadi, jahl bilan vishilladi: – Nima? O'ynab bo'ldingmi, azizim?

– Menga qarang, momo, – qarshilik bildirdim keskin, – hozir hisob-kitob qilish va gap talashib o'tirishning mavridimas. Olesyaga nima bo'ldi?

– Tsh-sh... jim! Ana, Olesya behush yotibdi, nima bo'lganini ko'r o'zing... To'g'ri kelmagan joyga burningni suqasan, qizaloqqa

¹ Ey voh, turk qo'shini bostirib keldi,
Go'yo qora bulut singari.

bo'lar-bo'lmas narsalarni valdiramaganingda edi, hech bir yomonlik bo'lmas edi. Men-ku, tentak, avayladim-asradim, erkalatib yubordim... Axir, ko'nglim falokat bo'lishini sezgandi-ya... Sen o'zing, sal bo'lmasa, uyimizga bostirib kirib kelgan kuningdayoq ko'nglim ko'ngilsizlikni sezgandi. Nima? Axir, sen cherkovga kirib borishga avramadingmi uni? – birdan g'azab-nafratdan qiyshayib ketgan yuzini menga qaratib menga tashlanib qoldi kampir. – Senmasmiding, la'nati oqbilak yigitcha? Yolg'on gapirma – tulki dumingni ko'pam likillataverma, benomus? Cherkovga borgin, deb uning boshini qotirish senga nega kerak bo'p qoldi?

– Men uni qiziqtirmadim, momo... Sizga buni so'z berib aytaman. O'zi shuni xohladi.

– Oh, bosh balosi, balo bo'lding-a menga! – Manuylixa qo'llarini shalp-shalp urdi. – Uyga yugurib kelibdi de – rangida rang yo'q, butun ko'ylaklari tarra-burra yirtilgan... Boshyalang... Nimalar bo'lganini gapirib beryapti, o'zi bo'lsa dam kuladi, dam yig'laydi... Xuddi jazavasi tutgan tutqanoq deysan... To'shakka yotdi... yig'lagani yig'lagan, so'ng, qarasam, xuddi pinakka ketganga o'xshadi. Men qari miyasi suyulgan kampir, xursand bo'lib o'tiribman: mana endi, uxlab olsa, o'tib ketadi, barini orqaga tashlaydi. Qarasam, qo'llarini pastga osiltirgan, to'g'rilab qo'yay, deb o'ylayman, qo'llari uvushib qotib qolibdi... Uni qimirlataman, jonimni qo'lidan tortaman, qizim bo'lsa otash bo'lib yonyapti, harorati baland... Demak, bezgakka chalinibdi-da... Bir soatcha tinmay gapirdi, birpasda shunday bo'lsa kuymaysanmi... Mana, hozir bir daqiqaga tingani. Nima qilib qo'yding? Unga nima qilib qo'yding? – yangitdan alam bilan dag'dag'a qildi kampir.

Birdan kampirning basharasi yig'idan qo'rqinchli tarzda burishib ketdi, lablari cho'zilib, burchlari pastga osildi, peshonasida taram-taram chuqur ajinlar qoldirib, qoshlari tepaga ko'tarildi, ko'zlaridan esa noodatiy yirik, no'xatday-no'xatday yosh tomchiladi. U boshini qo'llari bilan ushlab, tirsaklarini stolga qo'ydi, butun gavdasi bilan bir orqaga, bir oldinga tebranarkan, pichirlab kuylagandek uv-uv yig'ladi.

– Jonim qizim-ay! Maydagina nevaram-ay!.. Oh, ichim yonib ketyapti, siqilib ketyapti!..

– Hadeb yig‘layverasanmi, kampir, – men qo‘pollik bilan Manuylixani kesdim. – Uyg‘otib yuborasan!

Kampir jim bo‘lib qoldi, biroq yuzini boyagiday burishtirgani-cha bir orqaga, bir oldinga chayqalaverdi, shu orada yirik-yirik ko‘z yoshlari stolga toma boshladi... Shu tariqa oradan o‘n daqiqalarcha o‘tdi. Men Manuylixaning yonida o‘tirardim va deraza oynasiga urilib, viz-viz qilayotgan pashshaning ovozi kabi bir xilda va uzib-uzib vizillashini iztirob bilan eshitib o‘tirardim...

– Buvijon! – kutilmaganda zaif, zo‘rg‘a eshitarli Olesyaning ovozi eshitildi.

Manuylixa shoshilib oqsay-oqsay karavot tomon bordi va yana uv-uv qilib yig‘ladi:

– Oh, nevaram-ay, joni jahonim-a! Oh, qari yoshimda kulfat tushdi boshimga, voy azobim-ay...

– Ey, buvi, bo‘ldi-da endi! – ovozida shikoyatomuz iltijo va azob-iztirob ohangi bilan dedi Olesya. – Uyimizda o‘tirgan kim?

Men ehtiyotkorlik bilan oyoq uchida karavotga yaqinlashdim va hamisha bemor qarshisida his etajak o‘zingning sog‘ ekaning va qo‘polliging uchun aybdorligingni anglab xijolat bo‘lish tuyg‘usi bilan uning oldiga bordim.

– Bu menman, Olesya, – dedim men ovozimni pasaytirib. – Hozirgina otda qishloqdan keldim... Ertalabdan shaharda edim... Tobing yo‘qmi, Olesya?

U, yuzlarini yostiqdan ko‘tarmay, xuddi havoda nimanidir izlayotganga o‘xshab yalang‘och qo‘lini orqaga cho‘zdi. Men bu harakatni tushundim va uning qaynoq qo‘llarini qo‘llaringa oldim. Ikkita kattakon ko‘kimtir dog‘ – biri panjasining ustida, ikkinchisi tirsagidan yuqorida edi – oppoq nozik terisida yaqqol ajralib turardi.

– Azizim, – so‘z boshladi asta Olesya, bir so‘zni ikkinchisidan qiynalib ajratib. – Senga qaragim kelyapti... bunday qilolmayman... Meni butunlay... dabdalamni chiqardilar... Esingdami... senga... mening yuzim juda yoqardi?.. Rostdan ham yoqardi-a, azizim?.. Men doimo bundan xursand bo‘lib yurardim... Endi sen... menga qaraging kelmaydi... Mana endi... men... endi istamayman...

– Olesya, meni kechir, – shivirladim men uning qulog‘iga egilib.

Uning alangayi otash bo'lib yonayotgan qo'li mening qo'limni mahkam va uzoq qisib turdi.

– Qo'ysang-chi!.. Nima bo'ldi, jonim?.. Shunday deb o'ylashga uyalmaysanmi? Bu ishda sening nima aybing bor? Hammasiga o'zim aybdorman, tentak qiz... Aslida, nima uchun... bunday qildim o'zi? Yo'q, jonginam, sen o'zingni aybdor sanama...

– Iltimos, do'xtirga odam jo'natishimga izn ber... Iltimos qilaman! Agar istasang, u buyurgan dorilardan birortasiniyam qabul qilmasliging mumkin. Juda bo'lmasa, men uchun rozi bo'l, Olesya.

– Oh, azizim... Meni qanday tuzoqqa tushirding-a! Yo'q, yaxshisi, o'z va'dangni bajarmaslikka ijozat ber. Agarda men chindan ham kasal bo'lganimda, o'lim yoqasida yotgan, yonimga hech qanday do'xtirni yo'latmagan bo'lardim. Nahotki, men bemor bo'lsam? Bu shunchaki qo'rqqanimdan shunday bo'ldi, kechgacha o'tib ketadi. E, yo'q – shunday ham buvim marvaridgul damlamasini tayyorlab beradi yoki choynakka xo'jag'atni damlaydi. Do'xtirning nima keragi bor? Sen – mening eng yaxshi do'xtirimsan. Mana, sen kelding-u, darhol yaxshi bo'lib qoldim. Eh, faqat menga birgina narsa yaxshi bo'lmayapti: loaqal senga bir ko'z bilan bo'lsayam qaragim kelyaptiyu, qo'rqyapman...

Men asta avaylabgina uning boshini yostiqdan oldim. Olesyaning yuzi isitmadan lovullab yonmoqda, qora ko'zlari g'ayritabiiy yorqin bo'lib porlardi, quruq lablari asabiy seskanib titrab turardi. Uzunasiga qip-qizil shilingan joylar peshonasi, yonoqlar va bo'ynida chandiqa o'xshab qolgandi. Peshonasi va ko'zlari ostlari ham qorayib-ko'karib turardi.

– Menga qarama... Iltimos qilaman... Men endi badbashara bo'lib qoldim. – yolvorib shivirladi Olesya kafti bilan ko'zlarimni bekitmoqchi bo'lib.

Ko'nglim achinish hislariga to'lib-toshdi. Men egilib Olesyaning adyolda harakatsiz yotgan qo'liga lablarimni qo'ydim va uni uzoq, so'zsiz bo'salarim bilan bekitmoqchi bo'ldim. Men ilgari ham ba'zan qizning qo'llarini o'pardim, lekin u hamisha ularni oshiqich, uyatchanlik bilan cho'chib tortib olardi. Endi esa ushbu erkalashga qarshilik ko'rsatmadi va ikkinchi, bo'sh qo'li bilan sochlarimni jimgina siladi.

– Hammasidan xabaring bormi? – shivirlab so‘radi u.

Indamay boshimni egdim. To‘g‘ri, men hali Nikita Nazarich hi-koyasidan hamma gapni tushunib yetganimcha yo‘q edi. Men Olesya ertalabki hodisani eslab yana siqilishini istamadim. Biroq to‘satdan qiz tahqir, haqoratlarga muhtalo bo‘lgani haqidagi fikrdan shu on shunday g‘azabim qaynadi.

– O! Nima uchun shu payt men o‘sha yoqda bo‘lmadim-a! – baqirib yubordim men mushtimni tugib. – Men bo‘lganimda... bo‘lganimda edi...

– Bo‘ldi... bo‘ldi... Jahling chiqmasin, azizim, – beozorgina Olesya gapimni bo‘ldi.

Men anchadan beri tomog‘imga kelib tiqilgan, ko‘zlarimga kel-gan yoshlarni ortiq tutolmay qoldim. Yuzimni Olesyaning kiftlariga qo‘yib, butun badanim chayqalib sassiz va achchiq yig‘ladim.

– Sen yig‘layapsanmi? Yig‘layapsanmi? – uning ovozi taaj-jub, mehr va hamdardlik ohanglari yangradi. – Azizim... Qo‘y endi, qo‘y... O‘zingni qiynama, jonim. Axir, sening yoningda o‘zimni juda yaxshi his etyapman. Toki biz birga ekanmiz, yig‘lamaymiz. Ke, ay-rilishimiz unchalik og‘ir bo‘lmasligi uchun, jilla qursa, so‘nggi kun-larni quvnoq o‘tkazaylik.

Men hayrat bilan boshimni ko‘tardim. Birdan mavhum, oldindan sezish tuyg‘usi asta yuragimni siqib kela boshladi.

– So‘nggi kunlar, deysanmi, Olesya? Nima uchun – so‘nggi? Nima uchun ayrilishimiz kerak ekan?

Olesya ko‘zlarini yumdi va bir necha soniya jim turdi.

– Biz sen bilan xayrlashishimiz kerak, Vanechka, – deya gap boshladi u qat‘iyat bilan. – Mana, picha tuzalib olay, biz buvim bi-lan hozirning o‘zida bu yerlardan jo‘nab ketamiz. Bu yerda ortiq qolishimiz mumkinmas.

– Sen biror narsadan qo‘rqyapsanmi?

– Yo‘q, azizim, kerak bo‘lsa, hech niunadan qo‘rqmayman. Fa-qat nima uchun odamlarni gunoh qilishlariga yo‘l berish kerak? Sen balki bilmassan... Axir, men u yerda... Perebrodda... jahldan ham, uyatdan ham qo‘rqdim... Endi mabodo biror gap bo‘lib qolsa, bizga to‘nkaydilar: birovning mol-holi yiqiladimi yoki birortasining uyi

yonib ketadimi – hammasiga biz gunohkor bo‘lamiz. Buvijon, – u Manuylixaga murojaat qildi ovozi ni ko‘tarib: – to‘g‘ri aytyapman-a?

– Nima deding, nevarajonim? Eshitmadim-da! – tamshandi kampir yaqinroq kelib, kaftini qulog‘iga qo‘yib.

– Men, endi Perebrodda biror falokat bo‘lsa, bizni ro‘kach qilishadi, deyman.

– Oh, to‘g‘ri, to‘g‘ri, Olesya, hammasini biz bechoralarga ag‘daradilar... Bizga bu yorug‘ dunyoda kun yo‘q, ro‘shnolik yo‘q, jonimizdan to‘ydiradilar, bezorijon qiladilar, la‘natilar... O‘shanda, meni qishloqdan qanday haydab chiqargandilar... Nima? Axir, shunday bo‘lmaganmidi? Men alamim kelib... o‘shanda bir esidan oqqan olabayroqni qo‘rqituvdim, o‘sha xotinni – paq etib, qarasa – bolasi o‘lib o‘tiribdi. Ya‘ni e yo‘q, be yo‘q, zing‘ircha gunohim yo‘q, meni naq o‘ldirayozdilar mal‘unlar... Toshbo‘ron qila ketdilar... Men-ku ulardan qochishga-ku qochaman, lekin manavi go‘dagimni o‘ylayman, ehtiyot qilaman... Xo‘p, mayli, tosh menga tegsa, tega qolsin, lekin qo‘limdagi begunoh norasidada nima gunoh? Nega yosh bolani xafa qiladilar? Qisqasi – vahshiylar, dordan qochgan razillar!

– Qayoqqayam borasiz? Axir, hech bir yerda qarindosh-urug‘laringiz, tanishlaringiz bo‘lmasa... Borib yangi joyga o‘tmashish uchun ham pul kerak bo‘ladi-ku.

– Bir yo‘lini qilarmiz amallab, – bepisand dedi Olesya. – Buvimda pul topiladi, yig‘ib qo‘ygani bor.

– Pulmish-a! – norozilik bilan e‘tiroz bildirdi kampir karavotdan nari ketib. – Ko‘z yoshlari to‘kilgan yetim-yesirlarning chaqalari...

– Olesya... Men-chi, men nima qilaman? Men haqimda o‘ylashniyam istamaysan-a! – xitob qildim men, ichimda Olesyaga qarshi achchiq, xastalarcha, ko‘ngilsiz o‘pka-gina qo‘zg‘alayotganini his qilib.

Qiz sal o‘rmidan qo‘zg‘aldi va buvisining shu yerda ekanidan tortinmay qo‘llari bilan boshimni ushladi va peshonam va yonoqlarimdan ketma-ket o‘pdi.

– Hammasidan ham sen haqingda ko‘proq o‘ylayman, jonim. Faqat... ko‘rmaysanmi... birga bo‘lmaslik qismatimiz ekan... ana shunday!.. Esingdami, men senga qarta tashlaganim? Axir, hamma-

si qartada ochilganiday chiqdi. Demak, taqdir sen bilan birga baxtli bo'lishimizni istamaydi... Agar ana shu narsa bo'lmaganida edi, nahotki, meni biror nimadan qo'rqadi, deb o'ylasang?

– Olesya, yana taqdiringni gapiryapsanmi? – ovozimni ko'tardim men sabrsizlik bilan. – Men taqdirga ishonishni xohlamayman... hech qachon ishonmayman!..

– Oh, yo'q, yo'q... bunday dema, – qo'rquv bilan pichirladi Olesya. – Men o'zimdanda emas, sendan qo'rqaman, azizim. Yo'q, yaxshisi, bu haqda umuman gap ochmay qo'ya qol.

Men Olesyani fikridan qaytarishga behuda urindim, g'arazgo'y taqdir ham, yovuz odamlar ham xalal berolmaydigan xavf-xatardan xoli baxtli hayotimiz manzarasini behuda chizdim. Olesya faqat qo'llarimni o'par va yo'q, deya bosh chayqardi.

– Yo'q... yo'q... yo'q... men bilaman, ko'rib turibman, – deya ta'kidlardi u qat'iyat bilan. – Qayg'u-hasrat, azobdan boshqa bizga nima yo'q, bo'lmaydiyami... hech nima... hech nima...

Men sarosimaga tushib, ana shu xurofiy qaysarlikdan miyam gangib qolib nihoyat so'radim:

– Lekin, har holda, qaysi kuni jo'nashingni xabar qilarsan?

Olesya o'ylanib qoldi. Birdan lablariga zaif tabassum indi.

– Men senga kichkina bir ertak aytib beraman... Bir kuni bo'ri o'rmonda yugurib yurib, quyunchani ko'rib qolibdi va unga shunday debdi: «Quyong, quyong, axiyri, men seni yeyman-qo'yaman». Quyong yalinib-yolvorishga tushibdi: «Rahm qil, bo'ri, mening yana yashagim kelyapti, uyimda yosh bolalarim bor». Bo'ri ko'nmasmish. Shunda quyong noiloj shunday debdi: «Xo'p, hech bo'lmaganda, bu olamda uch kungina yashashimga qo'yib ber, so'ngra yeysan. Shunda o'lishim osonroq bo'ladi». Bo'ri quyonga uch kun muhlat beribdi, uni yemabdi-yu, ko'z-quloq bo'lib turibdi. Oradan bir kun o'tibdi, ikki kun o'tibdi, nihoyat, uchinchi kun poyoniga yetib qolibdi. «Xo'sh, endi hozirligingni ko'rib tur, – debdi bo'ri, – hozir seni yeya boshlayman». Shunda quyonginam achchiq-achchiq ko'zyosh to'kibdi: «Eh, nima uchun, bo'ri, mana shu uch kunni xayr qilding! Ko'rgan zahoting meni yeb qo'yaqolsang bo'lmasmidi. Men shu uch kun ichida yashamadim, ich-etimni yeb tamom bo'ldim!» Azi-

zim, axir, quyongina bor haqiqatni aytgandi. Sen o'zing nima deb o'ylaysan?

Men yaqinda yolg'iz qolishimni oldindan azob bilan his qilganimcha jim qoldim. Olesya birdan gavdasini ko'tarib, to'shakka tiz bukib o'tirdi. Qizning yuzi birdan jiddiy tortdi.

– Vanya, menga qara... – to'xtab-to'xtab gapirdi u. – Bir narsani ayt: men bilan birga o'tkazgan vaqtlaring baxtli bo'lganmisan? Yaxshimiding?

– Olesya! Buni so'rashga hojat bormi?

– To'xta... Meni taniganingga pushaymon bo'lganmisan? Men bilan ko'rishgan paytlaring boshqa bir ayol haqida o'ylaganmisan?

– Bir on ham! Nafaqat sening oldingda, hatto bir o'zim qolganimdayam sendan boshqasini xayolimgayam keltirmaganman.

– Meni rashk qilganmisan? Mendan norozi paytlaring bo'lganmi? Men bilan zerikmaganmisan?

– Hech qachon, Olesya, hech qachon!

Olesya ikkala qo'lini yelkalarimga qo'ydi va tavsiflab bo'lmas muhabbat bilan ko'zlarimga tikildi.

– Bilib qo'y, jonim, shunday, hech qachon men haqimda yomon yoki alam bilan eslamaysan, – xuddi mening ko'zlarimda kelajakni aniq-ravshan ko'rib turganday ishonch bilan dedi u. – Biz sen bilan ayrilganimizda dastlab senga juda qiyin bo'ladi, oh, shunday og'ir... Yig'laysan, o'zingni qo'yarga joy topolmay qolasan. So'ngra esa hammasi o'tib ketadi, bari unutilib ketadi. Keyin meni g'am-alam bilan eslamaydigan bo'lasan, yengil va ko'nglingda sevinch bilan xotirlaysan.

Olesya yana boshini yostiqqa tashladi va zaif ovoz bilan shivirladi:

– Endi boraqol, jonim... Uyingga bor, azizim... Biroz charchadim. To'xta... meni o'pgin... Sen buvimdan qo'rqma... ruxsat beradi. Ruxsat berasiz-a, buvijon?

– Bo'пти, xayrlashaver, rasmanasiga xayrlash-da endi, – norozi bo'lib vaysadi kampir. – Mendan yashirishning nima keragi bor? Al-laqachonlardan buyon bilaman.

– Meni bu yog'imdan, yana bu yog'imdan o'p... va bu yoqdan, – Olesya barmoqlarini ko'zlariga, yonoqlariga va labiga tegizdi.

– Olesya! Men bilan xuddi biz boshqa ko‘rishmaydiganday xayrlashyapsan-a! – baqirib yubordim men qo‘rquv bilan.

– Bilmayman, bilmayman, azizim. Hech nimani bilmayman. Mayli, endi boraqol, Xudoning panohiga. Yo‘q, to‘xta... yana bir daqiqa... Qulog‘imga engashgin... Men nimaga achinaman, bilasanmi? – shivirladi u lablarini yonog‘imga tegizib. – Sendan farzand ko‘rmaganimga... Oh, bundan shunday xursand bo‘lardim!

Men Manuylixa kuzatuvida eshik oldiga chiqdim. Ko‘k yarmini qirralari yaqqol ko‘zga tashlanib turgan patila-patila qora bulutlar qoplab olgandi, biroq quyosh kunbotish tomon egilgan cha nur sochib turardi va ana shu yorug‘lik bilan to‘sib borayotgan qorong‘ilikning qorishib ketishi nimadandir mudhish xabar keltirayotganday edi. Kampir osmonga qaradi, ko‘zlariga kaftlarini go‘yo soyabon qildi va ma‘noli qilib boshini chayqadi:

– Bugun Perebrodda momaqaldiroq bo‘ladi, – dedi u ishonch bilan. – Xayrli emas, hatto do‘l yog‘adi.

XIV

Men Perebrodga yaqinlashib qolganimda to‘satdan buralib bo‘ron turdi va quyun yo‘l yoqalaridagi simyog‘ochlarga chang-to‘zonlarni haydab, olib kelib urdi. Ilk – siyrak va og‘ir – yomg‘ir tomchilari yog‘a boshladi.

Manuylixa adashmagandi. Butun kuni bo‘yi asta-sekin to‘plana borib, ana shu issiq, chidab bo‘lmas dim kunda g‘ayritabiiy kuch bilan Perebrod uzra momaqaldiroq shiddat bilan gumburlay ketdi. Osmonda betinim chaqmoq chaqib, yaltirab turdi va momaqaldiroq gumbur-gumburidan xonamning derazalari titradi, jarangladi. Kechki soat sakkizga yaqin momaqaldiroq bir necha daqiqaga tinib, battar yangitdan qahr-g‘azab bilan quturib guldurash uchun tanaffus qilib turdi. To‘satdan quloqni batang qilarli qasir-qusur qilib tom va ko‘hna uy devorlariga nimadir to‘kildi. Men deraza tomon otildim. Zo‘r do‘l yog‘di, kattaligi yong‘oqday-yong‘oqday keladigan donalar tepaga baland-baland irg‘igan cha yerga tusha ketdi. Men uy oldiginasida o‘sgan tut daraxtiga qaradim – daraxt mutlaqo yap-yalang‘och turardi, do‘lning dahshatli zalplari uning hamma yap-roqlarini urib, to‘kib tashlagandi... Deraza ortida boshiga ko‘ylagini

pana qilganicha deraza eshiklarini yopib qo'yish uchun yugurgan Yarmolaning qorong'ida jussasi arang ko'zga tashlandi. Biroq u kechikdi. Derazalardan birining oynasiga kattakon muz parchasi shunday kuch bilan urildiki, oyna chil-chil sindi, qarsillab xona bo'ylab sochilib ketdi.

Men o'zimni toliqqan, horg'in his qilib, yechinmasdan karavotga cho'zildim. Bu tun umuman uxlolmasam kerak, to sahargacha nochorligimdan azoblanib, u yonboshdan bu yonboshimga ag'darilib uxlolmasam kerak, deb o'yladim, shuning uchun ham keyin aqalli xona bo'ylab yurib, o'zimni picha toliqtirishim uchun ko'ylagimni yechmaslikni ma'qul ko'rdim. Lekin kutilmaganda juda g'alati hol ro'y berdi: ko'zlarimni bir daqiqaga yumganday edim, so'ng ularni ochganimda deraza eshiklari tirqishidan quyoshning uzun-uzun yorqin nurlari cho'zilib tushib turardi, unda son-sanoqsiz zarsimon chang zarralari aylanardi.

Karavotim tepasida Yarmola turardi. Uning qiyofasi jiddiy xavotir va sabrsizlik bilan kutganini ifodalab turardi: u bu yerda mening uyqudan uyg'onishimni ancha vaqtdan beri kutib turgan bo'lsa kerak.

– Panich, – dedi bezovtalik sezilib turgan bo'g'iq ovozda. – Panich, jo'nash kerak...

Men oyoqlarimni karavotdan osiltirib tushirdim va Yarmolaga hayron bo'lib qaradim.

– Ketish deysanmi? Qayoqqa ketaman? Nima uchun? Sen haqiqatan aqldan ozibsan.

– Mendan hech es-pes ketgani yo'q, – to'ng'illadi Yarmola. – Siz kechagi do'l qilig'ini eshitmadingizmi? Qishloqdagilarning yarmini javdar bug'doyi oyoq bilan tepganday poymol bo'lgan. Qing'ir Maksimda, Kozelda, Mutda. Prokopchuklarda, Gordiy Olefirda... alvasti shayton ziyon bergan-da... u yo'qolib bitsin!

To'satdan, bir on xayolimga butun kechagi kun, cherkov oldida Olesyaga qilingan tahdid va uning qo'rqib, xavfsirashlari keldi.

– Endi butun jamoa bosh ko'tardi, – gapida davom etdi Yarmola. – Ertamatandan hamma yana baqir-chaqir qilyapti. Siz haqingizdachi, panich, yomon gaplarni baqiryapti... Bilasizmi bizning jamoa

qanday? Agar ular alvastining adabini bersa, bu haqqoniy ish bo'ladi, sizga-chi, panich, bir gapim – qochib qutuling, tezroq.

Shunday qilib, Olesyaning xavfsirashlari o'z tasdig'ini topdi. Zudlik bilan ularga tahdid solayotgan tahlika haqida ogohlantirish kerak. Men shosha-pisha kiyindim, yo'l-yo'lakay suvda yuzimni chaydim va yarim soatdan so'ng Bisov Kut yo'nalishida otimni katta-katta yo'rttirib choptirib ketdim.

Qoziqoyoqli kulbaga qanchalik yaqinlashganim sayin ichimda mavhum, azobli xavotir ham shunchalik ortib bordi. Men o'zimga-o'zim ishonch bilan hozir qandaydir yangi, kutilmagan musibatga yo'liqaman, derdim.

Men deyarli qum do'nglikka olib boruvchi tor so'qmoqdan deyarli yugurib o'tdim. Kulba derazalari, eshik lang ochiq edi.

– Xudoyim! Nima bo'ldi ekan? – pichirladim men ichkariga kirarkanman yuragimni hovuchlab.

Uy bo'm-bo'sh edi. Odatda shoshilinch jo'nab ketilgach, bo'shab qolgan uylardagi singari bu yerda ham mungli manzara, chang-chung, tartibsizlik hukm surardi. Yerda bir uyum supurindi va lat-ta-puttalar yotardi, oxiri, burchakda karavotning yog'och qobirg'asi turardi...

Men yuragim siqilib, o'pkam to'lib keldi, go'yo ko'ksim to'la yosh, uydan chiqay deb turganimda, birdan yarqiroq bir narsa e'tiborimni tortdi, buning deraza romi burchiga atayin ilib qo'yilganiga shubha yo'q edi. Bu Polesyeda «marjon» nomi bilan mashhur arzon-garov qirmizirang munchoqlar shodasi edi – bu Olesya va uning inja, oliyhimmat muhabbatidan menga qolgan yagona esdalik edi.









BREGET

Men dekabrning o'sha kungi eng uzun kechasini sira yodimdan chiqarmayman. Aylana stol atrofida osilib turgan yop-yorug' chiroq nurida qalin va eskirganidan titilib ketgan kitobning men uchun juda qadrli va yoqimli xotiralarni eslatuvchi «Shimol bolalari» nomli jildini o'qib o'tirardim. Har doim Rojdestvo ta'tilida Rujichniyga kelganimda, bu kitobni, albatta, diqqat bilan boshidan oxirigacha qayta o'qib chiqardim. Amakim Vasiliy Filippovich pastakina ko'k charm qoplangan o'rindiqa menga qarab, podagra bilan og'riyotgan oyog'ini ola-bula ko'rpa bilan o'rab olib, ro'parasidagi yana bir stulning ustiga qo'yib o'tirardi. Uning yuzi soya tushib turganidan ko'rinmas, faqat oppoq, qalin, uzun shopmo'ylovi va uning orasida ko'rinib turgan cho'bug'i yorug'likda g'alati bir ko'rinishda ko'zga tashlanib turar edi. Men har zamon o'qiyotgan kitobimdan boshimni ko'tarib, hovlida uvillab, daydib yurgan izg'iringa quloq turtardim. Nazarimda, tinimsiz eshilib turgan uning tovushida qandaydir vahimali qayg'u hamda qahr-u g'azab aralash dahshatli bir tahdid bordek edi go'yo. Uning hayqirig'i avvaliga g'alati bo'g'iq nola kabi uvillashdan boshlanib, to baland chinqiriqqa o'xshash ovozgacha ko'tarilar, so'ng yana asta-sekin bir zaylda qaytib tinardi. Bu paytda daraxtlar baland shoxlari bilan barobar g'uvillab silkinar, shamol xushtak chalib, goho nay navosidek nola chekar, bo'ron har gal shiddat bilan kuchayganida esa xuddi allakimdir tashqaridan turib bir hovuch quruq qorni derazaga otib yuborgandek tuyulardi. Qay vayt, bu iblisona konsertga quloq turarkanman, xayolimda beixtiyor shahardan ancha olisda, yaqin insonlarimdan ayro, shu mung tortgan qorli yalanglikda unutilgan zamindorning ko'hna bir kulbasida kasalmand, qartayib qolgan mana shu chol bilan yuzmayuz o'tirgancha, bu joyda qolib ketadigandek bo'lardim. Tashqarida uvillab, qalbimni zada, behuzur qilayotgan bo'ron hamda bir zaylda

chiqillayotgan soat kapgirining ovozi esa hech qachon tinmaydigan-
dek tuyulardi go'yo...

– Sen tasodif, deysan, – deya Vasiliy Filippovich o'rindiqdan og'ir qo'zg'alib, gavdasini to'g'irlab oldi-da, yorug'likni qo'li bilan to'sib, to'satdan gap boshladi. – Ammo, qani, ayt-chi, sen hayot ba'zan qanaqadir kutilmagan o'z hazillarini boshlab, biror mohir yozuvchining xayoligayam kelmaydigan o'zgarishlar qilib yuborishi mumkinligi haqida hech o'ylab ko'rganmisan?..

Cholning so'zlarini tinglarkanman, avvaliga uning bu gapi bilan nimaga shama qilinayotganini tushunolmadim, birpasdan so'ng esa u bilan tushlik paytida kitobiy poetik to'qimalar hamda ularning qanchalar cheksizligi to'g'risida suhbatlashganimiz yodimga tushdi va uni gapga soldim:

– Nega bu haqda so'rab qoldingiz, amaki?

– Shunchaki... mana endi xayol surib o'tiribman-da... atrof jim-jit... tashqarida ob-havoyam o'ziga yarasha... istaysanmi-yo'qmi, eski xotiralar yodga tushaveradi... ilgari bo'lib o'tgan bir voqea esimga tushgani uchun aytyapman-da...

Amakim kasalmand oyog'ini qiynalib, uzoq siypaladi, so'ng yana qaytib o'rab oldi va ancha payt jimib qoldi. Birozdan so'ng yana gapida davom etdi:

– Bir vaqtlar biz rotmistr fon Ashenbergnikida uning tug'ilgan kuni munosabati bilan berilgan ziyofatga yig'ildik. Qish kunlaridan biri edi. Senga aytib o'tishim kerak, o'shanda bizning N-chi gusarlar polkimiz endigina venger kompaniyasidan qaytib kelgandi va boshliqlarimiz bizni qishloqdagi o'ta tashlandiq bir qarorgohga joylashingandir. Bizlarni begona xilvat joylarda yurish, qayg'u-xasrat, zerikishlar haddan tashqari bezdirib yuborgandi. Biz yon atrofni kezib, aylanib chiqardik, ammo buning nimasi qiziq? Bizga o'shanda zerikib, noilojlikdan uzluksiz qarta o'ynash yoki ichkilikbozlik qilishdan boshqa hech bir ish qolmagandi. O'zimizcha quyidagi misralarni qayta-qayta takrorlardik:

*...kim kuniga ikki marta mast bo'lmas,
Bilingki, u jangchi yo askar emas...*

Xullas, biz yana bir joyga yig'ildik. U yerda bizga qarab avvalboshda shtab-rotmistr Ivanov birinchi... so'ngra polk ichidagi qariyalar, xalq maydalashib, zaiflashib ketyapti, shuning uchun ham yoshlar hech narsaga yaramay qolyapti, deya shikoyat qila boshlashdi. Shuningdek, shtab-rotmistr ham bizning ustimizdan nolishni davom ettirdi. Senga aytishim kerak, u polkdagi yagona katta zobit edi va uni hamma yaxshi bilardi (butun polk u bilan faxrlanardi), bir paytlar u Denisning o'zi bilan juda yaqin bo'lgan, bir-birlarini senlashib muomala qilishardi. Bursev bilan esa birga ichishganidan so'ng, olti oy davomida tinmay to'polon qilishgandi. Shuningdek, yengil kavaleriyada o'zining ajoyib ovozi bilan tanilgan, mayor Kojin ham bor edi. Har doim u haqida eslasam, uning betakror ovozi yodimga tushadi, bu qanday ovoz bo'lishi mumkin, deya hayron qolaman. U ba'zan, ichkilikbozlik maroq bilan davom etayotgan paytda, shundoq stakanni qo'lga olardi-yu, og'ziga qo'yib ajabtovur qiyqirardi. Mana, qara, sen hattoki buni eshitib turib ham kulyapsan. Ammo gapim chin, rost aytyapman, ishonsang, oxirida uning qo'lida faqat shisha qoldiqlari qolardi, xolos. Ikki nafar, Reznikov va Belago degan poruchiklar bo'lardi. Biz ularni «inseparabllar»¹ yoki er-xotinlar ham deb atardik, chunki ular hech qachon bir-biridan ajralmas, qayerga borsa, birga borishar va har doim bir xonada turishar edi. Yana bir kazak yasovul, Sirotko ham bor edi. U har gapning birida «tipratikankalla», degan so'zni ko'p ishlatgani uchun, uning o'ziniyam «tipratikankalla» deb atardik. Keyin kornet² graf Olxovskiy degani bo'lardi, u bizga harbiy maktabdan yuborilgan, shunchaki bir lapa-shangroq, jussasi kichik, o'ziga yarasha o'jarligiyam bo'lgan, ammo mehribon bola edi. Ulfatlar orasida poruchik Chekmaryov degani ham bo'lardi, u hammaning arzandasi va erkatoyi edi. Hattoki shtab-rotmistr Ivanov birinchiyam uning nomini yaxshi bir mavzularda tilga olib o'tardi: «Mana shu bolakay haqiqiy suvoriy, haqiqiy yengil kavaleriya askari, qayerga bormasin, hech qachon pand bermagan...» – derdi. U quvnoq, ko'rkam, epcil, sahiy, mohir chavandoz va ajabtovur raqqos, xullas, bir so'z aytganda, ajoyib bir yigit edi. Lekin, hayronman, bizning qo'pol, nafosatdan ancha yiroq qattiq

¹ Ajralmaslar (*fr. inseparable*).

² Inqilobdan ilgari Rossiyada otlik askar zobitlarining kichik unvoni.

yuraklarimizni nimasi o'ziga tortib, oshno etdiykin, chunki u o'ta nozikta'b, buning ustiga, uning kulishlari, qarashlariyam qandaydir jozibali edi. Bundan tashqari, senga yana shuniyam aytishim kerakki, u juda boy bo'lib, hamyoni hamma uchun ochiq edi.

Bir kuni bo'ydoqlar yig'ilib, bir joyga to'plandik (polkimizda atigi ikki nafar uylangani bor edi) va haddan ziyod bo'kib ichdik. Mezbonning sog'ligi uchun ichdik, qadahlarni aylantirib ham, qatorlashtirib qo'yib ham ichdik. Hofizlarni chaqirib, ular bilan ham ichdik. Polk orkestrini chaqirib, orkestr sadolari ostida ular bilan birgayam ichishdik. Yasovul Sirotko – «tipratikankalla» har qadah ko'targanida maqol aytardi: «Ikki etik bir butun, uchovlonsiz uy qurilmas, to'rt burchaksiz uyni ko'tarib bo'lmas». O'ziyam, huddi shunga o'xshash ellikka yaqin maqol aytdi, keyingilari ayniy boshladi, qolganlarini esa og'izga ham olib bo'lmaydi.

Bu payt kimdir, aftidan, «inseparabllar»dan biri, kuni kecha graf Olxovskiyning zamindorning uyiga qimor o'ynashga borganini aytib qoldi. Ma'lum bo'lishicha, u bir yarim ming pul, qorato'riq chavkar ot va Shveysariyada ishlab chiqarilgan mashhur qimmatbaho breget – tilla soatini yutib olgan ekan. Olxovskiy o'sha zahotiyoq bizga yaraqlab turgan, o'yma naqshli bezak berib ishlangan juda chiroyli bir soatni ko'rsatdi. Haqiqatdan u antiqa soat edi. Tepasidagi tugmachasini bosganda, daqiqa va soniyalar qancha bo'lganini aytib, ohangdor kuy chalardi. Qadimiy soat.

Olxovskiy birmuncha gerdayib turdi.

– Bu, – deya gap boshladi u, – juda kamyob matoh. Uni endi qo'limdan hech qachon tushirmayman. Nazarimda, bunga o'xshash soatlar dunyoda faqat ikki yoki uchtagina nusxada bo'lishi mumkin.

Chekmariyov esa unga qarab jilmaydi.

– Siz soatingizning maqtovini o'ta oshirib yuboryapsiz, shekilli. Hozir men ham sizga huddi shunaqa soatni ko'rsatishim mumkin. Ular siz o'ylaganchalik kamyob emas.

Olxovskiy ishonqiramay boshini chayqadi.

– Siz uni qayerdan topasiz? Kechirasiz-u, men bunga ishonmayman...

– Ixtiyoringiz. Xohlasangiz garov o'ynaymiz?!

– Bajonidil... Qachon olib kelasiz?

Lekin ularning bu garov o'yini yig'ilganlarga umuman qiziq emasdi. Shu payt Yasavul Sirotko Olxovskiyni darvoza yoniga yetaklab bordi-da:

– Menga qara, o', tipratikankallalar, o'tirgan joylaringda har qanaqa be'maniliklarni o'ylab topavermanglar. Bu yerga nima uchun yig'ilganmiz? Ichishmi, ichish, ichish bo'lsa, ichaylik, agar ichmasak, bundan ko'ra qarta o'ynaganimiz yaxshiroq...

Ichkilikbozlik yanada avj olib, davom etdi. To'satdan Kojin o'zining do'rillagan ovozi bilan buyruq berdi:

– Qani, soqchilar – hammasi bekor! – deya xitob qildi u. Eshiklarni qulflaymiz. Chikchirlilar¹ chiqib ketsin! Rom kelyapti!..

Xizmatkorlar shu zahoti xonadan haydab chiqarildi, eshiklar qulflanib, olov o'chirildi.

Katta qozonning og'ziga ayqashtirib qo'yilgan uchta qilichning ustiga bir bo'lak qand bo'lagi joylashtirildi. Rom olovda ko'k rangda «lop» etdi va shtab-rotmistr Ivanov birinchi o'zining yo'g'on ovozi bilan baqira boshladi:

Qadim gusarlar qayda?

Botir gusarlar qayda?

Biz ham unga o'xshar, o'xshamas ovozimiz bilan paydar-pay jo'r bo'ldik. Quyidagi:

Burunlari qizargan

Bobolar yodga tushar,

Gulxan atrofida jam

Cho'mich ho'plab ichishar...

degan naqoratni aytgach esa uning ovozi qaltirab ketdi, qo'shiqni avvalgidan-da buzuqroq ovozda aytish boshladi. Rom hali ham tayyor bo'lmadi, shunda to'satdan yasavul Sirotko peshonasiga urib, qiyqirib yubordi:

– Og'alar! Tiptarikankallalar! Axir, butkul unutibman-ku, ahmoq bo'lib qolibman-ku. Zudlik bilan yugurishim kerak, yigitlar!

¹ *Chikchir* – gusarlar, ya'ni suvoriylarning tor shimi.

– O‘tir, o‘tir, yana nima deb aldayapsan? – dedi shtab-rotmistr Ivanov birinchi.

– Xudo xayringizni bersin, azizlarim, yugurmasam bo‘lmaydi... Ruxsat beringlar, tipratikankallalar. Soat sakkizda tayyor bo‘lishi kerak edi, men hali baribir qaytaman. Olxovskiy, soatingni chal-chi, hozir necha bo‘ldiykin?

Olxovskiy qorong‘ida soatini qidirishga tushdi, uning shitirlatib, cho‘ntagini kovlaganini boshqalar ham eshitdi.

Shunda u birdan xavotirga tushib:

– Ana bo‘lmasam! – deb yubordi.

– Nima bo‘ldi? – so‘radi fon Ashenberg.

– Soatni topolmayapman. Mentigimni¹ yechganimda, yonimga chiqarib qo‘ygandim.

– Qani, janoblar, yorug‘ qilib turinglar-chi!

Olov yoqildi, hamma soatni qidirishga tushdi, lekin u hech qayerda yo‘q edi. O‘sha payt barchamizga judayam noqulay bo‘ldi, bizlar hattoki bir-birimizga ko‘zimiz tushib qolishidan qochardik.

– Oxirgi marta qayerga qo‘ygandingiz? – so‘radi fon Ashenberg.

– Eshik yopilgan zahoti... mundirimni yechdim-u, shunday yonimga qo‘ydim, qorong‘ida soat necha bo‘lganiga qarab turaman, deb o‘ylovdim...

Hamma boshini quyi solgancha, jimib, yerga qarab qolishdi. Shunda Ivanov birinchi mushti bilan stolga shunday qattiq bir urdiki, zarbidan stol ustidagi qadahlar jaranglab, yerga tushib ketdi.

– Shayton olsin! – deya baqirdi bo‘g‘iq ovozd. – Qani, qidiringlar, shu yaramas soatni topmasak bo‘lmaydi. Qani, yigitlar, stolning osti, usti, o‘rindiqlarning tagi, hech qayer qolmasin. Qanday qilib bo‘lsayam, soatni topinglar!

Biz yo‘qolgan soatni taxminan chorak soatcha qidirdik, lekin harakatlarimiz zoye ketdi. Olxovskiy sarosimaga tushib, hijolatdan har daqiqada: «Eh, janoblar, qo‘yinglar shu soatni, kerakmas... jin chalsin, kerakmas, janoblar...» – deb takrorlardi. Lekin Ivanov birinchi unga qarab ko‘zini qo‘rqinchli baqraytirib, baqirib berdi:

– Ahmoq! Sening soatingga tupurganmiz. Axir, nega tushunmayapsan, bu yerda hamma o‘zimiznikilar-ku, hech qanaqa begona

¹ *Mentik* – gusarlar yelkasiga tashlab yuradigan kalta kiyim.

yoki biror xizmatkorlar ham yo‘q edi, nima uchun topishimiz kerakligiga endi aqling yetgandir!?

Xullas, shu badbaxt soatni topamiz deb, juda toliqib, siqilib ketdik va hammamiz stol atrofida xorib o‘tirib qoldik. Kojin o‘tirganlarning barchasiga xorg‘in, norozi nigoh bilan birma-bir qarab chiqdi va zo‘rg‘a eshitar-eshitilmas:

– Endi nima qilamiz, janoblar? – deb so‘radi.

– Endi nima qilishimiz o‘zingizga havola, mayor, – deb jiddiy ohangda e‘tiroz bildirdi Ivanov birinchi. – Chunki siz oramizda hammamizdan yoshi ulug‘rog‘isiz, ammo soat topilishi shart.

Oxiri shunday bir xulosaga kelindi, xullas, hamma o‘zini tintuv qildirishga ruxsat beradi. Birinchi bo‘lib tintuvga yasovul Sirotko keldi, uning ketidan shtab rotmistr Ivanov birinchi keldi. Keksa gusarning yuzi hamda qilich zarbidan qolgan chandig‘i ham qizarib ketgandi. Qilichning izi oqargan boshi uzra, peshonasidan o‘tgan op-poq keng chiziq bo‘lib, yaqqol ko‘zga tashlanib turardi. Qaltirayotgan qo‘llari yordamida cho‘ntagini shunday kuch bilan ag‘dardiki, shunda u xuddi chikchirini yechib otadiganga o‘xshab ketdi. U mo‘ylovini tishlagancha:

– Uyat! Qanday xunuk ish bo‘ldi! Bugun N-chilar birinchi mar-ta bir-birini tintuv qilishi! Ammo sochlarimga oq tushgan chog‘da, bu holat men uchun judayam uyat... – dedi u g‘o‘ldirab.

Shu tariqa biz ham birin-ketin tintuv qilindik. Chetda yolg‘iz Chekmaryovning o‘zi qoldi.

– Qani, Fedyusha, kelaqol, tortinma... O‘t-chi bu yoqqa, nima bo‘ldi, senga? – deya uni erkalagan kabi chaqirdi qattiqqo‘l Ivanov birinchi, g‘azabi qaynab, biroz turtib ham yubordi.

Chekmaryovning rangi butkul oqarib ketgan, labi uchib, devorga qattiq yopishib, suyanganicha joyidan qimirlamay turardi.

– Boraqol, Chekmaryov, – unga dalda berishga urindi mayor Kojin. – Axir, o‘zing ko‘ryapsan-ku, mana, hamma tekshiruvdan o‘tdi...

Chekmaryov sekin boshini qimirlatdi. Men o‘sha kezdagi uning qanday qo‘rqinchli tirjayganini hech qachon esimdan chiqarolmay-man. Uning labini qiyshaytirib, burishtirgancha, qiynalib, bo‘g‘ilib, zo‘r-bazo‘r aytgan gaplarini ham:

– Men... o‘zimni... tintuv qilishlariga... yo‘l qo‘ymayman...

Shtab-rotmistr Ivanov birinchi birdaniga unga yalt etib qaradi-da:

– Qanaqasiga, jin urgur? Beshta kekxa zobit o‘zini tintuv qilishga yo‘l qo‘yib berdi-ku, sen qo‘ymaysanmi?! Mening yuzimdagi ajinlarni ko‘ryapsanmi? Tishlarimni qara... biroq meniyam tintuv qilib, qidirishdi. Nega endi senga mumkinmas, hayronman, bizdan nimang ortiq? Yoki sening izzat-obro‘, qadr-qimmat to‘g‘risidagi tushunchalaring biznikidan boshqacharoqmi? Hoziroq kel, Fedka, eshityapsanmi?

Lekin Chekmaryov yana boshini chayqadi.

– Yo‘q, bormayman! – deya shivirladi u.

Uning qilt etmayotgan holati, jonsiz ko‘z qarashi va xavotirli jilmayishi qandaydir vahimaga to‘la edi.

Shunda Ivanov birinchi ovozingning ohangini o‘zgartirdi va yalinchoq mayin ohangda gapira boshladi. Bunaqasini mast bo‘lib qolgan kekxa chol va qo‘pol askardan hech kim kutmagandi:

– Fedyusha, jonim bolam, tentaklikni qo‘ysang-chi! O‘zing bilasan-ku, axir, men seni o‘z o‘g‘limday yaxshi ko‘raman. Qo‘ysang-chi, azizim, sendan iltimos... balki sen qandaydir... balki shu ahmoqona garovni deb... tushunyapsanmi, hazillashdingmi, a? To‘g‘ri, balki hazillashgandirsan, albatta, hazillashgansan, ammo, Fedyusha, sendan iltimos...

Shunda Chekmaryovning yuzi yanada qip-qizarib ketdi, shu zahoti u orqaga qarab tisarildi. Labi qaltiray boshladi. Jim turganicha, o‘sha ayanchli ahvolida yana boshini silkitdi... Oraga vahimali jimlik cho‘kdi va faqat major Kojinning g‘azab bilan pishillashi sukunatni buzib turardi.

Ivanov birinchi ko‘kragini to‘ldirib, chuqur «ux» tortdi. Chekmaryovga qaramasdan yonboshga qayrilib, bo‘g‘iq ovozda:

– Unda ixtiyoringiz, bu vaziyatda, poruchik, nima qilishni o‘zingiz yaxshi bilasiz.. sizning haq ekaningizga shubha qilmayotgan bo‘lsak-da... bilasizki... *(u shu paytda Chekmaryovga bir razm soldi va zudlik bilan shu zahoti yuzini boshqa yoqqa burdi)* bilasizki, bizning oramizda qolishingiz noqulay bo‘ladi...

Chekmaryov o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Xuddi yerga gursillab qulab tushadigandek, qalqib ketdi, ammo o‘zini o‘nglab oldi va chap qo‘li

bilan shamshirini ushlagancha, to'g'riga tik qarab, bir nuqtadan ko'zini uzmasdan, xuddi oyparastdek sekin eshik tomon yurdi. Biz churq etmay, chetga chiqib, uni o'tkazib yuborish uchun yo'l berdik.

Endi ichkilikbozlikni davom ettirish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Fon Ashenberg ham «churq» etmadi. U xizmatkor, navkarlarni chaqirib, stol ustini yig'ishtirishni buyurdi.

Kayfimiz butunlay tarqab, noqulay va g'amgin ahvolga tushib qoldik. Negadir hammamiz birga oraga cho'kkan jimlik ichra yana nimadir sodir bo'lishini kutib o'tirardik.

To'satdan mezbonning xizmatkori Baydenko qiyqirib yubordi:

– Vash vis-krod, manov yerda qanaqadir soat yotibdi!

Hammamiz o'sha tomonga yugurdik. Haqiqatdan ham, yerda, rom uchun tayyorlangan qozonchanning tagida Olxovskiyning bregeti yotardi.

– Jinim biladimi, – miyig'ida g'o'ldiradi hayratda qolgan graf, – menimcha, qorong'ida oyog'im bilan bilmay o'sha yerga tepib yuborgandirman.

Xizmatkor bo'layotgan ishlarni bermalol tahlil qilib olishimiz uchun ikkinchi marta ham xonadan chiqib ketdi. Bu voqeadan keyin yoshlarning barchasi Chekmaryovga judayam ichi achidi, rahmi keldi, biroq qariyalar esa bu vaziyatni boshqacha sharhlay boshladilar:

– Yo'q janoblarni, u hammamizni va butun polkni pisand qilmay, yerga urib ketdi, – dedi yo'g'on va qat'iy ovozda mayor Kojin. – Nega biz o'zimizni tintuv qilishlariga ruxsat berdig-u, u bo'lsa unamadi? Yo'q, u endi N-chi polkni tark etishi kerak va tark etadi ham.

Fon Ashenberg, Ivanov birinchi va yasovul ham Chekmaryovga achinayotgan bo'lsalar-da, bu fikrni ma'qullashdi. Shundan so'ng barchamiz asta-sekin, hech bir sassiz, xuddi a'zadan qaytayotgandek tarqalisha boshladik. Tashqariga chiqqach, bir-birimiz bilan xayrlashish uchun to'xtadik.

Kimdir yo'lak bo'ylab fon Ashenbergning uyiga qarab shoshgancha yugurib kelardi. Uni Ivanov birinchi hammadan avval taniydi. U poruchik Chekmaryovning navkari edi. Askar bosh kiyimsiz, ko'rinishidan juda vahimaga tushgan edi. Hali yetib kelib ulgurmasidanoq zo'rg'a, es-hushidan ayrilgan kabi, baqirayotgandi:

– Vash-skorod!.. Baxtsizlik!... Poruchik Chekmaryov o‘zlarini o‘zlari otib qo‘ydilar!

Biz Chekmaryov yashab turgan xonaga otilib kirdik. Eshik qulfanmagan, Chekmaryov yerda, yonlamachasiga uzala tushib yotibdi. Pol butkul qonga bo‘yalgan, ikki qadam narida esa duelda ishlatiladigan katta to‘pponcha yotardi. Shunda men o‘z o‘limini o‘zi chaqirib, joniga qasd qilgan, tanasi toshqota boshlagan odamning nihoyatda ko‘rkam chehrasiga tikilib, hayratlanib qoldim. Uning o‘sha azob ichidagi o‘zgacha kulgisi uning lablariga muhrlanib qolgandi.

– Qaranglar-chi, biror xat qoldirmadimikin... – dedi yig‘ilganlar ichidan allakim.

Haqiqatda ham u noma yozib qoldirgan ekan. Uni yozuv stolining ustidan topishdi. Xatning ustiga nimadir bostirib qo‘yilgandi... nima bilan, bilasanmi?... Tilla soat, breget bilan. Eng dahshatlisi, breget soat ikki tomchi suv kabi xuddi graf Olxovskiynikiga o‘xshash edi.

Bu nomani hozir ham yoddan bilaman. Unda shunday bitiklar bor edi:

«Alvido, qadrdon do‘stlarim. Xudo haqqi, Iso Māsih chekkan azoblar haqqi, qasam ichib aytamanki, o‘g‘rilikda mening ay-bim yo‘q. Men cho‘ntagimda xuddi graf Olxovskiyning bregetiga o‘xshash soat turgani uchungina o‘zimni tintuv qildirishga ruxsat berolmadim. Mening bregetim rahmatli bobomdan meros bo‘lib qolgan. Afsuski, hozirgi kunda hayotimda menga guvohlik beradigan yaqinlarimdan hech kim qolmagan, shuning uchun ham men isnod va o‘lim o‘rtasidagi shu yo‘lni tanlashga majbur bo‘ldim. Mabodo, Olxovskiyning soati topilib, mening aybsizligim isbotlansa, shtabrotmistr Ivanov birinchidan buyumlarim, qurolim va otlarimni esdalik uchun mening aziz do‘stlarimga tarqatib berishini va bregetimni esa o‘zida qoldirishini iltimos qilaman».

So‘ngida imzo.

Amakim Vasiliy Filippovich chiroqning soyasiga butunlay singib ketdi. Anchagacha yo‘taldi. Nihoyat, to‘xtab, oxirida:

– Mana, ko‘rdingmi, bolajonim, hayotda qanday kutilmagan tasodiflar bo‘lishi mumkin, – deya qo‘shib qo‘ydi.

BUYURTMAGA BINOAN

Ilya Platonovich Arefyev, mashhur gazeta feletonchisi o'z xonasi bo'ylab – asabiylashgandan asabiylashib, kursi suyanchiqlariga surinib, charm divan oldidan Shopengauerning qovog'i soliq byusti turgan javon oldigacha borib-kelmoqda edi. Uning, qartabozlar ta'rifi bilan aytganda, «qo'li kelmay qolgandi». Bosh qotirib o'tirganiga bir necha soatdan oshdi hamki, xayoliga tuzukroq bir gap kelmaydi, yozish uchun tayyorlab qo'ygan qog'ozida esa olachipor tusdagi soqchixonona oldida turgan soqchi, ko'zlari hayratdan odamnigiga o'xshab katta-katta ochilgan ot kallasining yon tomondan ko'rinishi va qo'lda chizib tashlangan bir necha mushuk tasviri ko'zga tashlanadi.

Arefyev – tajribali, keksa gazetachi. Faqat yosh shoirlar va muh-tarama qissanavis xonimlargina emas, balki «bizning yosh, umidli belletristlarimiz» ham Ilya Platonovichning «graf Almamiva» taxallusi ostida g'o'r qalamkashlarni har hafta urib chiqadigan «Rus poch-tasi»ning payshanbalik sonlarini hayajon bilan kuzatadilar. Uning ixtisosligi faqat ana shu qaqshatqich zarbalardangina iborat emasdi. U xuddi ana shunday osonlik bilan tilla, valyuta haqida ham, simvolistlar, Xitoy bilan savdo masalasi, mahalliy amaldorlar haqi-da ham, yangi drama, markschilar, birja, qamoqxonalar-u artezian quduqlari haqida ham, qisqasi, o'zining nozik, professional dimog'i bilan hidini olgan barcha narsalar haqida yozaverardi. U bugun e'tiborga tushib ulgurmagan, biroq ertaga kunning eng muhim ma-salasiga aylanishi mumkin bo'lgan mavzuni hammadan oldin ilg'ab olar va shu zahotiy oq achchiq kinoya va o'ta mubolag'adan sayqal-langan o'tkir aqli bilan odatiy tarzda hodisaning kulgili, qorong'i va xunuk qirralari bo'y ko'rsatardi.

Ilya Platonovich shu kunga qadar kasb qilib olgan ishining hech bir qiyin tomonini ko'rmagandi. Odatda biror masalaga shuncha-ki qiziqishi va o'rganishining o'zi unga kifoya qilardi. U stolga o'tirarkan, so'zlar o'z-o'zidan quyilib kelishiga ishonchi komil edi; chindan ham, jonli, qiziqarli, o'tkir hamda oqilona jumlar aniq, go'zal satrlar bo'lib qog'ozga sochilardi. U yozgan felyetonlarini hatto bosmaxona yugurdagidan tahririyatga berib yuborishidan oldin qayta o'qimasdi ham.

Bugun esa sira tushunib bo'lmaydigan ish sodir bo'ldi. Bir nomi chiqqan adabiy to'garak bolalar sanatoriysi foydasiga adabiy almanax chop etishga qaror qilibdi. Ular Arefyevga almanaxda ishtirok etishni taklif qilishdi, yana kishiga yoqadigan ehtirom bilan undan «bilasizmi, iliqqina, o'quvchini yaxshigina ta'sirlantira oladigan biror narsa» kutayotganlarini bildirib qo'yishdi... Arefyev ularga bajonidil rozilik berdi, keyin, odatdagiday, bu haqda unutib yubordi va nihoyat, kecha unga odob-u nazokat bilan hikoyasi sabab kitobni chop etishni ikki kunga kechiktirishganini eslatib qo'yishdi: u nima qilishni bilmasdan, so'nggi chorani qo'lladi – o'ta muloyim ohangda hikoyani bugun oqshomdan kechiktirmasligini aytdi.

U kech soat yettida uyga qaytgach, odatdagidek, batartib odam harakati bilan siljima metall reflektorli chiroqni yoqib, chap tomonga surdi, oldiga bir dasta chiziqli qog'ozni qiyalatib qo'ydi, hatto patqalamni siyohdonga botirib ham oldi – birdan taajjubga tushdi, shunda nima yozishni bilmayotganini sezdi. Keskin, zahar tilli, o'quvchi yuragini kuydirib yuboradigan felyeton bo'lganda-ku, boshqa gap edi. Bunaqa paytlarda o'ta bozori chaqqon mavzular ham oyoq ostidan chiqardi-qolardi. Mana, masalan, hozir Arefyevning oldida «bizning yosh va iste'dodli shoirimiz» ommaga darsliklardan oq ma'lum-u mashhur bo'lgan Tyutchev she'rlarini maqtanib, o'z asari sifatida taqdim etgan «Adabiy ilova»ning so'nggi soni yotibdi. Yoki Sevastopol nogironlari uchun uyushtirilgan xayriya spektakli haqidagi mavzu ham yomon emas, chunonchi, yig'ilgan mablag' uch so'm-u yetti tiyinni tashkil etgani holda, janob havaskorlarning izvoshlari hamda ularni «choy» bilan siylashga uch yuz so'mdan ziyod pul sarflangandi. Lekin, afsuski, har ikkala mavzuda ham o'quvchiga ta'sir etib, uni ko'ngli yarim bolajonlar foydasiga cho'ntak kavlashga undaydigan hech nima yo'q edi.

Shunda Ilya Platonovich ko'nglida ijodkorlik izzat-nafsi qurtdek g'imirlaganini sezdi. Qanday qilib? Nahotki, u, Arefyev Pasxaga bag'ishlangan shunchaki bir hikoyani yozolmasa; ayni paytda, odatda, quturgan it va battol izvoshchilar haqidagi ruknni olib boradigan o'ta nochor muxbircha ham bunday bayramoldi asarlarga belgilangan odatiy imtiyozlardan tamshanib, tahririyatga allaqanday savdogar yoki qo'ng'iroqlarning quvnoq jarangi ostida asta mangu

uyquga ketayotgan kampir haqida qoralagan minnarsasini ko'tarib borishga ulgurandir. Nahotki, u shuncha yillardan buyon o'quvchi qalbida istehzo va g'azabnok kayfiyat uyg'otishga ko'nikib qolib, endi odamlar ko'nglida rahm-shafqat, muruvvat va baxtiyorlik hislarini uyg'ota olish iqtidorini butkul yo'qotgan bo'lsa? Nahot, uning iste'dodi ixtisoslashib qolib, ijodkorga xos eng bebaho xususiyat – ko'p qirralilikni yo'qotgan bo'lsa? Arefyev hamon divan qirradi va buyuk faylasuf byusti orasida jig'ibiyron bo'lib yurmoqda edi, istehzoga to'liq miyasiga esa, xuddi atay qilgandek, o'zi gazetaning payshanba sonida dunyo yuzini ko'rgan felyetonlarida ishtiyoq bilan ayovsiz «mazax» qilgan «xonimlar qissalari»dagi bir qolipdagi iboralar kelardi. «U deraza oldiga borib, qizib ketgan yuzini ko'zyoshlar kabi yomg'ir tomchilari yuvayotgan muzdek oynaga bosdi». «Knyaz o'zining muhtasham kabinetida u yoqdan bu yoqqa borib kelar, bu uning kayfiyati noxushligidan darak berardi». «Sokin may oqshomi. Quyosh alvon nurlarini har tomonga sochgancha botmoqda edi...»

Hikoyani ana shunday chuchmal, siyqa iboralar bilan yozib qo'ya qolsa, yaxshi bo'larmidi. Hamma narsaga piching bilan qarashdek eski odati Ilya Platonovichni yo'ldan ura boshladi. Ha. Mana bunday boshlasa ham bo'ladi: «Avliyo Stefan minorasida yarim tunda bo'g'iq bong urildi. Ko'rimsiz kulba burchagida baland bo'yli odam ko'rindi. Uning yuzi keng yomg'irpo'shi bilan to'silgandi. Patli shlyapasi va beliga qistirig'lik uzun shamshiri uning kiborlar nasabiga mansubligidan dalolat berib turardi».

Biroq Arefyev bu ahmoqona fikrni miyasidan haydadi-da, yana shinam jihazlangan xonasi bo'ylab betoqat yura boshladi.

– To'xta. Bu masalani bir chekkadan hal qilamiz, – dedi u o'ziga o'zi gapirgancha. – Birinchidan, kitobxonni to'lqinlantirishing va ko'nglini yumshatishing uchun, avvalo, o'zing nimadandir to'lqinlanishing va ko'ngling yumshashi kerak. Xonimlar qissalari-dagi yig'loqi, ta'sirchan hikoyalar yakunida keksa polkovniklar bari aybni haddan ortiq o'tkir tamakiga ag'darib, to'kadigan ko'z yoshni sen ham to'kib ko'rishing kerak. «Xonaga o'lik sukunat cho'kdi. Keks polkovnik o'z hikoyasini tugatdi va tinglovchilarga teskari o'girilgancha, cho'bug'ini devoro'choq panjarasiga urdi, negadir uni juda uzoq qoqdi. Nihoyat, u qaddini rostlab, ko'zlarini artgan-

cha, titroq ovozda bunday dedi: «Padariga qusur! Ammo tamakingiz juda o'tkir ekan, rotmistr!¹» «Bechora Zayraga nima bo'ldi?» – deb so'radi uzoq jimlikdan so'ng sochlariga sarg'ish atirgul qadalgan xonim. «U o'ldi!» – bo'g'iq ovozda javob berdi keksa polkovnik».

– Jin chalsin! Kallamga kelgan narsani qarang, tavba! – koyindi Arefyev va yo'lida duch kelgan kursini jahl bilan tepdi. – Bundan chiqdi, bemaza so'zlardan boshqa narsa aytolmaydigan latifadagi to'ti bo'libman-qolibman-da. Yo'q, mantiqan fikr qilib, qanday syujetlar bayramoldi bozori chaqqon bo'ladi, shuni o'ylab olamiz. Avvalo, albatta, o'zi tashlab ketgan eri huzuriga qo'ng'iroq ilk bong urishi bilan qaytayotgan yengiltabiat xotin. «Revolver uning qo'lidan tushib, taraqlagancha polda dumalab ketdi. U quchog'ini katta ochdi, ayol o'zini eri ko'ksiga otdi va ularning lablari uzundan-uzoq bo'sada jipslashdi...» Qisqasi, daf bo'lsin suyuqoyoq xonim!

Keyin pasxa oqshomi soqchilikda turgan askar mavzusini ham yozish mumkin. «Qamoqxonaning oy yoritib turgan oppoq devorida qandaydir qora ko'lanka paydo bo'ldi. Soqchi odatdagidek tepkini ko'tardi va ko'lankani nishonga oldi. Lekin shu on atrofga ibodatga chorlovchi qo'ng'iroq ovozi taraldi va qurol asta pastga tushdi... Hayajonga limmo-lim ko'krakdan chuqur xo'rsiniq otilib chiqdi» va hokazo. Yaxshi voqea, eski, ishonchli, sinalgan... Bo'lmaydi!..

Yana nimani yozish mumkin?.. Boyon uyining charog'on derazalariga qarab turgan qizaloqni ko'chada muzlatish fikriyam yomon emas. «Mayin qor yuzida baxtiyor tabassum qotib qolgan go'dakning harakatsiz qomatini asta qoplaganча, pag'alab yog'moqda edi». Aytmoqchi, bu Rojdestvo mavzulariga kiradi-ku – buniyam bir chekkaga surishga to'g'ri keladi.

Ilya Platonovich deraza oldiga bordi va ko'chaga loqayd qaradi. Sokin, oydin va iliq kecha; bu oqshomda bari ohista, bir maromda kechayotgandek tuyuladi – o'ychan osmon ham, tobora ingichkalahib borayotgan oy o'rog'i ham, akaslarning nozik butoqlari ham, hashamatli zim-ziyo binolarning shakl-shamoyillari ham. Tuyg'un va lanj havoda o'tkinchilar ovozi va ayol kulgisi yoqimli jaranglaydi, hatto faytonlar g'ildiraklari ham qandaydir o'ziga xos, bahoriy taq-tuq qiladi.

¹ Chor armiyasida: otliq zobit.

Ro'parada, ko'chaning narigi tomonidagi katta qandoltxona derazalari oldida juldur kiyimli bir to'p bola uymalashib turardi. Ular katta deraza oynalari ortida peshtaxtaga terib qo'yilgan g'o'la shaklidagi kattakon shirin nonlar, kulichlar, shakarli barashkalar-u' ipga osilgan rang-barang tuxumlardan ko'z uzmasdi. Bu bolalar negadir Ilya Platonovichning g'ashiga tega boshladi.

«Deraza oynasiga burunlarini taqab, yopishib olganlarini qarang. Anavi, qo'ltig'iga qolip qistirib olganini-chi, hoynahoy, uni xo'jayini buyurtmachi-zobitning oldiga jo'natgan bo'lsa kerak. U bo'lsa har bir deraza oldida tomoshalab, anqayib yuribdi. Kech qoladi-da, bayram deb kaltak yeydi, keyin gazetada bolalarga hayvonlarcha munosabatda bo'lishayotgani, ularni xo'rlashayotgani haqida xabar paydo bo'ladi. Sen ana shunga munosibsan, shum bola!.. Hm... Darvoqe, mana yaxshigina mavzu. «Rangpar, bemajol bola hashamatli qandoltxonada terib qo'yilgan kulichlarga havas bilan qarab turibdi. Kutilmaganda sahnada tilla halli ko'zoynak taqqan va albatta, qimmatbaho tulki terisidan po'stin kiygan sirli janob paydo bo'ladi (muqaddas bayram kunlari bu janob hayratlanarli kuchga ega bo'ladi!).»

Suhbat boshlanadi. Ma'lum bo'ladi, bolaning «otajon»isi o'lgan, qaddi kamondek bukilgan yuz yashar «bobojon»isi pechdan tushmay yotadi, «onajon»isi o'sal yotibdi, singlisi va hokazo, va hokazo».

– Meni o'sha yoqqa olib bor! – deydi qat'iyat bilan tilla soatli janob va yarim soatdan so'ng ona qarshisida yaxshi sharob va eng zo'r doktor yozib bergan dorilar paydo bo'ladi, boboni yormali bo'tqaga to'ydiradilar, unga issiqqina paxtali beldamcha olib beradilar, behol bola esa «ko'zlari quvonchdan charaqlab» arzonga tushgan pasxa², kamtargina kulich va o'ntacha qip-qizil tuxumlar bilan bezatilgan dasturxon atrofida sakraydi, tulki terisidan po'stin kiygan janob esa, hatto ismini ham aytmay, stol ustida oltin tanga to'la hamyon qoldirganicha, sezdirmay g'oyib bo'ladi.

Devor ortida soat bo'g'iq, musiqiy, sokin baritonda to'qqizga bong ura boshladi. Arefyevni birdan g'alati, shu paytgacha unga no-

¹ *Kulich, shakarli barashka* – Pasxa pishiriqlari.

² Bu yerda: tvorog solib pishirilgan shirin taom ma'nosida.

tanish bo'lgan ruhiy horg'inlik va anavi aftodahol bolakaylar, tashlab ketilgan erlar hamda sirli noma'lum kishilarga nisbatan kuchli nafrat hissi qamrab oldi. U keng charm divanga erinibgina cho'zilib, ko'zlarini yumdi.

Bordi-yu, hozir biror kishi Ilya Platonovichni ko'rganda edi, bu tili achchiq felyetonchiga, «birovning ustidan kulishni yaxshi ko'radigan janob mazaxchi»ga achinishi turgan gap edi. Uning yuzidan qon qochdi, birdaniga o'n yilga qarib ketgandek, peshonasidagi tashvishli ajinlari yanada chuqurlashdi, yumuq ko'zlari chanoqlariga botdi, lablari atrofidagi tirishlar esa pastga osilib tushdi va bu uning chehrasiga achchiq jirkanish ifodasini berdi.

Ammo Ilya Platonovich uxlamayotgandi. U to'satdan beixtiyor bir-biriga bog'liq yarim uyqu va bedorlik o'rtasidagi lanj holatga tushib qolgandi. Vaqt o'z ahamiyatini yo'qotdi. Xona devorlari olis zulmatga singib, g'arq bo'ldi va Arefyev xuddi haqiqat kabi rangorang, o'zgaruvchan, hayoliy hayotda yashay boshladi.

U o'zini bu hayotda ozg'in, paxmoqsoch, shum bolakay, xaroba shaharchadagi cherkov dyakoni, butxona ruhoniysining o'g'li sifatida ko'rди. Cherkovda nurli tonggi ibodat bo'lmoqda. Butxona xorining o'ng tomoni havaskorlarga to'la, ulardan protopopning¹ o'g'li, ta'tilga kelgan seminariya talabasi shoshilinch tarzda cherkov xorini tuzgan. Mana, ular xuddi tirik odamlar singari Arefyevning ro'parasida turib oldilar. Birinchi tenor, pochta idorasining mayda amaldori, yonidan oq qo'lqoplar tashlab qo'yilgan yap-yangi munda, moylangan boshini yaltiratganicha turibdi, undan gul isli atir bo'yi anqimoqda. U juda titroq tovushda biroz dimog'i bilan kuylaydi, yakkaxon ijro etayotganida esa beparvo devorga suykaladi, oyoqlarini betakalluflik bilan chalishtiradi, boshini orqaga tashlaydida, ruhsiz ko'zlarini yumadi. Regent² – ozg'in, baland bo'yli va salobatli odam – juda uzun syurtukda, hammani qoyil qoldirib, ravon harakatlar bilan dirijyorlik qiladi. Kamertonni³ ikki barmog'i bilan tutib, boshqa barmoqlarini nazokat ila bukkancha, onda-sonda chap qo'lini ogohlantirish va to'xtatish ishorasi bilan oldinga cho'zadi;

¹ *Protopop* – oliy martabali ruhoniy.

² Cherkov xori dirijyori.

³ *Kamerton* – dirijyor tayyoqchasi.

nafosat bilan chiroyli bukilgan o'ng qo'lini nozik joylarda astagina, ko'z ilg'ar-ilg'amas tarzda qimirlatadi; shunda qoshlari tepaga ko'tariladi, yuzida borgan sari hayrat, qo'rquv va mehr ifodalari aks etadi. Lekin forte¹ talab qilinadigan o'rinlarda u ikkala qo'lini keng yoyib, ohista silkitadi, boshini silkib, butun gavdasi bilan qimirlaydi va tahdid bilan burnini jiyirib, qoshini chimiradi. Ko'pas-savdogar o'g'li Nozdrunov xo'ppasemiz, qip-qizil bo'yinbog'i bo'ynigacha chiqib ketgan avzoda regentga shunday baqrayib va diqqat bilan qaraydiki, azbaroyi zo'r berib qaraganidan butunlay oldinga enka-yib oladi. Ko'pas o'g'lining mutlaqo eshitish qobiliyati yo'q, lekin u, protopopning o'g'li aytmoqchi, «noyob ovoz»ga ega, shuning uchun undan «taran»² singari quloqni nihoyatda qomatga keltiradigan o'rinlarda foydalanadi. Shunday joy kelganda dirijyor «noyob bas»ga³ o'giriladi, unga ko'zlarini olaytirgancha, kamertonli qo'lini uzuq-uzuq, xuddi birovgga qilich sanchayotgandek harakatlantirib, u tomonga cho'zadi. Shunda Nozdrunov qip-qizarib ketadi, peshonasidagi tomirlari bo'rtib, lablari titrab, shunday o'kiradiki, butun xor uning ovozidan bir zumga cho'kib ketadi.

Ilyushka birinchi qatorda turadi. U baxtiyorlik va itoatkorlik ifodalari limmo-lim ko'zlarini regentning yuzidan olmaydi, tobora cherkovni to'ldirib borayotgan, go'yoki yuqoridan son-sanoqsiz boshlar, yoniq chiroqlar, quvonchdan shodumon bo'lgan, bir xilda ko'rinayotgan yuzlarga qarashga deyarli vaqti ham bo'lmaydi.

Ibodot tugaydi. Pop va uning ortidan yo'l olgan xor ham cherkov panjarasiga qatorasiga tizib qo'yilgan pasxa va kulichlarni poklash uchun chiqadi. Tashqariga chiqayotgan bari odamlarni qo'qqisdan yorqin, ko'zni qamashtiruvchi bahor tongi quvonch bilan qarshi oladi. Moviy osmon, sabza maysalar, daraxtlarning xushbo'y kurtaklari, qabristondagi qarg'alarning asabiy qag'illashlari – bularning barchasi Ilyushkada charchoqdan so'nib borayotgan bayram kayfiyatini qayta qo'zg'aydi. U qo'ng'iroqlarning quvnoq jarangi orasidan begona ovozlarni arang ajratar, baland ovozda xor bilan birga kuylar, ayni paytda olomon unga qarayotganini sezgani uchun yuzida xud-

¹ Musiqaning kuchli chalinadigan qismi.

² Qadimda qal'ani buzish uchun ishlatilgan uchli yog'och qurol.

³ Bas – eng past erkakcha ovoz va shunday ovozli ashulachi.

di mushkul, jiddiy va muhim vazifani bajarayotgan odamniki kabi tashvishli ifodani ko'rsatmoqchi bo'lardi.

Ertasi kuni, albatta, qo'ng'iroqxonaga borib, qo'ng'iroq chalinishi kerak edi. Qadimiy, eski taomilga ko'ra, dastlabki uch kunda hammaga qo'ng'iroq chalish uchun ruxsat beriladi, axir, busiz Pasxa Pasxa bo'larmidi? Qo'ng'iroqxonaga olib chiquvchi zinalar qorong'i, chang bosgan va shunday tikki, hatto yuqoriga chiqib olgach ham, Ilyushkaning oyog'i qaltirab ketadi. Muzlab qolgan barmoqlari bilan panjarani tutib, unga yopishgancha pastga qaraydi. Vuy, qo'rqinchililigini, yana gashtli ham! Uylar qutiday jajji-jajji va yap-yangi, ham juda g'aroyib ko'rinadi. Oyoqlari ostida jarqaldirg'ochlar baland ovozda chag'illaydi, havoda aylanib uchadi, hurkkan kaptarlar qanotlarini yaltiratgancha aylanib osmonga parvoz qiladi. Butun qo'ng'iroqxona uzluksiz jarang-jurung ovozlardan shunday larzaga keladiki, baqirsang ham, o'z ovozingni o'zing eshitolmaysan. Bu hissiyotlar shunday g'alati, ajoyib, shunday yuragingni chulg'ab oladiki, qo'ng'iroqxonada kim qo'ng'iroq chalyapti, kim xursandchilikdan gul-gul yonyapti, kim kulyapti, bu moviy osmonmi yoki zavq-shavqdan, ko'ksi to'la hayratdan sarmast bo'lgan go'dak qalbimi, bilib bo'lmaydi.

Divanda yotgan rangpar, qarimsiq yuzli odam zaifona kulimsiraydi. Endi u yosh qalamkashlar kushandasi, o'taketgan mazaxchi, jamiyat manfaatlari va bemor bo'lgan shaharning shahvoniy hirs-ehtirosleri qozonida o'z hayotini nafrat va jirkanch tuyg'ulari bilan qovurayotgan Ilya Platonovich Arefyev emasdi. U endi o'zining qudratli hayvonsimon turmushidagi bari his-hayajonlarni ochko'zlik bilan yutib yuboruvchi quvnoq, beg'am, shumko'cha bolasi – dyakon o'g'li Ilyushka edi. Arefyev bir necha daqiqaga vujudida shunday softlik, pokizalik va tiniqlikni his qildiki, go'yo kimdir ko'rinmas qo'llarini siypab, ko'nglida qurum bosib yotgan nafrat, hasad, bezovta va qonmagan izzattalablik, hayotdan bezish va dilgirlikni mehr bilan muloyimgina sidirib tashlagandek bo'ldi. Shunda uning vujudiga Ilyushka bilan birga, nazarida, har nafasi sayin butun ranglar olami, turli tovushlar va islar olami – hamisha yangi, hamisha maftunkor va nihoyasiz rang-barang bayram olami bostirib kirgandek bo'ldi.

Ana shu ajoyib, serquyosh kunlar ko'z oldidan bir-bir o'ta boshladi. Hayolida boshqa manzaralar birin-sirin ulanib ketdi, ular borgan sayin g'amginlashib bordi – ko'ksidan g'ubori ketmagan dog'lar, biror muvaffaqiyatga erishish uchun asta-sekin ma'naviy qashshoqlashishga qarshi kechgan ayovsiz kurashlarning uzoq tarixi ko'z o'ngida namoyon bo'ldi. Ana shu beshafqat xotira Arefyev hamisha eslashdan bezib, yuragi orqaga tortadigan, cho'chiydigan o'sha olis Pasxa oqshomini ham yodga soldi.

O, bularning barini u aniq-tiniq eslaydi. Mana, Ilya Platonovich o'zining ilk katta hikoyasi uchun qalam haqi olayotgan tahririyat idorasi. Muharrir keksa, tund odam, gazeta ishlarining piri, yangi xodim qiyofasida gazetaga katta, o'ziga xos yangi kuch kirib kelayotganini anglab yetdi. U hozirgina o'z kabinetida navozish bilan Arefyevning qo'lini uzoq siqib turdi va nihoyat – tahririyat tarixida ko'rilmagan iltifot! – do'stona, betakalluf ohangda shunday dedi:

– Hikoyangiz ertaga ketadi. Sizga pul kerak bo'lsa, marhamat, uyalmang. Agar istasangiz, biz sizga korrektura tabog'i bo'yicha qalam haqi berishimiz ham mumkin.

Istaganda qandoq! Hozirgina Arefyevning o'zi ham «Uch so'm bo'nak berib turasizmi?» – deb so'ramoqchi bo'lib turuvdi-da. U yoqda, ijara kulbada uni, turli-tuman faqirlarga to'lgan uy chordog'i desayam bo'ladigan xonasida yuraklarini hovuchlab, qo'lida go'dagi bilan bir ayol kutib o'tiribdi. Ular o'sha xonada, qorong'ida yermoyi sotib olishga ham pullari yo'q o'tiribdilar, bugun ertalab tushlikka yegulik uchun yakka-yu yagona kulrang jun ro'molni sotdilar, u yoqda ijarador uy egalari, xizmatkorlar bor, u yoqda qashshoqlik va qahr-g'azab hukmron. Arefyev qaltiragan qo'llari bilan talonga imzo qo'yayotganida kaltabaqay, semiz, o'ziga bino qo'ygan va doimo nimadandir norozi qariya kassachi ranjigan to'tidek ustiga bir to'p kumush tanga qo'yilgan bir dasta qog'oz pulni u tomon surib qo'yadi.

Ha, bu Ilya Platonovichning hayotidagi omadsizlikda, ochlikda o'tgan, dars berishlar, yozish ishlari, kechki mashg'ulot o'tkazishlar kabi tasodifiy o'ljalarni shiddat bilan tutishdan iborat bo'lgan og'ir bir davr edi. Lekin nima uchundir ular xotini ikkalasi ana shu mashaqqatli qismatlarini shunday tetiklik, iroda bilan, noroziliklarsiz, bir-birlariga achchiq-tizziq ginalar qilmasdan, hatto taqdir ustidan

mag'rurona kulib, istehzo bilan qabul qila olishdi? Nega keyin, taqdir, nihoyat, ularga marhamat ko'rsatganida, Arefyev shuhrat qozonib, to'kin, farovon yashay boshlaganlarida, ularning ko'ngil dunyolari misli ko'pikdek parchalanib ketdi? Balki farzandi nobud bo'lgach, ularni birlashtirib turgan o'sha og'riqli, biroq mustahkam rishta uzilgandir.

O'zi, ana shu bolasi g'alati va ma'yus edi. Go'dakka onasi qornidaligidayoq g'arib, qashshoq hayotning nuqsi urganga, bolaga o'z ta'sirini o'tkazganga o'xshardi. Bir yoshga to'lgach, o'sishdan to'xtadi. Faqatgina uning kattakon, xuddi qandaydir rangsiz, badbo'y suv to'ldirilganga o'xshagan po'kak kallasi o'smoqda edi; lekin bola tanasi hamon nochor va o'zligicha qolgan, qurigan shox-butotoqchalardек ingichka qo'l-oyoqlari rivojlanmay, shalvirab turardi. Bolaning faqatgina ko'zlari boshqacha edi, katta-katta, yuvosh va ma'yus bu ko'zlarning rangi shunday ajoyib ediki, bu rang, Hayne aytmoqchi, na odamlarda, na hayvonlarda uchrar, uni ba'zi-ba'zida faqat gullarda uchratish mumkin edi, xolos. Bir umr harakatsizlikka mahkum etilgan bu bola o'ziga hamroh dardlarga g'ayritabiiy bir sabr bilan bardosh berardi. Doimo jiddiy, o'ychan bu go'dakning suyib gapiradigan gaplari Xudo, farishtalar, o'liklar, dafn marosimlari va qabristonlar haqida bo'lardi. U yaqin-orada o'lishini aniq bilar va hech qachon kulmasdi.

Oh, Ilya Platonovich o'sha Pasxa oqshomini shunday azob, iztirob bilan esga oladiki... O'shanda qo'lida qog'oz xalta bo'lib, xaltachalarning ko'pligidan eshikni tirsagi bilan ochishiga to'g'ri kelgandi. Uning orqasidan og'zi moylangani uchun marhamatli, iltifotli, tirjayib turgan hovli farroshi Arefyev aravadan tushirolmagan unlarini ko'tarib kelmoqda edi.

To'rtinchi qavatdagi hujrada ana shu Pasxa oqshomi shunday shodon o'tdiki... Uchta shamni ikkiga bo'lib, oltita qilib yoqdilar – uy hashamatli, charog'on bo'lib ketdi. Benzinkada (ilgari buni orzu ham qilmasdilar) tayyor to'qmoqlangan go'shtli kotletlar qovurilmoqda, uning yonida haqiqiy mokko navli qahva qaynamoqda edi. Dasturxonda kattalar uchun katta, bolakay uchun esa kichkina kulich va pasxalar turardi. Ilya Platonovich joyida o'tirolmadi. U Grishaning oldida ayiqqa o'xshab to'rt oyoqlab yurdi, qurbaqa bo'lib sak-

radi, qopag'on itga o'xshab irillab, bolaning issiq ko'kragini tishlamochi bo'lib o'ynashdi. U hali his qilib ulgurmagan to'qlik, mehr tafti va farovonlik tuyg'usidan, ayniqsa, dastlabki adabiy yutug'idan sarmast edi, bu muvaffaqiyatning og'uli achchiq lazzatini o'z tanasidan o'tkazmagan odam tasavvur ham qilolmaydi.

O'sha oqshom hatto Grisha ham o'zining qisqa kechirgan umrida ilk bora jilmaydi. U kulichga o'rnatilgan, bir oyoqli, qog'ozdan yasalgan farishtaga qo'lini cho'zganicha, yorug' tabassumdan chehrasi nogahoniy go'zallashb pichirladi:

– Farishta! Farishta!

E Xudo, ular qani, qayoqda? Arefyev xotinini bundan uch yil ilgari Nitsada juda kibor va keksayib qolgan, bo'g'inlari og'rigan qandaydir bir bemor qariya bilan birga ko'rgandi. Grishani esa o'zi baxtiyorlik bilan chorlagan farishtalar birga olib ketdilar...

Ilya Platonovich xuddi birov irg'itib yuborgandek divandan saphib turdi. Yuzi ko'zyoshlardan xo'l bo'lib ketgandi, biroq bundan uyalmadi, chunki ko'zyoshlar unga bir necha daqiqagina anchadan buyon his qilinmagan, inson yuragini poklaydigan va yumshatadigan teran insoniy dard-alam hissini baxsh etgandi. Xonada u yoqdan bu yoqqa yurarkan, derazadan qaradi. Juldur bolalar qandolatxona derazalari oldida hamon to'planib, sovqotgan oyoqlarini yerga tepinib turardilar. U boyagina «ozib-to'zib ketgan bolakaylar» va «tilla ko'zoynakli sirli janoblar» ustidan g'azab bilan zaharxanda qilganini esladi. Arefyev hozir ularga qarab turib, yuragida jirkanish emas, balki osoyishta, otalarcha mehrga to'la shafqat-muruvvatni his qildi.

«Biz hammamiz, – xayolidan kechdi uning, – u yoki bu jihatdan – qashshoq, oriq, tashlandiq bolalarmiz, agar biz sirli oliyjanob kishilarning borligiga ishonchimizni yo'qotsak, hayot qanday dahshatli kechgan bo'lardi!»

Shunda uning tasavvurida chordoqlarda muzlab qolgan, zax yerto'lalarda sovuqdan qaltirayotgan, ko'chalarda «Masih haqi»ni aytib, bezor qilib, yo'lovchilar ortidan yugurgan yalangoyoq bolalar sharpalari gavdalandi, hayotdan bezgan kattalar ana shu sof qalblar ortiga o'z ayblarini to'nkaydilar, qilgan xatolari, bir umr aldanib yashaganlarini yashiradilar, ana shular oqibati o'laroq, hali gapirishni eplar-eplamas qizaloqlar fahsh, ifloslik, oldi-sotdi buyumiga ay-

lanadilar, hali voyaga yetmay turib bolalar jinoyatga qo'l uradilar; oxir-oqibat, manglayi qora mayib-majruhlar ham, bukrilar, shirzadalar, jinnilar, tutqanoqlar, beshikdanoq irsiy kasalliklarga chalingan ham shu bolalar bo'ladi. Shunda Ilya Platonovichning quloqlari ostida barcha zamonlar va xalqlarning aqli, donishmandligini o'z salohiyatida mujassam etgan Sakya Munining ulug'vor hikmati yangradi: «Kimda-kim bir go'dak ko'z yoshini artsa va uning yuzida tabassum uyg'otolsa, marhamatli, ulug' Budda nazdida, o'sha kishi muhtasham ibodatxona bino etgan zotdan ham a'loroqdir».

Ilya Platonovich, mana, ikki soatdan buyon stoldan turmay ishlamoqda, uning qalami ostidan odatdagiday aniq, ravon satrlar to'kilmogda edi. U «Go'dak tabassumi» deb nomlangan bu maqolani qanday yakunlashini o'zi ham bilmaydi, lekin boshidagi sochlari osti yoqimli jimirlayotganini, yelkasiga esa unutilayozgan ilhom titrog'i yugurganini his qiladi. Hamon uning ko'z oldida favqulodda quvonchli tabassumdan yorishib ketgan bola chehrasi namoyon bo'lib turadi.

JAZO MASHINASI

Guberna zodagonlari kengash o'tkazadigan qo'sh qandilli katta zaldagi lojalar, parter va boloxonalar odamlar bilan liq to'la edi. Lekin shunga qaramay, zaldagilar shunday tinch o'tirardilarki, notiq bir qultum suv ichmoqchi bo'lib gapidan to'xtaganida, so'nggi pashshaning vizillab oynaga urilgani quloqqa eshitalardi.

Xonimlarning oq, pushti, havorang ko'ylaklari, ularning g'oyat go'zal yalang'och yelkalari va chiroyli boshlari orasida ixcham tikilgan mundirlar tovlanar, qorayib ko'rinar, kiyimlarga taqilgan qalin zarbof pogonlar yarqirar edi.

Xalq maorif vazirligi formasini kiygan yuzi zahil, faqat qopa soqol-u, yarqiroq, qora ko'zoynakdan iboratdek ko'ringan qotma, novcha notiq sahnada qo'lini stolga tirab turardi.

Biroq xaloyiqning ziyrak ko'zi unga emas, balki sahnadagi rampa¹ oldida turgan tagi keng, usti tor, kulrang, piramida shaklida yu-

¹ Sahnada o'rnatilgan, yorug'i faqat sahnaga tushadigan chiroqlar.

qoriga ko'tarilgan, odam bo'yidan balandroq, kanop jildga o'rog'liq g'alati va ulkan narsaga tikilgandi.

Notiq chanqog'ini qondirib, yo'taldi va gapida davom etdi:

— Aytganlarimdan qisqacha xulosa chiqaraman. Shunday qilib, janoblar, biz amalda nimani ko'ramiz?.. Baho qo'yish, taqdirlash va o'quvchilarning tafovutini ko'rsatish kabi rag'batlantirish ba'zi birovlarda hasad va ichi qoralikni, boshqalarda esa o'rinsiz g'azabni taraqqiy ettiradi. Hadeb bir narsani tez-tez takrorlanishi ta'lim-tarbiyaning ta'sirini yo'qotadi. Bolani cho'kkalattirib, yuzini burchakka qaratib qo'yish, chiroq, soat ostiga turg'azib qo'yish ko'pincha boshqa o'quvchilarga ibrat bo'lishga xizmat qilmaydi, balki ko'chadagi masxarabozlarni tomosha qilgandek maynavozchilikka olib boradi. Qamab qo'yish esa bekorga o'qish mashg'ulotlaridan qoldirishdan tashqari, o'quvchiga ijobiy zarar. Majburiy ish bo'lsa, xuddi ana shu ishning yuksak va muqaddas ma'nosidan bizni mahrum etadi. Och qoldirib jazolash zehn qobiliyatiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Yopiq o'quv yurtlarida uyga javob bermaslik faqat o'quvchilarni alamzada qilib qo'yadi va ota-onalarining noroziligiga sabab bo'ladi. Shunday ekan, endi qanday chora qoladi? Muqaddas kitoblardagi, kasal a'zoning davosi — kesib tashlash, toki boshqa a'zolarga yuqmasin, degan ta'limotga amal qilib, qobiliyatsiz, yengiltak sho'x o'quvchini maktabdan haydab, bahridan o'tish kerakmi? Afsuski, ha! Bunday chora, afsuski, taraqqiyotga yuz tutgan har bir davlatda goho o'lim jazosi muqarrar bo'lganidek muqarrar. Ammo bunday uzil-kesil oxirgi chorani qo'llashdan avval, boshqa chorani o'ylab ko'ramiz...


— Kaltaklasa, qanday bo'larkin? — deb do'rilladi birinchi qatorda o'tirgan to'lacha, garang bir mo'ysafid — mahalliy qutvoli. Shu onda u o'tirgan yumshoq kursi ostida yotgan tumshug'i yalpoq iti darg'azab bo'lib, xirillab vovulladi. General qayerga borsa, qo'lida hassa tutib, eshitish apparati va halloslagan qari iti — mops¹ bilan hozir bo'lardi.

Notiq unga ta'zim qildi va yoqimli iljaydi.

— Men bunday muxtasar va aniq ifodalashni xayolimgayam keltirmagandim. Janoblari asosan mening fikrimni naq o'zini gapirdilar.

¹ Tumshug'i yalpoq laycha iti.

The illustration shows a large, ornate structure, possibly a stage set or a piece of machinery, with a prominent vertical element on the left and a horizontal structure extending from it. The scene is enclosed in a decorative border.



The illustration depicts a stage set or a piece of machinery. On the left is a tall, dark, rectangular structure with decorative panels and a circular emblem. To its right is a long, white, rectangular table supported by four legs. Above the table is a large, curved, cylindrical structure with a grid of small, light-colored elements, possibly representing a lighting fixture or a decorative canopy. The entire scene is set on a dark, flat base and is framed by a decorative border with ornate corner pieces.

Ha, muhtaram afandilar va muhtarama xonimlar, biz hali qadim zamondan beri saqlanib kelgan ruscha eng yaxshi bir tadbir – jismoniy jazo to'g'risida gapirmadik. Holbuki, bu vatanparvarlik kuchli milliy an'analarga ega va yozmishga astoydil ishongan buyuk rus xalqi tarixining zamirida asosiy o'rinni ishg'ol etadi! Iso payg'ambarning havoriysi: eti sizniki – suyagi bizniki, deb aytgandilar. O'rta asr yozuvining tarixiy, abadiy yodgori – «Pandnoma»¹ ham padarlik qat'iyati bilan shunday deb pand-nasihah qiladi. Islohotchi buyuk podshohimiz ulug' Pyotrning mashhur gurzisini xotirlang. Abadiy barhayot Pushkinning hikmatli so'zlarini eslang:

*...Qanchalik qadimiy bo'lsalar
avlod-ajdod,
Shunchalik ko'p veganlar
kaltag-u tayoq.*

Nihoyat, donishmand bo'lmagan, oddiygina krepostnoy navkar tilidan gapirgan o'zimizning ajoyib Gogolimizni eslaylik: «Mujikni kaltaklash kerak, chunki u sho'xlik qilyapti». Ha, muhtaram afandilar, jismoniy kaltaklash usuli bilan jazolash butun rus tarixining hamma jarayonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi, shuning uchun men bu o'ziga xos rus hayotining eng chuqur zamirida tomir yoygan deb dadil aytolaman.

Biroq muhtaram afandi va muhtarama xonimlar, fikran moziyga cho'mib, buning oqibatida mutaassib bo'lib qolishimga qaramay, insonparvarlarning eng liberallarini qulochimni keng ochib qarshi olaman. Baland ovoz bilan ochiq aytishga jur'at qilamanki, shu vaqtga qadar amalda qo'llanib kelingan jismoniy jazolashda jazolanuvchiga haqorat va jazolovchiga xo'rlik keltiradigan joylari bor. Odam odamni bevosita jabrlashi, har ikki tomonda ko'rolmaslik, dahshat, g'azab, o'ch, nafrah va nihoyat, jinoyat bilan jazo o'rtasida qandaydir yovuz niyatdan, vahshiyona hirs qo'zgatishgacha olib boradigan tuyg'uni uyg'otishi muqarrar. Shunday qilib, afandilar, siz meni jis-

¹ «Pandnoma» («Domostroy») – ijtimoiy, oilaviy, xo'jalik va diniy masalalarni o'z ichiga olgan, inson hayotining barcha yo'nalishlariga taalluqli qoidalar, maslahatlar va pand-nasihahlar to'plami bo'lmish XVI asr rus adabiyoti yodgorligi.

moniy jazolashni inkor qilyapti, dersi? Ha, inkor qilaman, ammo odamni mashinaga almashtirib, yangi xil urishni yo'lga qo'yish uchun inkor qilyapman. Ko'p yillik mehnat, tafakkur va tajribalardan so'ng, men nihoyat mexanik odil sudlov g'oyasini ishlab chiqdim va jazo mashinasini ro'yobga chiqazdim. Yaxshimi-yomonmi – buni hurmatli majlis ahlining muhokamasiga tashlab, hozir mashinamni namoyish qilaman.

Notiq havaskorlarning spektakl kunlarida dekoratsiyalar joylashtiriladigan tomonga qarab bosh chayqab imladi. Shu ondayoq sahnaga mo'ylov qo'ygan bardam bir qorovul chiqib, rampa yonida turgan g'alati bir narsaning ustiga yopilgan brezentni olib tashladi. Yig'indagilarning ko'z o'ngida ko'ngilochar bog'larda bir miriga odamning og'irligini o'lchaydigan tarozilarga o'xshash, ammo murakkabroq va xiyla kattaroq, metall qismlari yaraqlagan mashina namoyon bo'ldi. Zodagonlarning majlislar zalida o'tirganlar ajablanganlaridan alanglab, boshlarini dam u yoqqa, dam bu yoqqa burib qaradilar.

Notiq apparatni ko'rsatib, qulochlarini keng yozdi.

– Mana, mehnatimning samarasi shu mashina! – dedi u hayajonli ovozda. – Mana shu apparatni haqqoniy ravishda, odil sudlov mashinasi deb atasa bo'ladi. Uning tarkibi juda sodda va oddiy, qishloq maktablarining byudjetigayam og'irlik qilmaydigan darajada arzon. Diqqatingizni apparatning tuzilishiga qaratishingizni so'rayman. Dastlab e'tiboringizni prujinalarga qurilgan yotiq sahn va unga olib boradigan osma zina o'ziga jalb etadi. Sahnda kichik kursi qo'yilgan bo'lib, uning suyanchigi elastik kirib-chiqib turadigan prujinalardan iborat, kursi yumshoq charm bilan qoplangan. Ko'rib turibsizki, kursining ostida oshiq-moshiqqa o'rnatilgan o'roqsimon dastak bemalol aylanadi. Yotiq sahn bilan kursiga tushgan og'irlikdan dastak muvozanatini yo'qotib, yarim doira shaklida chiziq tortib og'irlikka qarab besh vershokdan o'n sakkiz vershok balandlikkacha kursi tepasiga ko'tarilib, bir-biri bilan juftlashib tutashadi. Kursi orqasida ichi kovak ko'ndalangiga kvadrat shaklida kesilgan tikka cho'yan ustun qad ko'targan. Cho'yan ustunning kovagiga soat mexanizmi-ga o'xshagan to'rt pudlik qadoqtoshni va burama prujinani harakat-

ga keltiruvchi kuchli mexanizm joylashtirilgan. Cho'yan ustunning yonboshiga mexanizmni to'g'rilash va tozalash uchun kichkinagina eshikcha o'rnatilgan. Uning ikki dona kaliti – afandilar, ayniqsa, buni xotiringizda saqlashingizni o'tinaman – ma'lum tumanning bosh mirshabi va Rossiya bo'yicha mazkur o'quv yurtining boshlig'ida saqlanadi. Shunday qilib, jazo mashinasi bir ishga tushgandan keyin, agar unga zo'rlab shikast yetkazilmasa, ma'lum topshiriqni bajarmaguncha savalashdan to'xtamaydi. Mashinaning hamma qismlari og'ir hamda g'oyat mustahkam, sodda bo'lganidan unga zarar yetkazish ham amrimahol.

Soat mexanizmi ishga tushirilgach, tishli g'ildirak vositasi bilan cho'yan ichidagi, uncha katta bo'lmagan yotiq val harakatga keladi. Valning sirtida to'liq aylanmaydigan spiral chiziq bo'ylab val o'qiga tikkasiga sakkizta silliq egiluvchan uzun qamish yoki po'lat chiviq-lar o'rnatilgan. Bu chiviq-lar eskirib, titilib ketsa, yangisiga almash-tirilsayam bo'ladi. Yana shuni aytib o'tish zarurki, bu val vint yo'li bo'yicha o'ngga va chapga harakat qilgani uchun urish kuchi har xil.

Shunday qilib, val harakatga keldi, deb faraz qilamiz, u bilan birga po'lat chiviq-lar ham spiral doira chizib harakatlanadi. Har bir chiviq pastga bemalol aylanib o'tadi, ammo yuqoriga tikkasiga ko'tarilib, qarshilikka uchrab to'simga duch keladi. Dastlab chiviq bu yakka cho'p-to'simga o'zining uchi bilan taqaladi, keyin bu to'simga taqalib, ushlanib qolgan chiviq yoydek egilib, yakka cho'p-to'simdan zarb bilan sirg'anib chiqib ketadi-da, odamni shartillatib savalab qoladi. Yakka cho'p-to'simni yupqa metall taxtacha bo'ylab har tarafga, pastga yoki yuqoriga, har qanday balandlikka yo pastlikka maxsus zanjir-lo'kidon vositasi bilan surib o'rnatish mumkin bo'lganidan shu narsa ayonki, yakka cho'p-to'simni qancha pastga sursak, shuncha chiviq ko'proq egiladi va zarb bilan kuchliroq uradi. Shu tariqa biz jazo darajasini belgilaymiz. Buning uchun reyka, ya'ni yupqa metall taxtachada noidan yigirma to'rtgacha lozim bo'lgan taqsimot bor. Eng yuqoridagi not raqami, jazo sarti, ya'ni raniziy xarakterda bo'lgandagina qo'llaniladi, olti raqamini ishga solganda, odamning badani og'riq his qiladi. Quyi o'quv yurtlari uchun biz o'n raqami yozilgan taqsimotdan, o'rta maktablar uchun o'n besh, askar,

muzofot mahkamalari va talabalar uchun yigirma raqami yozilgan taqsimotdan, nihoyat, axloq tuzatish, mahbuslar uylari hamda ish tashlagan ishchilar uchun eng qattiq jazo, ya'ni yigirma to'rt raqami ko'rsatilgan taqsimotdan foydalanish kerak, deb hisoblaymiz.

Mana, mening ixtiromning asosiy loyihasi shundan iborat. Endi uning detallari haqida to'xtalib o'taylik. Manavi yon tarafidagi das-tak xuddi nag'maning sopiga o'xshaydi, bu apparat ichidagi spiral prujinalarning ishlashiga xizmat qiladi. Manavi yarim doirada ha-rakatlanuvchi mil valning tez, sekin va o'rtacha aylanishini bosh-qaradi... Ustunning eng tepasidagi oyna ostiga mexanik hisoblagich o'rnatilgan. Hisoblagichda paydo bo'ladigan raqamlar apparatning to'g'ri ishlashini nazorat etishga imkon beradi, ikkinchidan, statis-tik va taftish ishlari uchun xizmat qiladi. Bu maqsadni ijro etish uchun hisoblagich shunday qurilganki, u oltmish minggacha bo'lgan raqamni ko'rsatadi. Nihoyat, cho'yan ustunning oyoq tarafida, ja-noblar, kuvachaga o'xshash narsani ko'rasiz, buning tagida kattaligi likopchadek keladigan doira teshik bor. Bu teshikka manavi jetonlar-dan bittasi tashlanadi. Shundan keyin apparatning hamma mexaniz-mi bir zumda harakatga keladi.

Jetonlarning hajmi va og'irligi har xil: bir mirilik kumush tanga-dan tortib to bir so'mlik kumush pulgacha bor. Agar gunohi oz odam uchun teshikka bir mirilik tanga tashlansa, mashina kam jazo beradi, ya'ni besh marta uradi, bir so'mlik tanga tashlansa, roppa-rosa ikki yuz marta uradi. Mavjud jetonlarni mashinaga tashlab, turli usullar bilan undan xohlaganimizcha, ya'ni beshdan uch yuz ellikka qadar savag'ich «so'rab» olishimiz mumkin. Ammo... – dedi notiq va gap shu yerga yetganda, kamtarlik bilan jilmaydi. – Agar biz shu chek-langan raqamlarda to'xtab qo'ya qolganimizda, o'z zimmamizdagi vazifamizni bajarmagan bo'lardik.

Muhtaram afandilar! Ijizat etasiz. Hozir hisoblagich ko'rsatadigan raqamni qayd qilib xotiringizda saqlashingizni o'tinaman. Yana shu-ni aytishim kerakki, teshikka jetonni tashlamasdan oldin odam hech qanday xavf-xatarsiz apparatning zinapoyasida turishi mumkin. Muhtaram janoblar bunga shubhalanmasayam bo'ladi.

Shunday qilib, agar yanglishmasam, hisoblagich ikki ming to'qqiz yuz raqamini ko'rsatsa, demak, jismoniy jazo oxiriga yet-ganda, mil uch ming ikki yuz ellik raqamini qayd qilishi kerak.

Teshikka xohlagan narsani – xoh dumaloq, xoh uzunasiga, xoh ko'ndalangiga kesilgan bo'lsin – tashlasangiz, urish sonini beto'xtov bo'lmasa-da, loqal prujinaning kuchi yetguncha, ya'ni yetti yuz sakson-sakkiz yuzgacha orttirishingiz mumkin. Albatta, men jamiyatimizda jetonning odatdagi chaqa-tanga pullar bilan almashtirilishiniyam nazarda tutdim. Bunday hollarda har bir o'ziurar apparatga mis, kumush, tilla pullarning taxminiy og'irliq jadvali va urish soni ilova qilinadi. Buni manavi yerda, asosiy cho'yan ustunning yon tarafida ko'rishingiz mumkin.

Gapimni tugatdim hisob. Endi aylanadigan pillapoya, tebranib turuvchi kursi va o'roqsimon dastaning tuzilishi to'g'risida ba'zi izohlarni berish qoladi. Bular xiyla murakkabroq bo'lganidan, siz hurmatli jamoatga ularning ish-faoliyatini apparatimni namoyish etganimda ko'rsataman, hozir esa apparatimning ishini ko'rsatish uchun sizlardan ijozat so'rayman.

Jazolash tartibi quyidagidan iborat. Dastlab biz sinchiklab, jinoyatning sabab va xususiyatlarini tekshirib, qanday jazo berishni belgilaymiz, ya'ni urish miqdori, tezligi va kuchini, ba'zan chiviq-larning qanday materialdan ishlanishini aniqlaymiz. Keyin apparatni boshqaradigan odamga – mashina bo'limiga qisqacha bildirgi yozib yuboriladi yoki telefon qoqiladi. Apparatni boshqaruvchi mashinist nimaiki darkor bo'lsa, hammasini tayyorlab, darrov o'zi ko'zdan g'oyib bo'ladi. E'tibor bering, muhtaram afandilar, odam ketib, faqat xolis, adolatli jazo mashinasining o'zi qoladi!

Hozir mashinamni amaliy sur'atda tajriba qilib ko'ramiz. Charm qoplangan yog'och haykal gunohkor xizmatini o'taydi. Mashinani sizga yaxshilab ko'rsatish uchun, oldimizda juda katta jinoyatchi turibdi, deb faraz qilamiz.

– Qorovul! – deb qichqirdi notiq sahna orqasiga qarab. – Apparatni kichik tezlikda, yigirma to'rt raqamiga qo'ying!

Jimib dolgan odamlar diqqat-e'tibor bilan qarab turishadi, qorovul mashina dastasini buraydi, yakka cho'p-kesimni pastga tushiradi, ko'rsatgich milni surib qo'yib, sahna orqasiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ladi.

– Endi hamma narsa tayyor, – deydi notiq, – jazo mashinasining xonasida hech kim yo'q... Endi bizga faqat jazolanuvchi odam-

ni chaqirib, uni qanchalik gunohkorligi va qanday jazoga mustahiq bo'lishini tushuntirish qoladi, shuni e'tiborga olingki, muhtaram afandilar, jazolanuvchi qutidan lozim bo'lgan markani o'z qo'li bilan oladi. Buni, albatta, shunday uyushtirish mumkinki, u shu zahotiy oq markani stol ustidagi teshib qo'yilgan teshikchaga tashlaydi, marka maxsus tarnovcha orqali sirpanib to'ppa-to'g'ri qutichaga borib tushadi... Bu juda oson va bu asosiy masala emas. Shu ondan boshlab, ya'ni marka qutichaga tushishi bilanoq, aybdor tom ma'noda mashinaning hukmi ostida bo'ladi. U kiyim yechadigan xonaga o'tib, yechinadi. Eshikni ochib zinapoyaga qadam qo'yadi, jetonni qutichaga soladi va... albatta, uning orqasidagi eshik zich yopiladi. U zinapoyada qiyomat qoyim bo'lguncha tursayam, baribir jetonni qutichaga tashlashga majbur bo'ladi. Aks holda, muhtaram afandilar va muhtarama xonimlar, – deydi pedagog g'olibona tirjayib, – zinacha bilan apparatdagi sahn shunday ishlanganki, aybdor jetonni qutichaga tashlamasa, o'tgan har bir daqiqada, jazolanuvchining og'irligiga qarab urish soni beshdan o'ttizgacha ortib boradi. Gunohkor markani tashlashi bilanoq, pillapoya pastdan balandga va oldinga qarab aylanadi, kursi esa bosh tarafi bilan balandga tikka ko'tariladi, kursining taxta suyanchig'iga suyanib qolgan jinoyatchi uch tomondan: bo'yni, beli va oyog'idan o'roqsimon dastaklar bilan o'rab olinadi, kursi esa avvalgi yotiq holatiga qaytadi. Bular hammasi bir zumda, ko'z ochib-yumguncha amalga oshadi. Keyin xiyol o'tmay birinchi kaltak kelib tushadi, shundan keyin hech qanday kuch mashinaning harakatini to'xtatolmaydi va urish zarbini susaytirolmaydi, odil sudlov tamom bo'lmaguncha hech narsa mashina valining aylanish sur'atini kamaytirolmaydiyam, ko'paytirolmaydiyam. Kalitsiz buni bajarish mumkin emas.

Qorovul, teri qoplangan yog'och haykalni olib keling-chi! Zal-dagi hozir bo'lganlardan jazo mashinasi necha marta urishini aytish-larini so'rayman. Qandaydir biror sonni aytilsa bas, uch yuz ellik-dan oshmaydigan uch xonali sonni aytsalar, yana yaxshiroq bo'ladi. Qani, marhamat...

– Besh yuz! – deb qichqirdi qutvoli.

Xuddi shu payt uning stuli ostidagi iti vovullab qo'ydi.

– Besh yuz juda ko‘p, – deb muloyimlik bilan e‘tiroz bildirdi notiq, – ammo janoblarining istaklarini bajo keltirib, maksimal raqamni olamiz. Ha... mayli, uch yuz ellikni olaylik. Biz qutichaga ixtiyorimizdagi hamma jetonlarni tashlaymiz.

Shu payt qorovul charm qoplangan xunuk yog‘och haykalni qo‘ltig‘iga qisib olib, chiqib, polga qo‘ydi-da, orqasidan qo‘li bilan tirab turdi. Yog‘och haykalning qiyshiq oyoqlari, quloch yozgan qo‘llari, orqaga tashlangan kallasi juda xunuk va istehzoli ko‘rinardi.

Notiq mashinaning zinapoyasiga chiqib olib, gapida davom etdi:

– Muhtaram afandilar va muhtarama xonimlar! Yaqin kelajakda mening mexanik jazo apparatim keng ravishda tarqaladi. Asta-sekin hamma maktab, bilim yurtlari, harbiy bilim yurtlari, gimnaziya va seminariyalarda qabul etiladi. Bundan bo‘lak bora-bora jazo mashinasini armiya va flotga, qishloq hayoti, harbiy va fuqarolik turmalariga, mirshabxona, o‘t o‘chirish jamoalariga hamda haqiqiy rus oilasiga olib kiradilar.

Jetonlarni asta-sekin pul siqib chiqazishi muqarrar, shunday qilib, mashina faqat tannarxini oqlabgina qolmay, ortiqcha mablag‘ ham to‘playdi, bu pullar xayr-ehson va ilm-u urfon yo‘liga sarf etilishi mumkin. Bu mashina sharofati bilan bizning moliyaviy chatoqliklarimiz – abadiy boqimandalar ham yo‘qola boradi, chunki shu apparat yordami bilan azob berilganda, dehqon to‘lashi lozim bo‘lgan pulini, albatta, shu qutichaga tashlaydi. Odamlardagi turli nuqson, jinoyatlar, dangasalik, beparvolik yo‘qolib, xushyorlik, mehnatsevarlik, haddan oshmaslik, ehtiyotkorlik, tejamkorlik xislatlari barq urib gullaydi...

Mashinaning hamma afalliklarini oldindan baholash og‘ir, albatta. Ulug‘ Gutenberg o‘zining sodda yog‘och dastgohini yasaganda, kitob nashr etish insoniyat taraqqiyoti tarixida katta o‘zgarish qilishini oldindan ko‘rolganmidi? Ammo, muhtaram janoblar, men sizning oldingizda mualliflik faxr-g‘ururi bilan shug‘ullanishdan o‘zimni ancha uzoqdaman, deb hisoblayman, chunki menga faqat bu apparatning quruq nazariyasigina taalluqli bo‘lib, ixtiromni amaliy ishlab chiqishga shu yerdagi to‘rtinchi mahalliy gimnaziyaning fizi-

ka muallimi bilan muhandis X. janoblari katta yordam ko'rsatdilar.. Qulay fursat kelganidan foydalanib, ularga yana bir marta chuqur samimiy minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysiz.

Gulduros qarsaklardan zal larzaga keldi. Oldingi qator-da o'tirganlardan ikki odam o'rnidan turdi-da, qizarib-bo'zarib, o'ngaysizlanib, tomoshabinlarga ta'zim qildi.

– Men uchun esa, – deb gapida davom etdi notiq, – sevikli Vatanimga qilgan xolis xizmatimni his etishim kifoya, bundan tashqari, yaqinda men muyassar bo'lgan katta sharaf, ya'ni menga berilgan oq podsho hazratlarining suratlari solingan, nomim yozilgan soat va Kursk zodagonlari taqdim etgan «Similia similibus»¹ so'zlari yozilgan medal hamda kaminalariga qilingan g'amxo'rlik ulug' baxt-saodatdir. – U cho'ntagidan deyarli yarim qadoq keladigan qadimiy katta xronometr² soatni chiqarib, boshi uzra balandga ko'tardi; maxsus kalta zanjirchada oltin medal likillab turardi.

Notiq bosh egib:

– Muhtaram afandilar, men gapimni tamom qildim, – dedi tantana bilan ovozini pasaytirib.

Ammo hali qarsaklar boshlanmasdan turib kutilmagan dahshatli bir hodisa ro'y berdi: qo'qqisdan soat pedagogning balandga ko'tarib turgan qo'lidan sirg'anib ketib jaranglagancha qutichaga tushdi. Shu ondayoq mashina vishillab va shaqillab ishga tushdi. U turgan apparatning zinapoyasi birdan balandga ko'tarildi. Bir lahzaning ichida kursi pastga tushib, balandga ko'tarila boshladi, bir-birovlariga kelib qo'shilgan dastaklarning po'lat tig'lari yarqiradi. Formali frakning orqa etagi havoda hilpirab, zalda tars etgan bir tovushdan keyin ixtirochining «Voydod!» degan tovushi yangradi.

Mexanik hisoblagich 2901 raqamini ko'rsatdi!

Hozir majlisda nima bo'layotganini tez va aniq tasvirlash juda qiyin edi. Dastlab hamma odamlar bir necha daqiqa dovdirab, hayron bo'lib qolishdi. Jimjit bo'lib qolgan zalda beixtiyor halokatga tushgan kishining faryod qilib, o'kirib yig'lashi, chiviqlarning vizil-lashi, hisoblagichning shaqillashi eshitilardi. Keyin hamma sahnaga yugurdi.

¹ Shunga munosib kishi uchun (*lot*).

² Juda to'g'ri yuradigan, vaqtni aniq ko'rsatadigan soat.

– Xudo xayringizni bersin! – deb qichqirardi shoʻrlik ixtirochi. – Qutqaring! Xudo xayringizning bersin! Qutqaring!

Biroq unga yordam berishning hech iloji yoʻq edi. Jasur fizika oʻqituvchisi chiviqnlarni ushlab qolmoqchi boʻlib qoʻlini choʻzgani zahotiyoyq yana darhol tortib oldi, shunda zaldagilar uning qoʻli orqasida chiviqqlar qonli iz qoldirganini koʻrdi. Ishga tushgan yakka choʻp-toʻsim hech qanday kuchga boʻyin egmasdi.

– Kalit! Tezroq kalitni olib kel, – deb pedagog jon-jahdi bilan qichqirardi. – Kalit cholvorimning choʻntagida. Tez boʻl!

Xoʻjayiniga sodiq qorovul kelib tushayotgan chiviqqlardan arang oʻzini himoya qilib, pedagogning cholvorini titkilab koʻrdi, biroq choʻntakda kalit yoʻq edi.

Hisoblagich: 2950–2951–2952–2953 raqamlarini sharaqlab yoʻzib borardi.

– Janoblari, – dedi koʻziga yosh olib qorovul, – cholvoringizni yechishga ijozat bersalar. U hali yap-yangi... Agar yirtilib ketsa, odam achinadi... Xonimlar boʻlsa, birpas teskari qarab turishadi.

– Tur, yoʻqol, ahmoq! Voy-voy-voy! Xudo xayringizni bersin, afandilar!.. Voy, voy... esimdan chiqipti, kalit paltomning choʻntagida. Voy, voy, tezroq!

Paltoni olib kelish uchun dahlizga yugurishdi. Kalit paltoning choʻntagida ham yoʻq edi. Aftidan, ixtirochi kalitni uyda unutilib qoldirgandi. Kimdir uning uyiga borib kelishga talabgor boʻlib chiqdi. Zodagonlar sarkori unga borib kelish uchun oʻzining otlarini taklif qildi.

Daqiqa sayin, riyoziy aniqlik bilan chiviqqlar ketma-ket savalab urar, pedagog qichqirar, hisoblagich esa beparvo sharaqlab, urilgan raqamlarni aniq koʻrsatardi: 3180–3181–3182...

Qandaydir garnizon podporuchigi birdan qilichini qinidan sugʻurib, shiddat bilan mashinani chopa boshladi, ammo besh marta urgandan keyin qoʻlida qilichning sopi qoldi, sinib uchib ketgan qilich uchi mahalliy zemstvo¹ mahkamasi raisining oyogʻiga borib tegdi. Ixtirochining cholvori dabdala boʻlib ketdi. Hammasidan ham yomoni, mashina urishdan qachon toʻxtashini hech kim bilmasdi.

¹ Zemstvo – inqilobdan ilgari Rossiyada: chekli huquqqa ega boʻlgan turli mahalliy muassasalar nomi.

Har bir daqiqa yildek tuyulardi. Kalitga ketgan odam hamon qaytmas, hisoblagich esa ixtirochi belgilagan raqamlar chegarasidan allaqachonlar o'tib, xotirjamlik bilan 3999-4000-4001 raqamlarini ko'rsatardi.

Pedagog endi tipirchilamas, ko'zlarini olaytirib og'zini ochib yotardi, faqat qo'l-oyoqlari tomir tortishib, dir-dir titardi.

Ammo birdan qutvoli g'azabdan dag'-dag' qaltirab, fig'oni falakka chiqdi va qizarib-bo'zarib itining uvlashidek bir ohangda baqirib yubordi:

– Noma'qulchilik! Axloqsizlik! Bema'nilik! Tezlik bilan o't o'chirish jamoasi chaqirilsin!

Bu eng dono fikr edi. Mahalliy gubernator o't o'chirish jamoasi-ning ishini tomosha qilishga ishqivoz edi, ularning jadal, tez harakatlari qoyil qolardi. Salkam besh daqiqada, ya'ni jazo mashinasining hisoblagichi to'rt ming besh yuz elliginchi marta chiviqning urishini sharaqlab yozib ko'rsatarkan, bolta, lom, ilgak ko'tarib olgan azamat o't o'chiruvchilar estradaga bostirib kirdilar.

Ajoyib jazo mashinasi abadiy halok bo'ldi. U bilan birga bu haqdagi oliy g'oya ham o'ldi. Mashinaning ixtirochisi esa tan jarohati va asabiy kasallikdan uzoq vaqt og'rib yotgandan keyin o'z vazifasiga qaytdi. Ammo bu mash'um hodisa uning esini kirgizib qo'ydi. U bir umrga beozor, yuvosh, g'amgin chehrali odamga aylanib, lotincha va yunonchadan dars berishiga qaramay, tez orada shogirdlarining eng sevimli ustoz bo'lib qoldi. Shu-shu, u o'z ixtirosi haqida qayta gap ochmadi.

ZUMRAD OT

Beqiyos yo'rg'a Xolstomer xotirasiga bag'ishlayman.

1

To'rt yashar poygachi ayg'irni Zumrad ot deb atashardi. U bo'ychan, kulrang, qaddi tik, tanasi kumushrang edi. Odatdagiday yarim tunda sayisxonasida uyg'ondi. Unga yonma-yon, chap va o'ng, dahliz orqali o'tiladigan qarama-qarshi tomondagi otlar bir te-

kis, yoqimli tovushda pichan chaynashar, shirin g'irchillatib, ahyon-ahyonda pishqirib qo'yishardi. Navbatchi otboqar burchakdagi po-xol uyumi ustida xurрак otardi. Zumrad Vasiliyni xurragidan tanidi, beixtiyor kunlarni sanadi. U hali yosh yigitcha, otlar uni otxonada badbo'y tamaki chekkani uchun yoqtirishmasdi, tez-tez shirakayf ki-rib kelar, tizzalari bilan otlarning qorinlariga tepar, ko'zlariga musht ko'tarar, no'xtalarini qo'pollik bilan siltab tashlar, otlarga notabiiy, tahdidli, bo'g'iq yo'g'on ovozda baqirardi.

Zumrad eshik oldidagi panjara yoniga bordi. Ro'parasidagi eshikda yoshgina, qorachadan kelgan biya Shegolixa turardi. Yo'rg'a qorong'ida uni aniq ko'rolmasa-da, har gal pichan chaynashdan oldin bosh ko'tarib, orqaga qayrilib qarab qo'yar, katta-katta ko'zlaridan qizg'ish binafsharang olov sachrab ketar edi. Ot burun karraklarini ohista kengaytirib, uzoq vaqt havo simirdi, biyaning terisidan bi-linar-bilinmas kelayotgan to'lqinlantiruvchi hidni his etdi va asta-gina kishnab qo'ydi. Biya ham shitob bilan orqaga qarab, mayin, titraganday, mehr bilan o'ynoqlab kishnadi. Shu payt Zumrad yongi-nasida, o'ng tarafda rashkchil, qahrli nafasni eshitdi. Oraga Onegin aralashdi – qari, qaysar, qo'ng'ir poygachi ot, ko'pdan buyon ahyon-ahyonda faqatgina shahar birinchiliklarida qatnashib yuradi. Ikkala ot ham yupqa notekis taxtalar bilan ajratib qo'yilgan, bir-biriga ko'zi tushmasdi, biroq panjaraning o'ng burchiga yonboshlayotib, Zum-rad to'sqichlardan chaynalayotgan issiq pichan hidini tiniq tuydi, bu tez-tez nafas olayotgan Oneginning no'xtalaridan sizayotgandi... Ot-lar shu yo'sin biroz vaqt bir-birini qorong'ida hidlashdi, quloqlarini ko'tarishgan ko'yi bo'yinlarini egib, asabiylashishdi. Kutilmaganda ikkalasi birdan qahrlanib, bor ovozda kishnab yuborishdi, yer tepi-nishdi.

– Jim bo'l, jin chalgur! – Otboqar uyqusirab, tahdidli qichqirdi.

Otlar panjaradan tislanishdi va hushyor tortishdi. Ular avvaldan bir-birini yoqtirishmasdi. Uch kun oldin otxonaga qomati kelishgan qora biyani olib kelishdi, odatda bunday qilinmasdi. Bu poygachi ot-larga joy yetishmasligidan kelib chiqdi. Shundan buyon kunlari jan-jalsiz o'tmay qoldi. Otxonada ham, aylanada ham, sug'orilayotganda ham bir-birini olishuvga chaqirishardi. Biroq Zumrad ich-ichidan uzun bo'yli, niyati yovuz, yumaloq tuya tuyoqli, ko'zlari qayg'uli,

tanasi toshday mustahkam, yillar bo'yi yugurishlar, poygalar, olishuvlarda toblangan suyakdor ot oldida qo'rquvni his etardi.

Yo'rg'a o'zini hech nima bo'lmaganday, qo'rqmayotganday ko'rsatishga urinib, qayrildi, oxurga boshini tiqib, pichanni maydalab, tez-tez kavshay boshladi. Avvaliga tantiqlanib, o't-o'lanlarni saralab, terib yedi, chaynagani sari pichan shirinlashib ketdi, oxurdan bosh ko'tarolmay qoldi. Shunda xayoliga asta-sekin turfa o'ylar yopirila boshladi, xotirasidagi olis qiyofalar, hidlar, tovushlar bir-biriga ulanib, ayni chog'da qop-qora girdob ichida butkul yo'q bo'lib ketishardi.

«Pichar», – deb o'yladi va kechqurun pichan solgan katta otboqar Nazarni esladi.

Nazar – yaxshi qariya, undan hamisha xushbo'y qora non va salpal sharob hidi keladi, shoshmasdan yumshoq qadam tashlaydi, pichan va sulisi hammanikidan mazali tuyuladi, otlarni tozalayotganda yarim ovozda mehr bilan so'zlashayotib, yoqimli tarzda tomoq qirib qo'yadi. Unda katta, boshqalarga o'xshamaydigan alohida xislatlar yo'qday, faqat pichan solayotganda, jilov tortganda beo'xshov qo'llari titrab ketadi.

Vasiliy har qancha baqirib-chaqirmasin, olishmasin, qo'rqqoligi bor, buni barcha otlar bilishadi, undan qo'rqishmaydi. U otda yurrolmaydi, tortadi, nuqul aylanadi. Ko'zlari qiyiq uchinchi otboqar ikkalasidan ham yaxshi, lekin otlarni xush ko'rmaydi, beshafqat va besabr, qo'llari yog'ochday qattiq. To'rtinchisi – Andryashka, juda yosh, toychoqqa o'xshab otlar bilan o'ynaydi, no'xtalar orasidagi yuqori tablarini yashirib-yashirib o'pib qo'yadi, bu yoqimli ham, kulgili ham emas.

Baland bo'yli, oriq, bukchaygan, yuzlari tekis qirtishlangan va tilla ko'zoynakli chavandoz esa – butunlay boshqa gap. U o'xshashi yo'q otga o'xshaydi – aqlli, kuchli va qo'rqmas. Hech qachon jahli chiqmaydi, xipchin bilan urnaydi, biroq ustiga minganda tulpor uning har bir ishorasi, barmoqlarining harakatiga so'zsiz, allaqanday quvonch, g'urur va qo'rquv hissi bilan bo'ysunardi. Bu Zumradga cheksiz xursandchilik ato etar, yugurayotib, butun vujudi qaynab-toshar, naqadar ajib, baxtiyor damlar edi.

Otning xayolidan otchoparga olib boradigan qisqa yo'l, har bir uy, ustunchalar, to'shalgan qum, chopayotgan otlar, yashil maysalar, bog'ichlardagi sarg'ish dog'lar o'tdi. Uch yashar qora to'riqni esladi, u shu kunlarda oyoq chigilini yozayotganday oqsoqlanardi. Zumrad ham bir zum oqsoqlanib yurishni tasavvuriga keltirdi.

Bir dasta pichan og'ziga juda yoqdi, boshqalaridan o'zgacha, ajoyib ta'mi bilan ajralib turardi. Ayg'ir uni uzoq vaqt chaynadi, yutganida bir muddat qovjiragan gullar va maysalarning nafis xush bo'ylarini ilg'adi. Ot ongida noaniq, allaqanday ayqash-uyqash, uzoq xotiralar sirg'aldi. Bu kashanda odamlarda bo'lib turadigan holatga o'xshab ketardi, ya'ni – ko'chada popirisni beixtiyor churur tortganda ushlab bo'lmas soniya, eski gulqog'ozlar yopishtirilgan g'ira-shira dahliz va bufetdagi yagona sham yoki olis tun yo'li, qo'ng'iroqlarning tekis tovushlari, og'ir mudroq yoki yaqin o'rtadagi zangori o'rmon, qor, ochilib-ochilmayotgan ko'zlar, ko'chkilar guldurosi, ehtirosli betoqatlik, tizzalar qaltirashi – barisi bir daqiqada yelib o'tishadi-da, yurakni unutilgan, hayajonli, yelvizak hislar ohista, g'amgin va tushuniksiz qalqitib ketadi.

Qorong'ilikda bog'cha uzra hanuzgacha ko'zga ko'rinmas narsalar bo'zarib, zo'rg'a ko'zga tashlanardi. Otlar erinchoqlik bilan kavshanishar, birin-ketin og'ir va sekin xo'rsinib qo'yishar edi. Hovlida tanish xo'rozning jarangdor, tetik, karnayday keskin qichqirig'i yangradi. Olis-yaqinlardan xo'rozlarning birin-ketin xonishlari uzoq vaqt tinimsiz eshilib turdi. Zumrad boshini oxurga egib, unda boyagiday zarif, jonli, uzun xotiraning aks sadosi, g'aroyib ta'mini ushlab qolmoqqa va kuchaytirmoqqa urindi. Lekin uni tiriltirolmadi, o'zi ham sezmaganda holda mudray boshladi.

2

Uning tanasi va oyoqlari benuqson, mukammal ko'rinishga ega edi, tik turib uxlar, oldga va ortga sal-pal chayqalib qo'yar edi. Ba'zan titrab ketar, shunda shirin uyqusi bir necha onga yengil mudrash bilan almashar, biroq uzoq davom etmagan orom shu qadar ajoyib ediki, bundan otning mushaklari, asablari va terisi tiniqlashardi. U saharlab uyg'ondi, tushini esladi. Tushida erta ko'klam tongi,

ko'tarilayotgan qizg'ish shafaq, quyuq o'tloqni ko'rdi. Maysalar qalin va shirali, tiniq, ertakdagiday sehtli, yam-yashil, borliq mayin binafsharangda jilolanardi. Bunday manzarani ko'rish odamlar va jonzotlarga faqat bolaligida nasib etadi, xolos. Shudringlar miltirab shu'lalanar, tiniq havoda barcha-barcha islar ingichka jilvalanib, yoyilardi. Salqin havo oralab tutun isi uriladi, u qishloqdagi quvurdan esadi. O'tloq gullari turfa-turfa hid taratadi, shahar chekkasidagi namxush burama yo'ldan bir-biriga aralashib ketgan turli-tuman islar keladi: odamlar, qoramoy, ot yuklari, chang, o'tib ketayotgan podadan sigir sutlarining bug'i, devor ortidagi archa novdalaridan oqayotgan yoqimli qatron hidlari.

Yetti oylik Zumrad toychoq polda behol yotadi, boshini pastga tirab, orqa oyoqlari bilan tepinib-tepinib qo'yadi. U havodan tushganday tanasining og'irligini sezmasdi. Oppoq quruq moychechak gullari oyoqlari ostida uchib yurardi. U quyosh tomon parvozga intilardi. Ayollar tizzaga uradigan nam maysalar oralab o'tishar, maysalardan sovuqlik sachrar, bora-bora qorayib ko'rinar edi. Moviy osmon, yashil maysa, oltin quyosh, toza havo, bolalik, yoshlik hayratlari, kuch va poyga tezligi!

Biroq u qisqa, notinch, juda tanish kavshanishni eshitdi, buni minglab tovushlar ichidan olisdan bo'lsa ham bilib olardi. U yugurayotganda bir to'xtab olar, bir soniya quloq tutar, boshini baland ko'tarib, bejirim quloqlarini qimirlatib, kalta muloyim supurgi dumini bo'sh qo'yib, uzun quyma ovoz bilan javob berar, shunda tik, oriqroq, uzun oyoqli tanasi titrab ketar va onasi tomon chopar edi. Onasi – keksaygan, vazmin biya maysadan ho'llangan boshini ko'tarib, toychog'ini suyib, hidlab olardi-da, qilmasa bo'lmaydigan ishni bajarib qo'yishi kerakday, yana o't-o'lanlarni yeyishga tushib ketardi. Toychoq kichik bo'ynini egib, onasining qorniga tiqilib, yuzini balandga qayirib, shirin, salgina nordon sut bilan to'lib turgan issiq yelinni topib olar, sut uning og'ziga ingichka iliq jilg'achalarday sharillab tushar, undan ajralgisi kelmas edi. Onasi uni itarib, o'zini bolasining chotidan tishlab olmoqchiday ko'rsatardi.

Otxona butunlay yorishdi. Sersoqol, qari, badbo'y echki otlar orasida yashardi, ichkaridan qirrali narsa tiqib qo'yilgan eshik oldiga borib, orqaga, otboqar tomonga qarab, ma'ray boshladi. Vasiliy

oyoqyalang, patak sochli boshini qashidi-da, eshikni ochish uchun turdi. Salobatli kuz tongi sovuq edi. To'rtburchak eshik ochilishi bilan otxonadan chiqqan issiq havo bug'lanib ketdi-da, bir zumda qotib qoldi. Tollar va ularning to'kilgan yaproqlaridan kelayotgan yoqimli islar ohista sayisxona bo'ylab sirg'alardi. Otlar hozir yem berishlarini yaxshi bilishardi, sabrsizlik bilan panjaralar yonida pishqirib qo'yishardi. Ochko'z va injiq Onegin tuyoqlari bilan qoqib qo'yilgan yog'ochni yuqori tishlari bilan tishlab-tishlab, oxurning temir bilan parchinlangan, chaynab tashlangan bort qirralariga bo'ynini cho'zib, havo yutindi va kekirdi. Zumrad yuzini panjara yonboshlariga ishqaladi.

Boshqa otboqarlar ham kelishdi. Ular to'rt kishi edi – qat'iy o'lgangan miqdorda oxurlarga yem tashlay boshlashdi. Nazar og'ir shovdirab turgan yemni Zumradning oxuriga solarkan, tulpor yemga hovliqib, qariyaning yelkalari, qo'llari oralab, issiq no'xtalarini silkitib, bosh suqardi. Zumradning erka qiliqlari, besabrligi otboqarga juda yoqar, u ham ataylabdan shoshilmas, tirsaklari bilan oxurni to'sib olar, samimiy dag'allik bilan g'udranar edi:

– Obbo, ochofat-ey... Shoshilma, ulgurasan... Ha, seni-ya... qani, basharamga yana basharangni tiqib ko'r-chi. Men ham yomon qilaman...

Oxur uzra pastga qarab to'rtburchak ustunga quyoshning zarrin nurlari qiyalab tushib turar, unda millionlab tilla o'rgimchak iplari aylanishar, bo'linib-bo'linib, deraza gulqog'ozlariga uzundan-uzun soyalar solishardi.

3

Uni tashqariga olib chiqish uchun kelishganida Zumrad endigina yemni yeb bo'lgandi. Havo iliqlashdi, tuproq yumshadi, biroq otxonaning devorlari hali qirovdan oqarib turardi. Otxonadan olib chiqilgan, quyuq bug'lar chiqarayotgan uyum-uyum go'nglar ustida gujg'on o'ynayotgan qarg'alar bor ovozda qichqirishar, bir-birlari bilan janjallashayotganga o'xshar edi. Bo'ynini egibroq, ehtiyotkorlik bilan bo'sag'adan o'tayotib, Zumradni quvonch hissi qamrab oldi, toza havodan to'yib simirdi, bo'ynini silkitib, butun vujudi bilan jaranglatib aksirdi. «Sog' bo'l», – dedi Nazar jiddiy ohangda. Zumrad

bir joyda turolmasdi. U shitob bilan yelish, qitiqlovchi havo, ko'z o'ngida silkinayotgan no'xtalar, yuraklarning olovli qalqib ketishlari, chuqur-chuqur nafas olishni istardi. Ot qoziqqa bog'lab qo'yilgandi, orqa oyoqlari bilan o'ynoqlab, kishnadi, bo'ynini avaylab qayirdida, ortiga, qorato'riq biyaga qaradi, uning katta qora ko'zlaridagi qizil qon tomirlari chiziqclarigacha ko'rdi.

Nazar qattiq-qattiq nafas olib, bor kuchi bilan boshi uzra suv to'la chelakni ko'tardi va suvni tulporning yelkasidan oshirib, yag'rinidan to dumigacha quydi. Bu Zumrad uchun juda tanish, yoqimli va ba'zan kutilmagan holatlarni tug'dirguvchi dahshatli tuyg'u edi. Nazar yana suv keltirdi, yo'rg'aning yonboshlari, ko'kragi, oyoqlari, dumg'azasi ostiga sepalab chiqdi. U qadoq qo'llari bilan ot tanasini yunglari bo'ylab qattiq, bostirib ishqalab chiqar, suvlarni chaplashtirardi. Zumrad ortiga qarab, o'zining baland, quyoshda yaltirab, qoraygan va cho'g'lanib turgan sag'riniga ko'zi tushdi.

Poyga kuni edi. Zumrad buni o'ziga xos asabiy, shoshqin harakatlardan bilar, otboqarlar otlar atrofida aylanib, shapatilashlaridan sezar edi, ayrim otlar tanasiga nazokat nuqtai nazaridan odatiy belgilarni qo'yishar, biyalarga guldor terilarni ildirishar, ba'zilarning oyoqlarini qattiq bog'ichlar bilan bo'g'inlaridan tizzalarigacha o'rab tashlashar yoki ko'krak ostidan old oyoqlargacha yung bilan qoplangan keng qo'ltiqchalarini ham bog'lab qo'yishar edi. Saroydan xushbichim ikki g'ildirakli, baland o'rindiqli ajnabiy rusumdagi aravalarni olib chiqishdi, ularning metallardan yasalgan ignalari, qizil chambaraklari, keng tortilgan qizg'ish shotidagi yangi bo'yoqlar ko'zlarni qamashtirardi.

Otxonaning bosh otlig'i yetib kelguncha Zumrad butkul qurib bo'lgan, cho'tkalar bilan tozalangan, jun matodan tikilgan qo'lqoplar bilan artilgandi. Uzun bo'yli, oriqdan kelgan, biroz bukchaygan, uzun qo'lli bu odamni hamma birday hurmat qilar, ayni paytda undan odamlar ham, otlar ham qo'rqr edi. Uning yuzi kuygan, qirtishlangan, chizib qo'yilganday kulgili lablari qattiq, yupqa, egik ko'rinardi. U tilla ko'zoynak taqardi, ko'zoynak ortidan moviy, yorug' ko'zlari dadil va xotirjam tikilib turardi. Bosh otliq tozalash ishlarini kuzatar, uzun oyoqlarida baland etiklar, qo'llarini pantolonining cho'ntaklariga chuqurroq kirgizib olgan, sigarasini og'zining

goh bu burchiga, goh u burchiga olib-borib keltirar edi. Egnida – yoqasi yungli kulrang kurtka, boshida – ensiz hoshiyali va to'g'ri chizikli to'rtburchak soyabonli qora qalpoq. Ba'zan keskin, pala-partish ohangda qisqa-qisqa tanbehlar berar, shunda barcha otboqarlar va ishchilar unga qayrilib qarashar, otlar ham quloqlarini dikkaytirib, hushyor tortishar edi.

U Zumradning irg'ishlashlariga alohida e'tibor berar, otning butun tanasi, peshonasidan tortib tuyoqlarigacha qarab chiqar, tulpor ham uning mehrlini nigohini sezib, boshini baland ko'tarar, chiroyli bo'ynini asta egib qarar, yaltirab turgan quloqlarini tikkaytirar edi. U ot ayilining mustahkamligini ko'rди, qo'llari bilan qornini siladi. Otga kulrang matoli, qizil uqali, ko'z oldlariga qizil aylana qilib, orqa oyoqlariga qizil kashtali jul kiydirishdi. Ikki otboqar – Nazar va qiyiqko'z ikki tomondan Zumradning yuganidan ushlab, tanish ko'prik usti bo'ylab, ikki qatorli kamyob ulkan toshli binolar oralig'idagi otchoparga olib chiqishdi. Yugurish aylanasi gacha bo'lgan masofa to'rt chaqirimga ham yetmasdi. Otchopar hovlisida otlar ko'p edi, ularni doira bo'ylab bir yo'nalishda, yugurish aylanasi da, soat millarining teskari harakatida olib yurishardi. Hovlida metin oyoqli, dumlari kalta qilib kesilgan, do'g'aga bog'langan otlarni aylantirishardi. Zumrad oq tulporni darrov tanidi, ular doim birga, yonma-yon yugurishardi, ikkalasi bir-biri bilan so'zsiz, ko'zlari kulib salomlashishdi.

4

Otchoparda qo'ng'iroq chalindi. Otboqarlar Zumrad ustidagi julni olib tashlashdi. Chavandoz quyosh nurlaridan qamashgan ko'zoynak ostidagi ko'zlarini qisib, uzun so'yloq tishlarini irjaytirib, unga yaqinlashdi, yurgan ko'yi qo'lqoplarini kiyib olarkan, xipchinini qo'ltiqlab oldi. Otboqarlardan biri Zumraddagi bashang nimarsalar, dumidagi kapalaklarigacha yig'ib oldi, ularni ehtiyotkorlik bilan o'rindi qqa qo'ydi, bu bilan go'yo go'zal xotima yasadi. Ot gavdasining og'irligidan nozik arava shotisi tarang tortildi. Zumrad ortga ko'z qirini tashladi va otliqni ko'rди. U ot sag'riniga qulay o'nashib olib, oyoqlarini oldga tirab, arava shotisiga osiltirib turardi. Otliq

shoshilmasdan jilovni oldi, otboqarlarga ovozini jiddiy tarzda balandlatib gapirdi, hammasi birday qo'llarini ishdan tortishdi. Poyga sururidan quvonchga to'layotgan Zumrad shitob bilan oldga urindi, lekin uni kuchli qo'llar ushlab qoldi, orqa oyoqlarini ko'taroldi, xolos. Bo'ynini silkitdi va sekin-sekin yo'rtib, keng darvozadan yugurib chiqdi-da, otchoparga kirdi.

Hovlida har bir chaqirimda ellips shaklidagi yog'och ustunlar o'rnatilgan, sariq qum sepilgan nam va zich yugurish yo'laklari oyoq ostida g'irchillab, yoqimli ohangda qayishib ketar, bosim goh ko'tarilib, goh pasayib borar edi. Tuyoqlarning tekis va o'tkir izlari, temir chambaraklardagi to'g'ri chiziqlar iz solib borardi.

Minbar cho'zilganday ko'rindi. Ikki yuzta ot sig'adigan bu yog'ochli binoga baland ingichka ustunlar tirab qo'yilgan, qora-qura olomon oldga intiladi, guvillaydi. Zumrad jilovning yengil, eshitalar-eshitilmas silkinishidan tushundiki, qadamini tezlatlsa bo'ladi, xursand pishqirib qo'ydi. U bir tekisda yo'rtib borardi, belini urintirmasdan, yo'lga dadil tikildi, chiroyli bo'ynini chap tomonga qayirib, arava shotisiga qarab qo'yarkan, yuzini to'g'riga qaratdi. Otning betakror uzun-uzun qadamlari uzoqdan kuzatilganda yugurish tezligi katta emasdek taassurot qoldirardi, u shoshilmasdan yo'lni aniq o'lchab borardi, pargarga o'xshab, old tuyoqlari uchini yerga sal-pal tekkizib qo'yardi. Bu haqiqiy poygachi otning chiqishi edi. Yo'rg'a nafasini yumshatib olar, har bir qarshilikni oxirgi nuqtasigacha kamaytirib, qaytadan harakatlanish uchun barcha keraksiz urinishlarni olib tashlar, kuchi, go'zalligi ko'zni qamashtirar, u tirik, benuqson ishlaydigan mashinaga aylanganday tuyular edi.

Ikki yugurish oralig'idagi tanaffusda otlarni sovutish boshlandi, bunda ayg'irlar nafasini rostlab olishadi. Otlarning ko'pchiligi aylanada Zumrad bilan bir yo'nalishda, ichki aylanada esa unga qarama-qarshi tomonda yugurishardi. Tanasi kulrang, qora tanga-tangali, bo'yi uzun, yuzi oqish, bo'yni yumaloq, dumi quvurday, ko'rgazma otlariga o'xshash, nasli sof orlovcha bedov Zumradni quvib o'tdi. U yo'l bo'yi sergo'sht, keng, terdan qoraygan ko'kragi va ho'llangan chotlarini silkitib chopar, old oyoqlarini tizzasidan yon tomonga uloqtirar, har bir qadamida jigarining lo'qillagani eshutilib turar edi. Orqa tomondan tik qomatli, tanasi uzun, duragay naslli, qora yolli

biya kelib to'xtadi. U ham Zumradday ajoyib, poygaga puxta tayyorlangandi. Kalta, ozoda qalin mato unga shunday yarashib turardiki, hatto teri osti mushaklarining harakatlari bilinib turardi. Otlqlar bir-birlari bilan suhbatlashib borishardi, ikki ot birozgina yonmayon yurishdi. Zumrad biyani hidlab ko'rdi, yo'l-yo'lakay u bilan o'ynamoqchi bo'ldi-yu, bunga otlig'i yo'l qo'ymadi, ot bo'ysundi.

Ro'paradan dokalar, tizzabog'lar va qo'ltiqosti bog'ichlari bilan tang'ib tashlangan katta qora arg'umoq bor kuchi bilan yo'rtib, yelib kelar, o'ng tomonida yarim gaz keladigan uzunroq shoti do'ppayib chiqib turardi, boshi doira shaklida qattiq bog'lab qo'yilgan, temir tasmasi qayirib o'ralgan, beshafqatlarcha siqib tashlangan, og'riqdanmi, otning asabiy xiriliashi eshitilardi. Zumrad va biya bir vaqtning o'zida unga qarashdi, ikkalasi ham shu lahzada kuchli, chopqir va chidamli yo'rg'ani ko'rishdi, ayni paytda qo'rqinchli, qaysar, jahldor, kekchi va izzattalabligini his etishdi. Qora otning ortidan kulgili darajada kichkina, och kulrang hashamdor tulpor chopib o'tdi. Tashqaridan qaralganda, uni juda katta tezlikda yugurib ketyapti, deb o'ylash mumkin edi, oyoqlari bilan yerni tez-tez urib qo'yar, tuyoqlarini tizzasidan yuqoriga ko'tarar, afti-angoridan tirishqoqlik, ishbilarmonlik nuqsi ufurib turar, chiroyli, kichkina boshiga silliq bo'yni yarashgan edi. Zumrad unga ko'zlarini olaytirib, kinoya bilan qaradi, bir qulog'ini u tomonga qimirlatib qo'ydi.

Boshqa otliq suhbatini tugalladi, baland ovozda qisqa-qisqa xoxoladi, go'yo kishnab yubordi va biyani erkin yugurishiga qo'yib berdi. U hech qanday zo'riqishsiz, xotirjam chopardi, Zumrad bilan yo'llari ayrildi, oldinga qarab yugurdi, yaltirab turgan boshini orqa yelkasidan bilinar-bilinmas oshirib, qora tasmasini tarang va tekis tortib qo'ydi. Kutilmaganda tillarang-malla yo'rg'a shitob bilan sakradi, chopdi, uni Zumrad va oq biya oq to'sqichlar oralig'idan ko'rib turishardi, yo'rg'a ularni ortga irg'itib yubordi. U uzun-uzun qadam tashlab yugurar, ba'zan cho'zilar, ba'zan yerga egilib yo havoga ko'tarilib, old oyoqlarini orqa oyoqlari bilan birlashtirib olardi.

Uning otlig'i bor gavdasini orqaga tashlab, o'tirmasdi, tortilgan tizginga osilib, yotib olgandi. Zumrad hayajonlandi, chap bermoqchi bo'ldi, ammo otliq uning qizishib ketganini sezib, tizginni sezdirmay tortib qo'ydi, otning har bir harakatini oldindan bilguvchi epchil va

sezgir qo'llar birdan temirday qotib qoldi. Malla ot minbar atrofini yana bir bor aylanib chiqdi-da, Zumradni quvib o'tdi. U chopib borar, terga botib ketgan, ko'zlari qontalash, xirillab nafas olardi. Oldinga egilib olgan otliq zo'r berib beliga yaqin joylariga xipchin bilan savalardi. Nihoyat, otboqarlar darvozaga yaqin yerda uning yo'lini kesib chiqib, tizgin va yuganni ushlab qolishdi. Terga botgan, titrayotgan, zo'rg'a nafas olayotgan otni bir muddatga otchopardan olib chiqishdi.

Zumrad bor kuchi bilan yo'rtib, yarim aylanani bosib o'tdi, keyin yo'lga qayrildi, yugurish maydonini kesib o'tuvchi yo'ldan darvoza orqali hovliga chiqdi.

5

Otchoparda bir necha bor qo'ng'iroq chalindi. Har zamonda ochiq darvoza yonidan yugurayotgan otlar yelib o'tishar, minbardagi odamlar qichqira boshlashar, qarsak chalishardi. Zumrad boshqa otlar chizig'ida ko'pincha Nazar bilan birga qadam tashlardi, boshini osiltirib, u yoq-bu yoqqa silkitganicha g'ilof ichidagi quloqlarini qimirlatib qo'yardi. Sovutishdan so'ng tomirlaridagi qonlar osoyishta va qaynoq oqdi, nafasi chuqurlashdi, erkin tin oldi, vujudi shu qadar tiniqlashib, salqinladiki, butun mushaklarida yana yugurish istagi yonayotganini tuydi.

Yarim soat o'tdi. Otchoparda yana qo'ng'iroq chalishdi. Endi otliq otga qo'lqopsiz o'tirdi. Bu qo'llar oppoq, sehrli, keng, ayni paytda Zumradning qalbiga ham hayiqish, ham mehr tuyg'usini solardi. Otliq shoshilmasdan otchoparga chiqdi, bu yerda otlar sovutilgandan so'ng birin-ketin hovliga chiqishardi. Aylanada faqat Zumrad va u bilan o'tish joyida uchrashgan ulkan qora yo'rg'a qoldi. Minbardan olomon boshdan-oyoq quyuqlashib, qoraygancha ko'rinar, bu qopqora to'dada son-sanoqsiz, quvnoq, pala-partish chehralar, qo'llar tovlanar, rang-barang yomg'irpo'shlar, bosh kiyimlar ko'zga tashlanar, oq varaqdagi dasturlar havolanardi. Zumrad qadamlarini asta-sekin tezlatib, minbar yonidan yugurib o'tayotib, minglab ko'zlar kiprik qoqmay uni kuzatayotganini sezdi, bu ko'zlar ochiq-oydin undan yelday uchqur yugurishni, butun kuch-quvvatini ishga solishni, yuragi zarb bilan urishini istashardi. Bu idrok unga baxtiyor va tan-

tiq lahzalarni baxsh etdi. Tanish oq yo'rg'ada yosh bola o'tirar, oti Zumrad bilan yonma-yon, o'ng tomonda qattiq kishnagancha sakrab chopardi.

Zumrad tanasi chap tomonga sal egik holda tekis va qadamlarni o'lchab olganday yugurayotib, qayrilishni chamalab ko'rdi, qizil aylanadagi ustunga yaqinlashdi. Otchoparda qisqa qo'ng'iroq chalingi. Otlq bildirib-bildirmay o'zini o'rindiqa bazo'r o'nglab oldi, qo'llari qo'qqisdan qattiqlashdi. «Endi yur. Kuchlaringni avayla. Hali erta». Belgini tushundi Zumrad, bir lahza orqaga qayrilib, ziyrak quloqlarini dikkaytirdi. Oq yo'rg'a yonboshda tekis chopib borar, faqat ozroq orqada edi. Zumrad uning yag'rinidan kelayotgan yangi va tekis nafasni yaqindan eshitdi.

Qizil ustun ortda qoldi, yana bitta keskin burilish, yo'lakcha bo'ylab rostlanib, yaqinlashgani sari ikkinchi minbar qorayib ko'rinar, olisdan gurillayotgan olomon yanada qalinlashar, har bir qadamda o'sardi. «Yana! – qo'yib berardi otliq, – yana va yana!» Zumrad biroz shiddatlandi, bor kuchini yig'ib, zo'r berib, yugurishga sarflashni xohlardi. «Mumkinmi?» – o'yladi u. «Yo'q, hali bor, hayajonlanma, – deya uni sehrgar qo'llar tinchlantirardi. – Keyin».

Ikki yo'rg'a ham ustunlarni birday aylanib o'tishdi, faqat bu ustunlar diametring qarama-qarshi tomonida, ikki minbarni birlashtiradigan joyda joylashgan. Qattiq tortilgan iplar ozgina qarshilikdan ham uzilib ketishi mumkin, shiddat zarbidan Zumrad bir lahzaga quloqlarini berkitib olishga majbur bo'ldi. Biroq buni shu zahotiyuq unutdi, bor diqqatini ajoyib qo'llarga qaratdi: «Yana biroz! Qizishma! To'g'riga qarab yurish kerak!» – buyruq berdi otliq. Ot chayqalayotgan qop-qora minbar yonidan uchib o'tdi. Yana bir necha sargin va to'rtalasi – Zumrad va uning otlig'i, oq yo'rg'a va do'g'aga bog'langan, kavsharlangan, qisqa uzangidagi bola ot yolidan ko'z uzolmay, baxtiyor yuzlari yashnab, butun borlig'i bilan otni yugurtirardi, ularga erkinlik jarangdor musiqaday ilhom baxsh etar, har biri o'z vazifalarini a'lo darajada uddalashmoqda edi. Dupur-dupur! – yerni ravon qoqib boradi Zumrad. Dupur-dupur! – g'o'la bola qisqa va keskin ravishda qaytaradi. Yana bitta burilish va ikkinchi minbar tomonga yuguradi. «Men ham tezlataymi?» – so'raydi Zumrad. «Ha, – deydi qo'llar, – faqat shoshilma».

Ikkinchi minbar g'izillab o'tganini ilg'ab ham qololmaysan. Odamlar nimalardir deb qichqirishadi. Bu Zumradning e'tiborini tortadi, u qizishadi, tizginning haroratini-da sezmay qoladi, bir muddat ichida yo'llarni to'g'ri chamalab, o'ng tomondan to'rt marta qaysarlik bilan sakraydi. Biroq tizgin o'sha zahotiy oq qattiq tortiladi va otning og'zini achitib o'tadi, bo'ynini pastga o'rab oladi, boshini o'ng tomonga aylantirib tashlaydi. Endi o'ng oyoq bilan sakrash noqulay. Zumradning jahli chiqdi, oyoqlarini almashtirishni istamadi, otliq esa uning kayfiyatini payqab, sekin yo'rtishiga qo'yib berdi. Zumrad o'z maqomiga kirib oldi, do'stona qo'llar mayinlashdi. Zumrad xatosini tushundi, tezligini ikki barobar oshirishga urindi. «Yo'q, hali erta, – ochiq ko'ngillik bilan yupatdi otliq. – Biz buni to'g'rilashga ulguramiz. Hechqisi yo'q».

Ular havas qilgudek do'stlarday bir-birini anglab, hech qanday savalashsiz yana bir aylana va yarim aylanani bosib o'tishdi. Biroq qora ot bugun a'lo ko'rinishda edi. Zumrad ishni buzib qo'yganda, otliq yo'rg'a ustiga qalin matoni tashlashga muvaffaq bo'ldi, Zumrad go'yo yo'qotilgan vaqtni yo'qotib, oxiridan oldingi ustunga yetganda to'rtidan uch soniya oldinga o'tib oldi. «Endi – olg'a. Qani, yur!» – buyruq berdi otliq. Zumrad quloqlarini dikkaytirdi va bir marta ortga ilkis nazar tashladi. Otliqning yuzlari qizarib ketgan, keskin, qat'iy, besabr, sarg'ish, katta-katta, burishgan, qattiq qisilgan lablari yaltirab ketdi. «Endi o'zingni ko'rsat! – yuqoriga ko'tarilgan qo'llardagi tizginlar buyruq berardi. – Yana! Yana!» Otliq birdan keskin dirillagan, sirenalarday chinqiroq tovushda qichqirdi:

– O – e-e-e-ey!

– Mana, mana, mana, mana! – g'o'la bola o'tkir va jarangdor ovozda ot choptirib borardi.

Shiddat tuyg'usi eng baland cho'qqiga ko'tarildi, hozir uzilib ketgudek eng nozik tolada ilinib turardi. Dupur-dupur! – yerga oyoqlarini bir maromda urib borardi Zumrad. Dupur-dupur! – oldinda Zumradni ortidan ergashtirib kelayotgan oq yo'rg'aning sakrashlari eshitalardi. Arava shotilari chayqalar, sakrash maqomlari ko'tarilar, bola egarga o'tirib, ot bo'yniga batamom yotib olgan edi.

Shamol qarshidan kelar, quloqlar yonidan hushtak chalib o'tar, otning burun teshiklarini qitiqlar, bo'lak-bo'lak, katta-katta bug'lar

ko'tarilar, nafas olish qiyin, terisi qizib ketgandi. Zumrad so'nggi burilishni ham bosib o'tdi, butun vujudi ichiga tortib ketganday edi. Minbar tirikday o'sib borar, minglab tovushdagi qiy-chuvlar Zumradni ham qo'rquvga solar, ham hayajonlantirardi. Unda yo'rtish uchun boshqa kuch qolmadi, sakragisi keldi, biroq bu azamat qo'llar ham buyruq berar, ham tinchlantirardi: «Azizim, sakrama! Faqat sakrama!... Mana shunday, mana shunday, mana shunday». Zumrad ustun yonidan shitob bilan o'tib borarkan, nazorat ipini uzib yubordi, buni hatto o'zi ham sezmay qoldi. Minbardan qichqiriqlar, kulgi, qarsaklar sharsharaday oqib tushardi. Afishalarning oq varaqlari, soyabonlar, tayoqchalar, bosh kiyimlar chir aylanar, harakatlanayotgan yuzlar, qo'llar oralab lip-lip o'tardi. Otliq tizginni ohista tashladi. «Albatta, rahmat, azizim!» – dedi Zumrad va bor kuchini qiyinchilik bilan bo'lsa-da, ushlab turdi va asta-sekin qadam tashladi. Bu paytda qora ot qarama-qarshi tomondagi o'z ustuniga yetti daqiqa kechikib yetib kelgandi.

Otliq mashaqqat bilan uvishib qolgan oyoqlarini ko'tarib, Zumrad otning ustidan og'ir sakrab tushdi va baxmal o'rindiqni oldi, u bilan birgalikda tarozi tomon yo'naldi. Otboqarlar yugurib kelishdi. Uning issiq belini jul bilan yopishdi va hovliga olib chiqishdi. Olo-monning shovqin-suronlari, hay'at a'zolari davrasida uzoq chalingan qo'ng'iroq ovozi jaranglab turardi. Yengil, sarg'ish ter tomchilari otning yuzidan yerga va otboqarlar qo'liga tushardi.

Bir necha daqiqadan so'ng o'zini tutib olgan Zumradni minbar yoniga keltirishdi. Egniga uzun palto va boshiga yangi yarqirab turgan shlyapa kiygan baland bo'yli bu odamni Zumrad otxonada ko'p ko'rgan, u tez-tez kirib turar, bo'yinlarini shapatilab qo'yar, kaftiga bir bo'lak qand solib, otning og'ziga tutardi. Otliq ham shu yerda, odamlar ichida jilmayib turar, aftini burishtirib, uzun tishlarini takillatardi. Zumradning ustidan julni olib tashlab, uni quti oldida uch oyoqlatib qo'yishdi, qop-qora matoga o'ralgan quti ostida kulrang kiyimdagi janob yashirinib olganicha nimadir qilardi.

Odamlar minbardan qop-qora bo'tqa singari yoyilib tushib kelishar, bir-birini siqib, otni har tomondan o'rab olib, qo'llarini silkib, baqirishar, bir-biriga engashib, yuzlari qizargan, qizishib ketgan, ko'zlari yonib turardi. Olomon nimadandir norozi edi, har biri bar-

moqlarini Zumradga bigiz qilib, oyoqlarini ko'rsatar, bosh, qo'llarini yonboshiga tiqib olardi. Chap tomondan ot sag'rinidagi matoni hurpaytirib ko'rishdi, u yerda tamg'a ko'rindi, barcha bir ovozdan qichqirishga tushdi: «Qalbaki, soxta yo'rg'a, aldov, firibgarlik, pulni qaytaringlar!» Zumrad bu so'zlarni eshitar, ammo ma'nosini tushunmasdi, quloqlarini bezovtalanib qimirlatardi. «Ular nima haqda gapirishyapti? – hayron bo'lib o'ylardi u. – Axir, men juda yaxshi yugurdim!» Shu payt uning ko'zi otliqqa tushdi. Uning hamisha xotirjam, yengil kinoya bilan kulimsirab turadigan jiddiy ko'zlarida g'azab yonardi. U kutilmaganda baland bo'g'iq ovozda qichqirib yubordi, qo'llarini silkidi, banogoh uchgan tarsaki tovushi olomonning g'ovur-g'uvurini bo'lib tashladi.

6

Zumradni sayixonaga olib borib qo'yishdi, uch soat o'tgach, unga suli berishdi, kechqurun quduqdan sug'orishdi. Katta sariq oy devor ortida turgan otning qalbiga qo'rquv hissini soldi.

Shundan so'ng zerikarli kunlar boshlandi.

Uni boshqa ag'anatib o'ynatishlarga, sovutish, yugurishga olib chiqishmadi. Ammo har kuni notanish odamlar kelishar, hovliga olib chiqishar, obdan ko'zdan kechirishar, hamma joylarini ushlab ko'rishar, og'zini ochishar, chilvir toshga mahkam boylab, bir-biriga baqirishardi.

Kunlardan bir kuni uni kechqurun otxonadan olib chiqishgani, uzun, toshli, bo'm-bo'sh ko'chadan, chiroqlari yoniq uylarning yonidan olib o'tishganini esladi. Keyin – vokzal, dirillab turgan qopqora vagon, horg'inlik va titroq uzoq yo'lda oyoqlarini tark etmadi, parovozlar qichqirig'i, relslar guldirashi, tutundan tarqalayotgan dimiqtiruvchi hid, fonusning jilvagar chayqalishlari. Bir stansiyada uni vagondan olib chiqishdi, notanish yo'ldan uzoq olib yurishdi, keng, bo'm-bo'sh kuzgi dalalar, qishloqlar oralab o'tdi, nihoyat, notanish otxonaga olib kelishdi va boshqa otlardan olisroq joyga qo'yishdi. lekin qamashmadi.

Avvaliga poygalar, yugurishlar, qadrdon otlig'i, Vaska, Nazar va Oneginni esladi, ularni tez-tez tushlarida ko'rди, biroq vaqt o'tishi bilan hammasini unutdi. Uni kimdandir berkitishardi, otning yosh,

qaynoq va bemisl kuchga to'la vujudi sog'inch, noilojlik, harakatsizlikdan bo'shashib, so'lib borardi. Ba'zan yangi notanish odamlar kelar, Zumrad atrofida to'planishar, paypaslab ko'rishar, tortib tashlashar, asabiylashib, bir-birlari bilan janjallashishardi.

Ba'zan Zumrad tasodifan ochiq eshikdan boshqa otlarni ko'rib qolar, ular erkinlikda yurishar, chopishar, shunda u otlarga qarab, achchiq va mungli ovozda kishnab yuborardi. Biroq odamlar o'sha zahotiyoq eshikni yopib qo'yishar, yana tussiz kunlar, yolg'izlik tunlari boshlanardi.

Otxona boshlig'i – boshi katta, ko'zlari kichik, yuzi salqi, yupqa qora mo'ylabli odam Zumradga loqayd ko'rinardi. lekin ot undan tushunib bo'lmas qo'rquv hissini tuyardi. Bir kuni ertalab, hali boshqa otboqarlar uyg'onishmagan payt u sassiz, shovqinsiz, oyoq uchida Zumradning yoniga keldi, oxurga sulini tashladi va ketdi. Zumrad biroz hayron bo'lib turdi-da, bo'ynini egib, yeya boshladi. Sulini shirin edi, salgina achqimtil, biroq tansiq taom edi. «G'alati, – o'yladi Zumrad, – men hech qachon bunday sulini yeb ko'rmagan ekanman».

Kutilmaganda qornida yengil og'riq sezdi. Og'riq yana turdi, keyin to'xtadi, yana kuchaydi, daqiqa sayin zo'raydi. Nihoyat, og'riq chidab bo'lmas darajaga borib yetdi. Zumrad bo'g'ilib zorlandi. Uning ko'z oldidan olovli g'ildirak aylanib o'tdi, holsizlikdan butun tanasi terlab ketdi, zaiflashdi, oyoqlari qaltirab, bukildi va polga gursillab yiqildi. U turishga harakat qildi, faqat oldingi oyoqlarini ko'taroldi va yonboshga yiqildi. Otning boshida shovqin g'uvillardi, ko'z o'ngidan tishlarini g'ijirlatib otliqlar, baland ovozda kishnab-kishnab Onegin suzib o'tdi. Noma'lum kuch Zumradni shafqatsizlik bilan pastga, qop-qora va sovuq girdobga tortib ketardi. U endi qimirlolmasdi.

Qaltiroqlar avval oyog'i, keyin bo'ynini qotirib, belini sindirdi. Ot tanasini bir nafasda o'tkir hidli ter qopladi. Fonusning sirg'alayotgan sarg'ish nuri bir lahza uning ko'zlarini kesib o'tdi va so'nayotgan nigohlarida o'chdi. Ammo quloqlari hali odamlarning qo'pol qichqiriqlarini eshitar, afsuski, poshnalari bilan itarib, tepib ko'rishayotganini sezmasdi. Shundan so'ng hammasi birdan abadiy o'chdi.

LENOCHKA

Bosh shtab polkovnigi Voznitsin Peterburgdan Qrimga ketayotib, yo'l-yo'lakay yoshlik va o'smirlik davrlari kechgan Moskvada atayin ikki kun to'xtab o'tdi. Aytishlaricha, o'z o'limini oldindan sezgan aqlli jonivorlar, vidolashganday, uylarining qadrdon va sevimli burchaklarini aylanib chiqar ekanlar. Voznitsin hali-beri o'ladiganlardan emas, qirq besh yoshida o'zini yaxshi saqlagan, baquvvat edi. Biroq uning qiziqishlari, tuyg'ulari so'ngan, dunyoga munosabatida sezilar-sezilmas qarilikka moyillik paydo bo'lgandi. Hayotdan xursand bo'lishi, zavqlanishi kamayib borar, har bir harakatida ehtiyotkorlik sezilar, narsalarga ishonchsiz qarar, tabiatga bo'lgan g'ayrishuuriy, itoatkorona kuchli muhabbat o'rmini go'zallikdan jon-dili bilan bahra olish hissi egallagan, ayol go'zalligi uni ortiq bezovta qilmay, o'tkir hayajon uyg'otmay qo'ygan edi; asosiysi, ilgari u o'lim his-siga shunchaki qaragan, ya'ni o'lish, xuddi o'zi emas, Voznitsin degan boshqa odam o'ladigandek oson tuyulgan bo'lsa, endi bu o'y kechalari sochlarigacha muzlatib, yuragini qo'rquvga solmoqda edi. Endi o'lim uni beshafqat, qochib qutulib bo'lmas ayovsiz sharpaday ta'qib qila boshladi. Balki shuning uchun ham so'nggi bor eski joy-larda bo'lgisi, qadrdon, ko'ngilga yoqimli azob beruvchi, shoirona o'yga cho'mgan bolalik xotiralarini uyg'otgisi, ortga qaytmas bo'lib ketgan ilk taassurotlarining softligi bilan qalbini yoritgisi kelgandi.

U shunday qildi ham. Ikki kun davomida eski joylarni ziyorat qilganicha, Moskvani aylandi. O'zi olti yoshidan murabbiyalar qo'li ostida fryobelcha yo'sinda tarbiyalangani – Goroxovoye poledagi pansiyonga ham kirib o'tdi. U yerda hamma narsa o'zgarib ketgan va qayta qurilgandi: o'g'il bolalar bo'limi endi yo'q, lekin qizlar bo'limining sinf xonalarida, ilgarigidek, loklangan, shumtol yog'ochidan yasalgan stol va kursilarning yoqimli va xushbo'y hidi anqir, yana shirinliklarning, ayniqsa, har doimgidek javonda qulflog'liq turadigan olmalarning islari bir-biriga qorishib ketgan edi. Keyin u kadetlar korpusi¹ va harbiy bilim yurtini ham ziyorat qildi. Kudrindagi cherkovda ham bo'ldi – go'yoki bu yerda u kadet bolakay, egniga rido tashlab, ibodat qilish uchun qo'lida sham bilan

¹ Boshlang'ich harbiy-o'quv muassasasi.

Injil oldiga bormoqda, bir yo'la sham qoldiqlarini o'g'irlagan, ahd-lashuv¹ ishtirokchilaridan qolgan «iliqqina ichimlik»ni ichar va turli qiliqlar qilib kulong'ich rohibni kuldirar edi; shu qilig'i uchun bir marta hazrat – mehrob ortidagi Savaof ma'budiga juda o'xshaydigan basavlat, to'lagina qariya uni mehrobdan namoyishkorona quvib solgandi. Qachonlardir ilk sevgining sodda va bolalarcha azob-u iztiroblarini boshidan kechirgan uylarining ataylab har biri oldidan o'tdi, hovlilarga kirdi, zinalardan hatladi; ammo bu yerda hech nima-ni tanimadi – chorak asr ichida hamma narsa juda o'zgarib ketgandi. Biroq Voznitsinni hayot sinovlari loqayd qilib qo'ygandi. Shafqatni unutgan yuragi endi o'tgan kunlarni sovuqqonlik bilan xotirlaganida, ko'ksida o'sha o'ziga tanish qayg'u, o'sha yorqin, sokin, o'ychan va itoatkor qayg'uni his qilolmayotganini hayrat va afsus bilan sezdi.

«Ha, ha, bu qarilik nishonasi, – dedi u ichida ma'yuslanib. – Qarilik, bu qarilik... Na iloj.»

Moskva sayohatidan so'ng ish yuzasidan uning Kiyevda bir kun qolishiga to'g'ri keldi, Odessaga esa Pasxa arafasida yetib bordi. Lekin Voznitsin dengizda uzoq davom etadigan bahorgi po'rtana boshlangani uchun yengilgina to'liqindan ham behuzur bo'lishdan cho'chib, kemaga o'tirishga jur'at qilmadi. Faqat Pasxa arafasida shanba kuni havo ertalab bir maromda, shamolsiz bo'ldi.

Kechki soat oltida «Buyuk knyaz Aleksey» kemasi Prakticheskaya bandargohidan uzoqlashdi. Voznitsinni hech kim kuzatmadi. U bundan juda mamnun bo'ldi, chunki munofiqona va ezgin xayrlashuv tomoshasiga toqat qilolmasdi. Axir, nima uchun bortda yarim soatlab turib, pastda, kemabandda ma'yus turgan odamlarga zo'raki jilmayishing, ora-sira yasama ovozda atrofdagilarga bemaqsad va ma'nosiz so'zlarni aytib qichqirishing, havoyi o'pichlar yuborishing kerakligini o'zing ham bilmaysan. Nihoyat, kema asta-sekin, og'ir qo'zg'alayotganini sezib, yengil nafas olasan.

O'sha kuni yo'lovchilar juda oz, bori ham asosan uchinchi toifa yo'lovchilar edi. Xizmatkorning aytishicha, nufuzli kayutada, Voznitsindan tashqari, faqat bir xonim qizi bilan ketayotgandi. «Juda soz», deb o'yladi zobit yengil tin olib.

¹ Prichasheniye, cherkov marosimlaridan biri.

Atrofdagi hamma narsa osoyishta va ko'ngilli sayohat bo'lishini va'da qilmoqda edi. Unga eng yaxshi kayuta tegdi – katta va yorug', to'g'ri burchak ostida ikkita divan qo'yilgan. Dengiz tuni bilan asta to'lqinlanib, tinchlanib qolsa-da, hamon mavjlanib turar, lekin uncha chayqalmayotgan edi. Kechga borib paluba salqin bo'lib qoldi.

Voznitsin tunda illyuminatorni ochib qo'ydi. Shunday qattiq uxlabdiki, u yaqin oylar, hatto yillar ichida ham bunday uxlamagandi. Yevpatoriyada uni bug' chig'irlarining taraq-turug'i va palubadagi yugur-yugurlar uyg'otib yubordi. U tezgina yuvinib, choy buyurdi-da, yuqoriga chiqdi.

Kema ko'tarilayotgan quyoshning zarrin nurlaridan xira och pushti tusga kirgan tuman orasida turardi. Nariroqda yassi qirg'oqlar sarg'ayib ko'rinardi. Dengiz kema bortiga asta bosh urmoqda edi. Baliq hamda dengiz o'tlarining o'tkir, ajoyib hidi dimoqqa urilardi. Kemaga qapishib turgan katta barkasdan tugunlar va bo'chkalarni ortishmoqda edi.

Barkas uzoqlashib, kema yana yo'lga tushgach, Voznitsin oshxonaga tushdi. Bu yerda uni g'alati manzara kutib turardi. Devor bo'ylab katta bo'lma shaklida joylashtirilgan stollar rang-barang gullar va Pasxa taomlari bilan chiroyli bezatilgandi.

Quyosh nurlari illyuminatorlardan mo'l-ko'l sizib kirmoqda, dasturxonda zarrin iz qoldirmoqda, bo'yalgan Pasxa tuxumlarini yoqutdek yarqiratar, sumbul, bo'tako'z, binafsha, lola va kapalakgullarni jonli yog'du bilan yondirmoqda edi.

Bu yerga nonushta qilish uchun nufuzli kayutada ketayotgan birgina xonim ham tushdi. Voznitsin xonimga bir qur nazar tashlab qo'ydi. Xonim ko'rimsizgina va o'rta yoshli bo'lsa-da, baland bo'yli, biroq to'la qaddi-qomati yaxshi saqlangan, oddiy, biroq yaxshi kiyingan, egniga yoqasi va yenglariga ipak gullardan kashta tikilgan keng, och kulrang palto kiyib olgandi. Boshiga ko'kish rangli, deyarli harir sharf tashlab olgandi. Ayol choy ichib, kitob o'qimoqda edi. Kitob ixchamligi, hajmi, muqovasiga qaraganda farang tilida edi, shekilli.

Ayol Voznitsinga o'girilib qaradi. Shunda ayol unga bo'ynini burishi, qovoqlarining ko'tarilishi bilan qandaydir eski, juda tanish birovni eslatib yuborganday bo'ldi. Lekin bu g'ayrushuriy taassurot bir onda unutildi.

Birpasdan so'ng kun isidi. Uning palubaga chiqqisi keldi. Boyagi ayol ham yuqoriga chiqdi va shamoldan panaroqdagi kursiga o'tirdi. U dam kitob o'qir, dam uni tizzasiga qo'ygancha, dengizga, umbaloq oshib o'ynayotgan delfinlarga, olislashib borayotgan, yakkam-dukkam yashillik bilan qoplangan qizg'ish, qatlam-qatlam tik qirg'oqqa qarardi.

Voznitsin palubada birinchi toifa bo'lmasini aylanib o'tib, bortlar bo'ylab yurdi. Dastlab xonimning yonidan o'tarkan, ayol unga diqqat bilan qarab qoldi. Ayol unga shunday nigoh bilan qaradiki, birdan Voznitsinga xonim bilan qayerdadir uchrashgandek tuyulib ketdi. Bu o'y to'satdan miyasiga o'mashib qolib, uni bezovta qila boshladi. Muhimi, zobit xonim ham xuddi uning kabi tuyg'uni his qilayotganini sezib turardi. Lekin u hozir qanchayin zo'r berib eslashga urinmasin, hech narsani eslolmasdi.

Birdan, yigirmanchi marotaba bo'lsa kerak, zobit o'rindiqda o'tirgan xonimning ro'parasiga kelgach, beixtiyor joyida to'xtadi. Qo'lini harbiychasiga furajkasiga yaqin olib bordi va shporlarini jaranglatib, shunday dedi:

– Qo'polligim uchun meni kechirasiz... Biz tanishmizmi... Kechirasiz, to'g'risi... siz bilan bir vaqtlar tanish bo'lganmizmi, degan o'y menga tinchlik bermayapti.

Ayol ko'rimsizgina bo'lib, qoshlari siyrak, o'zi oq-sariqdan kelgan, sochlari yorqin rangdaligi uchun oqara boshlagani faqat uzoqdan seziladigan, moviy ko'zlarini o'ragan kipriklari ham rangsiz, sepkil toshgan yuz terisi solqigandi. Faqat chiroyli, nimpushti lablarigina o'zgarmagandi.

– Mengayam, siz bilan qayerda uchrashgan ekanmiz, degan o'y tinchlik bermayapti, – deya javob berdi ayol. – Mening familiyam Lvova. Bu sizga hech nimani eslatmayaptimi?

– Afsuski, yo'q... Meniki Voznitsin.

Birdan xonimning ko'zlarida tanish nur porlab ketdi, birdan Voznitsin uni tanib oladigandek bo'ldi.

– Voznitsin? Kolya Voznitsin? – Xonim unga qo'lini cho'z-gancha quvonch bilan xitob qildi. – Nahot endiyam tanimayotgan bo'lsangiz? Lvova – men erimning familiyasiga o'tganman... Ey, endi eslasangiz-chi! Eslang: Moskva, Povarskaya, Borisoglebskiy

tor ko'chasi, cherkov... Qani, bo'ling! Korpusdosh do'stingiz Arkasha Yurlovni eslang...

Birdan xonimning qo'lini tutib turgan Voznitsinning barmoqlari titrab ketdi. Bir lahzalik xotira nuri uning ko'zlarini qamashtirib yuborgandek bo'ldi.

– Voy Xudoyim-ey... Siz, nahotki, Lenochnka bo'lsangiz?... Ma'zur tutasiz... Yelena... Yelena...

– Vladimirovna. Unutibsiz. Siz Kolyasiz, o'sha qo'pol, uyatchan va jizzaki Kolyasiz-a?... Topdimmi? Ajoyib! Qanday g'aroyib uchrashuv!.. O'tirsangiz-chi, axir. Juda xursandman...

– Ha, – Voznitsin birdan hozir kimdir aytgan gapni aytib yubordi: – Dunyo shunchalik tor ekanki, har bir kishi axiyri bir kun bir-biri bilan, albatta, uchrasharkan. Gaping, o'zingiz haqingizda gapirsangiz-chi. Arkasha qalay? Aleksandra Miliyevna-chi? Olechnka yaxshimi?

Korpusda Yurlov bilan Voznitsin qalin do'st bo'lib qolgandi. Javob tekkan har yakshanbada uning uyiga borar, Pasxa va Rojdestvoda esa ba'zan ta'tilni o'sha yerda o'tkazardi. Harbiy bilim yurtiga kirishdan oldin Arkasha og'ir kasal bo'lib qoldi. Yurlovlar qishloqqa ketishga majbur bo'ldilar. O'shandan buyon ular dom-daraksiz ketgandilar, Voznitsin ularni yo'qotib qo'ygandi. Ko'p yillar oldin u kimlardandir Lenochnka uzoq vaqtlar bir zobitning qaylig'i bo'lgani, Jenishek degan g'alati, birinchi bo'g'iniga urg'u berib aytiladigan familiyali bu zobit o'zini qanday alfoz va xayolda kutilmaganda o'z-o'zini otib qo'ygani qulog'iga chalingandi.

– Arkasha qishloqda to'qsoninchi yili vafot etdi, – dedi Lvova. – U miya saratoniga yo'liqqan ekan. Onam Arkashadan keyin bir yilgina yashadilar. Olechnka tibbiyot kursini bitirdi. U hozir Serdob uyezdida zemstvo shifokori. Oldin u bizda, Jmakinoda feldsherlik qildi. Yaxshi joylardan chiqdi-yu, Olenkaning o'zi turmush qilgisi kelmadi. Men turmushga chiqqanimga yigirma yil bo'ldi. – Ayol g'amgin qimtilgan labining bir cheti bilan jilmaydi. – Qariyapman... Erim zamindor, zemstvo boshqaruvi a'zosi. U uncha ucharmas-u, halol odam, oilaparvar, boshqalardek ichmaydi, qimor o'ynamaydi, yomon yo'lga yurmaydi... Shunisigayam shukur...

– Yelena Vladimirovna, bir vaqtlar sizga oshiq bo‘lganim yodingizdami? – birdan uning so‘zini bo‘ldi Voznitsin.

Ayol kulib yubordi, shunda uning yuzi yasharib ketgandek bo‘ldi. Voznitsin ayolning qoplama tilla tishlari bir zum yarqirab ketganini ilg‘adi.

– Qo‘ysangiz-chi... bu shunchaki... bolalik-o‘smirlikdagi bir oshiqlik edi-da. Keyin bu chindan bo‘lmagan. Siz aslida mengamas, Sinelnikova xonimlarga, birin-ketin to‘rtalasiga oshiq bo‘lgandingiz. Kattasi turmushga chiqqach, siz qalbingizni keyingisining oyoqlari ostiga tashlagandingiz...

– A, demak, siz meni rashk qilgan ekansiz-da? – dedi Voznitsin mag‘rurona ohangda.

– Hecham-da... Siz men uchun Arkashaning akasidek edingiz. Keyin, keyinroq, yoshimiz o‘n yettiga yetgach, o‘shanda balki... menga xiyonat qilganingizdan ranjigandirman... Bilasizmi, bu kulgili, lekin yosh qizaloqlardayam ayol qalbi yashaydi. Biz ayollar indamas oshiqni, aslida, sevmasligimiz ham mumkin. Shunday bo‘lsayam, o‘sha oshiqni qizg‘anaveramiz. Qo‘ying, endi bularning bari behuda. Undan ko‘ra qanday yashayotganingiz va nima ish qilayotganingizni gapirib bering.

U o‘zi, akademiya shtabidagi faoliyati, urush, hozirgi ishi to‘g‘risida gapirib berdi. Yo‘q, u uylanmadi – oldin kambag‘alligi sabab bo‘ldi, keyin oila mas‘uliyatidan cho‘chidi, endi esa kech bo‘ldi. Albatta, kimlargadir oshiq bo‘ldi. Buni ko‘ngilochar xushtorliklar deymizmi, hatto jiddiy ishqi munosabatlar ham bo‘ldi, lekin...

Birdan ikkisining suhbatı bo‘linib qoldi. Ular biri-birlariga muloyim, ma‘yus tikilib qoldilar. Voznitsinning ko‘z oldidan yashin tezligida o‘ttiz yil oldingi voqealar o‘tdi. u Lenchka bilan tanishganida ikkalalari hali o‘n bir yoshga ham to‘lmagandilar. Lenchka ozg‘in va injiq qiz edi; urushqoq va chaqimchi, yuzlari sekilli, uzun qo‘l-oyoqlari xunuk, kipriklari oqish, doim malla sochlari to‘zib, yuziga tushib yurardi. Qizcha Voznitsin va Arkasha bilan kuniga o‘n martalab urushib, yarashardi. Ba‘zan u yer-bu yerlari shilinib ham qoldi... Oleshka o‘zini bir chekkada tutar, odobi va mulohazakorligi bilan ajralib turardi. Birgalikda archa bayramlari va bolalar tomoshalarini uyushtirishar, Pasxaga tuxumlar bo‘yashar va Rojdestvoga

tayyorlanishardi. Tez-tez ular kuchuklardek olishib, bir-birlari bilan o'ynashardilar.

Shu tarzda uch yil ham o'tdi. Yozda Lenchka, har doimgidek, oilasi bilan Jmokinodagi uyiga ketdi. Kuzda Moskvaga qaytganida esa uni ko'rgan Voznitsinning hayratdan og'zi ochilib qoldi. Qiz avvalgidek ko'rimsizligicha qolgan, biroq uning qiyofasida bir narsani payqash mumkin edi. Qizda go'zallikdan ham ajoyibroq bir hol yuz bergan – kutilmaganda oz fursatlar ichida kechagi qo'pol, oyoq-qo'llari beso'naqay qizchani birdan lozar qizga aylantirib qo'yishga qodir balog'atning ilk alomatlari paydo bo'lgandi. Lenchkaning chehrasida tomirlarida oqayotgan qaynoq qon jo'shqinligini ayon qilib turgan, qishloq qizlariga xos qizillik hali ketmagan, yelkalari to'lishib, qomati xushqad bo'lib qolgandi.

Shunda ularning munosabatlari keskin o'zgardi. Bunga bir voqea sabab bo'lgandi: shanba oqshomlaridan biri, kechki ibodatga yaqin Lenchka bilan Voznitsin nimqorong'i xonada avvalgidek sho'xlik bilan yoqalasha boshladilar. Tabaqalari ochiq derazadan dimoqlarga bog'dagi yerga to'kilayotgan kuzgi yaproqlarning mayin, xush bo'yi taralar va quloqlarga Borisoglebskiy cherkovidagi qo'ng'iroqlar bongining ketma-ket, bo'g'iq, hazin jarangi chalinardi.

Yigit bilan qiz qo'llarini bir-birlarining orqalariga jiplashtirganlaricha, yuzma-yuz turib qoldilar. Birdan oqshomning g'ira-shira yog'dusida ham sezsa bo'ladigan darajada qizarib ketgan Lenchka yerga qaragancha, to'liqlik ovozda xijolat bo'lib, shivirladi:

– Qo'ying... qo'yib yuboring... Istamayman... – Qiz o't chaqqan ko'zlari bilan yonib dedi: – Yomon bola ekansiz...

«Yomon bola» esa qaltiragan qo'llarini musht qilganча turardi. Uning oyoqlarigacha titroq turgan, peshonasi terlab ketgandi. U hozirgina qo'llari bilan nozik xilqat qomatini tutdi, badaniga tarang va mayin o'smir qiz ko'ksi tekkanini his qildi. Yosh yigit dimog'ida navnihol qiz bo'yini – terak kurtaklari va endigina butoq yozgan qorag'at novdalarining, bir onlik yog'ib o'tgan bahor yomg'iridan so'ng, osmon aks etgan xalqob suv isi, may qo'ng'izlari g'uv-g'uv etib uchgan sernam ko'klam kechalari taralgan, kishini mast etuvchi hidni tuydi.

So'ng Voznitsinning boshiga ilk sevgining azob-iztirobli kunlari tushdi. Ko'nglida bebosh va ushalmas orzularining achchiq iztiroblari qolib ketdi. Hayotida pinhona ko'zyosh to'kishlar davri boshlandi. U tabiatan odamovi va tortinchoqligi tufayli birdan jizzaki bo'lib qoldi. Oyoqlari tinimsiz ro'para kelgan kursilarni qulatar, qo'llari xuddi panshaxadek har bir narsaga ilinib qolaverar, sutli choyga to'lgan stakanlarni dasturxonga ag'darib yuboraverardi.

«Kolenkamiz butunlay o'zgarib ketdi-ya», derdi unga qarab achinganicha Aleksandra Miliyevna.

Lenochka esa Voznitsinni mazax qilgani-qilgan edi. Kolya uchun qiz rasm chizayotgani, yozayotgani yoki biror narsa tikayotgan paytida sekingina uning orqasida turib olganicha, egilgan go'zal, oppoq bo'ynini va ensasidagi mayin to'zg'igan sochlarini tomosha qilish, Lenochka nafas olganida jigarrang gimnaziya kiyimining oldi bo'shab, g'ijimlanib qolishini, nafas olganida esa yana to'lib, tor va tarang bo'lib qolishini kuzatib turishdan ortiq azob va baxt yo'q edi. Lenochkaning balog'atga yetgan qizlarga xos oppoq, nozik qo'llari va endi-endi kurtak yozayotgan terakning xush bo'yi yigitchaning xayolidan sira ketmas edi, uni tinimsiz ta'qib qilardi.

Voznitsin bari daftarlarini chiroyli qilib yozilgan, bir-biriga tutash E va Y harflari bilan to'ldirib tashladi, bu harflarni parta qopqog'i, o'q teshib o'tgan yurak o'rtasiga pichoq bilan o'yib yozdi. Qiz shubhasiz, ayollarga xos sezgisi bilan yigitning so'zsiz muhabbat va ehtiromini his qilib turardi. Biroq qizning nazarida, yigitchaga juda o'rganib qolgan, u haddan ortiq o'zlariniki, haddan ortiq odatiy edi. Qiz yigit uchun birdaniga misli yorqin mo'jizaga aylangan, Voznitsin esa qiz uchun hamon o'sha tor mundir va keng shim kiygan, ovozi do'rillagan, qo'llari qadoq va dag'al, yapaloq bolaligicha qolgandi. Qiz tanish gimnaziya o'smirlarga qilganiday, kalakasimon noz-karashma qilar, lekin tirmoqlarini qayrab, hamlaga tashlangan shum mushukdek, Voznitsinni ba'zan o'ynoqi, o'tli va quv nigohi bilan kuydirib, ermak qilardi. Birdan yigit o'zini yo'qotib, qizning qo'llarini qattiq qisib yuborardi, shunda Lenochka nimpushti nozik barmog'i bilan po'pisa qilganicha, ilmoqli qilib:

– Shoshmay turing, Kolya, bir oyimga hammasini aytib beray... – derdi.

Bu gapni eshitgach, Voznitsinning o'takasi yorilardi.

Shubhasiz, Kolya bu mavsum oltinchi sinfda ikkinchi yili ham o'qiydigan bo'ldi. Albatta, shu yozdayoq u Bogorodsk chorbog'ida-gilar davrasida birga raqsga tushgan opa-singil Sinelnikovalarning to'ng'ichini sevib qolishga ulgurdi. Biroq Pasxa arafasida uning sevgi to'la qalbi jannatiy rohatga limmo-lim to'ldi...

Voznitsin tonggi Pasxa ibodatini Yurlovlar bilan Borisoglebskiy cherkovida ado etdi, bu yerda uning maxsus gilamchasi va yumshoq yig'ma faxrli o'rindig'i bor edi. Lekin nima uchundir ular cherkovdan uyga birga qaytmadilar. Aleksandra Miliyevna Olechka bilan kulich va pasxalarni cherkovda poklash uchun qoldilar chog'i. Lenochka, Arkasha va Kolya cherkovdan birinchi bo'lib chiqib ketishdi. Biroq yo'lda, yerga kirdimi, osmonga chiqdimi, Arkasha birdan yo'qolib qoldi. Lenochka bilan yolg'iz qoldilar.

Qiz bilan yigit qo'l ushlab, olomonni epchillik bilan yorib o'tganlaricha, yo'lovchilarni quvib o'tib, baravariga odim otib borardilar. Bu ajoyib kechada ular hamma narsadan: cherkovda quvnoq aytilgan qo'shiqlar, ko'pdan-ko'p shamlar yog'dusidan, ko'chadagi bedor va baxtiyor kishilarning ko'pligidan, ko'klam osmonida yirik-yirik charaqlagan yulduzlar to'la samodan, devorlar ortidagi bog'lardan taralayotgan hali yangi, namxush barglar isidan, kutilmagan yaqinlikdan va yarim tunda ko'chada, olomon orasida birga ketishlaridan mast edilar. Voznitsin o'zini xuddi bilmasdan qilgandek tutib, Lenochkani qo'ltiqib oldi. Qiz ham asta yigitning qo'lini qisib qo'ydi. Shunda uning qo'llari qorong'ida qizning nozik barmoqlarini topib, asta silab qo'ydi, barmoqlar esa qarshilik qilmay, xafa bo'lib o'zini olib qochmadi.

Ular shu tariqa uygacha ketdilar. Arkasha, ular keladilar, deb darvozani ochiq qoldiribdi. Uyga kirish uchun – yolg'izoyoq taxta ko'prikdan o'tib borish kerak edi. Ular ortidan darvoza yopilishi bilan Voznitsin Lenochkaning qo'lini tutib, uning iliqqina, nozik barmoqlarini o'pa boshladi.

– Lenochka, sevaman, sevaman sizni...

U qizning belidan quchoqladi, qorog'ida qulog'i ostidanmi, o'pib oldi. Birdan uning qalpog'i ortga surilib, yerga tushdi, lekin yigit uni izlab o'tirmadi. Yigit qizning sovuq yonoqlaridan o'parkan, alahlagandek pichirladi:

– Lenochka, sevaman, sevaman...

– Keragi yo'q, – dedi qiz ham shivirlab. Shunda yigit uning ana shu shivirini eshitib, qizning lablarini topib oldi.

– Kerakmas... Qo'yib yuboring meni... qo'y...

Muloyim, qaynoq, bolalarnikiday sodda, no'noq lablar! Yigit bo'sa olganida, qiz qarshilik qilmadi. Qiz bu bo'salarga javob bermay, o'zgacha, ko'ngilni iydiradigan tarzda tez-tez, chuqur va itoatkorona nafas olardi. Yigitning ko'zlaridan esa yuzlarini muzlatib, xursandchilik yoshlari dumalardi.

– Lenochka... sevaman...

– Meni qo'yvoring...

– Lenochka!

Birdan qiz kutilmaganda zarda bilan:

– Qo'yvorsangiz-chi meni, yomon bola! Qarab turing, men hamma-hammasini onamga aytib beraman. Hozir! – dedi.

Qiz onasiga hech nima demadi, biroq o'sha kechadan so'ng Voznitsin bilan sira yolg'iz qolmadi. Shunday qilib, yoz ham yetib keldi.

– Yelena Vladimirovna, bir ajoyib Pasxa kechasi ikki yoshning og'iz-burun urishtirganlari yodingizdami? – deb so'radi Voznitsin.

– Mening hech narsa esimda yo'q... yomon bola! – deya javob berdi ayol muloyim kulgancha. – Ana, qarang, bu yoqqa qizim kelyapti. Hozir sizlarni tanishtirib qo'yaman... Lenochka, bu kishi Nikolay Ivanovich Voznitsin bo'ladilar, mening eski do'stim, bolalikdagi do'stim. Bu esa mening Lenochkam. Lenochka hozir o'sha Pasxa kechasidagi yoshimda...

– Katta Lenochka va kichik Lenochka, – dedi Voznitsin.

– Yo'q. Qari Lenochka va yosh Lenochka, – osoyishta va xotirjam ohangda e'tiroz bildirdi Lvova.

Lenochka onasiga juda o'xsharkan, lekin u onasining qizlik paytidan go'zalroq va bo'ychanroq ko'rinardi. Onasining malla sochlari bo'lsa, qizning sochlari qovurilgan yong'oq rangida tovlanar, qora qoshlari ingichka va qayrilma edi.

Qiz suzuvchi mayoqlarga qiziqdi, Voznitsin ularning qurilishi va vazifasini tushuntirdi. Keyin u turg'un mayoqlar, Qora dengizning chuqurligi, kemalar halokatlari haqida gapirib berdi. U chiroyli hikoya qilardi, shuning uchun qiz undan ko'zini uzmay, og'zini yarim ochganча tinglardi.

U esa... qizcha qaragani sayin, yuragi shuncha mayin va yorqin tuyg'ularga – o'ziga nisbatan achinish, unga, yangi Lenochkaga nisbatan quvonch, oldingisiga nisbatan esa sokin minnatdorlik hislariga to'lib borardi. Bu – uni Moskvada shuncha intiq qilgan o'sha tuyg'u, xudbinlikdan butunlay xoli bo'lgan yorug' tuyg'u edi.

Qiz Xersones monastirini ko'rish uchun ulardan uzoqlashganida, u katta Lenochkaning qo'lini olib, ehtiyotkorlik bilan o'pdi.

– Yo'q, baribir, hayot donishmand. Uning qonunlariga bo'ysunish kerak, – dedi Voznitsin o'ychan. – Ha, hayot go'zal. U – o'tganlarning abadiy hayotga qaytishidir. Mana, biz siz bilan ketamiz, qariymiz, yo'qolamiz, lekin bizning aqlimiz, ilhomlarimiz va iste'dodimizdan, tuproqdan hosil bo'lgandek, yangi Lenochka va yangi Kolya Voznitsin paydo bo'ladi... hammasi bir-biriga zanjirdek tutashib ketgan. Men ketaman, shu bilan birga, qolaman ham. Faqat hayotni sevish va unga bo'ysunish kerak. Biz hammamiz – o'lganlar va tirilguvchilar – birga yashaymiz.

Voznitsin yana ayolning qo'llarini o'pish uchun egildi, ayol esa uning kumush tusga kirgan chakkalaridan asta o'pib qo'ydi. So'ng ular bir-birlariga qaradilar. Ularning ko'zlari namlangan, muloyim, horg'in va g'amgin jilmayardi.

MILLIONER

Rojdestvoning uchinchi kuni pochta idorasining daftardori Rakitinnikiga bir necha odam mehmon bo'lib keldi. Bu hodisa chegara yaqinidagi diqqinapas, juda iflos Krasilov degan shaharchada yuz bergandi. Shaharcha aholisi qariyb uch ming yahudiy va dehqon – mazurlardan¹ iborat edi. Bular orasida bir guruh odamlar ajralib turar, ular alohida bir «jamiyat»ni tashkil etar edi. Pochtaxona

¹ *Mazurlar* – ko'chmanchi polyaklardan iborat Sharqiy Prussiyaning janubiy qismidagi aholi.

amaldorlari, chet davlatlarga «o'tish punkti»da xizmat qilib, turli tovarlarni o'tkazishga ruxsat beruvchi mutasaddilar, mahalliy mirshablar, ruhoniylar va o'qituvchi bilan uning xalfasi ham shu «jamiyat»ga mansub edi. Bayram bo'lmagan kunlarda ular ortiqcha xarajatlardan qochib, bir-birlarinikiga kamdan-kam borishar, Rojdestvo va Pasxa bayramlarida esa dabdabali tashriflar bilan bir-birovlarinikiga galmagal mehmon bo'lib borishar va «bazzmcha»lar uyushtirib, garmon yoki skripka sadosi ostida tongotargacha raqs tushishardi. Ziyofatlarda esa kartoshkadan tayyorlangan, yutumi og'ir, badbo'y sharob va xonaki ovqatlar bilan bir-birlarini siylashardi.

Rakitinnikidagi ziyofat dasturxonini uning torgina kvartirasi-ning birida, mehmonxona deb atalgan hujrada yozilgandi. Kichkina xonalardan biri yotoqxona edi. To'rda pochta boshlig'i Shmidt o'tirardi. U xomsemiz, a'zoyi badani suv bilan ko'pchigandek po'k odam, dunyoni suv bossa, to'pig'iga yetmas, «shtos» va «dyabelka»¹ o'yinlaridan boshqa hamma narsaga beparvo edi.

Shmidtning yonbosh tomonida aft-angori qorachadan kelgan, sap-sariq ko'zining oqlari ham sarg'aygan, past bo'yli, serg'ayrat uy egasi xushomadgo'ylik bilan ayyorona nazar tashlab, ruhoniyy Vasiliyning ro'parasida o'tirardi. Qolgan o'rinnlarni mirshab noibi, sobiq kazak zobiti – xushchaqchaq, ashulachi va janjalkash Pavlov va uning qarshisidagi o'rinni soch-soqoli o'sib ketgan, o'zini «mayxo'r havoriy» deb atovchi, rohibnusxa, g'amgin odam – o'qituvchi Musorin egallagandi. Eng quyida esa pochtaxona amaldori Aggey Fomich Maligin o'tirardi.

Umuman, Aggey Fomich imkon qadar mehmondorchilikka borishdan o'zini tortar, chunki buning evaziga ularni ham, albatta, chaqirish kerakligini yaxshi bilar edi. Pochtaxona amaldorlari orasida eng kambag'ali ham shu Maligin edi. Uning qaramog'ida besh bolasi bilan xotini hamda kampir xolasi bor edi. Oyida oladigan yigirma ikki so'mlik maoshi ularni boqish va kiyintirishga yetmasdi. Zaruriyat yuzasidan chor-nochor o'tkazilgan ziyofatlar ro'zg'orini xarob qilar, «bazzmcha»lardan keyin ro'zg'orida ro'y bergan «o'pirilish»ni qayta tiklash uchun kundalik xarajatlarini haddan tashqari qisqartirish talab qilinar edi. Ancha vaqtgacha butun bir xonadon go'shtli

¹ «Shtos» va «dyabelka» – qarta o'yinlari nomi.

sho'rvadan, ertalabki choydan mahrum, o'tinni ayab yoqishga majbur bo'lar edi.

Goho pochtaxonani taftish qilishga kelgan boshliqlar Aggey Fomichning o'ngib ketgan va choklari so'kilib, yamoqlar tushgan, tirsak va yoqalari ishqalanaverib yiltillab qolgan eski mundiriga noxushlik bilan qarardilar.

Agar Maliginni o'ziga beparvoligi, irkitligi uchun bo'shatib yu-bormagan bo'lsalar, buning sababi shu ediki, uning novcha, ozg'in bo'yi, sepkilli qonsiz yuzi, siyrak va kalta soqol-mo'ylovlari, yupqa lablari bilan nursiz moviy ko'zlarining itoatkorona muloyim jilmayishi har kimda ham achinish hissini uyg'otardi.

Bu ziyofatga ham Aggey Fomich bir zaruriyat tufayligina kelgan: uning jag'ini hamma vaqt ro'mol bilan bog'lab yuradigan kasalmand zaifasi ko'zi yorish oldida turardi. Boz ustiga, katta o'g'lining etik charmi ko'chib, dabdalasi chiqib ketgandi. Unisi ham, bunisi ham pul talab qilar, ammo Aggey Fomichning sariq chaqasi ham yo'q edi. Ahvoli ortiq darajada tang bo'lganidan Aggey Fomich o'zining tortinchoqligini yengib, Rakitinnikida o'tkazilayotgan kechada kimdan bo'lsa ham bir necha so'm pul qarz so'rashga qaror qilgandi. Mana, u hozir mehmondorchilikda iztirob chekib o'tirar, avvalgidan ham rang-ro'yi oqargan, yuragi po'killar, asabiy holda qo'llarini bir-biriga ishqab, o'z «dard»ini aytishga qulay fursat kutardi. U uy egasini ortiqcha chiqimdor qilishdan qo'rqib, o'ziga uzatilgan taomlarni shoshib-pishib qaytarar va bundan xijolat tortib qizarib ketar edi. Bu faqat kambag'al odamlargina tushunadigan sir edi.

Mehmonlar esa bahuzur yeb-ichib, zamindor to'g'risida, okrug pochtaxona boshlig'i, mahalliy arxiyerey¹ hamda bu yilgi g'alla hosili to'g'risida ezmalanib, bafurja gaplashib o'tirishardi. Odamni zeriktiradigan bu gaplar chaynalaverib hammaning joniga tek-kandi. Har bir odam hamsuhbati og'iz juftlashi bilanoq uning nima to'g'risida gapirishini bilib olardi.

Aggey Fomich uch-to'rt marta o'z «dard»ini aytishga qulay fursat keldi deb o'yladi. Uning nazarida, mehmonlar umumiy gaplar bilan ovora bo'lganlarida, engashib, hech kimga sezdirmay mirshab noibi yoki o'qituvchidan pul so'rash mumkin edi. Avvalo, ularning

¹ Yuqori darajali cherkov ruhoniysi.

diqqatini o'ziga jalb qilish, keyin pul so'rash uchun Aggey Fomich yenglariga qo'lini asta tekkizib qo'yimoqchi bo'ldi, ular tomon engashdijam, biroq o'taketgan tortinchoqligi, qo'rqqoligi uning qo'l-oyog'ini bog'lab qo'yardi.

Suhbat asta-sekin turmushning og'irligi, narx-navoning oshib ketgani, uzoq yil xizmat qilib yuqori martabaga erishgan mayda amaldorlar kamdan-kam ekani ustiga ko'chdi. Bu xildagi gaplar ziyofat ahlining yuragiga yaqin va umumiy gaplar bo'lganidan, ularning har biri ham gapga aralashar va: «Har nechuk bo'lsayam, turmushda eng muhim, asosiy narsa – pul. Pul bo'lsa, changalda sho'rva... Aqlli, husnli yoki mehnatsevar bo'lishning ham hojati yo'q; pul oldida odamlar sajda qilishadi!» degan fikrni aytar edi.

– Bir safar boyib ketishimga sal qolgandi, – dedi Shmidt harsilab. – Men Golovchinodagi Porchinskiy degan zamindorning to'yida bo'lgandim. To'yga yigirma chog'li polyak boylari kelishgandi. Ma'lumki, ular kechlikdan keyin, albatta, shtos o'ynashga o'tirishadi. Agar xotirimdan ko'tarilmagan bo'lsa, o'sha vaqtda hamyonimda yigirma yoki o'ttiz besh so'm pulim bor edi. Shu ozgina pul bilan o'yinga qo'shilib bo'larmidi? Ular bo'lsa o'yinga ming so'mlab tikadilar. Men ularning yonida turib o'yinni tomosha qildim. Shu payt qimorga har safar yigirma besh so'lkavoy tikib turgan mo'ylovi shopday bir zamindor menga: «Nega hech narsa tikmayapsiz?» – deb so'rab qoldi. Men: «O'ynashga hamyon kasod... Pulim oz!» – dedim. «Hechqisi yo'q. O'ynayvering!» – dedi u. Mayli, o'ynasam o'ynay deb, dastlab o'n so'm tikdim. Yutqazdim. Yana o'n so'mga mayda pul qo'shib tikkandim, buniyam boy berdim. Exxonam chiqib ketdi. Yonimda bir so'mlik kumush pul, Yekaterina pulidan bor edi, esdalik uchun saqlab yurgandim... «Kel, buniyam tik!» degan fikr xayolimdan o'tdi... Uniyam tikdim. Omadim kelib, bu safar yutdim. O'sha qartani yana uch-to'rt marta o'ynagandim, omadim yurishib, o'rtaga uyilgan hamma pulni yutib oldim. Bankchi menga: «Endi bankni siz qo'yasiz!» – dedi. Men jon deb qabul qildim, yaxshilab o'tirvolib, qartani chiylay boshladim. Omadning kelishini qarangki, kim kattaroq qartani qo'ysa, men urib olaverdim... Shunday qilib, o'rtada o'n besh mingga yaqin pul to'plandi. «Endi turib keta qolay», degan fikr xayolimga kelsa-da, kelgan omadni o'z qo'lim bi-

lan bervoramanmi, deb ahdimdan qaytdim... Xuddi shu payt stolga to'y egasi, kuyovning o'zi – Porchinskiy keldi-da: «Qani, bittasini mengayam bering-chi! Ishq-u muhabbatda sizning omadingiz yursada... qimorda yurmaydi!» – deb qoldi. Men unga: «Kechirasiz... men qartalarni suzib qo'ydim», dedim. U: «Shundaymi hali, juda soz! Unday bo'lsa, o'rtadagi pulning hammasiga tikdim!» – degandi, hammaning og'zi ochilib unga tikilib qoldi. Iloj qancha? Qartalarni yangidan chiylay boshladim... U haromzoda hatto chiylagan qartamni surib ham qo'ymadi... Hatto ko'zini pirpiratmadiyam... Buni qarangi... ikkinchi qartani olishdayoq hamma pulni yutib cho'ntagiga soldi-da, chetga chiqib turaverdi: «Endi men o'ynamayman», – dedi.

Shmidtning gapini eshitib, hammaning ko'zi chaqnab ketdi, ular ana shu o'n besh ming so'mni xuddi o'z ko'zlari bilan ko'rgandek, bu pullarni shaldirashini eshitgandek va bu pullarning hidlari burunlariga kirgandek bo'ldi.

– Chiptasiga yutuq chiqadigan baxtli odamlar ham bo'ladi, – dedi nafasini arang chiqazib cherkov dyakoni (hamma unda ichki oldi-berdi qarz chiptalari borligini bilardi). – Yaqinda qandaydir bir sudxo'ning ikki yuz ming so'm yutganini gazetada o'qidim. Shuncha pulni loaqal biror kambag'al odam yutib olsa mayliydi-ya! Busiz ham sudxo'ning puli achib yotibdi. Yaratganning xohishi O'zidan bo'lak hech kimga ayon emas...

– Ha... – deb do'rillab gapirdi o'qituvchi, – shunday hodisalar ham bo'p turadi. Odamlar, agar chipta bir safar yutsa, ikkinchi safar ham, albatta, yutadi, deb aytishadi. Shu gap rostmikini?

– Ha. Shunaqa deyishadi... Ammo buning rost-yolg'onligini bilmayman, – dedi mirshab noibi. – Biz tomondagi Z. degan joyda bir nusxa ko'chiruvchi kotib qiziq voqeaga duch kelibdi. U gubernator mahkamasida xizmat qilib yurib, bir amallab ana shunaqa chiptalardan sotib olgan ekan. Bir kuni idorasiga kelsa, idora boshlig'i undan: «Sergey Ivanovich, chiptangizning raqami nechchi?» – deb so'rabdi. U esa, hozir esimda yo'q, chamamda, 1123 bo'lsa kerak, degan ekan, «Tabriklayman. Siz ellik ming so'm yutibsiz», debdi unga idora boshlig'i. Gazetalarga solishtirib qarasalar, chindan ham 1123-raqamga ellik ming yutuq chiqqan ekan. Bechora sevinganidan o'zini yo'qotib qo'yibdi! Shampan musallasi quyib, katta ziyofat beribdi.

Ziyofatda hamma uni tabriklab, balandparvoz nutqlar so'zlashibdi... Ertasiga esa o'sha gazetada, yutuq haqiqatda 1123-raqamga emas, 1124-raqamga chiqqan, 1123-raqam xato bosilib ketibdi, deb e'lon bosilib chiqibdi. Sho'rlik kotibning xunobi oshib, isitmasi chiqib ketibdi.

Shundan keyin mehmonlar chaynalaverib misi chiqib ketgan, bir-biriga o'xshash, barchaga ma'lum bo'lgan hikoyalarni – Rotshildning¹ Parijga piyoda kelib, dastlab ko'chalarda gugurt sotib yurgani, keyin yiliga yuz million daromad qilgani to'g'risida, Vanderbilt² to'g'risida, yer osti boyliklari, qarta o'yinidagi yutuqlar, birja chayqovchilari, tasodifan boyib ketgan amerikalik millioner amakilar to'g'risida birin-ketin so'zlashdi.

Aggey Fomich gapga aralashmasa ham, ularga astoydil quloq solardi. U ko'rimsiz bo'lishiga qaramay, jo'shqin xayollarga beriladigan ajoyib odam edi. Bunday odamlar turmushda ko'p uchraydi. Eshitgan hikoyalarini u juda yorqin tasavvur qilardi. Tasodifan boyib ketgan yoki qarzga botgan kishilar tanqid va bema'ni havaslarni, to'la qoniqtirishga qurbi yetadigan, millioner deb nom olgan bu ajoyib maxluqlar to'g'risidagi gaplarni eshitib Aggey Fomich bezgagi tutib qolgandek titrar, hayajonlanar edi. Chunki hozir, shu damda unga doya bilan o'g'lining etigiga arzimaydigan bir necha so'm pul juda zarur bo'lib qolgandi. Aggey Fomich:

– Ba'zi odamlar... ko'chadayam pul topib olishadi... – dedi tomdan tarasha tushgandek. Bu gap uning og'zidan bexosdan chiqib ketgandi.

Hamma ajablanib unga qaradi, chunki o'tirish boshlangandan beri u bir og'iz ham gapirmagandi. Aggey Fomich xijolat bo'lib ko'zini dasturxonga tikdi.

– Ha, bo'lmasam-chi, odamlar ko'chadayam pul topib olishadi... birovlarining cho'ntagidan, – dedi mirshab noibi qiziqchilik qilib.

Mehmonlar mirshab noibining bu qiziq gapidan ko'ra ko'proq dasturxondan ko'zini ololmay qolgan Aggey Fomichga kulib yubor-

¹ Gap kelib chiqishi yahudiyilardan bo'lgan Ovro'pa korchalonlari va jamoat arboblari – Rotshildlar sulolasi asoschisi Mayer Amshel Rotshild haqida ketmoqda.

² *Kornelius Vanderbilt* (1794–1877) – XIX asr AQSh boylaridan va katta tadbirkorlaridan biri.

dilar. Shu ondayoq o'tirganlarning har biri hali uchi topilmagan katta o'g'irlik hodisalarini gapira ketdi. Aggey Fomichning ko'z o'ngidan yana o'n va yuz ming so'mlab pullar, rang-barang dasta-dasta qog'oz pullar, o'z pullarining hisobiga yetolmagan boylarning «sehrli» ismlari birin-sirin o'ta boshladi. Aggey Fomich ularning gaplarini xuddi gastronom do'konining muhtasham oynalari oldida termilib turgan och kishidek qiziqib eshitardi.

Devordagi eski «hirqiroq» soat tungi birga jom chaldi.

Dyakon uzun libosining o'ng yengini shimarib o'rmdan turdi va mehmonlar bilan xayrlasha boshladi. Undan keyin Aggey Fomichdan bo'lak hamma mehmonlar o'rinlaridan turib, xayrlashib keta boshladilar. Rakitin sham bilan mehmonlarni yo'lakkacha kuzatarkan, Aggey Fomich o'z o'rnida qimirlamay, hayajonlanib, titroq qo'li bilan uvoqlardan sharchalar yasab o'tirardi. «Mana, hozir Rakitin mehmonlarni kuzatib qaytib keladi. Men undan qarz so'rayman. Faqat biroz dadil bo'lishim kerak. Axir, u meni pul so'raganim uchun yeb qo'ymaydi-ku!» degan fikrlar uning ko'nglidan kechardi.

Nihoyat, Rakitin mehmonlarni uzatib, uyga qaytib keldi va yakka qolgan mehmonining boshqalar bilan birga ketmaganiga hayron bo'lib, uning yoniga o'tirdi. Ammo Aggey Fomich muddaosini darrov aytib qo'ya qolmay, xizmati va oyligi haqida uzundan-uzoq gapirib, bezor qildi. Rakitin mudroq bosgan ko'zlari bilan unga tikilib, homuza tortar, odob yuzasidan og'zini berkitib, o'zini uning gapini eshitayotganga solardi. Shu yo'sinda yarim soat o'tdi. Nihoyat, Rakitinning toqati toq bo'lib, ovoz chiqarib homuza tortdi-da, kerishdi.

– Bu qanday rasvogarchilik?! – dedi uyqusirab. – Ertaga pochtaxonada men navbatchilik qilishim kerak...

Aggey Fomich shoshib-pishib o'rmdan turdi-yu, uzr so'ray boshladi. Dahlizda eshikni ochayotib, u to'satdan o'z irodasizligini yengib, Rakitinga o'girildi. Yerdan ko'zini uzmay, g'aribona bir tovush bilan shunday dedi:

– Menga qara, Rakitin, senga... kichkinagina bir iltimosim bor...

– Qanaqa iltimos? – dedi bezovtalanib Rakitin.

– Bilasanmi... men seni bezovta qilib ham o'tirmasdim, ammo erta-indin xotinim tug'moqchi. Bilasanmi, menga juda zarur bo'lib qoldi... Xudo haqi... yigirmanchilarda beraman... Menga... – o'n

so'm so'ramoqchi edi-yu, bunday katta pulni so'rashga yuragi dov bermadi, – menga loaqal besh so'm qarz ber... – dedi Aggey Fomich.

Rakitin ikki qo'lini ko'kragiga qo'yib, ishontirib dedi:

– Xudo ursin... bir tiyinin ham yo'q. Bilasanmi... butun boshli xonadonimda hatto sariq chaqa anqoning urug'i.

Rakitinning bunday haddan tashqari yasama gapirishidan Aggey Fomich uning puli borligini, ammo qarzga berishga qo'rqayotganini aniq sezdi. Aggey Fomich go'yo uzr so'ragandek, bir nima deb g'o'ldiradi-da, ko'chaga chiqib ketdi.

Tun sokin, oydin va sovuq edi. Qor bosib yotgan keng ko'chalar, qordan go'yo boshiga oq qalpoq kiygan pastakkina uylar, shoxlariga paxtadek oppoq qor yopishgan daraxtlar – hamma yoq go'yo jonsizdek ko'rinardi. Oyoq ostida qor g'archillardi.

Aggey Fomich anchagina yo'l bosishi kerak edi. Pul to'g'risidagi fikr miyasidan hech ketmasdi. U hozir qashshoqlik va chaqaloq yo'rgagining hidi hamisha anqib turgan, derazalarining tirqishi nari-beri berkitilgan pastakkina, sovuq uyiga borishini o'ylaganda, eti jimirlashib ketardi. Ovozini oldirgan xotini ingrab, undan pul to'g'risida so'rab qolsa, nima deb javob beradi? Mana, u hozir ziyo-fatda sharob, pivo ichdi, qovurilgan cho'chqa go'shti yedi, uydagilar faqat «Otamiz, albatta, pul olib keladi!» degan shirin umid bilan yarim och holda uyquga togandirlar.

«Ey Parvardigorim, – derdi yuragi ezilib Aggey Fomich, – nechun boshqalarga baxt-saodat, farovonlik, to'q hayot bag'ishlaysan-u, meni esingdan chiqargansan? Boshqalar, hatto o'zlariga kerak bo'lmasa-da, pul topib olishadi. Ey Xudoyim!.. Men ham hayotimda bir martagina... loaqal bir marta-ya... hech bo'lmasa, o'n so'm... yo'q, yigirma so'm... pul topsam, nima bo'larkin?»

Ana shunda doya xotingayam, Vasyutkaning etigigayam, Lelyaning qishlik paltosigayam yetardi. Mana, hozir yo'lda ketyapman. Nechun, masalan, qo'qqisdan birorta hamyon topib olmayman? Axir, shunaqa hodisalar ham bo'lib turadi-ku, hatto juda tez-tez bo'lib turadi. Bu haqda gazetalar ko'p yozishadi, odamlar og'zidan tushmaydi-ku, axir!»

O'ychan, xayolparast Aggey Fomich hozir ko'chada pulga liq to'la katta charm hamyon topib olishini tasavvur qildi. Mana, u

hamyonni ochyapti. Yuz so'mlik dasta-dasta pullar, yutuq chiptalari chiqyapti. Mana, u keng, yorug' va issiq xonaga ko'chib keldi, jihozlar sotib olyapti. Mana, u bola-chaqalariga xushbichim, issiq-qina kiyimlar tiktiroyapti. Axir, puling ko'p bo'lsa, xohlagan narsangni qilishing mumkin. Bugun ziyofatda ichgan bir necha qadah sharob ta'siridanmi yo bo'lmasa, pul topish orzusi xayolini band qilib qo'yganidanmi, Aggey Fomichning ko'nglida asta-sekin juda antiqa va aqlga sig'maydigan, ammo o'zi hech qanaqa shak-shubha qilmaydigan to'la ishonch paydo bo'ldi, u, albatta, shu bugun va hatto shu zahotiy oq ko'chadan ajoyib bir hamyon topib olishi kerak!

Nega va ne vajdan u pul topib olishi kerak, buni u bilmas, bu haqda o'ylamasdi ham. Faqat pul topib olishiga qattiq ishongan holda, boshini quyi solib, oyoq ostiga sinchkov nazar tashlab borardi.

– Mana, hozir... hozir topib olaman, – deb pichirlardi u, xuddi tushda alahsiragan odamdek, – boshqalar topishadi-ku, axir... Mana... hozir topaman... Tag'in bir necha qadam tashlayman, xolos. Mana, hozir... hozir.

Shu vaqt chindan ham Aggey Fomichning yo'l ustida qorda yotgan to'rt burchakli kichkinagina qora narsaga daf'atan ko'zi tushib qoldi. Bu miyasi aynigan odamning xayoli bo'lmay, haqiqat edi. Uning sochlari tikkayib, sevinib ketganidan nafasi tiqilib qoldi... O'g'riga o'xshab tevarak-atrofga alanglab oldi-da, haligi qorda qorayib ko'ringan narsaga o'zini otdi.

Aggey Fomichning qordan ko'tarib qo'lga olgan narsasi haqiqatan hamyon edi. Bu ajoyib hol – xayolning haqiqatga aylanishi dastlab Aggey Fomichni bir damga esankiratib qo'ygan bo'lsa-da, ammo qo'lida chinakam hamyon ushlab turganiga qanoat hosil qilib, titrab-qaqshab hamyonni ko'ksiga bosdi-yu, jon-jahdi bilan uyiga qarab chopdi...

Yarim chaqirim yo'lni chopib o'tgach, bunday tez harakatga ko'nikmagan Aggey Fomich biqini sanchiyotganini, tomog'iga qattiq bir narsa kelib tiqilganini, miyasidagi qon tomirlari lo'qillab urayotganini sezdi, u o'zini to'xtatolmas, bir lahza to'xtab nafasini rostlab olgudek bo'lsa, orqasidan birov quvlab kelayotgandek va topib olgan boyligini tortib olayotgandek tuyulardi. Yugurib ketayotganida boshidagi qalpog'i ham tushib ketdi. Egilib olmoqchi bo'ldi-

yu, yana o'sha zahoti qo'l siltab o'z fikridan qaytdi va yugurishda davom etdi: «Bu qalpoqning o'miga minglab qalpoq olamiz!» – deb pichirlardi terisiga sig'may.

Aggey Fomichning dahshat solib eshikni qattiq taqillatishidan cho'chib uyg'ongan xotini sham tutib eshikni ochdi. Bolalar ham uyg'onib ketishdi va yotoqlaridan hayrat aralash qo'rquv bilan otalariga qarashdi. Chehrasi oppoq oqarib, qora terga tushgan Aggey Fomich o'zini kursiga tashladi, uning ola-kula ko'zlari chaqnardi.

– Anechka! Bolalarim! – dedi u hirqiroq tovush bilan hamyonni silkitib. – Manavi hamyonda... g'ij-g'ij pul bor... Yuz ming so'm... Qani, bolalarim, yangi uy olinglar. Anya... menga shampan olib kel. Bilasizmi? To'rt yuz ming so'm! To'rt yuz ming so'm-a! Urrr-a! – deb yubordi.

* * *

Ayni vaqtda Aggey Fomich shunday boyki, uning millionlari oldida Golkondaning¹ ham, Kaliforniyaning ham butun boyligi ip esholmaydi. Otxonasida oltmish ming ot, bir million-u besh yuz ming izvosh saqlaydi. U yer kurrasidagi hamma temiryo'llarning, hatto yerdan Mushtariy yulduziga qadar qurilayotgan yangi temiryo'lning ham direktori. U shu qadar saxiyki, hatto iltimos bilan kelgan har bir faqir-bechoraga bir-ikki millionni bajonidil in'om qilib yuboradi. U shafqatli, mo'min-qobil, xushmuomala odam, agar birov ichida eskirib yog'i chiqqan uch so'mlik qog'oz pul, yuk kvitansiyalari va gazeta e'lonlari bo'lgan qimmatbaho hamyoniga qo'l teggizsa, Aggey Fomichning joni chiqib ketadi. Shunda u quturib, qo'liga nimai-ki tushsa, atrofdagilarga irg'itaveradi. Aggey Fomichning bolalari va xotini uni juda sevadilar, unga mehribonlik qiladilar. U ham bolalariga xuddi shunday muomala qiladi.

Kim bilsin, balki shunaqa telba-kezik odamlar, ba'zan bizga – sog'lom odamlarga qaraganda cheksiz baxtiyordirlar?!

¹ Golkonda – to'qimachilik va hunarmandchilikning boshqa turlari taraqqiy etgan, olmos qazib chiqarish rivojlangan Hindistondagi o'rta asr davlati (16–17-asrlar).

– Sudlanuvchi, sizga qonunga binoan oxirgi soʻz beriladi, – dedi sud raisi toliqqan koʻzlarini arang ochib, loqayd bir ohangda, – oʻz qilmishingizga oydinlik kiritish yoki oʻzingizni oqlash uchun yana nimalarni qoʻshimcha qila olasiz?

Ayblanuvchi bu murojaatdan soʻng bexos oʻrnidan sapchib turdi va asabiy bir holatda ingichka, uzun barmoqlari bilan sudlanuvchi kursisini toʻsib turgan panjarani mahkam ushlab oldi. U koʻrimsizgina, ozgʻin kishi edi, hadiksirar, koʻzlarida aks etayotgan qoʻrquvni yashirishga harakat qilar edi. Oq oralab qolgan siyrak soch-soqoli va oppoq kiprigi boʻzdek oqargan rangini xuddi kamqonlik kasaliga chalingan bemor kabi yanada xastahol qilib qoʻygandi...

U uzoq qarindoshi graf Vensepolskiyning uyida yashab, 23-yanvardan 24-yanvarga oʻtar kechasi oldindan oʻylangan reja asosida uning xonadoniga qasddan oʻt qoʻyganlikda ayblanmoqda edi. Tibbiy ekspertiza ayblanuvchining aqliy va ruhiy holatini oʻrganib, eshushi joyida, deb xulosa chiqardi. Shuningdek, uning asab tizimidagi baʼzi oʻzgarishlar, yaʼni ichki hissiyotlarini tutib turish holatining zaifligi, kutilmaganda koʻz yosh qilishga moyilligi borligi kabi jihatlari qayd etilgandi.

Ayblanuvchi shu paytgacha davom etayotgan ayblov ishining muhokamasiga aralasholmay, beparvo, xuddi bu jarayonda ishtirok ham etmayotgandek jim oʻtirdi. Oʻta rasmiy tarzda olib borilayotgan sud yigʻilishidagi dabdabali vaziyat, sudyalarning oʻziga xos liboslari, sudya stolining tilla popukli qizil movuti, ikki xil rangda tantanavor bezatilgan keng, issiq zal va uning devorlariga osib qoʻyilgan mahobatli portretlar, sud zaliga yigʻilganlarning maxsus toʻsiq orqasini toʻldirib oʻtirishlari, hovliqma nozirlar, kibarli sud maslahatchilari, sovuqqon qoralovchining salobati, himoyachining bemazmun qiliqlari – bularning barcha-barchasi ayblanuvchini yanada esankiratib qoʻygandi. U goʻyo bahaybat, qoʻrqinchli mashinaning tishlari orasida qolib ketgan-u, bu maxluqni bir nafas boʻlsa-da toʻxtatishga biron bir inson va biron bir kuch qodir emasdek edi.

U himoyachisi nutq soʻzlayotgan paytda bir necha bor shart oʻrnidan turib: «Janobi advokat, siz umuman boshqa narsa haqida

gapiryapsiz. Voqea aslida unday bo'lmagan. Menga imkon bering, qilgan aybim haqida o'zim gapirib beray», deyishga chog'landi, ammo aytolmadi. Unga so'z berib qolishlarini kutdi. Mabodo so'z berilsa, shu zahoti barcha voqeani, o'zining o'sha paytdagi ruhiy iz-tirolari, o'y-xayollari, boshqa birov tasavvur qilishi qiyin bo'lgan barcha ichki kechinmalarini aniq va tushunarli qilib so'zlab bermoqchi bo'ldi. Lekin harakatga tushib ketgan bu beayov mashinaning tinimsiz, befarq aylanayotgan g'ildiraklarini to'xtatishga uning jur'ati yetmadi.

Sud raisining kutilmaganda aytgan oxirgi gapi umidsizlik holatidan uyg'otib, unga g'ayrioddiy dadillik baxsh etdi. Shu payt o'zini tutishi xuddi o'limga mahkum etilgan kimsaning o'limi oldidan jalod kundasiga bosh qo'yish yoki o'lim sirtmog'ini bo'yniga solishga qarshilik ko'rsatib, jazavaga tushayotgan holatini eslatib yubordi.

U birdan, yalinganga o'xshash baland ovozda:

– Ha, janobi rais!.. Xudo xayringizni bersin, meni eshiting... Hammasini o'zim gapirib, tushuntirib berishimga ruxsat eting!.. – dedi.

Uni eshitgan sud maslahatchilarining qiyofasi xuddi diqqat-e'tiborini unga qaratgandek o'zgardi, sudyalar birin-ketin oldidagi varaqlarga engashdilar, yig'ilganlar esa uning nima deyishini kutib, diqqat bilan jimib qolishdi. Ayblanuvchi so'zlay boshladi:

– Men o'tgan yilning boshida bu shaharga kelganimda, kelajak hayotim borasida biror-bir rejam yo'q edi. Chunki men bu dunyoga faqat omadsizlik uchun kelgan bo'lsam kerak, degan fikrda edim. Aslidayam shunday, hayotim davomida menga hech qachon hech narsada omad kulib boqmagani. Hattoki hozir ham qirq yoshga kirganimga qaramay, xuddi yoshligimdagi kabi notavon va tajribasizligimcha qolib ketganimga aslo shubham yo'q.

O'shanda Graf Vensepolskiydan joy topishimda yordam berishini so'radim. Chunki u kishi marhuma onamning uzoq qarindoshi edi. Saxiy, ochiqqo'l, o'zgalardan yordamini ayamaydigan graf esa negadir o'sha paytda meni hech qayerga joylashtirolmadi, ammo biror qulay sharoit tug'ilib qolgunicha o'zining uyida yashab turishimni taklif qildi. Men uning uyiga ko'chib keldim. Dastlab u menga qandaydir e'tibor ko'rsatgandek bo'ldi. Ammo tezda uning

ko'ngliga urdim, shekilli, bormanmi-yo'qmanmi, parvoyam qilmay qo'ydi. Hatto ba'zan mendan umuman xijolat ham bo'lmasdi. Uyida yurganimga shunchalar tez ko'nikdiki, nazarimda, meni buyum qatorida sanay boshladi. Aynan o'sha paytdan boshlab mening nochor, achchiq va qayg'uli, sig'indilikda toptalgan hayotim boshlandi. Itoatgo'ylarcha so'zlash va iljayib turishdan boshqa ilojim yo'q edi.

O'sha paytdagi azobli kechmishimni o'z tanidan o'tkazmagan inson tushunmaydi. O'ziga to'q, mag'rur insonlar toifasi nochorlar, ularning tili bilan aytganda, «tekinxo'r, sig'indilar» haqoratlardan yig'laganini, tahqirlardan titraganidagi zaifligini ko'rib, bularni istagancha xo'rlash, toptash mumkin, ular ko'nikib ketaveradi, deb o'ylaydilar. Ammo, ishonimga, tekinxo'r yoki sig'indi ekanimni kinoya qilishganida, men mutlaqo ko'nikolmadim, aksincha, bunday so'zlardan juda yomon ta'sirlanganman, ularni o'ta og'ir olganman. O'sha kezlar bunday munosabatlardan mening qalbim qanchalar toptalganini bilsangiz edi. Har bir aytilayotgan so'z, muomala qalbimni battar ezar, yaralar, xuddi qizdirilgan temir kabi jizillatib kuydirar edi, ta'riflashga bundan ortiq so'z topolmayman. Ammo vaqt o'tgani sayin bunday xo'rliklardan qutulishimga ishonmay qo'ydim, chunki kuchim yetmasligini sezardim, o'ta nochor va qo'rroq ekanimni bilib turardim. Grafning uyidagi to'q hayot va undagi men tushib qolgan muhit kaminani butkul bo'shang qilib qo'ygandi, u irodamning qolganiniyam xuddi zang kabi kemirib, yeb bitirdi. Ba'zi paytlar uyquga ketishdan oldin kunduzi xo'rlanganim alam qilib, g'azabim qaynar, shundan so'ng o'zimga o'zim: «Yo'q, bo'ldi, yetar, ertaga bularning barchasiga chek qo'yaman! Ketaman. Grafning surbetligi-yu qo'polligini yuziga aytib, ketaman. Bunday pastkashlarcha kun ko'rgandan ko'ra, yupun kiyimda bo'lsa-da, sovuqda, ochlikda qolib bo'lsa-da, erkin yashagan afzal», der edim.

Biroq men aytgan o'sha «ertaga» ham kelar, qarorim o'z-o'zidan so'nardi. Labimni majburan qiyshaytirib, iljayib ko'rinishga harakat qilardim. Har kungidek hijolatdan o'zimni o'nglolmasdim, rejalashtirganim kabi tushlik paytida stolga qo'limni shart qo'yib, ichimdagini to'kib-sololmasdim. Uning o'miga ahvolim o'ta nochor va ayanchli ekanidan yana ozor chekardim, xolos.

Bir kuni grafga uning meni qayergadir joylashtirib qo'yishni va'da qilganini eslatmoqchi bo'lganimda, doimgiday qattiq nigoh qadab e'tiroz bildirdi:

– Qayerga shoshilyapsiz, azizim?.. Mening uyimda yomon kun kechiryapsizmi?.. Hozircha tura turing-chi, keyin bir o'ylab ko'rarmiz...

Uning bu javobidan keyin men yana jim bo'lib qoldim. Irodami bukib, itoatkorlik qilishga shunchalar majbur edimki, graf birorta eski kiyimini sovg'a qilganida, kiyimlari menga katta va keng kelsada, hech qanday e'tiroz bildirmay kiyardim. Bir kuni grafning uyiga kelgan mehmonlardan biri egnimdagi ko'yulgim tog'avachchamniki bilan bir xil ekanini aytib qoldi. Buni eshitgan bir isqirt va surbet janob – uni muttaham deydishardi – mendan bezbetlarcha so'radi:

– Fyodorov, yanglishmasak, siz liboslaringizni graf bilan bitta tikuvchiga buyurtma qilsangiz kerak?

Ularning birortasi meni Falonchi Pistonchayevich deb chaqirmasdilar. Graf esa meni tanishtirishni har doim yodidan chiqarib qo'yardi. Aslini olganda, yig'ilganlarning ko'pchligi tekinxo'r va sig'indilardan boshqa hech hech kim emasdi. Lekin ular surbetlarcha grafning atrofida girdikapalak bo'lishar, unga o'zlarini teng qilib ko'rsatishga, o'zlarini unga yaqin va munosib sanashga harakat qilishar edi. Men esa ulardan farqli o'laroq, o'zimni chetga olardim, jur'atsiz va itoatgo'y edim. Ular menga shunday o'tkir nafrat bilan qarardiki, bunday yomon ko'rish xo'jayinning mehri uchun kurashadigan odamlar orasidagina bo'ladi, xolos.

Grafning xizmatkori ham shu kasb egalari singari kalondimog'lik bilan surbetlarcha muomala qilardi. Menga atab ham dasturxonga osh-ovqat, ichimlik keltirishga odatlanishgan bo'lsa-da, ularning malaylarga xos so'zlari va qarashlaridan menga nisbatan tekinxo'r xizmatchiga qaragan kabi ijrig'anishlarini sezardim. Men turar joyim, ko'rpa-to'shaklarimni o'zim yig'ishtirardim, kiyimlarimniyam o'zim tozalardim.

Kechalari ba'zan grafning uyida «vint» degan qarta o'yini tashkil qilinardi. O'yinga sherik yetishmay qolgan paytlar graf mengayam qarta uzatardi. Men esa har doim pulsiz, ammo har gal yutish to'g'risidagi katta istak bilan o'yinga kirishardim. Har doim, ba'zan

esa ich-ichimdan Xudoga iltijo qilgancha, yutishimni so‘rab, ishtiyoq bilan o‘ynardim. Ammo-lekin har doimgidek yutqazib qo‘yardim.

O‘yin tugab, sheriklar o‘zaro bir-birlari bilan hisoblashayotgan paytda uyatdan boshimni ko‘tarolmay, o‘lguday qizarib, titrab, bar-mog‘imni qayirib o‘tirardim. Bu holat uzoq davom etaversa, chidol-may, o‘zimning xijolatimni bildirish uchun g‘o‘ldirab:

– Iltimos... Graf... Hozircha pul masalasida qiynalib turganim-dan xabaringiz bor. Mening yutqazganimni o‘zingiz to‘lab turing... Men sizga ertaga qaytaraman... – derdim.

Albatta, bu va‘dani yolg‘ondanmas, chindan berardim. Lekin bu qarzimni ertagayam, indingayam qaytarolmasligim hammaga ayon edi.

Bir kuni kechasi graf va uning uyiga yig‘ilgan mehmonlar avval restoranga, keyin esa ayollar bilan uchrashuvga bormoqchi bo‘lishdi. Meniyam shunchaki til uchida taklif qilishdi. Men, turgan gap, rad javobini bermoqchi bo‘ldim. Chunki «yo‘q» degan javobim ularning hammasiga juda ma‘qul tushishini bilardim. Ammo, Xudo haqqi, hanuzgacha tushunolmayman, o‘shanda qandaydir bir kuch meni paltomni shosha-pisha kiyib olishga va ularga qo‘shilib jo‘nashga majbur qildi.

Restoranda ovqat payti hamma yayrab, o‘zaro hazil-huzul qilib o‘tirdi. Men esa xuddi o‘rgatilgan kuchuk kabi tinmay qiyqirib ku-lardimki, bu menga behisob huzur baxsh etardi. Ammo xayolimga biror-bir qiziq yoki kulgili fikr kelib qolsa, men uni aytib beray de-sam, hech kim menga e‘tibor qilmasdi. Men qanchalik og‘iz juftlash-ga urinmay, shu zahotiyiq so‘zimni bo‘lishardi. Bir so‘zni o‘ninchi bor aytishga harakat qilib, hamsuhbatlarimning ko‘zlariga birin-ke-tin qararkanman, birortasining ham nigohi nigohimga qadalmasdi...

Ayniqsa, menga kechasi dahshatliroq edi. Xuddi dahlizga o‘xshash, hamma kirib-chiqadigan tor xonada uxlardim. To‘shagim prujinalari cho‘kib, o‘rtasi qiyshayib qolgan, tolasi titilib, tashqa-riga chiqib yotgan eski uzun kursi – kushetka edi. Oldindagi ikki oyog‘ining yo‘qligi uchun o‘rniga chamadonimni qo‘yib olgandim. Bu o‘rindiqni qanchalik yomon ko‘rishimni tasavvur ham qilolmay-siz! Uni hatto dushmanimgayam ravo ko‘rmayman. Eski narsalar-ga o‘ta o‘ch bo‘lgan ashaddiy eskifurush ham bunday rasvo, eski

narsaning bahridan allaqachon kechgan bo'lardi. Navbatdagi uzun kechalar har kuni takrorlanar, chidab bo'lmas azobli, uyqusiz tun o'z bag'riga chorlar edi. Nihoyat, men o'sha kech ham joyimga yotdim. Yotoq kursining bukchaygan qiyshiq joyi yelkamga botib, qaddimni tobora buka boshladi. Chiqib turgan prujinalar ikki yonimdan tanimga botar, yostig'im juda kichkina bo'lgani uchun boshimda turmay, surilib ketaverar edi. Besh daqiqa vaqt o'tgach, har doimgidek belim va yelkamda og'riq sezdim. Boshim qizib, bechora miyamda turli o'y-xayollar aylanib, go'yoki talvasa o'pqqonida charx ura boshladim... Shunda aql bovar qilmaydigan, hech qachon ro'yobga chiqmaydigan, ushalmaydigan rejalar birma-bir miyamga kela boshladi. Negadir tunda bu kabi xayoliy rejalariga ishonardim, biroq tong yorishishi bilan ular meni xuddi isitma aralash alahsirash kabi dahshatga solardi.

Kunduzgi hodisalarning taassurotlari, o'zim va boshqalarning aytgan so'zlari, kechgan har bir dilsiyohlik, kamsitish va haqoratlar qayta-qayta xotiramda jonlanardi. Meni qiynoqqa solib, birin-ketin yodimga tushayotgan bu kabi dahshatli kechinmalar, iztiroblar ichida borlig'imni jizillatib kuydirguvchi azoblardan yonib, kul bo'lardim. Bu holatimni yolg'izlikka mahkum va xo'rlangan insongina tasavvur qilishi mumkin, xolos. Bunday yaramas o'ylarni xayolga keltirarkanman, go'yo qalbimning tub-tubidan jirkanch balchiq kavlab olayotganday his etardim o'zimni... Yo'q... bunday narsalar haqida sud zalida, hatto o'zingni himoya qilish uchun ham gapirib bo'lmaydi...

Grafning do'stlari men yotgan qiyshiq kursining yonidan o'taverishda masxara qilishni yoqtirishardi. Ular kushetkamni «qiy-noq kursisi» deb atardilar.

O'sha men jinoyat sodir etgan kunim grafning tanishlaridan biri janob Lbov barcha ulfatlarni restoranga taklif qilgandi. Chunki u merosga ega bo'lgandi. Men ham kiyina boshladim. Zinaga chiqayotgan paytda janob Lbovga noxos turtinib ketdim va darhol uzr so'radim. U esa:

– Hechqisi yo'q, ahamiyat bermang... – dedi. So'ng to'satdan qo'shib qo'ydi: – Ha, aytgancha, Fyodorov, bekorga ovora bo'lyapsiz, sizni hech kim taklif qilgani yo'q.

Bu ayovsiz soʻzlardan dovdirab, nima qilishimni bilmay, pillapoyada toʻxtab qoldim. Mehmonlar shovqin solib, birin-ketin eshikka chiqayotgandilar. Ulardan kimdir menga qarab:

– Bora qoling, oʻzingizning oʻsha qiynoq kursingizga, – deya qichqirdi.

Uning gapini boshqasi ilib ketdi:

– Rohatijon kursingizga, desangiz-chi!

Ular yayrab kulishgancha, restoranga joʻnab ketishdi. Men qaytib kelib, oʻrnimga choʻzildim. Ich-ichimda esa nimagadir dam-badam: «Ular aytgan gaplaridan afsuslanishadi, meni olib ketish uchun kimnidir yuborishadi», degan xayol oʻtardi. Ammo hech kim kelmadi. Shundan soʻng noiloj, alamimdan ikki-uch soatcha achchiq koʻzyosh toʻkdim. «Rohatijon kursi»ning azoblari oʻlganning ustiga tepgan boʻldi. Sekin oʻrimdan turdim. Yuragim ana shu kursiga nisbatan nafrat bilan toʻlgandi. Shlyapamdan bir necha boʻlak karton sugʻurib oldim, uni eski gazetaga oʻrab, yermoyiga botirdim va kursining tagiga qoʻyib, oʻt yoqdim. Oʻsha paytda mening hushim, ixtiyorim umuman oʻzimda emasdi.

Oʻzimga kelganimda butun xona olov ichida edi. Qilgan ishimdan qattiq dahshatga tushdim va odamlarni yordamga chaqirdim. Qolgan gap sizga maʼlum, janob sud maslahatchilari...

MOVIY YULDUZ

Qadim zamonlarda oʻtib boʻlmas daralar, ulkan qoyalar va qalin oʻrmonlar qurshovida butun dunyodan ajralib qolgan yassi togʻ tepaliklaridan birida chorvachilik bilan kun kechiruvchi tinchgina xalq osoyishta yasharkan. Temir sovuqlarga burkangan, begona, baquvvat va daroz odamlar janubdan bu yerlarga qachon va qanday qilib kelib qolganlari nomaʼlum.

Kashf qilingan mamlakatning iqlimi moʻtadil, tuproqlari unumdor, suvi lazzatli, odamlari esa beozor ekani kelgindi johil sipohiy-larga juda yoqib qoldi va shu yerlarda umrbod qolishga qaror qildilar. Bu yerlarni bosib olishga ehtiyoj yoʻq edi, chunki odamlari urush, qurol-yarogʻ nimaligini bilmas, qalblarida yovuzlikdan asar ham yoʻq edi. Mahalliy aholini zabt etish shundan iborat boʻldiki,

kelgindilar bor-yo'g'i og'ir temir sovutlarini yechib, shu yerli chiroyli qizlarga uylandilar va o'zlari barpo qilgan yangi davlatning boshlig'i etib yo'lboshchilari bo'lmish oliyjanob va dovyurak Ernni qo'ydilar. Unga qirollarga xos cheksiz hukmronlik qilish va taxtni vorisiga qoldirish huquqini berdilar. O'sha zamonlarda bu narsalar mumkin edi.

Shundan buyon ming yillarcha vaqt o'tdi. O'sha sipohiylarning avlodlari mahalliy aholi bilan shu darajada qo'shilib ketdiki, bora-bora ular orasida tillarida ham, tashqi qiyofalarida ham farq yo'qolib ketdi. Sipohiy jo'mardto'ralar¹ siymolaridan asar ham qolmadi. Hatto qirollar tomonidan ham unutilgan qadimiy tildan esa faqat tantanali marosimlar-u, saroy udumlarida ahyon-ahyonda mo'tabar hissiyotlarini bildirmoqchi bo'lganlaridagina foydalanardilar. Ern Birinchi, Buyuk Ern, Muqaddas Ern haqidagi xotiralar esa xalq tomonidan yaratilgan go'zal afsonalar orqali, xuddi hindularning Gayavatasi, Finnlarning Veynemeyneni, ruslarning Vladimir Birinchi, yahudiylarning Muso, faranglarning Sharleman haqidagi rivoyatlari kabi abadiy xotira bo'lib qoldi.

Aynan mana shu dono Ern Ernoterra aholisini bug'doy va sabzavot yetishtirishga, temirni qayta ishlashga o'rgatdi. Yozuvni, san'atni joriy qildi. Din asoslarini, qonunni kiritdi; din – Xudoga ibodat qilish – tushunarsiz tilda duo o'qishdan iborat bo'lib, qonun esa birgina asosga – Ernoterrada hech kim yolg'on gapirmasligiga tayandi. Taxtga o'tirgan kunidan boshlab huquq va burch bobida erkaklar va ayollarga tenglik joriy etib, har qanday unvon va imtiyozni bekor qildi. Qirolning o'zi esa «Xalqning birinchi xizmatkori» degan unvonni oldi.

Buyuk Ern taxt vorisligi haqida qonun kiritdi: unga ko'ra qizmi, o'g'ilmi, to'ng'ich farzand vorislik huquqiga ega bo'lib, sevgan odami bilangina turmush qurardi. Va nihoyat, Ern Birinchi o'zlari tug'ilib o'sgan madaniy mamlakatlarda keng tarqalgan buzuqlik, yovuzlik kabi illatlar bu yurtga ham kirib kelmasligi choralari ko'rib, o'zlari kelgan yolg'izoyoq yo'lni ham yo'q qilib tashladi.

Mana shu Ern avlodi qirollarining o'z xalqiga otalarcha g'amxo'rliqi, donolik va ezgulik asosida yurtni boshqarishi tufayli

¹ Jo'mardto'ra – ritsar.



Ernoterra gullab-yashnab ketdi, xalq esa osoyishta va farovon hayotga erishdi. Bu mamlakat xalqi na jinoyat, na urush nimaligini bilmay, muhtojlik ko'rmasdan ming yil davomida tinch hayot kechirib keldi.

Bu qadimiy qirollik saroyida Ern Birinchiga tegishli qandaydir buyumlar: uning sovutlari, dubulg'asi, qilichi, nayzasi va ov qurollari xonasida devorga o'yib yozilgan bir necha tushunarsiz so'zlar esdalik sifatida qolgandi. Ernoterraliklarning hozirgi avlodlaridan birontasi ham bu buyumlarni ko'tarolmas va yozuvlarni o'qiyolmas edi. Shuningdek, uning uch xil tasviri: mayda qadam naqsh bilan ishlangan yon tomondan ko'rinishi, bo'yoqda ishlangan old tomondan ko'rinishi, uchinchisi – marmardan ishlangan haykalchasi yodgorlik bo'lib qolgandi.

Har uchala portret mehr bilan yuksak san'at darajasida ishlangan bo'lsa-da, o'z xalqini ranjituvchi bir tomoni bor edi. U ham bo'lsa qirolning o'ta xunuk, hatto badbashara ko'rinishi edi. Ammo shunday esa-da, yuz ifodalarida na yovuzlik, na yoqimsizlik ko'rinmasdi. Ernoterraliklar o'zlariga xos bo'lgan go'zalliklari bilan faxrlanishar, birinchi qirollarini esa afsonaviy qalb go'zalligi uchun qadrlashar, tashqi qiyofasidagi xunuklikni esa ayb deb hisoblamas edilar.

Irsiyat qonunlarining o'ziga yarasha injiqliklari bor. Ayrim holda bola na o'z ota-onasiga, na bobo va buvilariga o'xshamaydi-da, uzoq o'tmishdagi ajdodlaridan biriga o'xshab ketishi mumkin. Emlar sulolasi solnomachilari qayd qilishlaricha, ular avlodida vaqti-vaqti bilan o'ta xunuk bolalar tug'ilgan bo'lib, keyinchalik bunday holatlar kamdan-kam uchraydigan voqeaga aylangan. To'g'risini aytish kerakki, xunuk tug'ilgan shahzodalar ajoyib qalb sohiblari: yaxshi xulqli, aqlli, rahmdil va xushchaqchaq bo'lganlar. Taqdir taqozosi bilan, shahzodalarning bunday xunuk ko'rinishlari go'zallik va nafosatning farqiga boruvchi ernoterraliklar orasiga nifoq sololmagan.

* * *

Saxovatli qirol Ern XXIII o'zining ajoyib go'zalligi bilan ajralib turar, mamlakatdagi eng go'zal qizni jo'shqin muhabbat bilan sevib qolib uylangandi. Uzoq vaqt ular farzand ko'rmadi – deyarli o'n yil.

Sevimli qirolicha yaqinda ona bo'lishini bilgan xalq bu yangilikni qanchalik shodiyona kutib olganini tasavvur qilish qiyin emas. Qirol taxtni bevosita o'z zurriyodiga qoldirayotgani oilasini ham, xalqini ham shodligiga shodlik qo'shdi. Olti oydan so'ng qirolicha eson-omon qutulib, dunyoga malika Erna XIII kelganini eshitgan qirol bu xabarni xushnud kutib oldi. O'sha kuni malika sog'ligi uchun qadah ko'tarmagan odam qolmadi.

Faqat saroy ahli xursand emasdi. Endigina tug'ilgan chaqaloqni qo'liga olgan doya alam bilan bosh chayqab qo'ydi. Qirolichaga olib kelganlarida chaqaloqni ko'rib, qo'llarini yoygancha xitob qildi:

– Ey Xudoyim, bunchalar xunuk bo'lmasa?! – deya yig'lab yubordi. Biroz o'ziga kelgach, qo'llarini chaqaloq tomon uzatib: – Bolaginamni menga beringlar, bechoraning xunukligi mehrimni kamaytirmaydi, aksincha, o'n chandon oshiradi, – dedi.

Qirol ham juda xafa bo'lib:

– Bunchayam peshonasi sho'r bo'lmasa?! Sulolamizda badbasha shahzodalar bo'lganini eshitgandik, lekin bunday xunuk malikaning Ernar avlodida tug'ilishi birinchi marta yuz berishi! Xudodan iltijo qilamiz, zora, buning evaziga qalbi go'zal, aql-hushli bo'lib ulg'aysa.

Malikaning xunukligini eshitgan xalq ham xuddi shunday iltijo qildi.

Shu asnoda malika kun sayin ulg'ayib, soat sayin xunuklashib borardi. O'zining xunukligini tushunmagan go'dak to'yib-to'yib uxlar, ovqat yer, quvnoq va betashvish hayot kechirar edi. Uch yoshga to'lay deganda u o'z bobokaloni Buyuk Ernga judayam o'xshashligi ravshan bo'lib qoldi. Shu yoshda u o'zining eng yaxshi sifatlarini: beozor, sabr-toqatli, atrofida qilarga mehribon, g'amxo'r, ziyrak va xushmuomala ekanini namoyish etdi.

O'sha paytlarda bir kuni qirolicha qirol huzuriga kirib:

– Podshohim va rafiqim! Malol kelmasa, qizimiz uchun bir iltifot ko'rsatishingizni so'ramoqchi edim, – dedi.

– Sevikli rafiqam, bilasiz-ku, sizdan hech narsani darig' tutmayman.

– Qizimiz o'sib-ulg'ayib kelyapti. Ko'rinishidan Xudo unga yoshiga nomunosib ajoyib aql-idrok ato qilgan. Bir kunmas bir kun

o'zining yuz qiyofasi xunuk ekanini bilib qolishi muqarrar. Bu unga umrbod g'am-alam keltirishidan xavotirdaman.

– Siz haqsiz, rafiqam. Qizimiz muqarrar tarzda duch kelishi mumkin bo'lgan bu taqdir zarbasini qanday yo'l bilan oldini olish mumkin?

– Fikrim sizga ahmoqona tuyulsayam, g'azabingiz kelmasin, podshohim. Qizimiz hech qachon ko'zguga qaramasligi chorasini ko'rishimiz kerak. Mabodo birorta odam yovuzlik qilibmi yoki ixtiyorsizmi, uning xunukligi haqida o'ziga aytadigan bo'lsa-da, ko'zguda o'zini ko'rmaguncha buni bilmasdan yurishi mumkin.

– Shuning uchun nimani xohlardingiz?

– Ha... Ernoterrada birortayam ko'zgu qoldirmaslik kerak!

Qirol o'ylanib qoldi. Keyin:

– Bu narsa xalqimiz uchun katta yo'qotish bo'ladi. Buyuk ajdodim chiqargan qonunga ko'ra, yurtimizda erkak ham, ayol ham bashang kiyinishni yaxshi ko'radi. Xalqimizning qirol va oilasiga bo'lgan sadoqatiniyam yaxshi bilamiz va bu yo'qotishni chidam bilan qarshi olishiga aminman. Qirollikda birortayam ko'zgu qoldirmasdan yo'q qilib yuborish haqida shu bugunoq farmon beraman.

Qirol o'z xalqiga ishonib adashmagandi, chunki xalq yaxshi kunlarda ham, yomon kunlarda ham qirol oilasi bilan hamjihat edi. Xalq farmonni hamdardlik bilan kutib oldi va barcha ko'zgularni, hatto sinig'ini ham qoldirmay davlat soqchilariga to'plab berdi. To'g'ri, ayrim hazilkashlar sochlarini hurpaytirib, yuzlariga loy surtib qiziqchilik qilishdi. Lekin xalq kular ekan, garchi hajv qilib kulsa ham, qirol xavotir olmasa ham bo'ladi. Masalaning muhim tomoni yana shundaki, mamlakatning barcha suvlari tez oquvchi tog' daryolari va jilg'alaridan iborat bo'lib, biror narsa suvda aks etmasdi.

* * *

Malika Erna o'n besh yoshga yaqinlashib qoldi. U chidamli va baquvvat bo'lib o'sdi. Bo'yi uzun, eng daroz erkak ham uning yelkasidan kelardi. U kashtachilikda ham, arfa chalishda ham juda mahoratli edi. To'p otishda unga teng keladigani yo'q edi. Toshdan toshga xuddi kiyikdek chaqqon sakrardi. Uning yuzidan ezgulik, hamdardlik, adolat, iliqlik va quvonch nurlari doim taralib turardi.

Bemorlarga, keksalarga, beva-bechoralarga yordam berib charchamasdi. Jarohatlarni qanday bog'lashni, qanday o't-o'lanlar malham bo'lishini yaxshi bilardi. Yiqilgan, mayib bo'lganlar uning mehribon qo'llaridan shifo topardi. Xalq uni haddan tashqari sevar, doim izidan duo qilar edi. Lekin ziyrak Erna ko'pincha unga achinib qarayotganlarini, bilintirmasdan hamdardlik qilayotganlarini sezib qolardi.

«Balki men boshqalarga o'xshamasman?» deya xayol qilardi va huzuridagi xizmatchi ayollardan so'rab qolardi:

– Aytinglar-chi, hurmatli dugonalarim, chiroylimanmi yoki yo'qmi?

Ernoterrada hech kim yolg'on gapirmasligi sababli saroy xonimlari samimiyat bilan javob qaytarishardi:

– Sizni go'zal deb bo'lmasayam, so'zsiz, dunyodagi barcha qiz va ayollardan ko'ra yoqimliroq, aqlliroq, xushfe'lroqsiz. Hatto sizga uylanadigan odam ham xuddi shunday deyishi mumkin, bunga ishoning. Ayol latofati haqida biz ayollar unchalik farqiga bormaymiz.

Ernaning tashqi qiyofasi haqida mulohaza yuritish ular uchun mushkul ekani ayon. Na bo'y-basti, na gavda va na yuz tuzilishi ernoterralik ayollarga mutlaqo o'xshamasdi.

* * *

Erna o'n besh yoshga to'lgan kunni saroyda zo'r ziyofat va bazm bilan nishonlashdi – mamlakat qonuniga ko'ra, qiz bola shu yoshda balog'atga yetgan hisoblanardi. Ertasiga ertalab rahmdil malika savatchasiga ziyofatdan ortgan taniq shirinliklardan solib, bilagiga osgancha to'rt chaqirim narida turadigan sevikli enagasini ko'rgani jo'nadi. Erta tongdagi sayr va yoqimli toza tog' havosi unga odatdagidek quvonch keltirmadi. Uning fikr-u hayoli kechagi bazmda kuzatganlari haqida edi. Uning qalbi tog' cho'qqilaridagi abadiy qorliklardek oppoq va toza edi, lekin o'tkir nigohlari, ayollarga xos sezgirligi va navqiron yoshi unga ko'p narsalarni bildirib qo'ydi. Raqs tushayotgan yigit va qizlarning bir-birlariga sirli qarab qo'yishlari uning nazaridan chetda qolmadi. Bu nigohlar bevosita unga qaratilmagan bo'lsa-da, hurmat ifodasi bo'lgan tabassum va ta'zimlarda itoat, sadoqat va nazokat ko'rinardi. Ammo ularning har biriga

achinish hissi soya tashlab turardi. «Nahotki, jirkanch, badbashara bo'lsam va bu haqda menga aytishga hech kim jur'at etolmasa?»

Shunday g'amgin xayollarga botgancha Erna enagasining uyiga yetib keldi va eshikni taqillatdi. Javob bo'lmagach, eshikni ochib (bu mamlakatda qulf nima ekanini bilishmasdi) ichkariga kirdi. Ilgari ham hech kim yo'qligida ichkariga kirib enagani kutib o'tirardi.

Deraza yonida g'amgin xayollarga berilgancha dam olib o'tirarkan, beixtiyor atrofdagi tanish jihozlarga ko'z tashladi va birdan uning e'tibori enagasi doim yashirib yuradigan qutichasiga tushdi. Enagasi bu qutichada o'zining bolaligi, yoshligi, birinchi muhabbati, erga tekkani, saroydagi hayoti bilan bog'liq turli maydachuydalarni: rangli toshlar, arzon taqinchoqlar, kashtalar, tangachalar va uzukchalarni saqlab yurardi. Malika hali bolalik chog'idanoq qutichani titkilashni yaxshi ko'rar va ular bilan bog'liq xotiralarini enagasidan qayta-qayta eshitardi. Nima sababdan bu quticha ko'z tushadigan joyda turganiga ajablandi. Malika doim ko'rgisi kelganda qutichani enagasi berar va ko'rib bo'lgach, chiroyli matoga avaylab o'rar va yashirib qo'yar edi.

«Balki enaga shoshib tashqariga chiqqan-u, qutichani yashirish esidan chiqqan bo'lsa kerak», – deb o'yladi malika va stolga yaqinroq o'tirib qutichani tizzasiga qo'ydi. Ichidagi tanish narsalarni beparvolik bilan bitta-bitta olib etagiga sola boshladi. Qutichaning tagiga yetganda qiyshiq burchakli katta yassi bir siniq parcha ko'rindi. Uni qo'liga olib ko'zdan kechirdi. Bir tomoni qizil bo'lib, boshqa tomoni kumushrang, yaltiroq va go'yo chuqurroq edi. Tikilib qaragandi, xonaning supurgi tirab qo'yilgan burchagi ko'rindi... Biroz burganida xonadagi eski javon, yana biroz burganida... judayam xunuk bir bashara ko'rindiki, bunday basharani u tasavvur ham qilolmasdi.

Qoshini tepaga ko'targandi, badbashara ham shuni takrorladi. Boshini qiyshaytirgandi – u ham shunday qildi. Qo'lini lablariga tekkizdi – siniq parchada ham shu harakat takrorlandi. Erna endi tushunib yetdi: qo'lidagi parchadan uning o'zi unga qarab turardi. Qo'lidagi ko'zgu tushib ketdi, qo'llari bilan ko'zlarini yashirgancha alam bilan stolga boshini urdi.

Shu daqiqada enaga qaytib keldi. Malikani, ochiq qutichani va siniq ko'zgu parchalarini ko'rdi-yu, gap nimada ekanini tushundi.

Ermaning qarshisiga tiz cho'kkancha muloyim so'zlarni gapira boshladi. Malika ilkis o'rnidan turib, qaddini rostladi va ko'zyoshsiz, lekin qahrli tarzda barmog'i bilan ko'zguni ko'rsatib:

– Hammasini so'zlab ber, – deya buyruq berdi.

Uning ovozi qat'iyatli yangradi. Buni kutmagan sodda ayol yo'q deyishga botinolmadi: badbashara, lekin oliyjanob shahzodalar haqida, badbashara qiz tuqqan qirolichaning g'am-anduhlari-yu, mehrshafqati haqida, qanday qilib taqdir zarbasidan qizini qutqarmoqchi bo'lgani va ko'zgularni yo'qotish to'g'risidagi qirolning farmoni haqida batafsil so'zlab berdi. U o'zining ahmoqona ojizligini aytib sochini yular, sevikli Ernani musibatga qo'ygan shu bir parcha taqiqlangan ko'zguni qutichasiga yashirib qo'ygan kuniga la'natlar o'qirdi.

Uni eshitib bo'lgach, malika g'amgin tabassum bilan:

– Ernotarrada hech kim yolg'on gapirmaydi! – deb qo'ydi.

U tashqariga chiqdi. Tashvishga tushgan enaga ortidan chiqmoqchi bo'lgandi, Erna uni keskin to'xtatdi:

– Qol shu yerda!

Enaga bo'ysundi. Qanday yo'q deya olardi? Uni emib katta bo'lgan kichkina Ermaning ovozi emasdi bu, balki ajdodlari ming yildan beri hukmdor bo'lib kelayotgan mag'rur malikaning buyrug'i edi.

* * *

Egri-bugri tog' yo'llaridan, tik jar yoqasidan o'tib borarkan, baxtiqaro Ermaning harir ko'k ko'ylagi etaklarini shamol hilpiratar, jar ostida oqayotgan daryoning guvillashi qulog'iga kirmas, atrofidagi yovvoyi tabiat qo'shig'ini eshitmasdi. Bolaligidan tanish bo'lgan bu yolg'izoyoq yo'lda borarkan, qalbi ham yolg'izlikdan, ham boshiga tushgan musibatdan aziyat chekardi. Qalbida nimalar kechayotgani haqida kim ham aytib bera olardi? Balki o'ziga o'xshash, taqdir zarbasiga uchragan birorta boshqa bir malika bo'lganda, tushungan bo'larmidi?..

Yo'lda ketarkan, keskin burilishga duch keldi. Ulkan qoyalar ko'chkisi yo'lni to'sib qo'ygan, bu vahshiy to'siqlarni olib tashlashning iloji yo'q edi. Pastdan esa qandaydir tushunib bo'lmas tovush eshitildi. Malika jarga engashib, quloq sola boshladi. Shundoqqina

oyog'i ostidagi jar tubidan kimdir ingrab yordam so'rardi. Shunda u o'z qayg'usini ham unutib, yurak amriga bo'ysungancha pastga otil-di. Xuddi kiyikdek qoyadan qoyaga, toshdan toshga sakrab tegirmon toshi kattaligidek maydonchaga tushdi. Bu yerdan endi na tepaga, na pastga tushishning iloji yo'q edi, lekin Erna bu haqda o'ylab ham o'tirmadi.

Ingrayotgan odamning ovozi qo'l yetgudek joydan kelayotgandi. Yarmi suvga tegib turgan tosh ustiga yotib pastga qaragandi, o'tkir qoya uchiga osilib qolgan odamni ko'rdi. U bir qo'li bilan qoyani, bir qo'li bilan omonatgina o'sgan daraxt shoxini ushlab olgan, chap oyog'i uchini tosh yorig'iga tiragan, o'ng oyog'i esa muallaq turardi. Kiyimiga qaraganda u ernoterralik emasdi, chunki malika uning ipakdan tikilgan kiyimlari-yu, charm etik poshnasidagi shporlarni va zarhal kamarni umrida ko'rmagandi.

– Hoy! Musofir! Bardam bo'ling, hozir yordam beraman, – deb qichqirdi Erna.

Notanish ingragancha boshini ko'tarib, silkitib qo'ydi. Malika unga qanday yordam berishi mumkin? Pastroqqa tushishning iloji yo'q, ham foydasiz. Eh, arqon bo'lganda edi!.. Ular orasidagi masofa ikki odam bo'yicha kelardi. Nima qilish kerak?

Birdan malikaning xayoliga ajoyib bir fikr keldi. Bunday fikr xavfli vaziyatlarda jasur va mard insonlardagina paydo bo'ladi. Malika o'ylab-netib o'tirmay, egnidagi ajoyib ko'ylagini shartta yechdi-yu, qo'llari va tishlari yordamida uzun-uzun bo'laklarga bo'lib, arqon esha boshladi. Ko'ylak bo'laklarini bir-biriga mahkam bog'lab, pishiqligini tekshirib ko'rdi-da, beso'naqay tosh ustiga yotib, oyoq-qo'llari shilinishiga qaramay, bir uchini osilib turgan notanish odamga tashladi. Xayriyat, arqon uzungina bo'lib, yigit uni kamariga bog'ladi. Malika uni asta-sekin tepaga torta boshladi. Yigit esa malikaga yengil bo'lishi uchun qoyaning bo'rtib turgan joylariga oyoq-qo'llarini tirab tepaga intilardi. Boshi va gavdasi Erna turgan maydonchaga yetay deganda yigitning kuch-quvvati tugadi, malika zo'r berib, mashaqqat bilan uni balandga tortib chiqardi.

Maydoncha judayam tor edi, malika o'tirgan joyida yigitning boshini ko'ksiga bosib, holsizlangan tanasini qo'llari bilan o'rab oldi.

– Kimsan, ey, sehri mavjudot? – oqarib ketgan lablarini zo'rg'a qimirlatib so'radi yigit. – Tangri yuborgan farishtamisan? Yoki shu tog'larning mehribon parisimisan? Balki ma'jusiy ilohalardan biringisan?

Malika uning tilini tushunmadi, ammo muloyimlik bilan, minnatdorlik izhor qilib turgan qora ko'zlari hamma gapni bildirib turardi. Lekin shu ondayoq yigitning kipriklari yumilib, yuzi o'likdek oqarib ketdi va malikaning ko'ksiga bosh qo'yganicha xushini yo'qotdi. Malika esa qimirlolmas, behush yotgan yigitning yuzidan moviy ko'zlarini uzolmasdi.

Malika o'zicha fikrlay boshladi.

«Bu baxtiqaro yo'lovchi xuddi menga va ajdodim Buyuk Ernga o'xshab xunuk ekan. Menimcha, har uchalamizning tuprog'imiz bir joydan olingan bo'lsa kerak. Go'zal emoterraliklarga qiyoslaganda, biz uchalamiz shunday badbasharamizki, bu narsa bizni yaxshilikka olib bormasa kerak. Lekin nima sababdan yigitning menga boqqan nigohlari shunchalik yoqimli? Kechagi bazmda raqs tushayotgan yigit va qizlarning rahmi kelgandek qaraganlari judayam ayanchlimasmi? Bu nigohlarning lipillab turgan shamchiroq bilan quyoshdek farqi bor-ku. Nima sababdan tomirlarimdagi qon gupillab urib ketdi, nima sababdan yonoqlarim lovullab, yuragim gursillamoqda, nega hayajondan borlig'im quvonchga to'ldi? Ey Parvardigor! Sen meni shunchalik xunuk qilib yaratganing uchun noliganim yo'q. Shu yigit uchun men dunyodagi barcha qizlardan ham go'zalroq bo'lib ko'rinishni istardim!»

Shu payt tepadan ovozlar eshitila boshladi. To'g'ri, malikaning qat'iy buyrug'idan keyin enaga anchagacha o'ziga kelolmadi, lekin o'zini o'nqlab olgach, darhol uning izidan yugurdi. Malikaning toshdan toshga sakrab jarlik tubiga oshiqqanini, notanish kimsaning ingrab yordamga chaqirganini eshitdi-yu, gap nimadaligini tushunib yetdi. Darhol qishloqqa yugurib hammani oyoqqa turg'azdi: kimdir arqon, kimdir narvon va tayoq olib jar yoqasiga yugurishdi. Hushdan ketib yotgan yo'lovchini sog'-omon tepaga tortib olishdi. Enaga esa malikaga o'z kiyimlarini chilvirga bog'lab tushirdi. Shundan so'ng malikaning buyrug'i bilan musofirni saroyga olib borishdi va eng yaxshi xonaga joylashtirishdi. Uning bir qancha joyi qattiq lat yegan

va qo'li chiqqandi. Uni malikaning o'zi davolay boshladi. Bunga hech kim ajablanmadi, chunki malikaning rahmdilligi, tabiblikdan ham yaxshigina xabardorligini hamma bilardi. Garchi yigit xunuk bo'lsa-da, aslzoda oiladan ekani sezilib turardi.

* * *

Shu voqeadan so'ng nima bo'lganini batafsil gapirib o'tirishga hojat bo'lmasa kerak. Ernaning uzluksiz parvarishi natijasida u tezda oyoqqa turib ketdi, xotirasi tiklandi va o'z xaloskorini ko'rib zavqshavqqa to'ldi. Malika kirib kelishini u intizorlik bilan kutar, Erna ham undan hech ajralgisi kelmas edi. Qanday qilib bir-birining tilini o'rganganini aytmaysizmi! Kunlardan bir kuni Erna musofir yigit tilidan «Amo!» degan yoqimli so'zni eshitgach, quvonch va uyatdan qizarib, tortinchoqlik bilan shivirlab o'sha so'zni takrorladi. «Amo», ya'ni «sevaman» degan so'z, ayniqsa, birinchi bo'sa bilan hadya etilsa, buni tushunmaydigan qiz dunyoda bormikin?

Eng yaxshi til murabbiysi – sevgidir. Yigit tuzalgach, malika bilan birga saroy bog'ida sayr qila boshlashdi. Shu asnoda ular bir-birlarini yaxshi bilib olishdi. Erna qutqargan yigit boy va qudratli Farangiston davlatini boshqarayotgan qirolning yagona o'g'li bo'lib, ismi Sharl ekan. Sayohat va sarguzashtlarga o'chligi uni o'tib bo'lmas Ernaterra tog'lariga olib kelgan. Qo'rqqoq kuzatuvchilari uni tashlab ketishgach, qoyadan yiqilib, o'lishiga bir bahya qolgan. U chaqaloqligida buyuk farang bashoratchisi Nostradamus tuzib bergan munajjimlar jadvali haqida aytib berishni ham unutmadi. Bashoratda shunday so'zlar bor ekan:

«... shimoli-sharq tomondagi yovvoyi tog'larda katta falokatga yo'liqasan, keyin esa moviy yulduz umrbod hayotingni yoritib turadi».

Erna ham Sharlga o'z mamlakati va qirol oilasi tarixini so'zlab berdi. Hatto bir kuni Buyuk Erning qurol-yarog'larini ham faxrlanib ko'rsatdi. Sharl ularni ehtirom bilan ko'rib chiqdi. Qirolning qilichini olib bir necha zarb usullarini yengilgina namoyish qildi. Ernaning Buyuk ajdodi suratini ko'rib, go'zallik, donolik va ulug'lik unga xos ekanini aytib o'tdi. Ern Birinchi tomonidan devorga o'yib yozilgan xatni o'qib quvonch bilan ayyorona jilmayib qo'ydi.

– Nega kulyapsiz, shahzoda? – deya xavotirlanib so‘radi malika.

– Azizam Erna, – deya uning qo‘lini o‘pib javob berdi Sharl, – buning sababini, albatta, aytaman, lekin biroz keyinroq.

Tez orada Sharl qirol va qirolichadan qizlariga uylanishga izn so‘radi, chunki malika uni allaqachon dildan sevib qolganini bilardi. Ular nikohga rozi bo‘lishdi. Balog‘atga yetgan Ernoterra qizlari o‘zlari yoqtirgan yigitga turmushga chiqish huquqidan to‘la foydalanar, shahzoda esa o‘z odobi, oliyanobligi va obro‘-e‘tibori bilan malikaga qalliq bo‘lishga loyiq edi.

Unashtirish munosabati bilan saroyda ham, aholi orasida ham tantanali bayram o‘tkazilib, keksa-yu yosh xursandchilik qildi. Faqat ona qirolichagina ma‘yus holda o‘z xonasida o‘tirar va «Sho‘rliklar! Ularning bolalariyam badbashara bo‘lib tug‘ilsalar kerak...» – deya g‘amgin o‘ylarga borar edi.

O‘sha bayram kunlari Erna qallig‘i bilan raqs tushayotganlarni kuzatarkan, unga qarab:

– Sevgilim! Seni deb erneterralik ayollarning eng xunugiga o‘xshashni istardim, – dedi.

– Bunday balodan Xudoning O‘zi asrasin, o, mening moviy yulduzim! – deya cho‘chib javob berdi Sharl. – Sen juda go‘zalsan.

– Yo‘q, – deya ma‘yusgina e‘tiroz bildirdi Erna. – Menga tasalli bermay qo‘yaqol, azizim. Nuqsonlarimni o‘zim yaxshi bilaman: oyoqlarim judayam uzun, tovonlarim va qo‘llarim judayam kichkina, belim yuqoriroqda, haddan tashqari katta ko‘zlarim ajoyib sariq rangdama, balki yoqimsiz moviy rangda, lablarim esa yassi emas, do‘rdoq, xuddi kamonga o‘xshash qiyshiq.

Lekin Sharl malikaning ko‘kintir tomirlari ko‘rinib turgan uzun barmoqli oppoq qo‘llarini tinmasdan o‘par, nafis so‘zlar bilan erkalar va raqsga tushayotganlarga qarab telbalaricha qah-qah urib kulardi.

Nihoyat, bayramlar tugadi. Qirol bilan qirolicha baxtli juftlikka oq fотиha berishdi, qimmatbaho sovg‘a-salomlar hadya qilib yo‘lga kuzatib qo‘yishdi (unga qadar oqko‘ngil erneterraliklar bir oy davomida yo‘llarni tekislab, daryo va jarliklarga vaqtincha ko‘priklar o‘rnatib qo‘yishgandi). Bir oy o‘tgach, Sharl kelin bilan birga ajdodlari barpo qilgan poytaxtga kirib keldi.

Ma'lumki, ovoza har qanday uchqur tulpordan ham tez tarqaladi. O'zining sofdilligi, soddaligi va saxovati bilan xalq orasida shuhrat qozongan valiahdni kutib olishga buyuk Parijning barcha aholisi chiqdi. Nafaqat erkaklar, hatto ayollar ham bir og'izdan Ernani mamlakatning, binobarin, butun dunyoning eng go'zal ayoli, deb tan oldi. Saroy darvozasi oldida qirolning o'zi bo'lajak kelinini kutib oldi va peshonasidan o'pib:

– Bolaginam, go'zalligini maqtaymi yoki saxovatingnimi – bilolmay qoldim, menimcha, har sohada kamolga yetgansan... – dedi.

Unga ko'rsatilgan hurmat va iltifotni kamtarlik bilan kutib olgan Erna esa o'zicha:

«Badbasharalar yurtiga kelishim nasib etgani juda yaxshi bo'ldi, har holda rashk balosidan qutulaman», – deb o'ylardi.

Bu ishonch uni uzoq vaqtlar tark etmadi. Sayyor ashulachilar-u, maddohlar malikaning chiroyi va xulq-atvorini ko'klarga ko'tarib, jahonga jar solib yurishdi, jo'mardto'ralar esa uning ko'zlari rangiga taqlid qilib moviy rang liboslarni afzal ko'rishdi.

Oradan bir yil o'tib Sharl va Ernaning osoyishtalik bilan kechirayotgan baxtli hayotiga yana bir quvonch qo'shildi: ular juda sog'lom va antiqa o'g'il ko'rishdi. Erna o'g'lini birinchi marta eriga ko'rsatarkan, tortinibgina:

– Sevgilim! Sizga aytishga uyalib turibman, o'g'limiz judayam chiroyli, u sizgayam, mengayam o'xshab ketadi, lekin hamyurtlarimizning birortasigayam o'xshamaydi. Yoki mehrdan ko'zim qamashdimikin? – dedi.

Bunga javoban Sharl quvonch bilan kulib qo'ydi:

– Malikam, dono Ernning ov qurollari saqlanadigan xona devo-ridagi yozuv ma'nosini keyin aytib beraman deganim esingdami?

– Ha, azizim.

– Endi eshit. U qadimiy lotin tilida bo'lib, quyidagi ma'noni bildiradi: «Mamlakatimdagi barcha erkaklar – aqlli, vafodor va mehnatkash; ayollari – pok, samimiy va ziyrak. Ammo – ularni Xudoning o'zi yorlaqasin – ayollar ham, erkaklar ham – badbashara».

NASTARIN VOQEASI

Xotini eshikni ochishiga zo'rg'a sabri yetgan Nikolay Yevgrafovich Almazov palto va furajkasi bilan darrov xonasiga kirib ketdi. Uning chimirilgan qoshlari va asabiy pirpirayotgan pastki labiga ko'zi tushgan xotini qandaydir noxush voqea sodir bo'lganini anglab yetdi... Indamasdan erining orqasidan kirib bordi. Xonaning qaysidir burchagida Almazov tek qotib turardi. Keyin u qo'lidagi portfelini polga itqitib, o'zini oromkursiga tashladi va barmoqlarini asabiy qisirlatib qo'ydi. Ochiq portfelning qog'ozlari sochilib ketgandi.

Almazov bosh shtab akademiyasida ma'ruzalar tinglovchi yosh, o'rtahol zobit bo'lib, hozirgina o'sha yerdan qaytdi. Bugun u profsorga o'zining so'nggi va eng murakkab amaliy ishini, ya'ni hududlarning chizmalarini ko'rsatib kelgandi.

Almazov va uning xotini qanday qiyinchiliklarni boshidan kechirgani yolg'iz Xudoga va yolg'iz o'zlariga ayon. Har holda, barcha to'siqlar yengib o'tildi... Avvalboshdayoq akademiya kirishining o'zi imkonsizday ko'ringandi. Ikki yil mobaynida Almazov tantanali tarzda imtihonlardan yiqildi va faqat uchinchi urinishdagina hamma sinovlarni yengib o'tishga erishgandi. Agar yonida xotini bo'lmaganida, irodasi bo'shlik qilib, qo'lini qo'ltiqqa urishi aniq edi. Biroq Verochka uni ruhan tushmaslikka undadi va doimo qo'llab-quvvatlab turdi. U har qanday omadsizlikni ochiq chehra bilan qarshilashni o'rgandi. O'zini unutib, eri uchun, odmi bo'lsa-da, ziyoli odamga xos qulaylik yaratishga kirishdi. Eri uchun ham kotiba, ham qiroatchi, ham tarjimon va eslatma daftari vazifasini bajara boshlagandi.

...Og'ir sukunat bilan besh daqiqa o'tdi. Bu orada ikkalasigayam tanish bo'lgan soatning chiqillashi, asabni o'ynovchi o'sha bir, ikki, uch-uch: bir juft tekis zarb, so'ng uchinchi xirilloq bong jimjitlikni buzayotgandi... Almazov egnidagilarni yechmay teskari o'girilib o'tirardi. Undan ikki qadam narida esa Vera miq etmasdan, asabiy, go'zal chehrasiga iztirob zuhur etib turardi. Nihoyat, u og'ir betob odamning karavotiga ehtiyotkorona yaqinlashgan kabi birinchi bo'lib so'z qotdi:

– Kolya, ishlaring qanaqa, o'zi? Yomonmi?

Almazov yelkasini qimirlatdi va indamadi.

– Kolya, ish rejangni qabul qilishmadimi? Aytaqol, baribir birga muhokama qilamiz-ku.

Almazov darrov xotiniga o'girildi va yonib, toshib gapira boshladi.

– Ha, ha, qabul qilishmadi, juda bilging kelayotgan bo'lsa, bilib qo'y. Nahotki, ko'rmayotgan bo'lsang? Bari chappasiga ketdi! Bular endi hech narsaga yaramaydi, – deb portfelini oyog'i bilan turtkiladi, – bularni pechkaga tashlab yuborsang ham mayli endi! Mana, ko'rib qo'y akademiyani! Bir oydan so'ng tag'in polkda bo'laman, yana sharmandalarcha, shov-shuv bilan. Yana arzimagan shu la'nati dog' tufayli-ya... Jin ursin!

– Qanaqa dog', Kolya? Hech nimaga tushunmayapman.

U oromkursining chetiga o'tirib, Almazovning bo'ynidan quchdi. Er qarshilik qilmadi, lekin hamon ma'yus qiyofasini burchakka tikib o'tirardi.

– Qanday dog', axir, Kolya? – so'radi xotini yana.

– E-e, haligi, oddiy dog'-da, yashil bo'yoq. Kecha soat uch-gacha uxlamay ishlaganimni bilasan-ku, ishni oxiriga yetkazishim kerak edi. Rejam chiroyli qilib chizildi, bezaldi. Bu haqida hamma gapirdi. Biroq kecha tunda o'tiraverib charchab ketdim, qo'llarim qaltiray boshladi, oqibatda rejani dog' qilib qo'ydim... Ha, yana quyuq dog'-a... kattaligini ayt. Tozalayman, deb battar chaplashtirib yubordim. Keyin u haqida o'ylayverib, boshim qotdi, axiyri, undan nimanidir chizmoqchi bo'lib, dog'li nuqtada daraxtlarni chizib qo'yaverdim... Juda yaxshi chiqdi, dog' borligini birov payqamaydigan darajada edi... Bugun esa professorga olib borsam: «Xo'sh, xo'sh, mm-yaxshi. Poruchik, manavi joydagi butalar qayerdan paydo bo'la qoldi?» – dedi. Unga bor gapni aytishim kerak edi. Balki shunchaki ustimdan kulib qo'yardi. Yo'q, kulmasdiyam. Axir, u qu-ruq, rasmiyatchi nemis bo'lsa. Unga: «Bu joyda haqiqatan ham butalar o'sadi», – dedim. U esa: «Yo'q, men bu hududni besh qo'limday yaxshi bilaman. U yerda butalar bo'lishi mumkinmas», – dedi. Shu tarzda suhbatimiz alanga ola boshladi. Yonimizda boshqa zobitlar ham turgandi. «Mayli, siz bu gapni juda ishonch bilan aytayotgan ekansiz, unaqada ertagayoq o'sha tog'lar orasidagi joyga boramiz.

Ko'ramiz, butalar bormikin. Shubhasiz, behafsala ishlaganingiz yoki g'ira-shira xaritadan ko'chirib olganingiz fosh bo'ladi.

– Lekin nega u butalar yo'q deb ishonch bilan gapiryapti?

– E Xudo, nega deganing nimasi? Yana bema'ni savollarni ber-yapsan. Axir, u bu hududni yigirma yildan buyon yaxshi biladi. O'z uyidan ham... Bunisi yetmaganday, u odam dunyodagi eng ashaddiy rasmiyatchi, yana millati nemis-a... Axir, men yolg'on gapirib, behuda tortshyapman-ku... Undan tashqari...

U gapirayotganda kuldondagi kuygan gugurt cho'plarini asabiy sindirib turar, jimib qolganda esa ularni polga irg'itardi. Bu irodali odamning rosa yig'lagisi kelayotgandi.

Er-xotin og'ir o'yga cho'mib, sukut saqlab o'tiraverdilar. Ammo Verochka to'satdan o'rnidan irg'ib turdi.

– Quloq sol, Kolya, hoziroq borishimiz kerak! Tezroq kiyin.

Nikolay Yevgrafovich ruhiy og'riqdan aftini bujmaytirib tikildi.

– Eh, Vera, bema'ni gapni qo'y. Nahotki, meni borib, xatosini tan oladi, deb o'ylasang. Axir, bu o'zim o'zimga hukm chiqarishim bilan teng-ku. O'tinaman, tentaklik qilma.

– Yo'g'-e, tentaklikmas, – dedi Vera depsingancha qarshilik ko'rsatib. – Hech kim seni uzr so'rash uchun majburlayotgani yo'q... Agar u hududda butalar bo'lmasa, ularni hoziroq o'tqazish kerak.

– O'tqazish? Butalarni-ya?... – Nikolay Yevgrafovichning ko'z-lari olayib ketdi.

– Ha, o'tqazish. Agar haqiqatni yashirgan bo'lsang, demak, uni tuzatish lozim. Qani, o'tlanaylik, shlyapamni uzatib yubor... Koftachamniyam... U yerdamas, shkafni qara... Soyabonimniyam!

Almazov uning gapidan norozi bo'lsa-da, beixtiyor harakatlanar, shlyapa va koftachalarni qidirar edi. Vera bo'lsa stolning tortmalarini ochib yopar, qutichalarni bittama-bitta titkilab, so'ng polga tashlab, nimanidir izlayotgan edi.

– Ziraklar... lekin bular hech nimaga arzimaydi-ku... Ularga hech vaqo bermaydi... Ha, manavi, brilliant ko'zli uzuk qimmatbaho... Darhol garovdan qaytarib olish lozim... Yo'qolib qolsa, yax-

shi bo'lmaydi. Bilaguzuk... bungayam oz to'lashadi. Chunki eskirib, qiyshayib qolgan... Kolya, kumush portsigaring qayerda qoldi?

Oradan besh daqiqa o'tib, barcha qimmatbaho buyumlar ridikyulga¹ joylandi. Vera tayyor bo'lib, oxirgi marta uyga qayta ko'z yugurtirib chiqdi. Hech nimani unutmaganiga ishonch hosil qilgach:

– Ketdik, – dedi qat'iy ohangda.

– Qayoqqa boramiz, axir? – Almazov qarshilik qilmoqchi bo'lib ko'rdi. – Hozir qorong'i tushadi, ishxonamgacha esa o'n chaqirim masofa bor.

– Shuyam gapmi?!. Ketdik!

Almazovlar dastavval garovxonaga kirib o'tishdi. Garovchi, aftidan, odamlarning kundalik baxtsizliklariga duch kelaverib, bunday holatlarga ko'nikkani yuzida aks etib turardi. U keltirilgan buyumlarni shunchalik sinchiklab tekshirdiki, Verochka o'zini yo'qotib qo'yayozdi. Ayniqsa, uni ranjitgan holat, brilliant uzugini o'lchab, atigi 3 rublga baholagani bo'ldi.

– Axir, bu sof brilliant-ku, – e'tiroz bildirdi Vera, – o'ttiz rubl turadi, bilsangiz agar.

Garovchi horg'in beparvolik bilan ko'zlarini yumdi.

– Bizga buning farqi yo'q, xonim. Biz qimmat toshlarni umuman qabul qilmaymiz, – javob qildi u, navbatdagi buyumni taroziga qo'yib, – biz faqat metall buyumlarnigina baholaymiz.

Eski va qiyshiq bilaguzuk kutilmaganda qimmat baholandi. Xullas, jami 23 rubl to'plandi. Bu pul esa ularga yetib ortardi.

Almazovlar bog'bonnikiga kirib borishgan paytda allaqachon Peterburg uzra sutday tun pardasi yoyilib bo'lgandi. Tilla ko'zoynakli bog'bon, millati chex bo'lgan miqti qariya endigina oilasi bilan kechki ovqatga o'tirayotgan ekan. U bemahaldagi tashrif va g'alati iltimosga hayron bo'lib, norozilik bildirdi. Aftidan, bog'bon qandaydir firibgarlikdan shubhalanayotgandi, shu sababdan Verochkaning qat'iy savoliga quruqqina javob qildi:

– Ming bor uzr. Biroq yarim oqshomda men ishchilarga ish buyurolmayman. Agar istasangiz, ertalabdanoq ixtiyoringizda bo'laman.

Endi faqat bitta yo'l qolgandi: u ham bo'lsa bog'bonga bor gapni yotig'i bilan tushuntirish edi. Verochka shunday qildi ham. Ma'shum

¹ *Ridikyul* – xotin-qizlar sumkachasi.

dog' bilan bog'liq bu voqeani bog'bon dastlab ishonqiramay, hatto yovsirab tinglab turdi. Biroq Veraning ko'chat o'tqazish haqidagi taklifi haqida eshitgach, uning qiziqishi ortdi va bir necha bor xayrixohlik bilan jilmayib ham qo'ydi. Vera hikoyasini tugatgach:

– Xo'p, nimayam derdim, – deb o'zicha rozilik bildirdi bog'bon. – Aytinglar-chi, qaysi navdagi butani o'tqazishni ma'qul ko'rasizlar?

Bog'bonning bisotidagi butalarning hech qaysisi chizmadagi dog'ga mos tushmasdi. Noiloj nastarin butasini tanlashdan o'zga chora topolmadilar.

Almazov rafiqasini uyga jo'nataman deb behuda urinaverdi. U shahar tashqarisiga eri bilan birga yo'l oldi, butalarni o'tqazisharkan, o'zicha kuyib-pishar, ishchilarga xalaqit berardi. Nihoyat, butalar ostidagi chimlarga razm solib, ularni tog' yonbag'ridagi chimlardan ajratib bo'lmasligiga ishonch hosil qilgach, uyga ketishga qaror qilishdi.

Vera ertasi kuni hayajondan o'z uyiga sig'madi va eriga peshvoz chiqish niyatida ko'chaga otlandi. Hali uzoqda turgan bo'lsa-da, erining irg'ishlab kelayotgan gavdasidan buta voqeasi muvaffaqiyatli yakun topganini fahmladi... Haqiqatan ham, Almazov alanga bo'lib yonar, horg'inlik va ochlikdan oyoqda bazo'r turar, biroq chehrasida qozonilgan g'alaba yolqini aks etayotgandi.

– Hammasi a'lo! Juda zo'r bo'ldi! – deya o'n qadam naridan shodon qichqirdi u bezovtalanayotgan xotiniga qarata. – Shunday qilib, biz ular bilan birga ko'chatlar yoniga bordik. U butalarni ko'rib hayron bo'lib qoldi. Hatto barglarini yulib, chaynab ko'ra boshladi. «Bu qanaqa daraxt bo'ldi?» – deb so'radi. Men: «Bilolmadim, janoblari», – deb javob qildim. «Qayin, shekilli?» – so'radi yana. Men esa: «Qayin bo'lsa kerak, janoblari», – dedim. Shundan so'ng u men tomon o'girilib, hatto qo'lini uzatdi: «Uzrimni qabul qiling, poruchik. Modomiki, shu butalarni unutib qo'yg'an bo'lsam, demak, rostdanam qariyapman». Axir, u atoqli, zakiy professor. Ochig'i, uni aldaganim uchun vijdonim qiynalyapti. U odam professorlarimiz orasida eng kuchlisi. Bilimi – dahshat! Hududlarni besh qo'lday birlashini ko'rib hayron qolasan.

Uning hikoyasi Veraga qisqadek tuyuldi. Professor bilan bo'lib o'tgan suhbatni ipidan ignasigacha aytib berishini eridan qayta-qayta so'rayverdi. Uni eng mayda ikir-chikirlar ham qiziqtirayotgandi: ya'ni professorning afti qanday alpozda bo'lgani, o'zining qariligini qay ohangda tan olgani, Kolyaning o'zi nimalarni his etgani...

Nihoyat, ular go'yo ko'chada o'zlaridan boshqa hech bir tirik jonzot yo'qdek, sho'x-shodon bir-birining qo'lidan ushlab, tantana-vor uyga qaytishardi. Yo'lovchilar esa bu g'alati juftlikka taajjub bilan qarab to'xtab qolishardi...

Nikolay Yevgrafovich hali hech qachon bugungidek zo'r ishtaha bilan ovqat yemagandi. Tushlikdan so'ng esa Vera erining xonasiga stakanda choy olib kirdi va kulib yubordi. Qizig'i, u bilan bir paytda eri ham kulib yuborgandi.

– Nega kulyapsan? – so'radi Vera.

– O'zing-chi?

– Yo'q, avval sen ayt, men keyin...

– O'zim, shunchaki. Nastarin voqeasi esimga tushib ketdi. Senda-chi?

– O'zim... Men ham shu... Nastarin voqeasini esladim. Bundan buyon nastarin mening eng sevimli gulim bo'ladi, demoqchiydim...

(NO)SOG'LOM JINNINING HIKOYASI

* * *

– Menimcha, hali hech kim mening bir bemorim kabi Rojdestvoni bundayin qoyillatib kutib olmagan bo'lsa kerak. O'shanda ming sakkiz yuz to'qson oltinchi yilning Rojdestvosi edi, – dedi shaharda dong'i ketgan psixiatr vrach Butinskiy. – Lekin men ham yig'latadigan, ham kuldiradigan bu voqea haqida gapirib o'tirmayman. Yaxshisi, bosh qahramonning o'zi yozganlarini o'qiy qoling.

Do'xtir shunday deb yozuv stolining o'rta g'aladonini tortdi. G'aladonda turli hajmdagi yozuv-chizuvlar bilan to'la qog'ozlar boylami yotardi. Har bir boylam raqamlangan va usti, albatta, fami-liyalangan ekan.

– Bularning hammasi – baxtiqaro bemorlarimning bitiklari, – dedi Butinskiy g'aladonni kavlashtirarkan. – Butun boshli jamlanmani oxirgi o'n yil ichida puxtalik bilan yig'ib chiqqanman. Biron kun birgalikda bularni ko'zdan kechiramiz. Bularning ichida alomatiyam, ko'ngilni iydirib yuboradiganiam, hatto nasihat muziyam bor... Xo'sh, endi... ha, manavinisini bir o'qib ko'ring-chi.

Do'xtirning qo'lidan chorak qismiga yirik-yirik harflar bilan aji-buji qilib bosib yozib tashlangan kichikroq daftarni oldim. Xullas, quyidagilarni o'qidim (do'xtirning iltifoti bilan qo'lyozmani to'liq keltirib o'taman):

*«N. shifoxonasining psixiatriya bo'limi
maslahatchisi Butinskiy janoblariga
yuqoridagi bo'limda ushlab turilgan
zodagon Ivan Yefimovich Pchelovodovdan*

ARZNOMA

Muhtaram janoblari!

Aqldan ozganlar palatasida, mana, ikki yildan ziyodroq vaqt davomida o'tiribmanki, mendek soppa-sog'lom odamni bu yerga o'ta achinarli anglashilmovchilik oqibatida olib kelishganini ko'p bora tushuntirishga urindim. Agar yodingizda bo'lsa, sizning marhamatli ko'magingiz orqali shu maqsadda bosh shifokorga va shifoxonaning barcha xodimlariga yozma hamda og'zaki murojaat etdim. Endilikda quyidagi satrlarga diqqatingizni qaratishingizni so'rashga yana bir bor jur'at qilmoqchiman. Buni shuning uchun qilmoqdamanki, sizning istarali qiyofangiz bemorlarga odamgarchilik yuzasidan muomala qilishingiz singari kasbiy aqidaparast emas, balki savobtalab inson ekaningizni faraz qilishga undamoqda.

Sizdan o'tinib so'rayman – mazkur maktubni oxiriga o'qing. Magarki, sarf-u navh borasida nuqsonlarga yoxud g'aliz jumlalarga duch kelsangiz, ta'bingiz xira bo'lmasin. Axir, o'zingiz bir o'ylab ko'ring, jinnixonada ikki yil yashab, soqchilarning og'iz sasishlariyu, bemorlarning telbanamo gaplarini eshitavergandan keyin mak-

tub bitayotib ravshan fikrlash mushkul-da. Kamina oliy o'quv yurtini tamomlaganman, ammo endilikda eng oddiy jumla qoidalaridan foydalanishda ham shubhaga bormoqdaman.

Diqqat-e'tiboringizni shuning uchun jalb etmoqchimanki, barcha ruhiy kasallar o'zlarini jinnixonaga anglashilmovchilik yoki g'animlarining kirdikorlari tufayli tushib qolgan deb hisoblashlari menga yaxshi ayon. Bilaman, ular buni do'xtirlarga ham, soqchilarga ham, kelib-ketuvchilarga ham, kulfatdoshlariga ham isbotlashni yoqtirishadi. Shu bois vrachlar ularning ko'plab arznomalari va iltimosnomalariga ishonchsizlik bilan qarashlarini menga ma'lum. Hozir bayon qiladiganlarimni dalil-isbot sifatida tekshirib ko'rishingizni so'rayman, xolos.

Bu voqea 1896-yilning 24-dekabrida sodir bo'lgandi. O'shanda men «Karl Vudt va K^o davomchilari» po'lat quyish zavodida katta texnik bo'lib ishlardim. Dekabrning o'rtalarida ishchilarni laqillatib joriy etgan bema'nidan-bema'ni jarima tizimi tufayli direktor bilan qattiq aytishib qoldim, uning vaj-karsonlaridan qonim qaynab, baqirib berdim, unga son-sanoqsiz qo'pol va haqoratli so'zlarni yog'dirdim va mendan ishdan bo'shash haqida ariza yozishimni so'rashlarini kutib o'tirmay hammasiga qo'l siltab chiqib ketdim.

Zavodda endi qiladigan ishim yo'q edi. Rojdestvo so'ngida u yerdan ketib, Yangi yilni yaqin qarindoshlarim davrasida kutib olish uchun N. shahriga yo'l oldim.

Poyezd yo'lovchilarga liq to'la ekan. Men joylashgan vagonda har bir o'rindiqda uch kishidan o'tirishardi. Chap yonimdagi yosh hamrohim Badiiy akademiya tolibi ekan. Ro'paramda savdogar yigit o'tirardi, u barcha katta stansiyalarda konyak ichishga tushib-chiqaverdi. Darvoqe, savdogar yo'l-yo'lakay N. shahrining Quyi ko'chasida o'zining go'sht savdosi borligini eslatib o'tdi. U familiyasini ham aytdi: aniq eslolmayapman, Serdyukmidi-yey... Srednyakmidi... yo Serdolikmidi... Qisqasi, S. R. D. va K. harflari bilan bog'langan qanaqadir familiya. Uning familiyasiga batafsil to'xtalayotganimning sababi, mabodo siz uni izlab topsangiz, u mening gaplarimni tasdiqlagan bo'lardi. U o'rta bo'yli, miqti, yuzlari qizargan, ishmoq, yoqimtoy, mallasoch, mo'ylovi kalta, hafsala bilan tepaga qaratilgan, soqoli tarashlangan.

Uxlashga uxlolmadik, vaqtni o'ldirish uchun laqillab, qittay-qittay oldik. Lekin yarim kechasi mazamiz qochdi, oldinda esa butun boshli uyqusiz tun. Yo'lakka chiqvolib, aqalli uch yoki to'rt soat uxlab olish uchun qulayroq joylashib olishga yarim hazil, yarim chin tadbirlar o'ylashga tushdik.

– Taqsirlar! Bir ajoyib g'oya bor. Faqat ko'nasizlarmi-yo'qmi, bilmayman. Oramizdan bittamiz telba rolini gardaniga olsin. Yana birimiz uning yonida qolib, uchinchimiz ober-konduktorning oldiga borib, go'yoki ruhan nosog'lom qarindoshimizni olib ketayoganimizni, shu paytgacha tinch-xotirjam o'tirganini, endi esa birdan asabiy holatga tushib qolganini va boshqa yo'lovchilarning xavfsizligini inobatga olib, uni vaqtincha izolyatsiyalab qo'yish zarar qilmasligini ma'lum etsin.

Biz rozi bo'ldik, akademikning rejasi jo'n va to'g'ri ekaniga ishongandik. Biroq hech birimiz jinni rolini o'ynashga og'iz ochmadik. Shunda savdogar:—

– Qur'a tashlaymiz, taqsirlar! – deb taklif qildi.

Uchovlon ichida kamina eng yoshi kattasi edim, aql bilan ish tutsam bo'lardi; lekin ahmoqona qur'a tashlashda ishtirok etdim va... turgan gap, go'sht sotuvchining mushtumidan tugunchani tortdim.

Ober-konduktor bilan bo'lgan maynavozchilik g'oyat tabiiy chiqdi. Bizni darhol alohida kupega olib o'tishdi.

Katta bekatlarda ahyon-ahyon eshik yonida zardali ovozlarni eshitib qolardik:

– Xo'-o'p... Manavi kupe-chi?.. Ochib bersangiz bo'lmaydimi?

Ortidan konduktorning past tovushi eshitalardi:

– Ma'zur tutgaysiz, bu kupe sizga noqulaylik tug'diradi... bu yerda bir bemorni olib ketishyapti... jinnini... uni beozor deb aytolmayman...

Shu zahoti ovozlari tinib, qadam tovushlari uzoqlashardi. Rejamiz ish berdi, qotib-qotib kuldik-da, uxlab qoldik. Xuddi yuz berajak kulfatni oldindan sezgandek, uyqumda ham bezovta bo'lib chiqdim. Alog'-chalog' tushlardan nafasim qaytdi, esimda, tongga yaqin bir necha marta o'z qichqirig'imdanday uyqonib ketdim. Soat o'nlarda turib o'tirdim. Sheriklarim ko'rinmasdi (ular bir stansiyada tushishlari kerak edi). Lekin qarshimda boshiga temiryo'lchilar kartuzini

qo'ndirib olgan davangirday mallasoch yigit o'tirar va mendan ko'zini uzmas edi. Men kiyimlarimni tartibga keltirib, tugmalarimni qadadim, to'rvaxaltamdan sochiq olib, yuvingani otlandim. Ammo eshik tutqichini ushlaganimni bilaman, haligi davangir sapchib o'rnidan turdi-yu, orqamdan shartta quchoqladi-da, divanga quladi. Bu surbetlikdan g'azabim oshib, uning changalidan chiqishga urindim, yuziga musht tortmoqchi bo'ldim, lekin qimir etolmadim. Davangirning qo'llari meni iskanjaday qisib olgandi.

– Mendan nima xohlaysiz? – deb baqirdim uning gavdasi vazminligidan nafasim siqilib. – Qo'yvoring meni!.. Daf bo'ling!..

Ilk daqiqalarda miyamda, savdoyining qo'liga tushib qoldim, degan fikr yilt etdi. Kurashdan qoni qaynagan davangir meni battar ezg'ilar, pishillagancha:

– Shoshmay tur, kaptarcha, bo'yningga zanjir tushsin, o'shanda bilasan sendan nima xohlashayotganini... – deb takrorlardi.

Dahshatli haqiqatni anglay boshladim va sitamgarim o'zini bosib olishi uchun birpas jim turdim, so'ngra:

– Yaxshi, joyimdan qimirlamaslikka so'z beraman. Qo'yvoring, – dedim.

Ichimda esa: «Albatta, bu xomkallaga tushuntirib o'tirishning foydasi yo'q. Sabr qilamiz, bu mojaro, shubhasiz, oydinlashadi», – deb o'yladim.

Kallavaram avvaliga ishonmadi, lekin miq etmay yotganimni ko'rib, qo'llarini asta-sekin bo'shatdi, nihoyat, meni butunlay qo'yib yuborgach, ro'paramdagi divanga o'tirdi. Lekin nigohlari sichqon poylayotgan mushukniki kabi ziyrak edi. Bergan barcha savollarimga bir og'iz ham javob bermadi.

Poyezd stansiyaga kelib to'xtaganida, vagon yo'lagida kimdir qattiq-qattiq gapirganini eshitdim.

– Bemor shu yerdami?

Boshqa ovoz bidirlab javob qaytardi:

– Xuddi shunday, janob hoshliq.

Keyin qulf shiqirlab, kupega tepasi qizil furajkadagi bosh suqilib kirdi.

Dod-voy qilgancha furajkaga yopishdim:

– Boshliq janoblari, Xudo xayringizni bersin!..

O'sha zahoti furajka yashirindi-da, eshik shaqirlab qulflandi. Men esa yana-tag'in tipirchilagancha davangirning jasadi tagida qoldim.

Nihoyat, N.ga yetib keldik. O'n daqiqadan so'ng uch artelchi meni olib ketgani kelishdi. Ikkatasi qo'llarimdan oldi, uchinchi esa davangirga qo'shilib paltomning yoqasiga chang soldi.

Shu tarzda meni vagondan sudrab tushirishdi. Platformada birinchi ko'rgan odamim ostki mo'ylov qo'ygan jandarm polkovnigi bo'ldi. Men unga qarab xitob qildim:

– Zobit janoblari, o'tinaman, meni quloq soling...

U artelchilarga «To'xtang», degandek ishora qilib, yaqin keldi va boadablik hamda nazokat-la so'radi:

– Bizga xizmatlari bormi?

Aftidan, u sovuqqon ko'rinishga intilgan, lekin lab chetlarining pipirirashi hushyor turganini sotib qo'ydi. Tushundimki, o'zimni xotirjam tutsamgina halos bo'laman. Shunda men shoshmasdan kamo-li ishonch ila boshimdan o'tgan savdoni zobitga aytib berdim.

Gaplarimga ishondimikin? Yoki yo'qmi? Ba'zan yuzida boshimdan o'tganlarga xayrixoh ifoda akslanar; ba'zan mishiqli bolalar yoki devonalarning bekorchi gaplarini eshitganday, shunchaki bosh irg'ab qo'yardi.

Gapimni tugatganimda u ko'zimga tik qarashdan qochib, mulo-yimgina qilib bunday dedi:

– Ko'rib turganingizdek, shubha qilmayman... lekin, to'g'risi, shu mazmunda shoshilinchnoma oldik... Qolaversa, oshnalaringiz... O', ishonchim komilki, siz mutlaqo soppa-sog'siz, lekin... bilasizmi, do'xtir bilan gaplashib ko'rish sizga og'irlik qilmasa kerak, o'n daqiqalik suhbat nima degani... Shak-shubhasiz, u o'sha ondayoq aqliy qobiliyatingiz joyida ekaniga ishonch hosil qilib, sizni qo'yvoradi; axir, men bu borada puxta bilimga egamasman, xo'p deyvavering.

Baribir zobit iltifot ko'rsatdi, yo'l-po'lda qahr-g'azabimni soch-masligim va qochishga urinmasligim xususida va'damni olib, kuza-tib qo'yishga birgina artelchini tayinladi, xolos.

Shifoxonaga ayni do'xtirning bemorlarni aylanib ko'rib chiqishi paytida kelibmiz. Ko'p kutmadim. Tez orada qabulxonaga bosh shi-

fokor bir nechta davolovchi vrachlar, psixiatriya bo'limi nazoratchisi, soqchilar va yigirma chog'li talabalar hamrohligida kirib keldi. Bosh shifokor yonimga keldi-da, menga uzoq tikilib qoldi. Yuzimni teskari burdim. Nazarimda, bu odam meni bir ko'rishdayoq yoqtirmay qolganday edi.

– Iltimos, xotiringiz jam bo'lsin, – dedi do'xtir o'tkir nigohlarini mendan uzmay. – Bu yerda dushmanlaringiz yo'q. Hech kimni sizni ta'qib qilmaydi. Dushmanlar o'shag'da... boshqa shaharda qoldi... Bu yerda sizga qo'llariniyam tekkizisholmaydi. Ko'ryapsizmi, atro-fingizda faqat yaxshi odamlar, ko'plari sizni tanishadi va sizga xayrixoh. Masalan, meni taniyapsizmi?

U oldindan meni jinniga chiqarib qo'ygandi. Unga e'tiroz bildirmoqchi bo'ldim-u, tilimni tishladim: nega desangiz, har bir «portlashim»ni telbalik alomatiday qabul qilishlari mumkin edi. Shu bois indamadim. So'ngra do'xtir ismi sharifimni, yoshimni, kasbi ko-rimni, ota-otamni va hokazolarni so'radi. Hamma savollarga qisqa va lo'nda javob berdim.

– Anchadan beri o'zingizni betob his qilyapsizmi? – tomdan tarasha tushganday savol berdi menga do'xtir.

Men betob emasligimni, o'zi umuman otday sog'lomligim bilan ajralib turishimni aytdim.

– Ha, albatta... Jiddiy biron-bir kasallikni aytmayapman, ammo... ayting-chi, sizni anchadan beri bosh og'rig'i, uyqusizlik bezovta qiladimi? Qoraxayollar bo'lmaydimi? Boshingiz aylanmaydimi? Ba'zi paytlari mushaklaringiz tortishib qolmaydimi?

– Aksincha, janobi do'xtir, men qotib uxlayman, bosh og'rig'i nima ekanini hatto bilmayman ham. Faqat bir marta notinch uxladim – u ham bo'lsa kecha tunda.

– Buni bilamiz, – dedi do'xtir xotirjam. – Xo'sh, endi sizni kuza-tib kelayotgan janoblar poyezdga chiqishga ulgurmay Krivorechye stansiyasida qolgan paytdan boshlab nima bo'lgani aytib berolmay-sizmi? Ne maqsadda kichik konduktor bilan yoqalashdingiz? In-naykeyin kupengizga kirgan stansiya boshlig'iga do'q-po'pisa urib tashlanibsizmi?

Do'xtirga bundan avval jandarm zobitiga aytgan gaplarimni qaytadan so'zlab berdim. Lekin bu safar gaplarim almoysi-jalmoysi

chiqdi – atrofimdagi beandishalardan xijolat tortayotgandim. Bundan tashqari, nima bo'lganda ham, meni jinniga chiqarmoqchi bo'lgan do'xtirning oyoq tirab olganidan yuragimga g'ulg'ula tushgandi. Hikoyamning o'rtasiga kelganda bosh shifokor talabalarga o'girildi-da:

– E'tibor qilyapsizlarmi, tolibi janoblar, hayot deganlari ba'zida aqlga to'g'ri kelmaydigan uydirmalardan iborat bo'ladi. Yozuvchining xayoliga shunaqa mavzu kelib qolsa, kitobxonlar o'la qolsayam ishonmaydi. Manavini topqirlik desa bo'ladi.

Men uning so'zlarida yangragan kinoyani aniq-tiniq tushundim. Uyatdan yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim.

– Davom eting, davom eting, marhamat, qulog'im sizda, – dedi bosh shifokor soxta muloyimlik bilan.

Uyqudan uyg'onishim bilan bog'liq epizodga yetib kelmasimdan u menga e yo'q, be yo'q savol berib qoldi:

– Aytingchi, hozir qaysi oy?

– Dekabr, – deya tutilib javob berdim uning savolidan taajjublanib.

– Bundan avval qaysi oy edi?

– Noyabr...

– Undan avval-chi?

To'g'risini aytsam, «br» bilan tugaydigan oylar menga qiyinchilik tug'dirardi, qay biri avval kelishini aytish uchun ularni avgustdan boshlab xayolan sanab chiqishim kerak bo'lardi. Shuning uchun biroz gajab qoldim.

– Ha... oylar ketma-ketligini ko'pam yaxshi bilmas ekansiz, – dedi to'ng ohangda bosh shifokor ko'proq menga emas, talabalar-ga yuzlanib. – Fasllar borasida biroz chalkashlik bor... zarari yo'q. Bo'p turadi... Xo'sh-sh... davom etamiz. Eshitaman.

Albatta, men nohaq edim, yuz martalab nohaq edim, faqat o'zimga jabr qildim, ammo do'xtirning makkorona hiylalari g'azabimni qo'zg'adi va men tomog'im yirtilguday baqirib zahrinni sochdim:

– To'nka! Qoloq! Mendan ko'ra siz telbaroqsiz!

Takror aytaman, bu hayqiriq qaltis va ahmoqona edi, biroq men bosh shifokorning tahqirromuz savollarining yuzdan birini ham tilga olmadim.

U ko'zi bilan sekin ishora bergandi, o'sha ondayoq to'rt tomonidan soqchilar menga tashlanishdi. G'azabdan o'zimni yo'qotib, kimningdir aftiga musht tushirdim.

Meni yiqitishdi, ovoq-qo'limni bog'lab tashlashdi...

Soqchilar meni qabulxonadan olib chiqib ketishayotganda bosh shifokorning asabni parmalaydigan ming'ir-ming'iri qulog'imga chalindi:

– Bu holat raptus, ya'ni kutilmaganda shiddatli hayajonlanish deb ataladi!

* * *

P/S. O'tinaman, do'xtir janoblari, yozganlarimni bir tekshirib ko'ring, agar gaplarim to'g'ri bo'lib chiqsa, birgina xulosa qilish mumkin – demak, men tibbiyot xatosining qurboniman. Iltimos qilaman, yoboraman, meni tezroq ozod eting. Bu yerda hayot deganlari naq do'zahning o'zginasi. Nazoratchi (ma'lumingizkim, u – Prus-siya ayg'oqchisi) tomonidan poraga uchgan xizmatchilar har kuni bemorlarning ovqatiga katta miqdorda strixnin va sianid kislotasini¹ sepishadi. Uchinchi kuni bu vahshiylar qizib turgan temirni qornimga va ko'kragimga bosib toza ta'zirimni berishdi.

Kalamushlar borasida ham shu gap. Bu hayvonlar juda uquvli ko'rinadi...»

– Bu nima degan gap, do'xtir! Firibgarlikmi? Telbaning alahlashimi yo? – deb so'radim Butinskiyga qo'lyozmani qaytararkanman. – Bu odam yozgan faktlarni u-bu kim tekshirib ko'rdimi?

Butinskiyning yuzida achchiq istehzo yilt etdi.

– Ming afsuski, bu yerda tibbiy xato degani yuz bergan, – dedi u daftarni g'aladonga solarkan. – Men o'sha savdogarni izlab topdim – familiyasi Sviridenko ekan – u hozir o'qiganlaringizni yuz foiz tasdiqladi. Stansiyaga tushishgach, u rassom talaba bilan choyga rom aralastirib ichaverishgan va hazilni davom ettirmoqchi bo'lishib,

¹ *Strixnin va sianid kislotasi – kuchli zaharlar (tarj.).*

poyezdning ortidan: «Poyezdga chiqishga ulgurmadik, Krivorech-yeda qoldik, bemorga ko'z-quloq bo'ling», degan mazmundagi shoshilinchnomayam jo'natishgan. Bema'ni hazil! Lekin bilasizmi, bu bechorani kim batamom xarob qilgan? «Karl Vudt va K® davomchilari» zavodining direktori. Undan Pchelovodovda shubhali hatti-harakatlar yoki g'ayritabiiy qiliqlarni payqamaganmisiz, deb so'rashganda, direktor katta texnik Pchelovodovni anchadan beri esi past deb hisoblashini, oxirgi paytlarda savdoyi bo'lib qolganini aytgan-qo'ygan. Menimcha, u bu gapni o'ch olish uchun aytgan.

– Agar barchasi sizga ayon bo'lsa, bu baxtiqaroni ushlab turishdan ne ma'ni bor? Yelib-yugurib bo'lsayam uni ozod qiling, talab qiling!..

Butinskiy kiftini uchirdi.

– Xatning oxiriga e'tibor bermadingizmi? Jinnixonamizning ma'lum-u mashhur qattiq rejimi o'z ishini ko'rsatdi. Bu odam bir yil oldin tuzalmas bemor deb tan olingan. U avvaliga ta'qib vasvasasiga tushdi, keyin esa esi og'ib qoldi.

PAGANINI SKRIPKASI

Venetsiyalik buyuk skripkachi va bastakor Nikolo Paganini sehrli skripka evaziga iblisga iymonini sotgani haqidagi afsonani kim ham bilmaydi? Hattoki hamma narsadan shubhalanuvchi, dahriy va hajvchi bo'lgan atoqli shoir Haynrix Hayne ham bu afsonaga ishongan. Lekin bu kelishuvda kim yutib chiqqani – insonmi yoki uning dushmanimi – bu hech kimsaga ayon emas. Vengriyadagi ko'chmanchi lo'lilar orasida bir g'alati rivoyat yuradi. Bunga ishonasizmi-yo'qmi – o'zingizga havola.

Taqdir yosh Nikologa o'ta shafqatsizlik qildi. O'sha yili u qarzarlaridan, omadsizlikdan va yuzlab mayda-chuyda ko'ngilsizliklardan qochib, Venetsiyadan Venaga yo'l oldi. Bu yerda u to'y-ma-to'y izg'ib, huvillagan qahvaxonalarda arzimas choychaqaga skripkasini chalib yurdi. Juldurvoqi kiyimlari tufayli durustroq mehmonxonalar-ga uni qo'yishmasdi.

Ayniqsa, 21-oktyabr uning uchun eng og'ir va mushkul kun bo'ldi. O'sha kuni ertalabdan qor aralash yomg'ir yog'di. Ilma-te-

shik boshmoqlari shaloplab, har qadamda loy sachratib borardi, o'zi esa botqoqdan chiqqan ko'ppakdek boshdan-oyoq ivib ketgandi.

Kechga tomon shahar havosi yanada xiralashib, allaqanday mud-hish tun boshlandi. Unda-bunda fonuslar yomg'ir tomchilarini yoritib xira nur sochardi. Bunday rutubatli kunlarda inson o'z qalbini hammaga ham ochavermaydi, o'zganing qayg'u-hasratiga hamdard bo'lavermaydi. Bunday paytlarda qashshoq odam sovuq, ochlik va yolg'izlikni boshqalardan ko'ra ko'proq his qiladi.

Kun bo'yi Paganini sariq chaqa ham ishlab topmadi. Kechqurun allamahol bo'lganda bir misgar chala qolgan, tamaki kuli tushgan pivoni unga uzatdi. Boshqa bir joyda esa shirakayf talaba uchta mayda chaqani unga uloqtirarkan:

– Bu senga choychaqa, faqat chalishni bas qil! – dedi.

Zarda bilan berilgan bu sadaqani Paganini qo'liga olarkan: «Mayli! Mashhur bo'lganimdan so'ng sadaqa berganingni esimga solarsan!» – deb tishlarini g'ijirlatib qo'ydi. Shuni aytish kerakki, taqdir boshiga qancha balolar yog'dirmasin, Paganini o'zining daho ekaniga sira shubha qilmasdi. «Durustgina kiyim-kechak, qulay sharoit va tuzukroq skripkam bo'lsa, men dunyoni hayratga solar-dim!» – deb o'ylardi u. So'nggi qahvaxonada ham uni ko'chaga haydashdi. U har qadam bosganda, ko'lmak hosil bo'lardi.

Uchta chaqaga kichkina bir bo'lak oq non sotib oldi va yo'l-yo'lakay ishtahasiz kavshanib bordi. Baland chordoqdagi katalakday xonasiga bazo'r ko'tarilarkan, umidsizlikka tushib, g'amgin qalbi g'azabga to'ldi. Namiqqan ayanchli skripkasini bir tepib burchakka tiqdi va ko'kragiga mushtlab, ayanch bilan baqirdi.

– Iblis! Iblis! Agar sen kaltafahm xotinlar o'ylab topgan uydirma emas, haqiqatan ham mavjud bo'lsang, hoziroq huzurimga kel! Mag'rur insonning mag'rur qalbi ijodiy dahosi bilan birga arzonga sotiladi. Kela qolsang-chi! Aks holda, o'zini osgan bir kambag'aldan senga qanday naf tegadi?

Shu ondayoq iblis paydo bo'ldi. Oltinugurt tutuniga chulg'anib, juft tuyoqli sassiq taka ko'rinishida emas, balki kamtarona keksa ishboshi yoki notariusdek kiyingan, kulrang pokiza kamzuli jimjimador sariq to'r bilan bezatilgan kiyimda paydo bo'ldi. U siyohdon, g'oz patidan ishlangan patqalam va shartnomalar daftarini ham

qo'lida tutgandi, ularni shoshmasdan, jiddiy tarzda cho'ltoq stolga yoyib qo'ydi. Moychiroq atrofni yoritdi.

– Ko'rib turganingizdek, yigitcha, – deya xotirjamlik bilan gap boshladi iblis, – shovqin-suronsiz, masxarabozlik qilmasdan, do'zaxni eslatuvchi kiyimlarsiz darhol yetib keldim. Sizdan qon bilan yozilgan tilxat ham talab qilmayman.

O'rta asrlardan qolgan bunday ahmoqona yasama mashmashalarga berilib o'tirmaymiz. Bizning asrimiz – xushmuomalalik, oddiy hisob-kitob asri. Yashirib o'tirmayman. Biz shaytonlarga soddadil aldovlardan ko'ra halollik bilan xizmat qilish qulayroq va foydaliroqdir. Shuning uchun bu kelishuvimizda men faqat xaridor sifatida, kerak bo'lsa, himoyachi sifatidagina qatnashayotganimga hayron bo'lmang. Shunday ekan, iymoningiz evaziga nimani xohlardingiz?

– Pul! Oltin! Umrbod behisob oltin!

– Mana, ko'rdingizmi, huquqiy maslahatim ham kerak bo'lib qoldi. Bu istaklarni har qanday esi past, shalpangquloq yigitchayam aytgan bo'lardi. Shon-shuhrat borasida nima deya olasiz?

– Buning yo'li oson! Shon-shuhratni pulgayam sotib olish mumkin. Buning uchun ziqnalik qilinmasa bas.

– Yo'q, do'stim, shoshqaloqlik qilyapsiz. Oltin bilan faqat til-yog'lamachilarnigina sotib olish mumkin. Bu bilan siz atrofingizdagi xushomadgo'y va laganbardorlardan nariga o'tolmaysiz. Yaxshisi, menga boshqa biror narsa haqida ayting. Masalan, sevgi haqida.

– Jin chalsin! Axir, sevgini boshqa narsalardan ko'ra osonroq sotib olish mumkin!

– Har qanday sevginimi? Siz shunday deb o'ylaysizmi? Bekorga, bekorga shunday deb o'ylayapsiz, yosh do'stim, Nikolo! Agar shunday bo'lganda edi, Yer yuzi allaqachon butunlay va abadiyan iblis ixtiyoriga o'tgan bo'lardi. Biz esa tekin ovqatdan semirib, yalqov-dangasa bo'lib qolardik. Xohlasangiz, judayam maxfiy bir sirni – nima sababdan iblis dunyoda eng baxtsiz ekanini sizga aytaymi? Chunki u bor vujudi bilan sevishtni istaydi, lekin uddasidan chiqolmaydi... Yo'q, yigitcha, agar har ikkalamiz uchun ham foydali bo'lgan kelishuvga ko'nsangiz, o'sha dastlabki kamtarona shartlaringizda qoling: durustgina kiyim-kechak, qulay sharoit va tuzukroq skripka.

Paganini bir necha daqiqa o'yladi va jur'atsizlik bilan:

– Men o'z ahdimdan qaytmayman. Siz haqsiz, janob mutasaddi. Lekin shoshqaloqlik qilib abadiy azob-uqubatga mahkum qilingan iymonimni arzon bahoga sotmayapmanmi? – dedi.

Iblis engashib stol ostidan ho'kiz terisidan ishlangan g'ilofni oldi va ehtiyotkorlik bilan Paganiniga uzatdi.

– Skripkani o'zingiz ko'rishingiz va chalishingiz ham mumkin. Bu – tekinga.

Paganini ehtirom bilan tilla suvi yugurtirilgan bronza ilgakni yechib, g'ilofdan uch qavat choyshabga o'ralgan sozni oldi: yumshoq teri, duxoba va ipak choyshablarni stolga yoydi va nihoyat, sirli sozni, go'yo butun go'zalligi bilan yalang'och ayolning adl qomatini eslatadigan shakl-shamoyildagi skripka ko'rindi. Bu – kichkina boshchasini ko'tarib turgan, uzun bo'yniga tutashgan yassi yelkasi silliqqina nozik beliga tutashib, baquvvat soniga mayinlik bilan uyg'unlashgan ayol qiyofasidagi skripka edi.

– Bu Stradivariusmas, – deya zavq bilan xitob qildi Paganini, – bu hatto Amatiyam, Gvarneriyam, Gvadaniniyammas!¹ Bu mukammal skripka, bundan ortig'i inson qo'lidan kelmaydiiyam! Demak, siz menga biroz chalishga ruxsat berasiz-a?

– Ha, marhamat, – dedi iblis erinibgina, istar-istamas ohangda. – Men sizga aytgandim-ku.

Skripka torlari sozlangan, kamonchasi yetarli darajada mumlangan edi. Paganini alangali ehtiros bilan chalarkan, kuy shu darajada yangradiki, qashshoqlikdagi bechorahol ahvoli yashirin iste'dodini yuzaga chiqarmaganini o'zi ham tushundi. U xursand holda bunday dedi:

– Sohib, xizimatingizga tayyorman va menga bergan maslahatingiz uchun sizga minnatdorlik izhor qilaman. Lekin, agar sizga og'ir botmasa, ayting-chi – nima sababdan ma'yus tortib qoldingiz, qayg'uga berildingiz – mendan xafa bo'ldingizmi?

¹ *Stradivarius* – kamoncha bilan chalinadigan musiqa asboblari ustasi Antonio Stradivari (1644–1737) yasagan skripka; *Amati* – italiyalik musiqa asboblari ustasi Nikola Amati (1596–1684) yasagan skripka; *Gvarneri* – italiyalik skripka ustasi Andrea Gvarneri (1626–1698) yasagan skripka; *Gvadanini* – italiyalik soz ustasi Jovanni Batis-ta Gvadanini (1711–1786) yasagan skripka.

– To'g'risini aytsam,– dedi iblis, o'rnidan turarkan, – iste'dodingiz o'zim kutgandan ham ko'ra cheksizroq ekani meni biroz xafa qildi. Lekin aytilgan so'z – otilgan o'q, so'zinning ustidan chiqaman. Skripka sizniki, umrbod egalik qiling. Mana sizga kichkina xaltachada oltin – bu hozirchalikka. Ertaga huzuringizga saroy a'yonlari kiyimlarini tikuvchi va venalik eng mohir sartarosh keladi. Ertasiga esa ersgersogning¹ shaxsan o'zi uyushtirgan tantanali musiqa tanlovi o'tkaziladi, o'shanda qatnashasiz. Endi, marhamat qilib, manavi sahifadagi shartnomaga imzo cheking. Ha, mana shunday. Yaxshi. Rahmat, ko'rishguncha xayr, yaxshi yigit.

– Ko'rishguncha? – ayyorlik bilan so'radi venetsiyalik Paganini.

– Unisini bilmadim, – quruqqina javob berdi iblis. – O'ylaymanki, sizga ajratilgan muddat tamom bo'lguncha, undan oldinmas. Siz mendan uzoq umr so'ramadingiz, shekilli?.. Maqtovimni qabul qiling, maestro!

Iblis skripkachini sira aldamagandi. Hamma voqea rejadagidek amalga oshdi. Musiqa tanlovidan so'ng toj-taxt vorisi – valiahd oldida Paganini obro'si ko'klarga ko'tarildi, ko'zlarni qamashtirdi va hozirgi kunlargacha kamaygani yo'q. Ammo Nikolo Paganini dunyoda eng baxtsiz odam bo'lib qoldi.

Qondirilmagan ehtiroslar, shuhratparastlikka o'chlik, pulga telbalarcha ochko'zlik, shu bilan birga, jirkanch va pastkash xasislik: nafaqat o'tmish va o'z davrining yetuk skripkachilariga, balki kelajakdagi buyuk skripkachilarga nisbatan ham yengib bo'lmas hasad uning iymonini zaharlab, kulga aylantirdi. U o'zi to'qigan musiqa asarlarini notalarga joylarkan, shu darajada chalkashtirib, topishmoqqa aylantirib ifodaladiki, uni o'zidan boshqa kimsa anglolmasdi. Lekin san'atning shu darajada cheksizligi, vaqti kelib, uning o'miga o'zidan ham zo'rroq musiqachi kelishiga, uning iblisona topishmoqlaridan ham go'zalroq va osonroq tarzda o'zidan ham o'tib ketishiga aqli yetardi. U kelajakka mana shunday oldindan nafrat va hasad bilan qarardi.

Puli oshib-toshib ketganiga qaramay, u ko'chada ketayotib, qog'ozlamimi-yey, arqon bo'laklarinimi-yey, chiqindinimi-yey te-

¹ *Ersgersog* – Avstriya shahzodalaring unvoni va shu unvonga ega odam.

rib yurar, bir kunlik ovqati bir talerdan¹ ham oshmasdi. Uning g'ayritabiiy san'atidan zavqlangan qanchadan-qancha go'zal ayollar unga muntazir bo'lib, o'zini, qalbini, taqdirini, borlig'ini baxshida qilganlarida ham, ular mening oltinlarimni egallash niyatida kelgan, degan xayolda ulardan nafratlanib, yuz o'girardi.

Eri davlat majlisi raisi bo'lgan, o'z boyligi, shon-shuhrati, sevgisidan voz kechib, ajralish sharmandaligini ham bo'yniga olgan, unga mushtoq bo'lgan aslzoda xonimning ham sevgisini rad etib, oldiga bir nechta chaqa tashlab: «Shu uch tangani eringizga berib qo'ying. Ularni menga bir zamonlar boshqa skripka chalmaslik sharti bilan bergandi. Sizni esa bu yerdan ketishingizni iltimos qilaman, hozir men mashg'ulot bilan bandman», – deya haydadi.

Qanchadan-qancha haqiqiy do'stlari, qadriga yetgan muxlislari-ni: «Sen mening boyligim va shuhratimga sherik bo'lish uchun ortimdan yuribsan», – degan ta'nalar bilan o'zidan uzoqlashtirdi.

U ayanchli ahvolga tushgan, umri ruhiy azob-uqubatda o'tar, taskin beradigan yaqin odami yo'q edi. Chunki u hech kimga ishonmasdi.

Ajal vaqti kelganda, uning huzuriga bo'zargan Notarius kirib keldi va Paganini unga xotirjamlik bilan shunday dedi:

– Men tayyorman, xo'jayin. Ammo mening hayotim quvonchsiz o'tdi.

– Ha, ochig'ini aytganda, men ham sizdan biror naf ko'rmadim. Tuzilgan bitim ikkimizgayam foyda keltirmadi. Manavi daftardagi shartnomalar ro'yxatini ko'ring, u yerda sizning nomingiz yo'q. Uni kimdir o'chirib yuborgan. Kimligini aytishga jur'at etolmaymiz.

– Endi men nima qilaman? – ko'ngilchanlik bilan so'radi Paganini.

– Hech narsa, – javob berdi bo'zargan Notarius. – Hech narsa, do'stim. Birortayam konsertingizni o'tkazmasdan hammasiga bordim va shu bilan sizdan qarzimni uzdim. Rahbarlarim menga salbiy baho berishdi. Siz ham, o'z navbatida, o'sha nomini tilga olishga jur'at etolmaganimiz oldida qarzingizni uzdingiz. Haqiqiy san'atni bizmas, U yaratadi. Lekin hisob-kitobni kim qiladi? Alvido. Bu gal endi umrbod xayrlashamiz. Skripkani sizga qoldiraman. E, yo'q!

¹ Taler – eski nemis kumush tangasi.

Mendan xavotir olmang. Bu xizmatimdagi arzimas ko'ngilsizlik, xolos. Xayr...

Ertasiga ertalab buyuk Paganinining joni uzildi: peshonasidagi ajinlar o'sha tiriklik paytidagidek mag'rur va shafqatsiz, lablarida esa shodiyona baxtli tabassum qotib qolgandi. Iblis skripkasi esa izsiz yo'qoldi.

SABUR

Bu voqea behisob daromadini dunyoning turli joylaridan keltirilgan kamyob va bir-biridan chiroyli turfa gullarning parvarishiga bag'ishlagan odamovi millioner, ammo shunday bo'lsa-da, ajoyib bir insonga tegishli oranjereyada yuz bergandi. O'ziga xos qurilmaga ega bo'lgan ushbu inshoot kengligi va unda to'plangan o'simliklarning qimmatbaho va noyoblighi bilan jahondagi eng taniqli oranjereyalarni ham ortda qoldirib ketishi mumkin edi. Bunday turli-tuman madori¹ o'simliklar juda ko'plab, antiqa turlaridan boshlab, eng nozik va injiq, rangpar momiqlargacha xuddi o'z vatanidagi kabi, yayrab-yashnab o'sib yotibdi. Bir tomonda qator savlat to'kib turgan har xil palmalar, banan, sago² hamda kokos kabi anjirsimon bo'ychan daraxtlar, ularning yalong'och shoxlari uchidagi keng soyabon yoki ulkan yelpig'ichlarni eslatuvchi yaproqlari baland issiqxonaning oynali shiftigacha tegib turibdi. Ulardan tashqari, bunda ko'plab g'aroyib obnus daraxti va unga o'xshash o'simliklarni ham uchratish mumkin. Ular orasida ko'rinishi qora, metindek mustahkam va uning tanasiga kelib tekkan yoki qo'ngan har qanday hashorat-u, qurt-qumrsqalarni shu zahotiyuq yaproq va gullari bilan qisib olib, ularni so'rib oziqlanuvchi yirtqich mimozalar³ hamda tanasidan xuddi qonga o'xshash quyuq qizil zaharli suyuqlik tomib turuvchi ajdaho daraxti ham bor. Oranjereyaning ichida keng aylana shakldagi ajoyib suv havzasi ham bor. Uning tip-tiniq, zilol suvining yuzasida yashil keng yaproqlarining har biri bir go'dakni bemalol ko'tara oladigan, maftunkor suv o'simligi – shohona viktoriyalar ham ajib bir alpozda suzib yuradi. Ushbu betakror oranjereyada faqat oqshom

¹ Tropik ma'nosida.

² Palma turi.

³ Mimoza – qo'l tegsa, bargi yumiladigan o'simlik.

pallasi gullaguvchi oppoq hind nilufarlari ham talaygina. Ulardan tashqari, tekis devor yuzasi bo'ylab basma-bas qad rostlab turgan to'q yashil rangli xushbo'y sarv daraxtlari, nozik och pushti rangda gullarga burkanib yotgan sambitgullar, har faslda yam-yashil bo'lib yashnab turuvchi xushbo'y mirta butalari, muattar bo'yli turfa xitoy daraxtlari, ajoyib manzarali qattiq yaproqli fikuslar, janub akasi, dafna, po'rtaxol va bodom kabi daraxtlar ham o'ziga makon topgan.

Rang-barang taxir isli chinnigullar, yashnab turguvchi yapon xrizantemalari, namozshomdan oldin go'yo ta'zim qilayotgandek, oppoq gullarini zaminga egib oladigan, o'ychan nargisgullar, qabr dahmalari, maqbaralarga bezak beruvchi sunbul va shabbo'ylar, kumush qo'ng'iroqchali ma'sum marvaridgullar, xush bo'yi bilan har qanday kishini sarmast qilguvchi oppoq pankratsiyalar¹, xuddi boshiga naparmon va qizil telpak kiyib olgandek, sollanib turgan yirik dumaloq gulli gortenziyalar², kamtarin xushbo'y binafshalar, asli makoni Yava oroli bo'lgan o'ta muattar oq tabargullar va qolaversa, dukkaklilar oilasiga mansub juda ko'plab turli xushbo'y o'tsimon o'simliklar, xush bo'yi atirgulni eslatuvchi sallagullar chamanzor bo'lib yotibdi. Qadimdan Rim go'zallari qayd etganidek, teriga ajib tiniqlik va mayinlik baxsh etgani bois, ular sevib, yuvinish hovuzlariga soladigan tizingullar va nihoyat, bir-biridan betakror qirmizi, jigarrang, pushti, sariq, malla va ko'zni qamashtiruvchi tiniq, oppoq kumushdek tovlanib turgan turfa atirgullar, qiyg'os ochilib yotgan minglab boshqa muattar gullarning atri oranjereya havosini butkul jannatmonand iforlarga to'ldirib turadi.

Shuningdek, bu yerda o'sayotgan sovuqqa chidamli kameliya³ yashil butasi, rang-barang azaliyalar⁴, xitoy piyozgullari, Hollandiyadan keltirilgan lolalar, yorqin ranglarda jilolanib turgan ulkan kartoshkagullar va qalin bargli qo'qongullar kabi ko'plab gullar ifor taratmasa-da, o'zlarining betakror go'zal jilvasi bilan har qanday kishini maftun etadi.

¹ *Pankratsiy* – bir pallali, ko'p yillik o'simlik.

² *Gortenziya* – yirik gulli manzarali o'simlik.

³ Choydoshlar oilasiga mansub doim yashil buta.

⁴ *Azaliya* – manzarali o'simlik.

Ammo, ulardan farqli o'laroq, oranjereyada na bir ko'rinishi, na xushbo'y ifori va na boshqa biror xususiyati bilan deyarli hech qanday ahamiyatga molik bo'lmagan, shunchaki e'tibordan chetda, o'z-o'zicha o'sib yotgan bir ajabtovur o'simlik ham bor. Uning xuddi ildizidan boshlanib o'sib chiqqan kabi, atrofi qalin tikanlar bilan qoplangan ingichka uzun barglari har tomonga qarab quloch yoyib yotibdi. Toki zamin ustiga to'shalib yotgan o'nga yaqin bunday barglarini u hech qachon tepaga ko'tarishga harakat ham qilmagandek edi go'yo. Anchayin g'alati ushbu o'simlikning barglari kun davomida muzdek, kechasi esa issiq bo'ladi. Yaproqlari orasida gullari bor yoki yo'qligini ko'rib bo'lmas, ammo gul o'zagi uzun, tik bo'lib, tepaga qarab cho'zilib turgan ushbu o'simlikning nomi sabur deb ataladi.

Oranjereyada o'sayotgan barcha gullar va o'simliklar qandaydir sirli, odamlarga tushunarsiz bo'lgan ajib bir tarzda hayot kechirishar, o'zaro muloqat qilishar edi. To'g'ri, ularning so'zlashuvga zaboni bo'lmasa-da, qay bir yo'sindadir bir-birini tushunardilar. Ammo qanday qilib? Bu juda qiziq! Balki bunday aloqada ulardan taraluvchi turli-tuman xushbo'ylari xizmat qilar? Yoki gul changini bir gul kosasidan ikkinchisiga olib sepuvchi shamol yordam berarmikin yoinki ushbu ulkan issiqxonaning oynali tom-u, devorlari orqali tushayotgan quyoshning iliq nurlari sababmikin? Har ne bo'lganda ham, ular orasidagi bu kabi mo'jizaviy holatni tasavvur qilish uchun asalari va chumolilarning bir-birini tushunishlarini ko'z oldimizga keltirib ko'rsak, bunga ishonmay yoki qoyil qolmay ilojimiz yo'q. Bundayin ajib muloqotlar nega endi tabiatning eng go'zal mo'jizasi bo'lgan, gullar va o'simliklar o'rtasida bo'lmasligi kerak, albatta, bo'ladi-da!

Bundan tashqari, ularning qay birlari o'zaro ajab ishq, muhabbat, do'stlik va mehr rishtalari bilan bog'lanib, yanada bir-biriga yaqinroq bo'lib qolgan bo'lsa, qay birlari o'rtasida qandaydir ziddiyatlar, kelishmovchiliklar ham paydo bo'lib turardi. Ko'pchiligi esa o'zining go'zalligi, muattar isi va hattoki bo'yi uzun, qad-qomati tikligi borasida ham o'zaro raqobatga kirishardi. Yana qay birlari qadim ajdodlarining kelib chiqish tarixi bilan g'ururlanishardi. Ba'zida, ayniqsa, go'zal tarovatti ko'klam tonglarida, quyosh qir-adirlar ortidan bosh ko'tarib, atrof-olamga zarrin nurlarini charaqlatib socha

boshlagan damda butun oranjereya tilla rangda tovlanib, gul yaproqlari va gulg'unchalar tebranib, ular ustiga yog'ilgan olmosdek shudring tomchilari titranib, turgan kezlarda ular o'rtasida tinimsiz shivir-shivirlar boshlanib, ajib betakror, xush bo'yli suhbatlar avj olib ketardi. O'shanda suhbatlar ko'pincha ular olib kelingan, olis-olislarda yastanib yotgan bepoyon dala-dashtlar, qir-adirlar va unda taralib turuvchi yoqimli muattar bo'ylar tarixi, soya-salqin, namchil o'rmonlar bag'ridagi ko'rgan-kechigan voqealar, undagi g'alati, olabula o'simliklar, turli-tuman hashoratlar va albatta, o'sha qardron ona vatanlari sog'inchi, uning oydin, osuda oqshomlari, tiniq osmoni, keng dala, o'rmonlarining toza, sof musaffo havosi to'g'risida kechardi.

Ammo bunday kezlarda ham ularning barchasi bir taraf, ularga qo'shilolmay, zimdan kuzatib turguvchi baxtiqaro, beo'xshov sabur o'zi bir taraf bo'lib, ajralib turardi. Shuncha yillar davomida unga hech qaysi bir o'simlik yoki daraxtlardan birortasi zarracha ham e'tibor ko'rsatmadi, nazar-pisand ham qilmadi. U hech qachon na birorta gul, na biror o'simlik bilan dildan do'stona yoki biror yaqin munosabatda bo'lganini, dardlashganini eslolmaydi. Shuncha davr o'tibdiki, ularning birortasi na ishq, na muhabbati bilan uning yuragini jizillatmadi yo uning qalbida bir chimdim mehr uyg'otolmadi. Aksincha, shu paytgacha ularning doimo uni ko'rsatib, piching qilishlari, masxara qilib ustidan kulishlari saburni butkul zada qilgan va bu holatning hech bir nihoyasi yo'qdek edi. Chunki o'ziga bino qo'ygan bu go'zal gullarning hech biri sabur kabi beo'xshov, xunuk o'simlikning o'z yonida turishini xohlamas, hech qaysisi uni o'ziga munosib ko'rmas edi. Yillar davomida kechgan bunday haqoratomuz munosabatlardan bezor bo'lgan, o'ksigan saburning ko'nglida esa bularning barchasiga nisbatan nafrat paydo bo'ldi. Qalbining tub-tubida yanada avj olayotgan nafrat o'ti, bora-bora uni ko'p qiy-noqlarga soldi. U bechora esa azob chekayotganini hech kimga bildirmaslikka, barchasini ichga yutib yashashga ko'nikishga harakat qilardi.

Kunlardan bir kuni, iyul oyining erta tonglaridan birida issiqxonada o'ta kamyob va betakror kashmir atirgullaridan biri ochildi. Uning yonib turgan qirmizi gulbarglarining xiyol qayrilgan joylari

qora baxmaldek tovlanar va undan nihoyatda yoqimli, xushbo'y ifor taralar edi. Oranjereyaning oynali devorlari orqali quyoshning ilk nurlari tusha boshlaganida, oqshomgi yengil mudroqdan so'ng birin-ketin uyg'ona boshlagan gullar tong chog'ida ochilgan mo'jizaviy go'zal atirgulni ko'rib, hayratlanib qolishdi va har tarafdan ularning shivir-shiviri eshitila boshladi.

– Vo, ajab! Bu atirgul munchalar chiroyli bo'lmasa! Qaranglar, qandayin xushro'y, qanchalar xushbo'y! U jamoamizning eng go'zal ziyinati, faxri bo'ladi! Sen bizning malikamizsan!

Ushbu maqtovlarni tinglab, yayrab va uyalinqirab turgan qirmizi atirgul quyosh nurlarining zarrin yog'dusida yanada yal-yal yonib, tovlanib, turfa gullar orasida chindanam malikaga o'xshab ketardi. Unga mahliyo bo'lgan barcha gullar ajib gultojlarini egib, o'simliklar salom tarzida egilib, go'yo ta'zim bajo keltirishdi.

Shu tobda endigina uyg'onib ketgan baxtiqaro saburning ham ko'zi nogoh go'zal malikaga tushdi-yu, hayratdan es-hushidan ayri-layozdi. Atirgulning tarovatidan qalbi zavqqa to'lib:

– O, go'zal malika! Sen bunchalar sohibjamolsan! – deb yubordi beixtiyor.

Uning qalbidan otilib chiqqan bu samimiy so'zlarni atrofdagilar ham eshitishdi va bir nafasdan so'ng ularning barchasi o'zlarini tutolmay, haholab kulib yuborishdi. Shunda dimog'dor lolalar birin-ketin chayqalib, qah-qah urishdi. Kulgidan qad-qomati tik, kekkaygan palma daraxtlarining barglari silkina boshladi, oq marvaridgullarining qo'ng'iroqlari jaranglab ketdi. Hattoki, kamsuqum, ehtiyotkor, rahmdil binafshagullar ham o'zlarini tutolmay, to'q rangli dumaloq gulbarglari orasidan miyig'ida kula boshladilar.

– O'-o', badbashara! – deya qichqirdi kulgidan nafasi qaytib, salkam o'layozgan, o'zi ko'tarolmagan semiz tanasi tayoqqa bog'lab qo'yilgan sallagul. – Sen kimga gapiryapsan? Bunday maqtovlarni aytishga sendek bir tasqaraning qanday haddi sig'di? Axir, qara, hattoki, zavqlanib turishing ham qanchalar xunuk va yoqimsiz ekanini nahotki o'zing anglab yetmasang?

Shu tobda barchaning e'tiborini tortib:

– Bu kim o'zi? – deya unga qarab mayin jilmaygancha so'radi gullarning navnihol malikasi.

– Bu badbasharami? – deya baland ovozda haqorat qilishda davom etdi sallagul. – Biz hech qaysimiz uning kimligini va qayerdan kelib qolganiniyam bilmaymiz. Ismiyam juda g‘alati, o‘ziga o‘xshash – sabur.

– Meni bu yerga olib kelishganida, hali kichkina, nozik novdacha edim, – deya ta‘kidladi baland bo‘yli, kekxa palma. – U o‘shandayam juda bahaybat va o‘ta xunuk edi.

– Men bilganimdan beri ancha suvlar oqib o‘tdi, u hech qachon gullamagan ham, gullolmaydi ham, shekilli, – deya shama qildi bahsni kuzatib turgan oq sambitgul.

– Qaranglar, buning ustiga, butun tanasini qo‘poldan-qo‘pol tikkanlar qoplab olgan, – deya gapga qo‘shildi uzoqdan qarab turgan bir o‘simlik butasi. – Lekin hayronman, bu yerdagi bizni parvarishlayotgan odamlarning barchasi negadir bizdan ham ko‘ra ko‘proq unga e‘tibor berishidi, negadir ko‘proq uni avaylashadi. Shunga qaraganda, u balkim qandaydir qimmatbaho nimadir bo‘lishiyam mumkin, yanayam bilmadim.

– Buning sababini men bilaman, – deya masxara qilishni davom etdi sallagul. – Chunki unga o‘xshash o‘ta beo‘xshov, badbashara o‘simliklar juda noyob, yuz yilda arang bir topilishi mumkin. Shuning uchun ham uning nomini yana boshqacha qilib yuzyillik deb ham atashadi.

Shunday qilib, erta tongda boshlangan bugungi suhbat mavzusi kun yarmigacha davom etdi. Bu yerdagi gullarning barchasi bechora saburning ustidan beayov masxara qilib kulishdi. U esa har doimgidek muzday barglarini yerga tiraguncha, jimgina miq etmay tura-verdi.

Choshgohdan so‘ng chidab bo‘lmas darajada havo dimiqib ketdi. Shundan so‘ng momaqaldiraq yoki jala yog‘ishi sezila boshladi. Osmonda suzib yurgan keng bulutlar asta-sekin quyuqlashib, qoramtir tusga kirishdi. Sal o‘tib esa nafas olish ham qiyin bo‘lib qoldi. Gullarning bari birin-ketin holsizlanib, nozik boshlarini xam qilgunicha, qimir etmay yomg‘ir yog‘ishini kutib turishdi.

Nihoyat, xuddi olisdan tobora yaqinlashib kelayotgan yirtqich maxluq qiyqirig‘iga o‘xshash ovoz kabi gumburlab momaqaldiraq

eshitildi. Birpasdan so'ng bog'bonlar har doimgidek jala yog'ishidan oldin kechadigan bo'g'iq sukunat paytida tezkorlik bilan issiqxonaning oynali tomini yopib qo'ygan og'ir taxtalar ustidan shatirlab yomg'ir quya boshladi. Bir zumda oranjereyani xuddi kechasidagi kabi qorong'ilik qoplab oldi.

Ayni shu tobda nogahon, erta tongda ochilgan atirgulning yonida kimningdir sokin, dardli xonishi eshitila boshladi:

– Ey, gullar malikasi, so'zlarimga bir dam quloq sol. Bu men, o'sha baxtiqaro, omadsiz saburman. Tong chog'ida sening go'zal husn-u jamolingni ko'rib, aql-hushimdan ayrildim. Sen esa mening zabun holimni ko'rgach, ajib jilva qilding. Mening chiroying oldida hayrat ichra dong qotgan sarmast holatim g'uncha lablaring uzra yoyilgan mayin tabassumga sabab bo'ldi. Senga bo'lgan ishqim, shaydologim, qalbimni o'rtayotgan his-hayajonlar hamda tashqarida sharros quyayotgan yomg'ir tufayli cho'kkan qorong'ulik meni yanada dadil bo'lishga, qo'rqmaslikka undayapti. Ey, go'zallar go'zali, men seni sevib qoldim! O'tinaman, muhabbatimni rad etma!

Bu so'zlarni eshitgan atirgul dimiqqan havo, qorong'ilik hamda tashqaridagi momaqaldiroqdan dahshatga tushib turgan holatda hech narsa deyolmadi.

– Ey, sohibjamol, so'zlarimga quloq sol. To'g'ri, mening ko'rinishim juda qo'pol, tikanli barglarim xunuk bo'lishi mumkin. Ammo shu tobda men senga ajib bir sirimni oshkor qilmoqchiman. Amriqoning olis, qo'l yetmas qalin o'rmonlari bag'rida ulkan ming yillik daraxtlar tanasiga liana deb ataluvchi chirmovuqlar chirmashib o'sib yotadigan, tabiati betakror go'zal joylar bor. Hali birortayam odam oyog'i yetmagan o'sha so'lim maskanlar mening vatanim bo'ladi. Men esa yuz yilda bir marta atigi uch soatgina vaqt davomida gullayman va shu lahzalarda halok bo'laman. Mening ildizimdan esa yana yuz yildan so'ng gul ochib va o'sha soatlarda dunyodan ko'z yumguvchi yangi novda o'sib chiqadi. Men ayni damda butun vujudim bilan bir necha daqiqalardan so'ng ana shunday gullashimni sezib turibman. Ey, go'zal! Sendan o'tinaman, bugungi yorug' dunyo bilan vidolashuv chog'imda meni yolg'izlatib qo'yma, mendan yuz o'girma. Ishon, hayotim mobaynida sening qarshingdagi holim kabi ajib ahvolga tushmaganman. Men seni sevib qoldim! Bugun

men qalbigda olov olayotgan sening muhabbating uchun gullayman va sening ishqing bilan yorug' olamdan ko'z yumaman!

Ammo-lekin uning bu so'zlarini tinglab turgan atirgul boshini xam qilgunicha, hech bir javob aytmadi.

– Yagonam, omonatim, atirgulim! Umrinning poyonidagi so'nggi, eng qadrlı, betakror baxtli onlarimni yolg'iz senga bag'ishlayman. Ishaq haqqi, muhabbat haqqi, seni va hayotni quchib qolaman. Ammo nahotki, sening shohona mag'rurliging oldida oshiqona dil so'zlarim, umrinning eng g'animat, eng aziz, sirli kuy-lari ichra kechayotgan shu holatim, iqrorim kamlik qilsa? Axir, erta tongda quyoshning ilk nurlari paydo bo'la boshlagach...

Shu paytda tashqaridagi momaqaldiroq shunchalar dahshatli gumburladiki, sabur so'zlashdan to'xtashga majbur bo'ldi. Tong oldidan jala tingach, oranjereyani go'yoki xuddi quroldan otilgan o'q kabi baland ovozda «qars-qurs»lar jarangi tutib ketdi.

– Sabur gullayapti, – deya bosh bog'bon ikki haftadan beri ushbu mo'jizani intizorlik bilan kutayotgan oranjereya egasini uyg'otish uchun yugurib ketdi.

Oynali devorlardan taxtalar olib tashlandi. Barcha odamlar saburning atrofida jam bo'lib to'planishdi. Gullar, o'simliklar ham qo'rquv va hayajon ichida boshlarini unga o'girib, kuzatib turishdi.

Saburning uzun yashil tanasi uchida misli ko'rilmagan darajada bir to'p bo'lib go'zal oppoq gullar ochila boshladi. Atrofga ajoyib, betakror, juda yoqimli, har qanday kishini sarmast qilguchi muattar bo'y taralib, bir zumda butun oranjereya havosini chulg'ab oldi. Oradan yarim soat chamasi vaqt o'ta boshlagach, uning oppoq gullari ajib bir afsonaviy tarzda asta-sekin pushti rangga, so'ngra xiyol qizarib, keyinroq to'q qizil, oxiri qariyb qora tusga kirdi.

Erta tongda quyoshning ilk nurlari paydo bo'la boshlagach esa sabur gullari birin-ketin so'la boshladi. Uning orqasidan o'sha xunuk tikanli barglari ham quridi. Nihoyat, yana yuz yildan so'ng barchani lol qoldirib qayta gullash uchun ushbu noyob gulning umri xazon bo'ldi.

Gullar malikasining esa muattar bo'yli, mag'rur boshi egildi.

N.O.S.ga bag'ishlayman.

*Menkim, qattiq yarador bo'lib,
Gladiatorlar jangini namoyon etgum...*

Haynrix Hayne

Uchinchi va to'rtinchi ko'rinishlar oraliq'idagi tanaffus yakunlanmoqda edi. Kapelmeyster¹ Ivan Ivanovich fon Gekkendolf Bobil asirligidagi yahudiylar yig'isi g'oyatda yorqin tasvirlangan eng qiziqarli joygacha hozirgina yetib keldi.

Ivan Ivanovich nuqul serjazava, fuga² nola qilib turadigan shunday pyesalarni jonidan yaxshi ko'rardi – unda fleytaning hasrat ila ingranishi klarnetning faryodli chinqiriqlari bilan qorishib ketadi. Trombon hech narsaga qaramay, guv-guv qilar va hamma yoqni turli nog'oralarning taraqa-turumi tutib ketar edi. Tovushlarning betartib shovqinidan dahshatga tushgan va cholg'ularni joyiga qo'yishga tayyor mashshoqlar mung to'la, umidsizlikdan loqaydlik aks etgan nigohlarini bot-bot kapelmeystrga tashlardilar...

Shunda Ivan Ivanovich hammani tong qoldirdi: u o'zini u yoqdan bu yoqqa otar, gavdasi bilan eng qiyin harakatlarni bajarar, chaqqonligi ila xaloyiqni hayratga solar edi. Nihoyat, charchoq va hayajondan qip-qizarib, cholg'ular umumiy jo'rlikka qo'shilib ketganida tomoshabinlarga tantanavor ko'z yugurtirib chiqdi.

Bu gal omma Ivan Ivanovichning musiqiy chiqishlaridan u aytganchalik hayratga tusholmasdi, chunki hamma birinchi marta kutilayotgan drama haqidagi suhbatlar bilan andarmon edi. Muallif ismini yarim ovozda tilga olar va quyuq sochi to'zg'in yigit o'tirgan liter³ ayvonchasi tomonga ishora qilar edi.

Sahnada to's-to'polon avjida edi. Bir vaqtning o'zida ham dekorator, ham mashinist, ham senariychi vazifasini bajarayotgan Aleksey Trofimovich Petunya qattiq hayajonda edi.

¹ Dirijyor.

² Bir musiqaviy ohangning bir necha ovozda izchil takrorlanishi.

³ Xos kishilarga mo'ljallangan joy.

– Tushiringlar, pardalarni tushiringlar! – qichqirdi u, sahna bo‘ylab syurtuksiz yugurarkan. – Sekinroq-da, axir, ko‘zlaringga qaranglar! Menga qara, hov naynovvachcha, oting nimaydi?

– Kirill-da, nima bo‘lardi, – javob berdi miyig‘ida kulib, jingalaksoch, bo‘ydorgina yigitcha.

– Gap bunday, qo‘zichog‘im Kirill, tezda pastga, kassaga tushgin-da, Andrey Filippovichdan mening sakvoyajimni so‘ra, uqdingmi? Qopchada, mana bunaqa kichkina, dumaloq idish... Nega qarab turibsan, chopsang-chi! Hoy, nima balo, uxlab qoldilaringmi? Daryo qani? Nikolay Antonovich, daryoni unutibsizlar-ku, daryoni haydang!

– Osilib turaversin, – yuqoridan dag‘al ovoz javob qaytardi, – endi pardalar xalaqit beradi, qaytanga osonroq bo‘ladi.

– Siz-chi, Nikolay Antonovich, devorni tuzatdingizmi? O‘tgan safar Anempodistov o‘n to‘rtta tishidan ayrilgandi. Aleksandr Petrovich, nima qilishimniyam bilmay qoldim, bulutlar parcha-parcha bo‘lib sochilib ketgan, daryo yilt-yilt qiladi, pardalar eskiligidan chilib ketgan...

So‘nggi so‘zlar antreprenyorga va qo‘lida qamchi bilan sahnadan tez yurib o‘tgan truppa direktoriga qarata aytilgandi. Bu o‘ttiz besh yoshlardagi baland bo‘yli, kelishgan kishi edi. Yuzi tevaragini quyuq qora soqol qurshab olgan bo‘lib, sochi yelkasiga chiroyli tushgandi, soxt-sumbatidan u o‘ziga yetgancha mag‘rur, qurb-qudratiga ishonchi manaman deb turar edi. Ayniqsa, uning katta-katta, kulrang, sovuq boquvchi ko‘zlari daf‘atan e‘tiborni o‘ziga tortardi, uning tik boqishiga ko‘plar, hattoki eng jiddiy odamlar ham tob berolmasdi.

– O‘zingiz bir o‘ylab ko‘ring, – zorlanardi Aleksandr Trofimovich, jon-jahdi bilan qo‘llarini harakatga keltirib. – Andryusha yana ichib olibdi, eski pardalar hech nimaga yaramaydi, qulab tushib, bita-yarimtasining boshini yorishi hech gapmas...

– Keyin, keyin, – uning gapini bo‘ldi parishonxotirlarcha Aleksandr Petrovich. – Golyaskaya qani?

– Xonim pardoixonada bo‘lsalar kerak, agar adashmasam, – javob berdi Aleksey Trofimovich va topshiriqlar bergani yana chopib ketdi.

Yuqoriga ko'tarilib, Aleksandr Petrovich choqqina bo'yalgan eshik oldida to'xtadi va taqillatdi.

– Kim u? Kiravering! – Eshik ortidan yoqimli ayol ovozi quloqqa chalindi.

Lidiya Nikolayevna Golskaya chindan sohibjamol edi.

Faleri laqabi ostida sahnada o'ynagan va asarning qoq o'rtasida qisqa, ammo zaharli «Turnyursiz qiyofa» epigrammasi¹ bilan savdogar xotinlarning yuragini zabt etgan tragik Anempodistov har gal Lidiya Nikolayevna haqida gap borganda, ko'zlari kosasidan irg'ib chiqadi, bir necha daqiqagacha ola-kula bo'lib o'tirar, xirildoq ovozda: «Farishta! Farishtaning o'zi!» – deb luqma solar edi. Darhaqiqat, yuz bichimi nihoyatda fusunkor, turgan-bitgani qadimgi malikalarni esga soluvchi, tiniq va rangpar chehrali Golskayaga bundan ortiq tashbeh topib bo'lmasa kerak.

Antreprenyor kirib kelganda, Lidiya Nikolayevna shiddat bilan oldinga intildi, ammo yana oromkursiga cho'kdi va birdan ikkala yuzi qip-qizarib ketdi.

– Sizni huzurimga qanday shamol uchirib keldi? – so'radi aktrisa zo'raki iltifot ila, uning tovushida oshkora alam va nafrat ohangini payqash qiyin emasdi.

Aleksandr Petrovich qora yoldor sochini silkitib qo'yadi.

Tomdan tarasha tushganday qilib berilgan bu savol unga juda ayil botdi, chunki u yotig'i bilan gapirishni niyat qilib kelgandi.

– Avvalo, sizdan ikkita narsani so'ramoqchiman, Lidiya Nikolayevna, birinchidan, menga bunaqa ohangda gapirishingizni tashlasangiz. Ikkinchidan, sizga shuni ma'lum qilmoqchiydimki, sizning ko'rinishingiz va umidsiz nigohlaringiz meni yaxshi ma'noda tashvishga soladi. Bunday bo'lishiga jo'yali bir asos bormikin? Bugun esa, xuddi ataylab qilgandek, juda yomon o'ynayapsiz. Yaxshiyamki, tomoshabinlar sizni yaxshi ko'rishadi, aks holda, siz tufayli pyesa barbod bo'lishi tayin edi, ha, uzil-kesil yo'qqa chiqardi... Ming qilsayam, ayolligingizga bordingiz, burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirdingiz! Bu yerda mendan tashqari muallif aziyat chekadi, sizning o'rtoqlaringiz aziyat chekishadi; iymonim komilki, tomoshabinlarning to'rtidan uch qismi ovozingiz o'layotganidan bexabar, – shun-

¹ Epigramma – qisqacha hajviy she'r.

day deya Aleksandr Petrovich g'ijingan, o'pkasini qo'ltiqlaganacha javob kutib, ayolning qarshisiga kelib to'xtadi.

– Aleksandr Petrovich, axir, o'z tanangizga bir o'ylab ko'rsangizchi, – nihoyat tilga kirdi Lidiya Nikolayevna tiniq tovushda, – chin dildan umrida birinchi marta sevib qolgan ayolni tasavvur qila olasizmi?

Aleksandr Petrovich toqatsizlangandek bir harakat qildi.

– Biroz shoshmay turing! – so'zida davom etdi Lidiya Nikolayevna. – O'sha ayol bir ayol berishi mumkin bo'lgan hamma narsani berdi, deb tasavvur qiling, yigit esa mana shu qaynoq, so'qir muhabbatni haqoratladı, sevgan ayolni taqdir hukmiga tashlab ketdi. Yana shu narsani tasavvur kilingki, Aleksandr Petrovich, mana shu ayol o'z joniga qasd qilishga yoki telba bo'lishga juda yaqin qolganida, ha-ha, aynan mana shunday vaqtda minglab odamlarning ko'nglini chog' qilishiga to'g'ri keladi!

– Ana shunaqa! Xuddi o'ylaganimdek bo'lib chiqdi, – gapni ilib ketdi betoqat antreprenyor. – Siz to'g'ridan-to'g'ri mendan izoh talab qila olishingiz mumkin bo'lgan vaqtda bu yerda shama va pisandalarga hojat ne edi? Sizga sizni sevishimni aytganimda, chin yurakdan aytgandim, ya'ni xuddi sizga o'xshab – bunga shubha bo'lishi mumkin emas, deb o'ylayman. Bordi-yu, mendan ko'nglingiz qolgan bo'lsa, men g'amga botib yurmagan, sizdan sevgi talab qilmagan bo'lardim! Bordi-yu, ishq iztirobi menga og'irlik qilguday bo'lsa, o'zimni teatrimning birinchi to'siniga osib qo'ya qolardim. Agar raqibimga qarshi rashk va g'azab alangasida kuyguday bo'lsam, qarab o'tirmasdim, ko'nglim nimani xohlasa, shuni qilardim; masalan, mana shu grafin bilan bitta-yarimtani boshiga urib yorgan bo'lardim...

– Aleksandr Petrovich, – e'tiroz bildirdi Golskaya, – siz mening ayol kishi ekanimni unutingiz chog'i...

– E-ey, nima farqi bor! Ba'zi yaramas «kuydim-yondim»chilarning, modomiki, erkak va ayol bir-biriga ko'ngil qo'ydimi, ular o'rtasida qandaydir o'zaro axloqiy majburiyat paydo bo'ladi, degan gaplariga o'la qolsam ishongim kelmaydi. Ha, to'g'risini aytamanki, tushunmayman ularni, Lidiya Nikolayevna! Erkakning bir so'ziga ishonib, uni nikoh kursisigacha olib borish bo-

kira qizlarga xos va buni kechirsa bo'ladi. Men sizga yoqib qoldim, siz menga yoqib qoldingiz, xo'sh, buni siz tabiiy, deb o'ylaysizmi? Sizni yoqtirmay qo'yganimni-chi, nahotki, bu tabiiy bo'lmasa?

– Aleksandr Petrovich! Ontlaringiz, va'dalaringiz-chi? Siz uchun muborak bo'lgan nimaiki qolgan bo'lsa, barchasini muhabbatigiz guvohligiga chaqirgan siz emasmidingiz?!

– Nima bo'пти shunga? Yoki meni yog'ochdan yasalgan sanam deb o'ylaganmidingiz? Meniyam, sizniyam birdek kuydirgan ehtiros mening o'rnimda bo'lgan har qanday odamni menday ont ichishga majbur qilgan bo'lardi! Xo'sh, durust, faraz qilaylikki, men bu ontlarimga vafo qilishim kerak edi; sizdan ko'nglim qolganini lo'nda qilib, ochiqchasiga aytganimdan keyin ham, sevgimga ishonib, deb boshqatdan yalinib-yolvora boshlasam, nahotki, siz bundan huzurlansangiz? Siz esa o'z ixtiyorimcha nozik hissiyotlarimni chorlolasligimga iqror bo'lmog'ingiz kerak va shart!

Mana shunday nochor holatida ayol yigitga shunaqangi yaxshi ko'rinib ketadiki, bundan antreprenyor ham istisno emasdi, binobarin, uning ko'nglidan bir fikr yilt etib o'tdi: men hali ham uni ko'ndirishim mumkin, bir sinamoqchi edim, deyman. Ammo bu bir lahzagina ro'y berdi, ikkinchi lahzada u vasvasali fikrni haydab yubordi-da, sovuq ohangda javob berdi:

– Nima qilibman? Qonuniy tarzda bolaning hayotini ta'minlashing kerak, deysizmi? Siz shuni xohlaysizmi? Bajonidil...

Antreprenyor jumlani oxirigacha tugatolmadi. Tahqirlangan ayol oromkursidan turdi-da, g'azabdan bo'g'ilib, deyarli shivirlab:

– Yo'qol! – dedi.

Bu «yo'qol» har qanday qichqiriqdan ham kuchliroq edi. Hech qachon, hech bir holatda o'zini yo'qotmagan odam boshini eggancha indamay chiqib ketdi.

Lidiya Nikolayevna yopilgan eshikka uzoq qarab qoldi va deyarli holsiz oromkursiga cho'kdi. Miyasida og'ir fikrlar uyasi buzilgan aridek g'ujg'on o'ynardi, shu bilan birga, qandaydir dahshatli qaror vujudga kelib, pishib yetilmoqda edi.

– Siz chiqasiz, Lidiya Nikolayevna, – birmuncha muddatdan keyin komik Valsovning chiyildoq ovozi yangradi. Uni Anempodistov

zaharxandalik bilan har ishga mohir ustasi farang deb atagandi. – Tezroq bo'ling, iltimos.

Lidiya Nikolayevna hayajonini yengoldi. Ajoyib artist, deb aytishlari bejiz emas-da. Quruqqina, qat'iy ohangda javob berdi:

– Boryapman!.. Ayting, kelyapti, deng.

Sahnada havo dim edi. So'nggi parda ketardi, unda sevgan yigiti (bu rolni antreprenyor ijro etardi) aldagan va nohaq ta'na-malomatga qolgan bir qiz zahar ichib o'ladi, uni qattiq sevgan yigitiga nisbatan nafrat-u qarg'ishlarini o'zi bilan qabriga olib ketadi. Golskaya o'z chiqishini kutib, parda ortida suyanib turardi, rangi bo'zday oqarib, yuragi duk-duk urardi. Kimdir uning qo'lidan tutib silkiy boshladi. Qulog'iga rejissyorning mehribonlik bilan aytgan gaplari chalindi:

– Judayam oqarib ketibsiz, Lidiya Nikolayevna, suv ichasizmi?

Lidiya Nikolayevna «yo'q» degandek xomush bosh chayqadi.

«Boshlanyapti, boshlanyapti, – qo'rquv ichida o'yladi u, – so'nggi marta so'rayman va u javob berishi kerak, begonalarning so'zlaridan mening azoblarimni tushunishi kerak... Oh, yuragimning urishini!... Manavi manfur Anempodistov esa qiyshanglab qichqirgani-qichqirgan!»

U kuta-kuta, oxiri, g'azabini ifoda etishi kerak bo'lgan talvasali harakatlarda qiyshanglaganicha, Anempodistov gumburlagan bosiq tovushda falakdagi barcha momaqaldiroqlarni kimningdir sho'rlik boshiga chaqirib, parda ortiga ketgan pallada rejissyorning keskin shivirlagani qulog'iga urildi:

– Siz chiqasiz, Lidiya Nikolayevna.

Intizor bir holatda aktrisa sahna tomon odimladi.

Ana u – qayg'u-g'amda ham bemisl go'zal va ulug'vor buyuk xilqat, uning bir bora ko'rinishining o'ziyoq yuzlab qalblarni larzaga solib, vujudlarni titratib yuboradi.

U sahna o'rtasida turgan bahaybat qiyofadan boshqa hech narsani ko'rmasdi va bu qiyofa unda qanday tuyg'u uyg'otganini ham bilmasdi: oldingi ezgu muhabbat tuyg'usini yoki chuqur nafrat tuyg'usini...

«U nima derkin? – xayolidan kechdi uning. – Nahotki, bu muzday yurak erish nimaligini bilmasa? Ayt, seni sevaman, de, avvalgidek meni quch, men hamma narsamni senga baxshida etganman-ku,

axir, men seni behad, begidir sevardim... Ammo bu qanaqasi bo'ldi? Nahotki, tariqchayam umid qolmagan bo'lsa?.. Ana, u nimadir deyapti... Yo'q! U hamon sovuq, beshafqat so'zlamogda, bu jon oluvchi, yuragimni poralovchi kinoya...»

Ayol qo'llarini qirsillatgancha ingranib yig'lar, muhabbatimni qaytar, o'zimga shafqat qil, deb yolvorar edi. Ayol uni bandasi-yu, rahmonning hukmiga havola etarkan, yana telbalaracha achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kardi...

Nahotki, u ma'shuqasining ahvolini tushunmasa, uning majruh yurak faryodiga javob qaytarmasa?!

Ayol qalbini tushunolmagan mingta oshiqdan bittasi bo'lib, yigit (ya'ni antreprenyor) aktrisa ortidagi sevgi timsolini ko'rolmadi; ayol yuziga, unga tomon zahrolud kek ila bir qarab qo'ydi-da, gavdasini mag'rur tutgancha hiyonatkorona uni tashlab ketdi.

Suyukli ma'shuqa bir o'zi qoldi.

Hamma yuragini hovuchlab olgandi. Har bir tomoshabinning badanidan sovuq ter chiqdi.

Taajjub ichida suflyor kitobni tap etib yopdi – unda mana bunga o'xshagan, mung va qayg'uga to'la so'zlar yo'q edi.

Sozining ovozi pasaytirishga chog'langan skripkachi bir to'xtadi-da, dahshatdan ko'zlarini katta-katta ochgancha tosh qotdi.

Ma'shuqa esa qandaydir xasta ovoz bilan o'zining halok bo'lgan sho'rlik muhabbati dostonini hikoya qilardi – osmonga tavallo qilib, undan ajal so'rar, uning hayotini barbod etgan odam uchun duoibadlar o'qib, boshiga ming turli balolar yog'ilishini tilardi. Tanobiyda go'riston jimligi hukm surardi – har bir so'z haddan tashqari aniq-tiniq eshitilib turardi.

Birdan Golskaya to'xtadi va asta rampa oldiga keldi. Endi u yig'lamayotgandi, qo'llarini asabiy qirsillatmasdi, chehrasida oshkora xotirjamlik hukmron edi. Qo'lida qora suyuqlik solingan shisha idishcha yiltillardi.

«Shunaqayam yoqimsiz hid bo'ladimi?.. Qo'rqib ketyapman... O'zimni qo'lga olishim kerak... Achchiq... Ichim yonib ketyapti...»

U katta-katta, hayrat to'la ko'zlarini tomoshabinlar ustidan yuzgizib o'tdi... Oqarib ketdi, bir chayqaldi-da, qo'rqinchli, yurakni tilkalovchi qichqiriq bilan farshga quladi. Tomoshabinlarning op-

poq chehralarida hayajon va allaqanday sarosimali hayrat aks etdi. Go'riston jimligi ostida parda asta-sekin tusha boshladi, biroq shu zahoti gulduros qarsaklardan teatr larzaga keldi.

– Golskaya! Golskaya! – degan ovozlar yangrardi har tomondan, eng yuqori qavatdagi joylarda tomoshabinlar shovqin solib, yerni dup-dup tepar, talvasali qichqiriqlar eshitilar edi. Parda burchagi silkindi, kimdir sahnadan jur'atsiz bosh suqib qaradi-da, yana g'oyib bo'ldi.

– Golskaya! Golskaya! Ofarin! – qichqiriqlar tinimsiz yangrardi. Parda yana chayqalib ketdi, sahnaga gul va guldastalar yog'ildi.

Iye, bu qanaqasi? Rampa yonida qo'rqqanidan yuzi devorday oqarib ketgan bir kishi paydo bo'ldi. U yoshdan xiralangan ko'zlarini asta tanobiy bo'ylab yugurtirib chiqdi-da, titroq ovozda eshitilar eshitilmas qilib shunday dedi:

– Janoblar, Golskayadan ayrilib qoldik...

TERGOV

Podporuchik Kozlovskiy xayol surgancha, stol ustidagi oq kleyonkaga qalin va uzun sochini yuqoriga taragan, serbar to'r yoqali, nozik ayol yuzining yon tomondan ko'rinishini chizib o'tirardi. Uning oldida yosh askar Venedikt Yesepakaning qulflangan sandiqchasidan askar Muhammad Bayguzin bir juft qo'nj bilan o'ttiz yetti tiyinni o'g'irlagani to'g'risida boshliqlarning farmoni yotardi, podporuchikka bu ish yuzasidan darhol tergov o'tkazish haqida farmoyish berilgandi. Tergovga o'nboshi Ostapchuk bilan yefreytor Piskun guvoh tariqasida, oddiy askar Kucherbayev esa tarjimonlikka chaqirilib, ular xo'jayinning oshxonasida turardilar. O'zi sipo, yuzi jiddiy bir qiyofaga kirgan va hatto xiyla kekkayib «burni ko'tarilgan» podporuchikning navkari ularni oshxonadan yakka-yakka podporuchikning huzuriga kirgizib turardi.

Xonaga dastlab o'nboshi Taras Gavrilovich Ostapchuk kirdi. U kirganini bildirmoq uchun asta yo'talib qo'ydi-da, qalpog'i bilan yuzini to'sdi. Taras Gavrilovich nizomni «suv qilib ichib yuborgan», uqa taqqan boshliqlar oldida obro'si katta, polkda otning qashqasi-dek taniqli odam edi. Ko'pni ko'rgan Taras Gavrilovichning pux-

ta rahbarligi ostida rota ko'riklari, paraqlar, inspektor tekshirishlari rota uchun «bexatar» o'tardi. Bu kezda rota boshlig'i kechani kecha, kunduzni kunduz demay, sudxo'rlar tomonidan polk ma'muriyatiga topshirilgan ijro varaqalariga qarshi choralar topish bilan band edi. O'nboshi qip-qizil, yalpoq bashara, qisiq ko'zlari juda o'tkir, o'zi gupchakdek semirishga moyil, pakanagina xomsemiz odam edi. Taras Gavrilovichning rafiqasi ham bor. Lager mavsumi boshlanishi bilan kechki yo'qlamadan keyin u yo'l-yo'l yaktagini kiyib, issiq bo'lkachalar bilan o'z chodiri oldida sutchoy ichib o'tirardi. U rotasidagi ko'ngilli askarlar bilan siyosat to'g'risida suhbatlashishni yaxshi ko'rar va hamisha o'z fikrida qolar edi... Bordi-yu, birortasi fikriga qo'shilmasa, ba'zan uni navbatdan tashqari navbatchilikka tayinlashdan ham toymasdi...

– Isming... nima? – deb so'radi Kozlovskiy ikkilanib turib.

Podporuchik Kozlovskiyning polkda xizmat qilayotganiga hali bir yil ham bo'lgani yo'q, shuning uchun ham u ko'kragiga «Sidqidildan xizmatlari uchun» nishoni taqqan va shineling chap yengiga zarhal uchburchaklar tikilgan Taras Gavrilovichdek xizmat ko'rsatgan zotlarni sensirab yuborsa, tili tutilib qolardi.

Ko'pni ko'rgan o'nboshi yosh zobitning nima uchun dovdirab qolganini to'g'ri tushundi, dimog'i shishib ketib, ismi, otasining ismi va familiyasini batafsil aytdi.

– Xo'sh... ayt-chi... etikmi-yey, tag'in allambalolarni o'g'irlagan kim? Bu nima rasvogarchilik?

«Rasvogarchilik» so'zini u nutqiga, oz bo'lsa-da, dadillik ohangi berish uchun qo'shib qo'ydi. O'nboshi uning gapini juda diqqat bilan tinglagandek bo'ynini cho'zib turdi va o'z so'zini tili o'rganib qolgan, «shunaq qilib» jumlasidan boshladi:

– Shunaq qilib... muhtaram janoblari, – dedi u, – men farmoyish yozib o'tirgandim. Birdaniga oldimga navbatchi, ha, aytmoqchi anovi... Piskun yugurib kirib qolsa bo'ladimi! Piskun: «O'nboshi janoblari, falon-u pismadon... undoq bo'ldi-yu... mundoq bo'ldi. Rotada tartibsizlik yuz berdi!» – deb bayon qildi. Men: «Nima deyapsan? A? Qanday tartibsizlik yuz berdi?» – deb so'radim. «Ha, rotada tartibsizlik yuz berdi, – dedi u, – o'spirin askarning o'ttiz yetti tiyin puli bilan etigini o'g'irlashibdi». Men: «U nega sandiqcha-

sini qulflab qo'ymabdi?» – deb so'radim. Chunki, muhtaram zobit, ularning sandiqchalari, albatta, qulflog'liq bo'lishi kerak. Navbatchi: «Qulflog'liq ekan-u, lekin qulfini buzishibdi», – dedi. «Kim buzibdi? Qaysi yurak bilan? Bu... bu qanday tartibsizlik, axir?!» – dedim men. U: «Bilmadim, janob o'nboshi!» – dedi. Shundan keyin men rota boshlig'ining oldiga borib: «Bo'lgan voqea shu... shulardan iborat, janoblari! Ammo men yo'q edim. Chunki men yarog'-aslaha us-tasining oldiga ketgandim», – deb bayonot berdim.

– Sen... bundan bo'lak hech narsa aytib berolmaysanmi?

– Xuddi shunday.

– Anavi... Bayguzin qanday askar? Yaxshi askarmi? Ilgari u bilan bog'liq biror yomon ish sodir bo'lganmi?

Taras Gavrilovich yoqasi go'yo bo'ynini qisayotgandek, iyagini cho'zib bunday dedi:

– Xuddi shunday, janoblari! U o'tgan yili uch hafta qochib yurgan. Bilishimcha, bu tatarlar o'taketgan bema'ni xalq. Chunki ular oyga sajda qilishadi... va tilimizni tushunishmaydi. O'ylaymanki, muhtaram janob, bizdan bo'lak hech qaysi davlatda tatar zoti bo'lmasa kerak...

Taras Gavrilovich o'qimishli odamlar bilan gaplashishni yaxshi ko'rardi.

Kozlovskiy uning gapini sukut bilan tinglar va ruchka bandini tishlar edi. Uning xizmat tajribasi yetarli darajada emasligi yurak betlab ustamon o'nboshining tanobini tortib qo'yishga xalaqit berardi. Nihoyat, u tutilib-tutilib o'nboshidan so'radi:

– Endi Bayguzinni nima qilisharkin?

Bu savolning o'rinsiz ekaniga Taras Gavrilovichning aqli yetishini Kozlovskiy bilib tursa-da, biror gap aytish uchungina bu savolni bergandi...

Taras Gavrilovich uning savoliga husn tavajjuh bilan javob berdi:

– Chamamda, endi Bayguzinni rosa savalasalar kerak. Sababi shuki, u o'tgan yili xizmatdan qochgan, qochmaganida, gap boshqacha bo'lardi. Endi uni, albatta, kaltaklaydilar. Negaki u badnom bo'lgan odam!

Kozlovskiy unga tergov varaqasini o'qib berdi-da, imzo chekishga uzatdi. Taras Gavrilovich darhol ismi, otasining ismi, familiyasi va harbiy unvonini qunt bilan yozib, yozganlarini o'qib chiqdi va o'ylanib turib, dabdurstdan o'z imzosining ostiga jimjimador chiziq tortib, zobitga mehribonlik bilan mug'ombirona qarab qo'ydi.

O'nboshi chiqib ketgandan keyin xonaga yefreytor Piskun kirdi. Uning hali boshliqlarning nufuz va mansablari o'rtasidagi tafovutni anglashga aqli yetmasdi. Shuning uchun ham u barchaga barobar muomala qilar, dadil, qattiq gapirar va gapning po'stkallasini aytar, hammaga ko'zini baqraytirib qarab turaverar edi. Shu vajdan... u hamisha boshliqlarning ra'yiga qarab javob berar, agar boshliqning savolida biror gapni tasdiqlashga undov sezsa, u darrov: «Xuddi shunday!» – deb qichqirar, aksi bo'lsa, darhol: «Aslo yo'q!» – deb javob qilar edi.

– Yosh askar Yesepakaning etik qo'njini kim o'g'irlaganini bil-maysanmi?

– Bilolmadim, – dedi qichqirib Piskun.

– Balki... bu ishni Bayguzin qilgandir?

– Xuddi shunday, janoblari! – dadil va quvnoq ovoz bilan qichqirib yubordi Piskun.

– Nega shunday deb o'ylaysan?

– Bilolmadim, janoblari!

– Uning o'g'irlaganini balki o'z ko'zing bilan ko'rmagandirsan?

– Xuddi shunday, ko'rganim yo'q. Askarlar kechki ovqatga chiqib ketganlarida u kazarmadagi taxta so'ri yonida o'ralashib yurardi. Men undan: «Nima qilib bu yerda o'ralashib qolding?» – deb so'rasam, «Nonimni qidirapman», – dedi.

– Demak, sen uning o'g'irlaganini ko'rmagan ekansan-da?

– Xuddi shunday, ko'rmadim, janoblari!

– Balki u yerda Bayguzindan boshqa yana birorta odam bo'lgandir? Ehtimol, Bayguzin etik qo'njiga qo'liniyam tekkizmagandir?

– Xuddi shunday, janoblari!

Yefreytorni so'roq qilayotganda Kozlovskiy o'zini judayam erkin his qildi, shuning uchun ham uni eshak deb so'kib, qo'l qo'yish uchun tergov qog'ozini unga tutdi.

Piskun qo‘l qo‘yishga chog‘lanib ancha urindi, pishilladi, burni ni tortdi, til uchini chiqazib, zo‘r mashaqqat bilan: «Yefre Spirydon Peskunou» deb imzo chekdi.

Kozlovskiy bu ishning rota navbatchisi Piskunning shu kurakda turmaydigan, tagi bo‘sh shohidligiga asoslanganini tushundi.

Piskun Bayguzinning faqat kechki ovqat vaqtida kazarmada o‘ralashib yurganini ko‘rgandi, xolos.

Etik o‘g‘irlatgan yosh askar Yesepaka shilpiqlik kasali bilan og‘rib qolganidan, bu voqea sodir bo‘lmasdanoq, kasalxonaga yuborilgandi...

Nihoyat, navkar har ikkala tatarni, tilmoch bilan Bayguzinni xonaga kirgizib yubordi, ular qo‘rqa-pisa, juda ehtiyotlik bilan qadam tashlab ichkariga kirdilar va eshik oldidayoq to‘xtadilar. Kuzgi loygarchilikda etiklariga yopishgan loy polga palaxsa-palaxsa bo‘lib tushib qolardi. Kozlovskiy ularga yaqinroq kelishni buyurdi, tatarlar oyoqlarini baland ko‘tarib yana uch qadam oldinga yurdilar.

– Familiyangiz?

Kucherbayev dona-dona qilib familiyasini aytdi. Uning familiyasida ham «o‘g‘li», «girey», «mirza» degan so‘zlar bor edi. Bayguzin esa g‘iq etmay yerga qarab turaverdi... Kozlovskiy tilmoch tatarga qarab:

– Undan tatarchalab so‘ra-chi, ismi nima ekan? – deb buyurdi.

Kucherbayev aybdorga burilib, unga dalda beruvchi bir ohangda, tatarchalab nimanidir gapirdi.

Bayguzin yerdan ko‘zini olib, xuddi ko‘zini pirlpiratib xo‘jayiniga qaragan maymundek, unga qaradi va xirillagan tovush bilan beparvogina:

– Muhammad Bayguzin, – dedi.

– Naq o‘zginasi! Janoblari... Muhammad Bayguzin, – dedi tilmoch.

– Undan so‘ragin-chi... u Yesepakaning qo‘njini olganmi?

Podporuchik o‘zining tajribasizligi va jur‘atsizligiga yana bir karra ishongandi. Chunki u negadir andishaga borib, Bayguzin qo‘njni o‘g‘irlaganmi, deb aytolmadi.

Kucherbayev aybdorga burilib, yana gapira boshladi, bu safar tilmochning aftida savol va g‘azab alomatlarini ko‘rinib turardi. Baygu-

zin unga bir qarab qo'ydi-da, yana avvalgidek indamay turaverdi va tilmochning hamma savollariga sukut bilan javob qaytardi...

– Gapirishni xohlamayapti! – deb tushuntirdi tilmoch.

Zobit o'rtidan turdi va chuqur o'yga tolib, xonaning u boshidan bu boshiga yura boshladi.

– U ruschani sira bilmaydimi? – deb so'radi zobit.

– Biladi, janoblari! U hatto ruscha gaplashadiyam... Ey! Xarandash, karali minga¹, – deb u yana Bayguzinga qarab, tatarchalab nimanidir uzoq gapira ketdi. Bayguzin esa maymundek baqrayib qarab turaverdi. – Hech javob bergisi kelmayapti, janoblari!

Oraga sukunat cho'kdi. Podporuchik uynig u burchagidan bu burchagiga yana bir karra borib keldi-da, to'satdan tarjimonga g'azab bilan baqirdi:

– Jo'nab qol. Endi keraging yo'q! Endi senga javob, boraver!

Kucherbayev ketgach, Kozlovskiy anchagacha birdan-bir xonasining u burchidan bu burchiga yura boshladi. Umming og'ir daqiqalarida u hamisha shunday qilardi, hozir ham har safar Bayguzinning yonidan o'tarkan, sezdirmay, uni ko'zdan kechirardi. Bu vatan himoyachisi juda ham ozg'in va xuddi o'n ikkiga kirgan boladek past bo'yli edi. Uning qizg'ish yonoqlarida bitta ham tuki yo'q, afti go'daklamnikiga juda o'xshar, yenglari osilib tizzasigacha tushgan haddan tashqari keng shinelida Bayguzin judayam kulgili va ayanchli ko'rinardi... Bu «ro'dapo» shinelda u go'yo qovzoqdagi puch no'xatdek likillab turar va hamisha yerga qarab turganidan ko'zlari hech ko'rinmas edi.

Podporuchik askarning oldida to'xtadi va so'radi:

– Nega javob berishni istamaysan?

Tatar ko'zini yerdan uzmay, avvalgidek jim turaverdi.

– Nega javob bermaysan, og'ayni? Qo'njni sen olgansan, de-yishyapti, ehtimol olmagandirsan... Qani, rostini ayt-chi. Olganmiding, yo'qmi? A?

U bergan savoliga javob kutmay, yana xona ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Kuz oqshomi tezda qorayib, xona ichidagi ashyolar hazin tusga kirdi, burchaklar qorong'ilikka g'arq bo'ldi. Kozlovskiy har safar yonidan o'tganda boshini quyi solib qimirla-

¹ Hoy, qarindosh, menga qara (*tat.*).

may turgan bu askar jussasini qorong'ilikda arang ajratardi. U agar ertalabgacha shu holda xona ichida u yoqdan bu yoqqa yurib chiqsa ham, boshini egib turgan bu askarning qimir etmay o'z o'mida jim turaverishini bilardi... Shu fikrning o'zi unga o'taketgan darajada og'ir va ko'ngilsiz tuyuldi.

Ko'p o'tmay tosh osilgan devor soati eshitilar-eshitilmas o'n birga zang urdi. Keyin biroz xirillab turdi-da, yana uch marta jom chaldi.

O'ziga katta kelgan askar shinelidagi bu go'dakka Kozlovskiyning rahmi keldi. Biroq bu hisga uning o'zi ham tushunolmas, bu uning uchun yangi va ajoyib bir his edi. Bayguzinning alamdiyda, ayanchli holiga o'zidan bo'lak hech kim gunohkor emasdek tuyulardi. Albatta, u o'zining nima gunohi borligini aniq gapirib berolmasdi, ammo biror kishi uning juda chaqqon raqs tushishi, chakana odam emasligini, o'zi qalin jurnalga obuna ekani va go'zal jonon bilan aloqasi borligini hamda uni odamlar aqli raso deb sanashlarini xotiriga solsa, albatta, u qizarib ketgan bo'lardi.

Qorong'i tushdi, Kozlovskiy o'z xonasida turgan tatarning sharpasini ajratolmay qoldi. Yangi oyning sutdek oppoq nurlari pechkaga tushib jimirlay boshladi.

Kozlovskiy samimiyat va mehribonlik bilan:

– Menga qara, Bayguzin, axir, Xudo sizdayam, bizdayam bittaku! Sizlar uni «Alloh» deb ataysizlar, shekilli? Mana shuning uchun har vaqt haq gapirish kerak. A? Hozir aytmaganing bilan, baribir, odamlar keyin bilib olishadi. Unda ish chatoq bo'ladi. Agar hozir aybingga iqror bo'lsang, har holda, unchalik yomon bo'lmaydi. Gunohingni so'rab olaman. Bu rost gap! Modomiki, men, gunohingni so'rab olaman, dedimmi, albatta, aytganimda turaman. Tushundingmi? Gapam bitta, Xudoyam bitta...

Xonaga yana sukunat cho'kdi. Faqat devordagi soat zo'r berib bir maromda chiqillar, kishining jig'iga tegar edi.

– Bayguzin, men sendan bir inson sifatida so'rayapman, boshliqmas, bir inson sifatida so'rayapman, tushunyapsanmi? Boshliq yo'q. Seni otang ham bordir? A? – Shu payt tatarlarning «ona»ni «inay» deb aytishlari podporuchikning esiga tushib koldi va: – Ehtimol sening inaying ham bordir?.. – deb so'radi.

Tatar javob bermadi. Kozlovskiy yana xonaning u boshidan bu boshiga borib keldi-da, soat toshini yuqoriga tortib qo'ydi, keyin deraza yoniga borib, kuz kechasining sovuq qorong'iligiga tikilib yuragi uvishib ketdi, shu choq orqa tomonidan:

– Ha, inayim bor, – degan xirildoq, ingichka tovush eshitildi.

Kozlovskiy seskanib, darhol orqasiga qaradi. U shu paytda o'z onasini, undan bir yarim ming chaqirim naridagi mehribon kampir onasini o'ylab turgandi. Buzilgan rus tilida gapirishadigan bu o'lkada onasiz o'zini chindan ham yolg'iz va begona his qilishini esladi, mehribon onasining erkalashlari, jonkuyarligini xotirladi. O'zining aksari betartib va xushchaqchaqlik bilan o'tayotgan hayotga ishtiyoq bilan berilib ketganidan onasining xatiga bir oydan beri javob yozmaganini esladi. Onasi, seni Bibi Maryam panohiga topshirdim, deb erkalab, uzundan-uzoq maktublar yozgandi.

Podporuchik bilan bu indamas tatar o'rtasida birdan nozik bir ruhiy yaqinlik paydo bo'ldi. Kozlovskiy dadil qadam tashlab askarga yaqinlashdi va ikki qo'lini uning yelkasiga qo'ydi:

– Qani, ayt-chi, inim! To'g'risini ayt, sen etik qo'njini o'g'irladingmi yo o'g'irlamadingmi?

Bayguzin burnini tortib, bexosdan:

– O'g'irladim, – deb javob qildi.

– O'ttiz yetti tiyinniyam o'g'irladingmi?

– O'ttiz yetti tiyinniyam o'g'irladim.

Podporuchik xo'rsindi va yana u yoq-bu yoqqa yura boshladi. Hozir u «inay» to'g'risida so'z ochib, Bayguzinni o'z aybiga iqrор qildirgani uchun afsuslanardi. Holbuki, ilgari uning jinoyatini isbotlash uchun loaqal bitta ham dalil yo'q edi.

«Kechki ovqatlanish mahalida u kazarmada o'ralashib yurgan bo'lsa, nima qipti? Bu bilan hech kim Bayguzinning o'g'riligini isbot qilolmasdi, endi faqat xizmat burchini ado etish hissiginaning iqrор bo'lganini qayd qilishga meni inajbur etadi. Nahotki, mening burchim shu bo'lsa? Ehtimol, mening burchim uning iqrорini butunlay yozmaslikdan iboratdir? Axir, uning diliga qandaydir yaxshi bir his – pushaymonlik hissi jo bo'ldi-ku! Endi bu bechorani takror jinoyat qilgan jinoyatchilar qatorida, albatta, kaltaklashadi. Bu unga yordam berarmidi? U bechoraning ham inayi bor, axir! Kapi-

tan Grebberning aytishiga qaraganda, axir, burch – «keng ma'nodagi tushuncha»-ku... Bordi-yu, yangidan tergov qilsalar, unda nima bo'ladi?.. Axir, men u bilan til biriktirib aybini bo'yniga olmaslikka, boshliqlarni aldashga o'rgatolmayman-ku! Qayoqdan ham mening esimga «inay» so'zi kelib qoldi-ya! Eh, bechora-bechora! Men seni qizg'anib boshingga balo keltirdim.»

Kozlovskiy tatarga darhol kazarmaga ketib, ertaga tong paytida kelishini buyurdi. Ertalabgacha u bu ishni atroflicha muhokama qilib, birorta oqilona tadbir topishiga ishonadi.

Yaxshisi, boshliqlardan birorta ko'ngli yaqinrog'iga murojaat qilib, u bilan bafurja maslahatlashish kerakligini ko'nglidan o'tkazdi. Yarim kechadan oqqanda o'rniga yotarkan, navkaridan: «Sening fikringcha, Bayguzinni nima qilishadi?» – deb so'radi.

Navkar:

– Uni, albatta, kaltaklaydilar, janoblari! – deb shartta javob qildi. – Bayguzin askarning bisotidagi bitta etigini o'g'irlasin-u, uni urmasinlarmi? Askar ham Xudoning bandasi-ku. Ayting-chi, qayerda birov o'z birodarining oxirgi narsasini o'g'irlagan?

* * *

Beg'ubor, ayozli kuz tongi. Yer betini, ko'katlarni, tomlarni – hamma narsani yupqagina qirov bosgan. Daraxtlar go'yo upa-elik qo'ygandek oppoq bo'lib ko'rinadi.

To'rt tomoni uzun yog'och binolar bilan o'ralgan kazarma-ning keng sahnida ko'k shinel kiygan askarlar chumolilardek o'rmalashardi. G'imirlab yurgan bu chumolilar uyasini ko'rgan odam, dabdurustdan unda hech qanday tartib borligini payqamasa ham, ammo tajribali ko'z hovlining to'rt tomonida to'rt to'daning paydo bo'lganini va bu to'dalarning asta-sekin yoyilib uzun saf tortayotganini darrov payqab olardi. Safga kechikkan askarlar esa yugurib borayotib, yo'l-yo'lakay og'izlaridagi nonni chaynar, sumkali kamarlarining ilgagini solib, safga kelib qo'shildilar.

Bir necha daqiqadan so'ng rotalar multiqlarni yaltiratib, shiqirlatib, birin-ketin hovlining qoq o'rtasida saf tortdilar. Askarlar bir-birlariga yuzma-yuz turardi, ular o'rtasida har tomoni qariyb qirq qadam keladigan kichkinagina to'rtburchak paydo bo'ldi.

Zobitlardan bir guruhi chetda, batalyon komandirining oldida turardi.

Hammaning og'zida duv-duv gap, bugun polk sudining oddiy askar Bayguzin ustidan chiqargan hukmi ijro etiladi, deyishardi. Yoqasi barradan qilingan askarcha qalin movut shinelli barvasta malla zobit hammani o'z og'ziga qaratgandi, bu shinelning o'ziga yarasha tarixi bor. Bu shinel polkda ikki nom bilan, ya'ni «qorovul po'stin» va «buvimning mursagi» nomi bilan dong chiqargandi. Biroq bu nomlarni hech kim shinel egasi oldida aytolmas, chunki hamma tili zahar zobitdan hayiqar edi. U so'zlarni maloruscha talaffuz etib, qo'lini paxsa qilib, to'ng'illab gapirar, qo'l harakatlari gapining mazmuniga to'g'ri kelmas, og'zidan chiqqan bema'ni gaplarning tuzilishi uning sobiq seminariyachilardan ekanini ko'rsatib turardi.

– Bizning bursada' xo'p boplab urardilar! Shunday kezlar bo'lardiki, xohlaysanmi-yo'qmi, har shanba cholvoringni yechishga majbur bo'larding... «Gaping o'rinli, sen haqsan, og'aynichalish, shu gaping rost bo'lsa, yot-chi!» derdilar... To'g'risiyam shu-da... Modomiki, aybdor ekan – jazolash, begunoh ekan – taqdirlash kerak.

Batalyon komandiri uning gapiga qo'shimcha qilib:

– Buni yelkasidayam ozmuncha tayoq sinmasa kerak, negaki askarlar o'g'irlikni kechirmaydilar, – dedi.

Malla zobit darhol batalyon komandiriga o'girilib, uni gapiga e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi-yu, fikridan qaytdi, indamay qo'ya qoldi.

O'nboshi batalyon boshlig'ining yoniga yugurib kelib, past to'vush bilan:

– Janoblari, tatar bolani olib kelishyapti, – deb xabar berdi.

Hamma orqasiga o'girilib qaradi. Tirik to'rtburchak birdan harakatga keldi-yu, hech qanday buyruqsiz jim bo'lib qotib qoldi. Zobitlar shoshilganlaricha, yo'l-yo'lakay qo'lqoplarining tugmasini solib, rotalari yoniga ketdilar.

Bu sukunat ichida uch odamning og'ir-og'ir qadam tashlab kelayotgani aniq eshitilardi. Bayguzin ikki askar o'rtasida kelmoqda edi. Uning egnida hali ham o'sha yelkasiga xilma-xil yamoq tushgan eski ro'dapo shinel, yenglari tizzasigacha osilib tushib, shalvillab tu-

¹ Bursa – diniy ta'lim dargohi.

rardi. Boshiga bostirib kiyib olgan qalpog'ining old tomoni peshonasiga tushib, opqa tomoni ko'tarilib qolgan, bu esa unga ayanchli tus berardi. Qomati bukchaygan bu jinoyatchi, ikki askar bilan to'rt yuz yarog'-aslahali odamlar o'rtasiga kelib to'xtaganda, hammada g'alati bir taassurot qoldi.

Podporuchik Kozlovskiy Bayguzinga jismoniy jazo berish to'g'risidagi buyruqni o'qigandan keyin, yuragini it tirnay boshladi, qarama-qarshi tuyg'ular, fikrlar tinchini olib qo'ydi. Tergov boshlangan kunning ertasigayoq boshliqlar, tergovni tezroq tamomlash kerak, deb Kozlovskiyni shoshiltirganlaridan u Bayguzinni jazodan saqlab qolish uchun hech narsa qilolmadi. To'g'ri, u tatarga bergan va'dasini esidan chiqarmay, rota boshlig'iga murojaat qilib ko'rgan bo'lsa ham, ammo bundan hech ish chiqmadi. Rota boshlig'i Kozlovskiyning gapiga ajablandi, keyin haholab kulib yubordi, nihoyat, yosh zobitning borgan sari hayajonlanayotganini ko'rib, gapni boshqa yoqqa burdi, uning diqqatini boshqa narsaga chalg'itdi. Kozlovskiy hozir o'zini xiyonatkor deb his qilmasa ham, ammo u Bayguzinni go'yo aldab, o'g'riligini bo'yniga qo'ygan odam deb his qilardi. «Bir odamning mehribon onasini, uyini esiga tushirib, xo'rligini keltirish va undan keyin... u bechorani tuzoqqa ilintirish aldashdan ham yomonroq», deb o'ylardi podporuchik. Hozir u malla zobitning gapini eshitib, uning yoqimsiz kir soqoli, beso'naqay, qo'pol gavdasini, qalpog'i ostidan chiqib turgan kir, jamalak sochlarini ko'rarga ko'zi yo'q edi. Aftidan, u bu yerga zavq bilan tomosha qilishga kelgan... Ammo Kozlovskiy o'zini bu «tomosha»ning bosh aybdori deb hisoblardi.

Batalyon boshlig'i maydonning o'rtasiga chiqdi va Bayguzinga orqasini o'girib, ovozini cho'zib keskin buyruq bera boshladi:

– Qo-ro-vul, tu...

Kozlovskiy qilichini yarmigacha qinidan chiqazdi va xuddi sovqotgan odamdek titrab ketdi, asabi qo'zg'ab, titrashdan o'zini to'xtatolmadi. Batalyon boshlig'i safni ko'zdan kechirib, uzun to'vush bilan qichqirib buyrug'ini oxiriga yetkazdi:

– ...rishga tayyor...lan!

Har tomoni bab-baravar to'rtburchak harakatga keldi, qurollarning ikki daf'a shiqillagani aniq eshitildi va to'rtburchak yana qotib qoldi.

Batalyon komandiri dona-dona qilib, qat'iy tovush bilan shunday dedi:

– Adyutant!¹ Polk sudining hukmini o'qib bering!

Adyutant o'rta qichiqdi, garchi u ot minishni bilmasa ham, yurishi otliq zobitlarning yurishiga o'xshar, ko'ksini oldinga chiqazib chayqalib yurardi.

U so'zlarning urg'usini noto'g'ri qo'yib, keraksiz o'rinda so'zlarni cho'zib va hech kim tushunolmaydigan qilib sud hukmini o'qirdi:

– Piyoda askarlar polkining podpolkovnik raisligi va falonchilar hay'atida polk sudi...

Bayguzin boshini avvalgidek quyi solganicha ikki askar o'rtasida turar, goho askarlarning safiga qarab qo'yardi. O'qilayotgan hukmdan bironta so'zni ham eshitmagani ko'rinib turar va o'zini nima uchun jazolamoqchi bo'layotganlarini anglamayotgandek edi. U hukm o'qilayotganda atigi bir martagina qimirlab, burnini tortib qo'ydi-da, shinelining yengi bilan artadi.

Kozlovskiy ham hukmning mazmuniga tushunmadi, lekin o'z nomini eshitib birdan seskanib qotdi. Hukmda uning tergov olib borgani tilga olingandi. Shu payt uning nazarida go'yo hamma boshini burib bir nafas unga qaragandek, so'ngra yuzini teskari o'girgandek bo'ldi. Uning yuragi orqasiga tortib ketib, duk-duk ura boshladi. Ammo uning nomini o'zidan bo'lak hech kim ham eshitmagan, hamma hukmni beparvolik bilan eshitar, adyutant ham bir ohangda sud hukmini o'qirdi. Adyutant, Bayguzin xivich bilan yuz marta urib jazolanishga hukm qilindi, deb o'qishdan to'xtadi.

Batalyon boshlig'i erkin turishga buyruq berdi va safda qo'rquv aralash savol nazari bilan qarab turgan doktorni boshi bilan imlab chaqirdi. Doktor o'z umrida odam jazolashni birinchi marta ko'rayotgan yosh va jiddiy yigit edi. Tikilib qarab turgan yuzlarcha ko'zlar ostida doktor o'zini yo'qotib qo'ydi, rangi oqargan. pastki jag'i titragan holda o'ng'aysizlanib safdan chiqdi va batalyon turgan joyning o'rtasiga keldi. Bayguzinga «Yechin», deb buyruq berdilar. Ammo u buyruqni darrov fahmlamadi, buyruqni takrorlab, nima qilish kerakligi imo-ishora bilan ko'rsatilgandan keyingina u shoshilmay,

¹ Harbiy rahbar yoki shtab topshiriqlarini bajaruvchi zobit.

no'noqlik bilan shinel va kiyimlarining tugmasini yecha boshladi. Doktor Bayguzinning ko'ziga qaramaslikka harakat qilib, qo'rqqan va jirkangandek, uning yurak va tomir urishini tekshirdi, ajablanib yelkasini qisdi. Odatda, bunday hollarda odamlarda bo'ladigan hayajonlanishdan Bayguzinda asar ham yo'q edi. Aftidan, u o'zini nima qilmoqchi bo'layotganlarini tushunmas yoki uning mustahkam asablari va ongsiz boshi na or, na qo'rquvni bilardi.

Doktor batalyon boshlig'ining qulog'iga engashib, nimanidir shivirladi-da, boyagidek beso'naqay qadam tashlab, darhol saf orqasiga o'tib oldi. Qayerdandir besh askar kelib Bayguzinni qurshab oldi, ulardan biri – do'mbirachi ajralib chiqdi-da, o'ng qo'lidagi do'mbira tayog'ini baland ko'tarib, batalyon boshlig'iga qarab turdi.

Tatar shinelini yecha boshladi. Ammo u shunday sust yechinar-diki, haligi to'satdan paydo bo'lib qolgan askarlar unga yechinishga yordam berishga majbur bo'ldilar.

Bayguzin ancha vaqtgacha shinelini qayerga qo'yishini bilmay ikkilanib turdi, nihoyat, uni yaxshilab yerga yoydi-da, yechina boshladi. U hayron qolarli darajada oriq, badani qop-qora edi. Kozlovskiy, bu bechora tatar hozir juda sovqotayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladi-yu, o'zi ham avvalgidan battarroq titray boshladi.

Tatar liboslarini yechib, qimirlamay turaverdi. Uning atrofida-gi «jonkuyar» askarlar yerga yotish kerakligini ko'rsata boshladilar. Bayguzin engashib qo'lini yerga tekkizdi, o'ng'aysizlanib sekin cho'kkaladi va yerga solgan shineliga yotdi. Askarlardan biri cho'qqayib o'tirib olib, uning boshini ushlab turdi, boshqasi Bayguzinning oyoqlari ustida o'tirib oldi. Uchinchi askar – kichik zobit esa aybdorning necha marta urilayotganini sanash uchun chetroqda turdi. Shu topda Kozlovskiy Bayguzinning ikki yoniga kelib to'xtagan yana ikki askarning oyog'i ostida sip-silliq qizil xivich yotganini ko'rib qoldi.

Batalyon komandiri boshi bilan imo qilgandi, do'mbirachi do'mbirasini taraqlatib chala boshladi. Bayguzinning yonboshida turgan ikki askar esa taraddudlanib bir-birlariga qarab qo'yar, ularning hech biri ham boshlab berishni istamasdi. Kichik zobit ularning oldiga yaqinroq kelib, bir nima dedi. Shundan keyingina o'ng tomondagi askar xo'mraygancha, tishlarini qisib, qo'lidagi xivichinni

baland ko'tardi va butun gavdasi bilan oldinga egilib, pastga tushirdi. Kozlovskiyning qulog'iga tatarning badaniga urilgan xivichning vizillagani va kichik zobitning «Bir», deb qichqirgani eshitildi. Tatar xuddi hayratda qolgan kishidek past tovush bilan qichqirib yubordi. Kichik zobit «Ikki», deb buyruq berdi: chap tomonda turgan askar tatarni xivich bilan tushirdi. Tatar bu safar avvalgidan qattiqroq qichqirdi. Uning tovushida kaltak zarbidan azob chekayotgan yosh vujudning nidosi eshitildi.

Kozlovskiy yonida turgan askarlarga ko'z tashladi, ularning bo'zargan yuzlari har vaqt safda turganlarida qanday beparvo va loqayd bo'lsa, hozir ham xuddi shunday edi. Bu toshday qotgan yuzlarda hech qanday fikr o'qib bo'lmas: ularda na achinish, na qiziqish alomati bor edi. Podporuchik sovuq va hayajondan doim titrab turar, Bayguzinning bu jazoga duchor bo'lishiga o'zining ham sababchi bo'lganini his qilish va uning baqirishlari emas, balki bu tatarning o'z aybini, nimaga savalanayotganini tushunib yetmagani uni ruhan azoblar edi. Bayguzin askarlik xizmatiga kelmasdan burun askarlikda turli dahshatlar bo'lishi to'g'risida mish-mish gaplarni juda ko'p eshitgandi. Shuning uchun u askarlik hayotidagi zulm, adolatsizliklarga tayyorlanib kelgandi. Bayguzinning askarlik xizmatiga kelib, harbiy boshliqlar, kazarma, rota tomonidan ko'rgan «marhamat»larga javoban dastlab qilgan ishi o'zining tug'ilib o'sgan Belebey dalalariga qochish bo'ldi... Uni ushlab kelib, qorong'i yakkaxonaga tashladilar. Shundan keyin u shu etik qo'njini oldi. Qo'nj nimaga kerak bo'lib qolganini va nima uchun olganini u hattoki eng yaqin kishilariga – ota-onasiga ham izohlab berolmasdi. Agar o'z ishini bilib qiladigan, es-hushi bor tadbirli bir o'g'rini, hatto bu xalq oldida ta-yoqlanishining or-nomus ekanini his etadigan begunoh bir odamni jazolanalarida ham Kozlovskiy bunchalik azoblanmasdi.

Bayguzinning tanasiga yuzinchi marta xivich kelib tushgach, do'mbirachinipg do'mbirasi taqa-taq to'xtadi va Bayguzinning atro-fida haligi askarlar yana o'ralasha boshladilar. Tatar o'rmidan turib, no'noqlik bilan tugmalarini solarkan, uning ko'zlari Kozlovskiyning ko'zlari bilan uchrashdi. Podporuchik yana bu askar bilan o'zi o'rtasida xuddi tergov vaqtidagidek ajoyib bir ruhiy yaqinlikni his qildi.

To'rtburchak shaklida tizilgan askarlar harakatga kelib, tarqala boshladilar. Hamma zobitlar jam bo'lib kazarma eshiklari tomon qadam tashladilar.

Uzun shinel kiygan boyagi malla zobit qo'llarini paxsa qilib, beo'xshov imo-ishoralar bilan yana gap boshladi:

– Shuyam savash bo'ldi-yu! Bizning bursada savalashdan oldin xivichlarni sirkaga solib toblardilar. Agar bu tatarni mening qo'limga berganlarida, men unga etik o'g'irlash qanaqa bo'lishini o'rgatib, mulla qilib qo'yardim. Bular esa urganlari yo'q. Shunchaki silab qo'yдилar, xolos!..

Qo'qqisdan Kozlovskiyning boshi aylanib, ko'z o'ngida qandaydir qizil tuman suzib yurgandek bo'ldi. U malla zobitning yo'lini to'sdi va bu bilan o'zini juda kulgili ahvolga tushib qolganini his qilsa-da, titroq tovush bilan chiyillab gapirdi:

– Siz bu iflos gapni bir karra og'izga oldingiz, ammo uni ikkinchi marta takrorlamang. Sizning hamma gapingiz qabih, odamga yarashmaydigan gaplar!

Malla zobit o'zining bu kutilmagan dushmaniga qarab, uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi-da, yelkasini qisib javob qaytardi:

– Siz, yigitcha, nega menga tirg'alasiz? Tobingiz qochganmi, deyman.

– Nima? – yana chinqirib yubordi Kozlovskiy. – Nima deyapsiz? Agar shu ondayoq ovozingizni o'chirmasangiz...

Nogahon ro'y bergan bu mojarodan tashvishga tushib qolgan zobitlar Kozlovskiyning qo'lidan ushlab orqaga torta boshladilar. Kozlovskiy yuzini kafti bilan berkitib oldi-da, xotinlardek qalt-qalt titrab ho'ngrab yubordi, u yig'lar ekan, ko'z yoshlaridan o'zi uyalar, yerga kirib ketgudek bo'lar edi.

TUNGI BINAFSHA

Rossiyaning o'rta mintaqalaridagi nam botqoqliklarda faqat tunda ochiladigan ajoyib gul bo'lib, kech kirganda yoqimli, muattar hid taratadi. Agar uni uzib olib suvga solib qo'yilsa, ertalab noxush va badbo'y is chiqaradi. Didsiz dala-hovli egalari va ziyoli mehmonlar uni tungi binafsha deb ataganlar. Qishloq dehqonlari ham unga

turlicha nom berganlar, lekin ular yodimdan ko'tarilgani sabab men ham uni tungi binafsha deb atay qolaman. Undan dorivor o'simlik sifatida foydalanishmagan, hatto bayram va to'ylarda bezak o'rnida ham ishlatilmagan. Uni yoqtirishmagani uchun har doim e'tibordan chetda qolib kelgan. Bu xushbo'y gulning ot o'g'rilari-yu jodugar va afsungarlarga aloqasi bor, deydiganlar ham u yer-bu yerda uchrab qoladi. Saratovlik va saritsinolik tanobchi, aql-hushi joyida bo'lgan qadrdon do'stim Maksim Ilich Trapeznikov ana shu tungi binafsha haqida aql bovar qilmaydigan bir hikoyani aytib berdi.

O'shanda biz Volgada yuqoriga qarab paroxodda suzib borardik. Tungi binafsha haqidagi suhbatimizga yetti-sakkiz yoshlardagi quvnoq bir qizcha sababchi bo'ldi. U chaqqonlik bilan shu guldand kichik-kichik guldastalar yasab sotardi.

– Siz haqsiz, – dedi u, – xalq bu gulni nima deb atashini hech kim bilmasayam kerak yoki buning nima deb atalishini tez esdan chiqarib yuborishganmikin? Binafsha rangiga kelsak, bu rangni rus xalqi unchalik bilmaydi, tilgayam olmaydi. Naparmon rangi nashtarinni eslatgani uchun bilishadi, o'shandayam nasfarin rangi deb atashmaydi, baxmal rangi deyishadi. «Tungi binafsha» atamasini savodi g'ovlab ketganlar o'ylab topgan bo'lsalar kerak. Nima sababdan bu atama ruslar ichida keng yoyilib ketganini, rostini aytsam, anglab yetmadim.

Eshiting, hozir men sizga bu gul haqida ajoyib bir hikoya aytib beraman. Agar birorta begona odamdan eshitganimda ishonmasdim. «Yolg'on gapirib boshimni qotirma, og'ayni», degan bo'lardim. Gap shundaki, bu voqealarga men o'zim bevosita guvoh va ishtirokchi bo'lganman, ayanchli jafo chekkanman, desam ham bo'laveradi. Xullas, Moskva geodeziya institutini muvaffaqiyatli bitirgach, birinchi toifali yer o'lchovchi-muhandis degan qizil diplom va zarhal gerbli furajkaga ega bo'ldim. Tez orada o'zim tug'ilib o'sgan Saritsinoga, ota-onam oldiga jo'nadim. U yerda otamning umr bo'yi ishlab orttirgan uch yuz botmoncha yeri bo'lib, yog'ochdan ishlangan bir yarim qavatli uy qurgan, oldi – gulzor, atrofi bog', rezavorlar yetishtiriladigan poliz. Otam u yerda umr bo'yi yer o'lchovchi bo'lib ishlagan, yaqindagina gubernaga ko'tarilgandi. Otam o'z xizmatini

ancha yillar muqaddam, o'tgan asrning oltmishinchi yillarida, krepostnoylik huquqi endigina bekor bo'lgan davrlarda boshlagan.

– Xudoning mehribonligini qara-ya, – dedi onam, – endi otang bemaolol oyoq-qo'lini uzatib uyida dam olsayam bo'ladi, otangning ishini o'z qo'lingga olasan, davom ettirasan, o'z aravangni o'zing tortasan. Biz esa hozircha senga tagli-tugli, yaxshi, boy oiladan kelin qidiramiz. Volga ortida bunaqalar ko'p: aqlli, chiroyli, ishchan, seplariyam yaxshi.

Shu payt otam uning shashtini qaytardi:

– Shoshma, onasi. Shoshgan – yo'ldan adashgan. O'g'limizni uylanishiga hali vaqt bor. Endigina yigirmaga kirdi. Poytaxtning diqqinafas iqlimidan keyin bu yerdagi toza havodan to'yib-to'yib nafas olsin, qush, baliq ovlasin, tanish-bilish orttirsin, keyin u yog'i bir gap bo'lar. Ajoyib miltig'imni senga esdalik uchun sovg'a qilaman, o'g'lim. Men endi ovga yaramay qoldim. Ko'p gapirsam ham chagim og'riydi.

Shuni aytishim kerakki, shahar hayotidan so'ng bu yerlarda ov qilishga berilib ketdim. Kashandaga o'xshab shusiz turolmaydigan bo'lib qoldim. Kunlarimni ov qilib o'tkazardim. Doimiy hamrohim, ustozim desam ham bo'laveradi, veterinar Ivanov (*«i»ni cho'zib talaffuz qildi*) edi. U ovga juda ishtiyoqmand, tolmas, tajribali bo'lib, o'qni miltiqqa ustalik bilan joylardi. Xizmatkorimiz Agata onamning o'ng qo'li edi. Qiziq, Agatani o'n yildan beri bilardim (uning asl ismi Agafya bo'lib, yoqimli eshitilsin, deb onam uni Agata deb atardi), kuzda ta'tilga kelganlarimda doim ko'rib yurardim, Moskvaga qaytgach, uning yuzini, ovozini, qaddi-qomatini eslolmasdim. U kamsuqum, bosiq, saranjom-sarishta, rangpar, ko'zlarida ilg'ab bo'lmas g'ayrioddiy ifoda aks etar edi. Mana endi so'zlab beradigan hikoyamga yaqinlashdik. Bir mahal Ivanov bilan loyxo'raqlarni ovlab yurib uydan ancha uzoqlashib ketibmiz. Tajribali sherigim ham atrofga alanglab hayron bo'ldi. Shu payt kunbotish tomonda uzoqdan yog'och qoziqlarni ko'rib qoldik.

– Nazarimda, bu yerlarni bilgandekman. Manavi uycha toshqinda suv ostida qolmasligi uchun qoziqlar ustiga o'rnatilgan, hozir u eskirib ketgan, keksa lo'li xotin yashaydi, deyishadi. Xotinlarning gapiga qaraganda, u jodugarmish. Biz o'qimishli ziyolilardan

bo'lganimiz uchun bu gaplarga ishonmaymiz, lekin borib ko'raylik-chi. O'zimizning choyimiz bor, hech bo'lmaganda, qaynoq suv berar. Botqoqda rosa ividik, issiq choy zo'r ketadi, charchoqni oladi.

Uycha tomon yurdik. Keldik. Haqiqatan ham xarob kulba ekan. Qorayib ketgan, qoq suyagi qolgan burundor kampir yasharkan, ko'rinishi xuddi lo'li. Olov yoqib mis tog'orachada suv qaynatdi. Choy damladik, ichdik, kampirniyam siyladik. Kampir menga qarab turib:

- To'ram, qo'lingni ber, fol ochib qo'yay, - dedi.
- Hayda bu badbaxtni, jin chalsin, - to'ng'illadi Ivanov.

Kampir qo'limni ushlab oldi-da, javray ketdi:

- Eh, to'ram: yoshsan, go'zalsan, baxtli va boy bo'lasan. Chap yoningda qop-qora bir odam turipti, senga yovuzlik qilish niyatida, lekin undan qo'rqma. Yoshgina, chiroylikkina bir qiz sendan ko'zini uzmayapti. Uzoq yashaysan, sakson yoshdan ham o'tasan... Eng muhimi, navqiron to'ram, ot va mushuk ko'zlaridan ehtiyot bo'l, shuningdek, muattar hidli tungi o'simliklardan, ayniqsa, oy to'lgan tundan. Endi senga oq yo'l bo'lsin. Agar men aytgan shu uch bala-dan xastalanib qolsang, kulbamga kel, senga o'tkir qaytariq qilib beraman.

Ertasiga ertalab yomg'ir boshlanib, uzoq muddatga cho'zilib ketdi. Ovni qoldirishga to'g'ri keldi: kunduzlari kitob o'qish bilan mashg'ul bo'ldim, kechqurunlari yo klubga borib, yo uyda qarta o'ynab vaqt o'tkazdik. O'zim ham eslolmayman: qachon Agataning ko'zlari meni nihoyat darajada hayratga soldi? Nazarimda, stol atrofida o'tirganimizda. Tasodifan Agataga qarab, ko'zlariga tikildim: ko'z qorachilari ajoyib tarzda yonib tovlanardi. U boshini qayoqqa bursam, qorachilari o'zgarib, goh yashil, goh qizil, goh moviy, zangori, goh binafsha rangiga kirardi. Ko'z rangining bunday jilolanishini ba'zan bino ichida, qorong'ilikda ot va mushuklarda kuzatganman. Shu paytdan Agatani xuddi birinchi marta ko'rgandek bo'ldim. Birdan u menga boshqacha ko'rinib ketdi: bo'y-basti, kelishgan qaddi-qomati, xatti-harakatlaridagi ishonch meni lol qoldirdi. Yoshini aniqlolmadim. O'ttizmi? O'ttiz beshmi? Qirqmi? Ostki labi o'qtin-o'qtin uchib turardi. U hech qachon kulmas, tabassum

qilmas, lekin xursand va dilcash paytlarida birdan yuzida jozibador iliqlik paydo bo'lardi.

Bir kuni onamdan Agataning o'tmishi haqida so'rab qoldim, ammo biror-bir qoniqarli javob ololmadim.

– Agata ichkilikka ruju qo'ygan, kambag'allashgan zodagonning xizmatkoridan nikohsiz tug'ilgan: g'irt yetim, biz unga muruvvat ko'rsatib, boqib oldik. Bolaligidan xo'jalik ishlariga o'rgatdik, dastlab boshlang'ich, keyinchalik o'rta maktabda o'qitdik. Yomonmas, unga ko'rsatilgan muruvvatdan minnatdor bo'lib, itoatli va ziyrak qiz bo'lib o'sdi. Keyinchalik o'n bir yoshlarida qayoqqadir gumdon bo'ldi, iziniyam ko'rsatmadi. Bir yildan so'ng qaytib keldi. Ma'lum bo'lishicha, lo'lilar bilan daydib yurgan ekan. To'lib-toshib, yig'lab qaytib keldi. Vaqt o'tdi. Agataga qarab ko'zimiz to'ymasdi, maqtovg'a so'z yo'q, xonadonimizda bir xilqat ulg'aymoqda, ham chevar, ham pazanda, xudojo'y, yuvosh, aqlli, tejamkor va quvnoq... Bir kuni dasturxon atrofida o'tirib Agatani tushlikka chaqirdik. Xuddi suvga tushgan mushukdek kirib keldi: boshi quyi solingan, ko'zi yerga qadalgan. «Nima bo'ldi senga?» Eshitilar-eshitilmas javob berdi: «Mening muruvvatli xaloskorim, ijozat bersanglar. Belogor cherkovida sochimni qirqirib, rohibalikka o'tsam». Ey Xudoyim, ajoyib gap-ku? Bor kuchimizni ishga solib, bu yo'ldan uni qaytarmoqchi bo'ldik. Yo'q, deb turib oldi, ertalab kiyim-kechaklarini yig'ishtirib ro'molga tugdi-da, g'oyib bo'ldi.

Shundan so'ng necha yil o'tgani onamning yodida yo'q: yetti yilmi, sakkiz yilmi, yana Agata uyimizda paydo bo'ldi. Tiz cho'kib kechirim so'radi: «Men badbaxt, adashgan bandani oxirgi marta kechiringlar. Farishtadek cheksiz muruvvatingiz haqqi, iltijo qilaman. Xudo va muqaddas Injil oldida qasam ichaman, bu oxirgisi. Shu bugundan boshlab sizgayam, xonadoningizgayam, avlodlaringizgayam sodiq qul bo'lay...» Shu paytdan boshlab tinchgina, itoatgo'ylik va odob bilan, xuddi rohibalardek, xonadonimizda yashab keladi. Undan xuddi cherkovdagidek sham va xushbo'y moy hidi anqib, osoyishtalik ufurib turadi. Tez orada go'yo xonadonimizdagi eski bir buyum kabi Agataga e'tibor bermay qo'ydim. Uzun-uzun kipriklari ostidan goho charaqlab turgan ko'zlari ham meni qiziqtirmas va bezovta qilmas edi. O'sha paytlarda ota-onamning qistovi bilan uylanish tarad-

dudiga tushib qolgandim va munosib kelin qidirardik. Taomilimizga ko'ra, orzu qilsa, arziydigan kuyov edim: yosh, sog'lom, qaddi-qomatim joyida, o'qimishliman. Qolaversa, otamning mol-mulkiyam ko'zga ko'rinarli edi. Chiroyli va boy-badavlat qizlardan ko'z ostiga olib qo'yganlarim ham bor edi. Mana shu yerda boshimga iblis baxtsizlik yog'dirdi... Qaysi yili sodir bo'lgani hozir yodimda yo'q, lekin iyun oyining oxirgi juma kuni bo'lgani esimda. O'sha kuni bizning Volga ortida kamdan-kam uchraydigan, chidab bo'lmas darajada jazirama issiq bo'ldi, faqat yarim kechaga yaqinlashganda bermalol nafas olsa bo'lardi. Cho'milib olib ovqatlandim va anchagina qarovsiz bo'lib qolgan, biroz salqin bog'imizga chiqdim. Qorong'ilik quyuqlashib borardi. Kumushdek nurlarini taratib dum-dumaloq to'lin oy ham chiqdi. Bog' sehrli nurga chulg'andi. Kimnidir yengil oyoq tovushi eshitildi. Boshdan-oyoq och-yashil nur taratib Agata kelardi.

– Yoningizga o'tirishga ijozat bering, Maksim Ilich, – deya titroq ovozda murojaat qildi u.

– Marhamat, o'tiring. Qarang, qanchalar ajoyib oqshom.

– Ha, juda ajoyib, latofatli kecha, – dedi u. – Guldasta terib keldim. Sizga, oling, xushbo'y.

Guldastani olarkanman, lazzatlantiruvchi, to'lqinlantiruvchi, intiq muattar hid bilan birga tizzamda uning qaynoq kaftlari haroratini sezdim. A'zoyi badanimni – oyog'im uchidan sochimning tolasigacha allaqanday yengib bo'lmas jo'shqin bir istak qamrab oldi – bunday hissiyotni ilgari hech qachon boshdan kechirmagandim. Butun vujudim titrar, u bo'lsa otash nafaslarini yuzimga ufurib, sekin gapirardi.

– Agar bilsangiz edi, Maksim Ilich, oilangizga qanchalik bog'lanib qolganimni! Barchangizni yaxshi ko'raman! Otangizniyam, onangizniyam, sizniyam. Ha, sevaman! Sevaman! Sevaman. Oh, Maksim Ilich, umrbod sizning qulingiz, itingiz, oyog'ingiz ostida poyandozingiz bo'lishni istardim! Haddan tashqari sizni sevaman! Siz uchun jonimniyam berishga tayyorman! Sizning sog'lig'ingiz yoki huzur-halovatingiz uchun hech narsani ayamayman, jonimniyam, borlig'imniyam! Jonim sizga sadag'a! Ko'p yillardan beri amalga oshmay yurgan yagona orzum bor – lablaringizdan muchchi olish – keyin o'lsam ham roziman...

Xonamga tong otarda qaytdim. Oyoqlarim chalishar, boshim g'uvillar, mushaklarim zirqirab, qo'llarim titrar, yuzim esa lov-lov yonar edi.

Onam kirib kelib so'radi:

– Senga nima bo'ldi, Maksim, juda boshqachasan?

– Bu issiqdan, kunduzi rosa jazirama bo'ldi, – dedim.

– Yo'q, oftob urganmas. To'lin oy ta'siri bu, bor, ko'rpangga kir.

Uxlab tursang, o'tib ketadi.

Men yotdim. Tunda oldimga Agata kirdi, tongga yaqin yashirincha uning oldiga, boloxonaga chiqdim. Shu tariqa doimo har kuni, har tunda, har soatda ko'rishadigan bo'ldik. Har ikkimiz telbalarcha shod-xurram edik, sevgimizdan boshqa narsa to'g'risida o'ylamasdik. Atrofimizdagi barcha butazorlar, omborxonalar, otxona-yu yerto'lalar, qurilayotgan xonachalar – sevgimiz uchun boshpana bo'lardi. Agata ochilgandan ochilib yashnar, men esa tinimsiz halokat sari qadam tashlardim. Tinka-madorim qurib qoqsuyak bo'lib qoldim, yurganda oyoqlarim qaltiraydigan bo'ldi. Ishtaham yo'qoldi, xotiram shu darajada susayib ketdiki, nafaqat o'qib-o'rganganlarim, o'qituvchi va o'rtoqlarimniginamas, balki ota-onamning ismlariniyam unuta boshladim. Men faqat sevgini, sevgilim siymosinigina yodda saqlardim. Qiziq, surbetlarcha ehtirosli, umidsiz, lekin orombaxsh sevgimizni uydagilardan hech kim bilmadi. Balki otashin sevishganlarni qo'riqlovchi farishtasi bordir? Lekin iblisning tuzog'iga ilinganimni onam allaqachon sezgan ekan. Havo almashirib, sayr-tomosha qilib Moskvaga borib kelishim uchun onam otamni ko'ndirdi. O'sha paytda Moskvada katta ko'rgazma ochilgandi. Ota-onamning g'amxo'rligini rad qilolmadim, shashtini qaytargim kelmadi. Moskvaga jo'nab ketdim. Ammo Nijniy Novgorodga yetganda, Agataga bo'lgan intiqligim, qattiq sog'inchi meni qamrab oldi. Oyog'imni qo'limga olib duch kelgan birinchi poyezddayoq uyga qaytdim. Ota-onamga yolg'on gapirdim – tuturiqsiz, telba-teskari bahonalar qildim. O'z uyimda yakkamoxov bo'lib qoldim. Or-nomus va vijdon azobi ich-etimni kemirardi. Bir necha marta o'z jonimga qasd qilmoqchiyam bo'ldim, ammo ota-onamga rahmim keldi. Hammasidan ko'ra Agataga ko'nglim sust ketgani meni hayotga qaytardi. Ana shunda fidoyi onam meni shar-

mandalarcha bog'lab tashlagan sehr-joduni yechishga bel bog'ladi. Dastlab men bilan doimo ovga chiqqan moldo'xtir Ivanovni tergay boshladi. U astoydil yordam berishga kirishdi. Lo'li kampirning huzuriga kirganimiz, u kelajagim haqida fol ochgani, nimadan ehtiyot bo'lishim, qo'rqishim kerakligi haqida aytganlarini va shu balolar-ga duch kelganimda qaytariq qilib berishi haqida oqizmay-tomiz-may so'zlab berdi. Shundan so'ng onam lo'li kampirga borib uzoq suhbatlashdi. Ketayotib chorakta yuztalikni bergan ekan, u olmapti. «Men Xudo yo'lida yordam beraman, pul olmayman», deпти. Oxiri onam katta cherkovdagi muqaddas ruhoniylar otaxon Gavriilga boripti. U yo'l-yo'riq ko'rsatib, oq fotiha beripti. Jabroil alayhissalom kuni yetib keldi. Onam uyda xudoyi o'tkazdi. Oila a'zolari, shu jumladan, Agatayam, zalda to'plandik. Onam menga nima qilishim va nima deyishimni o'rgatdi. Marosim lozim darajada o'tdi. Ruhoniylar chiqib ketishdi. Shundan so'ng onam Agataga qarata muloyimlik va bo-siqlik bilan jiddiy tarzda shunday dedi:

– Azizam Agata, mana, necha yillardan beri oilamizning eng ya-qin do'stisan, doimo yordamchim bo'lib kelding, mehnatingni aya-mading, sabr-qanoat bilan yashading. O'ylab ko'rsam, xonadonimiz-ga yordamchi bo'lib yashab kelganing yetar, endi bu yog'iga o'zing mustaqil bo'lib, o'z uyingda o'z xo'jaligingni yuritib yashash vaqti yetdi, degan xulosaga keldik. Mana senga, katta bo'lmasayam, ye-tarli darajadagi bir parcha yerga egalik qilish vasiqasi solingan ham-yon – bu erimdan, mendan esa yigirma bosh tovuq, g'oz, o'rdak, kurka. O'g'lim Maksimdan zarur uy jihozlari va esdalik uchun Mo-zer¹ tayyorlagan tilla soat olasan. O'g'lim, ularni Agataga topshir.

Soatni berdim va so'ngi marta Agataga nigoh tashlab xayrlash-dim, uning rangi o'chib ketdi. Shundan so'ng onam dam solingan muqaddas chilla suvini shu yerda hozir bo'lganlarga sepib chiqdi va ayni daqiqalarda Parvardigor hamd-sanolar o'qidi: «Ey Rabbim, gunohlarimizni O'zing yarlaqagin, qalblarimizdagi qahr-g'azabdan forig' et, musibatlarimizga malham ber...» Hammasi tamom bo'ldi. Agata sovg'a qilingan pul va buyumlardan birortasiniyam olmasdan, hech kimga hech narsa demasdan, shu tunning o'zida uydan g'oyib

¹ *Iohann Haynrix Mozer* (1805–1874) – shveysariyalik soatsoz, «Genri Mozer va Ko» firmasi asoschisi.

bo'ldi. U abadiy izzsiz yo'qoldi. Onam uni yodga olib, gunohkor banda Agafyani azob-uqubat va dardlaridan xalos qilishni so'rab, o'z ibodatlarida Xudoga doimo iltijo qiladi.

QISMAT VA OMAD

Sharq rivoyati

Bundan ko'p yillar muqaddam kichkina, lekin farovon bir shaharda gilam, fil suyagi, ziravorlar va atirgul moyi savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogar yashagan ekan. U aqlli, odobli, xudojo'y va halol odam bo'lib, ibrat bo'larli darajada saranjom-sarishtalik bilan ish yuritgani sababli ko'pchilik o'rtasida ishonch va obro'-e'tibor qozongan ekan.

Bir kun savdogarning omadi kelib, juda katta miqdordagi oltinli qumni arzonarov sotib olib, qimmatroqqa sotish imkoni paydo bo'пти va agar shu ishni amalga oshirsa, boyligi uch barobar ko'payishi mumkin ekan. Ammo buning uchun qo'lidagi bor naqd pullarini to'plab, qarzga berganlarini undirib, barcha mollarini tezda sotib, barcha mablag'larini jamlashi zarur edi. U bo'lajak ishidan keladigan foyda va zararlarni chamalab, agar shum tole to'g'anoq bo'lmasa, juda katta foyda olishi mumkinligini o'ylab, barcha boyligini qo'rqmasdan shunga sarflashga qaror qiliпти.

Shunday qilib, savdogar haqiqiy xojalarga munosib ravishda oilasidagilarni bunga aralashmasdan bir hafta ichida zarur tayyorgarligini ko'ripti. Xayrli kun bo'lgan chorshanbaning erta tongida turib, to'ng'ich o'g'liga shunday deпти:

– Sariq baytalni o'zingga, yuk ortiladigan xachirni esa menga egarla.

O'g'il ota gapini ikki qilmaslikka odatlangan bo'lib, hech narsa so'ramasdan aytganlarini bajaripti. Otasi bergan xurjunni egarga tashlab bog'lab qo'yipti. Yo'lga chiqishdan oldin ota-bola duo o'qib, sahar paytida ota oldinda, o'g'il orqada uydan jo'nab ketishiпти.

Ularning yo'lini baxt yulduzi yoritipti. Barcha savdo va pul ishlari tez orada katta foyda bilan yakunlanipti. Doimo omad kulib

turganidan savdogar o'zicha xavotir olib, tez-tez «Xudo xohlasa», «Xudo yarlaqasa», deb shivirlab qo'yarmish.

Yo'lda ketayotib u, farang shahzodasi ispan qirolining qiziga uylangani sharofati bilan zeb-ziynat buyumlari narx-navosi juda ham qimmatlashib ketganini eshitipti. Shu sababli, mollarini mo'ljalidan ham qimmat narxda katta shirinkomalar olib nasiyaga sotipti. Xaridorlar ham barchasi o'ziga to'q, so'zining ustidan chiqadigan, halol odamlar bo'lib, qarzlarini o'z vaqtida to'lashipti va ota-bola zudlik bilan yana yo'lga chiqishipti.

Eson-omon ishlarini bitirgan savdogar to'g'ri dengiz bo'yidagi ajoyib shaharga yo'l olipti. Oldin buyurtma berilgan oltinli qumlari allaqachon yetib kelgan ekan. Ishlari zo'r ketayotganidan quvongan savdogar ba'zan soqolini silab «Inshaalloh», deb shivirlab qo'yarkan.

Dengiz bo'yigacha bir kunlik yo'l qolganda ota-bola ovqatlanish va tunab qolish maqsadida karvonsaroy tomon burilishipti. Har doimgidek savdogar xurjunni o'z yelkasiga olib oshxonaga, o'g'il esa otlarning egar-jabduqlarini yechib yem berish uchun otxonaga yo'l olipti. Keyin ikkalasi tahorat olib, namoz o'qishipti va kamtarona dasturxon atrofiga o'tirishipti.

Kechki ovqatni tugatishga ulgurmaslaridan oshxonaga isqirt kiyimlarda, shubhali bir to'da odamlar baqirib-chaqirib kirib kelishipti. Ular may talab qilishipti va mast-alast bo'lib olib, baqirib ashula aytishipti, paydar-pay may ichishipti. Birozdan so'ng bir-birlarini so'kib, haqorat qilib janjal boshlashipti, janjal mushtlashuvga aylanipti: unda-bunda pichoq ham yaltirab ko'rinipti.

– Yomondan nariroq yuraylik, – deb savdogar yuziga fotiha tortipti. – Men senga qarashib yuboraman.

Qorong'ida tezda otlarni egarlab yo'lga chiqishipti. Karvonsaroydan eshutilib turgan shovqin-suron, darg'azab ovozlari eshitilmay qolgunga qadar shoshib, to'xtamasdan yurishipti. Ovozlar tinganda savdogar xachirni to'xtatib, egarni paypaslapti va o'g'liga buyuripti:

– To'xta, orqaga qaytamiz!

Sabrsizlik bilan xachirni orqaga burib, ustma-ust qamchi urgancha karvonsaroy tomon oshiqipti, o'g'li ketidan ergashipti.

Karvonsaroyga kirib, oshxonani qarashsa, hamma yoq suv quygandek jimjit emish. Chiroqlar yonib turgan emish-u, lekin hech kim

ko'rinmasmish. Diqqat qilib qarashsa, yerda murdalar yotipti, hamma yoq qon. Xo'jayinni, xizmatkorlarni chaqirib ko'rishipty. Lekin javob yo'q. Balki pichoqbozlikdan qo'rqib, o'rmonga qochib ketishgandir.

Savdogar yuganni o'g'liga tashlapti-yu, yugurgancha zinadan chiqib xonaga kiripti va yaqindagina o'zlari ovqatlangan joydagi kursi ostiga engashipty.

O'g'li qarasa, otasi xurjunni ko'tarib yelkasiga olyapti. Ana shundagina xurjunni esdan chiqarib qoldirganlarini o'g'li tushunipty.

Savdogar hovliga chiqib, o'g'liga hech narsa demasdan, xurjunni xachirga ortib, qamchi qayishi bilan egarga mahkam bog'lab qo'yipty.

Uzoq yo'l yurishipty. Mirshablar qahvaxonaga kirib, orqalaridan quvib kelmayaptimikin, ushlab olib qoziga sudramasmikin, degan qo'rquvga tushiptilar. Qozidan Xudo saqlasin! Aybing bormi, yo'qmi, deb surishtirib o'tirmaydi, umrbod qutulmaysan, oxirgi sariq chaqangni olmaguncha qo'ymaydi.

Tong-saharga yaqin ular ikki chetida qalin daraxtlar o'sib yotgan jilg'aga yetib borishipty. Otlarni daraxtga bog'lab tahorat oliptilar. Ota o'g'liga qarab:

– Xurjunni olib, ketimdan yur, – depty.

O'zganing nigohi tushmaydigan kichik bir yalanglikka chiqishgach, savdogar to'xtab:

– O'tir, – depty.

O'tirishipty. Ota xurjunni har ikkala ko'zini ochib ichidagi narsalarni ikki to'pga ajratipti. Teppa-teng qilib olmos, dur-javohirlar, feruza, yoqutlarni, har birini katta-kichikligiga qarab teng bo'lib chiqipti. Tilla tangalar, badavlat badaviylarning bankdagi cheklarini ham teng bo'lipty. Taqsimlab bo'lgach, o'g'liga shunday depty:

– Bu ikkita teng ulush. Bittasi – seniki. Xohlaganingni olib qopingga sol, oting egariga mahkam qilib bog'la. Otingga minib hoziroq yo'lga tush. Ketayotgan yo'limizdan to'ppa-to'g'riga yurasan, besh daqiqacha yurganingdan so'ng yo'l ikkiga ayriladi – chapga yurasan – shu yo'l uyimizga yaqinroq. Esingda tut, sen endi uying eng kattasisan. Hayotingni o'zing xohlagandek, o'zing bilgancha yo'lga sol. Senga maslahat ham, oq fотиha ham shu. Yaxshi bor.

Yo'lingda uchragan birinchi qishloqqa yetguncha orqangga qarama. Uzoq muddat uyga qaytolmayman. Balki umuman qaytmasman.

O'g'il ota so'zlarini sukut bilan tinglagach, uning oyog'iga yiqilib yerni o'pdi, o'midan turdi-yu, o'girilib otga mindi va daraxtlar orasida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Savdogar va o'g'li haqida hozircha shu.

Buyuk mamlakatning poytaxti bo'lgan ajoyib va shon-shuhratli shaharda tantanali bayram arafasi edi. Shu bois, erta tongdan barcha aholi – qudratli va oliyhimmat hukmdordan tortib to mardikorgacha qat'iy tarzda ro'za tutishga amal qilardi. To kech kirib oqni qoradan farqlash mumkin bo'lmay qolgunga qadar hamma o'zini ovqat yeyishdan tiyar, tashna bo'lganlarga esa faqat toza suvda og'zini chayishga ruxsat berilar edi. Kechqurun esa barcha to'kin-sochin dasturxon atrofida to'planib, noz-ne'matlardan, lazzevatli taomlardan bahramand bo'lishardi.

Shuningdek, bu mamlakatda qadimdan qolgan yaxshi bir odat bo'lib, o'sha kech har kim o'z uyiga beva-bechora-yu yetim-yesirlarni, yo'qsillarni, yolg'iz qolgan keksalar-u adashgan musofirlarni taklif qilishi mumkin edi. Bu odatga hashamatli qarlar egalari bo'lgan boy-badavlat fuqarolar ham, eski kulbalarda yashovchi kambag'allar ham amal qilardi.

Shaharning eng mo'tabar va mashhur odamlaridan biri xufton namozidan so'ng masjididan chiqib atrofidagi yor-u birodarlariga bunday murojaat qilipti:

– Do'stlarim! – deпти u. – Iltimosimni yerda qoldirmanglar. Ko'chada uchragan beva-bechoralarni uyimga olib kelinglar. Ular qanchalik bechorahol, ojiz va muhtoj bo'lsa-da, men ularni katta hurmat va e'tibor bilan kutib olaman.

Bu odam beqiyos darajada boy-badavlat bo'lib, uning sonanoqsiz karvonlari mamlakatning eng ichkarisigacha – Buyuk dar-yoning yuqori oqimlarigacha borar: yelkanli kemalari dunyo bo'ylab barcha ummonlarni kezar, zilol suvli favvoralari bo'lgan soya-salqin bog'-rog'lar bilan o'ralgan hashamatli uylari hammani hayratga solar ekan. Garchi boyligi unga izzat-hurmat keltirgan bo'lsa-da, eng muhimi, ma'naviy fazilatlarini – haqgo'yiligi, yaxshi ishlari va oqilligi bilan barchaning obro'-e'tiborini qozongan ekan. Beva-bechoralarga

saxiylik bilan xayr-ehson ulashar, o'zganing boshiga ish tushganda, omadi ketganda yordamga tayyor, dono maslahatlari bilan eng qiyin ahvolga tushganlarni ham qutqarar, hatto Parvardigorning yerdagi soyasi bo'lgan hukmdor ham undan maslahat so'rar ekan.

Shu sababli do'stlari uning iltimosini jon-dildan qabul qilishib, ta'zim qilganicha tarqalishihti.

Ulardan biri alohida ta'kidlab:

– Ey, ezguliklar bulog'i, kambag'allarning saxovatli homiysi, dur-u gavharlar bilimdoni! Har bir e'tiqodli musulmon tez-tez borib turadigan hammomdan qaytgan xizmatkorlarim aytganlarini iltifot qilib eshit.

O'sha hammomga hatto bizning farovon shaharda tiqilib yotgan gadoylardan ham qashshoq bir munkillagan chol keldi. Bor narsasi: juldur kiyimi, charm xurjundan iborat – to'rva xaltasi-yu eski chorig'idan boshqa hech narsasi yo'q.

Hammomdan chiqib yechinish joyiga kelsa, to'rva xaltasi bilan chorig'ini kimdir o'g'irlab ketipti, balki birorta hazilkash olgan bo'lishiyam mumkin. Bechora faqat juldur kiyimda qolipti. Buni ko'rgan odamlar xafa bo'lib, jahli chiqipti. Shunisi g'alatiki, choling jahli chiqishi o'rniga quvonib kulib yuboripti. U qo'llarini ko'kka ko'tarib chin qalbidan Xudoga va o'z qismatiga shukronalar aytipti, hamd-u sanolar o'qipti. Bundan atrofdagilar hayron bo'lib, xijolat chekkancha o'zlarini chetga olishipti. Garchi u odam sal g'alatiroq ko'rinsa-da, to'g'risini aytsam, u chol telbamasmikan, deb ham o'yladim.

Aslzoda odam boshini chayqatganicha:

– U telbami yoki tabarruk odammi – biz bilmaymiz. Do'stim, uni tezroq huzurimga olib kel. Aziz mehmonim bo'ladi, dasturxon to'riga o'tqazaman, – dedi.

Mana, kech kirib bayram dasturxonini yoziladigan payt keldi. Poytaxtning barcha uylarida chiroqlar yoqilib, xushbo'y taomlarni – plov, qovurilgan jo'jalar, ziravorlarning yoqimli hidi hamma yoqni tutib ketdi. Shunda aslzodaning uyiga o'sha kekxa gadoni boshlab kelishihti. Uy egasi o'zi uni kutib olib, hurmatini joyiga qo'yib, ziyofat bo'ladigan xonaga olib kirib, dasturxon to'riga o'tqazipti. Taomlarni

xizmatkorlar qo'lidan olib, eng lazzatli bo'laklarini mehmonga so'lib beripti. Ko'rsatilgan izzat-hurmatdan cholning boshi osmonga yetib, yuzlaridan nur yog'ildi. Mehmonning bu ahvolini ko'rgan xo'jayining mehri tovlanib, undan so'rapti:

– Ey, marhamatli otaginam, biror-bir istagingiz bo'lsa, ayting, men bajo keltiray.

Chol yorqin tabassum bilan javob beripti:

– Barcha farzandlaring va nevaralaringni menga ko'rsat, fотиha beray.

Aslzodaning voyaga yetgan to'rt farzandi va uch nevarasi kirib, chol huzurida tiz cho'kishipti. Chol esa ularning boshini silab, fотиha beripti. Bu qadimiy marosim tugagach, uy egasi choldan fотиha berishini so'rapti. Chol unga fотиha beripti, quchoqlab yuz-ko'zlaridan o'pipti.

Tiz cho'kib o'tirgan uy egasi hayajonlanib o'rnidan turipti va cholga murojaat qilib:

– Otaginam, sizdan ming bor uzr so'rayman, aybga qo'shmaysiz, sizga bir savolim bor. Uyimga kirganingizdan beri nuroniy yuzingizdan ko'zimni uzolmayman. Dunyoda go'yo sizdan boshqa yaqin odamim yo'qday. Eslab ko'ring, otaginam, siz bilan ilgari biron yerda uchrashganmidik?

– Bajonidil seni kechiraman, o'g'lim, – javob beripti chol, tabassum bilan. – O'z navbatida, men ham senga savol bermoqchiman! Kichkina jilg'a bo'yidagi sersoya daraxtzor yodingdami? Daraxtga bog'lab qo'yilgan xachir bilan sariq baytal-chi, ota-bola xurjundan qimmatbaho dur-u gavharlarni, tillalarni teng bo'lganimizni eslay-sanmi?

Shunda savdogar qariyaning oyoqlariga yiqilib yer o'pipti va o'rnidan turib xitob qilipti:

– Ey sevikli otam, sizni bu yerlarga keltirgan Rabbimga hamd-u sanolar bo'lsin! Mana, shu uy sizniki, men, o'g'illarim, nevalarim, barchamiz sizning xizmatigingizda, sizning quligingizimiz.

Ota-bola quchoqlashib, uzoq vaqt ko'zlaridan quvonch yoshlari arimapti. Birmuncha vaqt o'tib o'zlariga kelgach, savdogar odob bilan otasidan so'rapti:

– Ey, hurmatli otam, ayting-chi, o'sha tongda barcha boyliginizni bo'lishib ikkalamiz ikki tomonga qarab umrbod bo'lmasayam, uzoq muddatga ajralib ketganimizga sabab nima?

Qariya javob berdi:

– Gap bundoq: esingda bo'lsa, biz ish bilan uydan chiqqach, omadimiz yurishib ketaverdi. Yodingdami, doim men «Inshaalloh» deb takrorlardim. Omad yuz o'girmasin, deb qo'rqqandim o'shanda. Karvonsaroyga qaytib barcha-barchaning ko'z oldida qolgan boyligimizga hech kim tegmaganini ko'rib, bu taqdirning bizga bergan oxirgi omadi bo'lsa kerak, deb o'yladim, chunki insonga omad doim kulib boqavermaydi. Omadsizlik va baxtsizlik bizni ta'qib qilmasin, dedim. Seni va oilamizni shu balolardan daf qilay va o'zim giriftor bo'laqolay, degan maqsadda qildim shu ishni... Eskidan bir gap bor: faqat ahmoqlargina momaqaldirroq paytida daraxt ostiga yashirinadi... Ayriliq meni ne ko'yga solganini ko'rib turibsan. Ziyraklik bilan ish qilganimni endi bilgandirsan?

Bu gaplarni e'tibor bilan tinglab turganlar qariyaga ehtirom bilan ta'zim qildilar. Uning ziyrak aqli, donoligiga, oilasiga bo'lgan mehriga qoyil qoldilar.

Mehmonlarning eng keksa va hurmatlilaridan biri so'radi:

– Ey, tog'amning mehribon akasi, nima sababdan bugun gadoy xaltangizni o'g'irlatgach, yig'lash o'rniga shod-xurram bo'lib quvondingiz? Beadablik bilan bergan savolinga jahlingiz chiqmasin. Lozim topsangiz, javob bering.

Qariya yoqimli tabassum bilan javob beripti:

– Men shuning uchun shod-xurram bo'ldimki, o'sha lahzada shum taqdir meni ta'qib qilishdan charchaganini tushundim. O'zing o'ylab ko'r: bu dunyoda gadoy bo'la turib xaltasini o'g'irlatgan odamdan ko'ra qashshoq va omadsiz inson bormi? Peshonamga bundan-da og'ir qismat yozilishi mumkinmi? Bu borada xato ketmaganimni ko'rib turibsan. Shu bugunning o'zidayoq o'g'limni, nevara-chevaralarimni topib oldim-ku. Endi qolgan umrimni xavotir olmasdan, ularning boshiga og'ir qismat toshi tushmasin, deya, quvonch va mehr qurshovida osoyishta o'tkazish nasib etsin, inshaalloh!

Mehmonlar yana unga ta'zim qilishdi va bir ovozdan:

– Omad emas, qismat muhim ekan,– deb ta'kidlashdi.

HALOL YOLG'ONCHILIK

Ivan Ivanovich Semenyuta chakana odam emas. U hushyor, ti-rishqoq, xudojo'y. Ichmaydi ham, chekmaydi ham, qarta o'yinlariga va xotinlarga uncha hushi yo'q. Lekin bechoraning hech oma-di o'ngidan kelmaydi-da. Butun vujudida qandaydir parishonlik, jur'atsizlikning mash'um tamg'asi bor. Faqat qat'iy va jasur odam-larga ko'ngil qo'yib, ularga itoat qiluvchi injiq xotinga o'xshagan beshafqat taqdir shuning uchun ham uni hamisha qiynoqqa soladi. Semenyuta maktabda o'qib yurgan kezlarida sinfda sodir bo'lgan har bir nojo'ya ish uchun baloga qolardi. Goho shunday hollar bo'lardiki, dars vaqtida birorta zumrasha bir varaq qog'ozni yam-lab, ustalik bilan farang tili muallimining yarg'oq boshiga otardi. Semenyuta bo'lsa xuddi shu vaqtda xira pashshani peshonasidan qo'riyotgan bo'lardi. G'azabdan qizarib ketgan muallim:

– Hoy, Zemnyut! Yaramas bola! Au mur'! Qani, burchakka tur! – deb qichqirardi.

Tanaffus vaqtida bechora, begunoh Semenyutanj inspektor oldi-ga sudrab borardilar. Inspektor oppoq cho'qqi soqolini likillatib, tilla ko'zoynagi orqali ko'k ko'zlarini chaqchaytirib, qoqsuyak barmog'i bilan uning peshonasiga chertardi.

– Axloqsiz shogird! Zumrasha! Tarbiyasiz! Butun maktabni sharmanda qilding!..

Shundan so'ng sovuqqina qilib, rasmiy ravishda:

– Tushki ovqatdan so'ng uch kunga yakkaxonaga qamalsin, Rojdestvo bayramiga qadar ta'til berilmasin (bu – yotoqxonali maktab edi), agar yana shunday qilsa, savalab, maktabdan hayday-miz, – derdi.

Keyin peshonasiga qattiq chertib: «Yo'qol! Sassiqlik taka!» – deb o'shqirardi.

Doim ahvol shu edi. Bolalar cho'zma otib, inspektor uyining oynasini sindirib qo'yishsa yo qo'shnilarning poliziga o'g'irlikka tushishsa, bu ishga mutlaqo qatnashmagan, mo'min-qobil Semenyu-ta hamisha baloga qolar, o'g'rilar qochib, yashirinishar, bu sho'rlik

¹ Devorga (fr.).

mudom jinoyat sodir bo'lgan joy yaqinida qo'lga tushar edi, yana jazolash uchun uni sudrab olib ketar edilar. Yana:

– Zumrasha, tarbiyasiz! – degan gapni eshitardi.

Shunday qilib, u ko'p qiyinchiliklar bilan oltinchi sinfga o'tdi. Agar uni oltinchi sinfga o'tmasdan ilgariroq qo'lga pattasini berib maktabdan haydamagan bo'lsalar, buning sababi shu ediki, uning g'aribxonada turuvchi bechora kampir onasi shaharning u burchidan zo'rg'a sudralib kelib, inspektor yo direktorga, yoki maktab ruhoniysining oldiga borib, o'zini yerga tashlar, ularning oyoqlarini quchoqlab, o'g'li uchun ko'z yoshlarini duv-duv to'kib:

– Bolajonim juvonmarg bo'lib ketmasin. Xudo haqi, u gapga kiradigan juda mo'min-qobil bola, faqat u andakkina tortinchoqroq, yuragini oldirib qo'ygan, boshqa shum bolalar doim uni ranjitishadi. Mayli, har qancha bo'lsa, uni uringlar, men roziman, – deb yalinib-yolvorardi.

Semenyutani tez-tez boplab savardilar. Biroq bu sinamol chora unga sira kor qilmasdi. U yettinchi sinfga ko'chishga ikki marta urinib ko'rsa-da, ishi o'ngidan kelmadi, shundan keyin uni baribir maktabdan o'chirishdi. Ammo onasining ko'z yoshlariga rahm-shafqat qilib, unga oltinchi sinfni bitirgani haqida shahodatnoma berishdi.

Do'stga xor, dushmanga zor bo'lgan onasi o'g'li uchun bir amal-lab oddiy kiyim tikdirish uchun ozgina pul jamg'ardi. Yengil ko'k palto, pijak, shim, nimcha, yamoq tushgan etik va erkakcha qattiq shlyapani chayqov bozoridan sotib oldi. Ich ko'ylak bilan ishtonni esa o'zining yubka va ko'ylagidan tikib berdi.

Endi uni ishga joylashtirishgina qolgandi. Ammo sho'rlik Semeniyutaga hadeganda o'rin topilavermadi. Lekin shuni aytish kerakki, u loaqal kichkinagina bir xizmat topish uchun bir yilgacha katta shaharning hamma ko'chalarida ertalabdan kechgacha tilini bir qarich qilib yugurib yurdi. U bevalar turadigan g'aribxonada tushlik va kechlik ovqatni yer, onasi umumiy oshxonada ovqatlanib, o'ziga beriladigan ozgina taomning yarmini yashirincha o'g'lga olib kelib berar edi. Hammadan ham tunash masalasi mushkul edi, chunki bevalar umumiy yotoqlarda turar, har bir xonada besh-olti kishi yotar edi. Biroq ona Injil qiroat qiluvchi psalomchi bilan yotoq kiyim-kechaklari, anjomlariga mutasaddn bo'lgan ayolga yalinib-yol-

vordi. Ular marhamat yuzasidan Semenyutaga oshxonada ikki stul va uzunchoq kursini bir-biriga tirkab, uning ustida uxlashga ijozat berdilar.

Axiyri, bir yildan ko'proq fursat o'tgach, davlat palatasida maoshi yigirma uch so'm-u o'n bir yarim tiyin bo'lgan mirzalik vazifasi topildi. Bu ishni Semenyutaga uning onasini yoshlik chog'larida, ya'ni o'ziga to'q hayot kechirgan davrlarida taniydigan advokat Yuvinaliy Yevpsixiyevich Antonov topib berdi.

Charchash nimaligini bilmaydigan Semenyuta butun kuch-quvvati bilan bu diqqinapas, og'ir ishni bajarishga kirishdi. Mahkamaga u hammadan avval kelib, hammadan keyin ketar, ba'zan kechalari ishlab qolar, chunki arzimagan pul uchun o'rtoqlarining oshig'ich ishlarini bajarib berar edi. Boshqa mirzalar uni mensimas, nafrat bilan muomala qilishar edi. U xizmatga kirib, tanish-bilish ortirmas, bilyard o'ynamas edi. Bog'da musiqa chalinganda, tanish qizlar bilan sayr qilmasdi. Shuning uchun hamkasblari uni «suriyalik zohid» deyishardi.

Endi Semenyutaga baxt quyoshi kulib qaradi. Nega desangiz, uning chordoqda qush uyasidek kichkinagina xonasi bor. Endi u grek oshxonasida yigirma tiyinga ovqatlanadi, biroq shakarchoyni o'z xonasida ichadi, u endi onasiga goh olma, goh o'n-o'n beshta qand-qurs, goh biror quticha holva olib borib xursand qiladi, bundan tashqari, yil oxiriga yetganda o'ziga tuppa-tuzuk basavlat kostyum, g'archillaydigan pishiq boshmoq sotib oldi. Aftidan, boshliqlar uning tirishib, ixlos bilan ishlashini qadrlagan bo'lsalar kerak, ikkinchi yili unga daftardorlik lavozimini berib, oyligiga besh so'm qo'shishdi, ikkinchi yil oxirida esa u shtatga o'tdi, goho omonat kassaga ham pul qo'yadigan bo'ldi. Ammo turmushi yaxshilanib yayragan mahalda taqdir o'zining mash'um rahmsiz basharasini ko'rsatdi.

Bir kuni Semenyuta idorada kechasi allamahalgacha ishlab qoldi. Bundan tashqari, uyda yana shoshilinch ravishda shaxsiy bir odamning ishini ko'chirishi lozim edi. U soat to'rtidan oshganda uxlashga yotdi va o'z odaticha, soat yettida – charchagan, ko'zlarining osti ko'kargan, qovoqlari shishgan, ko'z jiyaklari qizarib, rangi ketgan, ezilgan holda o'midan turdi. Bu safar u idoraga har kungidek hammadan avval emas, balki eng keyin keldi.

U hali o'z joyiga o'tirib, stol ustiga qog'ozlarni yoyib qo'yishga ulgurmasdanoq, ko'ngli g'ash bo'lib, dahshatli bir falokatdan darak bera boshladi. O'rtoqlaridan ba'zilari unga adovat bilan ko'z qirlarini tashlar, ba'zilari esa qiziqsinib qarar, boshqalarining ko'zi uning ko'zlariga tushib qolsa, yerga qarab o'tar, yuzlarini teskari o'girar edilar. U esa hech narsaga tushunmas, ammo yurak-bag'ri qon bo'lar edi.

Borgan sayin hovliqib bezovtalanardi. Soat o'n birda odatdagi-dek qo'ng'iroq chalindi, bu bilan direktorning kelganini bildirishdi. Semenyuta bir seskanib tushdi-yu, bezgak tutgandek, dir-dir titray boshladi. Kotib uning stoli ustiga engashib, keskin ovoz bilan asta: «Janob oliylari sizni kabinetlariga taklif etyaptilar», deganida, Semenyuta sira ajablanmadi, xuddi boshiga bolta tushgan ho'kizdek bir chayqalib ketdi. U o'midan turdi-da, xuddi uyqusiragan odamdek, arang oyog'ini sudrab, uzun muassasa bo'ylab ketdi, hamma xizmatchilar uning orqasidan tikilishib, kuzatib qolishdi.

U hech qachon boshliqning bu haybatli xonasida bo'lmagan va xona o'zining kengligi, serhasham jihozlari, to'q qizil qalin pardalari bilan uni shunchalik hayratda qoldirgandiki, hatto u xuddi kattakon lagan labiga qo'ngan chumchuqqa o'xshab, hashamatli yozuv stoli yonida o'tirgan pakanagina direktorni darrov payqamadi.

– Qani, yaqinroq keling, Semenyuta, – dedi direktor boshini egib, alik olgandan keyin. – Ayting-chi, nega siz bu ishni qildingiz?

– Qanaqa ishni, janoblari?

– Qanaqa ishligini mendan ko'ra o'zingiz yaxshiroq bilsangiz kerak. Nega siz xo'jalik mudiri stolining g'aladonini sindirib, u yerdan gerb markalari bilan pul o'g'irladingiz? Tonmang, bizga hammasi ayon!..

– Men-a? Xudo haqi... men... men... janoblari...

Universitet professori, moliya huquqidan dars beruvchi, og'irvazmin, insonparvar va juda murosasoz odam bo'lgan boshliq mush-ti bilan stolni urdi:

– Qo'ying, ont ichmang. Kecha kechasi bu yerda o'zingizdan boshqa hech kim qolmagandi, siz soat birgacha bu yerda bo'lgansiz. Sizdan bo'lak idorada faqat qorovul Ankudin qolgan, bu yerda qirq yildan ko'proq xizmat qiladi, unga ishonchim komil, u olmaydi.

Bo'yingizga oling, men sizga hech qanday zarar yetkazmayman, faqat xizmatdan bo'shatvoraman, xolos.

Semenyutaning oyoqlari shunday titrardiki, u g'ayriixtiyoriy ravishda cho'kka tushdi.

– Xudo haqi, janobi oliylari, rost gap... Bibi Maryam haqi, agar men... Xudo ursin... janob... Xudo...

– Turing o'ringizdan! – dedi boshliq jirkanganday, oyoqlarini stol ostidan tortib. – Kechasi fohishaxonada bo'lganingiz basharangizdan ham ko'rinib turibdi. Sizlar agar kamomad yoki o'g'irlik qilsanglar (*boshliq bu so'zga urg'u berib qattiqroq aytdi*), dastavval qovoqxonaga yoki islovotxonaga yugurishingizni men bilmaymanmi, axir?! O'z idoram nomini bulg'atmaslik uchungina mirshabga xabar qilmayman. Ammo shuni bilib qo'yingki, agar kimki siz to'g'ringizda mendan ma'lumot so'rasa, yaxshi odam deb aytolmayman. Jo'nang!

U elektr qo'ng'irog'ining tugmachasini bosdi.

* * *

Mana, Semenyuta uch yildan beri yarim yovvoyi, dardchil, mudhish hayot og'ushida. U nim qorong'i yerto'laning zax, sovuq burchagini ijaraga olgan. Yerto'laning ikkinchi burchagida Mixeyevna degan savdogar ayol kun ko'radi, bu ayol baliqchilardan savat-savat mayda baliqlar sotib olib, ulardan kotlet tayyorlaydi va donasini bir tiyindan bozorda sotadi. Yerto'laning yorug'roq burchagida ish kunlarida muloyim, xushchaqchaq, xushmuomala, bayramlarda esa janjalkash va urishqoq etikdo'z Ivan Nikolayevich uzzukun bolg'achasini to'qillatib o'tiradi, u bu yerda bir talay bolalari va mudom ikkiqat xotini bilan yashaydi. Nihoyat, yerto'laning to'rtinchi burchagida kattakon yog'och jomashovni taraqlatib, piyonista va janjalkash, manjalaqi kirchi xotin, yerto'la egasi Ilinishna kir yuvadi.

Semenyuta hozir nima bilan tirikchilik qilishini o'zi ham aytib berolmaydi. U etikdo'zning katta bolalari Kolka bilan Verkaga alifbo o'rgatadi. Bu xizmati evaziga ertalab ularnikida qora non bilan qand tishlab choy ichadi, yana u restoran, qovoqxonalarda shikoyat va iltimosnomalar yozib yuradi hamda har kuni ertalab savodsizlarning xatjildlariga manzil, xat yozib beradi, shaharning bir chekkasidagi

savdogar oilasida oyiga uch so'm haq olib dars beradi. Biroq yozuvchizuv ishlari doimo bo'lib turavermaydi. Uning asosiy mashg'uloti – o'ziga ish qidirib kun bo'yi shahar kezish. Ammo uning tashqi ko'rinishi hammani cho'chitib yuboradi. Soch-soqoli olinmagan, xuddi o'rilmagan pichandek hurpayib turadi, oq, rangpar yuzlari zax yerto'la havosida ko'pchigan, etigining tagcharmi ko'chib, og'zi ochilib qolgan. U hali piyonista emas, biroq qittak-qittak ichishga o'rgana boshlagan.

Lekin u bir yilda to'rt marta odam qiyofasiga kirishga urinadi: Yangi yilda, Pasxada, Troitsa bayramlari va o'n uchinchi avgustda.

Bu kunlar arafasida u boshini ming yoqqa urib, xor-zor bo'lib, o'n besh tiyin jamg'aradi – bir mirini hammomga, bir mirini yerto'lada yashab, peshlavhasiz ishlaydigan sartaroshga sarflaydi, qolgan bir miriga esa bir plitka shokolad yoki po'rtaxol sotib oladi. Keyin eski oshnalaridan birining uyiga boradi. Uning kelishini yoqtirishmasa ham, oshnalari uni nafrat aralash rahmdillik bilan kutib olishadi. Bu o'rtoqlaridan birining familiyasi Pshonkin, ikkinchisniki Massa edi. Jonlariga tegishdan qo'rqib, ularnikiga galma-gal mehmon bo'lib boradi.

U oshnasinikida o'ziga taklif etilgan bir stakan choyni ichadi-da, chuqur nafas olib, uh tortadi va ma'yuslanib bosh chayqaydi.

– Ha, ahvoling chatoqmi, Semenyuta og'ayni?

– Nolimoq gunoh... Biroq ahvolim yomon, Nikolay Stepanovich.

– Shunaqa ekan, chakki ish qilishning nima keragi bor edi?

– Nikolay Stepanovich, tepamda Xudo bor... Men emas... Xudo haqi... men emas.

– Bo'ldi... Bo'ldi... Yiglama... Hazillashyapman. Men senga ishonaman. Falokatga kim yo'liqmaydi deysan? Senga pul-mul kerakmasmi, Semenyuta? Xohlasang, yigirma besh tiyin berib turaman.

– Yo'q, yo'q, Nikolay Stepanovich, pul kerakmas, pulni olmayman ham, agar menga muruvvat qilmoqchi bo'lsangiz, birorta eskiroq kostyumingizni ikki soatga berib tursangiz. Iltimosimni qaytarmang, azizim, xotirjam bo'ling, kecha hammomda cho'milganman, tozaman.

– Juda qiziq odamsan-da, Semenyuta, senga kostyumning nima keragi bor? Uch yildan beri, kiyib beraman, deb mendan kostyum so'rab olasan. Kostyumning senga nima hojati bor?

– Bilasizmi, Nikolay Stepanovich. Mening kampir bir xolam bor... Xudo ko'rsatmasin, birdan o'lib qolgudek bo'lsa, yagona merosxo'r men bo'laman. Ko'rinib, ahvolini so'rab turish kerak. Puli ko'pmas, besh yuz so'm... hazil gapmas, axir...

– Ha... mayli, olsang, ola qol... Xudo madadkor bo'lsin.

Mana, u etigini oynadek yaraqlatib, sidirilgan joylarini siyoh bilan bo'yaydi-yu, shimining pochasidan osilib tushgan iplarini qirqib tashlaydi, yoqa kiyib, qishin-yozin gazet qog'ozga o'rog'liq qizil bo'yinbog'ini taqib oladi-da, shahar bo'ylab sudralib bevalar uyiga – onasining yoniga mehmon bo'lib boradi. Bevalar uyining be-fayz, lekin issiqqina dahlizida qora semurg' qush rasmi, qizg'ish uqali libos kiygan, semiz oqsoqol darbon haykaldek qotib turadi. U Semenyutani besh yasharligidan beri biladi, biroq unga takabburona qarab, salomiga alik ham olmaydi.

– Salom, Nikita. Salomatliging joyidami?

Mag'rur Nikita xuddi qotib qolgan toshdek javob bermaydi.

– Kampirning sog'ligi qalay? – deb so'raydi xijolat tortib, esan-kiragan Semenyuta, paltosini ilgakka ilarkan.

– Nimayam bo'lardi unga? Kampir tetik, g'imirlab yuribdi.

Semenyuta odatda kostyumidagi nuqsonlar ko'zga tashlan-maydigan paytni poylab, kechqurun kelishga tirishadi. U devorlari ko'k bo'yoq bilan bo'yalgan, gumbaz taxlit kattakon palatalardan, ustma-ust qo'yilgan paxtadek momiq par yostiqlar yonidan va or-qasidan, qiziqib ko'zoynagi tepasidan qarab kuzatib qoladigan beva kampirlar yonidan o'tib boradi. Yoshlikdan tanish bo'lgan xushbo'y o'simliklar, yalpiz, mum, polga to'shalgan mayda-chuyda taxtalar-dan chiqqan yelim va pokiza kampirlar turadigan joydan keladigan g'alati hidlar, yer isi Semenyutaning dimog'iga kelib uriladi. Uning yuragi achishib, rahmi kelib ketadi.

Mana, onasi istiqomat qiladigan xona. Boshi devorga, puti ichka-ri tomonga qarata qo'yilgan oltita baland karavot, har bir karavot yo-nida atrofiga chig'anoqlar yopishtirilgan ramkalar ustiga eski surat-lar yopishtirilgan befayz javonchalar turadi. Xonaning qoq o'rtasida,

shiftdan g'altak bilan past tushirilgan katta lampa stolni yoritadi. Stolda uch kampir ertadan kechgacha preferans¹ o'ynab o'tirishadi, ularning yonidagi ikki kampir bir narsa to'qib o'tiradi, goho o'yinni qiziqib tahlil qilishadi. Bu manzara Semeniyutaga judayam tanish.

– Konkordiya Sergeevna, birov sizni yo'qlab keldi.

– Vanyajon emasmi?

Ona darrov o'rnidan turib, ko'zoynagini peshonasiga ko'tarib qo'yadi, koptokdek dumaloq jun ip yerga dumalab, u to'qiyotgan narsa so'kilib ketadi.

– Vanyajon! Azizim! Kuta-kuta, lochinim endi kelmas ekan-da, deb o'ylab o'tirgandim. Qani, yur, bugun tushimdayam seni ko'ruvdim.

U o'g'lini titroq qo'llari bilan ushlab, oyna yonida o'ziga alohida qo'yilgan stolcha yonidagi karavotiga olib ketadi, stolga dasturxon yozib, cherkovda yoqiladigan mum sham qoldig'ini yoqadi va shkafchasidan choynak-piyola, choy damlaydigan kichkina chovgum, qand idish olib qo'yadi, tinmay uni mehmon qilib siylashga urinadi, uning qoqshol, ozg'in qo'llari qaltiraydi.

Ulardan sal nariroqdan ellik yoshlarga borgan ko'k ko'ylakli, oq peshbandli qari qiz – xodima o'tadi.

– Domnajan, – yalinib gap qotadi Konkordiya Sergeevna. – Aylanay, bizga ozroq qaynoq suv keltirib ber-chi. Ko'ryapsan, Vanyajon mehmon bo'lib keldi, axir.

Domna eskichasiga, moskovchasiga egilib, izzat bilan Semeniyutaga salom beradi.

– Assalomu alaykum, Ivan Ivanovich. Ko'p zamonlardan beri kelmaysiz ham, onangizni sog'intirib qo'ydingiz. Hozir, xonim, olib kelaman.

Domna qaynoq suv keltirguncha ona-bola jim qolib, bir-birlariga sinchkov nazar tashlab, go'yo yuraklariga qo'l solib ko'rishmoqchi bo'lishadi. Darhaqiqat, odam bir-birini uzoq muddat ko'rmay judolikda yashasa, shafqatsiz zamon yuzlariga bosgan muhrni, ozib-to'zib qolganlarini kishi tez payqaydi.

¹ Qarta o'yini.

– Rang-ro‘yingning mazasi yo‘q-ku, Vanyajon, – deydi kampir va bujmaygan qattiq qo‘llari bilan o‘g‘lining stol ustidagi qo‘llarini silab-siypaydi. – Rangingda rang qolmapti, charchagan ko‘rinasan.

– Nima qilay, xizmatim og‘ir, onajon. Men endi hammaning ko‘ziga ko‘rinadigan bo‘lib qoldim. Martabam kichik bo‘lsayam, idoraning hamma ishini menga topshirishadi. Sahardan qosh qorayguncha ho‘kizdek ishlayman. Xo‘p deng, ona, axir, martaba orttirish kerak-da!

– Judayam ortiqcha urinib, o‘zingni charchatib qo‘yma, Vanyajon.

– Zarari yo‘q, oyi. Men juda baquvvatman. Xizmatim evaziga Pasxada hamkasabalar ro‘yxatchisi unvonini olaman, oyligim ham ortadi va mukofot olaman. Ana shunda sizning bu yerda xorzor bo‘lib yashashingizga xotima beriladi, kvartira olib, bu yerdan sizni olib ketaman. Undan keyin turmushingiz turmushmas, jannat bo‘ladi. Men xizmatda, siz uy bekasi bo‘lasiz.

Kampirning mehri jo‘sh urib iyib ketadi, ajinlaridan ariq-ariq yosh oqib tushadi.

– Xudo xohlasa, Vanyajon. Faqat Yaratgan senga to‘zim va sog‘lik bersin. Rang-ro‘yingni qara...

– Hechqisi yo‘q, bardosh beraman, maman¹!

Og‘ir turmush ezib qo‘ygan bu yuraksiz odam onasi oldiga ozib-yozib birpas o‘tirib ketish uchun kelgan kezlarida, bir zamonlar o‘zi ishlagan idoraga xizmat safariga kelgan ishyoqmas oliftalarga ong-siz ravishda taqlid qilib, surbet va betakalluf bo‘lib oladi. «Maman» degan bema‘ni so‘zni ishlatishning ham boisi o‘sha. Ilgari onasini hamisha «ona», «onajon» deb atardi. Hozir ham ko‘nglida shunday deb atardi. Biroq «maman» degan so‘zdan qandaydir zodagonlik va betakalluflik isi keladi. Ayni zamonda u onasining parishon, ma’yus, shishinqiragan chehrasiga qarab dili og‘riydi, qalbida or-nomus, rahm-shafqat va qo‘rquv tuyg‘ulari uyg‘onadi.

Domna qaynagan suv keltirib, odob bilan egilib stolga qo‘yadi va sekingina chiqib ketadi.

¹ «Ona» so‘zining ruschada erkalab yoki istehzo bilan aytiladigan talqini.

Konkordiya Sergejevna choy damlaydi. Ularning stolchalari atrofida mittiko'z, o'zlari sichqonga o'xshagan, har narsaga qiziqadigan kampirlar ishlari bo'lsa ham, bo'lmasa ham uymalanishadi. Ularning hammasi ham Semenyutani besh yasharligidan bilishadi. Kampirlar uning ro'parasida to'xtab, bosh chayqashadi va taajjublanishadi.

– Yaratgandan o'rgilay, Vanyajon! Tanib bo'lmaydi-ya: kap-katta bo'p qopti. Men sizni mana shundoqligingizdan beri taniyman. Juda yurakli, qahramon bola edingiz. Hamma sizni general Skobelev deb atardi. Meni «Perpetuya Izmeguyevna» deb, marhuma Gololobovani, Nadejda Fyodorovnani «dumdor sur kampir» deb kalaka qilardingiz...

Konkordiya Sergejevna takallufsizlik bilan qo'lini siltaydi:

– Baraka topgurlar, o'g'lim bilan gaplashib oladigan zaril bir gapim bor. Xalaqit bermang bizga. Boring.

– Ahvolingiz qalay, maman? – deb so'radi Semenyuta choy ho'plarkan.

– Ahvolimning nimasini so'raysan, bolam? Allaqachonlar yo'limdan go'rim yaqin bo'lib qolgan. Biroq qizlarimning ahvoli chatoq. Sen bo'lsang, Xudoga shukur, o'zingni o'zing eplaydigan bo'p qolding. U bechoralarga qiyin. Katyaning eri butunlay uydan sovipti: qimor o'ynarmish, ichkilik icharmish, Xudo bergan kuni uyga mast bo'p kelarmish. Katyani urarmish... Aftidan, yaqinda uni temiryo'ldan haydab yuborishsa kerak. Katya esa yana ikkiqat, u qurib ketgur ichkiligini qo'ymaydi.

– Rost aytasiz, maman, chindan ham u yaramas odam.

– Tss... Jim... Ovoz chiqarib gapirma... – deb shivirlaydi ona. – Bu yerda hamma birovlarining gapiga sekin quloq solib eshitib oladi, keyin g'iybat qilishadi. Ha... Endi Zoyani turmushi qanaqaligi masalasiga kelsak, yaxshi-yomonini aytolmayman. Uning Stasenkasi shirinso'z, yaxshi odam... Ha... Hamma polyaklar shunaqa shirinso'z bo'ladi... Biroq o'lgudek g'ariko'z, Xudoyo tovba! Sharmanda, pullarini o'shalarga sarflaydi. U chopqir otlar qo'shilgan izvoshlarda sayr qiladi, har xil sovg'alar uchun ko'p pul xarjlaydi. Zoya bo'lsa shu mahalgacha unga oshiq-u shaydo. Tentak! Bu qanday ahmoqqarchilik, axir, hech tushunolmayman. Yaqinda Zoya uning yozuv stoliga

tushadigan kalit topib, stol g'aladonidan erining ma'shuqalari qipyalang'och tushgan rasmini topib olibdi-da, og'u ichib zaharlanibdi, uni arang o'ziga keltirishibdi. Voy o'lay... Nega men ko'ngilsiz narsalarni gapirib aljirayapman-a? Yaxshisi, o'zing to'g'ringda bir narsa gapir. Faqat tss... sekinroq so'zla. Bu yerda devorlardayam quloq bor.

Semenyuta o'zining butun iste'dod va mahoratini ishga solib betakalluflik bilan yolg'on gapira boshlaydi. Uning hozirgi gaplari avvalgi safar mehmon bo'lib kelganda gapirgan gaplariga teskari bo'lsa-da, buni o'zi sezmaydi... Onasi sezsa-da, o'zini bilmaslikka soladi, indamaydi, faqat nursiz ko'zlari ma'yuslanadi, o'g'liga sinovchan nazar tashlaydi.

– Xizmatim chakkimas. Boshliqlar meni qadrlaydi, o'rtoqlarim yaxshi ko'rishadi. Rost, Traktatov bilan Preobrajenskiy menga hasad qilib, ig'vo qilishyapti, biroq ularga yo'l bo'lsin! Ularda na ilm, na fahm bor. Qanaqasiga ilm bo'lsin, axir, bittasi seminardan quvilgan, ikkinchisi shunchaki bir otabezori odam! Semenyutaga qarshi choh kavlab ko'rishsin-chi! Semenyuta idoraning hamma sir-asrorini ipidan ignasigacha biladi, axir, idora boshlig'iyam men bilan juda qalin. Yaqinda meni uyiga kechki ovqatga taklif qildi. U yerda raqs tushildi. Idora boshlig'ining qizi Lyubaxon bir qiz bilan menga yaqin kelib: «Gul kerakmi, nilufar?» deb so'radi. Men «Nilufar», deb javob berdim. Qiz loladek qizarib ketdi... Keyin, nilufar men ekanimni qayoqdan bildingiz, deb so'radi. Men esa: «Yuragim belgi berib turuvdi», deb javob berdim.

– Uylansang bo'lardi, bolam.

– Shoshmang, maman, hali erta, biroz pat chiqazib, qanot qoqadigan bo'lib olayin!.. O'ziyam biram chiroyli, jonon!

– Voy shayton-ey!

– Tuf, tuf... ko'z tegmasin yana. Noshukurchilik qilib bo'lmaydi, ishlarim hozircha yomonmas. Yaqinda boshlig'imiz idoramizdan o'ta turib, yelkamga qoqib: «G'ayrat qiling, yigitcha, ha... g'ayrat qiling!.. Men sizni ko'z ostimga olib qo'rganman, hamisha sizni hi-moya qilaman, umuman nazardan qochirmayman», dedi.

Semenyuta oyog'ini oliftachasiga chalkashtirib oladi-da, ko'zlarini qisib, mo'ylovlarini buraydi, o'zining puch xayollaridan

zavqlanib labi labiga tegmay so'zlaydi, uning ajoyib va g'aroyib hikoyasiga mahliyo bo'lgan onasi esa og'ziga tikilib qoladi. Shu payt yiroqdan borgan sayin yaqinlashib kelayotgan qo'ng'iroq tovushi eshitaladi. Qo'lida qo'ng'iroq ushlagan holda Domna kiradi.

– Boyvuchchalar, kechki ovqatga! – deydi u.

– Yana ketib qolma, meni kut! – deydi shivirlab ona. – Hali diydoringga to'yganimcha yo'q...

Yigirma daqiqadan keyin ona qaytib keladi. Uning qo'lida lagancha, laganchada bir parcha sho'r severyuga balig'i yo kalla-pochadan pishirib, go'shti bilan sho'rvasini qo'shib sovutilgan ovqat yoinki selyodkali vinegret va mazali qora non burdalari bor.

– Ma, bolam, ye... yegin, – o'g'lini erkalab, yolvoradi ona. – Biz bevalarning ovqatidan hazar qilma. Sen kichkinaligingda sho'rtakkin severyuga balig'ini juda yaxshi ko'rarding...

– Qornim juda to'q, maman... Qayerimga yeyman? Bugun «Praga»da ovqatlandik, ko'plashib xo'jalik mudirini tantanali sur'atda tabrikladik. Ha... aytmoqchi, maman, men sizga u yerdan po'rtaxol olib keldim. Mana, marhamat...

Biroq u onasi keltirgan ovqatni zo'r ishtaha bilan yeb tamom qiladi va onasining serajin yuzidan tog' jilg'alari kabi oqib tushayotgan ko'z yoshlarini payqamaydi.

Ketish vaqti keladi. Ona uni dahlizgacha kuzatmoqchi bo'ladi. Ammo eskirib ketgan juldur paltosi uning esiga tushib, bu iltifotni rad etadi.

– Buning nima keragi bor, maman? Kuzatib qo'yish – ko'z yoshi to'kishning hech hojati yo'q. Tashqarida shamollab qolasiz. Ehtiyot bo'ling, o'zingizni asrang, ona!

Dahlizda mag'rur Nikita shoshib-pishib eski paltosi bilan yirtiq qalpog'ini kiyayotgan Semenyutani mensimay, kekkayib qaraydi.

– E... hali ahvol shunday, degin, Nikitushka, – deydi mayin bir ohangda Semenyuta. – Hayot yomonmas, faqat noumid bo'lish kerakmas... Eh, senga yarim tanga berib ketish kerak edi, na choraki, yonimda maydam qolmapti.

– Be, qo'ysangiz-chi, – deydi nafrat bilan gapni cho'rt kesib darbon. – Bilaman, sizning pulingiz hamma vaqt yirik bo'ladi. Ha, tezroq keta qoling endi, bo'lmasa, dahlizni sovutib yuborasiz.

Semenyutaga taqdir mehribon, shafqatli yuzini qachon ko'rsatadi? Ko'rsatarmikan? O'ylaymanki, ko'rsatadi.

Beqaror telba taqdir o'z arzandalarini g'ijintirib, eng so'nggi bechora qulining boshini silasa, hech gap emas.

Mana, insofli keksa qorovul Ankudin kasal bo'lib qoladi... U o'limi yaqinlashib kelayotganini sezib, hukumat palatasi boshlig'iga nabirasi Grishani yuboradi: «Janob oliylariga borib, Ankudin o'lim to'shagida yotibdi, o'lim oldida sizga juda muhim bir simi gapirib bermoqchi deb aytgin», deydi.

General Ankudinning yerto'ladagi davlatga qarashli kvartirasiga keladi. Ankudin so'nggi kuch-quvvatini yig'ib, sudralib karavotdan tushadi va generalning oyog'iga yiqiladi:

– Muhtaram janob! Vijdonim meni azoblapti... O'lyapman... Gunohimni yuvib o'lmoqchiman... Haligi... pul bilan markalarni... men o'g'irlaganman... Meni shayton yo'ldan ozdirdi. Xudo xayringizni bersin, kechiring... Gunohsiz bir bandaning nomini bulg'atdim. Pul bilan markalar ana... anov shkafning yuqori tokchasida turipti.

Ertasigayoq boshliq Pshonkov yoki Massani Semenyutani olib kelish uchun yuboradi va uning qo'lidan ushlab idora xizmatchilari oldiga olib chiqadi, pul va markalarni Ankudin o'g'irlaganini, sho'rlik Semenyutaning nohaq azob tortganini gapirib beradi, uning qo'llarini siqib, xaloyiq oldida afv so'raydi, ko'zlariga yosh olib, uni quchoqlab o'padi.

Shundan keyin Semenyuta mehribon onasi bilan birga yana uzoq yillar tinch va rohatda umr kechiradi. Ammo ona hech qachon o'g'lining yolg'on gapirganini unga sezdirmaydi, u ham onasiga buni bilganini sira aytmaydi. Bu nozik ish to'g'risida og'iz ochishmaydi. Halol yolg'onchilik shunday tegmanozik bir gulga o'xshaydiki, unga tegsangiz, darrov so'ladi.

Shunday ajoyib hodisalar ham hayotda ro'y berib turadi-ku! Yoki faqat Pasxa bayramiga atalib yozilgan hikoyalardaginamikin?





OCHERKLAR





CHEXOV XOTIRASIGA

1

Chexovning Yaltadagi dala hovlisi shahar tashqarisida, ichkarilab to'g'ri ketgan tekis tuproq ko'chada joylashgan edi. Uni kim qurganini bilmadim-u, ammo u bu yerdagi o'ziga xos binolardan sanalardi. Ma'lum me'moriy qurilma asosiga bo'ysunmagan butunlay oppoq, yengil, go'zal ko'rinishdagi bu binoga minorali ayvon, oynavand boloxona, balandga ko'tarilgan ochiq keng va uzun derazalar moderncha uslubni berar, shubhasiz, bu uy rejasida kimningdir aniq fikri, e'tibori, o'ziga xos o'ylari, didi yashiringan. Dala hovli bog'ning burchagida, gulzor bilan o'ralgan. Bog'ning qarama-qarshi tomonidagi katta yo'lda, pastak devorlar ortida eski, o'z holiga tashlab qo'yilgan tatar qabristoni, qabrlardagi oddiy tosh plitalar ko'zga tashlanardi.

Gulzor kichikkina, unchalik quyuq ham emas, mevali bog' hali yosh edi. Unda shaftoli, olma, o'rik, nok, bodom daraxtlari o'sardi. Bog' hosilga kira boshlagach, Anton Pavlovichga ko'pdan-ko'p tashvish, ayni paytda ajib hissiyotlar va bolalarcha huzurlanish baxsh etardi. Yig'im-terim mavsumida Chexov bog'idan ham bodom dnaklarini olib ketishardi. Ular mayda, achchiq bo'lib, mehmonxona derazasining raxida terilib qo'yilar, taklif etishsa-da, hech kim qo'l urmas edi.

Anton Pavlovichga dala hovlisi balanddan, katta yo'llardan urilayotgan chang-to'zondan yaxshi to'silmagan, bog' suv bilan yaxshi ta'minlanmagan deyishsa, jahli chiqqanday bo'lardi. Qrimni, xususan, Yaltani unchalik yoqtirmasa-da, bog'iga alohida, rashkchil muhabbat bilan qarardi. Goho tongdanoq cho'nqayganicha atirgullarning kulrang poyalarini mehr bilan shuvayotganini yoki gulpushta ostini xas-cho'plardan tozalab, sidirib, begona o'tlarni sug'urib ola-

yotganini ko'pchilik ko'rib qolardi. Avniqsa, qaynoq yoz o'rtasida sharillab yomg'ir yog'ib bersa-yu, hamma sopol idishlarni suv bilan to'ldirib qo'yishsa bormi, ana tantana-yu, mana tantana edi.

Ammo bu quvonchli tashvishlar shunchaki, yuzaki emas, unda qudratli va teran aql, anglash bor edi. U tez-tez ko'zlarini qisib, bog'iga qarab:

– Bu yerda men ekkam har bir daraxt, albatta, qadrli. Biroq muhimi bu emas. Bu joyni olgunimga qadar qanchalik xarabozor, xunuk jarliklardan iborat qushqo'nmas makon edi. Yovvoyilikdan go'zallik yaratdim. Bilasizmi, – dedi u to'satdan jiddiy, ishonch to'la ohangda, – bilasizmi, yana uch yuz-to'rt yuz yil o'tib, butun yer yuzi gullayotgan boqqa aylanadi. O'shanda hayot bag'oyat ajib va yengil kechadi.

Kelgusi hayot go'zalligi haqidagi fikrlari shu qadar mayin, hazin va betakror jaranglayotgandiki, oqibatda, ular adibning so'nggi asarlaridagi teranlikka singib, hayotining eng xush, eng erka tuyg'ulariga aylandi.

Tong paytlari yolg'iz, birovga bir so'z demay atirgullarini kesar, shoshqin shamollar sindirib o'tgan shoxlarini tuzatib qo'yardi. Bunday lahzalarda u insoniyat baxtini o'ylab, cheksiz xayollarga botgani, tolgani, shubhasiz.

Bu yashash uchungina ochko'zlik bilan hayotning har bir tomoniga o'zini urgan sirtqi tashnalik yoki mendan keyin nima bo'lar dagan harislik, olis avlodlarga hasad ko'zi bilan qarash hissi emas edi. Aksincha, o'ta nozik va ta'sirchan ko'ngilning mehri va sog'inchi edi. U ayni paytda, mavjud ablahliklar, qo'pollik, qo'rsliklar, zeri-kish, dabdabalar, zo'raonliklar – xullas, bor dahshat va zulmatlardan qattiq iztirob chekardi. Shuning uchun ham umrining shomida kirib kelgan ulkan shon-shuhrat, to'qchilik, ehtirom va muhabbat, jamiyatda har bir bilimdon, iqtidorli va halol insonga ko'rsatiladigan e'tibordan esankirab qolmadi. Bu yuksaklikka viqor bilan erishdi, uni vazminlik bilan ko'tardi, nasihatgo'ylikka o'tib ketmadi, o'zgalar shuhratiga g'arazli va maydakashlarcha ko'z tashlamadi. Boshidan kechgan og'ir turmush tajribasi, salmog'i va miqdori, alam, aziyat, quvonch, tushkunliklar ana shu go'zal, sog'inchli, fidoyi orzular kelajak, yaqin kelajak baxtida ifodalangan edi:

– Uch yuz yildan so‘ng hayot naqadar go‘zallashadi!

Gullarni muhabbat bilan suyardi, parvarishlardi, ularda kelajak go‘zalligining timsolini ko‘rar, inson aql-u zakovati bilan qo‘lga kiritiladigan oydin yo‘llarni kuzatib borardi. Yangi, asl binolar va katta paroxodlar qurilishiga ishtiyoq bilan qarar, texnika olamidagi barcha yangiliklarga juda qiziqar, har qanday kasb egalari bilan suhbatlashganda zerikmasdi. Ziyolilar, o‘qituvchilar, shifokorlar, yozuvchilar orasida qat’iy ishonch bilan bugungi kunda jinoyat, xususan, qotillik, o‘g‘rilik, buzuqilik deyarli yo‘qolib, kamayib borayotganidan gapirardi. U kelgusidagi sof madaniyat insoniyatni sharaflashiga chindan ishonardi.

Chexov bog‘ini tasvirlayotib, uning o‘rtasidagi arg‘imchoqlar va yog‘ochli o‘rindiqni unutayozibman. Ikkalasi ham «Vanya tog‘a»dan qolgan. Anton Pavlovich og‘irlashib borayotgan paytda Badiiy teatr sevimli adibini qo‘llab-quvvatlash niyatida Yaltaga kelib, mazkur pyesani adib bog‘ida namoyish etgandi. Chexov ularni nihoyatda ardoqlardi. Kimga ko‘rsatsa, Badiiy teatrning samimiy muhabbatini chuqur hurmat bilan tilga olardi.

2

Hovlida qo‘lga o‘rgatilgan turna va ikki ko‘ppak boqilardi. Shuni ta’kidlash joizki, Anton Pavlovich jonivorlarni yaxshi ko‘rar, faqat mushuklarga nisbatan yengib bo‘lmas irganish hissi bor edi unda. Itlar uning alohida qarovida edi. Kashtanka, Melixovo taksasi¹ Brom va Xinalarni har gal vafot etgan eng yaqin do‘stlarini eslaganday yodga olardi. «Itlar – zo‘r xalq-da!» – derdi u ba‘zan zavqi oshib.

Turna salobatli, cho‘l qushi edi. U odamlarga ishonmasdi, ammo Anton Pavlovichning xizmatkori Arsen bilan do‘stlashib olgan, uning ortidan qolmas, hovlidami, bog‘dami chopib yurar edi. Yugurayotib, qanotlarini keng yozib, sakrab-sakrab olardi. Turna mahorat bilan raqsga tushar, buni kuzatib turgan Chexov jilmayib qo‘yar edi.

Itlarning birini Tuzik, ikkinchisini sevimli Kashtanka xotirasiga – Kashtanka deb chaqishardi. Kashtanka ahmoqligi va yalqovligi bilan dong taratgan edi. Begonalar kelsa, Tuzikning ortidan xuribgi-

¹ Taksas – oyoqlari kalta, gavdasi uzun it.



na qo‘yar, uni imlashsa yoki erkalashsa, orqasiga o‘girilib olib, xushomad qilganday bir joyda turib olib, buralgani-buralgan edi. Anton Pavlovich uni hassasi bilan astagina surib, yolg‘ondakam urishib qo‘yardi:

– Ket, ket... tentak... Yaqinlashma...

Suhbatdoshiga afsuslanib, lekin kulib turgan ko‘zlari bilan shunday derdi:

– Istaysizmi, sizga itimni sovg‘a qilaman? Biroq u shu qadar ahmoqki...

Bir kuni mana shu ahmoq va beso‘naqay Kashtanka foytung‘ildiraklari ostiga tushib qoldi. Oyog‘ini ezib ketishibdi. Bechora it bir oyog‘ini ko‘targancha, uch oyoqlab, iztirob va azob ichida vovillab, bo‘kirib, uy tomonga chopdi. Orqa oyog‘i maydalanib, terisi va go‘shlari suyaklari bilan qorishib, qonga belangan. Anton Pavlovich o‘sha zahotiyoyq yarani iliq suvga simob aralashtirib yuvdi, zarur dorini sepdida, oppoq doka bilan o‘rab qo‘ydi. Uning katta yumshoq qo‘llari nechog‘li mehr va ehtiyotkorlik bilan itning oyoqlarini siypalab artar, kuyunib Kashtankani koyir edi:

– Eh, tentak... tentakkina... Seni u yerga nima qisib bordi o‘zi? Qani, jim tur... yaxshi bo‘ladi... tentakcha...

Siyqalangan bo‘lib tuyulsa-da, qayta-qayta aytishga to‘g‘ri keladi: jonivorlar va bolalar ich-ichlaridan Chexovga intilishardi. Anton Pavlovichning oldiga uch-to‘rt yoshli yetim qizchani o‘z tarbiyasiga olgan xonim kelib turardi. Mana shu mitti qizcha bilan keksaygan, g‘amg‘in, kasalmand, mashhur yozuvchi o‘rtasida allaqanday o‘ziga xos jiddiy va mustahkam do‘stlik tug‘ildi. Ular o‘rindiqda, ayvonda yonma-yon uzoq o‘tirishar, qizcha tinmay, bolalarcha quvnoqlik bilan so‘zlar, qo‘lchalari bilan yozuvchining soqolini o‘ynab ham qo‘yar edi.

Chexovni uchratgan har bir oddiy odam unga chin ko‘ngildan muhabbat bog‘lardi – xizmatkorlar, yuk tashuvchilar, xat tashuvchilar, sayohatchilar. Ular yozuvchini nafaqat yaxshi ko‘rishar, qolaversa, uni o‘ta nozik his bilan tushunishardi. Kichik bir xizmatchining bir hikoyasini keltirmay o‘tolmayman. U «Rus paroxodchiligi va savdo-sotig‘i»da ishlardi. Qari, kamgan, muhimi, taassurotlarini bayon etishda xolis kishi edi.

Bu voqea kuzda bo'lib o'tgan. Moskvadan qaytayotgan Chexov paroxodda Sevastopoldan Yaltaga kelgan, palubadan tushib ulgurmagandi. Shovqin-suron, aralash-quralash, urinish-surinishlar orasidan tanish tatar yuk tashuvchi Chexovni ko'rib qoladi. Uning yuklarini topib olib, ko'tarib, bir amallab palubadan pastga tushayotganda, oldidan shitob bilan kelayotgan kapitan yordamchisi chiqib qoladi va unga urilib ketadi. Kuchli va beshafqat, qo'rs bu odam tatar yigitni haqoratlabgina qolmay, yuziga tarsaki tortib yuboradi. «Shunda kutilmagan holat ro'y berdi, – deya suhbatini davom ettirdi tanihim. – Yuk tashuvchi yuklarni palubaga otib tashladi-da, ko'kragiga urib, g'azab to'la ko'zlari bilan yordamchi tomonga bostirib bordi. Butun paroxodni boshiga ko'tarib qichqira boshladi:

– Nima-a? Nimaga urasan? Sen meni urdim deb o'ylayapsanmi? Sen kimni urganingni, ko'rib qo'y, ko'rib qo'y!

U barmog'i bilan Chexovni ko'rsatadi. Chexovning ranglari oqarib ketgan, lablari titraydi. Yordamchining yoniga kelib, past ovozda, so'zlarni bitta-bitalab, chertib, ta'sirchan ohangda: «Uyat emasmi?!» – deydi. Agar men shu dengiz suzuvchisi o'rnida bo'lganimda buni eshitgandan ko'ra yuzimga yigirma marta tupurishlarini afzal deb bilardim. Dengizchining yuzi qattiq ekan, shunday bo'lsa-da, oxiri anglab yetdi, shekilli: u yoqqa chayqaldi, bu yoqqa chayqaldi, nimalarnidir g'o'ng'illab, birdan ko'zdan g'oyib bo'libdi. Uni palubada boshqa ko'rishmabdi».

3

Anton Pavlovchining Yaltadagi uy kabineti unchalik katta emas edi: uzunasiga o'n ikki va kengligi olti qadamcha keladi; ammo o'ziga yarashgan ko'rkamligi bor. Kirish eshigiga qarama-qarshi tomonda katta to'rtburchakli, sarg'ish yog'ochli rangli deraza. Kirishdan chap tomonda – oyna yonida perpendikulyar tarzda qo'yilgan yozuv stoli; uning ortidagi ixchamgina javonni baland shiftan ochilgan ixchamgina darcha yoritib turardi; javoncha yonida turk divani. O'ngda, devor o'rtasida mallarang koshinli devoro'choq; yuqorida – marmartosh, toshga yonma-yon marmar plitkada chaplanganroq, biroq juda yoqimli bo'yoqlarda ko'zga zo'rg'a chalinayotgan g'aramlar

uzra tushib kelayotgan shom tasvirlangan. Bu – Levitanning¹ ishi. Shu yerda – burchakda – eshik. Undan Anton Pavlovichning yotog‘i ko‘rinib turadi. Xona yorug‘ va xushbo‘y, undan yarqirab toza nur, oqlik ufuradi. Kabinet devorlari to‘q tilla yaltiroq qog‘ozlar bilan qoplangan, yozuv stoli yonida peshlavha osilgan: «Chekilmasin!» Hozir kirish eshigining yonida – o‘ngda – kitob to‘la javon. Kamin ustida mayda-chuyda bezaklar, ular orasida mahorat bilan ishlangan yelkanli kemalar andazasi. Yozuv stoli ustida suyakdan va daraxtdan yasalgan juda ko‘p maftunkor buyumlar, fil figuralarining behisob va beqiyosligi kishini hayratga soladi. Devorda – Tolstoy, Grigoro- vich, Turgenev portretlari. Mo‘jazgina stol ustida yelpig‘ichsimon tarzda artistlar va yozuvchilarning fotosuratlari terilgan. Derazaning ikki yonboshidan tik, og‘ir, rangi to‘q pardalar osilgan, polda – katta sharq gilamlari. Bu parda va gilamlar xonani mayinlashtiradi, ka- binetni qoraytiradi. Derazadan esa yozuv stoliga tekis va yoqimli nur yog‘ilib turadi. Nafis atirlar hidi anqiydi, ularni Anton Pavlo- vich xush ko‘rardi. Oynadan olis dengiz tomonga enib borguvchi ochiq taqasimon pastqamlik ko‘rinadi. Dengiz uylar amfiteatri bi- lan o‘ralgan. Chapda, o‘ngda va orqada yarim aylana tog‘lar qad ko‘targan. Oqshom tushgach, Yaltaning tog‘li chekkalarida chiroqlar yonadi. Bu nurlar va yulduzlar zulmat qo‘ynida bizga shu qadar ya- qinlashadiki, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Shunda chor-atrof Tiflisning so‘lim go‘shalarini esga soladi...

Hamisha shunday: kim bilandir tanishsang, avvalo, uni tashqi tomondan – ovozi, yurish-turishi, qiliqlari, odatlarini o‘rganasan. Keyinchalik ko‘z oldingga keltirganingda, eslaganingda ham birin- chi taassurot bilan yashaysan – qanday ko‘rgan bo‘lsang, shunday- ligicha qoladi: haqiqiy qiyofasidan butunlay boshqa, butunlay a‘lo. Tanishganimizga bir necha yillar bo‘lgan esa-da, Chexov xotiramda birincha marta Odessadagi London mehmonxonasining umumiy za- lida uchratganimday saqlanib qolgan. O‘shanda u ko‘zimga bo‘yi uzunroq, oriqdand kelgan, suyaklari yo‘g‘on, yuzlari tundroq ko‘rindi. Unda hali dard izlari ko‘rinmas, faqat yurishi zaiфроq, tizzalari buki- lib-bukilib ketayotgandek edi. O‘sha paytda mendan, u bir qarashda kimga o‘xshaydi, deb so‘rashganida, shubhasiz, yo qishloq shifoko-

¹ *Isaak Ilich Levitan* (1860–1900) – rus musavviri, «kayfiyat peyzaji» ustasi.

ri, yo mahalliy gimnaziya o'qituvchisi, deb aytgan bo'lardim. Yuz-ko'zida soddadillik, kamsuqumlik nuqsi ko'rinib turar, qon-qoniga singib ketgan xalqchillik xislati, fazilati mujassam edi. Bular uning qosh-ko'zida, nutqida, so'zlashuv ohangida sezilar, shu bilan birga, qiliqlarida moskvalik talabalarga xos beparvolik yo'q ham emas edi. Aynan shunday taassurotni ko'pchilik singari men ham boshimdan kechirganman. Biroq bir necha soat o'tgach, butunlay boshqa Chexovni ko'rdimki, uning yuzidagi betakrorlikni, afsuslar bo'lsinkim, hech bir fotosurat saqlab qololmagan, rassomlar ham ilg'ay olishmagan. Men hayotimda bunday tiniq va nozik, betakror va issiq qiyofani qayta uchratolmadim.

Keyinchalik, Chexovning ko'zlari moviy edi, deyishdi. Bu – xato, xatoning g'alatiligi shundaki, bu gapni uni biladiganlar aytishgan. Uning ko'zlari to'q qo'yko'z edi, ayniqsa, o'ng ko'zining yuqori qismi to'qroq edi. Bu Anton Pavlovichning qarashlarida sezilardi; boshini u yoqdan bu yoqqa aylantirganda, undagi parishonxotirlik ko'zga tashlanardi. Qovoqlari osilib turar, bunday holat ko'pincha ko'z bilan ko'p ishlaydiganlar – musavvirlar, ovchilar, dengizchilarda uchraydi. Oynadan kuzatib tursangiz, Anton Pavlovich yuzidagi jiddiylikni boshini ko'targan paytlarda ilg'ab qolasiz. Ammo uni boshqacha holatda (afsuski, bu umrining so'nggi kunlarida tobora kamayib borardi) – quvnoq kayfiyatda, quloqlarini yozib, qo'llarini silkib, oromkursini orqa va oldga aylantirib, chor-atrofga yoqimli, samimiy va yurakdan chiqqan kulgularini sohib yuborardi. Shunda uning ko'zlari yumaloqlashar, nurlanib ketar, ko'z atroflarida ajinlar yig'ilar, ko'rinishidan yoshlik chog'larida ishlangan portretlariga o'xshab ketar edi; soqolsiz, beozor, tabassumi o'ziga yarashiqli, qo'llari mayin, sodda nigohlari bilan kishini o'ziga tortardi.

Anton Pavlovichning peshonasi keng, oppoq va toza edi; ajoyib libosda yurardi; faqat so'nggi yillarda ikki qoshining o'rtasida bir juft tik o'ychan chiziqlar tortildi. Chexovning katta quloqlarini chiroyli deb bo'lmasdi, men bunday aqlli va odobli quloqlarni yana bir odam – Tolstoyda ko'rdim, xolos.

Yoz kunlarining birida kamdan-kam bo'ladigan holat – xush kayfiyatda o'tirgan Chexovni qo'l apparatimda bir necha bor suratga tushirdim. Baxtga qarshi, ko'ngildagidek chiqqanlarining rangi kabi-

netda yorug'lik kamligi tufayli oqarib ketdi. Boshqa suratlarni ham ko'rarkan, u bunday dedi:

– Bilasizmi, bular – men emas, allaqanday fransuz.

Uning qo'l siqishlarini eslayman. Katta, quruq va mayin qo'llari bilan qattiq va dadil siqqanda, nimanidir ushlab qolmoqchiday, nimanidir yashirayotganday tuyulardi menga. Yozuvini ko'z oldimga keltiraman: ingichka, mayda harflar, bosmasdan yengil yozardi; bir qarashda, chiroyli emasday, biroq yaxshilab tikilsangiz, bu yozuv judayam tiniq, mayin, go'zal va o'ziga xos ruhga ega ekaniga amin bo'lasiz.

4

Anton Pavlovich yoz paytlari odatda erta turardi. U hech qachon pala-partish kiyinmasdi; turli-tuman buyumlar – tuffilar, xalatlar, kalta kamzullarni yoqtirmasdi. Soat sakkiz-to'qqizlarda kabinetiga kirardi, u yoqdan bu yoqqa yurar, yozar, egnida hamisha toza va oddiy kiyimni ko'rishar edi.

Aftidan, u ertalabdan to tushlikka qadar yaxshi ishlardi; uni yozayotganini hech kim ko'rib ulgurmasdi. Bu ma'noda nihoyatda tortinchoq va sirli edi. Iliq tonglarda uni uy orqasidagi o'rindan topishardi; bu – dala hovlining eng xilvat joyi. Olisdan ko'ringan oq devorlarda tolgullar bilan to'ldirilgan yog'och paqirlar osilgan. Chexov bu yerda soatlab yolg'iz, qimirlamay, qo'llarini tizzasiga o'yan ko'yi dengizga uzoq tikilardi.

Kun yarmidan kechgacha uyga kelib-ketuvchilar ko'payardi. Uyni katta yo'ldan ajratib turadigan temir panjaralarga suyangancha oppoq shlyapali oyimqizlar ham esnab turishardi. Chexov huzuriga turli toifadagi odamlar kelishardi: qishloq ruhoniylari, shifokorlar, rassomlar, oliy tabaqa vakillari, professorlar, muxlislar va muxlisalar, aktyorlar, ruhoniylar – kim bilsin, yana kimlar... Undan maslahatlar olishar, qo'lyozmalarini ko'rsatishar, intervyu so'rashar, shunchaki qiziqish yuzasidan tashrif buyurishardi. Yordam so'rab keluvchilar ichida haqiqiyarlari ham, qalbakilari ham uchrardi. Ular hech vaqt quruq ketishmagan. Men ayrim voqealarni keltirib o'tishdan o'zimni tiyaman, ammo qat'iy ishonch bilan aytolamanki, Anton Pavlovich-

ning saxiyligi, ayniqsa, bilim olayotgan yoshlarga beqiyos darajada ulkan edi.

U turfa qatlamdagi, turli muhitdagi odamlarni qabul qilardi. Bunday doimiy qabullar Chexovni qanchalik toliqtirmasin, bu hayotda allaqanday o'ziga tortadigan joziba mujassam edi. U bu suhbatlar asnosida birinchilardan bo'lib Rossiyada ro'y berayotgan voqealardan xabardor bo'lar, ko'rar, tinglar va anglar edi. O'sha paytlarda matbuotda Chexov jamoatchilik va jamiyat hayotiga, dolzarb masalalarga loqayd deb yozganlar nechog'li yanglishganlarini bilishmasdi. U hammasini sinchkovlik va o'ychanlik bilan kuzatib borar, hayajonlanar, xalq qayg'usida, dardida iztirob chekar, og'rinar edi. Uni huzurida jamiyatda ro'y bergan va berayotgan razilliklar va nomaqbul ko'rinishlar haqida so'z ochishsa, qalin qoshlari g'amg'inlashib, uyulib kelar, nurli ko'zlariga tubsiz va cheksiz g'am-g'ussa to'lib ketar edi.

Shu yerda bir dalilni ko'rsatib o'tish joiz. Bu Chexovning haqiqiy xalq hayotiga bo'lgan munosabatini yorqin ko'rsatadi. Uning faxriy akademiklik unvonidan voz kechganidan ko'pchilik xabardor. Ammo shu masala yuzasidan Chexovning Akademiyaga yo'llagan maktubini hamma biladi, deb o'ylamayman. Bu maktub oddiy tilda yozilgan, unda yozuvchilik g'ururi saqlab qolingan, ulkan yurakning samimiy to'lqinlari aks etgan.

«O'tgan yilning dekabrda A.M. Peshkovning¹ faxriy akademiklikka saylangani haqidagi quvonchli xabarni oldim. U bilan uchrashishga shoshildim. U ham Qrimda ekan, birinchi bo'lib xabarni yetkazdim va tabrikladim. Oradan biroz vaqt o'tib, gazetalar Peshkovni 1035-moddaga binoan faxriy akademiklikka saylanishi haqiqiy emasligi borasida yozishdi. Muhimi, bu xabar Fanlar Akademiyasi tomonidan berilgan, men ham faxriy akademik sifatida bundan xabardorman, daxldorman. Men bir tomondan, uni qutladim, ikkinchi tomondan, haqiqiy emas, deb topganlar ro'yxatidaman. Bunday qarama-qarshilik mening tasavvurimga sig'maydi, vijdonim qabul qilolmaydi. 1035-moddani o'qib, undan hech narsa topolmadim. Uzoq

¹ Aleksey Maksimovich Peshkov – rus yozuvchisi, shoir va nasrnavis, sotsialistik realizm oqimi asoschisi Maksim Gorkiyning asl ismi sharifi.

o'ylab, men uchun og'ir va qayg'uli qarorga keldim: meni akademiklik unvonimdan ozod qilishlarini so'rayman.

A. Chexov»

Qanday qilib Chexovni tushunishmagani juda g'alati! Ular ta'riflagan «tushkun kayfiyatdagi yozuvchi», aslida, yorug' kelajakka ishonchini yo'qotmagan, el-yurtining ko'z ilg'amas, ammo barakali va sermashaqqat zahmatning mevalari, hosiliga ishonardi. Uni yaqindan bilganlar xotirasidan shu sevimli tuyg'u bo'larmidi! U goho davradagi suhbatga mos kelmasa-da, kutilmaganda shitob bilan:

– Bilasizlarmi, o'n yildan so'ng Rossiyada konstitutsiya qabul qilinadi, – deb yuborardi.

Shu so'zlarda uning kelgusi hayotni ko'ra olishi, insoniyat baxt-saodatiga yo'g'rilgan orzulari ifodalanar, keyingi yillarda yozilgan asarlariga ko'chardi. Tan olib aytilish kerakki, kelib-ketuvchilarning hammasi Anton Pavlovichning vaqti va asablarini birday qadriga yetardi, deb bo'lmasdi. Ba'zilar ochiqdan-ochiq shafqatsizlik qilishardi. Men shunday voqealardan birini eslayman. Bu voqea keyinchalik tildan tilga ko'chib, mashhur bo'lib ketdi. Ziyoliman deb yurganlarning ayrim bema'niliklari va qo'pol-qo'rsliklarini fosh etguvchi ibratli hikoyatga aylandi.

Yoqimli, qaynoq, shamolsiz yoz tongi. Anton Pavlovichda kamdan-kam bo'ladigan xushnud va yengil kayfiyat, g'ayrat to'la ruhda o'tirardi. Osmondan tushganday semiz janob kelib qoldi (bilsak, me'mor ekan). Chexovga tashrifnomasini yuborib, uchrashuv tayinlashini so'radi. Anton Pavlovich uni qabul qildi. Me'mor kirib, tanishadi. Peshlavhadagi «Chekilmasin!» so'ziga e'tibor ham bermay, ijozat ham so'ramay, badbo'y kattakon nemis sigarasini tutata boshlaydi. Shundan keyingina mas'uliyatli ishni bajarayotganday, Chexovga xushomad qilib, maqsadga o'tadi.

Xullas, me'morning o'g'li – uchinchi sinfda o'qiyotgan gimnaziyachi ko'chada chopib ketayotib, sho'x bolalarga xos odatiga ko'ra, uchragan har bir narsa – fonuslar, ustunlarga osilib o'ynaydi. Oxir-oqibat, qo'li bilan tikanli simni ushlab oladi, kaftlari tinalib ketadi. «Ko'rdingizmi, qimmatli Anton Pavlovich, – hikoyasini tugallaydi

me'mor. – Men bu haqda yozib chiqishlarini istardim. Yaxshiyamki, Kolyaning faqat kaftlari timalib ketgan, bu – bor-yo'g'i tasodif! Uning muhim bir qon tomiriga ziyon yetishi mumkin edi-ku! Unda nima bo'lardi?» – «Ha, achinarli hol, albatta, – javob berdi Anton Pavlovich, – afsuski, sizga yordam berolmayman. Men maqola yozmayman, hech qachon yozmaganman. Hikoyalar yozaman». – «Bu yanayam yaxshi, judayam yaxshi! Shuni hikoyaga kiriting, – xursand bo'lib ketadi me'mor. – O'sha uy egasining familiyasini to'liq keltiring. Meniyam qo'shib qo'ying, roziman... yoki yo'q... yaxshisi, familiyamni to'liq yozmasdan, shunchaki janob S. deb bera qoling. Shunday, menimcha... Axir, bizda hozir ikkita liberal yozuvchilar qoldi – siz va janob N.» (Me'mor adabiyotchilarning mashhur bi-chiqchisining nomini aytadi.)

Men bunday ahmoqqarchilikning yuzdan birini ham tasvirlab berolmadim, otalik g'ururi toptalgan me'morning so'zlarini to'lig'icha keltirishning imkonini topolmadim. U suhbat davomida sigarani chekib tugatdi, kabinetdan sassiq hidni ketkazish uchun ko'p vaqt ketdi. Nihoyat, u o'rnidan qo'zg'alib, ketgandan so'ng Anton Pavlovich butunlay tushkun ahvolda ko'z oldlari qizarib, boqqa chiqdi. Uning ovozi titrardi, o'rindiqda tanishi bilan gaplashib o'tirgan singlisi Mariya Pavlovnaga achchiqlanib yuzlandi:

– Janoblar, nahotki, undan meni xalos etish yo'lini topmadingiz? Hech bo'lmaganda, sizni qayoqqadir chaqirishyapti, deng edi! U meni ezib tashladi!

Yana bir voqeani eslayman. Afsuski, bunda mening ham aybim bor. Bir kuni muxlis sifatida fikrlarini bildirish niyatida o'ziga bino qo'ygan shtat generali keldi. U Chexovni xursand qilaman, deb o'yladi, shekilli, oyoqlarini chalishtirib, qo'llarini ko'kragiga qayishtirib olganicha nomi endigina chiqib kelayotgan yosh yozuvchi haqida har xil gaplarni so'zlay boshladi. Chexov siqilib ketdi, o'z dunyosiga kirib oldi-da, butun vaqt davomida ko'zlarini yerdan olmadi, sovuqqonlik bilan o'tirdi va bir so'z demadi. Faqat xayrlashayotganda generalga shunday tikildiki, bu tashrif unga qancha azob va iztirob keltirganini anglash qiyin emas edi.

U maqtovlarni tortinchoqlik va sovuqqonlik bilan qabul qilar, bundan qiynalardi. Javon, divan yoniga borib-kelar, kipriklarlari

titrab ketar, sekingina qayrilib, qayta ko'tarilmas, yuzi qotib qolib, tundlashgandan-tundlashar edi. Ba'zan yaqinlaridan biri beo'xshov harakatlansa yoki hayajonlansa, u suhbatni hazilga aylantirib, boshqa tomonga burib yuborardi. Kutilmaganda e yo'q, be yo'q yengil kulgi bilan aytib qolardi:

– Men haqimda odessalik muhbirlar nimalarni yozishiga juda qiziqaman-da.

– Nima uchun?

– Kulgili-da. Hammasi aldashadi. O'tgan bahorda bittasi mehmonxonaga kirib keldi. Intervyu so'radi. Mening esa vaqtim yo'q. Shunda: «Kechirasiz, xayolingizga nima kelsa, shuni yozing. Menga baribir», – dedim. U esa yozibdi! Meni esa issig'im ko'tarilib ketdi.

Bir kuni jiddiy ohangda shunday dedi:

– Meni Yaltadagi har bir izvoshchi biladi. Bilasizmi, ular men haqimda qanday o'ylasharkan: «A-a! Chexov! Bu – o'sha kitobxonmi? Bilaman». Nima uchun ular meni kitobxon deb sanashadi? Ehtimol, ular meni marhumlarga kitob o'qib beradi, deb o'ylashar. Mana, siz, otaginam, qachondir biron-bir izvoshchidan men nima bilan shug'ullanishimni so'rab ko'rganmisiz?

5

Tushlikni Chexovnikida qildik. Pastda joylashgan salqin va yorug' oshxona, har doim dasturxon atrofida, albatta, mehmonlar bo'lardi. Bu oddiy, bir-biriga o'ta mehrlil va erka oilaga havas qilmasdan bo'lmasdi. Bunda hamisha muhabbat va bir-biriga hamdardlikni his etasan, ammo bu tuyg'ular har qanday dabdaba va baland-parvoqlikdan holi, yuksak madaniyat va noziklik zamirida qurilgan, e'tiborlilik, hadni bilish, o'ylab topilmagan kundalik munosabatlar. Bu yer turli nosamimiylik va razilliklardan tashqarida edi. Hamma o'zini yengil va qulay sezardi. Men bir yozuvchining, Chexovlarni bir ko'rishda yaxshi ko'rib qoldim, deganini yaxshi tushunaman.

Anton Pavlovich kam ovqat yerd, stol atrofida ko'p o'tirishni yoqtirmasdi. Derazadan eshikka, eshikdan deraza tomonga borib kelayardi. Tushlikdan so'ng oshxonada kim bilandir yolg'iz qolgan Yevgeniya Yakovlovna – Chexovning onasi sekingina bezovtalanib:

– Antosha yana hech narsa yemadi, – derdi.

U mehmondo'st edi, tushlikka keladiganlarga alohida mehr ko'rsatar, so'zlari va harakatlari chin ko'ngildan chiqar edi. Tushlikdan so'ng yuqoriga – ochiq ayvonga ko'tarilar yoki o'z kabine-tida choy ichar, boqqa tushib, o'rindiqla o'tirar, palto va hassada, qoshigacha yumshoq qora shlyapasini qo'ndirib olib, uning ostidan ko'zlarini qisganicha olis dalalarga tikilar edi.

Huzuriga keluvchilar ko'p bo'lardi. Tinmay telefonda so'rashar, kelib-ketishar edi. Notanish odamlar tashrif qog'ozlari, kitobga dast-xat yozib berishini so'rashardi. Qiziq hangomalar ham bo'lib o'tardi.

«Tambovlik zamindor» – uni Chexov shunday atardi – shifo istab keldi. Anton Pavlovich unga erinmasdan shifokorlik amaliyotini tashlaganini, tibbiyotdan ortda qolganini tushuntirdi, tajribali shifokorlarni tavsiya qilgani ham havoga uchib ketdi. «Tambovlik zamindor» so'zida turib oldi: Chexovdan boshqa shifokorga ishonmaydi. Istasa-istamasa, unga yengil, beozor maslahatlarni berishga to'g'ri keldi. Zamindor xayrlashayotib, Anton Pavlovich stoliga ikkita oltin tanga tashladi, qaytarib olishga uni ko'ndirib bo'lmadi. Chexov rozi bo'lishga bo'ldi-yu, bu pullarni xizmat haqi sifatida qabul qilolmasligi, Yalta xayriya jamiyatiga tortiq qilishini aytdi. Shu yerning o'zida ishonch qog'ozini yozdi. «Tambovlik zamindor»ga xuddi shu narsa kerak ekan: yuzlari quvonchdan porlab, qog'ozni ehtiyotkorlik bilan cho'ntagiga solib qo'ydi. Shundan so'nggina bu yerga yagona istak – Chexovdan dastxat olish uchun kelganini tan oldi. Bunday ayricha bemori haqida Anton Pavlovich yarim tabassum, yarim jahal aralash so'zlab berdi.

Kelib-ketuvchilar orasida o'zini Chexovdan ham balandroq qo'yuvchilar, asabiga teguvchilar kam emas edi. Ammo u ichki ruhiyati va madaniyatini buzmaganda holda, hamma bilan birday muomalada bo'lar, uni ko'rishga kelganlarni sabr va e'tibor bilan tinglar edi.

Bu hurmatni ba'zilar suiiste'mol qilishgacha ham borishardi. Chexovning muxlisalaridan biri – oqko'ngil va jonsarak xonim uning tug'ilgan kuniga gipsdan yasalgan, bo'yalgan, bahaybat, baland bo'yli itni sovg'a qildi. Uni maydonga – oshxona yoniga o'rnatishdi. U qahrli qiyofada, tishlarini g'ijirlatib, hammani qo'rqitib o'tirardi. Odamlar uning jonsizligini unutib qo'yishardi.

– Bilasizmi, o'zim ham shu ko'ppakdan qo'rqaman, – tan olardi Chexov. – Olib tashlash esa noqulay. Xafa bo'lib qolishadi. Mayli, shu yerda yashab tursin.

Albatta, bunday tashriflar va qabullar uni charchatib yuborardi. «Mening oldimga shunday ko'p odam keladiki, – deb arz qiladi u bir xatida, – boshim aylanib ketadi. Bu ahvolda yozish qiyin!» Biroq u samimiy tuyg'ularga befarq qaramagan, bunday ehtiromni har qanday dabdaba va yaltiroq xushomadlardan ajratib olardi. Kunlarning birida suv bo'yidan ko'tarinki kayfiyatda qaytdi. U yerlarga kam borardi. Hayajon ichida so'zlab berdi:

– Ajoyib uchrashuv! Kutilmaganda oldimga artilleriyachi zobit keldi, yosh, judayam yosh podporuchik: «Anton Pavlovich Chexov-misiz?» – «Ha, nima istaysiz?» – «Odobsizligim uchun uzr, lekin qo'lingizni siqqim kelyapti!» – va qizarib ketdi. Naqadar yoqimli chehra! Bir-birimizning qo'limizni siqib, xayrlashdik.

Anton Pavlovichga kechki havo yoqardi, ayniqsa, soat yettilarda o'zini yaxshi his etardi. Bu vaqtda hamma oshxonaga choyga va kechki yengil tamaddiga kirardi. Shunda ahyon-ahyonda Chexov xuddi avvalgi, yoshlik chog'larida bo'lganday quvnoq kayfiyatga qaytar, so'zlari qaynoq, ko'zlari porlab ketar edi. Shu yerning o'zida sahnalar uyushtirar, ishtirokchilariga aylanar edik. Ko'proq to'y sahnalari jonli chiqar, yaxshilik bilan tugallanar edi. Yosh uylangan yigit ertalab choy ustida o'ylab o'tirmasdan ishbilarmonlarga xos ohangda bunday debdi:

– Azizam, choyni ichib bo'lgach, notariusga boramiz, pullaring haqida ortiqcha tashvishlanishning nima keragi bor?

U bir-biriga o'xshamaydigan aynan chexovcha familiyalar o'ylab topardi. Afsuski, ulardan hozir faqat afsonaviy matros Koshkadavlenko yodimda qolgan. U hazillashib, yozuvchilarni keksaytirib ko'rsatishni xush ko'rardi. «Nimalar deyapsiz, Bunin mening tengqurim-ku! – ishontirardi u. – Teleшов ham. U qarib qolgan yozuvchi. O'zidan borib so'rang, aytib beradi – Ivan Alekseyevich Belousovning to'yida qanday yayragandik! Qachon bo'lgan edi bu?» Iste'dodli yozuvchilardan biriga jiddiy ohangda shunday derdi: «Axir, siz mendan yigirma yosh kattasiz, bunga ishoning. Esingizdami, siz avval Nestor Kukolnik taxallusi bilan yozardingiz...»

Uning hazillari beg'araz, yurakka botmas edi. Qalbi toza va mehrli bu odam umrida hech kimning dilini og'ritmagan. Kechki taomdan so'ng, albatta, kimnidir yarim soat-bir soatcha ushlab qolardi. Yozuv stolida shamlar yonadi. Hamma tarqagach, yolg'iz qoladi. Katta derazasidan kelib turgan yorug'lik ancha paytgacha o'chmaydi. Bu paytda u yozarmidi yoki xotira daftariga kun taassurotларini to'karmidi – bunisini hech kim bilmasdi.

6

Umuman olganda, biz uning nafaqat ijod sirlari, balki kundalik odatiy ishlash tarzini ham yaxshi bilmaymiz. Bu borada Anton Pavlovich o'ta sirli, so'z ochmasdi. U menga yo'l-yo'lakay aytgan juda muhim bir gapini tez-tez takrorlayman:

– Hali nashr etilmagan asarlaringizni birov o'qib qolishidan saqlaning. Hatto korrekturasiniyam o'qitmang.

O'zi-da shu qoidagi bir umr rioya qildi, faqat bundan rafiqasi va singillari mustasno edi. Aytishlaricha, avvallari u borada juda saxiy bo'lgan. U paytlarda ko'p va tez yozgan. Bir kunda bitta hikoyani yozib tashlashini aytib yurardi. Yevgeniya Yakovlevna shunday hikoya qiladi: «Antosha talabalik davrida choy ichib o'tirgan ko'yi xayolga berilib ketardi, ko'zi menda bo'lsayam, hech narsani ko'rmayotganini bilardim. Keyin cho'ntagidan daftarini chiqarardida, shosha-pisha nimalarnidir yoza boshlardi. Yana xayolga cho'mib ketardi...»

Keyinchalik o'ziga nisbatan tartibliroq va talabchan bo'lib bordi: bir hikoyani yillab ushlab yurardi, qayta ishlash va ko'chirishdan erinmasdi, korrekturani ham belgilarga, izohlarga, kiritmalarga to'ldirib tashlardi. Asarni yozib tugatish uchun undan ayrilmasdan ishlashi lozim edi. «Agar hikoyani uzoq vaqt tashlab qo'ysam, – derdi u, – uni tugatolmayman. Hammasini yangidan boshlashimga to'g'ri keladi».

Chexov obrazlarni qayerlardan yig'ib-terib olardi? Kuzatishlar va qiyoslarni-chi? O'ziga xos tilini qanday yaratdi? U o'z ijod yo'lini hech kimga ishonmas va ko'rsatib o'tirmasdi. Aytishlaricha, undan ko'plab yon daftarlar qolgan, deyishadi, ehtimol, ularda bu

sirga yo'l ochadigan kalit topilar? Yoki butunlay sirligicha qolib ketar? Kim biladi! Har qanday sharoitda bizga bu borada ehtiyotkorlik bilan aytilgan qochirimlar va taxminlardan xulosa chiqarish imkoni qoladi.

O'ylaymanki, hamma vaqt – tongdan kechgacha, tunda, uyquda, bedorlikda ham u ko'z ilg'amas shiddat bilan, o'zini, dunyoni unutilib, bosim bilan ishlardi; hammasi – aniq va esda qolarli ishlar. U tinglash va so'rab olishni ham bilardi, bu suhbat davomida tez-tez sezilardi; tiyrak va mehrli nigohi kutilmaganda qotib, qayoqlargadir yo'l olar, yuragida ajib tug'yonlar uyg'onib ketar edi. Qo'qqisdan suhbatga daxli yo'q savollarni o'rtaga tashlab, ko'pchilikni noqulay ahvolga solib qo'yardi: «Siz ot zavodida bo'lganmisiz? Albatta, boring. Bu juda qiziq». Yoki hozirgina javobini olgan savolni yana qaytarib berardi.

Bir qarashda, Chexov xotirasida arzimas narsalarni saqlashni lozim deb bilmasdi. Men mayda-chuyda, arzimas narsalarni aytyapman: asosan, ayollar, dehqonlarga juda qiziq tuyulgan, ko'ringan voqealar, so'zlar, holatlar, odatlar. Chunonchi, u qanday kiyinardi, soqol-mo'ylovi bormi-yo'qmi, soatining zanjiri qanaqa edi, sochi qay rangda, xullas, bunday tafsilotlar unga qiziqarli tuyulmasdi. U insonni butunligicha olardi, chaqin tezligida tajribali kimyogarday uning sifati, yashash tartibi va vaznigacha aytib berar, muhim ichki mohiyatini ikki-uch chizgilarda ko'rsata olardi.

Bir kuni u anchayin norozi ohangda ko'p yillik atoqli olim do'stidan so'z ochib qoldi. U ezmaligi bilan Chexovni siqib tashlagandi. Olim Yaltaga kelgan zahoti yozuvchining oldiga ertalabdan borib olar, tushgacha o'tirar, tushlikni ham shu yerda qilib, yarim soatga mehmonxonasiga ketardi, yana qaytib kelib, yarim tungacha gapiraverardi, gapiraverardi, gapiraverardi... Har kuni shu ahvol.

Hikoyani shu yerda to'xtatib, Chexov birdan jo'shqin ohangda bunday dedi:

– Hech kim bu odamda nima xarakterli ekanini anglab, tushunib yetmaydi. Men bilaman. U professor, ovro'pacha uslubdagi olim. Bu – uning uchun ikkinchi darajali masala. Muhimi, u o'zini ichichdan aktyorman deb biladi, shunday o'ylaydi va bunga ishonadi.

Faqat taqdir taqozasi bilan jahon sahnasida mashhurlikka erisholmadi, xolos. Uyida har doim Ostrovskiyni¹ ovoz chiqarib o'qiydi.

Bir kuni nimanidir kulib esladi-da, kutilmaganda aytib qoldi:

– Bilasizmi, Moskva – xarakterli shahar. Bu yerda hamma narsa to'satdan sodir bo'ladi. Publisist do'stim bilan «Bolshoy Moskvoskiy»ga chiqdik. Bu uzoq va ko'ngilli kechki ovqatdan so'nggi sayr edi. Do'stim meni Iverskoyga boshladi. Ko'chadagi bor tilanchilarga cho'ntakdagi tangalarni ulashib chiqdik. Nimalardir deb g'udranib ham qo'yadi. Afandi odam, afandi...

Shu o'rinda garchi ko'pchilikka yoqmasa-da, bir jihatga to'xtalib o'tgim keladi. Chexov olimlar, eltuvchilar, tilanchilar, zamindorlar, adabiyotchilar, xizmatchilar, rohiblar, kichik pochta amaldori bilan – kim bo'lishidan qat'i nazar, bir xil muomalada so'zlashar, ularni qunt va e'tibor bilan tinglar edi. Balki shundan uning hikoyalaridagi olimlar va daydilarning qalbini shundoq ko'rib turasiz, so'zlariga ishonasiz. Ehtimol, shuning uchun vafotidan so'ng ortidan behisob «qalin oshnalari» qoldi. Ular ta'kidlaganlaridek, Chexov ular uchun o'tga ham, suvga ham kirardi.

U hadeganda yuragini hammaga ham ochmagan, degan fikrlar, xayol ham yo'q emas (bundan taganroglik amaldor – Chexovning yaqin do'sti mustasno, albatta. Ularning do'stligi afsonaga aylanib ketgan). Ammo hammaga birday ochiqko'ngillik bilan munosabatda bo'lar, har biriga alohida qiziqish bilan qarar edi.

Chexov o'ziga xos so'zlar va ajoyib, siqiq va nozik iboralarni to'g'ridan-to'g'ri xalq tilidan olar, «Arxiyeriy» hikoyasidan olingan «Bu menga yoqmaydi!» iborasi omma orasida shu qadar tez tarqaldiki, aslida, bu so'z hamisha tushkun kayfiyatda sarxush yuradigan yarim aqli zaif, yarim daholarga xos daydi qahramon nomidan aytilgan. Bir suhbatimizda vafot etganiga ancha bo'lgan moskvalik bir shoirni esladik. Chexov uni tiniq xotira bilan yodga oldi, uning bo'm-bo'sh uyi, u bilan yashagan ayolni birma-bir tasvirlab berdi. «Yaxshi eslayman, – dedi Anton Pavlovich kulimsirab, – soat beshlarda o'sha ayol kelib: «Liodor Ivanich, hoy, Liodor Ivanich, pivo ichadigan paytingiz bo'lmadimi?» deb so'radi». Men shunda ehti-

¹ Aleksandr Nikolayevich Ostrovskiy (1823–1886) – rus dramaturgi, uning ijodi rus milliy teatri rivojlanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan.

yotsizlik qilib, gapirib yuboribman: «Shunaqami? Demak, u mabodo «Oltinchi palata»ngizga shu yoqdan kelib qolgan ekan-da!» – «Ha, albatta, o'sha yoqdan», – dedi Anton Pavlovich yoqtirmayroq.

Uning tanish-bilishlari orasida savdogarlar ham uchrardi. Ular millionlar egasi bo'lishsa-da, so'nggi urfda kiyinib yurishsa-da, adabiyotga tashqi tomondan baho berib, o'zlarining «yuksak» va «qat'iy» fikrlarini bildirishardi. Boshqa birlari Chexov oldida bor dardlarini to'kib solishardi: «asabiy qiyofalari»dan kelib chiqib, ajoyib romanlar yozib, xalq ichidan chiqqan yozuvchiga aylanishlari mumkin, biroq afsuski, bu dardlarni aytib ado qilib bo'lmaydi. U esa indamaygina tinglardi, huzurlanayotganday, faqat yuzida, lablarida sezilar-sezilmas tabassum o'ynardi.

Men, Anton Pavlovich aynan shunday yozuvchi va andazalarni izlagan, deb aytolmayman. Fahmimcha, u hamma yerdan hamisha kuzatish uchun material yiqqan, buni ataydan qilmagan, aksincha, bu holat tabiiy va beixtiyor ro'y berardi. Ayrim hollarda uning istagiga zid ravishda ro'y berib qolsa-da, hech qachon tuzatib bo'lmas odatlarning o'tkir ildizlarini ko'rar, tahlil qilar, umumlashtirar edi. Bularning zamirida barcha azob va uqubatlarni, dunyolarni unuttirguvchi ijod mujassam edi, aslida.

Chexov o'z taassurotlarini birov bilan bo'lishib o'tirmas, qanday yozmoqchi ekanini aytib yurmas edi. Kundalik nutqida badiiy so'zlarni kam ishlatardi, qizg'anardi. Suhbatlarda, oddiy va sodda, kundalik hayotda ishlatiladigan so'z va iboralardan foydalanar, ularni qiyoslamas, izohlamas edi. Shu yo'l bilan yuragidagi javohirlarini asrab-avaylardi, ularga qo'poldan-qo'pol so'zlarni qo'shmas, top-tashlariga yo'l qo'ymas, yozishdan ko'ra ko'proq o'z mavzularini hikoya qilib berishga usta yozuvchilardan shunisi bilan farqlanar edi.

Bu uning tug'ma kamtar va kamsuqumlighi, tortinchoqligidan kelib chiqqan, deb hisoblayman. Shunday insonlar borki, ular ham ruhan, ham jisman balandparvozliliklar, manmanliklardan, yoqimsiz xulq va odatlar, harakatlardan holi bo'lishadi. Anton Pavlovichda buning oliy namunasi mujassamlashgandi. O'zini beparvoday tutishida ham allanechuk sir, tug'yonlar, ichki kurash ko'rinar, kundalik oddiy tashvishlarga katta ahamiyat bermasa-da, madaniy hayotga doir masalalar uni hayajonlantirar, to'lqinlantirar edi. Teatrdan,

uning haroratidan hech qachon ayrilolmas, bunda yengib bo'lmash kuch yashar edi. Bu holatni shunday tasvirlash joizday, ya'ni shunday sevgi bilan ayolnigina sevisish mumkin. Bu insondan nozikta'blik va ulkan aqlni talab etadi. Ammo u bu haqda bo'rttirib gapirmas, bunday qilish uning tasavvuriga ham sig'mas edi; hech qachon tiz cho'kib, bir qo'lini yuragiga qo'yib, birinchi oshiq rolini bajarmagan, buni istamagan ham. U sevsa ham pinhona, birovga bildirmay, bir so'z aytmay sevgan, iztirob chekkan, his-tuyg'ularini yoyib tashlamagan, baralla hammaga ovoza qilmagan, havoyi odamning fe'l-atvorini o'ziga yuqtirmagan.

7

Yosh, boshlovchi yozuvchilarga e'tiborli va shirinso'z edi. Hech kim uning oldidan tushkun kayfiyatda, yozuvchining salobati bosib, o'zining g'o'rligidan kamsitilgan ahvolda chiqib ketmagan. Hech kimga: «Qarang, men nima qilyapman – siz ham shunday yo'l tuting», – demagan. Kimdir nolisa: «Agar bir umr «yosh, umidli yozuvchi» bo'lib qolsangiz, buning uchun ijod qilish arzirmikan?» – deya bosliqlik bilan javob berar, jiddiy ohangda:

– Hammagayam, otaginam, Tolstoy bo'lib yozish nasib etmagan, – derdi.

Uning e'tiborliliigi kishini hayajonga solardi. Boshlovchi yozuvchilardan biri Yaltaga keladi, shahar chekkasiga – Autkadan sal olisroqdagi katta va shovqin-suronli grek xonadonidan bir xonani ijaraga oladi. Chexovga bunday sharoitda yozish qiyin bo'layotganini aytadi. Anton Pavlovich unga ertalabdanoq dala hovlisiga ko'chib kelishi, pastda – oshxona yonida shug'ullanishi mumkinligini bildiradi. «Siz, – deydi u jozibali tabassumda, – tushlikniyam menikida qiling. Asaringizni yozib tugatsangiz, menga ko'rsatarsiz yoki jo'nab ketsangiz, korrektura holida yuborsangiz ham mayli».

Chexov hayratlanarli darajada ko'p o'qirdi, o'qiganlarini yodda yaxshi saqlardi, birini ikkinchisiga aralashtirib tashlamasdi. Mualliflar undan o'z asarlari haqida fikrini so'rashsa, maqtardi; ularga o'zini yaxshi ko'rsatish uchun emas, balki qattiqqo'llik murg'ak qanotlarni banogoh kesib yuborishini bilardi, shuning uchun haqqoniy tanqid

va umid bag'ishlash ko'p hollarda ijobiy natijalarga olib keladi, deb sanardi. «Hikoyangizni o'qib chiqdim, yaxshi yozilgan», – derdi u bunday vaziyatlarda yo'g'on va samimiy tovushda. Muallif qat'iylik bilan undan jiddiy fikrlar bildirishni so'raganidan so'nggina yaxshilab tanishib olib, har bir so'zni ehtiyotkorlik bilan qo'llab, tiniq va ochiq fikrlardi. Menda Chexovning bir romannavisning bitta asariga yo'llagan ikkita xati saqlanib qolgan, biridan olingan parcha:

«Qimmatli N, qissangizni oldim, katta rahmat. Qissa yaxshi, men uni bir marta o'qib chiqdim, avvalgisi kabi bir xil kayfiyat oldim...»

Uning maqtovaridan qoniqmagan muallif Anton Pavlovichdan ikkinchi maktubni ham oladi:

«Asardagi kamchiliklardan yozishimni so'rab, meni noqulay ahvolga solib qo'yayotirsiz. Bu qissada yetishmovchiliklar yo'q, agar uning ayrim ko'rinishlariga duch kelishimizni hisobga olmasak, albatta. Masalan, siz qahramonlaringizni aktyorlarni bundan yuz yil oldin qanday tasvirlashgan bo'lsa, shunday chizasiz – yangilik yo'q. Ikkinchidan, birinchi bobda faqat tashqi tomonning tasviriga zo'r berasiz, shundan nariga o'tmaysiz. Aslida, busiz ham qissani boshlash mumkin. Tasvirlar kishini zeriktiradi va asarning qimmatini yo'qotadi. Soch-soqoli qirib tashlangan aktyorlar xuddi ksyondzlar kabi bir-biriga juda o'xshashadi, ularni zo'r berib, o'ziga xos qilib tasvirlayman, deb har qancha urinmang, befoyda. Uchinchidan, ohang qo'pol, mast-alast odamlarning bema'niliklari va qo'polliklari bilan to'lib-toshgan. Siz so'ragan kamchiliklar – mana shular, boshqa hech narsa o'ylab topolmadim».

O'zi bilan ruhan yaqinlik sezgan ijodkorlar bilan munosabatga hamisha e'tibor va ehtiyotkorlik bilan qarar, o'zi bilgan xabarni boshqalarga ham yetkazishga harakat qilar, bu harakat unga foyda keltiradimi-yo'qmi, bu haqda o'ylab o'tirmasdi. «Qimmatli N, – deb yozgan edi u tanishlaridan biriga, – sizga shuni ma'lum qilamanki, qissangizni L.N. Tolstoy o'qib chiqdi va unga yoqdi. Marhamat qi-

lib, Lev Nikolayevich uchun kitobingizni mazkur manzilga yuboring: Koreiz, Tavrich. gub; mundarijadagi eng yaxshi hikoyalaringiz tagiga chizib qo'ying, toki u o'qishni o'sha hikoyalardan boshlasin. Kitobingizni menga yuborsangiz ham, unga yetkazishim mumkin».

Mana shu yozuvchiga tez orada yana bir xabar yozadi, unda rus tili lug'atining Fanlar Akademiyasi tomonidan chop etilgan oltinchi nashrining ikkinchi jildida uning nomini uchratib qolganini bildiradi. Qaysi bet, qaysi qatorda ekaniniyam ko'rsatadi. Bular bir qarashda juda mayda-chuyda ishlarga o'xshab ko'rinadi, ammo ularni oralab o'tayotgan mehr hissini sezmaslik mumkin emas. Bugungi kunda shunday benazir so'z san'atkori oramizda yo'q ekan, bularning barchasi olis, qaytib kelmas mehr-muhabbatning naqadar ulug'ligini ifodalab turadi.

– Iloji boricha ko'p yozing, ko'proq yozing, – derdi u yosh ijodkorlarga, – hammasiyam ko'ngildagidek chiqmasada, kuyinmang, vaqti-soati kelib, barchasi yaxshi bo'ladi. Muhimi, yoshligingiz va jo'shqinligingizni behudaga sovurib yubormang: hozir faqat ishlashingiz lozim. Qarang, qanday yaxshi yozyapsiz, ammo so'z boyligingiz kam. So'z va iboralarni boyitib boring. Buning uchun har kuni yozish kerak.

Chexov o'z ustida ko'p ishlardi, nafis va turfa iboralarga boy tilini o'stirib borardi: suhbatlardan, lug'atlardan, kataloglardan, ilmiy ishlardan, muqaddas kitoblardan izlanardi. Bu kamgap odamning so'z boyligi ulkan edi.

– Poyezdning uchinchi toifali vagonida ko'proq yuring, – deya maslahat berardi u, – bu borada sog'ligim menga pand berayotganidan afsusdaman. U yerda ko'plab qiziqarli voqealarning guvohi bo'lasiz, eshitasiz.

U yil bo'yi Peterburgdagi kabineti oynasidan tashqaridagi qo'shni uylardan boshqa hech narsani ko'rmaydigan yozuvchilarga hayron qolardi. Tez-tez to'lib-toshib aytib qolardi:

– Tushunmayman, mana, siz – yosh, sog'lom, erkin odamsiz. Nima uchun Avstraliya (bu mamlakat uning uchun dunyoning eng sevimli joyi edi) yoki Sibirgami bormaysiz? Sog'ayib ketsam, albatta, yana Sibirga boraman. Saxalinga o'tganimda, u yerda bo'lganman.

Otaginam, bu o'lka nechog'li maftunkorligini tasavvur ham qilol-maysiz. Butunlay o'zgacha olam.

– Nima uchun pyesa yozmaysiz? – so'rab qolardi u. – Chindan ham yozing, yozib ko'ring. Har bir yozuvchi, hech bo'lmaganda, to'rtta pyesa yozishi kerak.

Shunday derdi-yu, bugungi kunda dramaturgiyaga qiziqish pa-sayib ketyapti, uni ko'tarish uchun yo drama qayta tug'ilishi, yoki butunlay yangi, hali hech kimning ko'zi tushmagan shaklda bo'lishi lozim, deya kuyinardi: «Biz teatr yana yuz yildan so'ng qanday bo'lishini bilmaymiz».

Anton Pavlovich ba'zan bir-biriga zid fikrlar ham bildirar, ammo ularda o'zaro bog'liqlik, ichki uyg'unlik va bir xil mazmun bo'lardi. Bir kuni suhbat yon daftarlar xususida ketdi. Chexov o'sha zahotiyoq ularga suyanib qolmaslik, inson ko'proq o'z xotirasi va tasavvurla-riga ishonishi lozimligini uqtira ketdi. «Katta narsalar shusiz ham yashab qoladi – maydalarini o'zingiz izlab toping va kashf qiling». Oradan bir soat o'tgach, bir yilcha sahnada ishlagan bir xodim teatr haqidagi taassurotlarini gapira boshladi. Bir voqeani so'zlab berdi. Chekka kichik shahardagi bog' teatrida kunduzgi tayyorgarlik ket-yapti. Oshiq yigit shlyapada, katak-katak kiyimda, qo'li cho'ntakda, sahnada u yoqdan bu yoqqa borib kelyapti. Tomoshabinlar oldiga to'satdan kelib qolgan, adashib yurgan daydiday ko'rsatadi o'zini. Uning asardagi «seviklisi» sahnaga chiqib, yigitga yuzlanib bunday deydi: «Sasha, sen kecha «Qiziqchi»ni qanday kuylading? Marha-mat qilib, hushtakda chalib ber». Oshiq yigit unga qayrilib, boshdan-oyoq tikilib qaraydi, mensimayroq, bo'g'iq ovozda javob beradi: «Nima-a? Sahnada hushtak chalish? Shuni bilki, sahna – bu sajdagoh». Hikoya tugagach, Anton Pavlovich o'zini oromkursiga yelkasi bo'yi tashlab yuboradi-da, baland va tiniq ovozda haholab kulib yu-boradi. Birdan yonboshda turgan stol tortmasidan yon daftarini olib, haligi xodimdan so'radi: «To'xtang, to'xtang, nima dedingiz, sah-na – bu sajdagoh?» Hikoyani to'lig'icha yozib oldi.

Mohiyatan olganda, bu yerda bir-biriga zid gaplarni o'zi yo'q edi. Chexov buni shunday izohlaydi: «Qiyoslashlar, mayda belgilar, to'liq tafsilotlar, tabiat manzaralarini yozib borish shart emas. Bu o'zidan o'zi tug'iladi. Biroq yalang'och fakt, noyob ism, texnik ata-

malarni daftarga qayd borish lozim. Aks holda, unutiladi, yoddan chiqib ketishi mumkin».

Jiddiy jurnallar uni qiynab kelishayotgani, «Shimol xabar-nomasi»ni yengil qo'l bilan butunlay egallab ololmayotganini aytib qolardi.

– Bir tomondan qaraganda, barchangiz mendan minnatdor bo'lishingiz lozim, – derdi u yosh yozuvchilarga. – Kichik hikoyalarni mualliflari uchun yo'lni men ochib berdim. Avvallari shunday bo'lardi: tahririyatga qo'lyozmangni olib kelasan, ular hatto o'qib ko'rishniyam istashmaydi. Faqat yuzaki qarab qo'yishadi. «Nima? Bu asarmi? Axir, bu – chumchuqning tumshug'i-ku! Bizga bunday asarlarning keragi yo'q.» Men esa bu ishni uddaladim va boshqa yo'lni ko'rsatdim. Shundan so'ng men bilan shunday munosabatda bo'lishdiki! Hatto nomimning qiymatini oshirib yuborishdi. Bu nomga chuqur va o'tkir nigoh bilan qaraydigan bo'lishdi: Eh, Che-xov-lar! Bu kulgili edi, chamamda.

Anton Pavlovich zamonaviy adabiyot haqida, aynan bugungi uslub xususida baland fikrda edi. «Siz juda yaxshi yoza boshladingiz, yomon yozuvchilarning o'zi umuman yo'q, – derdi u qat'iy ohangda. – Shuning uchun ham mashhur bo'lish qiyin kechyapti-da. Bilasizmi, bunday burilishni kim amalga oshirdi? Mopassan. U so'z san'atkori sifatida shunday katta talablar qo'ydiki, oqibatda, eski usulda yozish mutlaqo mumkin bo'lmay qoldi. Hozir klassiklarimizdan, hech bo'lmaganda, Pisemskiy yoki Ostrovskiy qayta o'qib ko'ring-a, urinib ko'ring, bari – eski, zerikarli va umumiy. Boshqa tomondan esa, o'zimizning dekadentlarni olib ko'ring. Ular o'zlarini kasalmand va aqlsiz ko'rsatishga urinishyapti. Aslida, hammasi soppa-sog'».

U yozuvchilardan tilning sodda va sofligini talab etardi, oddiy maishiy ko'rinishlarda ham jimjimadorlikka berilmaslikni o'rgatardi. «Buni yozishning nima keragi bor? – deya qabul qilolmasdi u. – Kimdir qayiqqa o'tiribdi-da, Shimoliy qutbga qandaydir odamlar bilan kelishuvni amalga oshirish uchun yo'lga tushibdi, bu paytda uning sevgilisi o'zini qo'ng'iroqlar minorasidan yerga tashlaydi. Buning hammasi yolg'on, haqiqiy hayotda bunday bo'lmaydi. Oddiy tilda ishonarli qilib yozish kerak: masalan, Pyotr Semyonovich qanday qilib Mariya Ivanovnaga uylandi, tamom. Aytgancha, tagsarlav-

halarga ne hojat: psixologik etyud, janr, novella? Barida bir xil mazmun va da'vogarlik. Sarlavhani sodda qilib qo'ying – xayolingizga kelganini, boshqasi kerakmas. Qo'shtirnoqlar, belgilar, chiziqnlarni kamroq ishlating. Bular – yasamalik».

Chexov yosh ijodkorlarga o'z qahramonlarining holati – quvonch va qayg'ulariga chuqur kirib ketmaslikni ham o'rgatdi. «Yaxshi bir qissa, – hikoya qilardi u. – Katta shahar, dengiz bo'yidagi restoran tasviri. O'qib chiqdim. Yovvoyi mayda-chuydalar, musiqa, elektr chiroqlari, tugma teshigidagi atirgullardan muallifning o'zi ko'z uzolmaydi, ularga bunchalik berilib ketish yaramaydi. Bunday narsalardan baland turish kerak. Eng kichik tafsilotlargacha bilish yaxshi, albatta. Lekin ularni tasvirlayotganda balanddan pastga qarayotganday tutgan afzal. Shunda barchasi ko'ngildagidek chiqadi».

8

Alfons Dodening o'g'li otasi haqidagi xotiralarida fransuz yozuvchisi o'zini hazil aralash «baxt sotuvchisi» deb ataganini eslatib o'tadi. Uning oldiga turli toifadagi odamlar maslahat so'rab, yordam istab, tashvish va qayg'ularini to'kib, yuragini ochish uchun keli-shar, u esa oromkursiga mixlangan ko'yi o'tirarkan – og'ir bedavo kasallikka chalingan edi Dode – o'zida kuch va sabr, mehr-muhabbat topib, o'zgalar dardiga hamdard bo'lar, ularning ichiga kirib borar, ruhlantirardi.

Chexov kamtar va kamsuqumlīgi, ko'pso'zlilikdan yiroqligi bois, muammolarini hech kimga yoymas, biroq huzuriga kelganlarning tavba-tazarrularini chidam bilan tinglar, so'zi va amali bilan ularga yordamga shoshilar, nozik va chayir qo'lini mehr bilan uzatardi. U o'zining shaxsiy qayg'u-musibatlaridan baland yashashga, hatto quvonchli kunlardan ham havolanib ketmaslikka urinar, aslida, nimaiki bo'lsa, ko'rib-bilib turardi. Uni hech bir shaxsiy ish yoki tashvish yengolmasdi. O'zi yoqtirmagan odamlarga ham ochiqko'ngillik bilan yondoshar, saxiylik, bag'rikenglik qilardi. Chexovning bu xislatlarini hamma ham birday tushunmas, kimlargadir sirli va yashirin ko'rinar, kim bilsin, balki aynan shu fazilatlar yozuvchi shaxsiyatidagi bosh bo'g'inlardan sanalgandir.

Men yaqin do'stimning ruxsati bilan Chexov xatlaridan biridan parcha keltiraman. Gap shundaki, bu odam rafiqasini juda sevadi, rafiqasi esa birinchi farzandlik bo'lish jarayonini og'ir kechiradi va bu unga qattiq ta'sir etadi. Bu haqda Anton Pavlovichga tinmay arz qilib, uni bezor qilib yuboradi. Shunda Chexov do'stimga shunday yozadi:

«Rafiqangizga aytingki, xavotir olmasin. Hammasi o'tib ketadi. Bolani dunyoga keltirib, qo'liga olgach, bu hayot ko'ziga shu qadar charaqlab ko'rinib ketadiki, bor azoblarini unutib yuboradi. Shunda siz ham baxtiyor onaga – rafiqangizga termilib, beixtiyor ko'zlarinigizga sevinch yoshlari to'ladi».

Bu oddiy satrlarda ham bironing g'amiga sherik bo'lish, nozik e'tibor ko'rinib turibdi. Do'stimiz baxtli otaga aylanganida, o'sha maktubini eslab, Chexovdan qanday qilib bunday holatlarni tushunishini so'raydi. U xotirjam va biroz beparvo ohangda javob qaytaradi:

– Axir, men qishloqda yashaganman, ona bo'layotgan ayollarni shifokor sifatida qabul qilganman. Bunday baxt-quvonch joy tanlamaydi, hamma yerda hammada bir xil kechadi.

Agar Chexov mashhur yozuvchi bo'lmaganida, shubhasiz, ajoyib shifokor bo'lib tanilardi. Uni maslahatiga zarurat sezib, chaqirib turishgan shifokorlar undagi kuzatuvchanlik va topqirlik, tashhis qo'yishdagi teran va chuqur fikrlash jihatlariga urg'u berishgan. Bemor bilan ishlayotganda hech qachon mashhur nomini qo'shmagan. Odamni ko'rib, eshitib turardi – yuz-ko'zi, tovushi, yurish-turishida boshqalar ko'rmagan, ko'zi tushmagan belgilarni ilg'ashga urinardi.

Kezi kelsa, kamdan-kam hollarda o'zgalardan ham maslahat olib turishni bilardi. Bular ko'pincha maishiy masalalarga doir bo'lardi. E'tiborli tomoni, u bolalarni o'ta mohirlik bilan davolardi. Chexovning tibbiyotga ishonchi yuqori, e'tiqodi kuchli edi. Bu ishonchni hech nima va hech kim yengolmasdi. Esimda, bir kuni kimdir tibbiyotni Zolyaning «Doktor Paskal» romani asosida balandparvoz ohangda tahlil qilishga tushib ketdi.

– Zolyangiz bu borada hech vaqoni tushunmaydi va kabinetiga o'tirib olib, hammasini to'qib chiqaradi, – dedi u hayajonlanib, yo'tala-yo'tala. – U bir kelib, ko'rib ketsin-chi, qishloq shifokorlarimiz qanday ishlaydi, xalq uchun nimalar qilashyapti.

Qishloq shifokorlarini shunday so'zlar bilan ulug'lar, mehri bilan avaylardiki, bunga sifat topish mushkul. Ularning har bir e'tiborli qirralarini asarlarida chizib berar, joyi kelsa, ayovsiz tanqid ham qilardi.

9

Shunday naql yuradi: odamning o'limi ham o'ziga o'xshaydi. Shunda ko'z o'ngimda uning so'nggi yillari, oylari, kunlari va lahzalari gavdalanadi. Taqdir uni so'nggi manzilga olib borayotganda ham, ochilmagan qirralarini ochib berayotgandek, ishora qilayotgandek edi. Chexov og'ir dard bilan uzoq olishdi, judayam uzoq! Dardni mardona ko'tardi, sabr-matonat bilan o'tkazdi, tishini tishiga qo'yib, hech kimga nolimadi. So'nggi xatlaridagina beixtiyor yo'l-yo'lakay sog'lig'i haqida yozadi. «Sog'lig'im yaxshilandi, ammo hali ham davolanib yuribman...», «Hozirgina zotiljamni boshimni o'tkazdim, endi yaxshiman...», «Sog'ligim unchalikmas... kam yozyapman...»

U kasali haqida gapirishni yoqtirmasdi, buni so'rab qolishsa, jahli chiqardi. Har zamonda Arseniyadan u-bu narsani bilib qolardik. «Bugun ertalab juda yomon bo'ldi – qon ketdi», – derdi u shivirlab, boshini chayqab. Ba'zan Yevgeniya Yakovlovna siniq tovushda aytib qolardi:

– Bugun Antosha tun bo'yi bezovtalanib, to'lg'onib chiqdi, tinmay yo'taldi. Men devor orqasidan eshitib turdim...

Chexov o'z kasalining o'lchovi va miqdorini bilarmidi? Menimcha, ha. Ammo bunga shifokor va donishmand ko'zi bilan qarab, o'zini yo'qotib qo'ymadi. Yaqinlashib kelayotgan o'limga tik boqdi. Gohida ayrim mayda voqealarda buni bildirib qo'yardi. Uyqusizlik va asabdan dard chekayotgan bir xonim kelganida, unga xotirjam va past ovozda shunday degandi:

– Agar odamning nafas olishi – o'pkasi yaxshi bo'lsa, demak, xavotirga o'rin yo'q.

U oddiy, ongli va ta'sirchan tarzda vafot etdi. Uning so'nggi so'zi: «Men o'lyapman!» – bo'lgan deyishadi. Oxirgi kunlarida ham yurt qayg'usida yashadi – o'sha paytda davom etayotgan dahshatli va qonli yapon urushidan hayajon va tashvishga tushardi...

Uning dafn marosimini tush kabi eslayman. Sovuq, kulrang Peterburg, adashib-chalkashib ketgan shoshilinchnomalar, vokzalga yig'ilgan bir hovuch odamlar, «ustritsalar uchun vagon», Chexovni umrida ko'rmagan, eshitmagan va bilmagan, jonsiz jasadini vagonga ortayotgan stansiya boshliqlari. Keyin esa bunga butunlay zid manzara – Moskva, cheksiz qayg'u-alam, ming-minglab yetim qolgan-day bo'zlayotgan odamlar, yosh to'la ko'z-yuzlar va gullarga to'lib ketgan Novodevichye qabristoni.

Dafn marosimining ertasi kuni Chexov qabri yonida yig'ilish bo'lib o'tdi. Sokin iyul shomi, botayotgan quyosh nurida tovlanayotgan keksa arg'uvon daraxtlari egilganicha qimirlamay turibdi. Hazin va horg'in tovushda, chuqur nafaslarda ayollarning mayin nolasini chor-atrofga yoyilib ketadi. Shunda qalblarga og'ir va vazmin g'ussalar to'lib ketadi.

Qabristondan asta-sekin sukut ichida tarqaldik. Men Chexovning onasi oldiga bordim va ohista qo'llarini o'pdim. U esa g'amg'in va toliqqan ovozda shunday dedi:

– Boshimizga og'ir kulfat tushdi... Antosha endi yo'q...

O, bu sodda va jo'n, samimiy va yuraklarni titratib yuborguvchi Chexov so'zlari-ku! Bunda ovutish kamlik qilardi, birgina yu-patishning kuchi yetmasdi. Axir, shunday buyuk inson, ulug' qalb bilan bir umr birga yashagan insonlarning qayg'u- hasratlarini aritib bo'larmikin?! Biroq ular bilsinlarki, bu musibat, bu yo'qotish – barchamizniki. Shu narsa ularga dalda bo'lsin, dardlarini yumshat-sin, shunda bu benazir va toza nomning hech qachon o'lmasligi va unutilmasligiga imon keltiradilar. Hali ko'p yillar o'tadi, yuz yillik-lar kechadi. Vaqt ayni damda yashab o'tayotgan qanchadan-qancha nomlarni, odamlarni xotirasidan o'chirib tashlaydi. Ammo kelayot-gan yangi nasllar, avlodlar hamisha baxtli kunlar kunlar orzusi bilan nafas olgan Chexov taqdiri, bosib o'tgan yo'llarini yoddan chiqa-rishmaydi, nomini ehtiromlar bilan tilga olishadi.

TUSHLAR

1

Bolaligimda huzurimga shirin tushlar va xayollar tashrif buyurishardi. Men odatda uzoq vaqt derazam yonida o'tirib, tashqarini kuzatardim. Odamlar u yoqdan bu yoqqa yugurishar, uchrashib qolishar, bir-birining yonidan o'tib ketishar, jilmayishar, qo'l silkitishar, boshini osiltirib olgan otlar qo'shilgan aravalar gumburlar, ayollar, erkaklar, bolalar, itlar va enkaygancha egarda o'tirgan izvoshchilar ko'rinar edi. Bu manzaralar tinimsiz ko'cha bo'ylab oqib borardi.

Shunda xayolimga, odamlar o'zlarini ataylab tashvishli va shoshqin, befarq va begona qilib ko'rsatishadi, chunki ular eng ulkan va ulug'vor nimanidir umuntib qo'yishgan, degan o'y kelardi. Men esa o'sha payt, ana, u keldi, deb o'ylardim. Birdan tasavvurga sig'mas oniy lahzada dunyo bo'ylab yagona va mo'jizaviy unutilgan o'ylar oqib o'tardi va atrof-olam to'xtab qolardi. Odamlar, hayvonlar, toshlar, bulutlar – hamma-hammasi – jonsiz olam ham. Hayrat ichida bir seskanib tushardilar, qotib, jimib qolardilar va borliqqa quloq tutardilar. Shunda yer ostidan farishtalarning qiyomatga chorlaguvchi surnay tovushi eshitilardi.

Men esa bola ko'nglim titrab, qo'rqinch va chuqur ishonch bilan mo'jizani kutardim. Qorong'i ko'cha bo'ylab ikki qatorga terilgan, tilla zanjirlarga ulangan fonuslar shu'lalari uzayguncha kutardim.

2

Meni har oyda qayta-qayta ko'radigan tush qiynardi. Qorong'i va yalang'och xonada bir necha qo'rquvdan tushkunlikka tushgan, titratyotgan zaif damlar azob chekishardi. Men ham ular bilan birgaman. Ba'zilar devordan nari, ba'zilari burchakda tizzalarini qo'llari bilan quchoqlagancha o'tirishar, sekin-sekin orqa va oldga chayqalishardi. boshqalari esa sochlarini yulishardi. Ba'zilar orqa va oldinga yurib, bir-biri bilan uchrashib qolishdan qo'rqib chalg'itishar, qafasdagi yovvoyi hayvonlarday harakatlanishardi.

Qo'rquvdan muzlab qolgan lablardan na bir so'z, na bir tovush chiqadi. Ko'zlarimiz esa ko'rinmas iplar bilan eshik turgan joyiga

mixlanganday. Vaqti-vaqti bilan eshik ochiladi va shu zahoti ichimizdan biri tovush chiqarmay, itoatkorlik bilan boshini quyi solganicha eshik tomon yo'l oladi va devor ortida ko'zdan yo'qoladi. Eshik yana yopiladi.

Biroq biz shu bir lahzada to'q qizil nurga ko'milgan ulkan xonani ko'rib ulguramiz. Unda rangi oqargan, qiynalgan soyalar tebranadilar, og'riq va azob qichqiriqlarini eshitamiz va nihoyat, uni – Jallodni ko'ramiz!

U qimirlamay turadi, ulkan, kuchli va jiddiy. Qizil qo'ylak uning suyakdor tanasini siqib turadi, keng yuzi rangsiz. Bu – Jallod, uni shunday deb atashadi, chunki boshqa ismi yo'q.

Eshik yopiladi. Yana yerto'la va dahshat. Men hozir navbatim kelishini bilaman, jon achchig'ida boshimni qo'llarim bilan changalayman va shivirlayman:

– Yo'q, bo'lishi mumkinmas... Bu tush, shunchaki tush. Men hozir uyg'onaman!...

Biroq men uyg'onmayman, aksincha, muzlab borayotib, qo'rquvdan qaltirab, o'ylayman: « Agar men uxlaganimda uxlayotganim haqida o'ylamagan bo'lardim. Bu hammasi haqiqiy, mavjud hodisalar: bu azoblanayotgan, tilsiz sharpalar, qonli xona. Meni kuyayotgan Jallod... O'lim!»

Eshik ochiladi. «Mening navbatim», deb o'ylayman va itoatkorlik bilan o'mimdan turaman, vujudimning har bir bo'lagida dahshatni his etaman. Keng rangsiz yuzli Jallod men tomonga o'giriladi. Shundagina uyg'onib ketaman.

3

Biroq hozir tushimga tez-tez yer kiradi – bu ulkan tirik yadro, aylana turib, shiddat bilan qop-qora, cheksiz va noma'lum tubsizlikka uchib ketadi, aniq va sirli qonuniyatga bo'ysungancha uchadi. Yer atrofida quyuq zulmat, qon va murdalar hidiga to'lib-toshgan qizil qonli zulmat. Bu – muallaqlik, uning ustini qoplab olgan dahshatli yopishqoq bosinqirash yanada quyuqlashadi. Yer inqillaydi va tushlarida chayqalib turadi, uyg'onolmaydi.

Men g'arib va ajoyib, hayratomuz va anglab bo'lmas bir vatanni ko'raman. U men sevib qolgan ayolga o'xshaydi – badnom etilgan,

qonga bo'yalgan, qo'rqoq va aldangan. Men uni bemisl ulkanlikda ko'raman – Muz ummonidan to iliq dengizlar qadar, Marg'ibdan tortib afsonaviy Mashriq qadar; u haliyam yong'inlarda yallig'lanadi, qonga ko'milgan, murdalar bilan chulg'angan, butun vujudi azoblar va la'natlar ichida titraydi.

Uning boshi uzra qonxo'r tush suzib yuradi, tushida vahshiy to'dalar qah-qah urib, ayollar va keksalarni o'ldirashadi, go'daklarni ko'prik toshlariga urib, boshlarini bo'lib-bo'lib tashlaydilar. Bunday qizil zulmatda odamlar qo'lidan qon anqiydi.

Hamma yoqni qurushqoq va oriq qo'llar tozalab yuradi, og'izlari qiyshayib, besas faryod chekadilar:

– Non!

– Sabr qiling! – javob qaytarishadi ba'zilari.

– Jim bo'ling! – qichqiradi boshqalari.

Tanasi olovda kuyib qotib qolgan, chidab bo'lmas shafqatsizlik bilan qo'llari sug'urib olingan, ko'ksilari so'lib qolgan odamlarni ko'rdim.

– Bizning mehnatimiz – la'nat, o'zimiz esa qul bo'lishni istamaymiz! – besas fig'onlarni eshitaman.

– Chidang! – deyishadi birovlar.

– Jiming! – qichqiradi boshqalar. – Qullikka chidang! Yoki o'zingiz va itvachchalaringizga – o'lim.

Men mechkaylar va ularning oshqozonlariga sig'may, to'rt tomonda sochilib yotgan ovqatlar, yeguliklarni, yana odamlarga ishonmaydigan va boshqalardan bir burda nonni ham yashiradiganlarni ko'rdim; bilib-bilmay bir-birini o'ldirayotgan qullar, hamma yog'iga tupurib tashlangan va tepkilanib, ming bir azobda qolgan murdalarni ko'rdim.

Shunda men bu qonli dunyo tezda uyg'onishi lozimligini sezdim, menga shunday tuyuldi. Men bir kuni tunda yoki kunduz yong'inlar va zo'rliklar, qon va faryodlar ichra dunyo bo'ylab kimningdir sokin va dono, og'ir va adolatli, g'amg'in va sevinchli so'zi yangrashini bilardim.

Shunda hamma uyqudan uyg'onadi, chuqur nafas oladi o'ziga keladi. Shunda o'z-o'zidan yuqoriga o'qtalغان miltiqlar pastga tushiriladi, mechkaylarning yuzi uyatdan qizarib ketadi, umidsiz va

zaif odamlarning yuzlari nurga to'ladi, qon oqqan joylardan bir la-tif gullar unib chiqadi. Biz ularni jafokashlar qabriga guldasta qilib qo'yamiz. Shunda kechagi qul: «Endi qullik yo'q», – deydi. Janoblar esa: «Dunyoning egasi – insondir!» – deyishadi. Shunda nurlanib uyg'onayotgan Yer barchamizga beminnat onalik mehrini to'kadi: «Bolalarim! Bag'rimga keling, barchangiz teng va ozodsizlar. Men sutlarim mo'lligidan ularni ko'tarolmayapman. Keling, barchangizni to'ydiraman, barchaga yetib ortadi bu sutlar».

Bu tush tugab, uyg'onish boshlanishiga ishonaman. Biz olovrang va alvon tong yorug'ligida uyg'onamiz. Biroq bu – tun emas, tong-dir. Boshimiz uzra osmon tiniqlashadi. Saharlab daraxtlar shovullay-di! Tungi qora sharpalar ko'zdan yo'qoladilar.

Do'stlar! Erkinlik kuni tug'moqda!

Bizni qonli tushlardan uyg'otganlarga sharaflar bo'lsin.

Jafokash soyalar xotirasi abadiydir – ularga shon-sharaflar bo'lsin!

SEVASTOPOL VOQEASI

Men inson tanasini jizg'anak qilib kuydirib tashlagan mudhish gulxan haqida batafsil so'zlamochi emasman, negaki, bu jahon ta-rixi sahifalariga admiral Chuxnin nomi bilan muhrlandi. Ular gaze-talarda qisqagina qilib berilgan: matroslar namoyishlari, Pisarev va piyoda askarlarga otilgan o'qlar, ekipajlarni¹ armiyadan qaytarish, qasamyod va Brest xiyonati, Shmidtning «Ochakov»dan yo'llagan signali: «Qora dengiz flotini boshqaryapman», matroslarning Se-vastopol aholisiga ko'rsatgan ulkan beg'araz munosabati, nihoyat, «Ochakov» – oziq-ovqat yuk kemalariga batareyalar² joylashtirilib, uyushtirilgan birinchi xiyonat otishmalari.

Biroq oldindan aytib o'tmoqchiman. Bu bemisl mudhish fo-jjaniy yakuniga bag'ishlangan, uzundan-uzoq jandarmlarga xos g'alamis maqola «Qrim xabarnomalari»da multiqlar o'qalgan tas-virda chop etildi. Men muharrir Spiro janoblarini o'limni zo'rlik ustun qo'yolmagani uchun muhokama qilmoqchi emasman. Qah-

¹ Ekipaj – harbiy ulovlar tarkibi.

² Batareya – bir necha to'p yoki minomyot bilan qurollangan bo'linma.

ramonlikning ham o'z zinalari bor. U bundan ko'ra ushbu maqola ostiga imzo qo'yishni mualliflardan, Chuxnin shtabi adyutantlaridan so'rasa, yaxshiroq bo'lardi. Yo'l aniq: imzo mualliflik nafsigga huzur bag'ishlaydi.

Kun yarmidan oshdi. Biz soat uch-to'rtlarda Balaklavda zambaklarning birinchi tovushlarini eshitdik. Avvaliga biz buni podsho yoki imperator oilasidagidan biriga ko'rsatilayotgan ehtirom belgisi, deb o'yladik. Biroq otishma kuchayib ketdi, ketma-ket qirq marta o'q tovushi eshitildi. Buning ustiga, Sevastopol tarafdin qo'rquvdan es-hushini yo'qotgan odamlarga to'la aravalarini yeldirib, birinchi izvoshchilar yetib kelishdi. Ular mavhum va ma'nosiz so'zlarni qalashtirib tashlashdi.

«Ochakov»da yong'in, bir necha qayiqlar cho'ktirildi, dengiz kazarmasidan o'qsocharda o'q otishmoqda. Biz – ikki qishi Sevastopolga qaytayotgan izvoshda orqaga qaytdik. Bu inqilob olovi bilan yonayotgan shaharga kirishga rozilik birdirgan yagona izvoshchi edi. Keyin bilsak, u yerda uning oilasi qolgan ekan.

Qarshimizda turli-tuman aravalar tinimsiz o'tib turardi. Faytonlardan xilma-xil narsalarni tushishar, bu manzara vahimali edi. Bu o'lim talvasiga tushib qolgan odamlar tasvirlangan manzaraning bir bo'lagi edi go'yo. G'ildiraklar g'ildiraklarga tirkalar, odamlar g'azab ichida tishlarini takillatashar edi. Lekin hech kimning qo'lida olov yo'q edi.

Oqshom cho'kdi. Bizdan o'ng tomonda, ufqdan baland qoraygan osmon bo'ylab yoritgichlarning oqish nurlari yog'ilar, yorug'lik changali osmonni tutib turganga o'xshardi.

Biz odamlarni chaqirdik, so'rab-surishtirdik. Izvoshchilar noaniq javob berishardi:

– U yoqda otishma ketyapti.

Yoki:

– U yoqda hamma bir-birini otyapti.

Bittasi zaharxanda kinoya bilan:

– Boring, boring. O'zingiz ko'rasiz, – dedi.

Sevastopolga yo'l tog'lardan o'tadi. Biz yuqoriga ko'tarildik. Ulkan yong'in tutunlari buruqsirdi. Butun shaharga yoritgichlar-

dagi elektr nurlari quyilardi, ular trubalardan chiqayotgan jonsiz va ko'kish tutunda oqish, aylana va harakatsiz ko'rinardi. Shahar o'chirib tashlanganday tuyulardi. Faqat askar otryadlari ko'zga tashlanardi.

Kiraverishda, kazarma ro'parasida otlarni sug'ordik, shunda chindan ham «Ochakov» yonayotganini bildik. Ko'rfaz bo'ylab joylashgan Primorye xiyoboniga yo'l oldik. Kutganimizga qarshi o'laroq, hatto avvaldan ogohlantirilmasdan ham kirish bemalol edi. Admiral Chuxnin isyonchilarni jazolash qanday shafqatsiz bo'lishi mumkinligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldi. Bu paytda uning o'zi chetki bandargohda osib o'ldirilgan matroslar murdasi tagida gap sotib o'tirardi.

Primorye xiyobonidan tor va uzun ko'rfaz manzarasi yaqqol ko'rinib tutardi. Ko'rfaz toshli panjaralar bilan o'ralgan. Uning o'rtasida gulxan lovullaydi, suv siyohdan-da qop-qora. Ulkan kreyserning¹ to'rtidan uch bo'lagi olov ichida. Faqat hozircha kemanding burni omon, unga «Rostislav», «Uch avliy», «XII havoriy»lardan kelayotgan nurlar yopirildi. Yong'in gulxani yanada yorqinlashdi, kreyserning zirhli minorasi, doira shaklidagi boloxona ayvonida kichik-kichik qop-qora odam sharpalari kutilmaganda bo'linib-bo'linib ko'rinardi. Ulargacha bir chaqirimlik yo'l, biroq ko'zlar aniq ko'rmoqda.

O'zim haqida ham bir og'iz so'z. Hayotimda dahshatli, hayratomuz va yaramas voqealarni ko'p ko'rdim. Ayrimlarinigina mo'jizani eslaganday tilga olaman, xolos. Ammo, ehtimol, so'nggi nafasimgacha bu qop-qora suv, gurillab yonayotgan binolar, bir odamning ahmoqona fikri bilan yuzlab odamlarning hayotiga zomin bo'lgan so'nggi texnik so'zni unutmayman. Hatto hech kim admiral Chuxnin yong'inning qonli dunyosida iblis qiyofasida namoyon bo'lganini ham bilmasliklari, bunday deb o'ylamasliklari ham hech qachon yodimdan chiqmaydi. U o'zini shunchaki jazolanmay qolgan odamdan tutardi.

Meshchanlar haqidagi maqolasi uchun Gorkiyga ming ta'zim etaman. Bunday fikrlar voqealarni tezda anglab yetishga ko'mak

¹ *Kreyser* – tezyurar katta harbiy kema.

beradi. Primorye xiyobonining toshli panjaralaridan olisda turib, bu tomoshani ochko'zlik bilan ko'rayotgan meshchanlari safi borgani sari quyushlardi.

Shafqatsizlik oydinlashib borardi, ular orasida hayajon va xavotirga to'la shivir-shivirlar eshitilib qolardi:

– Jim bo'ling! U tomonda qichqirishyapti!...

Birdan jimlik, dahshatli jimlik cho'qdi. Shunda u tomondan zulmat va tun sokinligini yorib, cho'ziq baland tovushdagi qichqiriqlar yangradi:

– Biro-o-o-darlar!..

Takror va takror. Olov dasta-dasta bo'lib gurillardi, biz qop-qora odamlar sharpalarini yana ko'rdik. Zirhli po'lat mixparchinlar ham yorilib-yorilib, chirsillab tusha boshladilar. Bu bir-bir otilayotgan o'q ovozlarga o'xshardi. Chirsillashlar paytida qiziqqon meshchanlar qochishga urinar, ammo yana xotirjam tortib, o'z joylariga qaytishar edi.

Kichkina, kulrang va zaif askarlar kelishdi – bu litva polki. Ularda harbiylikdan asar ham yo'q. Oramizdan kimdir xunukkina bir askarga shunday dedi:

– Azizim, axir, odamlar yonyapti!...

Askar esa olovga tikildi-da, titroq lablari bilan shivirladi:

– Ey Xudoyim, Xudoyim, Xudoyim...

Ularning hammasida qaysidir bir kuchli odamga suyanish, uni orqa qilib, dahshat va qon ichida kimdir ularga yordam berishi mumkinligini bilish uchun yuzaga qalqib chiqqan qorong'i, hayvoniy va qo'rqinchli hissiyot sezilib turardi. Oldimizga bahaybat jussali, miqti, semiz odam keldi. Uning vujudida ham botirlik, ham xushomadgo'ylik qorishib ketgandi. Bularning barchasi xavotirli tun yarmida, yoritgichlarning elektr nurlari bilan yog'ilib turgan va olov ichida kuyib ado bo'layotgan kemada ro'y berayotgandi.

– Bu hali holva, birodarlar! Olov burungacha borib yetsa, o'shanda zo'r tomoshani ko'rasizlar! U yerda kryuyt-kamera¹ bor, ichi to'la porox!...

¹ Harbiy kemada porox saqlashga mo'ljallangan bo'lma.

Javob esa – odatiy, na hazil bor, na qizg'in so'zlar. Askarlar uning ortidan qayrilishdi. Ulkan uch trubali kreysler esa yonardi, yana o'sha vahimali va olis qichqiriq ko'kka ko'tarildi:

– Biro-o-o-darlar!..

Kutilmaganda chor-atrof yurakka qo'rquv soluvchi, til bilan ifodalab bo'lmas og'riqlar, kuchli chinqiriqlar, tiriklay yonayotgan tanalar, qisqa va chirt uzilgan qichqiriqlarga to'lib ketdi. Bularning hammasi u yoqdan kelardi. Shunda oramizdagilardan kimlardir Graf kemabandidagi qayiqlarga o'zlarini urishdi. Ana shunda admiral Chuxninning «qahramonona» shafqatsizligi guvohi bo'ldik.

Odatda Graf kemabandida bir necha yuzlab xususiy va jamoatchilik qayiqlari turardi, ularda «Rostislav», «Uch avliyo» va «XII havoriy» matroslari turishardi – ishonchli qalang'i-qasang'ilar. Odamlarni qutqarish uchun qayiqlar so'rashganda, ular suv va olov bilan qo'rqitishdi, eng yaramas so'zlar bilan haqoratlashdi va otishni boshlashdi. Demak, avvalboshdan ularga isyonchilarni qutqarishga yo'naltirilgan har bir harakatni taqiqlash va bunga uringanlarni jazolash uchun buyruq berilgan. Keyinchalik inson qoniga hirs qo'yganlar bu haqda nimalar deb yozishmasin, baribir fakt – faktligicha qoladi, buni tasdiqlaydigan yuzlab guvohlar bor, albatta.

Kreysler esa qop-qora suvga qonli dog'larni sachratib, sassiz yonardi. Boshqa qichqiriqlarni eshitmadik, lekin burunda va minorada odamlar ko'rinishardi hali. Bu yerda olomon ichida ko'p narsalardan xabar topdik. Yong'in boshlanishidan oldin «Ochakov»dagilarga eshkakli qayiqlar taklif etishgan, biroq matroslar rad etishgan. «Ochakov»dan qulab tushgan yaradorlar katerda suzib ketishayotganda, ularni sochma o'qlar bilan qarshi olishgan. O'zlarini suvga otganlarni esa o'qsochar bilan qirib tashlashgan. Qirg'oqqa garang-sirab chiqib olganlarni o'qlar bilan kutib olishgan, deyishadi. Shu oxirgisiga unchalik ishonmadim. Askarlar bu qadarlik ablahlikka qo'l urishmagan, chunki o'zlari ham kuchli darajada hayajonga tushishgan.

Yana zirhlangan qoplamalar ko'chib tusha boshladi, qichqiriqlar boshqa eshitilmadi. Barchani zaif g'azab, noilojlik va qasos o'ti bo'g'ardi. Biz qaytdik. Kreyser tonggacha yondi. Rasmiy xabarlarga ko'ra, ikki yoki uch qurbonlar kuzatilgan. Yozg'uvchi admiral Chuxnin juda yaxshi va bilib yozadi. Kuchsizlashgan sotsial-demokratlarga qarshi ko'tarilgan ta'qiblar avj oldi. Shuni betama qayd etish lozimki, ertadan keyin g'olib ajoyib rus zobitlarining ichidan chiqib keladi – bugungi chaqiriqdan to portlashgacha bo'lgan vaqtning ichida – albatta chiqib keladi; bu haqda esa navbatdagi xatimda batafsil yozaman...

Askarlar tushkunlikda. Tavba qilishdi, degan o'ydaman.





MUNDARIJA

QISSALAR

Yoqut ko'zli bilaguzuk (<i>Lutfulla Olimov tarjimasi</i>)	4
Olesya (<i>Ma'suma Ahmedova tarjimasi</i>)	56

HIKOYALAR

Breget (<i>Dilorom Abdurahmon qizi tarjimasi</i>)	144
Buyurtmaga binoan (<i>Nilufar Hayitova tarjimasi</i>)	154
Jazo mashinasi (<i>Lutfulla Olimov tarjimasi</i>)	165
Zumrad ot (<i>Oygul Suyundiqova tarjimasi</i>)	177
Lenochka (<i>Nilufar Hayitova tarjimasi</i>)	193
Millioner (<i>Lutfulla Olimov tarjimasi</i>)	203
Minnatli non (<i>Dilorom Abdurahmon qizi tarjimasi</i>)	213
Moviy yulduz (<i>Abdunabi Abduqodirov tarjimasi</i>)	219
Nastarin voqeasi (<i>Temur Tangriberganov tarjimasi</i>)	233
(No)sog'lom jinnining hikoyasi (<i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>)	238
Paganini skripkasi (<i>Abdunabi Abduqodirov tarjimasi</i>)	247
Sabur (<i>Dilorom Abdurahmon qizi tarjimasi</i>)	253
So'nggi ijro (<i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>)	261
Tergov (<i>Lutfulla Olimov tarjimasi</i>)	268
Tungi binafsha (<i>Abdunabi Abduqodirov tarjimasi</i>)	282
Qismat va omad (<i>Abdunabi Abduqodirov tarjimasi</i>)	290
Halol yolg'onchilik (<i>Lutfulla Olimov tarjimasi</i>)	297

OCHERKLAR

Chexov xotirasiga (<i>Oygul Suyundiqova tarjimasi</i>)	312
Tushlar (<i>Oygul Suyundiqova tarjimasi</i>)	340
Sevastopol voqeasi (<i>Oygul Suyundiqova tarjimasi</i>)	343

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

ALEKSANDR IVANOVICH KUPRIN

TUNGI BINAQSH

Qissalar, hikoyalar va ocherklar

Tarjimonlar: **L. Olimov, M. Ahmedova, D. Abdurahmon qizi,
N. Hayitova, O. Suyundiqova, A. Abduqodirov, T. Tangriberganov,
S. Saidmurodov, A. Fayzulla**

Nashr uchun mas'ul *Azimboy Boboniyozov*
To'plab, nashrga tayyorlovchi *Durdona G'aybullayeva*

Muharrirlar: *Muqaddas Hafizova, Gulnoza Habibova*

Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*

Texnik muharrir *Lina Xijova*

Musahhah *Maqsuda Ishanxanova*

Kichik muharrir *Matluba Salimova*

Kompyuterda sahifalovchi *Saodat Aziztoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 28-iyulda ruxsat etildi. Bichimi 60×90^{1/16}.
Ofset qog'oz. «Times New Roman» garniturasida
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 22,0.
Nashr tabog'i 18,70. Adadi 10000 nusxa.
Buyurtma № 21-39.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi. 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Kuprin, Aleksandr Ivanovich

**K 93 Tungi binafsha [Matn]: qissalar, hikoyalar va ocherklar /
A.I. Kuprin. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2021. – 352 b.**

ISBN 978-9943-7331-0-7

UO‘K 821.161.1-31

KBK 84(2Ros=Rus)





A.I. Kurpin

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7331-0-7



9 789943 733107